O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I YA

# J I N O Y A T  H U Q U Q I

## U M U M I Y  Q I S M

*DARSLIK*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan oliy ta’limning 380000 – «Huquq» sohasi
5380100 – «Yurisprudensiya» yo‘nalishi bo‘yicha
darslik sifatida ruxsat berilgan

Toshkent 2009

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*
*Tahririyat-noshirlik hay’atida ma’qullangan*

**Taqrizchilar:**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o‘quv kurslari katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar doktori, professor **B. X. Po‘latov**;

Toshkent davlat yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasi mudiri, yuridik fanlar doktori **B. Axrorov**

**Mualliflar jamoasi:**

**A. S. Yakubov,** yuridik fanlar doktori – muqaddima, 1, 2, 9, 10, 11-boblar; 8-bob (R. Kabulov bilan hammualliflikda); 17-bob (Z. S. Zaripov bilan hammualliflikda); 18, 19-boblar (Q. Mirzajanov bilan hammualliflikda); 20-bob B. A. Mirenskiy bilan hammualliflikda);

**R. Kabulov,** yuridik fanlar doktori – 4, 5, 6, 7-boblar; 8-bob (A. S. Yakubov bilan hammualliflikda);

**Z. S. Zaripov,** yuridik fanlar doktori, professor – 16-bob; 17-bob (A. S. Yakubov bilan hammualliflikda);

**M. M. Qodirov,** yuridik fanlar doktori – 12, 13-boblar;

**Q. Mirzajanov,** yuridik fanlar doktori, professor – 18-bob; 19-bob (A. S. Yakubov bilan hammualliflikda);

**B. A. Mirenskiy,** yuridik fanlar doktori, professor – 14-bob; 20-bob (A. S. Yakubov bilan hammualliflikda);

**Y. S. Pulatov,** yuridik fanlar doktori, professor – 3, 15-boblar.

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.

## MUQADDIMA

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat hayotida yangi huquqiy negizni shakllantirish, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda umumiy huquq-tartibotga izchil rioya qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi yangi siyosatni shakllantirishga sabab shuki, u, o‘z navbatida, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazariy jihatdan isbotlaydigan asosiy g‘oyalar, vazifa va qoidalar tizimidan iborat ilmiy prinsiplarni yaratish hamda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini amalga oshirishning boshqa yo‘nalish va shakllariga asos bo‘lgan jinoyat qonunlarining ishlab chiqilishini talab etadi.

So‘nggi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 22-sentabrdagi 16-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi[1] qabul qilinib, u 1995-yil 1-apreldan qonuniy kuchga kirdi. Sud islohotini amalga oshirish, shaxs huquq va erkinliklarini himoyalash tizimini takomillashtirish, mamlakat jinoyat qonunlarini demokratlashtirish sohalarida olg‘a qadam bosildi.

Darhaqiqat, sobiq Ittifoq jinoyat qonunlari totalitar tuzum manfaatlarini aks ettirardi. Sotsialistik imperiyaning inqirozi, O‘zbekistonning chinakam mustaqillikni qo‘lga kiritishi, mamlakatimiz davlatchiligining rivojlanishida yangi tarixiy bosqich bo‘lib, mazkur hol respublikamiz Konstitutsiyasida o‘z aksini topdi. Bu jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat huquqiga oid choralarni isloh qilishga turtki bo‘lgan sabablardan biri bo‘ldi.

Sobiq Ittifoq davridagi jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatiga totalitar mazmun singdirilgan edi. Jinoyat huquqining sinfiylik mohiyati haqidagi mafkuraviy tasavvur hamda sovet sotsialistik jinoyat huquqining burjua, kapitalistik huquqlari bilan qiyoslaganda, uning yangi va oliy tipdagi jinoyat huquqi sifatidagi afzalligidan kelib chiqib, keyingisining «xalqqa qarshi reaksion» mohiyati doimiy ravishda keskin tanqid qilinardi. Chunonchi, yaqin o‘n yil ichida jinoyatchilik inqirozining muqarrarligi haqida siyosiy mafkuralashtirilgan yanglish g‘oyalar yuzaga kelgan bo‘lib, jinoyatchilikning asosiy sababi «kishilar ongida eskilik sarqitlari»ning mavjudligi hamda mazkur muammoni kommunizm qurish orqaligina hal qilish mumkin, degan uydirmadan iborat edi. Mazkur farazlar avvalgi qonun ijodkorlari uchun asos bo‘lib xizmat qilganligi sababli, jinoyatchilikka qarshi kurashning real strategiyasini ishlab chiqish, jinoyatchilik istiqbollarini belgilash imkonini bermadi. Bu Jinoyat kodeksiga ko‘plab qo‘shimchalar va o‘zgartishlar kiritilishiga olib kelar va umuman qonunlarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda, jinoyat huquqiga oid normalarni qo‘llash samaradorligini pasaytirardi.

Jinoyat qonuniga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar odatda kon’yunkturaga oid bo‘lardi, chunki jinoyat huquqiga tegishli qat’iy siyosatning o‘zi yo‘q edi. Xususan, Jinoyat kodeksiga hukmron kommunistik partiya tuzilma

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 1-м.

va idoralarining o‘ziga xos manfaatparastlik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning aslida qalbaki bo‘lgan yutuqlarini namoyish qilish maqsadida, siyosiy yo‘lboshchilarning har qanday yo‘l-yo‘riq va mulohazalarini darhol inobatga olishga majbur bo‘lgan unsur sifatida qaralardi. Bundan tashqari, mazkur o‘zgartishlar ular qabul qilingan paytda ustun bo‘lgan turli nazariy prinsiplarni aks ettirardi. Shuning uchun ham qonundagi ba’zi moddalar mazmuniga bir-biriga o‘ta zid o‘zgartishlarning bir necha martalab kiritilishi bejiz emas edi.

Jinoyat qonuniga nisbatan manfaatdorlik nuqtai nazaridan yondashish unga turli hodisalar, shuningdek, jinoyatlarga xos bo‘lgan va jamiyat uchun xavfli bo‘lmagan qilmishlarni bartaraf etishning universal vositasi sifatida qaralishida ham namoyon bo‘ldi. Chunonchi, jinoiy jazo bilan qo‘rqitish xavfi ostida u yoki bu qilmishga nisbatan jinoiy javobgarlik tayinlansa, u darhol yo‘q bo‘ladi, degan fikr hukmron edi. Vaholanki, ularning ko‘pini, eng avvalo, jinoyat huquqiga oid vositalar yordamida emas, aksincha, maqsadga muvofiq ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa siyosatni amalga oshirish orqali bartaraf etsa bo‘lardi.

Shunday qilib, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatida aniq strategiyaning bo‘lmaganligini islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadigan sabablardan biri deb e’tirof etish mumkin. Huquqiy ijodkorlik amaliyoti va nazariyasi o‘rtasidagi umumiy aloqadorlikning yo‘qligi ham asosiy sabablardan biridir. Qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish, odatda, olim va amaliyotchilar uchun «yopiq soha» bo‘lib, ular nafaqat yangi qonun loyihalarini ishlab chiqishga jalb qilinmagan, balki ularning mazkur qonun loyihalarini muhokama qilishiga ham yo‘l qo‘yilmagan edi. Mazkur mulohazali holatni quyidagicha tushuntirish mumkin. Chunonchi, bir tomondan, jinoyat huquqi fanining yutuqlari faqat olimlargagina tegishli bo‘lib, ular jinoyatchilikning yuzaga kelayotgan yangi shakllariga qarshi kurashning yetarli quroliga ega bo‘lmagan amaliyot xodimlari sifatida nohaq tanqid qilingan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, bu qonun chiqaruvchi hokimiyatning beparvoligi va sustkashligini yashirish uchun ataylab amalga oshirilgan edi.

Ilmiy g‘oyalarga yetarlicha ahamiyat berilmaganligi, ko‘pgina xalqaro huquqiy jinoyat normalarini mensimaslik, umuminsoniy qadriyatlarga ikkinchi darajali deb qarash ehtiyotsizlik orqali sodir etilgan jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik, iqtisodiy jinoyatlar, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda boshqa huquq va erkinliklariga qilinadigan tajovuzlarga qarshi kurashning huquqiy asoslari mavjud emasligiga sabab bo‘ldi. Qonunda ilmiy-texnikaviy yutuqlarga asoslangan ba’zi ta’rif va tushunchalarni siyosatdan xoli qilishga doir takliflar ham inobatga olinmagan edi.

1959-yilda O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi qabul qilinganidan keyin respublika qonun chiqaruvchi organiga statist vazifasi berildi, xolos. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, xususiy huquqiy asosni yaratishga sabab bo‘lgan shartlarni tahlil qilar ekan: «…qonun chiqarish tashabbusi Moskva Kremlining qo‘lida edi. Respublika qonun chiqaruvchi organlari Ittifoqda qabul qilingan qonunlarni, partiya va hukumat qarorlarini go‘yoki

respublikaga moslab ko‘chirib olardilar, xolos. Qabul qilinadigan ko‘pgina qarorlar, aslini olganda, eklektik ruhda bo‘lib, haqiqiy shart-sharoitdan uzilib qolgan, ba’zan esa respublikaning milliy xususiyatlariga va an’analariga, manfaatlariga zid bo‘lar, uning mustaqilligini kamsitar edi…»[1], – deb asosli ravishda ta’kidlagan edi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati sohasida respublika qonun chiqaruvchi organining vazifasi Ittifoq darajasida qabul qilingan yangi qonunlarni ro‘yxatga olish va tizimlashtirishdan iborat bo‘lib, ularning har biri go‘yoki «SSR Ittifoqi manfaatlariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar»ni o‘zida aks ettirgan moddalarni qamrab olgan edi. Respublika qonun chiqaruvchi organi sekin-asta qonun chiqarish jarayonidan chetlashtirilgan edi. Bu – mazkur salbiy oqibatlarning yana biri.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng jinoyat qonunlarini isloh qilish kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qoldi. Demokratik huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini yaratish, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, shaxsning xalqaro hamjamiyat e’tirof etgan huquq va erkinliklarining tan olinishi yangi qonunlarni yaratish yoki amaldagi qonunlarni takomillashtirish bilan cheklanishdan iborat masalani hal qilishni talab etardi.

Mazkur masala aslo o‘ylab topilmagan, aksincha, o‘tish davri sharoitida zamonaviy huquqiy asosni yaratish orqali yangi davlatchilikni qurish bo‘yicha siyosiy irodani amalga oshirish, eng asosiysi, odamlar ongidagi totalitar tuzum qoldiqlariga barham berish zarur edi. Bunda qonunlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lardi, zero yangi sharoitda ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotini belgilashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklar hamda jinoyat huquqiga oid muhofazalash zaruratini bartaraf etgan bo‘lardi. Shunday bo‘lsada, bu kabi yondashuv sobiq Ittifoq davrida, yuqorida aytib o‘tilganidek, anchagina badnom bo‘lgan edi. Shu va shunga o‘xshash boshqa hollar bunday yondashuvdan voz kechishga sabab bo‘ldi.

Jinoyat huquqiga oid islohot O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasiga muvofiq jinoyat va jazo haqidagi qonunlarni yaratishni nazarda tutardi. Chunonchi, mazkur qonunlar jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoyat huquqiga oid vositalarning samaradorligini oshirishga imkon berardiki, bu, o‘z navbatida, jinoyat-huquqiga oid normalardagi qoida va taqiqlarni buzgan har qanday shaxsga nisbatan qonuniy jazo qo‘llashning muqarrarligidan iborat yagona maqsadni amalga oshirishni ta’minlaydi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining jinoyatchilikni kamaytirishdan iborat istiqbolli maqsadini amalga oshirishning huquqiy negizi bo‘lib xizmat qiladi.

Jinoyat huquqi sohasidagi islohotlar jarayonida hal qilinishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifalar qatoriga O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquq normalarida mustahkamlangan qadriyatlar tizimini aks ettirish;

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Т., 1995. – 29-б.

mamlakatda va Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-etnik, konfessional hamda ma’naviy-axloqiy sharoitni haqqoniy ifodalash; davlatchilik va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti jarayonidagi istiqbolni hisobga olish, ularni jinoyat huquqi bilan himoyalashning ijtimoiy va kriminologik asoslanganligi; yuridik shaxslar va fuqarolar hayotiga jinoyat huquqi vositalari bilan «aralashishning» oqilona chegaralanishi; ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha to‘plangan tajribani hisobga olish va avvalgi qonunlar afzalliklarining izchil inobatga olinishini ta’minlash; jinoyatchilikning tuzilishi va o‘zgarishidagi asosiy prinsiplar hamda demokratik, iqtisodiy o‘zgarishlarning muqarrarligini ta’minlashga yo‘naltirilgan zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining asosiy manbalaridagi ijobiy o‘zgarishlar; jamoatchilik fikri, huquqiy ong va qonunga bo‘ysunish darajasi, huquqiy madaniyat saviyasi, ilmiy-nazariy ishlanmalar va takliflarni iloji boricha to‘liq qabul qilish; xalqaro huquqning jinoyat huquqiga oid umum e’tirof etgan normalarini qabul qilish; jinoyatga qarshi kurashning real ijtimoiy boshqaruv imkoniyatlarini hisobga olish; jinoyat qonunlarining real amalga oshiriladigan vazifalarini belgilash; ularni iloji boricha to‘liq shakllantirish; jinoyat huquqi prinsiplarini qat’iy belgilash zaruratidan iborat vazifalar kiradi.

Jinoyat huquqi sohasidagi islohotning yuqorida aytib o‘tilgan maqsad va vazifalarini quyidagilar yordamida hal etish mumkin: jinoyat qonunlarining vazifalarini amalga oshirish nuqtai nazaridan qat’iy yo‘naltirilgan holda barcha institutlar va normalarni qayta qurish; jinoyat huquqi prinsiplarini normalar, boblar va bo‘limlarda iloji boricha aks ettirish va aniqlashtirish, kriminalizatsiya va dekriminalizatsiya asoslari hamda kriminalizatsiya prinsiplarining kompleks va tizimli qo‘llanishini hisobga olish; jinoiy qilmish va uni sodir etgan shaxsning jamiyat uchun xavfliligini hisobga olgan holda ijtimoiy va kriminologik asoslangan jinoiy javobgarlikni tayinlash; davlat va aholi uchun o‘ta muhim ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladigan va retsidiv jinoyatlarni sodir etadigan shaxslarga nisbatan jinoyat huquqiga oid normalarning qat’iy choralarini saqlab qolish; qonunda jinoyat huquqining siyosiy va ijtimoiy xususiyatda qo‘llanuvchi institutlari va jinoyatlarining tarkibiy tushunchalari orasidagi adekvat o‘zaro munosabatni ta’minlash; O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar tarkibidagi davlat va jamoat hayotining turli sohalarida mavjud bo‘lgan jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi yo‘riqnoma va taqiqlarni hisobga olish; qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilish; qonun moddalarining aniqligiga erishish maqsadida qonun tiliga qo‘yiladigan talablarga amal qilish; qonunlarda qo‘llanadigan huquqiy atamalarni birxillashtirish; mazkur atamalarni sud-tergov ehtiyoji chegaralarida qisqartirish va hokazo.

Jinoyat huquqining maqsad va vazifalarini to‘liq aks ettirish va amalga oshirish asosan zamonaviy jinoyat qonunlarining umumiy jihatlariga bog‘liq. Zero, mazkur masalaga ikki xil yondashuv mavjud. Bunda quyidagi ziddiyatni hal qilish kerak, ya’ni: ijtimoiy xavfi katta bo‘lgan va shunga muvofiq ravishda eng og‘ir jinoiy javobgarlikni nazarda tutgan jinoyatlarni o‘zida mujas-

samlashtiruvchi «ixcham» qonun loyihasini yaratish yoxud u qadar muhim bo‘lmagan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi xulq-atvorni davlat va jamiyatning jinoyat huquqiga oid choralar yordamida nazorat qilishiga imkon beradigan kodeksni yaratish.

Mazkur masalani hal qilishda birinchi yondashuvning ma’lum darajada maqsadga muvofiqligiga qaramay, unda bir qator salbiy tomonlar borki, ular yaratiladigan qonunning bir qator afzalliklariga putur yetkazadi. Xususan, uning asosiy kamchiligi radikalizm bo‘lib, «kichik», ammo qat’iy kodeksni yaratish, jinoyat huquqining ko‘p yillar davomida shakllangan ko‘pgina asosiy qoidalarini tubdan qayta qurishni talab etadi. Bu, o‘z navbatida, qonunda vorislik an’anasini buzibgina qolmay, balki huquq-tartibot organlarida jinoyatchilikka qarshi kurashning rusum bo‘lgan va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan shakl va usullaridan voz kechishni bildiradi, ya’ni huquqning boshqa: jinoyat-protsessual, ma’muriy, operativ qidiruv, jinoyat-ijroiya kabi sohalarining huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, kriminallashgan xulq-atvor haqidagi masalani hal qilishda kriminalizatsiya huquqiy prinsiplarining butun majmuini hisobga olish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, besamar yoki asossiz qonun qabul qilish xavfini tug‘diradi. Shuningdek, bu uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini pasaytiradi. Chunonchi, ular qatoriga nafaqat an’anaga ko‘ra umumiy jinoyatlar sifatida ko‘riladigan xulq-atvorning talay qismi, balki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan barcha qilmishlar ham kiradi. Ularning hammasi yoki ko‘p qismi ma’muriy adliya sohasiga tegishli bo‘lib, undagi huquqiy choralarning samaradorligi hozirgi bosqichda jinoyat huquqiga oid choralarga qaraganda yengilroq hisoblanadi. Bundan tashqari, har qanday radikalizm, ayniqsa, qonun ijodkorligi jarayonida o‘ziga xos inqilob hisoblanadi. Biroq, jahon tarixiy tajribasining ko‘rsatishicha, har qanday inqilob kamdan-kam hollarda ijtimoiy foydali natijalarga sabab bo‘ladi, aksincha, jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘ladi hamda ichki buzilish va buhronlarni yuzaga keltiradiki, ularning ta’siri yillar davomida bilinib turadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan sabablar demokratik jinoyat huquqi prinsiplari yetarli darajada to‘liq amalga oshirilgan va davlatimizning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining eng muhim g‘oyalari aks etgan qonunlarni ishlab chiqishga turtki bo‘ldi. Bu esa, 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida o‘z aksini topib, jinoyat huquqi fani hamda zamonaviy qonun ijodkorligi amaliyoti sohasida eng katta yutuq bo‘ldi.

Ma’lumki, hayotda mukammal qonunlar bo‘lmaganligi sababli, jinoyat qonunlari ham kelajakda takomillashtirishni talab qiladi. Chunonchi, jinoyat qonunida avvalgi O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqiga notanish bo‘lgan yangi moddalar juda ko‘p. Shuningdek, jinoyat qonunining mavjud bo‘lgan institutlariga ham o‘zgartishlar kiritilgan.

Biroq, yangi Jinoyat kodeksiga O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarini isloh qilishga doir asosiy prinsiplarni tatbiq etishning imkoni bo‘lmadi. Ushbu hol tabiiy bo‘lib, buning sababini tushuntirsa bo‘ladi. Ma’lumki, keyinchalik qonun maqomini oladigan loyiha u yoki bu ma’noda o‘zaro kelishuv

mahsuli bo‘lib, uni ishlab chiqish nazariyotchi va amaliyotchi olimlarning turli nuqtai nazarlari, alohida hodisalar haqidagi ijtimoiy tadqiqot yoki turmush tajribasidan kelib chiqqan tasavvurlariga asoslangan ilmiy dalillar yuzasidan bahs-munozara sharoitida yuzaga keladi, bu esa, o‘z navbatida, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, dunyoqarash va boshqa sabablar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Pirovardida, bularning hammasi qabul qilingan jinoyat qonuni loyihasini tayyorlash va muhokama qilish jarayonida to‘liqligicha o‘z aksini topdi. Biroq, hamma dalillar, ya’ni ikkinchi darajali masalalar bilan birga, muhim masalalar bo‘yicha bildirilgan va ko‘pincha bir-birini inkor etuvchi fikrlarni hisobga olish imkoniyati bo‘lmaganligi bois, o‘zaro kelishuvga asoslangan yagona ishonchli yo‘lni tanlash maqsadga muvofiq tuyuladi.

Binobarin, yangi Kodeksning barcha qoidalarini ham muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi, zero kelishib qabul qilingan qarorlar hamma vaqt ham qonunning eng maqbul qoidalarini ishlab chiqish imkonini bermaydi. Bundan tashqari, amaliyotchilarning alohida masalalar bo‘yicha «mutaassibligi» hozirgi sharoit va yaqin istiqbolda dolzarb bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator muammolarni qonun yuzasidan hal qilishga imkon bermadi. Bu esa, fikrimizcha, bari bir keyinchalik qonuniy tartibga solinishi kerak edi, zero o‘tish davriga yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi xosdir. Zotan, buni keyinchalik hayotiy tajriba ko‘rsatgan bo‘lib, jinoyat qonuni qabul qilinganidan so‘ng unga qator qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildiki, ularning ba’zilari haqida qonun loyihasini tayyorlash jarayonida taxmin qilingan edi. Darhaqiqat, yangi jinoyat qonuni qabul qilindi, qonuniy kuchga kiritildi va, shak-shubhasiz, unga ham mutaxassislar, ham keng aholi qatlami amal qilishi kerak.

Qonunni qo‘llash nuqtai nazaridan jinoyat qonunini puxta bilish, undagi normalarga qat’iy rioya qilish yuqori malakaga ega mutaxassis bo‘lishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu bois, huquqiy bilim yurtlarida tanlanadigan mutaxassislikdan qat’i nazar, umumiy kasbiy tayyorgarlik saviyasiga erishish maqsadida majburiy o‘quv fani sifatida «Jinoyat huquqi» o‘qitiladi.

Jinoyat huquqi ixtisoslashtiruvchi fanlarning biri bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida huquqiy kadrlarni tayyorlashda umumiy kasbiy ahamiyatga ega. Jinoyat huquqini o‘qitish jinoyat qonunining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mazmuni, uni tashkil qiluvchi norma va institutlarning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish hamda ularni ilmiy tahlil qilish usullarini egallashni nazarda tutadi. Jinoyat qonunini o‘rganish jarayonida tinglovchilar hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimi va siyosatining mohiyati va taraqqiyot prinsiplari, jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoyat huquqiga oid imkoniyatlari va chegaralari haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradilar.

Jinoyat huquqini o‘qitishning maqsadi tinglovchilarda chuqur nazariy bilimlarni shakllantirish hamda shu asosda huquq-tartibot va sud organlarining bo‘linmalari va xizmatlariga yuklangan vazifalarni samarali hal qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashdan iborat. Kursning asosiy vazifalari tinglovchilarga jinoyat huquqi fanining asosiy tushuncha, prinsip va qonun-qoidalari haqida izchil nazariy bilim berish, ularning amaldagi jinoyat qonunlaridan to‘g‘ri foydalanish, jinoyat huquqi normalarini to‘g‘ri izohlash va

qo‘llash, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan yangi Jinoyat kodeksi hamda N–380000 – «Huquq» sohasi B–380100 – «Yurisprudensiya» yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim uchun «Jinoyat huquqi» fanidan ishlab chiqilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Shu bilan birga, darslikdan huquq sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydigan boshqa huquqiy bilim yurtlari ham foydalanishlari mumkin. Zero, unda jinoyat qonunining Umumiy qismini tashkil qiluvchi barcha mavzular yoritilgan.

Darslikni O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida faoliyat yuritayotgan yuridik fan doktorlarining ijodiy jamoasi tayyorlagan bo‘lib, unda jinoyat qonunida e’tirof etilgan va mustahkamlangan qonun-qoidalarga nisbatan mualliflik nuqtai nazari aks ettirilgan. Shunday bo‘lsa-da, darslikda alohida mulohazali muammolar mavjud bo‘lib, ularning fikriga boshqa olimlar hamda darslik hammualliflari qo‘shilmasliklari mumkin.

# I bob
# «JINOYAT HUQUQI» TUSHUNCHASI, UNING VAZIFALARI, PRINSIPLARI VA TIZIMI. JINOYAT HUQUQI FANI

## 1. «Jinoyat huquqi» tushunchasi, uning vazifalari, predmeti va metodologiyasi

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar sharoitida, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash, huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini qo‘riqlashning ishonchli kafolatini ta’minlash muammolari alohida ahamiyat kasb etmoqda. «Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o‘tish, – deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov, – afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o‘sishi, nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug‘diradi»[1].

Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi barcha huquqiy tizim sohalarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va yangilash, ularni xalqaro standartlar hamda umum e’tirof etgan qadriyatlarga muvofiqlashtirish zaruratini shart qilib qo‘ydi. O‘tish davrida mustahkam huquqiy asosni shakllantirish huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning birinchi bosqichidagi kechiktirib bo‘lmas vazifalardan biri bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so‘zga chiqqan Prezident Islom Karimov, Oliy Kengashning oxirgi chaqirig‘iga baho berib, u O‘zbekiston mustaqilligini e’lon qildi, davlat mustaqilligiga siyosiy va huquqiy poydevor tayyorladi va qo‘ydi, shuningdek, u tomonidan erkin bozor munosabatlariga o‘tishga qodir bo‘lgan ochiq demokratik jamiyat qurishga asos bo‘lib xizmat qilgan o‘ta muhim qonunlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan[2], deb ta’kidlab o‘tdi.

Qabul qilingan qonunlar ichida maqsadi kundalik hayotning barcha sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etishni ta’minlash va himoyalashdan iborat qonunlar alohida o‘ringa ega bo‘lib, mazkur qonunlar qatoriga jinoyat qonunini ham kiritish lozim. Jinoyat qonunining asosiy vazifasi o‘ta muhim ijtimoiy munosabatlarni qo‘riqlashdan iborat bo‘lib, ushbu vazifani bajarmay turib, qo‘yilgan maqsadga erishish, qo‘riqlanayotgan ijtimoiy munosabatlarga qilinadigan tajovuzlarning oldini olish va sodir etilgan jinoyat hamda uni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga davlat o‘rnatgan

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 85-б.

[2] Qarang: *Каримов И. А.* Ўзбекистонни сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – 4-б.

majburlov choralarini qo‘llash orqali ta’sir etish imkoniyatini amalga oshirib bo‘lmaydi. Shunday qilib, yangi jinoyat qonunining qabul qilinishi jinoyat huquqida ishlatiladigan boshqa tushunchalarga tuzatish kiritish, ularni yangicha sharhlash imkonini berdi.

«Jinoyat huquqi» tushunchasi bir qancha ma’nolarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: a) huquq sohasi; b) qonunchilik sohasi; d) fan sohasi; e) o‘quv fani.

Jinoyat huquqi huquqning mustaqil sohasi bo‘lib, O‘zbekistonda zamonaviy huquq tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi. Zero, u huquqning umumiy nazariyasiga muvofiq tarzda umuman huquqqa xos bo‘lgan zarur belgilarga ega. Shunga ko‘ra, jinoyat huquqi mustaqil soha sifatida o‘z predmeti, usullari va vazifalari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

Jinoyat huquqi qonunchilik sohasi sifatida davlatning oliy qonun chiqaruvchi organi – Oliy Majlis chiqargan qonun va normalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplari, ayrim qilmishlarning jinoiyligi va jinoiy jazoga loyiqligi, jinoiy javobgarlikka tortish va jinoiy jazoni o‘tashdan ozod qilish asoslari va me’yorlari, jinoyat huquqiga oid ta’sirning jinoiy jazo hisoblanmaydigan hamda jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida ijobiy va ijtimoiy foydali xulq-atvorni rag‘batlantiruvchi boshqa ta’sir choralarini qo‘llashni belgilaydi. Mazkur tushuncha jinoyat huquqini huquqiy soha sifatida tushunishdan birmuncha torroq ma’noga ega.

Jinoyat huquqi fan sohasi sifatida jinoyat qonunlari, huquq va fan sohalarining rivojlanish tarixi; amaldagi qonunlar; jinoyat huquqiga oid normalarni qo‘llash samaradorligi; xorijiy davlatlarning jinoyat huquqi va qonunlari; xalqaro jinoyat huquqi normalari; jinoyat qonunlarini qo‘llashning nazariy muammolari; jinoyat huquqi sotsiologiyasi; jinoyat qonunlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf tug‘diruvchi xulq-avtorning turli shakllari va boshqa shunga o‘xshash muammolarning kelib chiqish sabablari va shartlari kabilarni o‘rganishga qaratilgan huquqiy qarashlar, tasavvurlar va g‘oyalar yig‘indisidan iborat.

«Jinoyat huquqi» atamasi bilan o‘quv fani ham nomlanadi va u yuridik mutaxassislikka oid akademik, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tinglovchilar, kursantlar va talabalarga o‘rgatiladi.

Huquq, fan va o‘qitish kursi sohalari yagona normativ manbaga, ya’ni amaldagi jinoyat qonunchiligiga, uning prinsiplari va umumiy qoidalariga asoslangan. 1994-yil qabul qilingan Jinoyat kodeksining ruscha variantida oldingi kodeksda qo‘llanilgan «уголовный» so‘zining ishlatilganligini payqash qiyin emas. Bunday munosabatni olimlar ham, huquqni muhofaza qilish amaliyoti vakillari[1] ham asosli ravishda tanqid qilishlariga qaramay, qonun chiqaruvchi tomonidan o‘z holicha qoldirildi va buni, ayrim sabablarga ko‘ra, muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi.

---

[1] Qarang: *Джалилов М.Д., Рустамбаев М.Х., Якубов А.С.* Концепция законодательства Республики Узбекистан о преступлениях и наказаниях. – Т., 1994. – С. 7.

Davlat tili rus tili bo‘lgan rossiyalik jinoyat huquqi fani vakillarining ta’kidlashicha, rus tilida «уголовное право» so‘zining kelib chiqishi hozirgacha aniqlanmagan[1]. Ushbu holatga o‘z munosabatini bildirgan E. X. Norbo‘tayev rus tili grammatikasi nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli bo‘lmagan kodeksning nomini o‘zgartirishni taklif qiladi, chunki u ikki so‘zning qo‘shilmasidan iborat, ya’ni «уголовный кодекс» bo‘lib, bulardan bittasi («уголовный») o‘z etimologiyasiga ega emas[2]. Oxirgi jumla to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin, chunki ruscha «уголовный» so‘zining kelib chiqishiga oid bir necha taxminlar mavjud, ammo ulardan birortasini ham umum e’tirof etmagan. Ayrim qarashlar bu so‘zning bosh bilan, ya’ni hayot bilan javob beradigan qonunlar «уголовный» deb nomlanishidan kelib chiqqanligiga asoslanadi[3]. Boshqa bir taxminga ko‘ra, «уголовный» so‘zi «уголовить» fe’lidan kelib chiqadi va «xafa qilish» yoki «jahlini chiqarish» ma’nosiga ega, yoki «уголовь» va «уголовье» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu holatda aybdor o‘lim jazosiga mahkum bo‘lgan yoki og‘ir jazoga tortilgan degan ma’noga ega deyiladi[4]. Pskov sudi grammatikasida 26, 96–98-moddalarga muvofiq «головщина» so‘zi «o‘ldirishni» anglatgan[5].

Ushbu ruscha so‘zning qo‘llanishi uning davlat tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinishiga olib keldi. Yuqorida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra, tilimizda uning ma’nosini aynan aks ettiruvchi so‘z yo‘qligi tabiiydir. Natijada, o‘zbek tilidagi kodeks nomi (Jinoyat kodeksi)ning rus tiliga so‘zma-so‘z tarjimasi «преступный кодекс» yoki boshqacharoq aytganda, «кодекс преступления»ni anglatadi[6], bu esa aqlga sig‘maydigan holat, chunki faqat qilmish jinoyat bo‘la oladi, qonunning o‘zi emas, shuningdek, huquq va fan sohasi ham jinoyat bo‘lishi mumkin emas. Bu tanqidning to‘g‘riligini «Yuridik atamalar va iboralar lug‘ati» mualliflari ham tasdiqlashgan. Unda «уголовное право – jinoyat va jazo huquqi» deb, «уголовный кодекс (UK) – jinoyat va jazo to‘g‘risidagi qonunlar majmuasi (JJTQM)» deb tarjima qilingan[7]. Huquqshunos olimlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish yo‘lidan bormasdan, huquq sohasining mohiyatini aks ettirdilar, chunki «уголовный» so‘zining o‘zi buni aks ettirmaydi.

Xorijiy davlatlarda huquqning mazkur sohasi unga asos bo‘lgan g‘oyadan, ya’ni jinoyat yoki jazodan kelib chiqqan holda belgilanadi. Agar tushunchaga jinoyat asos qilib olingan bo‘lsa, u holda bu sohani *criminal law* (inglizcha), *droit criminal* (fransuzcha), *criminal recht* (nemischa) deb

---

[1] Российское уголовное право. Общая часть. – М., 1994. – С. 3.

[2] *Нарбутаев Э. Х.* Борьба с преступностью: закон и практика. – Т., 1991. – С. 70.

[3] Qarang: Российское уголовное право. Общая часть. – М., 1994. – С. 3.

[4] Qarang: *Даль В.* Толковый словарь живого великорусского языка. Т. IV. – М., 1882. – С. 467.

[5] Qarang: Законодательство Древней Руси. Т. 1. – М., 1984. – С. 334–340.

[6] Qarang: *Ахмедов Г., Саидов А.* Проблемы узбекской юридической терминологии // Бюллетень Верховного Суда Республики Узбекистан. 1992. – № 3. – С. 92.

[7] Qarang: Юридик атамалар ва иборалар луғати. – Т., 1993. – 129–130-б.

atashadi, bu lotincha *crimen* (jinoyat) so‘zidan olingan bo‘lib, «jinoyat haqidagi qonun» degan ma’noni anglatadi. Basharti, tushuncha jazo bilan bog‘langan bo‘lsa, u holda *penal law* (code) (inglizcha), *droit penal* (fransuzcha), *strafrecht* (nemischa) deb ataladi, bu lotincha *poena* (jazo) so‘zidan olingan bo‘lib, «jazo haqidagi huquq» degan ma’noni anglatadi.

Bizningcha, bu kabi bir tomonlama yondashish O‘zbekistonning jinoyat qonunchiligiga to‘g‘ri kelmaydi, chunki huquqning mazkur sohasi asosini ham jinoyat, ham jazo tashkil etadi. Shuning uchun bu haqdagi qonunchilik, huquq sohasi, fan hamda o‘qitish kursini quyidagicha, ya’ni «jinoyat va jazo haqidagi qonunchilik», «jinoyat va jazo haqidagi huquq», «jinoyat va jazo haqidagi fan» va o‘qitish fanini ham shunga mos nomlash aniqroq bo‘lar edi. Bunday yondashuv mohiyat mezoniga asoslangan bo‘lib, davlat tilida aniq aks etgan hamda katta ahamiyatga ega. Huquq va undagi barcha normalarning ijtimoiy muhimligi shu huquq sohasi predmetini tashkil etuvchi va ularni tartibga soluvchi normalar bilan ayrim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali amalga oshiriladigan shaxslarning ongli harakatiga ta’sir etishdan iborat. Huquq sohasining xususiyatlari ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar uning predmetini tashkil etadi. Jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni Jinoyat kodeksining 2-moddasidagi vazifalarni shart qilib qo‘yadi.

Jinoyat qonunchiligining asosiy vazifalari sifatida shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, xususiy mulk, tabiiy muhit, tinchlik-osoyishtalik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash nazarda tutilgan. Bunday ijtimoiy munosabatlar barcha demokratik davlatlar negizini tashkil etadi. Bu vazifani amalga oshirish maxsus, aniqrog‘i, *qo‘riqlanadigan* ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali amalga oshiriladi hamda u jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishni sodir etish vaqtidan boshlab yuzaga keladi. Davlat ayrim qilmishlarga taqiq o‘rnatish yoki uni bajarishning majburiy ekanligini ko‘rsatish orqali buzilishi salbiy oqibatlarga olib keladigan hamda barcha fuqarolar va jamiyat uchun muhim va qadrli bo‘lgan munosabatlarni qo‘riqlaydi.

Davlat va jamiyatning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladigan ayrim qilmishlarga qat’iy taqiq o‘rnatish bilan birga, davlat huquq bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga aniq yuridik vazifalarni yuklaydi. Davlat jinoyat huquqi normalarida istalgan xulq-atvor turini ifodalash orqali, ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiladi. Zero, u biror-bir huquqiy munosabat subyektlariga aynan shunday xatti-harakat qilish yoki, aksincha, jamiyatga zid bo‘lgan ba’zi qilmishlardan o‘zini tiyish majburiyatini yuklaydi. Basharti, jinoyat huquqiga oid normalarda belgilangan talablarga rioya qilinmasa, u holda jinoyat huquqiga oid qo‘riqlanadigan munosabatlar yuzaga keladi.

Huquqiy munosabatlarning mazmuni *munosabat subyektlari* huquq va majburiyatlari mazmunidan kelib chiqadi. Chunonchi, bular, bir tarafdan jinoyat huquqiga oid normadagi qoida yoki taqiqdan iborat bo‘lsa, ikkinchi

tarafdan sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarga jinoiy javobgarlikni amalga oshirish, jazo tayinlash yoki huquqiy ta’sirning boshqa choralarini qo‘llash vakolatini beruvchi davlat hisoblanadi. Har bir alohida sharoitda huquq va majburiyatlar hajmi turlicha bo‘lishini hisobga olgan holda, jinoyat huquqiga oid munosabatlar mazmunini subyektlar huquq va majburiyatlarining majmui sifatida belgilash to‘g‘ri bo‘ladi. Binobarin u, davlat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs bilan qonunga muvofiq muomalada bo‘lish huquq va majburiyatiga ega, shaxs esa buni talab qilishi va u bilan bo‘layotgan qonuniy muomalaga bo‘ysunishi kerakligini anglatadi[1].

Demak, jinoyat huquqiga oid munosabatlarning mazmuni uning *predmetini* belgilaydi. U, o‘z navbatida, jinoiy javobgarlik, jazo yoki jinoyat huquqi mazmunidagi boshqa choralarni amalga oshirishga oid munosabat subyektlarining faoliyatini tashkil etadi. Chunki jinoyat huquqiga oid qo‘riqlanadigan munosabatlarning *obyekti* jinoiy javobgarlik hisoblanadi[2].

Jinoyatlarning oldini olish ham jinoyat qonunlarining vazifalari qatorida nazarda tutilgan. Binobarin, jinoyat huquqini tartibga solish predmetiga *oldini olish* ijtimoiy munosabatlari ham kiradi. Mazkur munosabatlar jinoyat huquqiga oid taqiqdan kelib chiqadi hamda ba’zi toifadagi shaxslarni jinoyat sodir etishdan qaytarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Jinoyat huquqiga oid ogohlantirish ikki jihatga ega. Birinchi jihat – *umumogohlantiruvchi* bo‘lib, u jinoyat qonunining mavjudligidan kelib chiqadi, ya’ni u ma’lum doiradagi shaxslarga qonun himoyalaydigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishdan o‘zini tiyish majburiyatini yuklaydi. Jinoyatlarning oldini olishning ikkinchi jihati *maxsus prevensiya* bo‘lib, u jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo hamda jinoyat huquqiga oid boshqa ta’sir choralarini qo‘llashdan iborat. Ogohlantirishning mazkur ko‘rinishi jinoyat sodir etgan shaxslar takroran jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan bo‘lib, jinoiy javobgarlikning muqarrarligidan dalolat beradi.

Fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifasi, shuningdek, Jinoyat kodeksining 2-moddasida ham mustahkamlangan bo‘lib, bunga umuman jinoyat qonunlarining mavjudligi hamda undagi aniq normalarni qo‘llash orqali erishiladi.

Jinoyat huquqi predmetidagi maxsus ijtimoiy munosabatlarga jinoyat huquqiga oid *tartibga soluvchi* munosabatlar kirib, ular vakolat beruvchi normalar asosida amal qiladi hamda haqqoniy, ijtimoiy foydali xulq-atvorni tartibga soladi. Vakolat beruvchi normalar Jinoyat kodeksi Umumiy qismining uchinchi bo‘limida mujassamlashgan bo‘lib, ular qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarni belgilaydi. Fuqarolarni zaruriy mudofaa holatida ijtimoiy xavfli tajovuzlardan himoya qilish, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilm-

---

[1] Qarang: *Санталов А. И.* Теоретические вопросы уголовной ответственности. – Л., 1982, – С. 53.

[2] Jinoyat huquqi doktrinasida ayrim jinoiy-huquqiy munosabatlar bilan bog‘liq savollar munozarali hisoblanadi. Bu haqda mazkur darslikning 9-bobida batafsil fikr yuritilgan.

ish sodir etgan shaxsni ushlash, oxirgi zarurat, buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik chog‘ida zarar yetkazish huquqini beruvchi normalar ijtimoiy maqbul xulq-atvorni tartibga soladi. Mazkur normalarning bir qismi qonun oldida mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashi, ularda jinoyat sodir etish yoki boshqa qonunga xilof xulq-atvorga murosasizlikni shakllantirishi bois, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Jinoyat qonuni vazifalarini bajarish quyidagilar orqali amalga oshiriladi: javobgarlik asoslari va prinsiplarini aniqlash; jinoyat toifasiga kiritilgan qilmishlar doirasini aniqlash; jinoiy jazo choralarini tayinlash; jazodan tashqari huquqiy ta’sir choralarini tayinlash va hokazo. Binobarin, jinoyat huquqi predmetini tashkil qiluvchi har bir alohida ijtimoiy munosabatga uni huquqiy jihatdan tartibga soluvchi aniq usul mos keladi. Chunonchi, usulning umum qo‘llanadigan ma’nolariga ish usuli, yo‘li, tarzi degan ma’nolar kiradi.

Demak, jinoyat huquqining predmetini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi, deb xulosa qilish mumkin: 1) ijtimoiy xavfli hamda qonunga xilof qilmish sodir etgan shaxslarga jinoiy-huquqiy sanksiyalarni qo‘llash; 2) jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qat’iy me’yorlanganligi; 3) jazodan yoki uni o‘tashdan ozod qilishning huquqiy tartibga solinganligi; 4) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash; 5) jinoyat huquqiga oid taqiqning o‘rnatilganligi; 6) kodeksda aniq ko‘rsatilgan shartlar mavjud bo‘lganda, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqlarga zarar yetkazish huquqining fuqarolarga berilganligi va hokazo.

Jinoyat huquqining predmeti va usuli haqidagi muammoni hal qilish jinoyat huquqining boshqa huquq sohalari bilan muvofiqligini aniqlashtirishni talab etadi, zero ular huquq tizimining yagonaligiga qaramay, o‘zaro farq qiladi. Jinoyat huquqi huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida boshqa huquq sohalari bilan aloqadorlikda bo‘ladi. Mazkur aloqadorlik o‘zining xususiyati, o‘zaro bog‘liqlik darajasi, o‘zaro shartlanganligi bilan farqlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, huquqiy tartibga solish predmeti va usulining xususiyatidan kelib chiqadi .

Jinoyat huquqi hamda konstitutsiyaviy huquqlarning o‘zaro bog‘liqligi shubhasizdir. Zero, jinoyat qonuni, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslangan. Jinoyat huquqining konstitutsiyaviy qonun-qoidalar bilan o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi ko‘p qirrali bo‘lib, u Konstitutsiyada mustahkamlangan hamda jinoyat qonunining asosiy funksional vazifalari – jamiyat uchun eng muhim bo‘lgan munosabatlarni muhofaza qilish, ular negizida Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tizimini qurish kabi vazifalarning qadriyatlar iyerarxiyasini idrok etishdan tortib, Jinoyat kodeksi Umumiy qismining turli institutlariga xos ko‘rsatmalar (davlatlararo jinoyatchilarni ushlab berish, boshpana olish huquqi, amnistiya, afv etish, o‘z huquq va manfaatlarini o‘zga tajovuzlardan faol himoya qilish huquqini berish va b.)ni jinoyat huquqiga oid normalarda mustahkamlash va muayyan turdagi jinoiy tajovuzlarga Jinoyat kodeksi Maxsus qismida jinoiy javobgarlik tayinlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Jinoyat huquqi va jinoyat protsessual huquqning o‘zaro muvofiqligini shakl va mazmun orasidagi muvofiqlikka taqqoslash mumkin, zero jinoyat huquqi huquqni muhofaza qilish idoralari hamda sud faoliyatining predmeti, mazmuniga xos faoliyatini tartibga solsa, jinoyat protsessi jinoyat ishlari bo‘yicha ish olib borish tartibini qat’iy belgilab beradi. Mazmun va shaklning dialektik o‘zaro bog‘liqligiga tayangan holda, jinoyat huquqi jinoyat protsessining ko‘pgina norma va institutlarini keltirib chiqaradi, deb xulosa qilish mumkin. Zero, mazkur norma va institutlarning asosiy vazifasi jinoyatlarni ochish, aybdorlarni aniqlash, jinoyat qonunining to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlash orqali jinoyat huquqi qoidalariga hayotiy tus berishdan iboratligi sababli, ular jinoyat qonuniga zid bo‘lmasligi kerak.

Jinoyat huquqi jinoyat-ijroiya huquqi bilan ham bog‘liq bo‘lib, u quyidagilarni belgilaydi: jazo va jinoyat huquqiga oid boshqa ta’sir choralarini ijro etish prinsiplari, qoidalari va shartlari; mahkum (hukm etilgan)larning huquqiy maqomi, axloqini tuzatish vositalari va ularni qo‘llash tartibi; mahkumlarni jazoni o‘tashdan ozod qilish tartibi; jazoni ijro etish muassasasi va idoralarining ish faoliyati; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, korxona, muassasa, tashkilot, jamoat va fuqarolar birlashmalarining sudlanganlar axloqini tuzatish faoliyatidagi ishtiroki va hokazo. Binobarin, jinoyat-ijroiya qonunlari jinoyat huquqi norma va institutlariga asoslanadi, uning asosiy vazifasi jazo hamda jinoyat huquqiga oid ta’sirning sud qarori, ko‘rsatmasi yoki qonuniy kuchga kirgan hukmiga ko‘ra tayinlangan boshqa choralarni amalga oshirishni ta’minlashdan iboratdir.

Ma’lumki, yuridik fanlar ichida kriminologiya fani huquqning ijtimoiy-huquqiy sohasi sifatida jinoyat huquqi bilan eng ko‘p aloqadorlikda bo‘lgan fandir. Aynan jinoyat qonunida jinoyatlar hamda ularni sodir etgan shaxslarga yuridik ta’rif beriladi. Ular jinoyatchilik, jinoyatchi shaxsi, jinoyatlarning oldini olishning kriminologiya o‘rganadigan asosini tashkil etadi. Kriminologiya jinoyatchilik darajasi, uning tuzilishi va dinamikasi, jinoyatchilikning oldini olish samaradorligi, jinoyatchilikning rivojlanish prinsiplari haqida ma’lumot beradi, bu esa, o‘z navbatida, jinoyat huquqiga oid normalarning amal qilish samaradorligini aniqlash hamda qonun ijodkorligi kabi huquqni qo‘llash sohalarida jinoyat huquqiga oid siyosatga tuzatish kiritish imkoniyatini beradi. Demak, jinoyat huquqi sotsiologiyasida eng jips aloqadorlik amalga oshirilib, uning vazifasi «jinoyatchilik qay darajada, qay tarzda va nimasi bilan ijtimoiy omillarga aloqadorligi»ni aniqlashdan iborat bo‘ladi[1].

Jinoyat huquqining ma’muriy huquqbuzarliklarni tartibga soluvchi ma’muriy huquqbuzarlik qonunlari bilan o‘zaro aloqadorligini yaqqol ko‘rish mumkin. Zero, ko‘pgina qilmishlarning huquqiy mohiyatini aniqlash uchun, birinchi navbatda, uning ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat ekanligini, ya’ni ular o‘rtasidagi tafovutni aniqlab olish zarur. Bu jinoyat qonunining ayrim normalari ma’muriy preyuditsiyaga bog‘liq holda tuzilganligi bilan bog‘liq, ya’ni qilmishni jinoyat toifasiga kiritishda, uni sodir etganlik uchun

[1] *Шнайдер Г.И.* Криминология. – М., 1994. – С. 72.

ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng, bir yil ichida takroran sodir etilishi zaruriy shart hisoblanadi (masalan, JK 127-m. 1-q., 130-m., 132-m. 1-q., 139-m. 1-q., 140-m. 1-q. va b.).

Ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoiy jazoga loyiq qilmish darajasini aniqlash ko‘pincha sodir etilgan qilmish natijasida yetkazilgan zarar xususiyati yoki qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga bog‘liq bo‘lib, ular sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini belgilaydi. Chunonchi, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari va vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda, deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish noto‘g‘ri ko‘p miqdordan kam bo‘lgan miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227-moddasida ko‘rsatilgan ma’muriy qoidabuzarlik kabi baholanadi.

Basharti, chegaradan olib o‘tilayotgan tovar yoki boshqa qimmatliklarning miqdori, ko‘p miqdorni, ya’ni ularning qiymati eng kam oylik ish haqining yuz va undan ko‘p baravariga teng bo‘lsa, qilmish jinoyat hisoblanadi va aybdor Jinoyat kodeksining 182-moddasi 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jamiyat bir joyda to‘xtamay, doimiy rivojlanib turgani bois, ma’muriy huquqbuzarlik bilan jinoiy jazoga loyiq qilmishning chegarasini ilg‘ab bo‘lmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning o‘zgarishi, siyosiy tizimning rivojlanishi, fuqaroviy jamiyatning shakllanishi ma’muriy huquqbuzarlikni jinoyatlar toifasiga kiritish zaruratini keltirib chiqarishi yoki, aksincha, qilmishni jinoyat toifasidan chiqarib yuborishi (dekriminalizatsiya), ya’ni ma’muriy qoidabuzarliklar safiga qo‘shish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

Jinoyat va xalqaro huquqning o‘zaro aloqadorligi jinoyat qonunining ayrim muammolari (masalan, hududiy prinsip, universal prinsip va b.)da, shuningdek, shunga o‘xshash boshqa ko‘pgina masalalarni hal qilishda yuzaga keladi. Zero, Jinoyat kodeksining 1-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalariga ham asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining ko‘pchilik xalqaro konvensiyalar, shartnomalar va kelishuvlarga qo‘shilishi, ularda aks ettirilgan qoidalarni milliy qonunchilikka, shu jumladan, jinoyat qonuniga ham joriy etish vazifasini yuklaydi. Chunonchi, mamlakatimizning BMT 1984-yil 10-dekabrda qabul qilgan Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi harakatlar va jazo turlariga qarshi konvensiyaga qo‘shilishi jazo hamda boshqa turdagi huquqiy ta’sir choralari insonga jismoniy azob berish yoki uning qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamasligi haqidagi qoidaning jinoyat huquqiga oid prinsip sifatida mustahkamlanishiga olib keldi (JK 7-m. 1-q.).

Jinoyat huquqining boshqa umum yuridik va maxsus yuridik huquq sohalari bo‘lgan operativ qidiruv faoliyati, sud statistikasi, ichki ishlar idoralarining ma’muriy faoliyati, sud psixiatriyasi va sud tibbiyoti, fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, ekologiya huquqi, mehnat huquqi hamda huquqning boshqa

sohalari bilan bog‘liqligini va o‘zaro aloqadorligini alohida qayd etish lozim.

## 2. Jinoyat huquqining prinsiplari

Jinoyat huquqi prinsiplari jinoyat qonunida mustahkamlangan hamda demokratik davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatining mohiyati, hozirgi zamon prinsiplarini ifodalaydigan, shuningdek, sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning negizi, chegaralari va shakllari haqidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy va huquqiy tasavvurlarni aks ettiradigan yetakchi g‘oya hamda asosiy qoidalardir.

Jinoyat huquqi prinsiplari xalq hukmronligi, qonun ustunligi, ijtimoiy adolatlilik, insonparvarlik, demokratizm, fuqarolar tengligi, umuminsoniy qadriyatlar hamda umum e’tirof etgan xalqaro huquq normalarining ustunligi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan boshqa shu kabi prinsiplarga asoslanadi. Ayni paytda, har bir prinsip, muayyan huquqiy sohani tartibga solish usuli, ijro etuvchi vazifalari bilan belgilanadigan o‘ziga xos mazmunga ega. Mazkur prinsiplarning Jinoyat kodeksining 3-moddasida mustahkamlanishi, ularning barcha uchun majburiy mohiyatini ochib beradi. Binobarin, ular kishilarning huquqiy ongini tartibga solish bilan bog‘liq ta’sir ko‘rsatish hamda qonun chiqarish va qonunni qo‘llash faoliyatini yanada rivojlantirish uchun huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiluvchi omilga aylanadi.

Barcha prinsiplar o‘z majmuida demokratik jinoyat huquqining chinakam mohiyatini ifodalaydigan ichki o‘zaro muvofiqlashgan qoidalarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Prinsiplar tizimi jinoyat huquqiga oid markaziy institutlar – jinoyat va jazoni o‘zida mujassamlashtiradi. Xususan, ularning asosini O‘zbekiston Respublikasida mustahkamlangan qonuniylik va fuqarolarning tengligi prinsipi tashkil etadi (O‘zR Konstitutsiyasining 14, 15, 18-m.). So‘ngra jinoiy javobgarlik, jazo tayinlash va uni ijro etish, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish kabi qoidalarni o‘zida mujassamlashtirgan prinsiplar aks ettirilgan.

Mazkur tizimga kiritilgan barcha prinsiplar o‘zaro teng qimmatlidir, zero ularning har biri mustaqil mohiyatga ega bo‘lib, davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bir qator vazifalarni bajaradi.

Jinoyat kodeksi prinsiplarining tizimi qonun vazifalarini amalga oshirishga bevosita ta’sir etadi. Qonunda asosiy yetakchi g‘oyalarning e’lon qilinishi hamda unga normativ mohiyatni berish axloq tuzatish va ogohlantirish vazifalarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Prinsiplar tizimi Jinoyat kodeksining Umumiy hamda Maxsus qismlari normalaridagi jinoyat huquqiga oid muayyan muammolarni hal qilish asosi hamda boshlang‘ich nuqtasi bo‘lishi bilan birga, jinoyat huquqiga oid muayyan munosabatlar doirasida jinoyat qonunining muhofazalovchi hamda tartibga soluvchi vazifalarini bajarish imkonini beradi.

Jinoyat kodeksi normalarida mazkur prinsiplarning mavjudligi ularga jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish vakolatini beradi. Zero, ular

jinoyat va jazoga nisbatan nafaqat hozirgi tarixiy davrda qabul qilingan huquqiy qarashlarni aks ettiradi, balki jinoyat huquqiga oid munosabatlarga qaratilgan umumiy talablarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, huquqiy prinsiplar tizimiga nafaqat fuqarolar, balki jinoyat huquqiga oid qoidalarni qo‘llash vakolati berilgan davlat organlariga ham ta’sir ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan.

Normativ prinsiplarning fuqarolarga ta’sir o‘tkazishi ogohlantirish yo‘li bilan huquqiy ongni jinoyat qonuni ko‘rsatmalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi e’tiqod darajasida tarbiyalash va ularga nafaqat davlat va jamiyat manfaatlaridan, birinchi navbatda, o‘zining manfaatlaridan kelib chiqqan holda rioya qilish zarurligi maqsadiga egadir. Davlat tomonidan kafolatlangan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashning mumkinligi har kim o‘zgalar manfaatlari, huquq va erkinliklarini hurmat qilmas ekan, ahamiyatsizdir. Davlatning huquqiy siyosati negizlarini ifodalaydigan yetakchi g‘oyalarning jinoyat qonuni normalarida mustahkamlanishi fuqarolarning taqiqlar va ko‘rsatmalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishiga yordam beribgina qolmay, balki ularning jinoyatchilikka qarshi kurash doirasidagi jinoyat huquqiga oid siyosatning mohiyatini tushunib yetishlariga ham ko‘maklashadi.

Jinoyat huquqiga oid ko‘rsatmalarni qo‘llash vakolatlariga ega bo‘lgan davlat idoralarining mansabdor shaxslariga normativ prinsiplarning ta’siri ularning faoliyatida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qoidalarni aniq va to‘g‘ri qo‘llashni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida kafolatlangan fuqarolarning huquq va manfaatlariga barcha choralar bilan rioya qilishni, o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishda shaxsiy mas’uliyat va talabchanlik tuyg‘ularini oshirish maqsadini qo‘yadi.

Qonun chiqaruvchining o‘zi ham huquqiy prinsiplar tizimiga rioya qilib ish ko‘rishi lozim. Jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikni rivojlantirish yangi jinoyat qonunlarini qabul qilish va amaldagi jinoyat huquqiga oid ko‘rsatmalarni o‘zgartirish, bekor qilish, davlatchilik rivojining obyektiv ehtiyojlari bilan hamisha bog‘liq bo‘lishi shart. Biroq, ayni paytda, qonun chiqaruvchi mazkur ehtiyojlarni prinsiplarda aks etgan yetakchi g‘oyalar va qoidalar bilan tenglashtirishi zarur, chunki jinoyat va jinoyatchilikni bekor qilish qonunda mustahkamlangan asosiy qoidalarning huquqiy ko‘rsatmalariga zid kelmasligi kerak. Mazkur talabga ko‘ra, jinoyat huquqi prinsiplari normalarda mustahkamlangani bois, qonun chiqaruvchining o‘zi ham ularga rioya qilishi zarur bo‘ladi.

Shunday qilib, normativ prinsiplar tizimini qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi, odillik, insonparvarlik, demokratizm kabi prinsiplar tashkil etadi.

*Qonuniylik prinsipi* (JK 4-m.). Qonuniylik prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14, 15-moddalarida umumhuquqiy shaklda mustahkamlanadi. Masalan, 14-moddada davlat o‘z faoliyatini qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan. Ushbu qoida 15-moddada tushuntirilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi,

so‘zsiz tan olinishi e’lon qilinib, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishlari qayd etilgan.

Jinoyat huquqidagi qonuniylik prinsipi turli mazmun va ko‘p taraflama ahamiyatga ega. Mazkur prinsip quyidagilarni bildiradi: 1) qilmishning jinoiyligi faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi; 2) jazo va boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi; 3) Jinoyat kodeksi jinoyat huquqi uchun yagona manbadir; 4) shaxsning jinoyatni sodir etishdagi aybdorligi faqat sud tomonidan belgilanadi; 5) jazo va boshqa huquqiy ta’sirlarni faqat sud qo‘llaydi; 6) jinoyatni sodir etishda aybdor deb hisoblangan shaxsning huquqiy holati faqat qonun bilan belgilanadi; 7) huquqni qo‘llovchi barcha idoralar jinoyat qonunining mazmunini o‘z vakolatlari doirasida va Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan aniq matnga muvofiq sharhlashga majburdirlar.

Jinoyat kodeksining 4-moddasi 1-qismida qilmishlarning jinoiyligi, jazoga loyiqligi va boshqa kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar faqat jinoyat qonuni bilan belgilanishi, shaxsni javobgarlikka tortish asoslarini belgilab beruvchi barcha qoidalar, jazoni belgilash, shuningdek, shaxsning jinoyatni sodir etishda ayblanganligidan kelib chiqadigan boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan va belgilangan. Bundan kelib chiqqanda, Jinoyat kodeksi davlatning oliy qonun chiqaruvchi organi – Oliy Majlis qabul qiladigan jinoyat qonunining yagona manbaidir. Demak, Jinoyat kodeksi jinoiy-huquqiy hujjatning yagona shakli hisoblanib, qabul qilinadigan barcha jinoyat huquqiga doir qonunlar shu yagona manbaga qo‘shimcha sifatida kiritilishi shart. Jinoyat qonunlarini to‘liq kodifikatsiya qilish quyidagilarga imkon beradi: 1) hamma jinoiy-huquqiy normalarni bitta qonunga to‘plashga; 2) ularni aniq mantiqiy ketma-ketlik va tizimga kiritish prinsipiga ko‘ra joylashtirishga; 3) jinoyat qonunlarining to‘liq tizim ekanligi to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurga ega bo‘lishga; 4) huquqni qo‘llovchilarning ulardan foydalanishida qulaylik tug‘dirishga.

Jinoyat kodeksining jinoyat qonuni uchun yagona manba deb tan olinishi jinoyat va jazoning *o‘xshashligi* institutini to‘liq inkor qiladi. Huquqni qo‘llovchi idoralar faqat Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan qilmishlarnigina jinoyat deb tan olishlari lozim. Agarda jamiyatimizda kechayotgan muayyan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa jarayonlar tufayli tegishli jinoyat ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo‘lsa, huquqni muhofaza qilish idoralari qonunda nuqsonlar va xatti-harakatlarning tartibga solinmaganligi aniqlanganida, bunday salbiy hodisalarga mazmunan yaqin bo‘lgan, lekin yetarli darajada uni yoritmagan amaldagi qonun normalarini qo‘llamasliklari lozim.

Qonundagi bo‘shliqlarni o‘xshash normalar prinsiplari hisobidan to‘ldirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Huquqda jinoiy huquqiy taqiqlash va ko‘rsatma berish yo‘li bilan nuqsonlarni tuzatish faqat qonun chiqaruvchi idoraning favquloddagi vakolatiga kiradi. Huquqni qo‘llovchi idoralar esa huquqni qo‘llash jarayonida yangi ijtimoiy xavfli qilmishga duch kelishsa, faqat vakolatli idoralarga o‘z tashabbuslari bilan ularni jinoyat deb topish haqida taklif kiritishlari mumkin. Afsuski, bu qonuniy talabga hamma vaqt ham amal qi-

linavermaydi. Masalan, Oliy sud Plenumining «Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 9-sonli 1996-yil 15-mart qarorining 3-bandida: «Qanday bo‘lmasin, mulkiy manfaatdor bo‘lish maqsadida tovarlarni bozorga erkin kirib kelishiga har qanday yo‘sinda to‘sqinlik qilish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarni bozordan siqib chiqarish, o‘ta yuqori narxlarni sun’iy ravishda saqlab turish to‘g‘risida talab qo‘yish va tovar egasiga, bozor ma’muriyati yoki o‘zga shaxslarga nisbatan zo‘rlik ishlatish, ularni zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish, mulkiga shikast yetkazish yoki mulkini nobud qilish bilan bog‘liq boshqa harakatlar tovlamachilik (reket) tariqasida Jinoyat kodeksining 165-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim»[1], deb tavsiya berilgan.

Ushbu tavsiyani qonun normasini tushuntirish deb bo‘lmaydi, chunki bu o‘rinda jinoyat huquqiga oid yangi norma tuzilib, uni shunga o‘xshash holatlarda qo‘llash tavsiya etilgan. Bunday xulosaga asos shuki, yuqoridagi qarorda ifodalangan harakatlar Jinoyat kodeksining 165-moddasidagi zaruriy belgilarda ko‘rsatilmagan. Qonun chiqaruvchi organ tovlamachilikni jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlariga zo‘rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlariga zo‘rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rqitib, o‘zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘z mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish sifatida ko‘rsatgan. Ammo bu tushuncha tovarlarni bozordan siqib chiqarish, o‘ta yuqori narxlarni sun’iy ravishda saqlab turish to‘g‘risida talab qo‘yish harakatlarini, agar bu harakatlar o‘zga shaxslarga zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yo‘li bilan sodir etilsa ham, qamrab olmaydi.

1959-yilgi Jinoyat kodeksida xalq iste’moli mollarini qonunga xilof ravishda qimmatlashtirish maqsadida atayin ularni ishlab chiqarish va bozorga chiqarishni cheklash yoki to‘xtatib qo‘yish uchun javobgarlikni belgilagan $154^4$-modda bor edi. Ushbu normaning mavjudligi yangi iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqaruvchilarning monopollik siyosatini va bozor munosabatlarining erkinligini ta’minlash asosida tabiiy raqobatni ta’minlash shartlaridan kelib chiqqan edi. Qonun chiqaruvchi yangi jinoyat qonunini qabul qilishda ushbu normadan voz kechdi, chunki 1996-yil 27-dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni[2] qabul qilinib, uning ko‘rsatmasiga ko‘ra, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish normasi kengroq ma’noda talqin qilingan (JK 183-m.).

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. – 1991–2006. Т.1. – Т., 2006 – 51-б.

[2] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 2. – 54–55-б.

Ushbu jinoyatning subyekti bo‘lib, nafaqat xo‘jalik subyektining vakili, balki xususiy shaxs ham hisoblanadi. Oliy sud tavsiya etgan qilmish o‘z-o‘zidan jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi, agar u monopolist hisoblangan xo‘jalik subyektining vakili va uning manfaatlari yo‘lida sodir etilmagan bo‘lsa. Shu bois, yuqorida ko‘rsatilgan qarordagi tavsiyanoma o‘xshatishdan boshqa narsa emas. Shu bilan birga, ogohlantirib o‘tish lozimki, Jinoyat kodeksi jinoyat qonunining yagona manbai ekanligini jinoyat huquqi va fanining manbai esa, faqat jinoyat qonuni emasligi haqidagi holat bilan qo‘shib yubormaslik kerak. Jinoyat huquqi fanining manbai urf-odatlar, xalqaro huquq normalari va boshqa huquq sohalari, hatto sud pretsedentidir[1] .

Shaxsning jinoyat sodir etishi nafaqat uni ayblash va jazo tayinlashga, balki Kodeksda mustahkamlangan boshqa huquqiy oqibatlarga ham olib keladi. Boshqa huquqiy oqibatlarga jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning hamma turlari, sudlanganlik, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari va voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari kiradi.

Jinoyat kodeksi 4-moddasining 2-qismida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining 1-qismida mustahkamlangan norma rivojlantirilgan. Ya’ni jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxs, uning aybdorligi qonuniy tartibda sudda oshkora ko‘rilib tasdiqlanmagunicha aybdor deb hisoblanmasligi uqtiriladi. Ushbu moddada aybsizlik prezumpsiyasining mohiyati keltiriladi. Uning ikki jihati mavjud, birinchidan, muayyan jinoyat tarkibini aniqlash va shaxsni uni sodir etganlikda aybdor deb topish qonunga muvofiq ravishda amalga oshirilishi shart va, ikkinchidan, faqat sud hukmiga ko‘ra, shaxs aybdor deb topilib, Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan, jinoiy javobgarlikka, jazoga yoki boshqa huquqiy ta’sir choralariga tortilishi mumkin.

Jinoyatni sodir etganlikda ayblangan shaxsning huquqiy holati qonun bilan belgilanishi to‘g‘risidagi qoida jinoyat huquqiga oid bir qator muammolarni yechishning ham dastlabki huquqiy asosidir. Mazkur masalalar Jinoyat kodeksida hal etiladi. Boshqa huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashning negizi va sharoitlari, shuningdek, jazoning ijrosiga oid muammolar o‘z rivojini O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida topgan[2].

Qonuniylik prinsipini izohlaydigan qoidalar barcha huquqni qo‘llaydigan idoralar qonunni o‘z vakolatlari doirasida va uning matniga muvofiq qo‘llash huquqiga ega ekanliklarini belgilab beradi[3].

*Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi (JK 5-m.).* O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasining 1-qismida demokratik jamiyatda fuqarolarning huquqiy maqomiga asos bo‘ladigan muhim konstitutsiyaviy qoida belgilangan. Konstitutsiyaviy normalarning ijtimoiy munosabatlarga

---

[1] Qarang: *Наумов А. В.* Источники уголовного права // Уголовное право: новые идеи. – М., 1994. – С. 4–25; *Нарбутаев Э. Х., Арзымбетов М. У.* Уголовно-правовая этнография. – Нукус, 1996. – С. 89.

[2] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ахборотномаси. – 1997. – № 6. – 175-м.

[3] Jinoyat qonunining to‘liq sharhi haqida ushbu darslikning II-bobiga qarang.

ta’siri faqat bevosita bo‘lmay, ayni paytda, mazkur soha qonunchiligi orqali ham amalga oshiriladi. Shu bois, Jinoyat kodeksida mustahkamlangan fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi konstitutsiyaviy prinsipning takrori bo‘lmay, balki uning joriy etilishidir.

Jinoyat kodeksining 5-moddasidagi ifoda konstitutsiyaviy norma matnidan birmuncha farq qiladi. Bu huquqiy prinsip, avvalo, jinoyatlarni sodir etganligi tufayli jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasiga kirib qolgan kishilar huquq va burchlarining yuridik tengligini mustahkamlashning sharti hisoblanadi.

Mazkur tenglik prinsipining mohiyati shundan iboratki, jinoyat qonunining taqiqlari yoki yo‘l-yo‘riqlariga rioya qilmagan barcha shaxslarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, to‘liq hajmda ana shu huquqbuzarlik uchun ko‘zda tutilgan javobgarlikka tortishning yagona asosi uning Jinoyat kodeksida ko‘zda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan xatti-harakatni sodir etganligidir. Jinoyat kodeksi 16-moddasining 2-qismida mustahkamlangan ushbu qoida fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipini ta’minlash kafolatidir.

Fuqarolarning qonun oldida tengligi faqat jinoyatni sodir etganda javobgarlikka tortilish majburiyatini ifodalamay, balki bu shaxslar, ayni paytda, teng huquqqa ega ekanligini ham bildiradi. Bu barcha fuqarolarning, ularning shaxsiy xususiyatlaridan qat’i nazar, o‘z xatti-harakatlarining qonunga muvofiq aniq baholanishini, ularga huquqni qo‘llash idoralari ayb deb qo‘ygan jinoyat tarkibidagi har bir alomatning qonunda ko‘rsatilgan tartibda isbotlanishini talab etishlarini bildiradi.

Mazkur prinsip jinoyatni sodir etgan shaxslarning javobgarlikka birday tortilishi uchun tengligidagi faqat yuridik, rasmiy jihatni aks ettiradi. Shu bilan birga, fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi odil sudlov sohasidagi «turg‘unlik»ni bildirmaydi. Muayyan jinoyat tarkibining alomatlariga ega bo‘lgan jinoyatni sodir etgan shaxs javobgarlikka tortilishi shart va faqat ana shu huquqiy asos javobgarlikning «teng mezoni»dir. Biroq majburlov chorasi, shubhasiz, muayyan xatti-harakatni sodir etgan shaxsning xulq-atvoridagi aynan uning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq kelishi kerak. Bu esa Kodeksning 8-moddasida nazarda tutilgan odillik prinsipi bilan kafolatlanadi.

*Demokratizm prinsipi (JK 6-m.).* O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 7-moddasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Shu boisdan ham demokratizm davlatimiz tuzilishi va faoliyatining eng muhim prinsipi bo‘lib, u avvalo, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklarida, bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish bilan amalga oshirishda namoyon bo‘ladi (O‘zR Konstitutsiyasining 32-m.). Mazkur umumiy huquqiy prinsip huquqning turli sohalarida aks etganidek, jinoyat huquqida ham muayyan tarzda o‘z ifodasini topadi.

Jinoyat huquqi tartibga soladigan huquqiy munosabatlarning o‘ziga xosli-

gi O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan demokratik asoslarni yetarli darajada amalga oshirish imkonini bermaydi. Shu bilan birga, huquqning bunday eng «qatag‘on» sohasida ham demokratizm prinsipi o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lib, sharhlanayotgan moddada qayd etilgan jamoat birlashmalari, fuqarolar yoki jamoalar, o‘zini o‘zi boshqaradigan idoralarni jinoyat sodir etganlarni tarbiyalashga ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlarda, jazoni bevosita o‘tashdan sinov muddati belgilab, ozod etishda, jazoni bundan keyin o‘tashdan ozod qilingan hollarda jalb etish mumkin. Jamoatchilik va jamoalarning jinoyatni sodir etgan shaxslarni tarbiyalashga oid ta’sir choralari davlatning majburlov choralariga qo‘shimcha bo‘lib, aksariyat hollarda ularni qo‘llash yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, mahkumga nisbatan o‘zi o‘sgan yoki mehnat qilgan mavjud ijtimoiy ijobiy muhit ba’zi toifadagi shaxslar uchun davlat tuzilmalarining vakillari qo‘llaydigan choralardan ko‘ra ta’sirchanroq bo‘ladi.

*Insonparvarlik prinsipi (JK 7-m.).* Insonparvarlik insonni shaxs sifatida tan olishni, uning qadr-qimmatini hurmat qilishni va farovonligini oshirib borishga intilishni ijtimoiy taraqqiyotning maqsadi sifatida izohlaydigan axloqiy prinsipdir. Mazkur axloqiy prinsiplar O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining muqaddimasidayoq qayd etilgan bo‘lib, unda jamiyatni rivojlantirishning asosiy vazifasi sifatida insonparvar demokratik huquqiy davlatni qurish e’lon qilinadi. Insonparvarlikning huquqiy mazmuni ko‘p jihatlidir va u butun jamiyatga, shuningdek, jabrlanuvchiga va huquqbuzarga ham bir xil taalluqlidir.

Jinoyat qonunlarida insonparvarlik prinsipining mazmuni ijtimoiy tuzumning ijtimoiy-siyosiy mohiyati bilan bog‘liq vazifalarni bajarishda odil sudlovning maqsadi va uning tasarrufidagi vositalar bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, insonparvarlik prinsipi yordamida majburlashga va jinoyatchiga taalluqli jihatlar, shuningdek, javobgarlikni amalga oshirish shaklini va uning hajmini tanlashga oid yondashuvlar ham qamrab olinadi.

Jinoyat kodeksi 7-moddasining birinchi qismida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasidagi qoidalarga asoslanib, «hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsizlik yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas» deyilgan. Buning ustiga, mamlakatimizning qonunga xilof ish qilgan fuqarolari to‘g‘risida fikr yuritsak, davlat ularni axloqan tuzatishdan va qonunning boshqa vazifalarini bajarishi uchun eng yaxshi samara beradigan choralarni qo‘llashdan manfaatdor. Bu insonni jamiyatga, qarindosh-urug‘lari va yaqinlariga qaytarish demakdir. Bunday natijaga, birinchi navbatda, yetarli va zaruriy javobgarlik choralarini tanlash orqali erishish mumkin.

Insonparvarlik prinsipi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning barcha xodimlariga yo‘naltirilgan, zero ular sodir etilgan jinoyatning huquqiy oqibatlariga oid masalani hal etishga, ushbu shaxs va jamiyatning boshqa a’zolari yangi jinoyatlarni sodir etishining oldini olishga zarur va yetarli ta’sir choralarini tanlashga vakolatlidir. Javobgarlik chorasining zarurligi va yetar-

liligi jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning shakli va hajmi bilan bog‘liq. Mazkur talab eng ma’qul javobgarlik chorasini tanlashni shart qilib qo‘yadi. Zero, ushbu chora sodir etilgan qilmishlarga muvofiq kelmaganligi va nisbatan yengil bo‘lganligi bois, jazolanmaganlik fikrini keltirib chiqarmasligi, ayni paytda, haddan tashqari ayovsiz ham bo‘lmasligi lozim.

Insonparvarlik prinsipida odillik prinsipi bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalar ifodalangan. Bu sudlarni Maxsus qismdagi sanksiyada ko‘zda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llashga undaydi. Ayni paytda, huquqni qo‘llash idoralari rioya qiladigan bosh mezon – tanlangan javobgarlik chorasining jazo maqsadlariga, ya’ni odillik va insonparvarlik prinsiplariga muvofiq kelishidan iborat.

*Odillik prinsipi (JK 8-m.).* «Odillik» falsafiy-axloqiy tushunchasi ijtimoiy hodisalarga yoki kishilarning xatti-harakatlariga jamiyat, davlat yoki ayrim shaxslarning munosabatlarini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, jinoyat huquqida odillik jinoyatchilikka va ayrim kishilar sodir etadigan muayyan jinoyatlarga ijtimoiy-salbiy hodisa sifatida munosabatda bo‘ladi.

Jinoyatchilikka va uning muayyan ko‘rinishlariga qonun chiqaruvchining munosabati jinoyat deb tan olinadigan xulq-atvorlarda nazarda tutilgan jinoiy harakat uchun tanlanadigan adolatli jazo choralaridagina emas, balki mazkur darajani qonunning boshqa normalari sanksiyalari bilan solishtirganda ham aniqlanadi. U jinoyat sodir etgan muayyan shaxsning aybini baholashda va unga muvofiq keladigan jazoni yoki jinoyat huquqining boshqa ta’sir choralarini belgilashda ifodalanadi. Bu munosabatlar huquqni qo‘llash, ya’ni qonunga ko‘ra vakolatli bo‘lgan idoralar va shaxslar darajasida joriy etiladi. Aynan shu darajada jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan munosabat paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, Jinoyat kodeksining 8-moddasida sodir etilgan jinoyatga huquqni qo‘llovchining odil huquqiy ta’sir choralarini belgilashi uchun ham mezonlar mavjud.

Sodir etilgan jinoyatga belgilanadigan huquqiy ta’sir chorasining odilona ekanligi quyidagi mezonlarga ko‘ra aniqlanadi: 1) jinoyatning og‘irlik darajasi; 2) aybning darajasi; 3) shaxsning ijtimoiy xavfliligi.

*Jinoyatning og‘irlik darajasi* qonun chiqaruvchining jinoyat qonuni normalarining sanksiyalarida ifodalangan muayyan jinoyat turining mohiyati va ijtimoiy xavfliligini baholashidir. Qonun chiqaruvchi organ u yoki bu jinoyat turini og‘irlik darajasiga ko‘ra guruhlarga bo‘lishda, zarar keltiradigan yoki zarar keltirishga real xavf tug‘diradigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatligiga qarab, uning ijtimoiy xavfliligini aniqlaydi. Ayni paytda, u jinoyat oqibatlarining og‘irligi, aybning shakli, jinoyat subyektiga taalluqli shaxslar toifasi, shuningdek, jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilariga ko‘ra ham jinoyat turini aniqlaydi. Jinoyatning ijtimoiy mazmunini aks ettiradigan ijtimoiy xavfning xususiyati va darajasi muayyan moddaning sanksiyalarida yoki Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi moddalarning bandlarida ifodalangan bo‘lib, ular Jinoyat kodeksining 15-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni tasniflash negiziga kiritilgan. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, sodir etilgan qilmishning og‘irligi to‘g‘ri baholangan hollardagina unga muvofiq

odil jazo chorasi belgilanadi. Bu esa ko‘zda tutilgan tegishli huquqiy oqibatlarga olib keluvchi har bir jinoyat toifasini aniqlashga yordam beradi.

*Ayb darajasi* deganda, muayyan jinoyatning barcha ruhiy mazmunlari yig‘indisini baholashni tushunmoq lozim. Ruhiy mazmunni aks ettiradigan subyektiv jihatlarga aybning shakli, turlari, motivlari, maqsadlari, hissiy holatlari kiradi. Mazkur tavsiflarning yig‘indisini inobatga olish sodir etilgan qilmishga xolis baho berish va eng odil javobgarlik chorasini tanlash imkonini beradi.

*Aybdorning ijtimoiy xavfliligi,* javobgarlik odilligining mezonlaridan biri sifatida, shaxsning ham salbiy, ham ijobiy xususiyatlarini birgalikda hisobga olib, baholashni taqozo etadi.

Jinoyat kodeksi 8-moddasining ikkinchi qismidagi bir marta sodir etilgan qilmish uchun ikki marotaba javobgarlikning bo‘lishi mumkin emasligi qoidasida ham javobgarlikning odilligi prinsipi bayon etilgan. Davlatning majburlov choralariga mahkum shaxs, uning tarbiyalanishi (axloqan tuzatilishi) uchun zarur va yetarli javobgarlikka tortiladi. Shuning uchun, har qanday sharoitda ham, bir jinoyat uchun shaxs ilgari hukm etilgan bo‘lsa, uning qayta javobgarlikka tortilishi adolatdan bo‘lmaydi.

*Ayb uchun javobgarlik prinsipi (JK 9-m.).* Aybdorlik har qanday jinoyatning zaruriy belgisidir. Shunga ko‘ra, shaxsning sodir etadigan ijtimoiy xavfli qilmishlari va ularning oqibatlariga ruhiy munosabatlarning shakli, ya’ni qasd yoki ehtiyotsizlik jinoiy javobgarlikning asosi bo‘lgan jinoyat tarkibining muhim belgisidir.

Kodeksda ayb uchun javobgarlik qoidasining mustahkamlanishi, avvalo, davlatimizning *subyektiv ayblilik* prinsipiga rioya qilishini bildiradi. Mazkur qoida *obyektiv ayblilikning*, ya’ni aybsiz javobgarlikka tortishning mumkin emasligini belgilaydi. Shaxsning sodir etgan qilmishi qanday oqibatlarga olib kelishini anglab yetmagan va ko‘z oldiga keltira olmagan hamda keltira olishi mumkin ham bo‘lmagan bo‘lsa, u holda mazkur qilmishni jinoyat deb topish mumkin emas. Bunday hollarda javobgarlikka tortish va jazolash biror-bir maqsadsiz bo‘lib, u «qasos olish»dan boshqa ma’noni ifodalamaydi.

Aybdorlik prinsipida jinoyatning obyektiv va subyektiv alomatlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlik aks etadi. Fikrlar, kayfiyatlar, maqsad va xohishlar obyektiv voqelikda amalga oshib, muayyan qilmishlar shakliga ega bo‘lmasa, ularni jinoiy hodisalar deb bo‘lmaydi. Ayni paytda, shaxsning qonun taqiqlagan qilmishlarni sodir etishi va buning natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlarning paydo bo‘lishi mazkur qilmishning tanlanganidan guvohlik beradigan shaxs qilmishining tabiati, ijtimoiy va huquqiy ahamiyati anglanmagan hollarda uni javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi. Shu boisdan faqat birgalikdagi obyektiv xulq-atvor irodasi mahsuli bo‘lgan qilmishlargina uning zimmasiga jinoiy javobgarlikni yuklash uchun huquqiy asos bo‘ladi. Faqat ana shunday oqilona yondashuv jinoyat huquqi vazifalarining samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi.

*Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi (JK 10-m.).* Jinoiy-huquqiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipi jinoyatni sodir etgan har bir shaxsning mazkur jinoyat uchun javobgar ekanligini ifodalaydigan asosiy qoidadir. Javobgarlik chorasi Jinoyat kodeksining odillik va boshqa prinsiplariga asosan belgilanadi.

Mazkur prinsipning Jinoyat kodeksida belgilanishining sababi shundaki, u fuqarolarga qaratilgan bo‘lib, mohiyatiga ko‘ra, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab shaxs va davlat o‘rtasida vujudga keladigan jinoiy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi majburiyatlardan birini mustahkamlaydi. Qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo‘lgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart, degan qoida Jinoyat kodeksining 2-moddasida ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgandir.

## 3. Jinoyat huquqiga oid siyosat

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bir siyosiy va iqtisodiy tizimdan boshqasiga, totalitarizmdan demokratik va bozor munosabatlariga o‘tish, odamlar ongiga o‘n yillab singdirilgan mafkuraviy aqidalarni kundalik hayotimizdan tag-tomiri bilan yo‘qotish zarurligini belgilab berdi. Bu jarayon, ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va sinfiy-mafkuraviy andazalarning yig‘ilib qolgan g‘oyaviy aqidalari jinoyat huquqiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazganligini ta’kidlash joiz.

Totalitar mazmun singdirilgan jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati «sotsializm» davrida kuchli ta’qib ostida bo‘lgan. U o‘z mohiyatiga ko‘ra, kapitalistik burjua huquqiga nisbatan «reaksion va xalq manfaatlariga qarshi» degan munosabatda bo‘lgan va totalitar ravishda kirgizilgan sovet jinoyat huquqi o‘zining sinfiy tarkibi va ustunligi jihatidan yangi va oliy turdagi jinoyat huquqi degan mafkuraviy qarashni keltirib chiqargan[1]. Buning birinchi sababi «odamlar ongidagi eskilik sarqitlari»ning mavjudligi deb hisoblangan. Jinoyatchilikning yaqin o‘n yillar ichida bartaraf etilishi muqarrarligi va bu muammoni faqat kommunizm quribgina hal qilish mumkin, degan afsonaviy yanglish siyosiy g‘oyaviy yo‘nalishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu xato qarashlar jinoyatchilikka qarshi kurash va uning rivojlanishini aniqlashga oid real strategiyani ishlab chiqishga yo‘l qo‘ymadi. Jinoyat qonunini boshqaruv partiyani strukturasi va idoralari o‘z manfaatlari yo‘lida nazorat qilar edi. Jinoyatchilikka qarshi kurashni ko‘z-ko‘z qilish maqsadida, partiya rahbarlarining har qanday ko‘rsatma va buyruqlari noilojlikdan bir zumda bajarilar edi.

Jinoyat huquqiga mansabparastlarcha munosabat, uni «har dardga davo

---

[1] Qarang: *Пионтковский А.А.* Марксизм и уголовное право. – М., 1929. – С. 160; *Булатов С. Я.* Уголовная политика эпохи империализма. – М., 1933. – С. 225; *Гришаев П. И.* Политическая сущность уголовного права современных империалистических государств: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 1968. – С. 38; *Гришаев П.И.* Репрессии в странах капитала. – М., 1970. – С. 264; *Воронин Ю. А.* Тенденции современной буржуазной уголовной политики: (уголовно-правовые аспекты). – Воронеж, 1983. – С. 165; ва бошқалар.

(panatseya)» sifatida ko‘rib chiqishga olib keldi, ya’ni unga har qanday jinoyatni, shu jumladan, ijtimoiy xavflilik darajasi katta bo‘lmagan qilmishlarni ham tag-tubi bilan yo‘q qiladigan universal vosita sifatida qaralgan. Jinoiy jazo tahdidi ostida biron-bir qilmishni taqiqlab qo‘ysak, u o‘z-o‘zidan darhol yo‘qolib ketadi, degan fikrlar hukmronlik qilar edi.

Afsuski, bunday fikrlar ba’zan bugungi kunda ham uchrab turibdi. Shunga qaramay, ushbu hodisalarning ko‘pchiligini jinoiy-huquqiy vosita va majburlash yordamida emas, balki tegishli ijtimoiy-iqtisodiy yoki boshqa siyosiy boshqaruv choralari bilan bartaraf etish mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatida real strategiyaning yo‘qligi jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asosi bo‘lgan qonunlarimizda bevosita o‘z aksini topgan. Shuning uchun qonunchilikni rivojlantirishning birinchi bosqichi butunlay yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga, eskicha fikrlash tarzlarini ongimizdan chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Davlatchilikni shakllantirishning bu bosqichida yangi jinoyat qonunini ishlab chiqish kechiktirib bo‘lmas vazifa hisoblanardi. Oldimizda stalinchilik davridagi g‘oyalar singdirilgan va totalitar rejimni aks ettirgan 1959-yilgi jinoyat qonunidan farqli o‘laroq, fuqarolik jamiyatining negizini shakllantirish va yangi davlatchilikni rivojlantirish istiqbolini hamda yangi iqtisodiy tizimda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holatlarni inobatga olgan holda, mustaqil davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy negizini tashkil qilishi kerak bo‘lgan jinoyat qonunini ishlab chiqish muammosi turardi.

«O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi[1] 1992-yil 8-dekabr qonunida hamma qonunlarni, jumladan jinoyat qonunlarini ham O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirish zarurligi qayd etilgan. Bunday qaror qabul qilinishining boisi shundaki, Konstitutsiya huquq sohasini tashkil etuvchi aniq huquqiy normalarni shakllantirish va ularni tadqiq etish jarayonida taraqqiyparvar prinsiplari mavjud bo‘lgan demokratik huquqiy siyosatning strategik tizimini aniqlab berdi: modomiki, «aniq yo‘lga qo‘yilgan qonun tizimi bo‘lmas ekan, demokratiya ham bo‘lmaydi»[2].

Keng ma’noda qaralganda, umumijtimoiy va maxsus shakllarning keng spektrini o‘z ichiga oluvchi g‘ayriijtimoiy hollar bilan kurash sohasi bo‘yicha siyosatning bir yo‘nalishi bo‘lgan jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati huquqiy siyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati tor ma’noda jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoiy jazoni ijro etish qonunlarini qamrab oladi. Shunga asoslangan holda, jinoyatchilikka qarshi kurashni bir necha asosiy yo‘nalishlarga ajratsa bo‘ladi: a) jinoyat huquqiga oid siyosat; b) sudga oid siyosat; d) penitensiar (jinoiy jazoni ijro etish) siyosat; e) profilaktik siyosat. Shunday qilib,

---

[1] Qarang: O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. – T., 2008. – 6-б.

[2] *Каримов И. А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997.

jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati sohasining tarkibiy qismini jinoyat huquqiga oid siyosat tashkil etar ekan.

Jinoyat huquqiga oid siyosat, o‘z navbatida, jinoyat huquqi xazinasidagi usul va choralar yordamida fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashda va jinoyatchilikning oldini olishda, hayot uchun muhim va qadrli bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan jinoiy-huquqiy choralar bilan qo‘riqlashda davlat faoliyatining prinsiplari, maqsad va yo‘nalishlari majmuini tashkil etadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati fuqarolarning professional va umumiy huquqiy madaniyatini, qonunga itoat qilishi, huquqiy ongining darajasini ko‘tarish borasidagi huquqni qo‘llash va huquqiy ijodkorlik faoliyatida amalga oshiriladi.[1]

Jinoyat huquqiga oid siyosat masalalarini yuqorida ko‘zda tutilgan hamma bosqichlarda, samarali yechish, asosan, ularning metodologik jihatdan qanchalik ta’minlanganligiga bog‘liqdir.

Ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ko‘rsatmalari bilan yangi davlatchilikning umumiy metodologik asoslarini shakllantirishga oid mualliflik huquqi ishlab chiqilgan. Yurtboshimiz o‘zining asarlari va so‘zlagan nutqlarida davlatchilikni tubdan o‘zgartirish chora-tadbirlarini taklif qildi va buning aniq yo‘llarini belgilab berdi, keyinchalik amaliyot bu yo‘lning to‘g‘riligini yana bir karra tasdiqladi.

Jinoyat huquqiga oid siyosat hamma vaqt huquqni amalga oshirishning boshqa shakllari uchun asos bo‘lgan va jinoyat qonunlarini isloh qilishni metodologik jihatdan ta’minlab kelgan. Uning konsepsiyasi, ya’ni asosiy g‘oyalari majmui, vazifa va qoidalari ular qonuniyligining nazariy asoslanganligi va maqsadga muvofiqligini tashkil qilgan. Bularning ko‘pchiligi 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida o‘z aksini topgan.

Shuni ta’kidlash zarurki, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini amalga oshirishning asosiy shakli bo‘lgan yangi jinoyat qonunida jinoyatchilikka qarshi kurashning bosh maslagi aks ettirilgan. Bu jinoyat qonuni mazmunidagi ko‘rsatma va taqiqlarni buzgan har qanday shaxs va har bir jinoyat uchun qo‘llanishi muqarrarligi – jinoyat qonunining bevosita maqsadini ta’minlash yo‘li bilan uning samaradorligini oshirishdan iboratdir. Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati o‘z oldiga qo‘ygan «jinoyatchilikni kamaytirish» maqsadini amalga oshirishning huquqiy asosini jinoyat qonuni tashkil etadi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining amalga oshirilishi va jinoyat qonuni harakatining samaradorligi to‘g‘risida bugungi kunda ba’zi bir yakunlar yasash mumkinligini belgilab o‘tish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘zining

---

[1] Huquqiy madaniyat haqida to‘laroq ma’lumot olish uchun qarang: *Таджиханов У.* Научно-теоретические проблемы правовой культуры: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Т., 1995. – 48 б. *Uning o‘zi.* Правовая культура и правовая идеология в суверенном Узбекистане. – Т., 1995; *Uning o‘zi*. Закон. Человек. Государство. – Т., 1997.

«O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta’kidlashicha, bizda jinoyatchilik kamaydi va u MDH mamlakatlari orasida eng past darajada[1].

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikka qarshi siyosatining aniq yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ri amalga oshirilishi jinoyatchilikka qarshi kurashning aniq maqsadlarini samarali ravishda tatbiq etishga imkon beradi. Shubhasiz, bu ba’zi bir iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy xususiyatga ega bo‘lgan omillarga, ammo ko‘proq jinoyat huquqiga oid siyosat belgilagan jinoyatchilikka qarshi kurashning maxsus choralari ta’sirchanligiga ham bog‘liqdir.

Jinoyat huquqiga oid siyosat o‘z oldida turgan maqsadlar bilan shartlangan o‘ziga xos mazmunga egadir. Jinoyat huquqiga oid siyosatning maqsadlari quyidagilardan iborat: jinoyat toifasiga kiritish zarur va maqsadga muvofiq bo‘lgan qilmishlar doirasini aniqlash; ijtimoiy xavfli va jinoiy deb topilgan harakatga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan jinoiy-huquqiy ta’sir choralarining xususiyati va hajmini aniqlash; jinoiy-huquqiy ta’sir choralarining samaradorligini oshirish orqali aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish hisoblanadi.

Jinoyat huquqiga oid siyosat, asosan, uch shaklda: huquqiy ijodkorlik, huquqni qo‘llash va huquqiy tarbiya shakllarida amalga oshiriladi.

Jinoyat huquqiga oid siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishi – qilmishni kriminalizatsiya qilish muammolari mujassamlashtirilgan *huquqiy ijodkorlik*.

*Kriminalizatsiya* u yoki bu harakatlarning ijtimoiy shart-sharoitlarini aniqlab, jinoyat toifasiga kiritish, jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari va shartlarini belgilash hamda ularning yechimini jinoyat qonunida normativ ravishda mustahkamlash jarayoni va natijasidir.

*Dekriminalizatsiya* kriminalizatsiya jarayoni va natijasiga qarama-qarshi bo‘lib, ilgari jamiyat uchun xavfli va jinoiy deb topilgan u yoki bu harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni istisno qilish hamda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy asoslari va shartlarini aniqlashdir.

Qilmishni kriminalizatsiya qilish uning jazoga loyiqlik xususiyatini aniqlash zarurligini keltirib chiqaradi. Kriminalizatsiyaning tarkibiy qismini tashkil etuvchi, jinoyat deb hisoblangan qilmish uchun jinoiy jazo yoki boshqa jinoiy-huquqiy ta’sir choralarini belgilab beruvchi jarayon va natija *penalizatsiya* deb ataladi.

*Depenalizatsiya* deganda, jinoyat deb hisoblangan qilmish uchun jazoni yengillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi holatlar tushuniladi.

Jinoyat huquqiga oid siyosatning ikkinchi yo‘nalishini surishtiruv, tergov organlari va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarining sud-tergov amaliyotida jinoiy-huquqiy normalarni amalga oshirish borasidagi *huquqni qo‘llash faoliyati* tashkil etadi. Bu faoliyat faqat jinoyat qonuni doirasida, Jinoyat kodeksida ko‘zda tutilgan va jinoyat huquqiga oid siyosatning prin-

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 221-б.

siplariga tayangan holda olib borilishi kerak.

Huquqni muhofaza qilish va sudlov organlarining jinoyat qonunini qo‘llash faoliyati qonun ijodkorlik faoliyatidir, zero, qonun ko‘pgina masalalarni mustaqil yechishdan bu organlarni mahrum qilib qolmay, balki ko‘p holatlarda amaldagi jinoyat qonuni doirasida foydalanilayotgan shakl va usullarni qo‘llagan holda, kriminalizatsiyalash va dekriminizatsiyalash, penalizatsiyalash va debenalizatsiyalash masalalarini hal qilish imkonini beradi. Jinoiy ishni to‘xtatish, jinoiy javobgarlik va jazoni rad qilish uchun asos shartlarini ko‘zda tutuvchi jinoyat qonunidagi bir qator normalarning mavjudligi bularning isboti bo‘lib hisoblanadi. Qoida tariqasida, qonun odil sudlov organlariga jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish qarorini qabul qilish huquqini bergan, biroq bunday qaror tergovchi, prokuror, sudyaning baholash faoliyatiga asoslangan bo‘lishi shart. Masalan, sud shartli hukmni (JK 72-m.) ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari kabi jazo choralari tayinlangan shaxslarga ularning xulqini belgilangan jazoni o‘tamasdan turib ham o‘zgartirish mumkin, degan fikrga kelgan holdagina qo‘llashi mumkin. Shuning o‘zi debenalizatsiya shaklidir.

Huquqni qo‘llashdagi dekriminalizatsiya shakli deb huquqni muhofaza qilish organlarining Jinoyat kodeksining 66-moddasida ko‘rsatilgan, ya’ni ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish shartlarini qo‘llashiga aytish lozim. Shaxs jinoyat tufayli yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilgan, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan hamda yuqorida ko‘rsatilgan shartlarning yig‘indisi mavjud bo‘lgan taqdirdagina bunday shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Jinoyat huquqiga oid siyosatni amalga oshirishning uchinchi shakli – *huquqiy tarbiya*. Huquqiy tarbiya nafaqat jinoiy-huquqiy bilimlar sohasida, balki jamiyatimiz oldida turgan dolzarb muammodir. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «davlatimiz aholisi va ayniqsa yoshlarning huquqiy tarbiyasini sifat darajasiga ko‘tarishga zarur ehtiyoj bor». Jamiyatdagi jinoyatchilik va korrupsiya olib kelgan yemirilishdan eng yaxshi himoya huquqbuzarlikka qarshi bo‘lgan ichki immunitet, ya’ni fuqarolarimizning yuksak axloqidir. Oilada, maktabda, mehnat jamoasida olib boriladigan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obro‘-e’tibori – hamma-hammasi odamlarimiz ongida «qonun har qanday salbiy xatti-harakatlarga nisbatan barqaror qarshilik vositasidir», degan fikrni shakllantirishga qaratilishi lozim[1].

Ham qonun ijodkorligi, ham huquqni qo‘llash darajasida olib borilayotgan Jinoyat huquqiga oid siyosatning ta’sirchanligi ko‘proq uni davlatimiz fuqarolarining o‘zlashtirishlariga bog‘liq, modomiki, u jamiyat va

[1] Qarang: *Каримов И. А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 94-б.

shaxsning ongida o‘z aksini topmog‘i lozim. Huquqiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish orqali ongga ta’sir ko‘rsatishda qonun chiqaruvchining jinoyat sifatida ko‘rib chiqayotgan harakat haqidagi tushunchasini shakllantirishga mavjud jazo choralari haqida, jinoyat va jazoning o‘zaro munosabati haqida, jinoiy javobgarlikka tortish va undan ozod qilish keng asos va shartlari haqida, boshqa huquqiy institutlar haqida tushunchalar muhim amaliy ahamiyatga ega, zero bular yetarli darajadagi huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgandir. Jinoiy-huquqiy tarbiya shunday yo‘sinda amalga oshirilishi kerakki, unda har bir fuqaro passiv kuzatuvchi bo‘lib qolmay, balki faol qatnashchi va ijobiy ijtimoiy munosabatlar ijodkori bo‘lsin. Bu har bir kishining Konstitutsiya va qonunlar bergan va kafolatlagan huquq va erkinliklardan foydalanishni o‘rganishi zarurligini, davlat va jamiyat manfaatlarini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini buzmaslikni, shart qilib qo‘yadi (Konstitutsiyaning 20-m.).

Demak, har bir fuqaroning ko‘zda tutilgan huquqiy majburiyatlarni bajarish darajasi bevosita jamiyatda inson huquq va erkinliklariga rioya qilish darajasiga bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, huquqiy va nohuquqiy harakatlar nisbatidan kelib chiqadigan qonuniylik darajasini aniqlashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu masala ko‘proq jinoiy-huquqiy tarbiya, faol qonuniy harakatlarni tarbiyalash orqali hal etilishi kerak.

Qonuniy harakat subyektning huquqiy normalar talabining ongli ravishda bajarilishi, deb izohlangan ijobiy javobgarlik nuqtai nazariga to‘g‘ri keladi. Faylasuf V. P. Tugarinovning aytishicha, «javobgarlik aqlni amalda qo‘llashning axloqiy tomonidir»[1]. Bu, haqiqatan ham shunday, negaki ijobiy javobgarlik masalasiga huquqda shaxsning davlat, jamiyat va boshqa shaxslar oldidagi o‘z majburiyatlarini ongli ravishda bajarishi subyektiv omil sifatida qaraladi. Shaxsning majburiyatlarni mensimasligi, bajarmasligi davlatni nafaqat bunday harakatlarga salbiy baho berishga, balki jinoyatchiga nisbatan tegishli og‘ir majburlov choralarini qo‘llashga majbur qiladi.

Davlatning muhim ijtimoiy vazifasi har xil ijtimoiy manfaatlarni tartibga solish va ularni barqarorlashtirishdan iborat. Bunga hokimiyat vakolatlarini qo‘llagan holda, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, o‘zida jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asoslarini mujassamlashtirgan, jinoyat huquqiga taalluqli bo‘lgan choralarni, shuningdek, maxsus yuridik choralarni va ommaviy majbur qilish imkoniyatini qo‘llash orqali erishiladi.

Ko‘rsatilgan holatlar jamiyat va yakka shaxslar ongiga singdirilishi kerak. Bu kelajakdagi huquqiy tarbiya vazifasi bo‘lib, buni hal qilmasdan, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining boshqa yo‘nalishlarini amalga oshirish samaradorligiga erishib bo‘lmaydi.

Yuridik adabiyotda ta’kidlanganidek, huquqiy tarbiya shaxsning dunyoqarashiga keng qamrovli ta’sir etuvchi vosita bo‘lib, u doimiy ravishda, har tomonlama olib borilishi kerak va huquqiy bilimlarni tarqatish bilan birga,

[1] *Тугаринов В. П.* Личность и общество. – М., 1965. – С. 52.

qonunga rioya etishni shakllantirishi lozim[1]. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, jinoyat huquqi borasidagi tarbiya fuqarolar va mansabdor shaxslarni jinoyat huquqiga oid siyosatning umumiy masalalari bilan tanishtirishdangina iborat bo‘lmay, ularni jinoyatchilikka qarshi kurashdagi aniq jinoiy-huquqiy muammolar bilan ham albatta tanishtirishi shart[2].

Xulosa o‘rnida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma’ruzasida bildirgan fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq: «Qonunni himoya qilish, sud, prokuratura organlarining asosiy vazifasi, avvalo, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning o‘z huquqlarini, qonunlarni yaxshi bilishlariga erishish, huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha samarali ish olib borishdan iboratdir. Biz mana shu oddiy haqiqatni tushunib yetsak, o‘shanda jamiyatimizda jinoyatchilar soni ham keskin kamayadi»[3].

## 4. Jinoyat huquqi fani

Jinoyat huquqi fani huquqning mustaqil sohasi bo‘lishi bilan bir qatorda, O‘zbekiston huquqshunoslik fanining tarkibiy qismi hamdir.

*Jinoyat huquqi fani* jinoyat qonunlarining rivojlanish tarixi; huquq va fan sohalari; amaldagi qonunchilik; jinoyat huquqiga oid normalarni qo‘llash samaradorligi; chet davlatlarning jinoyat huquqi va qonunlari; xalqaro jinoyat huquqi normalari; jinoyat qonunlarini qo‘llashning nazariy muammolari; jinoyat huquqi sotsiologiyasi; jinoyat qonunining asoslanganligi va shartlanganligi hamda inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlariga xavf soluvchi turli xulq-atvor shakllari hamda boshqa shu kabi muammolarni o‘rganishga bog‘liq ilmiy nuqtai nazar, g‘oya, tushuncha va nazariyalar tizimidir.

Jinoyat huquqi fanining asosiy vazifasi amaldagi qonunlarni qo‘llash, ularni istiqbolda takomillashtirish, samaradorlik darajasini oshirishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish, shuningdek, jinoyat huquqiga oid siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida jinoyat qonunlarining taraqqiyotini ilmiy bashorat qilishdan iborat.

Shunday qilib, jinoyat huquqi fanining predmeti huquq tarmog‘i bo‘lgan jinoyat huquqi predmetidan kengroq va murakkabroqdir. Binobarin, jinoyat huquqining predmeti jinoyat huquqiga oid munosabatlar bo‘lsa, jinoyat huquqi fanining predmetiga amaldagi qonunlar, ularni huquqiy qo‘llash muammolari, jinoyat huquqiga oid normalar va ularni qo‘llash samaradorligi, jinoyat huquqi

---

[1] Qarang: *Таджиханов У., Саидов А.Х.* Правовая культура общества: состояние, тенденции и перспективы развития // Народное слово. – 1998. – 22–23 янв.

[2] Batafsilroq qarang: *Таджиханов У., Саидов А.Х.* Повышение правовой культуры – важнейшее направление государственной политики // Правда Востока. – 1998. – 20 янв; *Таджиханов У.* Закон. Человек. Государство. – Т., 1997.

[3] *Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003. – 51-б.

tarixi, jinoyat huquqiga oid taqiqning ijtimoiy shart-sharoitlari, jinoyat huquqiga oid taqiq mexanizmi, dekriminalizatsiya muammolari, chet el jinoyat qonunchiligi va jinoyat qonuni, jinoyatlarning oldini olish va tarbiyalashning jinoyat huquqiga oid muammolari kabi masalalarni o‘rganish kiradi.

Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni anglash uchun jinoyat huquqi nazariyasida ilmiy tadqiqotning ma’lum *metodologiyasidan* foydalaniladiki, u ilmiy qonuniyatlarni anglash usullarining yig‘indisini tashkil etadi. O‘z navbatida, ushbu usul real borliqni anglash va u haqda obyektiv bilimlarga ega bo‘lishning ma’lum usul va vositalari, yo‘llarini o‘zida mujassamlashtiradi[1]. Alohida usullar va umuman metodologiyaning o‘zi muayyan fanning predmeti va mazmuniga tayanadi. Binobarin, fan mazmuni ham, o‘zi borliqni o‘rganish uchun qo‘llaydigan usullarga asoslanadi.

Ta’kidlash joizki, hozirgi kungacha huquqning umumiy nazariyasidagi kabi, boshqa tarmoq huquqiy fanlarida metodologiya masalasi bo‘yicha yagona fikrga kelinmagan bo‘lib, u ba’zida dialektika usuliga o‘xshatilsa, boshqa hollarda huquqshunoslikning ilmiy-falsafiy jihati yoki maxsus usul va vositalar yig‘indisi sifatida tushunilgan.

Sobiq «sotsialistik» davrda jinoyat huquqi fanining metodologiyasi haqidagi masala munozarali bo‘lmagan, chunki o‘sha davrda 1917-yildan so‘ng qabul qilingan markscha-lenincha materialistik dialektikaga asoslangan nuqtai nazar mavjud edi. Bunda asosiy e’tibor ag‘darib tashlangan tuzum va yangidan qurilayotgan sotsialistik jamiyat o‘rtasidagi tub ziddiyatlarni aniqlash, kriminalist olimlar va amaliyotchilar ilgari qilgan kashfiyotlarni yo‘q qilishga qaratilgan. Bu «Marksizm va jinoyat huquqi» asarida yaqqol o‘z aksini topgan bo‘lib, unda e’tirof etilishicha, «inqilobiy marksizmning umumiy amaliy vazifasi qo‘poruvchilik, ya’ni kapitalistik tuzumni ag‘darib tashlashdir», shu munosabat bilan «marksizmning butun nazariy faoliyatining xususiyati ushbu asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak»[2]. Bundan «jinoyat huquqi sohasida ham mazkur yo‘nalishda ishlar amalga oshirilishi shart»[3] degan xulosa kelib chiqadi. Shuni aytish kerakki, ushbu «asosiy yo‘nalish» izchil amalga oshirilgan va bor narsa «tag-tubi bilan» yo‘q qilinganidan so‘ng, o‘ziga xos butunlay yangi «negiz»da sotsialistik jinoyat huquqining «yangi binosi» qurila boshlagan. Bu davrda chop etilgan jinoyat huquqi bo‘yicha oxirgi darslikda «jinoyat huquqi fanida nazariy bilishning prinsipial va tekshirilgan asosini dialektik-materialistik metodologiya tashkil qilgan va tashkil qiladi»[4] deb yozilganini ta’kidlab o‘tish kifoya.

Jinoyat huquqi metodologiyasining mohiyati masalasida huquqshunos

---

[1] Qarang: Теория государства и права / Под ред. М. Н. Марченко – М., 1996. – С. 17; Общая теория права / Под общ. ред. А. С. Пиголкина. – М., 1996. – С. 17; *Наумов А.В.* Российское уголовное право. Общая часть. – М., 1996. – С. 29; ва бошқ.

[2] *Пионтковский А. А.* Марксизм и уголовное право. – М., 1929. – С. 5.

[3] O‘sha joyda.

[4] Советское уголовное право. Общая часть. – М., 1988. – С. 13.

olimlar ma’lum noaniqliklarga, ba’zida esa ilmiy ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yganlar. Shubhasiz, buning obyektiv va subyektiv sabablari bor, biroq ular tanqid ostiga olgan manbalar va asarlar qiyoslanganida, ko‘pgina ta’nalarning noo‘rinligi ayon bo‘ladi.

Agar sovet sotsialistik jinoyat huquqi va burjua yurisprudensiyasi normalarini o‘rganish metodologiyasi orasidagi tafovutlarni isbotlash bo‘yicha ta’kidlarni tizimlashtirmoqchi bo‘lsak, ularning hammasi quyidagi nuqtai nazarga yondashishi ayon bo‘ladi, chunonchi burjua yurisprudensiyasi quyidagilarga tayanadi: huquqiy normalar mazmunini ularni formal-mantiqiy tahlil qilish orqali tushunish mumkin; huquqni faqat uning o‘zidan tushunish mumkin; burjua huquqiy fani huquqiy normalarni ularning ijtimoiy-huquqiy mazmunidan, ular tartibga soluvchi jamoat munosabatlaridan uzilgan holda o‘rganadi[1] va hokazo. Sovet sotsialistik jinoyat huquqining burjua huquqidan afzalligi esa, «undagi barcha asosiy tushunchalar va institutlar (qonun-qoidalar)ning mavhum yuridik tushuncha sifatida emas, aksincha, tarixiylik, sinfiylik, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, determinatsiya qonuniyatlariga asoslangan ijtimoiy hodisalar sifatida o‘rganilishidan iborat»[2].

Jinoyat huquqi fanining rivojlanish tarixi hamda XIX asrning 70-yillari o‘rtalaridan boshlab yuz bergan jarayonlarga nazar tashlaganidan so‘ng ushbu yondashuvning haqqoniyligi va adolatliligini baholash mumkin. Chunonchi, ushbu davr jinoyat huquqi fani sohasida klassik yo‘nalish bilan bir qatorda, yangi ijtimoiy va antropologik yo‘nalishlarning yuzaga kelishi bilan ta’riflanadi. Shu munosabat bilan, jinoyat huquqining klassik maktabi namoyandasi rus kriminalisti V. D. Nabokov o‘zining 1896-yil 9-sentabrda Imperatorlik huquqshunoslik bilim yurtida o‘qigan «Jinoyat huquqi fanining mazmuni va usuli» nomli ma’ruzasida «fanimiz mavzusining o‘zi, oddiy qilib aytganda, savol tug‘diradi», chunki «fikrlar xilma-xilligi va ular orasidagi bahslar jinoyat huquqi fanining alohida tafsilotlariga emas, aslida uning mazmuni, usuliga tegishlidir»[3], – deb ta’kidlaydi.

Ijtimoiy maktab namoyandasi M. N. Gernet shu xususda qat’iy qaror chiqargan holda «jinoyat huquqi fanida izchil bosqichlarni hamma vaqt kuzatsa bo‘ladigan evolutsiya emas, aksincha, qo‘qqisdan inqilob yuz berdi»[4], – deb ta’kidlaydi. Buyuk olim yangi ta’limot tarafdorlari qarashlarining inqilobiyligini, eng avvalo, fan metodologiyasi bilan bog‘lagan.

Xo‘sh, jinoyat huquqining klassik, ijtimoiy va antropologik maktablari orasidagi tafovutlarning mohiyati nimada?

Jinoyat huquqi fanining klassik yo‘nalishi mantiqiy (boshqacha qilib aytganda, deduktiv, huquqiy yoki dogmatik) usulga tayanib, uning mohiyati jinoyat va jazoni faqat huquqiy tushunchalar sifatida o‘rganish va ularni turmush sharoitidan ajratgan holda aniqlash va tekshirish zarurligidan iborat

---

[1] Qarang, masalan: Курс советского уголовного права. Т. 1. – М., 1970. – С. 20.

[2] Советское уголовное право. Общая часть. – М., 1988. – С. 13.

[3] *Набоков В.Д.* Сборник статей по уголовному праву. – СПб., 1904. – С. 1.

[4] *Гернет М. Н.* Социальные факторы преступности. – М., 1905. – С. 4.

bo‘lgan. Mazkur fikr ushbu maktab namoyandalarining ko‘pgina asarlarida o‘z aksini topgan[1]. Sovet davridagi olimlar klassik yo‘nalish ta’limotidagi aynan ko‘rsatib o‘tilgan mutlaq nazariyalarni tanqid qilgan holda, XX asr boshlarida keng tarqalgan utilitar va aralash nazariyalarning mavjudligini ham inkor etganlar. Shubhasiz, huquqiy tushunchalar va normalarning yuridik tahlilini mutlaqlashtirish, ijtimoiy borliqni ongli ravishda rad etish hayot mantig‘i va tushunchalar mantig‘i orasida tafovutlarni yuzaga keltirar ediki, bu aslida yuridik usulning asosiy kamchiligini tashkil etardi.

Klassiklar ta’limotida eng zaif joy jinoyatchining shaxsiyati, sodir etilayotgan jinoyatlarning turlari va tugallanganlik darajasi, shuningdek, qo‘llanishga taalluqli jinoiy jazo choralaridan kelib chiqqan holda, jinoiy javobgarlikka tabaqalashtirilgan yondashuvni asoslash muammosi bo‘lgan. O‘z navbatida, ularning ta’limotlarini pozitiv va induktiv usulga asoslangan jinoyat huquqining antropologik va ijtimoiy yo‘nalishlarining namoyandalari qattiq tanqid ostiga olganlar. Biroq, shunday bo‘lsa-da, klassik maktabning o‘z afzalliklari bo‘lib, u, jinoyat huquqiga oid tushunchalarni chuqur dogmatik tahlil qilish, mohirona ta’riflash, izchil tizimlash yordamida «jinoyatchilikka qarshi kurashni huquqiy tizimga solish orqali yuridik fan sifatida jinoyat huquqini yaratdi»[2]. Biroq ushbu maktab namoyandalari o‘zlari tanlagan metodologiya yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashning amaliy tadbirlari tizimini yarata olmadilar, natijada bu «bo‘shliq»ni boshqa maktab namoyandalari to‘ldirishga urindilar.

XIX asr 70-yillarining o‘rtalariga kelib, jinoyat huquqi fanida antropologik yoki boshqacha qilib aytganda, naturalistik maktab vujudga kela boshladiki, u klassik maktabdan farqli ravishda o‘zining tajriba usuliga tayangan holda «jinoyat huquqining pozitiv maktabi» deb atala boshladi. Ushbu yangi pozitiv usul jinoyat sabablari sifatida jinoyatchining somatik va jismoniy sifatlarini kuzatish, ya’ni: o‘lchash, taqqoslash, tekshirishdan iborat bo‘lib, uni yangi maktab tarafdorlari jinoyatchilikka qarshi kurashning haqiqiy yo‘lini topishning yagona usuli deb e’tirof etdilar[3]. Qizig‘i shundaki, bunday yondashuv tayangan holda, jinoyat tamoman tabiiy hodisa deb e’lon qilindi, chunki jamiyatda go‘yoki «jinoyatchi odam»ning alohida turi mavjud bo‘lib, u tug‘ilganidan boshlab jinoyat sodir etishga mahkum etilgan va o‘ziga xos anatomik alomatlarga egadir.

Ch. Lombrozoning tug‘ma jinoyatchi haqidagi ta’limoti avvaliga qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa-da, keyinchalik tanqidiy tekshiruv ostiga olinib, rad etilgan edi. Biroq, ta’kidlash joizki, antropologik tajriba o‘lchovlari orqali jinoyatchilarning ma’lum turlarini yaratish Lombrozo ta’limotining bir qisminigina

---

[1] Qarang: *Вульферт А.* Методы, содержание и задачи науки уголовного права (вступительная лекция в Демидовском юридическом лицее). – Ярославль, 1891. – С. 2; *Набоков В Д.* Сборник статей по уголовному праву. – СПб., 1904. – С. 5; ва бошқ.

[2] *Трайнин А.* Уголовное право. Часть Общая. – М., 1929. – С. 7.

[3] Qarang.: *Гернет М. Н.* Социальные факторы преступности. – М., 1905. – С. 10.

tashkil etardi va aynan uning ushbu tashqi jihati keyinchalik fosh qilingan edi. Lombrozo ta'limotining asosiy mohiyati esa E. Ferri asarlarida[1] o'z aksini topgan bo'lib, u ijtimoiy tadqiqotlarda bilishning tabiiy-ilmiy usullari (kuzatish va tajriba)dan foydalanishga asos solgan naturalistik usulga asoslangan biologik, biosotsial nazariya prinsipidan iborat edi. Adolat yuzasidan ta'kidlash joizki, jinoiy-antropologik maktab namoyandalari jinoyatning antropologik omili bilan bir qatorda, boshqa omillarini ham inkor etmaganlar. Binobarin, ular nomiga aytilgan ayblarning asosiy qismini ana shuning o'zi tashkil qilardi. Italyan kriminalisti *Fornasari di Vercening* 1894-yilda Turin shahrida chiqqan asari muqaddimasida Ch. Lombrozo, ushbu ayblovlar yuzasidan shunday deydi: «Yangi jinoiy-antropologik maktabga qarshi u yoki bu darajada tarqalgan yolg'on ayblovlarning ichida eng eskisi mavjud bo'lib, u haligacha bor: bu bizning iqtisodiy, atrof-muhit ta'sirini inkor etishimizdagi ayblovdir»[2]. Ch. Lombrozo fikrining tasdig'i sifatida, u 1897-yilda nashr ettirgan «Nomo delinquente» («Jinoiy odam») asari 5-nashrining 3-jildini misol qilsa bo'ladi[3]. Bu asarga murojaat etib, uning asosiy qismi iqlimiy, biologik va antropologik omillar bilan birga, jamiyatning taraqqiy topganligi, aholi zichligi, ochlik, unumsizlik, non narxi, ichkilikbozlik, maorif darajasi, aholining iqtisodiy farovonligi, ta'lim-tarbiya, yosh va boshqa jinoyatchilik holatiga ta'sir qiluvchi qator ijtimoiy omillarga bag'ishlanganligining shohidi bo'lish mumkin.

Jinoyat huquqidagi ijtimoiy yo'nalishning asoschisi M. V. Duxovskiy[4] klassiklar usulini tanqid ostiga olib, jinoyat huquqi fanini ta'riflashda faqat mavhum ahl-idrokdan emas, chinakam voqelikni o'rganishdan kelib chiqish»ga chaqirdi[5]. Uning fikricha, «jinoyat huquqiga faqat jinoyat va unga tayinlanadigan jazoni o'rganuvchi yoki jamiyat tuzumida jinoyat deb atalgan hodisani tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi fan sifatida qarash noto'g'ridir. Ushbu hodisani tadqiq qilar ekan, albatta fan, bir qarashdayoq jinoyatning anomal hodisa ekanligini tan oladi va shu sababdan ijtimoiy fanlar o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqqan holda, jinoyat huquqi mazkur anomal hodisaning kelib chiqish sabablarini o'rganishi va uni tugatish chora-

---

[1] *Ferri Enriko* (1856–1929) – Ch. Lombrozoning shogirdi va g'oyalarining davomchisi, avvaliga jinoiy-antropologik va jinoiy-sotsial yo'nalishlar orasida oraliq nuqtai nazarga ega bo'lib, keyinchalik fashizmga birikkan va ushbu yo'nalishning uslublari ko'proq pozitiv maktabga xos deb hisoblagan.

[2] *Гернет М. Н.* Социальные факторы преступности. – М., 1905. – С. 64-65.

[3] *Ch. Lombrozo* asarining bir qismi rus tiliga tarjima qilingan (d-r Gordonning tarjimasi) va 1900-yilda Sankt-Peterburgda nashr ettirilgan. 1917-yildan so'ng birinchi bor mazkur asar 1900-yildagi ruscha nashriga ko'ra, 1994-yilda Moskvada nashr ettirildi. (Qarang: *Чезаре Ломброзо*. Преступление. – М., 1994. – С. 187.).

[4] Qarang: *Остроумов С. С.* Преступность и её причины в дореволюционной России. – М., 1980. – С. 133.

[5] Qarang: *Духовской М. В.* Задачи науки уголовного права // Временник Демидовского юридического лицея. Кн. 4. – Ярославль, 1873. – С. 223.

tadbirlarini o‘ylab chiqishi kerak»[1].

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni M. V. Duxovskiy jinoiy-antropologik yo‘nalish paydo bo‘lguniga qadar bildirgan va mohiyatan ijtimoiy hamda naturalistik maktab tarafdorlari kabi, yuridik (dogmatik) usul mazmunini butunlay inkor etish yoki kamsitishga berilmagan. Vaholanki, huquqiy hodisalarni an’anaviy huquqiy-dogmatik tahlil qilishning cheklanganligi kabi, jinoyat huquqini naturalizatsiyalashtirishga umid bog‘lash jinoyatchilikka qarshi kurashda amaliy vazifalarni hal qilishga qodir emas edi. Shu sababli, ijtimoiy maktab tarafdorlari bu muammoni jinoyat omillari nazariyasini yaritish orqali alohida jinoyatlar majmuini empirik-statistik jihatdan o‘rganishga asoslanib hal qilishga uringanlar. Chunonchi, «jinoyat huquqi ijtimoiy ta’limotining metodologiya xatolaridan biri, aynan shundan iborat edi», chunki «statistika usullari faqat, qo‘pol qilib aytganda, ko‘rilayotgan alomatlardagi o‘zgarishlar parallelizmini kuzatishga imkon berardi, ammo jamoat munosabatlarining tabiati haqida hech nima demasdi»[2].

Sotsiologlar metodologiyasining zaifligi xulosalar va dasturlar asosiga jamoat taraqqiyotini belgilovchi omillar emas, ikkinchi darajali omillarning qo‘yilganligi, kuzatilayotgan hodisalar qonuniyatlari va o‘zaro aloqadorligini topish, mohiyatini tushunishga, hattoki oz bo‘lsa-da, urinishlarning yo‘qligida edi. Shunday bo‘lsa-da, jinoyatlar haqidagi ijtimoiy maktab ta’limoti metodologik nuqtai nazardan materialistik nazariya, biroq metafizik materializm ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Ushbu maktab namoyandalarining asosiy qismi taklif etgan ko‘rinishdagi ijtimoiy metodologiya maqsadga muvofiq emas, chunki «u eklektizmning tipik ko‘rinishi bo‘lib, tadqiqotning bir-biri bilan dialektik bog‘lanishga ega bo‘lmagan, aksincha, «jinoyat dogmatikasi», «jinoyat etimologiyasi» va «jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati» kabi mustaqil sohalarda birgalikda mavjud bo‘lgan huquqiy va ijtimoiy jihatlarning parallelizmidan iborat»[3].

Shunisi diqqatga sazovorki, yuqorida keltirilgan fikrni professor A. A. Gersenzon XX asrning 70-yillaridayoq o‘zining mashhur asarida bildirgan bo‘lib, u muallifning qarshilik bildirishiga qaramay, bir nechta asarlarda o‘z aksini topdi va keyinchalik huquqiy fanda mustaqil soha – kriminologiyaning yuzaga kelishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu o‘rinda metodologiya, ilmiy bilish usullari muammosi eng muhim muammolardan hisoblanadi, deb aytish o‘rinli, chunki bunga, umuman olganda, fan, shuningdek, jinoyat huquqi fanining mazmuni, to‘g‘rirog‘i, uning predmeti bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, jinoyat huquqi nuqtai nazaridan jinoyatchilikni o‘rganish metodologiyasi va usullari haqidagi bahslar nafaqat ushbu fan mazmuni, balki uning mavzusi muammosini keltirib chiqargani tabiiydir.

Metodologiya haqidagi munozaradan yuzaga kelgan ushbu yo‘nalishdagi

---

[1] O‘sha asar. – 251-б.

[2] *Лопаева В. В.* Конкретно-социологические исследования в праве. – М., 1987. – С. 11.

[3] *Герцензон А. А.* Уголовное право и социология. – М., 1970. – 22-б.

bahslar goh pasayib, goh kuchayib, haligacha o‘zining yagona va umum e’tirof etgan to‘xtamiga kelgani yo‘q. Biroq u ba’zi bosqichlarda mustaqil fan tarmoqlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi, masalan kriminologiya mustaqil huquqiy fan mavqeiga ega bo‘ldi, boshqalari esa ushbu yo‘nalishda o‘z yo‘lini topishga harakat qilmoqdalar.

O‘tgan va hozirgi asr olimlariga ehtirom ila va ko‘proq jinoyat huquqi faniga xizmat qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan hozirgi zamon olimlarining savodxonligini oshirish maqsadida, dalillarga o‘z nuqtai nazarimizni bildirmagan holda, faqat ularni umumiy tarzda keltirish orqali ushbu masala tarixiga nazar tashlashni lozim topdik.

Jinoyatlar xususida antropologik maktab tarafdorlari keskin nuqtai nazarga ega bo‘lib, nafaqat jinoyat huquqini yuridik fan sifatida bekor qilishga, balki avvalgi nomidan voz kechishga harakat qilganlar. Ferri mazkur yo‘nalishning eng yorqin namoyandasi bo‘lib, yuridik usulga ishonqiramay yondashgan va yangi fanni «jinoyat sosiologiyasi» deb atab, uning predmetiga jinoyatchilik sabablari, jinoyatchining shaxsiyati va jinoyatchilikka qarshi kurash masalalarini kiritgan. Italyan olimi Kolayanni ham «jinoyat sotsiologiyasi» deb ataladigan yagona fanni yaratishni va unga quyidagi boblarni kiritishni taklif qilgan: 1) jinoyatning rivojlanishi va etimologiyasi; 2) jinoyatga qarshi ogohlantirish va qatag‘on yoki jinoyat huquqi orqali kurashish; 3) jinoyatlarga qarshi kurashning ogohlantirish va qatag‘on qilish choralarining ahamiyatiga bog‘liq ravishda jinoyatchilik tarixi.

Rossiyalik fan namoyandalari M. V. Duxovskiy, I. YA. Foynitskiy, M. P.Chubinskiy, M. N. Gernet kabilar jinoyat huquqi fanining kengroq mazmunga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi nuqtai nazarga tayanib, jinoyatni nafaqat huquqiy hodisa sifatida, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham o‘rganish kerak, deb fikr yuritganlar.

Jinoyat huquqining klassik maktabi namoyandalarining fikricha esa, jinoyat huquqi faqat huquqiy fan bo‘lib qolishi kerak. Bunday fikrni N. S. Tagansev, N. D. Sergiyevskiy, N. N. Polyanskiy, S. V. Poznishevlar qo‘llab-quvvatlaganlar. Xususan, ular jinoyat huquqining jinoyat sotsiologiyasiga «singib ketishiga» yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi hamda jinoyatni o‘rganishning biologik va ijtimoiy usullarini inkor etmagan holda, bunday o‘rganishni boshqa fanlar – jinoyat antropologiyasi, sotsiologiya, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati amalga oshirishi kerak deb hisoblaganlar. Chunonchi, jinoyat huquqi fani, kerak bo‘lganida, ulardan zarur ma’lumotlarni olishi mumkin. Masalan, professor N.D. Sergiyevskiy huquqiy va ijtimoiy (ijtimoiy) usullarni bir fanda birlashtirishning nojoizligi haqidagi nuqtai nazarini asoslagan holda, huquqiy tadqiqotning maqsadi uchlamchidir, ya’ni: «birinchidan, sud amaliyotiga hayotda uchrab turadigan xususiy hodisalarni qonunning umumiy shaklida ifodalangan umumiy qoidaga bo‘ysundirish yuzasidan ko‘rsatma berish; ikkinchidan, qonun chiqaruvchiga hayotda uchrab turadigan xususiy hodisalarni qamrab olgan holda, ushbu qonunni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berish, uchinchidan, jinoyat huquqining ijobiy tajribasini o‘rgangan holda, amaldagi qonunni umumiy va qisman tushunish va

baholashga sharoit yaratishdir. Aksincha, ijtimoiy tadqiqot bunday maxsus amaliy maqsadlarga ega emas; sotsiolog olim bir narsaga, chunonchi, jinoyatning boshqa ijtimoiy hodisalar ichida o‘rni va mohiyatini anglashga intiladi»[1], – deb ta’kidlaydi.

Fanda huquqiy, ijtimoiy va antropologik elementlarining o‘zaro bog‘liqligiga nemis olimlari katta ahamiyat berganlar. Xususan, F. List jinoyat huquqi fanining predmetiga quyidagilarni kiritadi: 1) jinoyat va jazoni umuman huquqiy jihatdan tadqiq etish bo‘lib, ushbu yo‘nalishni *tor ma’noda jinoyat huquqi* deb ataydi; 2) jinoyatchilikning sabablarini o‘rganish uchun pozitiv usulni qo‘llash va mazkur yo‘nalishni *kriminologiya* deb belgilash; 3) jinoyatchilikka qarshi kurashning eng maqbul vositalari haqidagi ta’limot va ushbu yo‘nalishni *jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati* deb ataydi. F. List, o‘z navbatida, kriminologiyani *jinoyat antropologiyasi* (jinoyatni alohida inson hayotidagi hodisa sifatida o‘rganuvchi bo‘lim) va *jinoyat sotsiologiyasi* (jinoyatni ijtimoiy hodisa sifatida va uning ijtimoiy omillarini o‘rganuvchi bo‘lim)ga ajratadi.

Nemis olimi professor Varga birmuncha o‘zgacha talqinni taklif qiladi. Chunonchi, u «kriminologiya» mavzusi ostida uchta yo‘nalishni birlashtirishni taklif qiladi. Birinchi yo‘nalish *jinoyat antropologiyasi* deb atalib, u, o‘z ichiga a) jinoyat biologiyasi (u jinoyatni biologik hodisa sifatida o‘rganadi) hamda b) jinoyat sotsiologiyasini (u jinoyatni ijtimoiy omillar yordamida o‘rganadi) oladi.

Ikkinchi yo‘nalish *jinoyat huquqi* deb ataladi. Bunda, Varganing ijtimoiy maktab namoyandasi ekanligini hisobga olib, jinoyat huquqi predmetini jinoyatning oldini olish haqidagi ta’limot hisobiga to‘ldirish taklif etiladi. Ushbu yo‘nalishning ikkinchi tarkibiy qismini davlatning jazolash faoliyati tashkil etib, u uch qismdan iborat bo‘lgan: a) moddiy jinoyat huquqi; b) formal (rasmiy) jinoyat huquqi – zamonaviy talqinda jinoyat protsessi; d) jinoiy jazoni ijro etish protsessi (zamonaviy talqinda jinoyat ijroiya huquqi va h. k.). Uchinchi yo‘nalish sifatida *jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati* taklif qilinib, u, o‘z navbatida, u yoki bu qilmishni jinoyat toifasiga kiritishning asoslanganligi va unga qanday jazo turlarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligi haqidagi masalani hal qilishi lozim bo‘lgan qismga va mavzuni davlatda jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil qilishdan iborat bo‘limlarga bo‘linishi kerak edi.

Ta’kidlash joizki, «yangi» fan mazmuni va mavzusi haqidagi yuqorida aytib o‘tilgan prinsip o‘sha davrda amalga oshmay qolib ketgan, biroq uchala maktab o‘z tadqiqot usuliga ega bo‘lib, hozirgi zamon jinoyat huquqi metodologiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan edi. Ayniqsa, ushbu yo‘nalishlar orasida XIX asrda kuzatilgan qat’iy chegaralanish XX asrda yangi yo‘nalishlar bo‘lmish – «yangi klassiklar», «yangi antropologlar» va «yangi sotsiologlar»ning paydo bo‘lishi bilan yo‘q bo‘lib ketgan edi[2]. Shunday bo‘lishiga

---

[1] *Гернет М. Н.* Социальные факторы преступности. – М., 1905. – С. 20–21.

[2] «Neoklassiklar» va «neoantropologlar» nazariyasining mohiyati haqida qarang: *Трайнин А.* Уголовное право. Часть Общая. – М., 1929. – С. 19–26; *Герцензон А. А.*

qaramay, bu masala bo‘yicha munozara to‘xtagani yo‘q. Aksincha, «sotsializm» davrida 20-yillardan so‘ng jinoyat va jazoning huquqiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishga harakat qilinishiga qaramay, «Xrushchev davri»ga kelib jinoyat huquqidan ijtimoiy usulni qo‘llash muammosi umuman olib tashlangan edi. 60-yillarga kelib jonlangan bahs-munozaralar keyinchalik kriminologiyaning alohida fan bo‘lib ajralib chiqishiga imkon berdi hamda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati haqidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Bundan tashqari, jinoyat huquqi sotsiologiyasining shakllanishiga imkon berdi va ba’zi olimlarga birmuncha noan’anaviy yo‘nalishlar, masalan, jinoyat huquqiga oid etnografiyani tadqiq etishga turtki bo‘ldi[1].

Hozirgi vaqtda sanab o‘tilgan yo‘nalishlardan hech qaysisi asl holda saqlanmagan bo‘lib, jinoyat huquqida bilishning yagona usuli bo‘lishga da’vo qila olmaydi. Chunki ularning har biri u yoki bu hodisani ma’lum bir tarafdan yoritadi, xolos. Ammo bu ularning noilmiy usul, ekanligini bildirmaydi. Huquqiy-dogmatik, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy usullarning amaliy samarasizligi, «cheklanganligi», eng avvalo, ularning idealistik va metafizik usullarga tayanganligi bo‘lib, chunonchi, oxirgisi yalpi «maqom»ga ega bo‘lishga da’vo qiladi. Shu bilan birga, fan tarixi va ijtimoiy amaliyotning taraqqiyoti materiya va tabiatga nisbatan ong va tafakkurning birlamchiligi haqidagi xulosalarning asossizligini ko‘rsatdi. Demak, ushbu yo‘nalishda vohelikni bilishning yagona ilmiy usuli ilmiy falsafa usuli va dialektik usul hisoblanadi. Shu tufayli, iqtisodiy va siyosiy tizimlardagi o‘zgarishlarga qaramay, ular jinoyat huquqi sohasida ham asoslanishi lozim bo‘lgan aynan to‘g‘ri metodologik negiz hisoblanadi.

Biroq ilmiy falsafa usuli jinoyat huquqi fani asoslanishi kerak bo‘lgan yagona usuldir, degan fikrlar ham noto‘g‘ridir. Ayniqsa, agar bu uni «asl» holda qo‘llashga tegishli bo‘lsa, chunki u bilan birga, boshqa usullarni ham qo‘llash kerak bo‘ladi. Jinoyat huquqida ushbu usullar qatoriga huquqiy-dogmatik, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy, qiyosiy huquqiy, tarixiy va bir qator boshqa usullar kiradi. Ular bir qadar mustaqil bo‘lib, falsafiy usulga kirmaydi, vaholanki, oxirgisi jinoyat huquqiga oid tadqiqotlarda dialektikaning asosiy qonun va kategoriyalarini qo‘llash imkoniyatini beradi. Binobarin, ular jinoyat huquqiga tayyor sxematik ko‘rinishda qabul qilinmay, mazmuniga ko‘ra modifikatsiyalashadi va jinoyat huquqi faniga muvofiq ravishda maxsus ma’noga ega bo‘ladi. Barcha aytib o‘tilgan usullar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, uzviy birlikda qo‘llanishi kerak. Chunki aynan ilmiy falsafa u yoki bu fan tarmog‘ining usuli faoliyatini tanlash va yo‘naltirishni, balki har bir muayyan tadqiqotda qo‘llash shartlari, xususiyatlari va chegaralarini belgilaydi.

Biroq bunday yondashuvda jinoyat huquqining metodologiyasi haqidagi masala «ochiq» qoladi. Nazarimizda, huquqshunoslik bu sohada *huquqning*

---

Уголовное право и социология. – М., 1970. – С. 20–22; *Булатов С. Я.* Уголовная политика эпохи империализма. – М., 1933. – С. 91–216; ва бошқ.

[1] Qarang: *Нарбутаев Э. Х., Арзымбетов М. У.* Уголовно-правовая этнография. – Нукус, 1996. – С. 92.

*umumiy nazariyasi* sifatida tan olish kerak bo‘lgan maxsus metodologiyaga ega bo‘lib, o‘z navbatida, huquqiy fan sifatida va boshqa huquqiy fanlar, chunonchi jinoyat huquqi uchun metodologiya bo‘lib xizmat qiladi[1]. Ta’kidlash joizki, «muayyan huquqiy fanlar namoyandalarining huquqshunoslikdagi fundamental metodologik masalalarni ishlab chiqishiga ehtiyoj yo‘q, aksincha, huquqning umumiy nazariyasi bo‘yicha mavjud bilimlarni qo‘llash birmuncha qulay va maqsadga muvofiqdir»[2]. Shunday qilib, huquqning umumiy nazariyasi metodologik vazifaga ega bo‘lish bilan birga, jinoyat huquqi fani uchun metodologiya bo‘lib xizmat qilishi lozim.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. «Jinoyat huquqi» tushunchasi qaysi ma’nolarda qo‘llanadi?
2. Jinoyat huquqi predmetining qonun, huquq, fan sohasi va o‘quv fani sifatida o‘zaro munosabati?
3. Jinoyat huquqi fanining hozirgi vazifalarini sanab o‘ting.
4. Umuminsoniy qadriyatlarning jinoyat qonuni vazifalarini aniqlashdagi o‘rni nimada?
5. Jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati deganda nimani tushunish kerak?
6. Jinoyat huquqi fanining metodologiyasi?
7. Jinoyat huquqining umumiy huquq tizimidagi o‘rni va ahamiyati?
8. Jinoyat qonunlari prinsiplari tizimining umumiy tavsifi.
9. Jinoyat huquqida analogiya muammosi?
10. Subyektiv va obyektiv ayblov nima? Ularning jinoyat huquqi uchun ahamiyati nimada?
11. Odillik va tenglik prinsiplarining o‘zaro munosabati nimada namoyon bo‘ladi?
12. Odillik va insonparvarlik prinsiplarining o‘zaro munosabati nimada namoyon bo‘ladi?

---

[1] Qarang: *Шабалин В. А.* Методологические вопросы правоведения. – Саратов, 1972. – С. 23.

[2] Общая теория права: Учебник для юридических вузов / Под общ. ред. А. С. Пиголкина. – М., 1996. – С. 29.

## II bob
## JINOYAT QONUNI

### 1. Jinoyat qonuni va uning ahamiyati

Jinoyat qonuni davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakolatli organi qabul qilgan huquqiy hujjat hisoblanadi. Jinoyat qonuni, undagi huquqiy normalarning mazmuni va tarkibiga ko‘ra, boshqa qonunlardan ajralib turadi. Jinoyat huquqiga oid normalar mazmunining alohida xususiyati shundaki, faqat ular jinoiy javobgarlik, jinoyat va alohida turdagi qilmishlarning jazoga loyiqligi prinsipi va asoslarini, javobgarlik va jazodan ozod qilish, jinoyat huquqiga oid ta’sirning jazo deb hisoblanmaydigan boshqa choralarini qo‘llash hamda jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasidagi ijtimoiy foydali va ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantiruvchi ta’sir choralarining asoslarini va chegaralarini belgilaydi.

Bundan kelib chiqqan holda, jinoyat qonunlarini mazmuniga ko‘ra ikki turga ajratish mumkin. Birinchi turga, jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari va shartlari, jinoyat va jazo, uni tayinlash hamda jinoiy jazoni o‘tashdan ozod qilish kabi holatlarni tavsiflovchi qoidalar, jinoyat huquqiga oid ta’sir etishning boshqa choralarini tayinlashdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni o‘zida mujassamlashtirgan qonunlar kiradi. Bunday qonunlar umumiy tarkibdagi normalardan iborat bo‘lganligi sababli, jinoyat qonunining Umumiy qismiga kiritilgan.

Ikkinchi turga jamoat uchun xavfli va noqonuniy qilmish toifasiga kiruvchi xatti-harakatni aniqlab beruvchi hamda ularni sodir etishda aybdor shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik choralarini belgilovchi qonunlar kiradi. Bunday qonunlar o‘z mazmuniga ko‘ra jinoyat qonunining Maxsus qismiga mansubdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq (78-m., 2-b.), jinoyat qonunlarini qabul qilish qonun chiqaruvchi hokimiyatning oliy vakolatli organi bo‘lgan Oliy Majlisning mutlaq vakolati doirasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunlari kodifikatsiya qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining asosiy jinoyat qonuni 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan hamda 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan Jinoyat kodeksi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 1-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunlari Jinoyat kodeksida aks ettirilgan, binobarin O‘zbekiston Respublikasining yagona jinoyat qonuni Jinoyat kodeksi hisoblanadi. Ushbu ta’rifga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi qabul qiladigan jinoyat huquqiga oid barcha normalar yoxud alohida qonunlar, ularning turidan qat’i nazar, Jinoyat kodeksiga kiritilishi kerak.

*Jinoyat kodeksi* O‘zbekiston Respublikasining barcha jinoyat qonunlari majmuidan iborat bo‘lib, jinoyat huquqining umumiy qoidalari va prinsiplarini o‘rnatuvchi, jinoiy javobgarlikning umumiy asoslarini belgilovchi hamda alohida turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo

choralarini nazarda tutuvchi huquqiy norma yoki huquqiy normalar yig‘indisidan iborat huquqiy hujjat hisoblanadi. Chunonchi, jinoyat qonunida inson xatti-harakatining ayrim turlari uchun javobgarlikni tayinlash ijtimoiy jihatdan shartlangan bo‘lishi, ya’ni jinoyat qonuni obyektiv ijtimoiy zaruratni aks ettirishi zarur.

Shubhasiz, bunday zarurat ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va insonlarning hozirgi zamon turmush darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va xalq hokimiyatini o‘rnatish bo‘yicha qabul qilinayotgan islohot va vazifalar jinoyat qonuni himoya qilishi zarur bo‘lgan qadriyatlarni tashkil etadi. Darhaqiqat, o‘tish davrida demokratik o‘zgarishlar tashabbuskori va asosiy islohotchisi bo‘lgan davlatning ijtimoiy munosabatlar umumiy miqdoridan jinoyat huquqiga oid vositalar yordamida himoya qilinishi lozim bo‘lgan munosabatlarni ajratishi ularning, shak-shubhasiz, qimmatliligi va muhimligi, shu bilan birga, mazkur tarixiy sharoitda ularning normal amal qilishini kafolatlash uchun ma’muriy-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashning samarasizligidan yuzaga keladi. Shunday qilib, jinoyat qonunida qilmishning jinoyat sifatida belgilanishi ijtimoiy munosabatlarni faqat jinoyat huquqiga oid vositalar yordamida himoyalashning ijtimoiy zaruratiga borib taqaladi. Jinoyat huquqiga oid normalarda ijtimoiy munosabatlarni himoyalash va tartibga solish bo‘yicha ijtimoiy ehtiyojlarni haqqoniy ifodalash hamda jinoyat huquqiga taqiqni kafolatlash maqsadida kriminallashtirish nazariyasiga murojaat etish maqsadga muvofiqdir[1].

Chunonchi, kriminallashtirish prinsiplari ikki guruhga bo‘linadi: 1) ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik prinsiplar; 2) kriminallashtirishning huquqiy-tizimli prinsiplari.

Birinchi guruhni quyidagi prinsiplar tashkil qiladi: jinoyatning ijtimoiy xavfliligi prinsipi; qilmishning nisbiy tarqalganligi prinsipi; maqsadga muvofiqlik va kriminallashtirishdan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar prinsipi; kriminallashtirishning jinoyat huquqiga oid siyosatga muvofiqligi prinsipi.

Ikkinchi guruhdagi prinsiplar, o‘z navbatida, ikkita kichik guruhga bo‘linadi. Birinchi kichik guruhni *umumiy huquqiy-tizimli prinsiplar* tashkil qilib, ularga: konstitutsiyaviylik; muayyan qilmishni jinoyat deb topishning huquqiy-tizimli asoslanganligi; kriminallashtirishning xalqaro-huquqiy zarurligi va ehtimolligi; jinoiy ta’qibni prosessual amalga oshirish imkoniyati prinsiplari kiradi. Ikkinchi kichik guruhni esa, *kriminallashtirishning jinoyat huquqiga oid tizim prinsiplari* tashkil qilib, ularga: qonunning benuqsonligi va taqiqning cheklanganligi; huquqiy atamalarning aniqligi va yagonaligi; jinoyat tarkibi-

[1] Jinoyat huquqi ta’limotida kriminalizatsiya alohida turdagi xulq-atvorni noqonuniy va jinoiy jazoga loyiq deb tan olish jarayoni va natijasi sifatida ta’riflanadi. Umuman kriminalizatsiya jarayoni u yoki bu qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik maqsadlari, asoslari va imkoniyatlarini belgilash, ya’ni ijtimoiy shartlanganlikni aniqlash va shu asosda ushbu qarorni huquqiy mustahkamlovchi jinoyat qonunlarini qabul qilishdan iborat.

ning to‘liqligi; jinoiy jazoning maqsadga muvofiqligi va tejamliligi[1] kabi prinsiplar kiradi. Jinoyat qonunlarini chiqarishda ushbu prinsiplarni nazarda tutish barcha turdagi jinoiy qilmishlarni jinoyat qatoriga kiritish va unga muvofiq jazo tayinlashni o‘zida aks ettirgan jinoyat huquqiga oid normalarni qabul qilish hamda ularni samarali amalga oshirish va shu asnoda qonunga yuklatilgan vazifalarga qat’iy rioya qilish imkoniyatini beradi.

Qonun vazifalari[2] deganda, ma’lum turdagi qonun sohasining maqsadi va ahamiyatini tushunish lozim. Shubhasiz, jinoyat qonunlarining asosiy maqsadi ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilishdan iborat. Demak, qonunlar *muhofazalash* vazifasini bajaradi. Ushbu vazifani amalga oshirish bilan bir vaqtda jinoyat qonuni o‘zi muhofaza qilayotgan jamoat munosabatlarini tartibga soladi. Shunday bo‘lishiga qaramay, uning *tartibga solish* bo‘yicha vazifasi bu bilan chegaralanmaydi. Chunonchi, jinoyat qonuni huquqning boshqa sohalari tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarni muhofazalash bilan birga, «huquqiy muhofazalashning butun tizimiga ta’sir qilish orqali»[3] ularni ham tartibga solish jarayonida ishtirok etadi. Jinoyat qonunlarining vazifasi «fuqarolarning qonunga amal qilishi, ijtimoiy foydali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, subyektlar faoliyatini ijtimoiy munosabatlar tarmog‘iga yo‘naltirishni ta’minlash»dan iborat[4].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlar bilan bir qatorda, qonunning *aksiologik* vazifasi ham mavjud bo‘lib, u, o‘z navbatida, jinoyat qonunida ma’lum turdagi qilmishlar uchun jinoiy jazoni nazarda tutgan holda, huquqiy muhofazalanadigan ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy ahamiyatliligi va qimmatliligini maxsus huquqiy shaklda aks ettirishida namoyon bo‘ladi.

Jinoyat qonunlarining vazifalari orasidan *preventiv* vazifani ajratish kerakki, unda, jinoyat qonunida jinoyat huquqiga oid taqiqni tayinlash, uni buzganlik uchun jazo belgilash, jinoiy javobgarlikning turli choralarini qo‘llash hamda ayblanganlar va boshqa shaxslarning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga qarshilik qilish orqali umumiy va maxsus ogohlantirish nazarda tutiladi.

Jinoyat kodeksining 1-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari Konstitutsiya va xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalariga asoslanadi. Ushbu moddadan jinoyat qonunlarining huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalaridan iborat, degan xulosa kelib chiqadi.

Jinoyat qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining prinsip-

---

[1] Batafsilroq ma’lumot olish uchun qarang: Основания уголовно-правового запрета (криминализация и декриминализация). – М., 1982. – С. 208–242.

[2] Jinoyat qonunining vazifalari muammosi huquqiy adabiyotlarda har xil talqin qilinadi.

[3] *Карпушин М. П., Курляндский В. И.* Уголовная ответственность и состав преступления. – М., 1974. – С. 7.

[4] *Тарбагаев А. Н.* Понятие и цели уголовной ответственности. – Красноярск, 1986. – С 17.

lari, umumiy qoidalari va alohida moddalariga asoslangan bo‘lib, u umuman olganda barcha qonunlarning huquqiy negizini tashkil qiladi. Ta’kidlash joizki, Konstitutsiyada ma’lum turdagi qilmishlarni jinoyat deb topish haqidagi normalar bilan bir qatorda, u yoki bu ijtimoiy munosabatlarning muhimligi va qimmatliligi tufayli huquqiy muhofazalash ehtiyojini ifodalovchi normalar ham mavjud.

Jumladan, Konstitutsiyaning 24-moddasida «yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir, inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir» deyilgan. Konstitutsiyaning ushbu moddasiga asoslangan holda, jinoyat qonunlarida nafaqat qasddan yoxud ehtiyotsizlik natijasida odam o‘ldirishning hamma turlari bo‘yicha jinoyatlar uchun (JK 97–102-m.), balki inson hayotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavf solmaydigan, ammo ularni sodir etish bevosita o‘limga olib kelishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar uchun ham jinoiy javobgarlik nazarda tutilganligini ta’kidlash joiz. Xususan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi moddalarning 26 foizi u yoki bu darajada shaxs hayotiga xavf solish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning 7-moddasi, 3-bandida, «Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tugatish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi» deyiladi. Ushbu konstitutsiyaviy qoidaga asoslanib, Jinoyat kodeksining 159-moddasida O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Konstitutsiyaning 53-moddasida xususiy mulk, boshqa mulk shakllari kabi, daxlsiz va davlat himoyasidadir, deyiladi. Bu, o‘z navbatida, xususiy mulkni talon-toroj qilish yoki mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa turdagi tajovuzlar natijasida unga yetkazilgan zarar uchun teng jinoiy javobgarlik tayinlanishini belgilaydi.

Konstitutsiyaning 91-moddasi 2-bandiga muvofiq, Prezidentning shaxsi daxlsiz va qonun bilan muhofaza etiladi. Binobarin, Prezident O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i bo‘lganligi sababli (Konstitutsiyaning 89-m.), uning shaxsiyati, obro‘si, sog‘lig‘i va hayotiga har qanday tajovuz jinoyat sifatida baholanishi kerak. Ushbu hol Jinoyat kodeksining 158-moddasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ko‘rsatib o‘tilgan moddalari ba’zi og‘ir jinoyatlarga qarshi qat’iy kurash yoki ma’lum ijtimoiy munosabatlarning jamiyat uchun zarurligi va qadrliligini ko‘rsatish bilan birga, ularni jinoyat qonunlariga kiritish uchun bevosita huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq Konstitutsiya moddalarining o‘zi bevosita jinoyat huquqiga oid norma hisoblanmaydi, chunki faqat Jinoyat kodeksi qilmishlarning jinoiyligi va jazoga loyiqligini belgilovchi moddalardan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ilk bor xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalarining ustuvorligi haqida qo‘shimcha kiritilgani, Jinoyat kodeksining 1-moddasida esa, jinoyat qonunlari xalqaro huquqning

umum e’tirof etgan normalariga asoslanishi haqidagi fikrning mustahkamlanishi xalqaro-huquqiy normalarga jinoyat huquqi sohasining huquqiy manbasi maqomining berilishidan dalolat beradi. Shunday bo‘lishiga qaramay, bunday qarorning chiqarilishi qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash sohalarida qator muammolarni yuzaga keltirgan bo‘lib, milliy va xalqaro huquqning o‘zaro bog‘liqligi tizimi, davlatning ichki huquqiy munosabatlarida xalqaro huquq normalarini qo‘llashning shakl va vositalari haqida aniq tasavvur bermaydi. O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro-huquqiy normalarni tatbiq qilish muammosi nafaqat huquqiy-texnik xususiyatga ega bo‘lishi, balki yangi tarixiy sharoitda yangi siyosiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Chunki davlatimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishi ma’lum darajada ushbu muammo O‘zbekistonning ichki siyosiy faoliyatida qay tarzda hal qilinishi hamda ko‘rsatilgan konstitutsiyaviy prinsipga qay darajada amal qilinishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu muammo bo‘yicha jahon tajribasi ko‘p qirralidir. Chunonchi, jinoyat qonuni sohasida xalqaro huquqiy normalarni bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish yoxud maxsus ichki davlat hujjati sifatida takrorlash yo‘lidan borish maqsadga muvofiq emas, negaki ushbu yondashuvlar mavjud normalar ustuvorligida kelishmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin Shuningdek, Asosiy qonunimizning 15-moddasida O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi, deyilganini ta’kidlash lozim. Darhaqiqat, xalqaro-huquqiy normalarni afzal ko‘rish va ularga muvofiq davlatning ichki jinoyat qonunlarida nazarda tutilmagan normalar bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish to‘g‘rimikan, degan savol tug‘iladi. Bunda xalqaro-huquqiy normalarni davlatning ichki huquqiy tizimiga joriy qilishning transformatsiyalash yo‘li afzalroq bo‘lib tuyuladi.

Binobarin, ushbu usul qator ijobiy jihatlarga egadir. Birinchidan, transformatsiyalash hujjati tegishli xalqaro shartnomaning ijrosida qabul qilinib, bu, o‘z navbatida, milliy qonunlarning mustaqilligini cheklamaydi. Ikkinchidan, majburiyatlarni rasmiy tasdiqlangan xalqaro shartnoma asosida ixtiyoriy ravishda qabul qilish va davlatning ichki huquqiy tizimiga kiritish ularni amalga oshirishning real kafolati hisoblanadi. Uchinchidan, xalqaro konvensiyalarning jinoyat huquqiga oid deklarativ normalariga ma’lum jinoiy qilmishlar uchun jinoiy jazoning davlat choralarini tayinlash orqali faktik huquqiy vakolat beriladi, bu esa, o‘z navbatida, davlatning xalqaro-huquqiy normalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda sa’y-harakatlarni amalga oshirayotganidan dalolat beradi. To‘rtinchidan, xalqaro-huquqiy normalar va milliy jinoyat qonuni orasida kelishmovchiliklar sezilarli darajada kamayadi.

Oxirgi omil ayniqsa muhim bo‘lib, xalqaro-huquqiy va davlatning ichki jinoyat qonunlarining o‘zaro ta’siri, ulardagi huquqiy normalarga amal qilishni real kafolatlaydi. Bu pirovardida u yoki bu davlatning xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashga qo‘shgan hissasi hamda bu sohada xalqaro bitimlarni bajarish bo‘yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlaridan kelib chiqadi. Shunday qilib, Oliy Majlis qabul qiladigan transformatsiyalash qonuni yordamida Jinoyat kodeksida konvensiya hamda xalqaro-huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan

jinoyat huquqiga oid boshqa normalar paydo bo‘ladi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida, o‘zining ijtimoiy tuzumidan qat’i nazar, hamma davlatlar qabul qilishi zarur bo‘lgan rasmiy normalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu normalar ichidan quyidagi asosiy prinsiplarni ajratish mumkin, chunonchi: tinchlik va turli ijtimoiy tuzumga ega davlatlar bilan tinch hayot kechirish; mustaqillikni tan olish va davlatlarning suveren tengligi; kuch ishlatmaslik va kuch ishlatib tahdid qilmaslik; davlat hududlarining yaxlitligi va daxlsizligi; xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish; davlatlar va xalqlarning ichki ishlariga aralashmaslik; davlatlarning o‘zaro hamkorligi; inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish; xalqlarning teng huquqliligi va o‘zaro manfaatdorligi; qurolsizlanish; xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish va h.k.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nafaqat xalqaro huquqning ushbu prinsiplari e’tirof etiladi, balki ular davlatning ichki normalarida ustun deb tan olinadi[1].

Binobarin, Jinoyat kodeksining ko‘pgina bob va bo‘limlarida xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalari o‘z aksini topgan bo‘lib, kodeksning Maxsus qismi umum e’tirof etgan xalqaro huquqiy qoidalar asosida tuzilgan. Chunonchi, Maxsus qism shaxsga qarshi jinoyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bob bilan boshlangan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, shaxsning huquq va erkinliklari xalqaro-huquqiy qadriyatlar sohasida asosiy ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. «Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» deb nomlangan VIII bobda urushni targ‘ib qilish (150-m.), agressiya (152-m.), genotsid (153-m.), yollanish (154-m.) kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, bu hol kodeksda asosiy xalqaro huquqiy normalarning bevosita amalga oshirilishidan dalolat beradi.

Jinoyat kodeksi jinoyat qonunlarining yagona manbai sifatida boshqa huquqiy hujjatlardan so‘zsiz ustun hisoblanadi. Agar kodeksning biror bir qoidasi real sharoitlarga mos kelmay, unga qo‘shimcha kiritish uchun ijtimoiy shartlangan ehtiyoj yuzaga kelgan bo‘lsa, ushbu o‘zgartirishlar qonun osti hujjatlari bilan emas, aksincha, alohida jinoyat huquqiga oid qonun chiqarish orqali amalga oshirilish lozim. Binobarin, yuzaga kelgan ehtiyoj sababli, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga ba’zi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuni[2] asosida Jinoyat kodeksining bir qator moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Masalan, Jinoyat kodeksining 82, 83 va 84-moddalarining tahririga o‘zgartirishlar kiritilib, ularga muvofiq, voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima, axloq tuzatish ishlari va qamoqqa olish kabi jazo choralarini qo‘llashning tartibi va asoslari belgilandi. Bu o‘zgartirishlar, ushbu turdagi jazolarni 16 yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llash bo‘yicha cheklashlarni bekor

---

[1] To‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳлар. – Т., 1997.– 384-б.

[2] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1996. – № 9. –144-м.

qilishga taalluqlidir. Shubhasiz, bunday xulosa dolzarb bo‘lib, 14–16 yoshli jinoyatchilarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilishdan o‘zga jazo chorasini qo‘llamaslik O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan yoshlar siyosatiga mos kelmasligini bildiradi.

Boshqa bir misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi «Jinoiy jazolarni erkinlashtirish munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi qonunni keltirish mumkin[1]. Mazkur qonunning nomida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning hozirgi zamon bosqichida jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini erkinlashtirish zarurati hamda uning yuzaga kelishidagi ijtimoiy sabablar yaqqol namoyon bo‘ladi[2].

## 2. O‘zbekiston jinoyat qonunlarining tarixi

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik va suverenitetga erishishi davlat va jamiyat oldida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish bo‘yicha dolzarb vazifalarni yuzaga keltirdi. Bu, o‘z navbatida, davlat xususiyati va shakliga yangicha yondashuv va huquq sohasida an’ana bo‘lib qolgan ko‘pgina fikrlarni o‘zgartirishga sabab bo‘ldi. Huquqiy tizim va uning tarkibiy qismi bo‘lgan jinoyat huquqining o‘zgartirilishi, bu sohada aqidaga aylanib qolgan fikr-mulohazalardan voz kechish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, islohotlar jarayonida «sotsialistik huquq»ni yaratish davriga xos bo‘lgan jinoyat huquqining merosidan voz kechishni targ‘ib qiluvchi keskin radikalizm va, ayniqsa, huquqiy ekstremizmdan ehtiyot bo‘lish kerak, degan xulosani keltirib chiqardi.

Darhaqiqat, huquqni rivojlantiruvchi dialektik qonunlar jabhasi izchil bo‘lib, u huquqiy tartibga solishning shakli bilan birga, ma’lum darajada, uning obyekti, maqsad va vositalarida o‘z aksini topadi[3]. Huquqiy tartibga soluvchi huquqiy normalar obyektiv qonuniyatlarda hamda jamiyat hayotining ehtiyojlarini aniq aks ettiradigan sharoitlarda ham samarali amalga oshishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy-huquqiy hodisalarni ilmiy tahlil va tadqiq qilishni nazarda tutadi. Binobarin, olingan axborot, natija, xulosa va tavsiyanomalarning haqqoniyligi ko‘p jihatdan tadqiqotlarda qo‘llanuvchi ilmiy izlanish uslublariga bog‘liqdir. Darhaqiqat, ta’kidlash joizki, huquqiy fanda tarixga murojaat etish uslubi katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘z asarlarining birida ta’kidlashicha, «jahon xo‘jalik aloqalariga qo‘shilishning asosiy sharti sifatida umum e’tirof etgan norma va qoidalarga ko‘proq yaqinlashishga intilgan holda, respublikaning o‘z huquqiy asoslarini ishlab chiqishda, uning ijtimoiy-

---

[1] Qarang: Халқ сўзи. – 2001. – 18 окт.

[2] Mazkur Qonunning qabul qilinish sabablari haqida qarang: *Каримов И. А.* Адолат – қонун устуворлигида: Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 6-сессиясидаги маъруза // Халқ сўзи. – 2001. – 30 авг.

[3] Qarang: *Неновски Нено.* Преемственность в праве. – М., 1977. – С. 168.

iqtisodiy va milliy o‘ziga xos xususiyatlari iloji boricha to‘la hisobga olinishi kerak. Shu bilan birga, yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida aholining kundalik turmushiga singib ketgan xalq an’analari, urf-odatlari, shaxslararo va millatlararo muomala hamda diniy e’tiqodlarning asriy tarixidan meros qilib olingan, umuminsoniy qadriyatlarga, odamlarning huquq va erkinliklariga zid bo‘lmagan axloqiy normalar albatta aks ettirilishi kerak»[1].

Haqiqatan ham, huquqiy normalarning ijtimoiy amal qilishiga, ya’ni ularning ijtimoiy voqelikda mavjud jamoat munosabatlariga muvofiq va adekvat bo‘lishiga erishish uchun qonunlarning rivojlanish tarixiga murojaat etish lozim. Huquqiy tartibga solish kundalik turmushning obyektiv qonuniyatlari va ehtiyojlarini muvofiq ravishda aks ettirgan sharoitdagina samarali amalga oshirilishi mumkin. Binobarin, qonun ijodkorligida, nafaqat tarixiy omillar va voqelikni, balki jamoat taraqqiyotini bashorat qilish hamda kelajak uchun huquqiy normalarni yaratish jarayonlarini ham hisobga olish kerak. Ushbu omil amaldagi jinoyat qonunining qoidalarini o‘rganish jarayoni kabi, ularni bevosita qo‘llash jarayonida ham muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarining rivojlanish tarixi bevosita mamlakat tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekistonning to‘la davlat mustaqilligiga erishishi, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida demokratik respublikaning ijtimoiy tuzumiga oid vazifalarning qayd qilinishi, o‘z navbatida, respublikamiz jinoyat qonunlarining rivojlanish tarixi masalasiga ham asosiy diqqat-e’tiborni jalb qilishni talab qiladi. Jinoyat qonunlarining vujudga kelish va rivojlanish davrini quyidagi tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin:

**Birinchi bosqich** hozirgi O‘zbekiston hududida joylashgan Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklari vujudga kelgan davrga to‘g‘ri keladi.

Zamonaviy adabiyotlarda davlat va huquqning o‘zaro munosabati nazariyasi turlicha talqin qilinadi, biroq huquqiy davlat sharoitida huquqning davlatdan kelib chiqishini inkor etishga hech qanday asos yo‘q, chunki real hayotda huquq davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi organi chiqargan qonun shaklida ifodalanadi, u esa, o‘z navbatida, davlat irodasini aks ettiradi. Ammo, shubhasiz, davlatning bu irodasi, to‘g‘rirog‘i, uning qonun chiqaruvchi hokimiyati xalq irodasini ifodalashi lozim. Binobarin, bunday chekinish zarur bo‘lib, u huquqning rivojlanish tarixiga chuqurroq nazar solishga imkon beradi. Shu tufayli ta’kidlash joizki, o‘sha davrdagi jinoyat huquqi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, musulmon diniga oid bo‘lgan va o‘zbek xonliklarining har biri feodal-teokratik davlatdan iborat bo‘lib, davlat boshqaruvini Buxoroda amir, Xiva va Qo‘qonda xonlar amalga oshirgan.

O‘zbek xonliklarida davlat boshqaruvi, asosan, shariat qonunlari asosida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, «o‘zbek xonliklarida ikki turdagi sudlar, ya’ni qozilik sudi va beklar sudi mavjud bo‘lgan. Qozilar o‘troq xalqning

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1994. – 319-б.

jinoiy va fuqaroviy ishlarini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, beklar (qabila boshliqlari) ko‘chmanchi xalqning ishlarini ajrim qilgan. Qozilik sudida shariat qonunlari qo‘llansa, beklar sudida, asosan, oddiy huquq (odat) qo‘llangan»[1].

Binobarin, musulmon huquqi qator manbalarga asoslangan bo‘lib, ularning normalari va ko‘rsatmalari huquqning turli sohalari, Shuningdek, jinoyat huquqiga oid bo‘lgan.

***Qur’on*** – Muhammad payg‘ambarga Olloh tomonidan nozil qilingan ilohiy kitob bo‘lib, shariatning asosiy manbai hisoblanadi. Qur’on eramizning VII asrida yaratilgan va u alohida oyatlarni o‘z ichiga olgan 114 ta suradan iborat. Suralar bilan oyatlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik va ketma-ketlik yo‘q, ularning mazmuni turlicha talqin qilinadi. Chunonchi, Qur’onda belgilab qo‘yilgan ayrim qoidalar va holatlar jinoyat huquqiga oiddir. Xususan, Qur’onning 5-surasi, 42-oyatida: «...O‘g‘rilik qilgan erkak va ojizaning qo‘li kesilsin», 24-surasi, 2-oyatida: «...Zinokor erkak va ayolning har biriga 100 darra urilsin...» deb yozilgan[2].

Darhaqiqat, islom dini o‘zining vujudga kelgan davridan beri bir necha bor o‘zgardi. Rivojlanib borayotgan tarixiy munosabatlar yangi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirgani sababli, ularga javob hamma vaqt ham Qur’onda topilavermas edi. Oqibatda bunday javob Muhammad payg‘ambarning qilgan harakatlarini bildirgan rivoyatlar to‘g‘risidagi to‘plam – *sunnadan* izlanardi. Binobarin, professor A. Saidovning fikricha, «sunnat islomda Muhammad payg‘ambarning musulmonlar uchun ibrat hisoblangan hamda uning xalifalari yozib qoldirgan so‘zlari, qilmishlari va xatti-harakatlaridan iborat to‘plamdir. Sunnat islomda Qur’ondan keyingi, uni to‘ldiruvchi manba, islom ilohiyoti va shariatining ikkinchi asosi sifatida e’tirof etilgan»[3] .

Musulmon dindorlari sunnatning kelib chiqishini quyidagicha talqin qiladilar, ya’ni musulmonlar biror-bir muammoga Qur’onda javob topa olmasalar, payg‘ambar zamondoshlariga murojaat etganlar, ular esa, o‘z navbatida, ushbu muammo Muhammad alayhissalom hayotligida qay tarzda hal qilinganligi haqidagi rivoyatlarni eslab so‘zlab berganlar[4]. Ushbu rivoyatlar *hadislar* deb atalgan va «Sunnat» deb nomlangan to‘plamga kiritilgan. Shu sababli sunnat, shak-shubhasiz, rad qilib bo‘lmaydigan yuridik hujjat bo‘lib, Qur’on singari qonuniy kuchga ega bo‘lgan manbalardan biri hisoblangan.

Shariat bo‘yicha jinoyat huquqining uchinchi manbai *ijmo* hisoblanadi. Ijmo «musulmon huquqi sohasida bilimga ega bo‘lgan huquqshunoslar va dindorlarning kelishilgan fikri»[5], u yoki bu muayyan masala bo‘yicha qabul qilingan qarorlaridan iborat bo‘lib, ulardan keyinchalik amaliyotda foydalanilgan.

Ba’zida qozilarning jinoiy ishlar bo‘yicha muayyan qarorlari *rivoyat va*

---

[1] *Сулаймонова Х. С.* Собрание сочинений. Т. 1. – Т., 1967. – С. 37.

[2] Қуръон. – Казань, 1907. – С. 205–645.

[3] *Саидов А. Х.* Основы мусульманского права. – Т., 1994. – С. 61.

[4] *Сулаймонова Х. С.* Собрание сочинений. Т. 1. – Т., 1967. – С. 41.

[5] *Саидов А. Х.* Основы мусульманского права. – Т., 1994. – С. 62.

*fatvolarga* asoslangan. Ushbu hujjatlarni muftiylar (shariat normalarini sharhlovchilar) tuzganlar va ulardan hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan. Rivoyat shariat normalaridan ko‘chirma yoki muayyan ish holatlari bo‘yicha berilgan sharhdan iborat bo‘lsa, fatvo shariat bo‘yicha u yoki bu jinoyatga berilgan yozma xulosa yoki huquqiy bahoni o‘z ichiga olgan. Bu hujjatlar muftiy muhri bilan tasdiqlangan hamda qoziga jinoiy ish bo‘yicha qaror yoki hukm chiqarish uchun taqdim etilgan.

Shariat manbalaridan yana biri *qiyos*, ya’ni o‘xshashlik bo‘yicha hukm chiqarish bo‘lib, undan sodir etilgan jinoyat bo‘yicha boshqa manbalarda tegishli moddalar bo‘lmagan hollarda foydalanilgan. Biroq, ta’kidlash joizki, bu tarzda hukm chiqarish shariat qonunlariga xilof bo‘lmasligi kerak edi[1].

O‘zbekistonda jinoyat qonunlari rivojlanishining **ikkinchi bosqichiga** inqilobga qadar Rossiya mustamlakachiligi davrini kiritish mumkin. Darhaqiqat, har qanday mustamlaka mamlakatda jinoyat huquqi jazolash siyosatining eng samarali qurollaridan biri bo‘lib kelgan. Mustamlaka Turkistonda jinoyat huquqi, birinchi navbatda, mahalliy xalqni ezish va zulm o‘tkazish uchun qo‘llanilgan. Chunonchi, unda nafaqat sinf va tabaqaga tegishlilik bo‘yicha tafovutlar, balki mahalliy xalqning haq-huquqlarini poymol qiluvchi qoidalar ham mavjud bo‘lgan.

Shariat normalari bilan bir qatorda, Rossiya imperiyasining jinoyat qonunlari; 1867-yildagi Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom loyihasi; 1886-yildagi Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom; Turkiston general-gubernatori chiqargan farmon va qarorlar kabilar jinoyat qonunining manbalari sifatida xizmat qilgan. Shunday qilib, mustamlaka Turkistonda aniq belgilab qo‘yilgan jinoyat qonuni mavjud emas edi. Aksincha, muayyan holatlarda qo‘llanishi kerak bo‘lgan normalarning muvofiqligi qator shart-sharoitlarga, birinchi navbatda, jinoiy ishning qaysi sudga tegishliligiga bog‘liq bo‘lgan.

O‘sha davrda ikki xil sud mavjud bo‘lib, bular: podsholik sudlari va qozilik sudlari hisoblangan. Binobarin, avval amalda bo‘lgan 1867-yildagi loyihaga sezilarli o‘zgarishlar kiritmagan 1886-yildagi Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizomga ko‘ra, quyidagi turdagi jinoyatlar chor Rossiyasi qonunlari bo‘yicha jazolangan va muvofiq ravishda imperiya sudlarida ko‘rib chiqilgan: davlatga qarshi jinoyatlar; jamoat tartibi va osoyishtaligiga qarshi jinoyatlar; boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar; mansab bo‘yicha jinoyatlar; mulkchilik va g‘azna daromadlariga qarshi jinoyatlar; davlat va yer oldidagi majburiyatlarga qarshi jinoyatlar; shaxs hayoti, salomatligi va obro‘siga qarshi jinoyatlar; xususiy mulkchilikka qarshi jinoyatlar; tarozidan

---

[1] Musulmon huquqi bo‘yicha jinoyat va jazo turlarining tavsifi bir qator mualliflar asarlarida yoritiladi. Qarang: *Сулаймонова Х. С.* Собрание сочинений. Т. 1. – Т., 1967. – С. 34–58; *Норбутаев Э. Х., Арзымбетов М. У.* Уголовно-правовая этнография. – Нукус, 1996. – С. 92; *Ражабова М. А.* Проблемы преступления и наказания по шариату (по мазхабу-школе Ханафия): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1996. – С. 26.

urib qolish bo‘yicha jinoyatlar; karantin bo‘yicha nizom hamda yoppasiga yuqumli kasalliklarga qarshi farmoyishlar, chorvaning yoppasiga nobud bo‘lishiga qarshi belgilangan tartiblarni buzish, Shuningdek, mahalliy xalq vakillarining chor mustamlakachilari manfaatlariga bevosita yoki bilvosita ta-jovuz qilish orqali sodir qilgan jinoyatlari va hokazo.

Chor Rossiyasi jinoyat huquqining mahalliy xalqni kamsitish siyosati ayblanuvchining nafaqat u yoki bu millat yoki elatga mansubligi, balki qayerda va kimga qarshi jinoyat sodir etilganiga qarab jazo tayinlashda ham namoyon bo‘lar edi. Chunonchi, chor Rossiyasi sudlarida rus manzil-gohlarida mahalliy aholi sodir etgan hamda ishtirokchilikda sodir etilib, ishtirokchilardan biri yoki jabrlanuvchi rus millatiga mansub bo‘lgan holatlarni o‘z ichiga olgan jinoyatlar ko‘rib chiqilgan. Qozilik sudlari esa, faqat shariat me’yorlariga asoslanib, podsho qonunlari bo‘yicha jazolash nazarda tutilmagan jinoyatlar bilan shug‘ullanganlar. Binobarin, 1886-yildagi Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizomda «jinoyat» tushunchasiga aniq ta’rif berilmagani qozilarga u yoki bu qilmishni jinoyat deb hisoblash muammosini o‘z bilganlaricha hal qilish orqali mansablarini suiiste’mol qilishga qulay sharoit yaratib bergan edi.

Darhaqiqat, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, chor Rossiyasining jinoyat qonunlari 1845-yildagi axloq tuzatish va jinoiy jazolar haqidagi Nizom va 1903-yildagi Jinoyat qonunlari to‘plamidan iborat edi.

Xususan, 1845-yildagi Nizom mohiyatan, 1832-yilda tuzilgan qonunlar majmuining to‘ldirilgan XV jildidan iborat bo‘lib, 1649-yildagi podsho Aleksey Mixaylovich ta’sis etgan Nizom, Buyuk Pyotr chiqargan Harbiy Artikulning nizom va moddalari, shuningdek, Yekaterina II, Pavel va Aleksandr I davridagi farmonlar uning bevosita manbai sifatida xizmat qilgan.

Ushbu Nizom qonuniy kuchga kiritilgan vaqtda (1846-yilning 1 mayida) 2224 ta moddadan iborat bo‘lib, 1857-yilga kelib, ularning miqdori 2304 tagacha oshgan. 1866-yilda esa Nizom qayta ko‘rib chiqilgan va moddalarn-ing soni 1711 tagacha qisqartirilgan. Ta’kidlash joizki, ushbu Nizomning alo-hida xususiyatlaridan biri, uning ikkita tahrir ostida qo‘llanishi bo‘lgan. Chunonchi, birinchi tahrir maslahatchilar sudi mavjud bo‘lgan joylarda, ikkin-chisi esa bunday sud bo‘lmagan joyda amal qilgan. Turkiston hududida esa bunday sudning o‘zi bo‘lmagan.

1845-yildagi Nizom, eng avvalo, mulkdorlar sinfini himoya qilar edi. Bu shundan ham ko‘rinar ediki, jinoiy jazolar (o‘lim jazosi, surgun) bilan bir qatorda, ziyoli boylarga tuzalish jazosi qo‘llanilgan.

Binobarin, ushbu Nizomning jiddiy xato va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari: moddalarning ko‘pligi, chalkashligi va yagona birlikning mavjud emasligi kabilar edi. Huquqshunos V.I. Spasovich bu haqda shunday deb yozgan edi: «Moddalar sonining haddan tashqari ko‘pligi sababli, inson xotirasi ularning hammasini o‘zida sig‘dira olmaydi, shu tufayli ushbu Nizomning barcha moddalari va bandlarini to‘liq biladigan bitta ham huquq-

shunos olim va amaliyotchi yo‘q»[1].

XIX asrning 60–70-yillarida chor Rossiyasida tub islohotlar (1861-yildagi krepostnoylik huquqining bekor qilinishi, 1864-yildagi yer islohoti, 1864-yildagi sud islohoti, 1870-yildagi shahar islohoti, 1874-yildagi harbiy islohotlar)ning o‘tkazilishi asosiy huquqiy sohalar bo‘yicha mavjud qonunlarning vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga mos kelmasligini ko‘rsatdi. Shu sababli, XIX asrning 80-yillari boshlarida yangi jinoyat qonunlarini ishlab chiqish jarayoni boshlanib, u 1895-yilga kelib yakunlandi. Binobarin, Rossiya imperatori imzolagan va 1903-yil 22-martda e’lon qilingan jinoyat qonuni esa, umuman amalga kiritilmay qolib ketdi.

Ushbu qonunning mohiyatini tushunish uchun chor Rossiyasining siyosati, asosan, zodagonlar tabaqasining manfaatlarini himoyalash hamda eski partriarxal munosabatlarni saqlab qolishga qaratilganini ta’kidlash yetarli bo‘lardi. Binobarin, 1903-yildagi jinoyat qonuni, 1845-yildagi qonunga qaraganda qator afzalliklarga ega edi, albatta. Chunonchi, u birmuncha ixcham bo‘lib, 37 bob va 687 ta moddani o‘z ichiga olgan va moddalarining aniqligi jihatidan yetakchi Yevropa mamlakatlari jinoyat kodekslarining saviyasiga tenglashgan. Qonun Umumiy va Maxsus qismlarga bo‘linib, birinchisi aslida «Jinoiy qilmishlar va umuman jazolar haqida»gi birinchi bobda mujassamlangan va u, o‘z navbatida, 8 ta bo‘lim va 72 moddani o‘z ichiga olgan. Maxsus qism esa, har qaysisi alohida turdagi jinoyatlarga bag‘ishlangan 36 ta bobdan iborat bo‘lgan.

Shunday bo‘lishiga qaramay, 1903-yildagi Jinoyat qonuni to‘liq qonuniy kuchga kiritilmadi. To‘g‘rirog‘i, uning ba’zi reaksion moddalarigina amalda bo‘lib, ular metropoliya hududi kabi mustamlaka hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noroziliklarni bostirishga qaratilgan edi. Aytish kerakki, ushbu mustamlaka hududlar sirasiga Turkiston ham kirgan. Sinfiy kurashning kuchayishi, mustamlakachilik zulmi va chor imperiyasi o‘tkazayotgan siyosatga qarshi harakatning tobora avj olishi chor hukumatining yangi siyosiy jinoyatlar tarkibini va shu munosabat bilan amaldagi qonunga qaraganda qattiqroq jazolash choralarini o‘z ichiga olgan bob va moddalarni qabul qilishini talab qilardi. Natijada 1904-yil 7-iyunda qabul qilingan qonunga muvofiq, «Oliy hokimiyatga qarshi isyon hamda Imperator hazrati oliylari va Imperator oila a’zolariga qarshi jinoiy harakatlar haqida»gi III bob, «Davlatga xiyonat qilish haqida»gi IV bob va «Davlatga qarshi fitna uyushtirish haqida»gi V boblar qonuniy kuchga kiritildi.

Darhaqiqat, ushbu davrdagi jinoyat qonunining yaqqol mustamlakachilik xususiyatga ega ekanligiga qaramay, chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi sababli mahalliy huquqiy tizimning rivojlanishida yuz bergan ijobiy natijalarni inkor etib bo‘lmaydi. Ta’kidlash joizki, Rossiya imperiyasining jinoyat qonunlari o‘z mazmuni, zamonaviy jamoat munosabatlariga mosligi hamda birmuncha tizimlashtirilganligi bilan avval qo‘llanib kelgan shariat

[1] Qarang: *Спасович В. И.* Учебник уголовного права. – СПб., 1860. – С. 225.

qonunlariga qaraganda ustun edi.

Qozilik sudlarining amal qilish doirasining cheklanishi ba'zi shariat nizomlarining qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'ldi. Masalan, toshbo'ron qilish, tiriklayin yerga ko'mish, minoradan uloqtirish, qo'l va oyoqlarni chopib tashlash, quloq va burunni kesish, ko'zlarni o'yib olish kabi shariat bo'yicha o'ta shafqatsiz jazo choralari bekor qilindi. 1886-yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizomga muvofiq, qozilik sudlariga quyidagi turdagi jazo choralarini qo'llashga ruxsat etilgan edi: 1) bir yilu olti oygacha qamoqqa olish; 2) 300 so'mgacha pul jarimasini solish va hokazo. Biroq, yuqorida ko'rsatib o'tilgan ijobiy holatlar Turkiston hududida amal qilgan jinoyat qonunlari mustamlakachilik xususiyatiga ega edi, degan xulosani o'zgartirmaydi.

Darhaqiqat, davlatshunos, jamiyatshunos, siyosatshunos olimlar va boshqa ilm ahli O'zbekistonda sho'ro hukumati davrida vujudga kelgan davlat turi haqida yagona fikr bildirmaydi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ushbu davrga boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik prinsipiga asoslangan totalitar davr sifatida baho berib, «ilgari amal qilib kelgan qonunlar avvalgi totalitar tuzumni himoya qilish manfaatlariga xizmat qilardi», deb ta'kidladi[1]. Demak, ushbu davrda shakllangan jinoyat qonunlarini «totalitar» deb atash mumkin. Lekin aynan «sotsializm» davrida O'zbekistonda jinoyat qonunlari yangi sifat darajasiga erishdi, shuning uchun, mavjud bo'lgan kamchiliklarga qaramay, bu davrni jinoyat huquqi fani hamda jinoyat qonunlarining faol va samarali rivojlanish davri deyish mumkin. Biroq, ushbu qonunlarning amaldagi «sotsialistik» ijtimoiy munosabatlar zaminida faoliyat ko'rsatganligini inkor etib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, **uchinchi bosqichga** sovet sotsialistik davrini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ammo, tarixiy rivojlanish davrlarini hisobga olgan holda, ushbu davrni ham uchta alohida bosqichga bo'lib ta'riflash zarur.

*Birinchi davr* 1917-yildagi Oktabr inqilobidan boshlab O'zbekistonda 1926-yilda kodifikatsiya qilingan qonunlar majmui qabul qilingan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrni mustaqil bosqich sifatida ajratishining sabablaridan biri, 1917-yil 12-dekabrda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning avval mavjud bo'lgan sud tizimini bekor qilish haqidagi dekretning qabul qilishidir. Ushbu dekretning ham jiddiy kamchiligi mavjud bo'lib, u yangi mahalliy sudlarning jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda qaysi qonunlarga qat'iy rioya qilishi zarurligi haqidagi qoidalarning yo'qligida o'z aksini topdi. Binobarin, bu dekretning hayotga tatbiq qilinishi Turkiston o'lkasi XKSning 1917-yil 31-dekabrdagi buyrug'i bilan to'xtatib qo'yilgan hamda bu davrda avvalgi sud tizimi amal qilayotgan va vaqtincha eski qonunlar qo'llanilayotganiga qaramasdan, O'zbekiston jinoyat qonunlarining tashkil topishi va rivojlanishi davrida yangi jabha bo'ldi, deyish mumkin.

Bu, birinchidan, joylarda markazning qo'shimcha ko'rsatmalarisiz eski sud tizimlarining sinishi va yangi sud islohotlarining amalga oshirilishi ja-

---

[1] Qarang: *Каримов И. А.* Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – 1995. – 28-б.

rayonida namoyon bo‘ldi. Ikkinchidan, yangi sudlar shariat normalari hamda Rossiya imperiyasi qonunlariga amal qilishni davom ettirayotgan bo‘lsa-da, ularni qo‘llash amaliyotiga sezilarli o‘zgartirishlar kiritilgan edi. Xususan, Turkiston Respublikasi Adliya xalq komissariatining (AXK) ko‘rsatma va farmoyishlarida odil sudlovni amalga oshirishda «ishchi-dehqon hukumati dekretlari va proletariat huquqiy ongiga zid kelmaydigan» qonunlardan foydalanish haqida tavsiyalar berilgandi. Shunday qilib, o‘sha davrda to‘ntarilgan hokimiyatning jinoyat huquqi qonunlaridan foydalanish o‘tish davrining o‘ziga xos xususiyatlari va tarixiy zarurat tufayli yuzaga kelgan edi.

Darhaqiqat, o‘sha davrda jinoyat huquqiga oid normalarning shakllanish jarayoni hukumatning bir qator dekret, buyruq va murojaatlarini e’lon qilish, bolsheviklar partiyasi va Sho‘ro syezdlarining qarorlarini qabul qilish orqali amalga oshirilib, ular, asosan, umumiy tavsifga ega edi. Bunday hujjatlarning ko‘pligi, tarqoqligi va noaniqligi, ularni amalda qo‘llashni qiyinlashtirardi. Bu esa, o‘z navbatida, jinoyat huquqiga oid normalarni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashtirish zaruratini tug‘dirgan edi. Ushbu yo‘lda ilk qadam 1920-yilda «Rossiya Sotsialistik Federatsiyasining Turkiston Respublikasi jinoyat huquqi bo‘yicha asosiy qo‘llanmasi»ning yaratilishi bo‘lib, u mazmunan 1919-yilda qabul qilingan «RSFSR jinoyat huquqi bo‘yicha asosiy qo‘llanma»ga mos kelar edi.

Asosiy qo‘llanmaning kirish qismida o‘sha davrda qonunchilik yuzasidan vujudga kelgan sharoit va mazkur qonunni qabul qilish zarurati haqida shunday deb yozilgan: «Alohida qoida va qonunlarsiz qurollangan xalq zulmkorlarga bas kelgan va keyinchalik ham bas kela oladi. Proletariat o‘zining sinfiy dushmanlariga qarshi kurash jarayonida u yoki bu jazo choralarini qo‘llab kelgan, ammo avvaliga ushbu jarayon betartib, tasodifan, tarqoq holda yuz bergan. Sinfiy kurash jarayonida kuchlarni asrash, tarqoq harakatlarni muvofiqlashtirish va bir markazga to‘plash maqsadida proletariat o‘z sinfiy dushmanlarini jilovlash usullarini yaratishi va ularni astoydil bilib olishi zarur. Avvalo, bu jinoyat huquqiga tegishli bo‘lib, uning asosiy vazifasi ijtimoiy turmushning yangi shakllari yuzaga kelayotgan o‘tish davrida proletariat diktaturasining o‘z ichki dushmanlariga qarshi kurashidan iborat bo‘ladi»[1]. Mazkur qonun ilk tizimlashtirilgan hujjatlardan bo‘lib, unda jinoyat huquqi Maxsus qismining ko‘pgina asosiy qoidalari o‘z aksini topgan.

Ta’kidlash joizki, ushbu davrning alohida xususiyatlaridan biri jinoyatchilikka qarshi kurashning yangi huquqiy asoslari bilan bir qatorda, shariat qonunlaridan ham ba’zi hollarda foydalanilganidan iborat edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, jinoyat qonunlari parokanda, noaniq va tugallanmagan edi. Shu sababdan, Turkiston Ijroiya Qo‘mitasining 1922-yil 19-fevral Plenumi qarori asosida Turkiston ASSR Jinoyat kodeksini ishlab chiqishga kirishildi. Biroq TASSR Jinoyat kodeksini yaratish davrida 1922-yilda RSFSR Jinoyat kodeksi qabul qilinib, u ma’lum qo‘shimchalar bilan 1922-yil 21-iyulda TASSR hududida, 1924-yil fevral oyidan Buxoro Xalq Respublikasida, 1924-

[1] Qarang: СУ РСФСР. – 1919. – № 66.

yil oktabr oyidan Xorazm Xalq Respublikasi hududida qonuniy kuchga kiritildi. 1922-yilning oktabr oyida esa kodeks o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

TASSR hududida amal qilayotgan 1922-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksining alohida xususiyatlari uning turmushda va ayolga nisbatan rusum bo‘lgan patriarxal munosabatlarni bekor qiluvchi qator jinoyat huquqiga oid normalar bilan to‘ldirilganligidan iborat edi. Xususan, ushbu kodeksning 228-moddasida xun olish, ya’ni Turkiston xalqining odatiga ko‘ra, qotil yoki uning qarindoshlarining o‘ch olishdan ozod bo‘lish uchun marhumning qarindoshlariga haq to‘lashi, 229-moddasida esa barimta olish, ya’ni jabrlanuvchini haqorat qilish yoki unga yetkazilgan moddiy zarar evaziga aybdorning chorvasi yoki boshqa turdagi molini olib ketish orqali uni yetkazilgan zararni qoplashga majbur qilishi kabi jinoiy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan[1].

Biroq mahalliy xalq yangi jinoyat qonunlarini qabul qilmadi va shariat normalariga asoslangan qozilik sudlarini qayta tiklashni talab qila boshladi. Shunga asoslangan holda, 1922-yilning avgust oyida «Qozilik sudlari haqida Nizom» qabul qilindi. U, o‘z navbatida, nafaqat sudlov va sudga tegishlilik tartibidan, balki jinoyat huquqiga oid normalardan iborat edi. Holbuki, Nizomda qozilik sudlarida shariat normalariga amal qilish ruxsat etilgan bo‘lsada, qo‘llaniladigan jazo choralari keskin cheklangan hamda qozilik sudlariga tegishli bo‘lmagan jinoyatlar doirasi aniq belgilab qo‘yilgan edi. Ammo ushbu sudlar amaliyotida Nizomda belgilangan qoidalardan chetga chiqish hollari haligacha uchrab turgani tufayli, shu yilning 23-dekabrida yangi Nizom qabul qilinib, uning asosida shariat normalarini qo‘llash bekor qilindi. Chunonchi, yangi Nizomga asoslangan qozilik sudlariga tegishli bo‘lgan tor doiradagi jinoyatlar uchun jazo belgilashning huquqiy asosi 1922-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksining tegishli normalari hisoblangan edi. Shunday qilib, qozilik sudlari 1924-yil fevral oyigacha amal qilib, ularning faoliyati Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining tegishli qarorlariga binoan to‘xtatildi.

*Ikkinchi davr* 1926-yildan 1958-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu davr O‘zbekiston hududida ilk bor jinoyat qonunlari to‘plamining qabul qilinishi bilan ta’riflanadi. Xususan, O‘zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi 1926-yil 16-iyunda qabul qilinib, O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Prezidiumining qarori bilan qonuniy kuchga kiritildi[2]. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida Jinoyat kodeksi SSSR tarkibidagi boshqa ittifoqdosh respublikalardan avvalroq qabul qilindi.

1924-yilda qabul qilingan «SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlarining asosiy qoidalari» 1926-yildagi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi Umumiy qismiga asos sifatida olindi[3]. Chunonchi, u to‘rt bo‘limdan

---

[1] Qarang: СУ РСФСР. – 1924. – № 79.

[2] Qarang: СУ ЎзССР. – 1926. – № 11–12. – 54-м.

[3] Qarang: Уголовное законодательство СССР и союзных республик (основные законодательные акты). – М., 1957. – С. 7–14.

iborat bo‘lgan: «Jinoyat kodeksining amal qilish doirasi» (1–4-m.); «Umumiy qoidalar» (5–21-m.); «Ijtimoiy himoya qilish choralari va ularning sud tomonidan qo‘llanilishi» (23–53-m.); «Sudlanuvchini sud tomonidan ijtimoiy himoyalanish choralaridan muddatidan ilgari ozod qilishning shartlari haqida» (54–56-m.).

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi Maxsus qismiga asos sifatida 1922-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksi olingan. Tarkiban ushbu Jinoyat kodeksining Maxsus qismi o‘nta bobdan iborat bo‘lgan. «Davlatga qarshi jinoyatlar» deb atalgan I bob ikkita bo‘limni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular: «Aksilinqilobiy jinoyatlar» va «Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar» deb atalgan.

Aytish kerakki, 1926-yildagi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining boshqa ittifoqdosh respublikalarning o‘sha davrda amal qilgan Jinoyat kodekslariga nisbatan ilk o‘ziga xosligi uning ikkinchi bo‘limiga boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarga tegishli moddalarning kiritilganligidir. O‘zbekistondagi jazirama iqlim sharoiti Jinoyat kodeksida «Suv jinoyatlari» haqidagi maxsus bobning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Unda suvdan foydalanish tartibiga tajovuz qilish hamda o‘rmon va zaxira yerlarni muhofaza qilish tartibini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. IX maxsus bob esa faqat mahalliy maishiy jinoyatlarga bag‘ishlangan. Unda xun olish (271-m.), barimta to‘lash (272-m.), qalin olish va berish (273-m.), ayolni turmushga chiqishga majbur qilish (274-m.) kabilar o‘z aksini topgan.

1926-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining amal qilish davri mobaynida unga ko‘p sonli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi, bu esa, o‘z navbatida, nafaqat o‘sha davrda respublika hayotiga xos ijtimoiy-iqtisodiy talab va ehtiyojlarga, balki totalitar tuzum sharoitida amalga oshirilayotgan siyosatga ham bog‘liq edi. Bunga 1934-yildagi Jinoyat kodeksining $57^3$-moddasini misol qilish mumkin. Chunonchi, ushbu moddaga binoan, harbiy xizmatchi chet davlatga qochgan hollarda, uning nafaqat tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan xiyonatga ko‘maklashgan yoki bu haqda bila turib tegishli idoralarga xabar bermagan oila a’zolari, balki xiyonatchi jinoyat sodir qilgan paytda u bilan birga yashagan va uning qaramog‘ida bo‘lgan boshqa voyaga yetgan qarindoshlari ham umumiy saylov huquqidan mahrum qilinib, 5 yil muddatga Sibirning uzoq hududlariga surgun qilingan. Darhaqiqat, shunga o‘xshash moddalarning mavjudligi amaldagi tuzumga «keraksiz odamlar»ga, hattoki hech qanday jinoyat sodir etmagan shaxslarga nisbatan zo‘ravonlik va adolatsizlik siyosatining o‘ziga xos niqobi bo‘lib xizmat qilgan.

Ko‘rilayotgan masalaning *uchinchi davri* 1958-yil dekabrda «SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari asoslari»[1] nashr ettirilgan va u asosda 1959–1961-yillarda ittifoqdosh respublikalarning yangi jinoyat kodekslari qabul qilingan davrdan boshlanadi. Binobarin, O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi 1959-yil 21-mayda V chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilinib, 1960-yil 1-yanvaridan boshlab qonuniy kuchga kir-

[1] Qarang: СССР Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1959. – № 15.

gan[1]. Aytish kerakki, ushbu davrdagi qonunlar qator adabiyotlarda chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ularni qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq emas[2] .

***To‘rtinchi bosqichga*** turg‘unlik yillaridan keyingi davr kiradi. Darhaqiqat, rasmiy ravishda uni 1992-yil 8-dekabrda mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasi qabul qilingan vaqt bilan bog‘lash maqsadga muvofiq[3]. Shunday bo‘lishiga qaramay, bu davr amalda 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingan vaqtdan belgilangan[4]. Shu munosabat bilan to‘rtinchi bosqich ikki davrga bo‘linadi.

*Birinchisiga* suveren O‘zbekistonda hali yangi Jinoyat kodeksi qabul qilinmagan va «sotsialistik» davrda qabul qilingan 1959-yildagi Jinoyat kodeksi amal qilayotgan o‘tish davrini kiritish mumkin. Bunda, ta’kidlash joizki, O‘zbekiston qonun chiqaruvchisining donoligi uning mustaqil O‘zbekiston davlatchiligi va jamiyatni isloh qilishning maqsad va vazifalariga mos keladigan yangi manbalar yaratilmaguncha so‘zsiz eskirgan, biroq jinoyatchilikka qarshi qonuniy asosda kurashish imkoniyatini berayotgan avvalgi qonunlarni ko‘r-ko‘rona inkor etmaganligida bilindi. Chunonchi, yangi Jinoyat kodeksini ishlab chiqish faoliyatini tashkil qilish bilan bir qatorda, eski qonunlarni hozirgi zamon sharoitiga moslashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. 1959-yildagi Jinoyat kodeksiga o‘zgartirish kiritish jarayoni undagi mavjud moddalarga tuzatish kiritish, eski kommunistik g‘oyadan voz kechib, umuminsoniy qadriyatlarning taraqqiyotiga asoslangan, yangi milliy mustaqillik mafkurasini e’tirof etishdan boshlandi. Bu, shubhasiz, inson huquq va erkinliklarini u yoki bu darajada buzadigan jinoyat huquqiga oid normalarni cheklash yoki umuman bekor qilishda o‘z aksini topdi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy nazorati qo‘mitasining qaroriga binoan, ko‘p qavatli uydan foydalanish, xonalar soni, turar joy maydoni me’yorlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining 191[3]-moddasi Konstitutsiya qoidalariga nomuvofiqligi tufayli bekor qilindi. Shuningdek, Jinoyat kodeksidan uy-joy maydonini noqonuniy topshirish (177[3]-m.), yo‘lovchi va yuklarni noqonuniy tashish (180-m.), chayqovchilik (175-m.), xususiy ishbilarmonlik faoliyati va tijorat vositachiligi (174-m.) kabilar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar

---

[1] Qarang: СССР Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1959. – № 6.

[2] Qarang. Сборник статей по новому уголовному и уголовно-процессуальному законодательству / Под ред. Б. С. Утевского. – М., 1961. – С. 195; *Сулаймонова Х. С.* Развитие уголовного права Узбекской ССР в период строительства и победы социализма Т. 2. – Т., 1968. – С. 159; *Иванов В. Н.* Развитие советского уголовного законодательства за 50 лет Советской власти // Учен. зап. ВНИИСЗ. Вып. 18. – М., 1968. – С. 111–126; *Ахмедов Г. А.* Компетенция союзной республики в области уголовного законодательства. – Т., 1972. – С. 207; ва бошқ.

[3] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2008. – 40 b.

[4] Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида»ги қонуни Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси – 1991. – № 11. – 246 м.

olib tashlandi.

Shu vaqtning o‘zida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan normalar qabul qilindi. Chunonchi, xalq iste’moli mollari bilan bozorni ta’minlashni cheklash yoki ishlab chiqarishni to‘xtatish (177[4]-m.) foyda (daromad)ni qasddan kamaytirib ko‘rsatish yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni yashirish (hisobga olmaslik) (179[3]-m.) uchun jinoiy javobgarlik tayinlandi. Shuningdek, Jinoyat kodeksidan sotsialistik mulkka qarshi jinoyatlardan iborat moddalar olib tashlanib, uning to‘rtinchi bobiga, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, begona shaxs mulkiga tajovuz qilish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyatlar guruhidan iborat moddalar kiritildi. Kodeksning boshqa normalari, shuningdek, Umumiy qismiga ham o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan, yangi Jinoyat kodeksi qonuniy kuchga kirguncha, 1959-yildagi Jinoyat kodeksiga 50 tadan ortiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Turg‘unlikning *ikkinchi davri* mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qabul qilinishi bilan ta’riflanadi. Binobarin, yangi kodeks, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 22-sentabrdagi o‘n oltinchi sessiyasida qabul qilinib[1] 1995-yilning 1-aprelidan qonuniy kuchga kiritildi.

## 3. Jinoyat kodeksining tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunlarini faqat alohida tizim sifatida tasavvur qilish mumkin, chunki unda aks etgan normalar bir-biri bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan huquqiy institutlardan iborat. Chunonchi, jinoyat qonunlarining to‘la kodifikatsiya qilinishi va yagona manba sifatida Jinoyat kodeksiga to‘planishi ushbu fikrning yorqin dalilidir. Jinoyat qonunining ma’lum qoidalar asosida tizimlanishi nafaqat uning tarkibiy qismlarini to‘g‘ri aniqlash, bevosita huquqni qo‘llash jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligini belgilash, balki qonun ijodkorligi faoliyatida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik imkoniyatini beradi. Qonun chiqaruvchi zarur hollarda yangi jinoyat qonunlarini qabul qilish orqali Jinoyat kodeksining amaldagi moddalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritadi yoki Jinoyat kodeksiga kiritilishi lozim bo‘lgan moddalarni ishlab chiqadi. Darhaqiqat, ta’kidlash joizki, bunda jinoyat qonunlarining tizimini hisobga olish nafaqat qonun texnikasi va qonunning tarkibiy tuzilishiga rioya qilish nuqtai nazaridan, balki o‘zaro muvofiqlik, uyg‘unlik va mantiq qoidalariga amal qilish nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Jinoyat kodeksi maxsus *tuzilishga* ega bo‘lib, u qonun chiqaruvchining irodasi aks etgan texnik qoidalarga bo‘ysunuvchi shakldan iborat. Tarkiban Jinoyat kodeksini ikki qismga bo‘lish mumkin: Umumiy qism va Maxsus qism. Qonunning ushbu qismlari o‘zaro aloqador birlikni tashkil qilishiga qaramay, ulardagi moddalar ma’nosiga ko‘ra bir-biridan jiddiy farq qiladi.

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1995. – № 1. – 1-м.

Binobarin, kodeksning *Umumiy qismida* jinoyat huquqining asosiy prinsiplari va qoidalari – kodeksning prinsip va vazifalari, jinoyat qonunining amal qilish doirasi, javobgarlik va jazo asoslari, ularni tayinlashning qonun-qoidalari, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, voyaga yetmaganlarning javobgarligi hamda ularga jazo tayinlash xususiyatlari va, umuman, jinoyat qonunlariga taalluqli boshqa qoidalar o‘z aksini topgan.

*Maxsus qismda* jinoyat deb topilgan muayyan ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) hamda ularni sodir etishda aybdor shaxslarga nisbatan ma’lum jazo choralarini tayinlash bo‘yicha qoidalar belgilangan.

Umumiy va Maxsus qismlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Chunonchi, Maxsus qism bo‘lmaganida, Umumiy qismning moddalari o‘z mazmunini yo‘qotsa, shunga o‘xshash Maxsus qismning moddalarini ham Umumiy qismning asosiy qoidalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Darhaqiqat, Jinoyat kodeksining Umumiy qismi yetti bo‘lim va 17 bobdan iborat. Umumiy qismning bo‘limlari alohida boblarga bo‘lingan bo‘lib, ularda huquqning ushbu soha institutlarini tartibga soluvchi normalar mujassamlashgan:

BIRINCHI BO‘LIM.

Umumiy qoidalar.

I bob. Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari.

II bob. Kodeksning amal qilish doirasi.

IKKINCHI BO‘LIM.

Javobgarlik asoslari.

III bob. Jinoyat.

IV bob. Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar.

V bob. Ayb.

VI bob. Tamom bo‘lmagan jinoyat.

VII bob. Jinoyatda ishtirokchilik.

VIII bob. Bir qancha jinoyat sodir etish.

UCHINCHI BO‘LIM.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar.

IX bob. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari.

TO‘RTINCHI BO‘LIM.

Jazo va uni tayinlash.

X bob. Jazo tushunchasi, maqsadlari va turlari.

XI bob. Jazo tayinlash.

BESHINCHI BO‘LIM.

Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish.

XII bob. Javobgarlikdan ozod qilishning turlari.

XIII bob. Jazodan ozod qilishning turlari.

XIV bob. Sudlanganlik.

OLTINCHI BO‘LIM.

Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari.

XV bob. Jazo va uni tayinlash.

XVI bob. Javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish.

YETTINCHI BO‘LIM.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari.

XVII bob. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining asoslari va ularni tayinlash.

Jinoyat kodeksining Maxsus qismi ham alohida bo‘lim va boblarga bo‘lingan bo‘lib, u ma’lum bir turga mansublik alomati bo‘yicha amalga oshiriladi. Chunonchi, boblarda taqiqlovchi, tayinlovchi xususiyatga ega normalar mujassamlashgan bo‘lib, ular jinoyat qonuni muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz etuvchi xatti-harakatlarni nazarda tutadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlar, o‘zlarining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, turdosh bo‘lganligi sababli, davlat yoki jamiyat hayotining aniq bir sohasidagina faoliyat ko‘rsatadi. Har bir bobda bir turga mansub munosabatlarning tarkibiy qismidan iborat muayyan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadigan hamma jinoyatlarning to‘la ro‘yxati keltirilgan. Hammasi bo‘lib Maxsus qismda yettita bo‘lim, yigirma to‘rtta bob bor.

BIRINCHI BO‘LIM.

Shaxsga qarshi jinoyatlar.

I bob. Hayotga qarshi jinoyatlar.

II bob. Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar.

III bob. Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar.

IV bob. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar.

V bob. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar.

VI bob. Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar.

VII bob. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

IKKINCHI BO‘LIM.

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.

VIII bob. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

IX bob. O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar.

UCHINCHI BO‘LIM.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.

X bob. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish.

XI bob. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar.

XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar.

XIII bob. Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar.

TO‘RTINCHI BO‘LIM.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar.

XIV bob. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar.

BESHINCHI BO‘LIM.

Hokimiyat boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar.

XV bob. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar.

XVI bob. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar.

OLTINCHI BO‘LIM.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

XVII bob. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

XVIII bob. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

XIX bob. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar.

XX bob. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

$XX^1$ bob. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.

YETTINCHI BO‘LIM.

Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXI bob. Bo‘ysunish va harbiy sha’nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXII bob. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXIII bob. Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXIV bob. Harbiy mansabdorlik jinoyatlari.

Kodeks *«Atamalarning huquqiy ma’nosi»* deb atalgan SAKKIZINCHI BO‘LIM bilan yakunlanib, unda jinoyat qonunida uchraydigan ba’zi atamalarning huquqiy ma’nosiga izoh beriladi.

Umumiy va Maxsus qismlarda jinoyat qonuniga oid barcha normalar alohida qoidalar – moddalarga ajratilgan bo‘lib, ular maxsus ketma-ketlikka ega. Kodeksning sakkizinchi bo‘limi bundan mustasno bo‘lib, unda Kodeksda uchraydigan ba’zi huquqiy tushuncha va atamalargagina izoh beriladi. Biroq, ular modda shaklida berilmagan bo‘lsa-da, mohiyatan alohida modda hisoblanadi. Bunday texnik uslub huquq-tartibot organlari va bunday vakolati bo‘lmagan boshqa organlarning qonunni tor yoki keng doirada talqin qilishiga yo‘l qo‘ymaslik shartidan kelib chiqqan. Binobarin, ushbu bo‘limdagi atamalar va tushunchalarga berilgan sharhlar rasmiy va umummajburiy hisoblanadi.

Umumiy va Maxsus qismning ko‘pchilik moddalari alohida qism yoki bandlarga, ya’ni moddaning har bir qismi alohida abzatsga ajratiladi. Bandlardan iborat moddalar harfiy ishoratga ega. Bunday ichki tartib jinoyat qonunini qo‘llash hamda unga murojaat etishda, nafaqat u yoki bu moddaning tartib raqamini, balki unga tegishli qism yoki bandni aniq ko‘rsatish zaruratidan kelib chiqadi (masalan, Jinoyat kodeksining 17-moddasi 2-qismi, 56-moddasi 1-qismining «а», «б» bandi, 97-moddasi 2-qismi «в» bandi va h.k.).

Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi ba’zi moddalar umumiy xususiyatga ega ekanligi sababli, ularni *umumiy* moddalar deb atash rusum bo‘lgan. Chunonchi, umumiy moddalar Maxsus qismning ma’lum moddalarini qo‘llash hamda, umuman, qonun chiqarish jarayonida bevosita amal qilinishi lozim bo‘lgan umumiy qoidalar va prinsiplarni belgilaydi. Umumiy qismdagi moddalar, asosan, deklarativ xususiyatga ega bo‘lsa-da, huquqiy

amaliyotda sodir etilgan jinoyatga aniq huquqiy baho bera olish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, qonunda sezilarli o‘rin egallaydi.

Maxsus qismdagi moddalarda nazarda tutilgan jinoyat turlari hamda ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llanishi zarur bo‘lgan jazo choralari nazarda tutilganligi sababli, ular *turdosh* moddalar deb ataladi. Turdosh moddalar ikkita element – dispozitsiya va sanksiyadan iborat.

*Dispozitsiya* deganda, jinoyatning muayyan alomati nazarda tutilgan qism tushuniladi. Dispozitsiya jinoyat huquqiga oid normaning taqiqlovchi yoki tayinlovchi qismi bo‘lib, u mazkur turdagi jinoyatlar va ularning alomatlarini ko‘rsatib beradi. Chunonchi, jinoyat huquqi nazariyasida dispozitsiyaning to‘rtta turi ajratilib, bular: oddiy, ta’riflovchi, blanket va havolanki dispozitsiyalardan iborat.

*Oddiy dispozitsiyada* jinoiy qilmish alomatlari ko‘rsatilmasdan, u umumiste’moldagi atama yoki umumiy ma’noga ega bo‘lgan so‘z birikmasi bilan ataladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 223-moddasi 1-qismining dispozitsiyasi – «qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekicton Respublikasiga kirish» – oddiy dispozitsiyaga misol bo‘ladi. Shuningdek, Jinoyat kodeksi 267-moddasining dispozisiyasini ham oddiy dispozitsiya deb atash mumkin, chunki unda «transport vositasini olib qochish», deyilgan.

*Ta’riflovchi dispozitsiyada* oddiy dispozitsiyadan farqli ravishda, jinoyatni ma’lum atama bilan atash bilan bir qatorda, alohida turdagi jinoyatning umumiy ta’rifi beriladi hamda qanday belgilarga ko‘ra, u yoki bu qilmishni jamiyat uchun xavfli va jinoiy deb topish mumkinligi bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar beriladi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 229-moddasi 1-qismida o‘zboshimchalik, ya’ni haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni o‘zboshimchalik bilan amalga oshirish fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga sabab bo‘lgan qilmish sifatida ta’riflanadi. Jinoyat kodeksining 153-moddasida genotsid, nafaqat jinoyat sifatida, balki ushbu turdagi jinoyatlar milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, bir guruh shaxslarning jismonan to‘la yoki qisman qirilib ketishiga olib keladigan turmush sharoitini qasddan yaratish, bunday shaxslarni jismonan to‘la yoki qisman qirib yuborish, bola tug‘ilishini zo‘rlik bilan kamaytirish yoxud bolalarni ana shu odamlar guruhidan olib, boshqasiga topshirish, Shuningdek, bunday harakatlar sodir etish to‘g‘risida buyruq bilan bog‘liq jinoiy xatti-harakat sifatida ta’riflanadi.

*Blanket dispozitsiyada* bevosita qonunning o‘zida jinoiy qilmishning alomatlari ko‘rsatilmay, ushbu alomatlar to‘la ta’riflangan boshqa qonun va normativ hujjatlarga murojaat etadi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 202-moddasi 1-bandining dispozisiyasi quyidagicha ta’riflanadi: «…ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini ushlash qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibi yoki shartlarini yoxud o‘simliklarning dori-darmon, oziq-ovqat va manzarali (dekorativ) turlarini yig‘ish yoki tayyorlash, Shuningdek, maxsus qo‘riqlanadigan tabiiy hududlardagi hayvonot va o‘simlik olamidan foydalanish tartibini buzish jinoyat hisoblanadi». Shunday qilib, aynan qaysi turdagi tartibbuzarliklar haqida so‘z

yuritilayotganini anglash uchun bevosita hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanish bo‘yicha normativ hujjatlarga murojaat etish lozim, degan xulosa kelib chiqadi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, blanket dispozitsiyali jinoyat huquqiga oid norma, nafaqat boshqa qonun va normativ hujjatga murojaat etishdan iborat bo‘lishi, balki ma’lum tartibbuzarlikni jinoyat turiga kiritish uchun zarur shartlarni ham nazarda tutishi mumkin. Chunonchi, quyidagi moddada bunday shart sifatida hayvonot va o‘simlik olamidan foydalanish tartibini buzish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bunday qilmishni jinoyat deb baholash nazarda tutilgan. Binobarin, agar O‘zbekiston Respublikasi Bosh nazoratchisi 1993-yil 23-aprelda tasdiqlagan «O‘zbekiston Respublikasi hududida ovchilik va baliq ovlash tartibi»ni buzish natijasida ancha miqdorda zarar, ya’ni eng kam oylik ish haqining 30 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda ziyon yetkazilmagan bo‘lsa, ushbu qilmish jinoyat hisoblanmaydi (JK 202 – m. 2 va 3 – qismlari bundan mustasno) va boshqa jazo choralarining qo‘llanishiga tegishli bo‘ladi.

*Havolanki dispozitsiyada* jinoyatga to‘la ta’rif berilmay, Jinoyat kodeksining boshqa moddasi yoki moddaning bandiga havola qilinadi. Qonunda havolanki dispozitsiyasining mavjudligi keraksiz takrorlanishlarning oldini olish imkoniyatini beradi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 117-moddasi 2-bandining dispozitsiyasida «o‘sha qilmish odam o‘lishiga sabab bo‘lsa...» deyiladi. «O‘sha qilmish» degan so‘z birikmasining mavjudligi ushbu dispozitsiyaning havola xususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Umuman, qilmishning o‘zi Jinoyat kodeksining 117-moddasi 1-qismida quyidagicha ta’riflanadi: «Hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, basharti aybdor bunday ahvoldagi shaxsga yordam berishi shart va bunday imkoniyatga ega bo‘lsa yoxud aybdorning o‘zi jabrlanuvchini xavfli ahvolga solib qo‘ygan va bu hol badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lgan jinoiy qilmish» sifatida tan olinadi. Darhaqiqat, ushbu ta’rifni moddaning 2-qismida ham qaytarmaslik uchun havolanki uslubi ushbu moddaning 1-qismiga murojaat etishga undaydi.

Havolanki dispozitsiya ko‘pincha boshqa so‘z birikmalari bilan ham ifodalanadi, masalan: «mazkur moddaning 1 va 2-qismlarida nazarda tutilgan qilmish» yoki «mazkur moddada nazarda tutilgan qilmish» va h.k.

Yuqorida aytib o‘tilgan dispozitsiyalar bilan bir qatorda, amaldagi qonunda *murakkab dispozitsiya* ham mavjuddir. Murakkab dispozitsiyada ikki va undan ortiq dispozitsiyalarning elementlari mavjud bo‘ladi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 137-moddasi 1-qismida: «Ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lmagan holda odam o‘g‘irlash jinoyat hisoblanadi, deyilgan. Darhaqiqat, ushbu dispozitsiyada «odam o‘g‘irlash» so‘z birikmasi bilan oddiy dispozitsiya, «ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lmagan holda» birikmasi orqali esa havolanki dispozitsiya ifodalangan.

*Sanksiya* moddaning bir qismi bo‘lib, u dispozitsiyada nazarda tutilgan

muayyan jinoyat uchun tayinlangan jazoning turi va hajmini bildiradi. Binobarin, sanksiyada jinoyatning xususiyati va xavflilik darajasi ifodalanganligi sababli, aynan jazo chorasini tayinlashda Jinoyat kodeksining 15-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar tasnifiga murojaat etish lozim.

Jinoyat huquqi nazariyasida quyidagi sanksiya turlari ajratiladi: mutlaq-muayyan sanksiya, nisbiy-muayyan sanksiya, muqobil sanksiya va havolanki sanksiya.

*Mutlaq-muayyan sanksiya* bitta jazo chorasidan iborat bo‘lib, bunda jazoning turi va hajmi aniq ko‘rsatiladi. Hozirgi vaqtda Jinoyat kodeksida mutlaq-muayyan sanksiya qo‘llanilmaydi, sababi u hozirgi vaqtda umuman maqsadga nomuvofiq bo‘lib, Jinoyat kodeksining insonparvarlik (7-m.), odillik (8-m.) kabi prinsiplariga ziddir. Bunga tarixiy misol sifatida 1926-yildagi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi $57^4$-moddasining 4-qismini keltirish mumkin. Chunonchi, unda harbiy xizmatchi tomonidan sodir etilgan yoki bevosita tayyorlanayotgan jinoyat haqida tegishli idoralarga xabar bermaslik uchun jinoiy javobgarlik hamda 10 yilga ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan[1].

*Nisbiy-muayyan sanksiyada* jazoning eng yuqori va eng quyi chegaralari ko‘rsatilgani holda, uning turi aniqlanadi. Bu kabi sanksiyalar sudga jinoiy qilmish va uni sodir etgan shaxsning obyektiv va subyektiv xususiyatlarini hisobga olgan holda, belgilanayotgan jazoni individuallashtirish imkoniyatini beradi.

Qonunda nisbiy-muayyan sanksiyalarning uchta turi keltirilgan. Bunday sanksiyaning birinchi turi jazoning yuqori va quyi chegaralarining aniq ko‘rsatilishi bilan ta’riflanadi. Ushbu sanksiyaga Jinoyat kodeksining 104-moddasi 1-qismini misol qilish mumkin. Unda «qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi» deyilgan. Bu sanksiyaning ikkinchi turida jazoning faqat yuqori chegarasi ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bunday sanksiyaga Jinoyat kodeksining 120-moddasini misol qilish mumkin bo‘lib, unda besoqolbozlik uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolash nazarda tutilgan.

Nisbiy-muayyan sanksiyaning uchinchi turi ma’lum turdagi jinoyat uchun faqat minimal hajmdagi jazoni belgilash bilan ta’riflanadi. Bunday sanksiya amaldagi qonunlarda yo‘q. Biroq, agar 1926-yildagi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga murojaat qiladigan bo‘lsak, unda aksilinqilobiy to‘sqinlik qilish (sabotaj), ya’ni davlat hokimiyati va faoliyatini qasddan bo‘shashtirish maqsadida ongli ravishda ma’lum vazifalarni bajarmaslik yoki ataylab pala-partish bajarish uchun bir yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish nazarda tutilgan.

*Muqobil sanksiya* ikki yoki undan ortiq jazo chorasidan iborat bo‘lib, sudga aybdor sodir etgan qilmishga mos jazo tayinlash huquqini beradi.

---

[1] Qarang: Уголовное законодательство СССР и союзных республик (основные законодательные акты). – М., 1957. – С. 176.

Xususan, Jinoyat kodeksining 122-moddasida nazarda tutilgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

*Havolanki sanksiya* jazo turini va hajmini belgilamagan holda, Kodeksning boshqa moddasiga murojaat etish lozimligi haqida ko‘rsatmadan iborat bo‘ladi. Biroq bunday sanksiya amaldagi Kodeksda yo‘q. Shunday bo‘lishiga qaramay, jinoyat huquqining rivojlanish tarixida bunday sanksiyalarga bir nechta misollar mavjud. Xususan, 1959-yilgi O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 62-moddasida nazarda tutilgan davlatga qarshi o‘ta xavfli jinoyatlarni sodir etish yoki tayyorlash, bu kabi jinoyatlarni sodir qilish maqsadida tashkilotlar tuzish, Shuningdek, antisovet tashkilotlarda ishtirok etganlik uchun sanksiya quyidagicha belgilangan: «...amaldagi Kodeksning 54–61-moddalariga muvofiq jazo tayinlansin»[1].

Huquqning umumiy nazariyasida huquqiy normaning uch qismli tizimini umum e’tirof etgan bo‘lib, unda tarkibiy qism sifatida gipoteza – normani amalga oshirishning asl imkoniyatini belgilovchi shart-sharoitdan iborat element, dispozitsiya – xatti-harakat tartibi va ijtimoiy munosabatlarning kafolati bo‘lgan davlat majburlov chorasidan iborat sanksiyada o‘z aksini topgan.

Jinoyat huquqi ta’limotida jinoyat huquqiga oid normaning tuzilishi haqidagi masala munozarali bo‘lib, u, asosan, ikki jihatdan iborat bo‘ladi: Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi normalarning o‘ziga xosligi hamda Maxsus qism normalaridagi tarkibiy elementlarning miqdori.

O‘z tarkibiga ko‘ra, jinoyat huquqiga oid norma uchta element: gipoteza, dispozitsiya va sanksiyani o‘z ichiga oladi. Jinoyat huquqiga oid normaning ikki qismli tarkibi (dispozitsiya va sanksiya) haqidagi xato fikr-mulohazalar huquqiy norma tarkibini jinoyat qonuni tarkibi bilan birlashtirish tufayli kelib chiqadi. Binobarin, ularni aslo birlashtirib bo‘lmaydi, chunki jinoyat huquqiga oid norma jinoyat huquqining tarkibiy qismi bo‘lib, u esa, o‘z navbatida, ushbu normani ifoda etish shakli hisoblanadi.

*Gipoteza* jinoyat huquqiga oid normaning bir qismi bo‘lib, u qilmishni jinoyat sifatida tan olish va jinoiy jazoga loyiq deb topish bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Jinoyat huquqiga oid normaning *dispozitsiyasi* jinoyat deb topilgan qilmishning obyektiv va subyektiv tavsifidan iborat.

*Sanksiya* jinoyat huquqiga oid normaning bir qismi bo‘lib, huquqiy ta’sirning jinoyat huquqiga oid jazo choralarini nazarda tutadi.

Jinoyat huquqiga oid ushbu uch element mantiqan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini taqozo etadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ushbu bog‘liqlik har doim ham yaqqol ko‘zga tashlanavermaydi. Chunki jinoyat huquqiga oid norma jinoyat qonuni moddalarining tuzilishi bilan mos kelavermaydi hamda bitta jinoyat huquqiga oid normaning o‘zi bir nechta moddalarda aks ettirilishi mumkin. Chunonchi, jinoyatning obyektiv va subyektiv tavsifini o‘zida mu-

[1] Qarang: Ўзбекистон ССР Жиноят кодекси. – Т., 1988. – 61-б.

jassamlashtirgan jinoyat huquqiga oid normaning dispozitsiyasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan moddasi dispozitsiyasi bilan mos bo‘lmasligi mumkin, chunki u Jinoyat kodeksi Umumiy qismidagi jinoiy jazoga loyiq shaxslarning alomatlari, ayb shakli va uning turlari, tugallanmagan jinoyatlar tarkibi, ishtirokchilik shakllari va boshqalarni nazarda tutadigan ko‘pgina moddalarni mazmunan qamrab oladi.

Shu kabi jinoyat huquqiga oid normaning sanksiyasi ham Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining sanksiyasi bilan mos emas hamda uning alohida tarkibiy qismlari Jinoyat kodeksi Umumiy qismining moddalarida aks ettirilgan. Chunonchi, aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazish uchun Jinoyat kodeksining 170-moddasi 1-qismida eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolash nazarda tutilgan. Shuningdek, jinoyat huquqiga oid norma sanksiyani to‘la talqin qilishi uchun Jinoyat kodeksining 44-moddasi 2-qismi hamda 46-moddasi 1 va 2-qismiga murojaat etish kerak bo‘lib, ularda ushbu sanksiyada ko‘rsatilgan jarima miqdori eng kam oylik ish haqining besh baravarigacha miqdorida belgilanishi hamda axloq tuzatish ishlarining eng kam muddati shaxs ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanishi nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jinoyat huquqiga oid normaning gipotezasi haqida turli fikr-mulohazalar mavjud, biroq eng diqqatga sazovori Jinoyat kodeksining 16-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlik asoslarini o‘zida aks ettirgan qoidalar hisoblanadi[1].

## 4. Jinoyat qonunlarining hudud bo‘yicha amal qilishi

Jinoyat qonunlari makon va zamon chegaralarida amal qiladi. Binobarin, qonunning amal qilish chegaralarini aniqlash demokratik davlatda inson huquq va erkinliklarini real kafolatlashning shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi haqidagi Jinoyat kodeksi normalarida davlat suvereniteti prinsipi, ya’ni davlat hokimiyatining ustunligi, uning mustaqilligi va to‘la hokimiyatliligi o‘z aksini topgan. Ta’kidlash joizki, har qanday davlat hokimiyati ma’lum hududda o‘z ta’sir kuchiga ega bo‘ladi, chunki davlat chegarasidan tashqarida hokimiyat vakolatlarining amalga oshirilishi boshqa davlat suverenitetining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan davlat hokimiyati o‘z chegaralari, ya’ni hududiy sarhadlari bilan cheklanganligi sababli, davlat qonunlari ushbu chegaralardan tashqariga tarqalmaydi, demak davlat suvereniteti prinsipi va jinoyat qonunlarini qo‘llashning hududiylik prinsipi o‘zaro bog‘liq, degan xulosa kelib chiqadi. Darhaqiqat, *hududiylik prinsipi* O‘zbekiston Respublikasida jinoyat qonunlarining amal qilish chegaralarini aniqlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

---

[1] Qarang: *Наумов А. В.* Российское уголовное право. Общая часть. – М., 1996. – С. 97.

Hududiylik prinsipi *fuqarolik* yoki *milliy prinsip* bilan qo‘shilib ketadi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekiston hududida muqim istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir qilgan hollarda, ularni jinoiy javobgarlikka tortish muammosi shu prinsipga muvofiq hal qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarining hudud bo‘yicha amal qilish chegaralari, aytib o‘tilgan prinsiplardan tashqari, *universallik* prinsipiga ham asoslanadi. Ya’ni chet el fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasida muqim istiqomat qilmaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir qilgan hollarda, ularni jinoiy javobgarlikka tortish muammosi shu prinsipga asosan hal qilinadi.

***Hududiylik prinsipi.*** Jinoyat qonunlari hudud bo‘yicha amal qilishining ushbu prinsipiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan shaxslar, o‘zlarining fuqaroligi va tabaqaligidan qat’i nazar, jinoyat sodir etilgan joyning jinoyat qonunlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar (JK 11-m.).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga o‘zining mustaqil Jinoyat kodeksiga ega bo‘lmagan suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 72-moddasiga binoan, uning hududida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va boshqa qonunlari amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonunining[1] 3-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining hududi quruqlik, havo, suv va yer osti hududlarini o‘z ichiga oladi.

*Quruqlikdagi hududga* O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi doirasidagi yer va orollar kiradi. Davlat chegarasi quruqlikdagi o‘ziga xos nuqtalar, relyef chiziqlari yoki aniq ko‘rinib turadigan joylar bo‘yicha belgilanadi.

*Suv hududi* davlat chegarasi doirasidagi ichki suv havzalari hamda O‘zbekiston Respublikasi hududiga kiruvchi qirg‘oqlardan iborat. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunining 4-moddasiga muvofiq, yagona davlat fondiga: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, yer osti va ustidagi suv manbalari, kanal va hovuz suvlari kiradi[2]. Agar daryo va ko‘llar boshqa davlatlar bilan chegaradosh bo‘lsa, ular chegara chizig‘i bilan bo‘linadi. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonunining 5-moddasiga binoan, davlat chegarasi quyidagicha belgilanadi: kema qatnaydigan daryolarda – daryoning asosiy farvateri yoki talvegi o‘rtasi bo‘ylab, kema qatnamaydigan daryolarda, jilg‘alarda

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1999. – № 9. – 217-м.

[2] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1993. – № 5. – 221-м.

– ularning o‘rtasi bo‘ylab, kema qatnamaydigan daryolarda, jilg‘alarda – ularning o‘rtasi yoki daryoning asosiy o‘zanining o‘rtasi bo‘ylab; ko‘llar yoki boshqa suv havzalarida – Davlat chegarasi ko‘l yoki boshqacha chiziq bo‘yicha o‘tishi ta’kidlanadi. Daryo, jilg‘a, ko‘l yoki boshqa suv havzasi orqali o‘tadigan Davlat chegarasi ular qirg‘oqlarining ko‘rinishi yoki suv sathi o‘zgarganda ham, daryo, jilg‘a oqimi u yoki bu tomonga burilganda ham o‘zgarmay qolaveradi.

Suv omborlarida va boshqa sun’iy suv havzalarida – ular suv bilan to‘ldirilguniga qadar Davlat chegarasining mazkur joydan o‘tgan chizig‘iga muvofiq ravishda.

Daryolar, jilg‘alar, ko‘llar va boshqa suv havzalari orqali o‘tuvchi ko‘priklarda, to‘g‘onlar va boshqa inshootlarda – Davlat chegarasi suvdan o‘tish-o‘tmasligidan qat’i nazar, shu inshootlarning o‘rtasi yoki ularning texnologiya o‘qi bo‘ylab belgilanadi.

*Havo hududini* O‘zbekiston Respublikasining quruqlik va suv hududi ustidagi bo‘shliq tashkil qiladi.

*Yer osti hududini* quruqlik va suv hududi ostidagi makon tashkil qiladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston hududidan tashqarida hamda chet davlat hududida ham bo‘lmagan joyda O‘zbekiston bayrog‘i ostida yoki uning portida ro‘yxatga olingan havo, dengiz va daryo kemasida sodir etilgan jinoyatlarni ham O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan, deb talqin etish mumkin. Ushbu qoida ochiq dengizdagi kemalarga va havoda bo‘lgan fuqaro tashuvchi kemalarga tegishliligini umum e’tirof etgan. O‘zbekiston bayrog‘i ostidagi harbiy dengiz va havo kemalari bundan mustasnodir. Bu degan so‘z, kema turgan joydan qat’i nazar, u O‘zbekiston hududi deb tan olinadi va shu sababli ushbu kema bortida jinoyat sodir etgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga binoan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishgani, uning xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olinishi, mustaqil davlat sifatida xalqaro sahnaga chiqishi va boshqa chet davlatlar bilan diplomatik munosabatlarning yaxshilanishi chet davlatlar elchixonalari, konsulliklari va vakolatxonalari joylashgan hududning huquqiy maqomi haqidagi masala dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasida joylashgan chet el elchixonalari va konsulliklari egallagan hududlar chet el hududiga kirmagani kabi, O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi elchilik va konsullik tashkilotlariga ajratilgan hudud ham bevosita O‘zbekiston Respublikasining hududiga kirmaydi, degan fikr to‘g‘ri bo‘lib tuyuladi. Darhaqiqat, bunday xulosa chet el elchixonasi joylashgan yer chet davlat hududi sifatida tan olinganida, O‘zbekiston Respublikasi huquq-tartibot organlarining ushbu hududlarda sodir etilgan huquqbuzarliklar, ayniqsa, chet ellik fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan sodir etgan jinoiy harakatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortishga hech qanday qonuniy asoslari bo‘lmas edi, degan fikrdan kelib chiqadi. Bunda aybdor shaxslar ko‘p hollarda jazosiz qolardilar, chunki jinoyat chet davlat hududida sodir etilgan deb talqin etilganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston jinoyat qonuni ular-

ga nisbatan qo‘llanilmas edi.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi elchixonalari va u yerda ishlaydigan xodimlarga nisbatan jinoyat sodir etilgan hollarda boshqa ko‘rinishdagi muammo yuzaga kelar edi. Bunday jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb hisoblanib, huquq-tartibot organlarimizning aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortish real imkoniyati yo‘qolar edi, chunki mamlakatlarning ko‘pchiligida, Shuningdek, O‘zbekistonda ham chet el davlatlariga o‘z fuqarolarini bermaslik prinsipiga amal qilinadi. Shunday qilib, chet el elchixonalari va konsulliklari joylashgan yer, ushbu chet davlat hududiga kirmaydi. Biroq, ta’kidlash joizki, chet el elchixonalari va boshqa diplomatik tashkilotlar binolari, u yerda ishlaydigan xodimlar diplomatik immunitet tufayli shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadirlar.

Jinoyat kodeksining 11-moddasida jinoyat sodir etilgan joyga uning namoyon bo‘lish shakllari (tayyorlash, tajovuz qilish, bajarish, undash, ko‘maklashish, tashkilotchilik faoliyati) kabi, jinoyatlar tarkibining huquqiy tuzilishi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Jinoyatlarning barcha turlari va shakllariga nisbatan qo‘llanuvchi qoidaga muvofiq, qilmish O‘zbekiston Respublikasida boshlangan, tamomlangan yoki aybdorga bog‘liq bo‘lmagan sabablar tufayli to‘xtatilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan, deb tan olinadi. Shuningdek, jinoyat qonunida quyidagi modda mavjud bo‘lib, unga muvofiq, respublika hududida muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomoni, masalan, chegaradosh hududda olovdan ehtiyotsizlik bilan foydalanish tufayli O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan o‘rmon, ko‘chat va boshqa ekin maydonlarining shikastlanishi yoki nobud bo‘lishi natijasida yirik ziyon yetkazilgan yoki boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa, bunday jinoyat O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb hisoblanadi. Binobarin, O‘zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O‘zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan jinoyatlarning sodir etilish joyini shunga o‘xshash talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, qonunda uzoqqa cho‘zilgan, davomli va murakkab (tarkibli) jinoyatlarning sodir etilish joyi haqida muammoni hal qilish bo‘yicha ko‘rsatmalardan iborat moddalar mavjud.

Jinoyat kodeksining 11-moddasi 2-qismida aks ettirilgan huquqiy ko‘rsatmalar, jinoyatning shakli va huquqiy qurilmasi kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda, uning sodir etilish joyini aniqlash bo‘yicha ba’zi muayyan nazariy ko‘rsatmalarni ta’riflashga imkon beradi.

Tarkibiga obyektiv-huquqiy tarafdan, faqat ijtimoiy xavfli qilmish kiritilib, jinoiy oqibatlari undan tashqarida bo‘lgan va huquqiy nuqtai nazardan hech qanday formal (rasmiy) tarkibga ega bo‘lmagan jinoyatlarning sodir etilish joyini muayyan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan joy deb hisoblash lozim.

Aksincha, tarkibiga obyektiv-huquqiy tarafdan ijtimoiy xavfli qilmish bilan birga, jinoiy oqibatlar (moddiy tarkib)ga ega bo‘lgan jinoyatlarning sodir etilish joyi sifatida, asosan, muayyan ijtimoiy xavfli oqibat yuzaga kelgan joy-

ni hisoblash zarur. Ushbu qoidadan istisno sifatida esa, jinoiy oqibat O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yuz bergan hollar tashkil qiladi. Biroq, ular ham O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb talqin qilinishi zarur. Bunday xulosa, O‘zbekiston hududida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish, mohiyatan, sodir etilayotgan jinoyatning bir bosqichi va aslida tayyorgarlik yoki tajovuz bo‘lib, Jinoyat kodeksi bo‘yicha jinoiy jazoga loyiq hisoblanishi tufayli, qasddan sodir etilgan jinoyatlar haqida yuritilmoqda. Demak, ushbu hollarda jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash, aynan shu asosda amalga oshiriladi. Agar O‘zbekiston hududida ehtiyotsizlik tufayli oqibatlari O‘zbekiston hududidan tashqaridan yuz bergan qilmish sodir etilganda, Jinoyat kodeksining 11-moddasi 2-qismi «a» bandida nazarda tutilgan qoidalarga asoslanish lozim.

Ta’kidlash lozimki, uzoqqa cho‘zilgan, davomli, murakkab (tarkibli) jinoyatlarning sodir etilish joyini aniqlashda, agar ular bir nechta davlat hududida sodir etilgan bo‘lsa, muammo yuzaga keladi.

Jinoyat kodeksining 32-moddasi 4-qismiga binoan, uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarga vazifalarini uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qilgan jinoyatlar kiradi. Ushbu ta’rifga asoslanib, agar uzoqqa cho‘zilgan jinoyat bir nechta davlatlar hududida sodir etilgan bo‘lsa, u qandaydir vaqt mobaynida sodir etilgan har qanday joy jinoyat sodir etilgan joy sifatida tan olinishi mumkin, degan xulosa chiqarish mumkin. Shu sababli, agar shaxs uyushgan guruh a’zosi bo‘lib, ya’ni Jinoyat kodeksining 242-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan va turli vaqt davomida turli mamlakatlar hududida, shuningdek, O‘zbekiston hududida bo‘lgan va uning jinoiy qilmishi O‘zbekiston hududida to‘xtatilib, jinoiy javobgarlikka tortilgan va sudlangan bo‘lsa, u O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etganlikda ayblanishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 32-moddasi 3-qismiga muvofiq, davomli jinoyatlar, umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat jinoyatlar hisoblanadi. Aytish kerakki, agar davomli jinoyatlar bir nechta davlatlarda sodir etilib, ularning birigina O‘zbekiston hududida sodir etilgan bo‘lsa, shubhasiz, bunday jinoyat O‘zbekiston hududida sodir etilgan deb tan olinishi kerak.

Jinoyat kodeksining Maxsus qismida bir nechta turga ega murakkab (tarkibli) jinoyatlar keng talqin qilingan. Hamma turdagi murakkab (tarkibli) jinoyatlarning sodir etilish joyini aniqlash uchun Jinoyat kodeksining 11-moddasi 2-qismi «г» bandida nazarda tutilgan umumiy qoidaga amal qilish lozim. Chunonchi, unga muvofiq, basharti O‘zbekiston hududida shaxs boshqa qilmishlar bilan birgalikda yoki muqobil ravishda yagona murakkab jinoyatni tashkil qiluvchi qilmishlarning bir qismini bajarsa (yoki boshlansa, yoki tugatilsa, yoki to‘liq bajarilsa), umuman, bu kabi qilmish O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatning sodir etilish joyini aniqlashda maxsus moddaga amal qilish kerakki, unga muvofiq, ishtirokchi sodir etgan

jinoiy qilmishning joyini aniqlash mumkin. Shu sababli, tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston hududidan tashqarida amalga oshirgan, ijrochi esa, muayyan jinoyat tarkibini O‘zbekiston hududida to‘liq yoki qisman bajargan bo‘lsa, demak hamma ishtirokchilar uchun bu kabi jinoyatning sodir etilish joyi sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududi tan olinishi kerak. Xususan, bajaruvchining O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etishi maqsadida, tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchining o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston hududida amalga oshirgan hollarda ham masala aynan shunday hal qilinadi. Jinoyat kodeksining 11 va 28-moddalariga muvofiq, ishtirokchilar o‘z jinoiy qilmishlarini O‘zbekiston hududida boshlaganliklari sababli, jinoyat O‘zbekiston hududida sodir etilgan, deb tan olinadi.

Fuqaroligidan qat’i nazar, O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxslar hududiylik prinsipi, ya’ni jinoyat sodir etish joyiga binoan, jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Diplomatik immunitetga ega chet el fuqarolari ushbu qoidadan mustasno bo‘lib, unga muvofiq, ushbu fuqarolar O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etgani uchun mahalliy huquq-tartibot organlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar. Xususan, bunday shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi masala xalqaro huquqiy normalar asosida hal qilinadi. Bundan tashqari, diplomatik immunitet yoki diplomatik daxlsizlikdan o‘zaro ishonch asosida diplomatik vakil bo‘lmagan shaxslar ham foydalanishi mumkin.

Immunitet tufayli daxlsizlik huquqidan diplomatik va konsullik vakolatxonalarining rahbarlari – vakillar, konsullar, elchilar va ishonchli vakillar, shuningdek, diplomatik vakolatxona a’zolari – maslahatchilar, birinchi, ikkinchi va uchinchi kotiblar, attashe, savdo-sotiq vakillari, ularning o‘rinbosarlari, attashe yordamchilari, sanab o‘tilgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan va ular bilan doimiy yashaydigan oila a’zolari foydalanishlari mumkin. O‘zaro ishonch asosida daxlsizlik huquqidan diplomatik vakolatxonalar ma’muriy-texnik xodimlari va ularning O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan oila a’zolari ham foydalanadilar. Xuddi shu huquqdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) topshiriqlarini bajaruvchi vakillar va mansabdor shaxslar, chet davlat vakillari, parlament va hukumat tashkilotlarining a’zolari ham foydalanishi mumkin.

Shaxsiy majburiyatlarini bajarayotgan diplomatik kuryerlar shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega bo‘lib, ular hibsga yoki qamoqqa olinmaydilar. Bu huquqdan ma’lum diplomatik xatlarni tashuvchi vaqtincha diplomatik kuryerlar ham foydalanishi mumkin. Ularning vaqtincha immuniteti diplomatik pochta manziliga yetgan vaqtdan boshlab o‘z kuchini yo‘qotadi.

Jinoyat huquqida chet davlatlar diplomatik vakillari va boshqa fuqarolarining xalqaro huquqiy normalar asosida diplomatik yo‘l bilan jinoiy javobgarlikka tortish muammosini hal qilish haqidagi qoidaning belgilanishi diplomatik immunitetga ega shaxslarning O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etish va jinoiy javobgarlikka tortilish hollarini istisno qilishni bildirmaydi. Aksincha, diplomatik immunitetga ega shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi emas, balki O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoiy javobgarlikka tortish va

tegishli davlat roziligisiz jinoiy jazo tayinlash hollari istisno qilinadi.

***Fuqarolik prinsipi.*** Fuqarolik prinsipidan O‘zbekiston fuqarolari va, shuningdek, O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan hollarda qo‘llaniladi (JK 12-m. 1-q.).

O‘zbekiston fuqarolariga, qonunga muvofiq, O‘zbekiston fuqarosi huquqiy maqomiga ega bo‘lgan shaxslar kiradilar. 1992-yil 2-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi qonunning[1] 1-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqa ularning o‘zaro huquqlari va burchlarida ifodalanadi. Ushbu Qonunning 4-moddasiga binoan, quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bo‘ladilar: 1) kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma’lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e’tiqodi, mashg‘ulotining turi va saviyasidan qat’i nazar, ushbu Qonun kuchga kirgan vaqtda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lmagan hamda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan shaxslar; 2) davlat yo‘llanmasi bilan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o‘tayotgan yoki o‘qiyotgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasining hududida tug‘ilgan bo‘lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo‘lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo‘lmasalar va ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin kechi bilan bir yil ichida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish istagini bildirgan bo‘lsalar; 3) ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar. Ushbu qonunning 12-moddasi O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olishning quyidagi asoslarini belgilaydi: 1) tug‘ilganda; 2) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida; 3) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha; 4) ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo‘yicha.

«O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxslar fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar deb hisoblanadi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi sakkizinchi bo‘limida fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga biron-bir davlatning fuqarosi yuridik maqomiga ega bo‘lmagan jismoniy shaxs sifatida ta’rif beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar chet elda jinoyat sodir qilganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga binoan jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Binobarin, ushbu shaxslarning jinoiy javobgarligi haqidagi masalani hal qilishdan avval, ular faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini buzish hollarida jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini nazarda tutish kerak. Darhaqiqat, bu qoida amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, modomiki, O‘zbekiston

[1] Qarang: Ўзбекистоннинг янги қонунлари. – 1993. –№ 6. – 23-б.

Respublikasi va boshqa davlatlar jinoyat qonunlarida jinoiy qilmish va nojinoiy harakatni talqin qilish bo‘yicha prinsipial tafovutlar bo‘lishi mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan, ammo O‘zbekiston hududida jinoiy javobgarlikka tortilgan va sud qilingan bo‘lsa-da, ularning qilmishlari boshqa davlat jinoyat qonuni bo‘yicha nojinoiy deb topilgan yoki yengil jazo belgilanganligiga qaramay, bu holat ushbu shaxslarni butunlay jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘la olmaydi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida sodir etilgan qilmishning jinoiyligi haqidagi masala, hududida ushbu jinoyat sodir etilgan chet davlatlar jinoyat qonunlarida qay tarzda hal qilinishidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq belgilanadi.

O‘zbekiston fuqarolari va O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etganliklari uchun jinoiy javobgarlik tayinlashning muhim sharti bo‘lib, chet davlat hududida jinoyat sodir etgan shaxslarning, ushbu davlat sudi chiqargan hukmga binoan jazolanmasligi hisoblanadi. Shubhasiz, ushbu shart, hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta jinoiy javobgarlikka tortilmasligi haqidagi odillik prinsipidan kelib chiqadi (JK 8-m. 2-q.).

***Universal prinsip.*** Ushbu prinsip Jinoyat kodeksi 12-moddasining 3-qismida o‘z aksini topgan. U chet el fuqarolari va O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar sodir etayotgan xalqaro jinoyatlarga qarshi O‘zbekiston Respublikasi qabul qilgan xalqaro majburiyatlarga asoslanadi. Binobarin, uning mohiyati chet el fuqarolari va O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi haqidagi qoidalardan iborat.

Jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlik mustaqil davlatlar va xalqaro tashkilotlarning jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish, jinoyat sodir etgan shaxslarga muomala qilish bo‘yicha maxsus faoliyat turidir. Chunonchi, «xalqaro jinoyatchilik insonlar jamiyatiga zarar keltiruvchi hamda unda sodir etilgan jinoyatlarning butun yig‘indisidan tashkil topgan salbiy ijtimoiy hodisadir»[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘z nutqlaridan birida «jinoyatchilikdek murakkab hodisani tahlil qilar ekanmiz, ushbu muammoning boshqa tomonini ham nazarda tutmog‘imiz kerak. Bu muammoning mazmunini bitta jumla bilan ifodalash mumkin – jinoyatchilar dunyosi chegara bilmaydi. Shuning uchun ham biz jinoyatchilik haqida butun jahon hamjamiyati qayg‘urmog‘i lozim, deb hisoblaymiz. Suveren O‘zbekiston xalqi va rahbariyati esa ular bilan faol hamkorlik qilishga

[1] *Панов В. П.* Сотрудничество государств в борьбе с международными уголовными преступлениями. – М., 1993. – С. 7.

tayyor va buni dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta’minlash ishiga qo‘shilgan hissadir»[1], deb ta’kidlagan edi.

O‘zbekistonning xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorligi quyidagi xalqaro-huquqiy shakllarda namoyon bo‘ladi: 1) ikki taraflama xalqaro-huquqiy shartnoma va bitimlar tuzish; 2) ko‘p taraflama shartnomalar tuzish; 3) xalqaro tashkilotlar tashkil etish.

Ta’kidlash joizki, huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha ikki taraflama shartnomalar tuzishni davlatimiz keng qo‘llaydi. Chunonchi, bunday shartnomalar Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari va boshqa davlatlar bilan tuzilgan. Huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalarda, odatda, eng avvalo, davlatlararo jinoyatchilarni ushlab berish va bu bilan bog‘liq huquqiy tartiblar hal qilinadi.

*Davlatlararo jinoyatchilarni ushlab berish* va *boshpana huquqi* – hozirgi xalqaro jinoyat huquqining ikkita mustaqil instituti bo‘lib, ular salmoqli siyosiy ahamiyatga va xalqaro siyosiy hayotda alohida o‘ringa egadir.

«O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston fuqarosi chet davlatga, basharti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushlab berilishi mumkin emas. Xuddi shunday qoida, Jinoyat kodeksining 12-moddasi 2-qismida ham belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushlab berilishi mumkin emas.

Xalqaro huquqda davlatlararo jinoyatchilarni ushlab berish instituti Jinoyat kodeksida belgilangandan ko‘ra birmuncha kengroq ma’noga ega. Ya’ni ma’lum davlat hududida jinoyat sodir etgan shaxs boshqa davlatga odil sudni amalga oshirish maqsadida ushlab beriladi. Biroq, ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunida jinoyatchilarni ushlab berish instituti cheklangan bo‘lib, ushbu masala birgalik asosida ikki taraflama va ko‘p taraflama xalqaro shartnoma va bitimlarda hal qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishli bo‘lmaydi. Bunday xulosa, agar O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga ko‘ra, jinoiy qilmish sodir etgan bo‘lsa, u fuqarolik prinsipiga binoan, O‘zbekiston Jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi, degan fikrdan kelib chiqadi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi o‘z fuqarolarini chet el davlati hududida sodir etgan va bu davlat jinoyat qonuniga ko‘ra, jinoiy deb topilgan, aksincha, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga ko‘ra, nojinoiy deb topilgan qilmish uchun ushlab bermasligi, davlatimizning fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlashidan kelib chiqadi. Biroq bu chet eldagi fuqarolarimizning mazkur davlat qonunlariga behurmat munosabatda bo‘lishi kerakligini bildirmaydi, albatta.

Jinoyatchilarni ushlab berish davlat suverenitetini aks ettiruvchi oliy

---

[1] *Каримов И. А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – 91–94-б.

davlat hokimiyatining huquqiy hujjati bo‘lib, uni aslo sud yoki ma’muriy hujjatlar sirasiga kiritish mumkin emas. Shu sababdan, jinoyatchini ushlab berish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish diplomatik yo‘l bilan hal qilinib, u esa, o‘z navbatida, ushbu davlat qonunlari va tegishli xalqaro shartnoma va bitimlarda belgilanadi.

Ma’lumki, xalqaro xususiyatga ega jinoyatlarga qarshi kurashning keng tarqalgan shakli ko‘p taraflama xalqaro konvensiyalarni tuzish hisoblanadi. Chunonchi, O‘zbekiston ko‘pgina rasmiy tasdiqlangan konvensiyalarning ishtirokchisi ekanligini ta’kidlash joiz. Misol tariqasida, O‘zbekiston rasmiy tasdiqlagan 1961-yildagi «Giyohvandlik vositalar to‘g‘risidagi yagona konvensiya»[1], 1971-yildagi «Psixotrop moddalar haqidagi konvensiya»[2], «Narkotik vositalar va psixotrop moddalarni noqonuniy aylantirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyalar»ni[3] keltirish mumkin. Ushbu konvensiyalarni rasmiy tasdiqlash orqali O‘zbekiston narkotik vositalar va psixotrop moddalarni noqonuniy tarqatish va aylantirishga qarshi kurash bo‘yicha majburiyatlar, Shuningdek, chet el fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha majburiyatlarni qabul qildi.

Shunday qilib, chet el fuqarolari, Shuningdek, O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Xalqaro qonun chiqarish amaliyotida jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishining hududiylik, fuqarolik va universallik prinsiplaridan tashqari *real (aniq)* prinsipiga ham e’tibor qaratiladi. Masalan, bunday prinsip, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining[4] 12-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan bo‘lib, unga muvofiq, «chet el fuqarolari va Rossiya Federatsiyasida doimiy yashamaydigan, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar chet davlat hududida Rossiya Federatsiyasi manfaatlariga qarshi sodir etgan jinoyatlari uchun, garchi ushbu davlatda jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo‘lsalar ham, mazkur Kodeks bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladilar». Shunday qilib, real prinsipning mohiyati, u yoki bu davlatning chet ellik fuqarolari va mazkur davlatda doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni, ushbu davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan jinoiy qilmishlari uchun, garchi u bu davlat hududida sodir etilmagan va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatidan kelib chiqadi. Darhaqiqat, bunday

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1995. – № 4. – 37-м.

[2] Qarang: O‘sha joyda. – 38-m.

[3] Qarang: O‘sha joyda. – 39-m.

[4] Qarang: Уголовный кодекс Российской Федерации. Официальный текст. – М., 1996. – С. 208.

qarorni o‘rganish va O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida e’tiborga olish lozim.

## 5. Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilishi

Jinoyat qonunini to‘g‘ri qo‘llash uning qo‘llanish vaqtida amal qilayotgan qonunni belgilash bilan shartlanadi. Ushbu masalani hal qilish jinoyat qonunining jinoyatlarning oldini olish va tarbiyalash funksiyasini amalga oshirish, Shuningdek, jinoiy javobgarlikka tortish asoslarining mavjudligini belgilash bilan chambarchas bog‘liqdir. Jinoyat qonunining ogohlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalari faqat u qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hamda undagi normalar fuqarolar va huquq-tartibot organlariga ma’lum yoki ma’lum bo‘lishi shart bo‘lgan hollarda to‘liq amalga oshirilishi mumkin. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasi va «O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to‘g‘risida»gi qonunda[1] aks ettirilgan bo‘lib, unga muvofiq, qabul qilingan qonunlarning va normativ hujjatlarning matbuotda e’lon qilinishi ular qo‘llanishining majburiy sharti hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilishining umumiy sharti jinoyat qonuni u qabul qilingan vaqtdan so‘ng sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin.

Binobarin, qonun, agar u rasman qonuniy kuchga kirgan va boshqa qonun bilan bekor qilinmagan bo‘lsa, amaldagi qonun sifatida tan olinadi.

Jinoyat qonuni qonuniy kuchga kirishdan avval, u O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinishi va matbuotda e’lon qilinishi shart. Oliy Majlis – O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Oliy davlat vakillik organi hisoblanadi (O‘zR Konstitutsiyasining 76-m. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Q‘onunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat (O‘zR Konstitutsiyasining 76-m. 2-q.). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi mutlaq vakolatlari jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarini hamda qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish kiradi (O‘zR Konstitutsiyasining 78-m. 2-bandi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunining 8-m. 2-bandi). Shunday qilib, jinoyat qonunlari faqat Oliy Majlisning sessiya vaqtidagi yig‘ilishlarida qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 17-bandiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi.

Qonunlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida qabul qilinib, Senat tomonidan maqullangandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash uchun taqdim etiladi. Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, taqdim qilingan qonunga o‘z e’tirozlarini bildirmasdan, uni

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1994. – № 10. – 250-б.

takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarmasa (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 93-m. 17-b.), qonun imzolangandan so‘ng matbuotda nashr ettiriladi. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi konstitusiyaviy qonunning 32-moddasiga muvofiq, Senat tomonidan ma’qullangan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kun ichida yuboriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o‘ttiz kun ichida imzolanadi va bir haftalik muddat ichida «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami»da, shuningdek, «Xalq so‘zi» va «Народное слово» gazetalarida e‘lon qilinadi.

Yuzaga kelgan amaliyotning ko‘rsatishicha, qonun chiqaruvchi oliy organ tomonidan qabul qilingan qonunlar norasmiy matbuotda yoki ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinishi mumkin. Biroq, ta’kidlash joizki, norasmiy matbuotda e’lon qilingan qonun matnlari jinoyat huquqiga oid normalarni qo‘llash uchun huquqiy asos bo‘la olmaydi. Bunday xulosa qonunlar rasmiy matbuotdan ko‘chirib olinayotganida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi, bu esa, o‘z navbatida, qaytarib bo‘lmaydigan huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi sababli kelib chiqadi. Shu tufayli, qonunni qo‘llash amaliyotida iloji boricha qonunning rasmiy matniga asoslanish zarur.

Jinoyat qonunlari yuqorida ko‘rsatilgan nashrlardan birida chop ettirilgandan so‘ng o‘n kun muddat ichida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida qonuniy kuchga kiradi. Bunda o‘n kunlik muddat qonun eng avval e’lon qilingan nashr sanasidan hisoblanadi. Masalan, agar qonun «Xalq so‘zi» va «Народное слово» ro‘znomalarida «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami»dan avval e’lon qilingan bo‘lsa, ushbu ro‘znomalarda qonun matni to‘liq e’lon qilingandan so‘ng o‘n kun muddat ichida qonuniy kuchga kirgan deb hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, qonunning kuchga kirishi uchun o‘n kunlik muddat ushbu huquqiy hujjatda boshqa muddatlar belgilanmagan hollarda qo‘llanadi.

Darhaqiqat, jinoyat qonunining O‘zbekiston Respublikasining butun hududida bir vaqtning o‘zida kuchga kirishi jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga egadir. Xususan, u yoki bu qilmishning jinoiyligi va jazoga loyiqligi haqidagi qonunning hamma yerda bir vaqtning o‘zida o‘rnatilishi zarur profilaktik tadbirlar o‘tkazishga imkon beradi. Qonun e’lon qilinganidan so‘ng belgilangan o‘n kunlik muddat, huquq-tartibot organlari xodimlari kabi, O‘zbekiston aholisiga ham u bilan tanishib chiqish uchun yetarli hisoblanadi. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalari va rasmiy matbuotning hammaga yetarliligi tufayli bunday imkoniyat mavjud.

Yuzaga kelgan amaliyotga ko‘ra, qonunning to‘liq matni e’lon qilingan kundan so‘ng o‘n kunlik muddat belgilanadi va u ushbu muddat tugagandan so‘ng kuchga kirgan hisoblanadi. Biroq, yangi qonun bilan tanishib chiqish uchun belgilangan muddat yetarli bo‘lmagan hollarda, e’lon qilish va kuchga kiritish orasida uzoq davom etadigan muddat tayinlanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi qabul qilinishida masala xuddi

shu tartibda hal qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida qabul qilinib, 1995-yil 1-aprelda qonuniy kuchga kiritildi, ya’ni qabul qilinganidan so‘ng taxminan olti yarim oydan so‘ng bunga erishildi.

Jinoyat kodeksining 13-moddasi 1-qismida muayyan jinoyatning tarkibi – rasmiy (formal) yoki moddiy tarkibiga ko‘ra, uning sodir etilish vaqtini aniqlash bo‘yicha qoida belgilangan. Chunonchi, rasmiy (formal) tarkibli jinoyat sodir etilgan payt sifatida ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqtni, moddiy tarkibli jinoyatda esa, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoiy oqibatlar yuzaga kelgan vaqtni e’tiborga olish lozim.

Turli tarkibli jinoyatlarni sodir etish vaqtini belgilash bo‘yicha huquqiy ko‘rsatmalar bilan bir qatorda, ma’lum vaqt davomida sodir etilgan jinoyatlarning bajarilish vaqtini aniqlash muhim amaliy ahamiyatga egadir. Jinoyat huquqi fanida jinoiy qilmishning muayyan vaqt oralig‘ida davom etishiga ko‘ra, jinoyatlar quyidagi turlarga ajratiladi: 1) bir vaqtda sodir etiladigan jinoyatlar; 2) turli vaqtda sodir etiladigan jinoyatlar; 3) davomli jinoyatlar; 4) uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar. Biroq, ta’kidlash joizki, taklif etilgan tasnif nisbiy hisoblanadi, chunki bir qilmishning sodir etilish sharoitlariga ko‘ra, uni turli guruhlarga kiritish mumkin.

*Bir vaqtda sodir etilgan jinoyatlarning* davom etish muddati qisqa bo‘lib, u jinoyatning boshlanishi va yakunlanishi orasida qisqa muddat o‘tishi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, bir vaqtning o‘zida formal (rasmiy) tarkibli jinoyatlar (masalan, haqorat qilish, nomusga tegish va h.k.) kabi, moddiy tarkibli jinoyatlar (jabrlanuvchining kiyim-kechagi, sumkasi yoki boshqa shaxsiy yukidan o‘g‘rilik qilish, o‘q otish natijasida odam o‘ldirish va h.k.) ham sodir etilishi mumkin. Shu tufayli, bir vaqtda sodir etilgan jinoyatlarning sodir etilish vaqtini aniqlash uchun Jinoyat kodeksining 13-moddasi 1-qismiga murojaat etish lozim.

*Turli vaqtda sodir etilgan jinoyatlar* sodir etilish muddatining davomiyligi, ya’ni jinoyatning boshlanishi va yakunlanishi orasida uzoq muddat o‘tganligi bilan tavsiflanadi. Bunday jinoyatlarning sodir etilish vaqti muayyan jinoyat yakunlangan yoki to‘xtatilgan payt bo‘lishi mumkin. Masalan, agar bir guruh shaxslar kasalxonadan narkotik vositalarni o‘marish uchun qasddan tayyorgarlik ko‘rgan va eski qonun amalda bo‘lgan vaqtda kasalxonaga kirgan, biroq narkotik vositalarni yangi qonun amalga kiritilgan vaqtda o‘g‘irlagan bo‘lsalar, bunday jinoiy qilmish yangi qonun amalda bo‘lgan vaqtda sodir etilgan deb hisoblanadi. Aksincha, ushbu shaxslarning jinoiy qilmishlari yangi qonun amalga kiritilgan vaqtgacha to‘xtatilgan hollarda, ular jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilgan vaqtgacha amalda bo‘lgan qonun, ya’ni eski qonun bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Bundan kelib chiqqan holda, *uzoq davom etadigan* jinoyat jinoiy harakat (yoki harakatsizlik) sodir etilgan vaqtdan boshlangan va aybdorning jinoyatni to‘xtatish maqsadida qilgan harakatlari yoki uni davom ettirishga to‘sqinlik qiladigan hodisalar yuz bergani (masalan, hokimiyat organlarining aralashuvi) tufayli tugallangan bo‘lsa, bunday jinoyat sodir etilgan vaqtni aniqlashda, ush-

bu jinoyat tugallangan vaqtda amalda bo‘lgan qonunga amal qilish lozim.

*Davomli jinoyatning* boshlanish vaqtini umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlardan biri bajarilgan paytni, yakunlanish vaqti sifatida esa, oxirgi jinoiy qilmish tugallangan paytni hisoblash kerak. Shu sababdan, davomli jinoyatlarning sodir etilish vaqtini aniqlashda, ushbu jinoyat tarkibidagi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlardan oxirgisi yangi qonun kuchga kiritilgan yoki eski qonun amalda bo‘lgan vaqtda sodir etilganini aniqlab olish lozim. Shunday qilib, tugallangan davomli jinoyatning sodir etilish vaqtini bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash jinoyatlarning oxirgisi bajarilgan paytni, tugallanmagan davomli jinoyatning sodir etilish vaqtini esa, ushbu jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi har qanday oraliq jinoyatlardan biri bajarilgan paytni hisoblash kerak.

Takroriy va davomli jinoyatlarning sodir etish vaqtini aniqlash masalasini hal qilishda shu jinoyatlar tugallangan vaqtida amalda bo‘lgan jinoyat qonuniga muvofiq, javobgarlik masalasi hal qilinadi.

*Qonunning o‘z kuchini yo‘qotishi*. Jinoyat qonunining o‘z kuchini yo‘qotish muammosi qonunning o‘zida hal qilinmaydi. Jinoyat qonuni nazariyasida, umum e’tirof etilishicha, qonun bekor qilinganda yoki boshqa qonun bilan o‘zgartirilganda o‘z kuchini yo‘qotadi. Chunonchi, qonunning qonun chiqaruvchi tomonidan to‘liq yoki qisman o‘z kuchini yo‘qotishi quyidagi yo‘l orqali amalga oshiriladi: 1) qonunni bekor qilish to‘g‘risida maxsus huquqiy hujjatning e’lon qilinishi; 2) yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan o‘z kuchini yo‘qotgan qonunlar ro‘yxatining e’lon qilinishi; 3) yangi qonunda avvalgi qonunning bekor qilinishi haqida matn berilganda va h.k.

Darhaqiqat, jinoyat qonunining faoliyati yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan to‘xtatilishi mumkin. Bunda yangi qonun matnida avval amalda bo‘lgan qonunning bekor qilinishi haqida e’lon qilinmaganligi hech qanday ahamiyatga ega emas. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasining ba’zi qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonunga binoan, Jinoyat kodeksi 164-moddasi 1-qismining dispozitsiyasi quyidagi tahrirda berilgan: «Bosqinchilik, ya’ni o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etilgan bo‘lsa», Jinoyat kodeksi 166-moddasi 2-qismida esa: «Talonchilik: a) hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib; б) ancha miqdorda; в) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa», deb berilgan. Biroq, ushbu qonunda bevosita 1994-yil 22-sentabrdagi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 1-qismi va 166-moddasi 2-qismidagi matnlarning bekor qilinishi haqida ko‘rsatma berilmagan bo‘lsa-da, yangi qonun qabul qilingandan so‘ng ushbu moddalar yangi tahrirda qo‘llana boshladi.

*Qonunning orqaga qaytish kuchi* jinoyat qonunida qilmishning jinoiyligi va jazoga loyiqligi, u sodir etilgan vaqtda amalda bo‘lgan qonun tomonidan

belgilanishi haqidagi umumiy qoidadan istisno bo‘lib, qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega, ya’ni ushbu qonun kuchga kirguniga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan jazoni o‘tayotgan yoki o‘tab bo‘lgan shaxslarga nisbatan, agar ular sudlangan hisoblansalar, tatbiq etiladi (JK 13-m. 2-q.). Biroq, qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas (JK 13-m. 3-q.).

Xususan, qilmishning jinoiyligini bekor qiluvchi qonun sifatida, ushbu qilmishni jinoyatlar safidan chiqaruvchi qonunni tan olish zarur. Bunday qonun kuchga kirgan vaqtdan boshlab, ushbu qonun bilan bekor qilingan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan surishtiruv organlari va sudlarda qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlar to‘xtatilishi, ularni sodir etishda ayblanuvchi shaxslar jazoni o‘tashdan ozod etilishi, jazoni o‘tab bo‘lgan va sudlangan shaxslar sudlanmagan deb hisoblanishi zarur.

Qonun quyidagi hollarda jazoni yengillashtiruvchi deb tan olinadi: 1) agar asosiy va qo‘shimcha jazoning eng ko‘p muddati kamaytirilsa; 2) agar asosiy va qo‘shimcha jazoning eng oz muddati kamaytirilsa; 3) agar muqobil sanksiyada nazarda tutilgan og‘irlashtiruvchi jazo chorasi bekor qilinsa; 4) muqobil sanksiyaga asosiy jazo sifatida yengillashtiruvchi jazo chorasi kiritilsa; 5) ma’muriy preyuditsiya tayinlansa; 6) o‘zaro teng asosiy jazo choralari mavjudligida qo‘shimcha jazo chorasi bekor qilinsa; 7) o‘zaro teng asosiy jazo choralari bo‘lganda, qo‘shimcha jazo uchun majburiy jazo chorasi bekor qilinsa; 8) o‘zaro teng asosiy jazo choralarida yengilroq qo‘shimcha jazo chorasi nazarda tutilsa va hokazo.

Ta’kidlash joizki, jinoyat sodir etgan shaxsning ahvolini yengillashtiruvchi yoki aksincha og‘irlashtiruvchi qonunga baho berishda, nafaqat muayyan moddada belgilangan jinoyat huquqiga oid majburlov choralarini, balki Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi bevosita jinoiy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarga ta’sir qiluvchi umumiy qoidalarni nazarda tutish lozim. Chunonchi, amaldagi Kodeksda, 1959-yildagi Jinoyat kodeksiga qaraganda, shaxsning javobgarligi darajasiga ta’sir qiluvchi moddalarga sezilarli o‘zgartirishlar kiritildi. Masalan, an’anaviy jazo qo‘llashning asos va shartlarining o‘zgartirilishi, yangi jazo turlarining tayinlanishi, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari qisqartirilishi va ularni qo‘llash asoslarining qayta ko‘rib chiqilishi, ma’lum jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi darajasi va mohiyatidan kelib chiqqan holda, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritish shartlari, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish asoslari, sudlanganlik holatining tugatilishi va olib tashlanishi shartlari va boshqalar. Bularni qonunning orqaga qaytish kuchi haqidagi masala hal qilinishi zarur bo‘lgan hollarda huquq-tartibot organlari inobatga olishi kerak.

## 6. Jinoyat qonunlarini sharhlash

Jinoyat qonunini qo‘llash uni majburiy tartibda sharhlashni nazarda tutadi.

Huquqiy normalarni sharhlash – ma’lum fikrlash jarayoni bo‘lib, u jinoyat qonuni normalaridagi atama va iboralar ma’nosini sharhlash orqali uning ma’nosini aniqlashdan iborat.

Jinoyat huquqi ta’limotidagi mezonlarga muvofiq, sharhlashning turli tasniflari ajratiladi.

Sharhlashning *subyektiga ko‘ra* quyidagi turlari mavjud: legal sharhlash, sudlov sharhi va ilmiy yoki nazariy (doktrinal) sharhlash.

*Legal* sharhlashni tegishli qonuniy vakolatlarga ega bo‘lgan organ amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 1-qismi 3-bandiga binoan, legal sharhlashni Konstitutsiyaviy sud amalga oshiradi. Bunday sharhlash rasmiy va umummajburiy hisoblanadi. Legal sharhlashning bir turi autentik sharhlash bo‘lib, uni sharhlanayotgan qonunni chiqargan O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi amalga oshiradi. Autentik sharhlash ham rasmiy va umummajburiy hisoblanadi.

*Sudlov sharhini* turli sud pog‘onalari bevosita qonunni qo‘llash jarayonida amalga oshiradilar. Shunga muvofiq, sharhlashning sud-kazual va sud-normativ turlari ajratiladi.

*Kazual* sharhlashni O‘zbekiston Respublikasining sudlari muayyan ishni ko‘rayotganda amalga oshiradi. Ta’kidlash joizki, bu kabi sharhlashni, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi amalga oshirgan bo‘lsa, u sud huquqi siyosatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, huquq-tartibot organlari xodimlarining sodir etilgan jinoyatga mohirona baho berishiga xizmat qiladi. Shu tufayli, amaliyotda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Prezidiumi va sud kollegiyasining alohida jinoiy ishlar bo‘yicha qaror va ko‘rsatmalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining «Qonun nomi bilan» deb atalgan oylik bulletenida e’lon qilinadi.

Sudlar muayyan ishlar bo‘yicha beriladigan qonun sharhlaridan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining amaliy qarorlarida *normativ sharhlash* amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi sud amaliyotini o‘rganish va umumlashtirish hamda sud organlari, prokuratura va boshqa huquq-tartibot organlarining talab va takliflarini hisobga olgan holda, u yoki bu qonunni to‘g‘ri tushunish va qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berish huquqiga egadir. Bunday amaliy ko‘rsatmalar ma’lum turdagi jinoiy ishlar bo‘yicha surishtiruv ishlarini olib boruvchi hamma huquq-tartibot organlari uchun majburiydir. Shunday bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ko‘rsatmalari qonunni o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, uning mazmunini o‘zgartirish va qonun chiqaruvchining irodasini buzish huquqiga ega emas. Aksincha, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qonun chiqaruvchi organ emas, u faqat qonun matni bo‘yicha amaliy yo‘riq va ko‘rsatmalar berish, huquqni qo‘llash amaliyotida tushunilishi qiyin bo‘lgan qonun moddalari bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borishi mumkin.

Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Transport vositalarini olib qochish ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 37-sonli 1997-yil 20-dekabr qarorining[1] 1-bandida transport vositasini olib qochish deganda, birovning transport vositasini o‘g‘rilik maqsadini ko‘zlamagan holda, joyini o‘zgartirishni tushunish kerakligi haqida ko‘rsatma beriladi. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 267-moddasi 1-qismida ushbu turdagi jinoyatga «transport vositasini olib qochish» deb oddiy dispozitsiya berilgani ushbu turdagi ko‘rsatmaga zarurat tug‘dirdi. Ta’kidlash joizki, amaliyotda transport vositasini olib qochish aslida transport vositasini o‘g‘irlab qochish sifatida talqin qilingani tufayli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining bu kabi tushunchani berishiga sabab bo‘ldi.

*Ilmiy yoki nazariy* sharhlash ilmiy tadqiqot muassasalarida, shuningdek, ilmiy va amaliyot xodimlarining monografiyalari, ilmiy maqolalari, ma’ruzalari orqali amalga oshiriladi. Bu kabi sharhlash rasmiy va umummajburiy bo‘lmasa-da, jinoyat huquqi siyosatining shakllanishi, huquq fanining taraqqiyoti, jinoyat qonunlarining istiqbollari va rivojlanish tamoyillarini aniqlash hamda tergov va sud amaliyotini umumlashtirishda katta ahamiyatga egadir.

Qonunni hajmi bo‘yicha sharhlash uch turga bo‘linadi: so‘zma-so‘z sharhlash, tor ma’noda sharhlash va keng ma’noda sharhlash.

*So‘zma-so‘z* sharhlashda sharhlash natijalari qonun matniga muvofiq bo‘lishi, ya’ni huquqiy normaning mazmuni va mohiyati hamda uning og‘zaki ifodasi to‘laligicha mos kelishi zarur.

*Tor ma’noda* sharhlashda qonun matnida ifodalangan ma’noga nisbatan unga torroq ma’no berish nazarda tutiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash nazarda tutilgan 122-moddasini sharhlashda, jinoyat subyektiga nisbatan tor ma’noda sharhlashni qo‘llash kerak, negaki ushbu modda bo‘yicha o‘zining kasalligi, mehnatga layoqatsizligi yoki orttirgan nogironligi kabi uzrli sabablarga ko‘ra voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni ta’minlashga qodir bo‘lmagan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish adolatsizlik hisoblanadi.

*Keng ma’noda* sharhlashda qonunga, uning matniga qaraganda kengroq ma’no berish nazarda tutiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 198-moddasi 3-qismida ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qasddan shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish natijasida ko‘p miqdorda zarar yetkazilishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaning mazmunini aniqlashda keng ma’noda sharhlashdan foydalanib, uni nafaqat eng kam oylik ish haqining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha miqdorda zarar yetkazilgan holatlarga, balki bu kabi harakatlar natijasida eng kam oylik ish haqining uch yuz va undan ortiq baravarigacha ko‘p miqdorda zarar yetkazilgan holatlarda qo‘llash zarur.

Binobarin, tor va keng ma’nodagi sharhlashni qo‘llash hollarida qonun

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1997. – № 1–2. – 29–30, 113–114-б.

moddalarining ma’nosi, mazmuni va hajmini o‘zgartirish, jinoyat huquqiga oid yangi moddalarni tuzish kabilarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Sharhlash usullariga ko‘ra quyidagi turlar ajratiladi: imloviy qoidalarga ko‘ra sharhlash (grammatik), tizimli, tarixiy va mantiqiy sharhlash.

*Imloviy qoidalarga ko‘ra sharhlash* qonun matnini etimologik, sintaktik, punktuatsiya qoidalari hamda qonun tili xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilish orqali og‘zaki mazmunini aniqlashdan iborat.

*Tizimli sharhlash* kodeksdagi huquqiy normalarni hamda turli huquq sohalaridagi normalarni o‘zaro taqqoslash orqali sharhlanayotgan normaning qonunlar majmuidagi alohida o‘rnini aniqlashdan iborat.

*Tarixiy sharhlash* amaldagi qonunning mazmunini, uning ishlab chiqilish, qabul qilinish va qo‘llash manbalari nuqtai nazaridan aniqlash hamda avvalgi o‘xshash qonunlar bilan taqqoslashdan iborat.

*Mantiqiy sharhlash* esa, o‘z navbatida, boshqa sharhlash usullarini qo‘llashda mantiqning umumiy qonuniyatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat kodeksini qabul qilishning ijtimoiy shartlanganligi nimalarda ko‘rinadi?
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarining konstitutsiyaviy asoslarini ta’riflang.
3. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlari taraqqiyotining asosiy bosqichlarini ta’riflang.
4. Jinoyat qonunining tarkibiy tuzilishi qanday?
5. Jinoyat qonuni Umumiy va Maxsus qismlaridagi moddalarning turlari va tarkibiy tuzilishini ta’riflang.
6. Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha ta’sir qilish prinsipining mazmunini ochib bering.
7. Fuqarolik prinsipining mazmunini tushuntirib bering.
8. Jinoyat qonunining universal prinsipi deganda nimani tushunasiz?
9. Jinoyat qonuni real prinsipining mazmuni deganda nima tushuniladi?
10. «Jinoyatchilarni topshirish (ekstraditsiya) va boshpana berish huquqi» tushunchasini izohlang.
11. Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha ta’sir qilishi deganda nima tushuniladi?
12. «Jinoyat sodir etish vaqti» tushunchasining ma’nosini yoriting.
13. Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi deganda nima tushuniladi?
14. «Jinoyat qonunini sharhlash» tushunchasining mazmunini yoriting.

## III bob
## «JINOYAT» TUSHUNCHASI

### 1. «Jinoyat» tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati

«Jinoyat» tushunchasi jinoyat huquqining asosiy tushunchalaridan biridir. U odamlarning qaysi qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) huquqqa xilof va nega ular jazo tahdidi orqali jinoyat qonuni bilan taqiqlangan, degan savollarga javob beradi.

Jinoyat huquqi tarixida «jinoyat» tushunchasi ilk marotaba G‘arbiy Yevropa davlatlari jinoyat qonunchiligida keltirilgan. Unga muvofiq, jinoyat amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir. Bu tushuncha birinchi marta Fransiyaning 1791-yildagi Jinoyat kodeksiga kiritilgan. Keyinchalik shunga o‘xshash tushunchalar boshqa davlatlarning jinoyat kodekslariga ham kiritilgan.

Jinoyat huquqi tarixida birinchi marta jinoyatning moddiy tushunchasi 1919-yildagi «RSFSR jinoyat huquqining boshlang‘ich asoslari»da berilgan bo‘lib, unda «jinoyat huquqi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar qoidasini buzish jinoyatdir», deyilgan.

Jinoyat huquqi tarixida birinchi marta jinoyatga haqqoniy ta’rifni 1919-yilda Rossiya qonunshunoslari berishdi. Ularning fikricha, «jinoyat – jinoyat huquqi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tartibining buzilishi»dir. Bu ta’rif bir necha o‘n yillar davomida qator sobiq sotsialistik davlatlarda amal qilib keldi. U keyinchalik yanada oydinlashtirilib, «ijtimoiy tuzumga tajovuz qiluvchi jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat deb topiladi» deyilgan (SSSR va ittifoqdosh respublikalarning Asosiy jinoyat qonuni, 7-m.). Bunday ta’rif negizi sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan ko‘plab davlatlarning Jinoyat kodeksidagi «jinoyat» tushunchasida ham bor.

Ayrim rivojlangan davlatlarning jinoyat qonunidagi «jinoyat» tushunchasini ko‘rib chiqamiz. Masalan, Amerika yuridik fanida «jinoyat» tushunchasini aniqlovchi bir necha nazariya mavjud. Ular ichida professor P. Tappekning ta’rifi eng mukammali sanaladi. Olimning fikricha, «jinoyat – davlat tomonidan jazolanadigan, javobgarlik yoki jazodan ozod qilmaydigan holatlarda sodir etilgan, jinoyat huquqi normalarining buzilishiga olib keladigan niyat qilingan harakat yo harakatsizlik»dir[1].

«Jinoyat» (crim) tushunchasi turli shtatlarning Jinoyat kodekslaridagi norma va ta’riflarda ham mavjud. Bu normalar ko‘pincha qonunda ko‘rsatilgan belgilar jamlanishi orqali jinoiy xatti-harakat (tajovuz, qilmish)larni anglatadi.

Ta’kidlash joizki, AQShda jinoiy qilmish belgisi bo‘lib g‘ayrihuquqiylik va jazoga muqarrarlik hisoblanadi. Qolaversa, g‘ayrihuquqiylik nafaqat Jino-

---

[1] *Нерсенян А. А.* Вопросы наказуемости в уголовном праве ФРГ и США. – М., 1992. – С. 54–55.

yat kodeksi ko‘rsatmalarining buzilishiga olib keladigan, balki sud pretsedenti huquqida ham foydalanadigan amaldagi qonunning istalgan normasining buzilishini anglatadi.

Nemis huquqshunoslari «qilmish»ni jinoiy g‘ayrihuquqiylik, jazoga mahkum, aybli harakat yoki harakatsizlik sifatida tahlil qiladi. Yuridik fanda hamda qonunchilikda «qilmish tarkibi» atamasi qo‘llaniladi, shuning uchun ham germaniyalik huquqshunoslar fikriga ko‘ra, jinoyat tarkibi haqida so‘z yuritish noto‘g‘ri bo‘lardi.

Jinoiy qilmish belgilariga jazoga mahkumlik, g‘ayrihuquqiylik va aybdorlik kiradi.

GFR Jinoyat kodeksining 12-paragrafiga asosan, eng kam jazo sifatida bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va undan qattiqroq jazo ko‘zda tutilgan g‘ayrihuquqiy qilmish jinoyat (erberechen) hisoblanadi[1].

Fransuz jinoiy-huquqiy doktrinasida «jinoiy qilmish» tushunchasiga har xil yondashuv mavjud. Jumladan, professor Rassa jinoyatga «qonunda ko‘zda tutilgan va oqlanmagan, istak natijasida sodir etilgan real xatti-harakat» sifatida ta’rif bergan. M. Anselning fikricha, jinoiy qilmish «jinoyatchining ijtimoiy jihatdan aks etishidir. U jinoyat sudi oldida muayyan mas’uliyat bilan hisob berish uchun sabab va asos hisoblanadi»[2].

Tasniflanishiga ko‘ra, jinoiy qilmishni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin. Fransiya Jinoyat kodeksining 111–1-moddasida jinoiy qilmish og‘irligiga ko‘ra jinoyat, xatti-harakat va huquqbuzarlik sifatida tasniflanadi. Faqat qasddan qilinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar eng og‘ir qilmish sifatida qaraladi.

Fransuz jinoyat qonunchiligi jinoiy qilmish haqida umumiy ta’rifga ega emas. Jinoyat kodeksining 111–2-moddasida belgilanadiki, qonun jinoyatni va xatti-harakatni aniqlaydi hamda ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazoni joriy qiladi. Shunday qilib, Fransiya jinoyat qonuni umuman jinoyatni emas, balki faqat muayyan jinoiy qilmishning belgilarinigina aniqlaydi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 14-moddasi 1-qismidagi «jinoyat» tushunchasiga muvofiq, Jinoyat kodeksida jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb topiladi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 14-moddasi 2-qismiga ko‘ra, garchand rasman (formal) Jinoyat kodeksida ko‘zda tutilgan biror-bir qilmishning belgisidan iborat bo‘lsa-da, ammo ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan, ya’ni davlat va jamiyatga zarar yetkazmaydigan hamda shaxsga zarar yetkazish tahdidi yuzaga kelmagan harakat (harakatsizlik) jinoyat hisoblanmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat kodeksi (1994 y.) qabul qilingunga qadar, respublika taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy va boshqa omillar tufayli jinoyat ta’rifi bir necha marta o‘zgardi.

---

[1] Qarang: Уголовное право. Общая часть. – М., 1997. – С. 90–93.

[2] Qarang: *Крылова Н. Е.* Основные черты нового уголовного кодекса Франции. – М., 1996. – С. 31–32.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1982-yilda nashr etilgan Jinoyat kodeksining 7-moddasida jinoyatga quyidagicha ta’rif berilgan: «SSSRning ijtimoiy tuzumiga, uning siyosiy va iqtisodiy tizimlariga, sotsialistik mulkka, shaxsga, fuqarolarning siyosiy, mehnat, mulkiy va boshqa huquqlari hamda erkinliklariga qarshi qaratilgan bo‘lib, jinoyat qonunida jamiyat uchun xavfli faoliyat (harakat yoki harakatsizlik) deb ko‘rsatilgan, shuningdek, sotsialistik huquq-tartibotga qarshi qaratilgan bo‘lib, jinoyat qonunida jamiyat uchun xavfli faoliyat deb nazarda tutilgan boshqa harakatlar jinoyat deb hisoblanadi.

Garchand, rasmiy jihatdan jinoyat qonunida ko‘rsatilgan biror harakatning alomatlari mavjud bo‘lsa ham, lekin o‘zining kam ahamiyatliligi sababli, jamiyat uchun xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi».

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyatga Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi (14-m. 1-q.) deya ta’rif berilgan.

Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilgan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi (14-m. 2-q.).

Bu ikki ta’rifni qiyoslaydigan bo‘lsak, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Agar birinchi ta’rifda (1982 y.) jinoyat belgilariga ijtimoiy xavfli qilmish, jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar ro‘yxati, qilmishning kam ahamiyatliligi kirgan bo‘lsa, ikkinchi ta’rifda esa, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, jinoyatning barcha belgilari ochiq aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasidagi ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, jinoyat, eng avvalo, ijtimoiy xavfli qilmishdir. Qilmish esa kishilarning harakat yoki harakatsiz shakldagi xulqi (xatti-harakati)dir[1].

Jinoiy qilmish insonga xos xatti-harakatlarning bir ko‘rinishi sifatida, avvalo, ularning psixologik mazmunining barcha alomatlariga ega bo‘lmog‘i lozim. Insonga xos xatti-harakatlarning fiziologik asosini jismoniy harakat yoki uning asosi tashkil qiladi. Jismoniy harakat faol yoki passiv bo‘lishi mumkin. U og‘zaki faollik (tuhmat, tahdid, tashviqot, tahqirlash), tajovuzkorlik predmetlariga fizik-mexanik ta’sir qilish (tan jarohati yetkazish, o‘g‘rilik) yoxud jinoyat obyekti va predmetiga birgalikdagi mexanik va og‘zaki ta’sir (bezorilik, hokimiyat va mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, jinoyat jamiyatning ijtimoiy hayotidagi murakkab hodisalardan biridir, shuning uchun ham uning o‘rganilishiga nafaqat yuristlar, balki filosoflar, siyosatshunoslar, sotsiologlar va boshqa soha olimlari ham ko‘p e’tibor qiladi. Jinoyatchilik muammosi bir necha yuz yillardan buyon yetakchi olimlar fikrini band qilib kelmoqda. Ammo hozirgacha bu ijtimoiy hodisaga qarshi chora topilgani yo‘q.

Demokratik va huquqiy davlat qurish davrida jamiyatimizda jinoyat

[1] «Qilmish» tushunchasi haqida mazkur darslikning VI bobiga qarang.

huquqi, avvalo, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlashda ijtimoiy hayotni boshqaruvchi kuch sifatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ko‘rib chiqilayotgan ta’rifda jinoyatning formal normativ alomatlari (qilmishning Jinoyat kodeksi bilan taqiqlanishi) hamda uning ijtimoiy mohiyatini ochib beruvchi moddiy alomatlari (uning ijtimoiy xavfliligi) nazarda tutilgani uchun ham bu ta’rif rasmiy-moddiy hisoblanadi.

Jinoyatning *formal belgisi* qonunchilikdagi «qonunda u haqda ko‘rsatilmagan jinoyat yo‘q» prinsipida o‘z ifodasini topadi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunida xuddi ayrim chet davlatlardagi kabi (Angliya, Hindiston, AQSh va b.) jinoyat qonunini o‘xshashligi bo‘yicha qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi (huquqni qo‘llovchi) organlar tomonidan qonunchilikda qayd qilinmagan ijtimoiy xavfli qilmishlar aniqlanishi mumkin va shuning uchun ham ular jinoiy jazoga loyiq deb topilmaydi. Jinoyat deb hisoblanadigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ro‘yxati keng talqin qilinmaydi. Jinoiy javobgarlikka va jazoga faqat jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli qilmish, ya’ni muayyan jinoyat alomatiga ega bo‘lgan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining u yoki bu moddasida belgilangan qilmish sodir etgan shaxs tortiladi.

Jinoyatning *moddiy belgisi* mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega, ya’ni jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 14-moddasiga ko‘ra, jinoyat ta’rifining asosiy belgilari: 1) ijtimoiy xavflilik; 2) huquqqa xiloflik; 3) ayblilik; 4) jazoga loyiqlik hisoblanadi.

Jinoyatning *ijtimoiy xavfliligi*, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e’lon qilingan va kafolatlangan muhim ijtimoiy qadriyatlarga tajovuz qilish bilan aniqlanadi. Jinoyat kodeksining 14-moddasi 2-qismiga muvofiq, qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.

Jinoyat sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga ega. Jinoyatning sifatga ko‘ra o‘ziga xosligi ijtimoiy xavfning tabiatida namoyon bo‘ladi. Jinoyatning miqdoriy tavsifi ijtimoiy xavf darajasida ifodalanadi. Ijtimoiy xavfning tabiati – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularning qadriyatlar tizimidagi o‘rni, obyektga yetkazgan zararining mazmuni, aybning shakl bilan aniqlanadigan muayyan tur yoki ko‘rinishdagi jinoyatning ijtimoiy xossasidir.

Ijtimoiy xavflilik darajasi bir xil xususiyatdagi ijtimoiy xavfli qilmishning qiyosiy xavfliligi ifodasidir. Ijtimoiy xavflilik darajasi zararning kattaligi, qasd va ehtiyotsizlik turiga, motiv va maqsadlar mazmuniga, jinoyatning sodir etilish joyi, vaqti, usuli, vaziyati, qurollari va boshqa holatlarga bog‘liq bo‘ladi[1].

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: илмий амалий

*Huquqqa xiloflik* jinoyatning ijtimoiy-obyektiv alomatlari – ijtimoiy xavflilik va aybdorlikdan farqli o‘laroq, jinoyatni baholash – normativ belgisi bo‘lgan jinoyat qonunidagi ijtimoiy xavfning yuridik ifodasidir.

Jinoyatning normativ va ijtimoiy belgilari o‘rtasidagi munosabatni to‘g‘ri belgilash qonunchilik faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning jinoyat qonuniga jinoiy qilmishni kiritishda, doimo jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy va ijtimoiy-huquqiy ehtiyojlariga asoslaniladi.

U yoki bu g‘ayriqonuniy qilmish Jinoyat kodeksining Maxsus qismida jinoyat sifatida belgilangan, chunki ular ijtimoiy xavflidir. Bu, birinchidan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi jinoiy-huquqiy normalar dispozitsiyalarida qilmish belgilanganini anglatadi. Ikkinchidan, jinoiy-huquqiy normalar ozodlikdan mahrum qilish, qamoq, axloq tuzatish ishlari, jarima va boshqalar kabi muayyan jazo turlaridan iborat sanksiyalarni nazarda tutadi.

Ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof qilmish faqat ayb mavjud bo‘lsagina jinoyat deb topiladi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi aybsiz ayb qo‘yishni inkor etadi. Jinoyat kodeksining ayb uchun javobgarlik prinsipini ifodalagan 9-moddasida «shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘ladi», deya ta’kidlangan. Shuning uchun ham ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan qilmish aybsiz jinoyat deb topilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, aybsiz sodir etilgan ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar jinoyat hisoblanmaydi. Ayb – bu shaxsning o‘zi sodir etadigan qilmishiga qasd yoki ehtiyotsizlik tarzida ifodalangan ijtimoiy axloq va qonun bilan qoralanadigan ruhiy munosabatlardir.

Jinoyat – *jazoga loyiq* qilmish. Shunga ko‘ra, qilmishning jinoyat sifatidagi eng muhim belgisi uning jazoga loyiqligidir. Jinoyat qonuni jinoiy jazo qo‘llash tahdidi bilan u yoki bu ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etishni taqiqlaydi. Faqatgina jazoga tortiladigan bunday ijtimoiy qilmishlar jinoyat hisoblanadi. Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi moddalarning dispozisiyalarida nafaqat u yoki bu jinoyat alomatlari ko‘rsatilgan, balki ularni sodir etganlik uchun sanksiyalar – jazoning hajmi va aniq ko‘rinishlari ham belgilangan. Bunday hollarda jazoning o‘lchovi va xususiyati muayyan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga mos keladi. Biroq, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalarida belgilangan sanksiyalardagi jazolar har doim va hamma holatlarda ham qo‘llaniladi degani emas. Jinoyat kodeksi jazodan ozod qiladigan holatlarni ham nazarda tutadi. Ko‘pincha, bu ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga taalluqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2006-yil 3-fevraldagi Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi qilmish sodir etilishi holatlari (jinoiy niyatning amalgam oshirilganligi darajasi va bosqichlari, jinoyatni sodir etish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og‘irligi ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli) bilan belgilanadi[1].

---

шархлар. – Т., 1997. – 26-б.

[1] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Судлар

Shu bilan bir qatorda, Jinoyat kodeksi bir qator jinoiy jazo va javobgarlikdan ozod qilish institutlarini nazarda tutadi. Bunday ozod qilish asosida jinoiy qatag‘onni qisqartirish va jazoning individuallashtirishini ta’minlovchi insonparvarlik prinsipi yotadi. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlari (JK 64–76 va 87–90-m.) jinoyatchilikka qarshi kurashda, Shuningdek, sudlanganlarni axloqan tarbiyalash jarayonida keng va samarali foydalaniladi. Biroq, bu holat aslo jinoyat – jazo qo‘llash tahdidi ostida qonun bilan taqiqlangan qilmish degan umumiy qoidaning buzilishiga olib kelmaydi.

Jinoyat O‘zbekiston Respublikasining jinoyat huquqiga ko‘ra tavsiflanar ekan, uning axloqqa zid xususiyatini alohida ta’kidlash lozim. Biror-bir jinoiy qilmish yo‘qki, u milliy axloq asoslariga tajovuz qilmagan bo‘lsin.

Shuni ham ta’kidlash joizki, qilmishning ijtimoiy xavfliligi doimiy ravishda o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi. Ijtimoiy munosabatlar rivoji, ilmiy-texnik taraqqiyot qilmishni ijtimoiy xavfli va jazoga loyiq deb topish mezoniga o‘zgartish kiritishi va aksincha bo‘lishi mumkin. Bugun ijtimoiy xavfli bo‘lgan qilmish, ertaga ijtimoiy norma bo‘lishi yoki qandaydir yangi qilmishni jinoyat qonuni taqiqlash zaruriyatini yuzaga keltirishi mumkin. Bunday hollarda jinoyat huquqidagi bo‘shliqni to‘ldiruvchi qonun chiqaruvchi organ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidir. Sud, prokuror, tergovchi, surishtiruv organlari jinoiy-huquqiy boshqaruv doirasidan tashqarida bo‘lgan qilmishlarga jinoiy-huquqiy tus berishga haqlari yo‘q. Bu organlar ijtimoiy xavfli qilmishning yangi turiga duch kelishganda uning qonun bilan taqiqlanishi va uni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasini ko‘tarib chiqishi kerak.

Jinoyatning o‘zgaruvchan alomati bir holatda qilmishning ijtimoiy xavfi ko‘p, boshqasida kam bo‘lishi bilan izohlanadi. Masalan, harbiy holat sharoitida qator qilmishlarning ijtimoiy xavfi yuqori bo‘ladi. Respublikamiz xalqining moddiy va ma’naviy turmush tarzining yuksalishi, intizomiylik va onglilikning o‘sishi turli xil jamoat tartibining buzilishlariga aks ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun qonunda, masalan, yuqori ijtimoiy xavfga ega bezorilik xatti-harakatiga alohida e’tibor qilingan. Bularga inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish (JK 133-m.), odam savdosi (JK 135-m.), odam o‘g‘irlash (JK 137-m.), vijdon erkinligini buzish (JK 145-m.) va boshqalarni kiritish joiz.

Yangi Jinoyat kodeksi qabul qilingunga qadar (1994-yil) ijtimoiy xavfli bo‘lgan va jinoyat deb topilgan ayrim qilmishlarni qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksidan chiqardi, chunki ular endilikda ijtimoiy xavfli emas va jinoyat hisoblanmaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy xavflilik umuman jamiyat, ayni paytda, har bir fuqaro manfaatlariga tajovuz qilingan jinoyatdir. Chunki bizning mamlakatimizda jamiyat va alohida shaxslar manfaatlari garmonik uyg‘unlashgan.

---

томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli qarori // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 2. – Т., 2006. –226-б.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqiga ko‘ra, Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazgan yoki zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, aybli va jazoga loyiq qilmish jinoyat deb topiladi.

## 2. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqlari

Ayrim hollarda ma’muriy, fuqarolik, soliq, bojxona yoki huquqning boshqa tarmoqlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sirtdan qaralganda jinoyatni eslatadi. Shunga qaramasdan, jinoyat huquqbuzarlikning boshqa ko‘rinishlaridan tubdan farq qiladi.

Jinoyat va jinoiy bo‘lmagan huquqbuzarlikni farqlash uch asosiy belgisiga ko‘ra amalga oshiriladi: 1) obyekti; 2) ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati; 3) g‘ayrihuquqiylik ko‘rinishi.

Jinoyatlarning umumiy obyekti ma’muriy, intizomiy va fuqarolik huquqbuzarliklarining obyektidan kengroqdir. Jinoyatning umumiy obyektiga shunday ijtimoiy manfaatlar kiradiki, ularga tajovuz qilish faqat jinoyat qonuni bilan tartibga solinadi (davlat asoslari, shaxsning hayoti va sog‘lig‘i). Barcha ijroiya-boshqaruv faoliyatiga oid manfaatlar, mulkiy munosabatlar va davlat intizomi, shuningdek, boshqa ijtimoiy munosabatlar ham umumiy obyektga kiradi.

Jinoyatlar ijtimoiy xavflilik *darajasi* va *xususiyatiga* qaraganda, muayyan ijtimoiy xavflilikka ega bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlarga nisbatan ham ijtimoiy zarariga ko‘ra ko‘proq farqlanadi. Bu jinoyatni nojo‘ya xatti-harakatdan farqlashning asosiy mezonidir. Jinoyat boshqa shunday sharoitlarda doimo katta zarar keltiradigan aybi xavfli, motivi o‘zgarmas, usuli g‘ayriijtimoiy bo‘lgan g‘oyat qo‘pol harakat yoki harakatsizlikdir.

Shunga qaramasdan, jinoyatni boshqa huquqbuzarlikdan farqlovchi asosiy belgi bo‘lib, qonun bilan taqiqlangan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi hisoblanadi. Ma’muriy xatti-harakat, intizomiy va fuqaroviy huquqbuzarliklar ijtimoiy munosabatlar tartibiga va huquqiy tartibotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham u muayyan ijtimoiy xavflilik darajasiga ega. Ammo bu ijtimoiy xavflilik darajasi bunday huquqbuzarlikni jinoyat deb qarash va jinoiy jazo qo‘llash orqali ularga qarshi kurashish darajasida yuqori emas.

Shunday qilib, jinoyat bilan ma’muriy yoki intizomiy nojo‘ya xatti-harakatlar, jinoyat va fuqaroviy-huquqiy yoki boshqa huquq normalari buzilishini farqlashning asosiy belgisi ijtimoiy xavflilik darajasi hisoblanadi.

Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash bir qator belgilarga bog‘liq. Bu, avvalo, obyektiv tomon belgilari (harakat usuli, yuz beradigan oqibatlar og‘irligi, jinoyat quroli va h.k.), shuningdek, subyektiv tomonga xos bo‘lgan belgilardir (qilmishni sodir etish motivi, harakatning oldindan o‘ylab qasd qilishini va h.k.). Shuningdek, aybdor shaxsiyatiga xos bo‘lgan belgilar ham hisobga olinadi. Agar odam g‘ayrihuquqiy harakatni bir necha marta sodir etgan bo‘lsa, bunday davomlilik ayrim hollarda ma’muriy xatti-harakat emas, balki jinoyat mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, sog‘liqning qisqa

muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo‘lmagan muddatga yo‘qolishga olib kelmagan bir marta qasddan badanga yengil shikast yetkazish ma’muriy huquqbuzarlik sanaladi. Biroq, agar shaxs shunday huquqbuzarlikni ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin, ya’ni bir yil ichida takroran sodir etgan bo‘lsa, bu jinoiy jazo qo‘llaniladigan qilmishdir (JK 109-m. 1-q.).

Voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar (masalan, tilamchilik, spirtli ichimliklar iste’mol qilish va b.)ga jalb qilish ma’muriy jazo qo‘llanadigan qilmish hisoblanadi. Ammo, agar u yil davomida shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgan shaxs tomonidan takroran sodir etilsa, bu qilmish jinoiy jazo qo‘llaniladigan qilmish bo‘ladi (JK 127-m. 1-q.).

Uchinchi farqlanuvchi alomat – g‘ayrihuquqiylik turi va u bilan bog‘liq bo‘lgan sanksiya xususiyatidir. Uni sodir etganlik uchun javobgarlik faqat jinoyat qonunida ko‘zda tutiladi. Jinoyat qonunida ko‘zda tutilmagan (jinoiy bo‘lmagan huquqbuzarliklar) qilmishlar jazoga tortilmaydi, faqat fuqaroviy-huquqiy, ma’muriy-huquqiy, intizomiy yoki boshqa javobgarliklarga asos bo‘lishi, ya’ni oila, mehnat, soliq, bojxona, ma’muriy, fuqarolik kodekslari, shuningdek, boshqa ko‘plab qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Jinoyat huquqiy sanksiya inson erki va huquqlarini eng jiddiy chegaralovchi – sudlanish oqibatidagi jinoiy jazo tahdidini ifodalaydi.

Ma’muriy, intizomiy, fuqaroviy-huquqiy sanksiya qiyoslab bo‘lmas darajada yengil va hech qachon sudga tortilmaydi.

Jinoyat sud tomonidan qo‘llangan jinoiy jazo darajasini yoki qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda, aybdorning qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi natijasida jazodan ozod qilinishi yoki qonunga muvofiq jinoiy jazo bilan almashtirish mumkin bo‘lgan shartli hukmni o‘z ichiga oladi. U yoki bu huquqbuzarlik yuzasidan boshqa davlat majburiyatini qo‘llashni ma’muriy organlar, intizomiy hokimiyatlar va boshqalar amalga oshiradi.

Ba’zan amaliyotda jinoyatlar bilan boshqa jinoiy bo‘lmagan huquqbuzarliklarning shunga mos ravishda boshqa huquqiy sanksiyalar bilan jazoning qo‘shilishi haqidagi muammo paydo bo‘ladi. Ma’muriy, intizomiy, fuqaroviy-huquqiy xatti-harakatlarga nisbatan bu muammo salbiy hal qilinadi. Jinoyat jiddiy huquqbuzarlik sifatida jinoiy bo‘lmagan huquqbuzarlikni qamrab oladi. Ular ham boshqa huquqiy sanksiyalar bilan jazoga tortiladi. Yetkazilgan moddiy zararni qoplash tarzidagi fuqaroviy-huquqiy jazo bundan mustasnodir. U jinoyat ishida fuqarolik da’vosiga ko‘ra jinoiy jazo bilan birga ijro qilinadi.

## 3. Jinoyatlarni tasniflash

Jinoyat ko‘zlangan maqsadiga qarab turli asoslarda tasniflanadi. Masalan: tajovuz obyektiga; ijtimoiy xavflilik darajasiga; qilmishning xususiyatiga (harakat, harakatsizlik); aybdorlik shakliga (qasddan, ehtiyotsizlik oqibatida); kriminologik va kriminalistik xususiyatiga ko‘ra va boshqalar.

Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra tasniflanishi, ayniqsa, jazoni belgilash va jazodan ozod qilish masalasini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Jinoyat kodeksining 15-moddasida jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: 1) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan; 2) uncha og‘ir bo‘lmagan; 3) og‘ir; 4) o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi, deb qayd qilingan.

*Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar* tushunchasi Jinoyat kodeksining 15-moddasi 2-qismida ko‘rsatilgan. Ularga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Masalan, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 107-m.), qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m.), o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (112-m.), xavf ostida qoldirish (117-m. 1, 2-q.), ota-onani moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash (123-m.), pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish (130-m.), tuhmat (139-m. 1-q.), haqorat qilish (140-m. 1, 2-q.) va boshqalar ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga kiradi. Ko‘rinadiki, jinoyatning bu turlari eng past ijtimoiy xavflilik darajasiga ega, shuning uchun ham qonunda ularni sodir etganlik uchun uch yildan ko‘p bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasi nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 15-moddasi 3-qismiga ko‘ra, *uncha og‘ir bo‘lmagan* jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish (98-m.), o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish (103-m. 1-q.), qiynash (110-m. 2-q.), bolani almashtirib qo‘yish (124-m.), voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni qabul qilishga jalb qilish (127-m. 2-q.), inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish (133-m.) va boshqalar uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga oiddir.

Jinoyat kodeksining 15-moddasi 4-qismiga muvofiq, qasddan sodir etilib, qonunda og‘ir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar *og‘ir jinoyatlar* hisoblanadi. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish (103-m. 2-q.), qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (104-m. 2-q.), kasb yuzasidan o‘z va-

zifalarini lozim darajada bajarmaslik (116-m. 4-q.), nomusga tegish (118-m. 1, 2-q.), bosqinchilik (164-m. 1, 2-q.) taqiqlangan ekinlarni yetishtirish (270-m. 3-q.) va boshqalar og‘ir jinoyatlarga kiradi.

Og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilish bir qator jiddiy huquqiy oqibatlarga olib keladi: turmaga joylashtirish ko‘rinishidagi ozodlikdan mahrum qilish mumkinligi (50-m. 7-q. «b» b.), hukm qilinuvchini harbiy yoki maxsus unvon yoxud O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotidan mahrum qilish mumkinligi (52-m.) va h.k.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga va xususiyatiga ko‘ra eng og‘ir qilmishlar *o‘ta og‘ir* kategoriyaga oid bo‘ladi. Jinoyat kodeksining 15-moddasi 5-qismiga binoan, o‘ta og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Bular O‘zbekiston Respublikasiga qarshi bo‘lgan qator jinoyatlar (157-m. 1-q., 158-m. 1-q., 159-m. 4-q., 160-m. 1-q., 161-m.), qasddan odam o‘ldirish (97-m.), nomusga tegish (118-m. 3, 4-q.), bosqinchilik (164-m. 3, 4-q.), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda ko‘p miqdorda sotish (273-m. 5-q.) va boshqalar.

Sud huquq sohasidagi o‘zgarishlari natijasida 2008-yil 1-yanvardan boshlab o‘lim jazosi jinoyat kodeksidan chiqarib tashlangan. Unga muqobil jazo turi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish va uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazolari kiritilgan.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyat huquqida «jinoyat» tushunchasi qanday ahamiyatga ega?
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qaysi moddasida jinoyatga ta’rif berilgan?
3. Jinoyat belgilarini sanab bering va ularni izohlang. Har bir belgiga qanday tushuncha berish mumkin?
4. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunidagi «jinoyat» tushunchasi qaysi elementlardan iborat? «Jinoyat» tushunchasi elementlarining har birini ta’riflang.
5. «Jinoyat» tushunchasining qonuniy ta’rifiga ilmiy yondashuv qanday ta’sir qiladi?
6. Jinoyat boshqa huquqbuzarliklardan nimasi bilan ajralib turadi?
7. Jinoyat qaysi asosga ko‘ra tasniflanadi?
8. Jinoyat qaysi mezonlarga ko‘ra tasniflanadi?
9. Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar qanday xususiyatlarga ega?
10. Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qaysi jinoyatlar kiradi?
11. Jinoyat qonuniga ko‘ra qaysi jinoyatlar og‘ir jinoyatlarga kiradi?
12. O‘ta og‘ir jinoyatlar qaysilar va ular og‘ir jinoyatlardan nimasi bilan farqlanadi?

## IV bob
## JINOYAT TARKIBI

### 1. «Jinoyat tarkibi» tushunchasi va ahamiyati

Jinoyat tarkibi jinoyat huquqi nazariyasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi va huquqni muhofaza qilish idoralarining faoliyatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, Jinoyat kodeksining 16-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, jinoyat qonunchiligida ko‘rsatilgan jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikka tortishning normativ asosi hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli qilmish faqat qonunda ko‘rsatilgan jinoyat belgilari mavjud bo‘lgan taqdirda, ya’ni jinoyat tarkibi mavjud bo‘lganda jinoyat hisoblanadi.

*Jinoyat tarkibi* jinoyat qonunchiligida aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb ta’riflovchi eng kam va yetarli obyektiv va subyektiv belgilar yig‘indisidir[1].

Jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari o‘rtasida o‘zaro aloqa va uzviy bog‘liqlik mavjud. Har bir belgi boshqalari bilan birgalikda mavjud bo‘ladi va ajralmas bir butunlikning zaruriy qismini tashkil qiladi. Qilmishda jinoyat tarkibi belgilari yig‘indisining mavjudligi bu jinoiy javobgarlikka tortish uchun eng kam va yetarli asoslar borligini anglatadi. *Eng kam* degani shu ma’nodaki, agar qilmishda jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan kamida bittasining yo‘qligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emasligini anglatadi. *Yetarli* deganda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qo‘shimcha ma’lumotlarni (obyektiv va subyektiv belgilardan tashqari) yig‘ishning zarurati yo‘qligidir[2].

Qilmishda qonunda ko‘rsatilgan tarkibiy belgilardan birining yo‘qligi jinoyat tarkibining yo‘qligidan dalolat beradi. Masalan, Jinoyat kodeksining 161-moddasidagi «qo‘poruvchilik» jinoyati tarkibining zaruriy belgilaridan biri O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoxud iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadining mavjudligidir. Shundan kelib chiqib, agar odamlarni qirib yuborish, ularning sog‘lig‘iga ziyon, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar boshqa maqsadlar bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, qilmishni qo‘poruvchilik kabi baholash asossiz bo‘ladi.

Jinoyat tarkibining belgilari faqat qonun bilan belgilanadi. Bu Jinoyat kodeksining 2-moddasida aniq yozilgan va unda muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni qo‘riqlash vazifalarini amalga oshirish uchun Jinoyat kodeksi

---

[1] Qarang: *Якубов А. С.* Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы. – Т., 1996. – С. 95.

[2] Qarang: *Кудрявцев Б. Н.* Общая теория квалификации преступления. – М., 1972. – С. 73.

javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini belgilaydi, deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunida aniq jinoyat tarkiblari mavjudki, ularning har biri shu tarkibni ta’riflovchi o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan belgilardan iborat (masalan, odam o‘ldirish, bosqinchilik, o‘g‘rilik). Bu belgilar faqat shu tarkibga tegishli bo‘lib, uni boshqa tarkibdan ajratib turadi (masalan, o‘g‘rilikni firibgarlikdan). Ayrim turdagi jinoyat tarkiblari xususiyatini ta’riflovchi belgilarni o‘rganish Jinoyat huquqi Maxsus qismining predmetini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, har bir aniq jinoyat tarkibi nafaqat uning o‘ziga xosliklari yoki qirralarini ko‘rsatuvchi belgilar bilan ta’riflanadi. Har bir aniq jinoyat tarkibi shunday belgilarga egaki, unga zarur bo‘lgan belgi bir vaqtda qolgan tarkiblar uchun umumiy belgi bo‘lishi mumkin. Bu yerda barcha tarkiblar uchun xos bo‘lgan obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon haqida so‘z bormoqda.

Jinoyat tarkibining umumiy tushunchasini tuzish uchun yetarli bo‘lgan belgilarni aniqlash va umumlashtirish jinoyat huquqi fani Umumiy qismi va jinoyat tarkibini umumiy o‘qitishning vazifasini tashkil qiladi. Jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi o‘zida har bir tarkibga tegishli bo‘lgan asosiy elementlarni aks ettiradi, har bir aniq jinoyat tarkibida mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan umumiy belgilarni ko‘rsatib beradi. Bu belgilar jinoyat huquqi nazariyasida Jinoyat kodeksining 14-moddasida ko‘rsatilgan jinoyat tushunchasining moddiy-rasmiy holati va Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalarida ko‘rsatilgan aniq jinoyat tarkiblarining belgilarini umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

Jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi belgilar nafaqat Maxsus qismning moddalari dispozitsiyasida, balki Jinoyat kodeksining Umumiy qismi qoidalarida ham ko‘rsatilgan. Maxsus qism moddalarining dispozitsiyalarida aniq jinoyat tarkibiga tegishli bo‘lgan, aniq jinoyatning o‘ziga xos va ularning boshqa o‘xshash tarkiblardan hamda jinoyat hisoblanmaydigan harakatlardan farqini ko‘rsatib beruvchi belgilar ko‘rsatilgan. Barcha tarkiblarga tegishli bo‘lgan umumiy belgilarni qonun chiqaruvchi, keraksiz takrorlashlardan xoli bo‘lish maqsadida hamda barcha jinoyatlar uchun yoki ko‘pchilik jinoyatlar uchun ularni bir xil ta’riflash imkoni borligidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi tegishli moddalarda bayon etgan. Masalan, Jinoyat kodeksining 2-moddasida barcha jinoyat tarkiblariga tegishli bo‘lgan jinoyat obyekti belgilari haqida, 17 va 18-moddalarida jinoyat subyekti haqida, 20, 21 va 22-moddalarida esa subyektiv tomon belgilari haqida so‘z boradi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyasi shunday tuzilganki, odatda, ular tugallangan jinoyat belgilarini ta’riflaydi va dastlabki jinoiy faoliyat (tayyorgarlik va suiqasd) belgilarini yoritmaydi, Shuningdek, juda ko‘p holatlarda faqat bajaruvchining faoliyatini inobatga olgan va boshqa ishtirokchilar (tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi) faoliyatini ta’riflamaydi.

Aytish joizki, jinoyat tarkibi nafaqat tugallangan jinoyatlarda, balki tugallanmagan jinoyatlarda ham, nafaqat bajaruvchi qilmishida, balki boshqa ishtirokchilar qilmishida ham mavjud bo‘ladi. Qonunda ko‘rsatilganligi sababli, qilmishlar jinoyat hisoblanadi va jazoga loyiqdir (JK 17, 25, 27 va 28-m.).

Umumiy qism normalarida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, suiqasd qilish va jinoyat ishtirokchilarining obyektiv va subyektiv belgilarining umumiy ta’rifi berilgan. Bu belgilar Maxsus qismdagi aniq tarkib tuzilishiga mos kelib, aniq jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki unga suiqasd qilish yoxud aniq ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida qatnashganlikda namoyon bo‘lib jinoyat tarkibini vujudga keltiradi.

Bunday holatlarda Maxsus qismning tegishli tugallangan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasini qo‘llash bilan birgalikda, Umumiy qismdagi 25 yoki 28-moddasini qo‘llash ko‘rsatilgan qilmishda jinoyatga suiqasd tarkibi yoki ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat mavjudligini yuridik izohlashdan iboratdir[1]. Shunday qilib, Jinoyat kodeksi Umumiy qismi normalarida tugallanmagan jinoyat va jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlikka tortish uchun yuridik asos mavjud.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi barcha jinoyat tarkiblariga tegishli bo‘lgan belgilarni umumlashgan holda aks ettiradi va alohida tarkiblarning mazmunini yoritish uchun muhim ilmiy bilish ahamiyatiga ega. Aniq jinoyatlarning o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib va mazmunini yoritib, jinoyat tarkibi bir turdagi jinoyatlarning ikkinchi turdagi jinoyatlardan farqini aniqlashga yordam beradi. Jinoyat tarkibi belgilarini to‘g‘ri aniqlash nafaqat qilmishning qaysi jinoyat turiga mansubligini aniqlash masalasini, balki aybdorga qaysi jazo chorasi qo‘llanilishi mumkinligi masalasini va shu shaxs sodir etgan qilmish jinoyat hisoblanishi mumkinligi masalasini hal qilishda ahamiyatga ega. Jinoyat haqida so‘z borar ekan, jinoyat sodir etilgan yoki etilmaganligi shu jinoyatni ta’riflovchi qonun normalari, ya’ni jinoyat tarkibi asosida amalga oshiriladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi» deyilgan.

## 2. Jinoyat tarkibining tuzilishi. Jinoyat tarkibining elementlari va ularni ta’riflovchi belgilar

Jinoyat tarkibi tuzilishi bo‘yicha to‘rt elementdan iborat: obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon.

*Obyektiv*, ya’ni tashqi belgilar jinoyatning obyekti va obyektiv tomonini ta’riflaydi.

*Subyektiv* (ichki) belgilar jinoyatning subyekti va subyektiv tomonini

[1] Bu haqda batafsilroq ushbu darslikning XI-bobiga qarang.

ta’riflaydi.

Jinoyat tarkibining birinchi elementi *jinoyat obyektidir*. Bu jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar bo‘lib, jinoiy tajovuzlar shularga qaratilgan bo‘ladi. Qasddan odam o‘ldirishda jinoyat obyekti boshqa shaxsning hayoti, o‘g‘rilikda esa o‘zgalar mulki va hokazo bo‘ladi. Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning mazmuniga qarab, jinoyat obyekti umumiy, maxsus va bevosita obyektlarga bo‘linadi. Jinoyat obyekti va jinoyat predmeti ham o‘zaro farq qiladi. Masalan, o‘g‘rilikning obyekti, yuqorida aytganimizdek, o‘zgalar mulki, ya’ni mulkiy yo‘sindagi ijtimoiy munosabat hisoblanadi, uning predmeti esa turli xil buyumlar bo‘lishi mumkin: pul, videotexnikalar, mebel, transport vositalari va boshqalar.

Jinoyat tarkibining ikkinchi elementi *jinoyatning obyektiv tomonidir*. Jinoyatning obyektiv tomonini atrof muhitda biror muayyan o‘zgarishga olib keladigan va sabab bo‘ladigan shaxsning aqliy va irodaviy xatti-harakati tashkil qiladi. Ushbu elementning zaruriy belgisi qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Qilmish orqali jinoyat sodir etiladi.

Shu bilan birga, obyektiv tomon belgisiga qilmish hamda jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, jinoyat sodir etish vaqti, joyi, usuli, quroli va vositasi kiradi. Jinoyatning obyektiv tomoniga xos belgilar ko‘p holatlarda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyalarida bayon etiladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 169-moddasida o‘g‘rilik, ya’ni o‘zgalar mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb ta’riflanadi. Obyektiv tomon qonunda shunday yozilgan bo‘lishi mumkin: jinoyatning sodir etilish joyi, vaqti, usuli va boshqa obyektiv alomatlari ahamiyat kasb etishi mumkin.

Jinoyat tarkibining uchinchi elementi *jinoyat subyekti*, ya’ni jinoyat sodir etgan jismoniy shaxsdir. Jinoyat subyekti faqat qilmish uchun javob bera oladigan, ya’ni jinoyat qonunida ko‘rsatilgan ma’lum yoshga yetgan (JK 17-m.) va aqli raso (JK 18-m.) shaxs bo‘lishi mumkin. Jinoyat huquqida maxsus subyekt tushunchasi mavjud bo‘lib, u aytib o‘tilgan umumiy belgilar (jismoniy shaxs, javobgarlik yoshi va aqli rasolik)dan tashqari, qonunda ko‘rsatilgan maxsus belgilarga ham ega bo‘ladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatning bajaruvchisi faqat mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin. Mansabdor shaxs tushunchasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining sakkizinchi bo‘limida berilgan.

Jinoyat tarkibining to‘rtinchi elementi *jinoyatning subyektiv tomonidir*. Jinoyatning subyektiv tomoni shaxsning sodir etayotgan jinoyatiga nisbatan ruhiy munosabatidir. Subyektiv tomon belgilariga ayb, motiv va maqsad kiradi. Ayb qasd (JK 21-m.) yoki ehtiyotsizlik (JK 22-m.) shaklida bo‘lishi mumkin.

Jinoyat tarkibi bo‘lishi uchun ko‘rsatib o‘tilgan to‘rtta elementning barchasi – jinoyatning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni mavjud bo‘lishi va ularning har birini ta’riflovchi qonunda ko‘rsatilgan belgilar bo‘lishi shart.

Umumiy jinoyat tarkibida barcha belgilar asosiy va fakultativ belgilarga bo‘linadi.

*Asosiy* deb shunga aytiladiki, ularsiz bironta jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi. Shuning uchun ular har bir jinoyatning belgisi hisoblanadi. Bunday belgining yo‘qligi jinoyat tarkibining yo‘qligini anglatadi. Bunday belgilar jinoyat obyektida – jinoyat natijasida tajovuz qilingan ijtimoiy munosabat; obyektiv tomonda – ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik; subyektiv tomonda – qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayb; jinoyat subyektida – qonunda ko‘rsatilgan jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan, aqli raso, jismoniy shaxsdan iborat.

*Fakultativ belgilar* barcha jinoyat tarkibiga emas, faqat ayrimlarigagina xos bo‘lgan belgilardir. Ular qonunda ayrim jinoyat tarkiblarini ta’riflashda ko‘rsatiladi va asosiy belgilarga qo‘shimcha hisoblanib, shu jinoyat tarkibining xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Fakultativ belgilar qo‘shimcha jinoyatning obyektini, obyektiv tomonini, subyektini va subyektiv tomonini ta’riflashi mumkin.

Jinoyat obyektining fakultativ belgilari sifatida qo‘shimcha obyekt yoki jinoyat predmeti ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, bosqinchilik (JK 164-m.) jinoyati mulkka tajovuz qiladi, ammo, shu bilan birga, hujum qilingan jabrlanuvchining shaxsi ham tajovuz obyekti bo‘ladi. Bu holatda jabrlanuvchining shaxsi qo‘shimcha obyekt hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 247-moddasida o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu modda bo‘yicha faqat ko‘rsatilgan jinoyat predmetlarini qonunga xilof ravishda egallash harakati uchun javobgarlik vujudga keladi.

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilariga ijtimoiy xavfli oqibat, sababiy bog‘lanish, Shuningdek, jinoyatni sodir etish joyi, vaqti, usuli, sharoiti va boshqa qonunda ko‘rsatilgan obyektiv holatlar kiradi. Masalan, Jinoyat kodeksining 274-moddasi 2-qismi «б» bandi giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilishga jalb etishni ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash joylarida sodir etganlik uchun javobgarlik belgilaydi. Jinoyat kodeksining 173-moddasi 2-qismi «б» bandida mulkni qasddan nobud qilish yoki unga shikast yetkazishni atrofdagilarga nisbatan xavfli usulda sodir etganlik uchun og‘irroq jazo belgilaydi.

Jinoyat subyektining asosiy belgilariga qo‘shimcha qilib qonunda jinoyat sodir etgan shaxsni ta’riflovchi fakultativ belgilar (mansabdor shaxs, harbiy xizmatchi, o‘ta xavfli retsidivist va b.) ko‘rsatilishi mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bunday holatlarda maxsus subyekt haqida so‘z boradi.

Ayrim holatlarda qonun motiv va maqsadni jinoyatning subyektiv tomoniga xos fakultativ belgi sifatida ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «и» bandida tamagirlik niyatida qasddan odam o‘ldirish javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Aksincha, jabrlanuvchi qilgan g‘ayriqonuniy harakat natijasida yuzaga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish, Jinoyat kodeksining 98-moddasiga muvofiq, qasddan odam o‘ldirishga nisbatan ancha yengil jazolanishi ko‘rsatilgan.

Fakultativ, ya’ni barcha jinoyat tarkiblarida asosiy deb yuritiladigan bel-

gilarga qo‘shimcha deb nomlanishi shartlidir, chunki qonunda bevosita ko‘rsatilmaganligi sababli, ularning mavjud bo‘lishi shart emas. Ammo ular qonunda bevosita ko‘rsatilgan bo‘lsa, aynan shu jinoyat tarkibi uchun zaruriy (asosiy) belgilar maqomini oladi. Masalan, Jinoyat kodeksi 97-moddasining 2-qismi «ж» bandida o‘ta shafqatsizlik bilan qasddan odam o‘ldirish haqida so‘z boradi. Shaxsni Jinoyat kodeksining 97-modda 2-qismidagi shu band bilan ayblash uchun qasddan odam o‘ldirish aynan o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilganligini aniqlash lozim.

Jinoyat tarkibining fakultativ belgilari qonunda yozilishiga qarab, turlicha ahamiyat kasb etadi. Agar bu belgilar asosiy tarkib belgilari qatoriga qo‘shilgan bo‘lsa, ya’ni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalari dispozisiyasida bevosita ko‘rsatilgan bo‘lsa, tegishli modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun zaruriy hisoblanadi. Masalan, yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘g‘rilik uchun o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish yashirincha bo‘lishi, talonchilik uchun ochiqdan-ochiq bo‘lishi shart. Shunga muvofiq, o‘g‘rilik Jinoyat kodeksining 169-moddasi bilan, talonchilik esa Jinoyat kodeksining 166-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Agar fakultativ belgilar asosiy tarkibga qo‘shilmagan bo‘lsa, ular og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunday hollarda ham kvalifikatsiyaga ta’sir etadi, faqat asosiy tarkibga nisbatan og‘irroq yoki yengilroq holatlar bilan huquqiy baholashga olib keladi. Masalan, qasddan odam o‘ldirish og‘irlashtiruvchi holatlarda Jinoyat kodeksi 97-moddaning 2-qismi bilan, yengillashtiruvchi holatlarda Jinoyat kodeksining 98, 99, 100 va 101-moddalari bilan kvalifikasiya qilinadi.

Shunday qilib, umumiy jinoyat tarkibi doirasida qaysi guruhga taalluqli bo‘lishidan qat’i nazar, aniq jinoyat tarkibi doirasidagi belgi, agar u jinoyat qonunida ko‘rsatilgan bo‘lsa, shu tarkib uchun asosiy belgi hisoblanadi va so‘zsiz aniqlashni va isbotlashni talab qiladi[1].

## 3. Jinoyat va jinoyat tarkibining o‘zaro munosabati

«Jinoyat» va «jinoyat tarkibi» tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lishiga qaramay, bir-biriga mos kelmaydi va ularni bir xil deb bo‘lmaydi. Jinoyat kodeksining 14-moddasiga muvofiq, «jinoyat» tushunchasida quyidagi asosiy belgilar ajratilgan: qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning ijtimoiy xavfliligi, uning jinoiy-huquqiy g‘ayriqonuniyligi, ushbu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdorligi, qilmishning jazoga loyiqligi. Ushbu belgilarning yig‘indisi jinoyatning umumiy tushunchasini tashkil qiladi va jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan: ma’muriy, intizomiy, fuqaroviy qonunbuzarliklardan farqini ko‘rsatib beradi. Ko‘rsatilgan jinoyat tushunchasi shunday keng ma’noliki, u barcha jinoyatlarni o‘ziga qamrab oladi. Bu tushuncha o‘g‘rilik, qasddan

[1] Qarang: *Якубов А. С.* Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы. – Т., 1996. – С. 102.

odam o‘ldirish, josuslik va boshqa istalgan jinoyatni qamrab oladi. Shunday qilib, «jinoyat» tushunchasi bir jinoyatni ikkinchisidan ajratish imkonini bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, faqat «jinoyat» tushunchasiga amal qilib, qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi, Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi aniq jinoyat uchun javobgarlik belgilovchi u yoki bu moddani qo‘llab bo‘lmaydi. Bu masalani jinoyat huquqida ishlab chiqilgan «jinoyat tarkibi» tushunchasi hal qiladi.

Jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlik asosi bo‘lmish jinoyatning ijtimoiy-siyosiy va yuridik mazmunini to‘g‘ri aniqlashga xizmat qiladi. Jinoyat tarkibi ayrim jinoyat turlari mazmunini aniq belgilar bilan yoritib beradi. Aniq jinoyat turlariga o‘g‘rilik, firibgarlik, dezertirlik va boshqalar kiradi. Aniq jinoyat tarkibi o‘g‘rilik, firibgarlik, dezertirlik va boshqalarni ta’riflovchi obyektiv va subyektiv belgilar yig‘indisidan iborat. Aniq jinoyat tarkibi (o‘g‘rilik, firibgarlik, dezertirlik va b.)da jinoyatning umumiy tushunchasi va jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi mos keladi. Ular bu holatda o‘zining aniq ifodasini topadi.

Masalan, o‘g‘rilik (169-m.) jinoyatning umumiy tushunchasi nuqtai nazaridan ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy, aybli va jazoga loyiq qilmish hisoblanadi. Jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi nuqtai nazaridan o‘g‘rilikning aniq faktik belgilarini yoritish lozim. Obyekt – o‘zgalar mulki. Obyektiv tomon – yashirin talon-toroj qilish. Shu belgisi bilan o‘g‘rilik ochiqdan-ochiq sodir qilinadigan talonchilikdan (JK 166-m. 1-q.) farq qiladi. O‘g‘rilikning subyekti – 14 yoshga to‘lgan (JK 17-m.), aqli raso, jismoniy shaxs. Subyektiv tomoni to‘g‘ri qasdda ifodalanadi. Talon-toroj jinoyatlariga yana g‘arazgo‘ylik maqsadining mavjudligi ham xosdir. Shunday qilib, aniq jinoyat tarkibini bayon qilish jinoyatni to‘g‘ri kvalifikasiya qilishga va jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri hal qilishga olib keladi.

«Jinoyat» va «jinoyat tarkibi» tushunchalarini farqlash shu bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalashib jinoyat sodir qilishi doim bitta jinoyatda bo‘ladi, ammo har doim ham bitta jinoyat tarkibi bo‘lmaydi. Masalan, Ivanov 18 yoshga to‘lgan, sudlanmagan, Bozorov 29 yoshga to‘lgan, sudlangan va o‘ta xavfli retsidivist deb tan olingan, ular birgalashib o‘g‘rilik jinoyatini sodir etishdi. Ivanovning harakati Jinoyat kodeksining 169-moddasi 2-qismi «в» bandi bilan (bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan o‘g‘rilik), Bozorovning harakatlari Jinoyat kodeksining 169-moddasi 4-qismi «б» bandi bilan (o‘ta xavfli residivist tomonidan sodir etilgan o‘g‘rilik) kvalifikatsiya qilingan. Bu misolda Ivanov va Bozorovlar bitta jinoyatni ishtirokchilikda sodir etdilar, ammo ularning qilmishida jinoyat tarkibi turlicha, shuning uchun ularning qilmishi Jinoyat kodeksi 169-moddasining turli qismlari bilan kvalifikatsiya qilindi. Bunda kvalifikatsiyaga Bozorovning oldindan o‘ta xavfli retsidivist deb tan olinganligi, ya’ni maxsus subyektligi ta’sir etdi.

## 4. Jinoyat tarkibining turlari

Jinoyat kodeksining Maxsus qismida jinoyat tarkibining bir necha turi ko‘rsatilgan. Ularning tuzilish qonuniyatlarini aniqlash hamda aniq jinoyat tarkibining mazmunini chuqurroq o‘rganish va to‘g‘ri kvalifikasiya qilish maqsadida, ya’ni jinoyat qonunini to‘g‘ri qo‘llash uchun jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibini bir necha mezonlar bo‘yicha tasniflash qabul qilingan.

Jinoyat tarkibini, ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, to‘rt turga ajratish mumkin: asosiy tarkib, yengillashtiruvchi tarkib, og‘irlashtiruvchi tarkib va alohida og‘irlashtiruvchi tarkib.

*Jinoyatning asosiy tarkibi* aniq turdagi har bir jinoyat uchun zarur va yengillashtiruvchi hamda og‘irlashtiruvchi belgilardan mustasno bo‘lgan belgilar yig‘indisidan tashkil topadi. Bu tarkib faqat shu jinoyat turiga mansub muhim va o‘ziga xos belgilardan iborat bo‘ladi. Masalan, o‘g‘rilikning asosiy tarkibini aniqlashda Jinoyat kodeksining 169-moddasi 1-qismi o‘zgalar mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishni ko‘rsatadi, shu bilan o‘g‘rilik talonchilikdan – ochiqdan-ochiq mulkni olishdan (166-m.) farq qiladi. Ammo Jinoyat kodeksining 169-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etganlik uchun og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlar ko‘rsatilmagan.

*Yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibi (imtiyozli tarkib ham deyiladi)* asosiy tarkibga qo‘shilib, ushbu turdagi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytiruvchi holatlardan iborat tarkibdir. Masalan, Jinoyat kodeksining 100-moddasi yengillashtiruvchi holat, ya’ni zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish jinoyati uchun javobgarlikni belgilaydi.

*Og‘irlashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibida* asosiy tarkib belgilari bilan bir qatorda, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradigan holatlar mavjud bo‘ladi. Bunday holatlar bir nechta, shu bilan birga, ular jinoyat tarkibi elementlarining barchasiga yoki hammasiga taalluqli bo‘lishi mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismida 17 ta og‘irlashtiruvchi holat ko‘rsatilgan (ikki yoki undan ortiq shaxsni («а» b.), o‘ta shafqatsizlik bilan («ж» b.), kishi a’zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida («н» b.), bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh a’zosi tomonidan yoxud o‘sha guruh manfaatlarini ko‘zlagan holda («п» b.) qasddan o‘ldirish va b.).

*Alohida og‘irlashtiruvchi tarkib* asosiy tarkibning o‘zida og‘irlashtiruvchi holatlarni aks ettiradi. Bunda ijtimoiy xavflilik darajasi og‘irlashtiruvchi tarkibdan ham yuqori bo‘ladi. Masalan, alohida og‘irlashtiruvchi tarkib sifatida Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3 va 4-qismlaridagi tarkiblarni ko‘rsatish mumkin.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lgan jinoyat tarkiblari Jinoyat kodeksining turli moddalarida yoki bitta moddaning turli qism va bandlarida ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, qasddan odam o‘ldirish jinoyatining turlari Jinoyat kodeksining beshta moddasida ko‘rsatilgan: Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi (qasddan odam o‘ldirish – oddiy tarkib),

Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi (javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish – og‘irlashtiruvchi tarkib), Jinoyat kodeksining 98-moddasi (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish – yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibi), Jinoyat kodeksining 99-moddasi (onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi – yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibi), Jinoyat kodeksining 100-moddasi (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish – yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibi), Jinoyat kodeksining 101-moddasi (ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish – yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyat tarkibi). Jinoyat kodeksi 169-moddasining turli qismlari o‘g‘rilik jinoyatining turli tarkiblarini o‘zida aks ettirgan: ushbu moddaning 1-qismida – asosiy tarkib, 2-qismida – og‘irlashtiruvchi tarkib, 3 va 4-qismlarida alohida og‘irlashtiruvchi tarkiblar ko‘rsatilgan.

Yagona jinoyat doirasida bir necha tarkibni ajratish odillik prinsipini (JK 8-m.) amalga oshirish, insonparvarlik prinsipini (JK 7-m.) ta’minlash zarurligidan kelib chiqadi va jinoyatlarni tasniflash (JK 15-m.) bilan mos ravishda olib boriladi. Taqqoslash uchun oladigan bo‘lsak, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi sanksiyasida yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi deyilgan. Jinoyat kodeksining 100-moddasi sanksiyasida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish uchun uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deyilgan.

Jinoyat tarkibi belgilari qonun chiqaruvchi qabul qilgan bayon qilish uslubiga qarab oddiy va murakkabga ajratilishi mumkin.

*Oddiy tarkibli* jinoyatlar qonunda ta’riflanganda, har bir tarkib belgisi bittadan ko‘rsatiladi: bitta obyekt, bitta harakat, bitta oqibat, bitta ayb shakli. Oddiy tarkibga misol qilib Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi (qasddan odam o‘ldirish)ni keltirish mumkin. Bu jinoyatning obyekti boshqa shaxsning hayoti hisoblanadi. Obyektiv tomoni bitta qilmish (harakat yoki harakatsizlik) bilan va bitta oqibat inson o‘limi bilan izohlanadi. Subyektiv tomondan bu jinoyatga aybning qasd shakli mansubdir.

*Murakkab tarkibli jinoyatlar* shunday tarkibga egaki, unda ikki yoki undan ko‘p obyekt, ikki yoki undan ko‘p qilmish (harakat yoki harakatsizlik), bir necha muqobil belgilar, bitta tarkibga mansub bir qator oddiy tarkiblar yoki aybning ikki shakli mavjud bo‘ladi.

Ushbu tushunchaga asoslanib maxsus adabiyotlarda murakkab tarkibli jinoyatlar quyidagi turlarga ajratiladi: ko‘p obyektli jinoyatlar, bir necha qilmishdan yoki bir necha oqibatdan iborat jinoyat tarkiblari, muqobil tarkiblar, tarkibli tarkiblar va ikki ayb shaklidan iborat tarkiblar[1].

Ko‘p obyektli tarkiblarga ikki yoki undan ko‘p obyektlarga tajovuz qilu-

[1] Qarang: *Якубов А. С.* Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступления: предпосылки, реальность, перспективы. – Т., 1996. – С. 103.

vchi qilmishdan iborat jinoyat tarkiblari kiradi. Bunga misol qilib bosqinchilik (JK 164-m.) jinoyatini keltirish mumkin, unda bir vaqtning o‘zida ikki obyektga – mulkka va jabrlanuvchining shaxsiga tajovuz qilinadi.

Bir necha qilmishdan iborat jinoyat tarkiblariga ikki yoki undan ortiq qilmishlar yig‘indisi, yagona jinoyat tarkibini vujudga keltiradigan tarkiblar kiradi. Masalan, nomusga tegish (JK 118-m.) jinoyatida zo‘rlik ishlatish va jabrlanuvchining erkiga qarshi u bilan jinsiy aloqada bo‘lish harakatlari sodir etiladi. Ikki yoki undan ortiq oqibatlar keltirib chiqaradigan tarkiblarda, to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun, har bir oqibatni aniqlash shart. Masalan, qilmishni Jinoyat kodeksining 104-moddasi 3-qismi «д» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun qilmish natijasida og‘ir tan jarohati yetkazilganligi va shu jarohat jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lganligini aniqlash lozim.

Muqobil tarkib bir necha qilmish yoki bir necha jinoiy oqibatlardan iborat bo‘lib, jinoyat tarkibi mavjud deb hisoblash uchun shulardan kamida bittasining borligi kifoya qiladi. Masalan, zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish uchun javobgarlik belgilovchi Jinoyat kodeksining $278^6$-moddasi 1-qismidagi jinoyat tarkibi kompyuter tizimida saqlanayotgan yoki uzatilayotgan axborotni ruxsatsiz yo‘q qilib yuborish, to‘sib qo‘yish, modifikatsiyalashtirish, undan nusxa ko‘chirish yoki uni qo‘lga kiritish maqsadini ko‘zlab kompyuter dasturlarini yaratish yoki mavjud dasturlarga o‘zgartirishlar kiritish, xuddi shuningdek maxsus virus dasturlarini ishlab chiqish, ulardan qasddan foydalanish yoki ularni qasddan tarqatish harakatlari sodir etilganda ham mavjud bo‘ladi, shuningdek, ruxsati bo‘lmagan holda axborot tizimidan foydalanish ma’lumotlarning buzilishi, olib tashlanishi, yo‘q qilib yuborilishi yoki bu tizimning ishdan chiqarish harakatlarida ham mavjud bo‘ladi. Jinoyat kodeksining 116-moddasi kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlikni belgilaydi va moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan jinoiy oqibatlardan birining kelib chiqishi (badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi) jinoyat tarkibining borligiga asos bo‘ladi.

Tarkibli jinoyat ikki yoki undan ortiq jinoyat tarkiblaridan tuzilgan bo‘lib, ularning har biri alohida olinganda, oddiy mustaqil jinoyat tarkibidan iborat bo‘ladi. Bunga misol qilib, Jinoyat kodeksining 166-moddasi 2-qismi «a» bandidagi talonchilikni keltirish mumkin. Unda maqsad o‘zgalar mulkini ochiqdan-ochiq hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish usuli bilan egallash bo‘ladi.

Ikki ayb shakli mavjud bo‘lgan jinoyat tarkiblari shunday tarkibki, ularda aybdor o‘z qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) ga va uning natijasida kelib chiqqan oqibatga turli ruhiy munosabatda bo‘ladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 114-moddasi 3-qismi «a» bandidagi jinoyat, ya’ni jinoiy ravishda homila tushirish (abort) natijasida jabrlanuvchining o‘limi kelib chiqqan bo‘lsa, aybdor jinoiy ravishda homila tushirishga nisbatan qasddan va jabrlanuvchining o‘limiga nisbatan ehtiyotsizlik munosabatida bo‘ladi.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Jinoyat tarkibi nima?
2. Jinoyat tarkibining jinoiy-huquqiy ahamiyati nimada?
3. Jinoyat tarkibining qanday elementlari mavjud?
4. Jinoyat tarkibi elementlari va belgilarining o‘zaro munosabati qanday?
5. Jinoyat tarkibining asosiy va qo‘shimcha belgilariga nimalar kiradi?
6. Aniq jinoyat ishini tergov qilishda jinoyat tarkibining fakultativ belgilari qanday ahamiyatga ega?
7. Jinoyat tarkibining qanday turlari mavjud?
8. Qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jinoyat tarkiblari qanday ajratiladi?
9. Jinoyat tarkibining belgilari qonunda yozilish uslubiga qarab qaysi turlarga ajratiladi?
10. Oddiy va murakkab jinoyat tarkibining o‘zaro munosabati qanday?

## V bob
## JINOYAT OBYEKTI

### 1. «Jinoyat obyekti» tushunchasi va uning ahamiyati

Jinoyat qonunida nazarda tutilgan har qanday jinoyat ma’lum bir ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi, biror-bir ijtimoiy munosabatga zarar yetkazmaydigan jinoyatning o‘zi mavjud emas. Bundan xulosa shuki, jinoyat obyektini aniqlashda, dastlab ijtimoiy munosabatlarni jinoyat obyekti sifatida tan olishdir. Buning ustiga, faqat jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar jinoyatning obyekti bo‘la oladi. Demak, jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlar ham jinoyat obyekti bo‘la olmaydi, balki ularning ichidan qonun chiqaruvchi, ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib, jinoiy-huquqiy taqiqlash uslubi bilan qo‘riqlash lozim deb topilganlari jinoyat obyekti bo‘ladi, xolos. Tabiiyki, bunday holatda so‘z faqat ijtimoiy xavfli qilmish jiddiy ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan, davlat va jamiyat manfaatlari uchun o‘ta muhim va ahamiyatga ega ijtimoiy munosabatlar haqida boradi.

Bayon qilingan fikrlar obyekt tushunchasi jinoyat sodir etish natijasida zarar yetkazilgan yoki zarar yetkazish xavfini keltirib chiqargan, aniq tajovuz qaratilgan va jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir, deb aytish imkonini beradi.

Qonun chiqaruvchi jinoyatning obyekti sifatida belgilab qo‘ygan ijtimoiy munosabatlar ro‘yxati Jinoyat kodeksining 2-moddasi 1-qismida keltirilgan. Jumladan, jinoiy-huquqiy qo‘riqlash obyekti sifatida shaxsning huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi sohalaridagi ijtimoiy munosabatlar ko‘rsatilgan. Biroq, qonun chiqaruvchining u yoki bu ijtimoiy munosabatni jinoyat obyekti deb tan olishi, bu faqat jinoyat qonunchiligi bilan qo‘riqlanadi degani emas, chunki ba’zi hollarda bir xil obyektning o‘zi turli huquq tarmoqlarining normalari bilan qo‘riqlanadi. Masalan, mulkchilik bilan bog‘liq normalar fuqarolik va ma’muriy huquq normalari bilan ham qo‘riqlanadi. Jinoyat huquqi bu obyektlarga xavfliroq tajovuz qilingandagina o‘z himoyasi ostiga oladi (bosqinchilik, talonchilik, firibgarlik, o‘g‘rilik va o‘zganing mulkini boshqacha turdagi talon-toroj qilish holatlarida). Mulkni qo‘riqlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan deliktlar fuqarolik huquqi normalari bilan (masalan, qarzni qaytarmaslik) yoki ma’muriy huquq normalari (masalan, oz miqdorda talon-toroj qilinsa, MJTKning 61-m.) bilan tartibga solinadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, ijtimoiy munosabatlarni jinoyat obyekti deb hisoblash, bu munosabatlarga qarshi qilingan barcha tajovuzlarni jinoiy jazolanadigan qilmish deb hisoblashga olib kelmaydi. Faqat jinoyat qonunchiligida ko‘zda tutilgan obyektlarga qilingan va xavfliligi yuqori bo‘lgan tajovuzlar jinoyat bo‘la oladi.

*Ijtimoiy munosabatlar* shunday murakkab tuzilmaki, u munosabat subyektlari (ishtirokchilar), subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar va shu

munosabatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan ijtimoiy qiymatliklar kabi elementlardan tashkil topgan. Jinoyatchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish bilan ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu elementiga ta’sir o‘tkazadi. Bunday ta’sir ijtimoiy munosabatlarning boshqa bir subyektiga ma’lum bir zarar yetkazishda ifodalanishi mumkin (masalan, qasddan odam o‘ldirish, qasddan badanga shikast yetkazish, nomusga tegish). Aybdor moddiy predmet yuzasidan kelib chiqqan ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin (masalan, aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini talon-toroj qilish). Jinoyatchi o‘zini bunday munosabatlardan chiqarish yo‘li bilan ham ijtimoiy munosabatlarni buzishi mumkin, ya’ni unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik yo‘li bilan ijtimoiy munosabatlarning mazmunini tashkil etuvchi ijtimoiy aloqani uzadi. Masalan, hokimiyat harakatsizligi bunga misol bo‘ladi (JK 208-m.).

Aybdor ijtimoiy munosabatlarning sanab o‘tilgan elementlariga ta’sir ko‘rsatib, ularni buzadi va buning oqibatida ijtimoiy zarar yetkazadi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning o‘zi jinoiy qilmishdan zarar ko‘rmaydi. Demak, huquqiy normalar jinoyatning obyekti bo‘la olmaydi.

Jinoyat obyektini jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabat sifatida ko‘rib chiqish jinoyatlarning real ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashga va bularni sodir etgan aybdorlarga nisbatan qonun sanksiyalarini to‘g‘ri qo‘llashga imkon beradi. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi har tomonlama qo‘riqlanishi va rivojlanishidan davlat manfaatdor bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham jinoiy qilmishlarning ijtimoiy xavfliligining asosiy ko‘rsatkichi jinoyat obyekti hisoblanadi. Jinoyat oqibatida zarar yetgan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatiga qarab, alohida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati haqida so‘z yuritish mumkin. Davlat tomonidan belgilangan, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, umumiy qoidalarga ko‘ra, jinoyat shunchalik xavfli hisoblanadi. Demak, huquqiy demokratik jamiyat qurish sharoitida shaxsni, uning erki va manfaatlarini himoya qilish birinchi o‘ringa chiqdi va eng qadrlilar ichida birinchi o‘ringa joylashtirildi.

Demokratizm prinsiplariga muvofiq, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlar ijtimoiy muhimligidan kelib chiqib boshqacha ketma-ketlikda joylashtirilgan: shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari. Jinoiy-huquqiy qo‘riqlashning asosi sifatida aynan shaxsning manfaatlari joylashtirilishi kerak, chunki bu manfaatlarni mustahkam va unumli muhofaza qilish, o‘z navbatida, jamiyat va davlat manfaatlarining mustahkam va unumli muhofaza qilinishiga sabab bo‘ladi.

Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning ma’lum doirasi muayyan tarixiy sharoitlarga ko‘ra o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarishlar bevosita jinoyat qonunchiligiga ta’sir ko‘rsatadi, bir holatda jinoiy-huquqiy normani bekor qilishni, ikkinchisida esa ilgari jazoga loyiq bo‘lmagan qilmish uchun jinoiy javobgarlik o‘rnatib, qonunga kiritishni keltirib chiqaradi. Bunga misol qilib, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikning ijtimoiy xa-

vfliligi yuqoriligini inobatga olib, 1998-yil 1-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun va hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonunni keltirish mumkin. Bu qonunga muvofiq, g‘ayri qonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash uchun (JK $216^1$-m.), diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK $216^2$-m.), diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzganlik uchun (JK $229^2$-m.), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish (JK $244^1$-m.) harakatlariga jinoiy javobgarlik o‘rnatildi.

Jinoyat obyekti katta ahamiyat kasb etadi, chunki u jinoyat tarkibining zarur elementidir. Agarda shaxs jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni buzmasa yoki ularni buzish tahdidi ostiga qo‘ymasa, uning qilmishida jinoyat tarkibi mavjud emas. Aybdor shaxsning ijtimoiy xavfli xatti-harakati faqatgina bir holatda, agarda bu xatti-harakat u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga, ya’ni jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ma’lum bir obyektga qarshi qaratilgan bo‘lsa, jinoyat deb topilishi mumkin.

Jinoyat obyektini to‘g‘ri aniqlash ijtimoiy xavfli qilmishning yuridik tabiatini yechish, uning shakl va mazmunini hamda subyektlar doirasini aniqlash, boshqa jinoyat va huquqbuzarliklardan ajratish imkonini beradi. Ba’zi hollarda aynan obyektga asoslanib, bir jinoyatni ikkinchisidan, masalan, qasddan odam o‘ldirishni terrorizmdan, shaxsga qarshi jinoyatni bezorilikdan farqlash mumkin.

Jinoyat obyektini aniqlamasdan turib jinoiy qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Jinoyat obyektining ahamiyati jazo turini tanlashda uning inobatga olinishida ham namoyon bo‘ladi. Muhimroq ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilish, qoida tariqasida, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalari sanksiyasi doirasida og‘irroq jazoga loyiq bo‘lishi kerak.

## 2. Jinoyat obyektining turlari

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektini, qo‘riqlanadigan obyektlar hajmidan kelib chiqib, uch turga, ya’ni umumiy, turdosh va bevosita jinoyat obyektlariga ajratish qabul qilingan.

Barcha jinoyatlarning *umumiy obyekti* jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning umumiy yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Umumiy obyekt hamma jinoyatlar uchun birdir, sababi har qanday jinoyat u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi.

Ijtimoiy munosabatlar majmuiga kiruvchi hamma guruhlar o‘zaro yaqin aloqadadir. Shuning uchun ham ijtimoiy munosabatlarning bir guruhiga yetkazilgan zarar jinoyat qonunchiligi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning boshqa yaqin guruhlariga egri ziyon yetkazmaydi, ammo bunday munosabatlarning yig‘indisiga ziyon yetkazadi. Shunday qilib, umumiy obyekt jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisining tizimini birlashtiradi. Jinoyat qonunlarining vazifalarini aniqlashda hamma jinoyatlar uchun umumiy bo‘lgan obyekt ko‘rsatiladi (JK 2-m.). Bularga:

1) shaxs, uning huquq va erkinliklari; 2) jamiyat va davlat manfaatlari; 3) mulk; 4) tabiiy muhit; 5) tinchlik va insoniyat xavfsizligini kiritish mumkin.

Jinoyatning umumiy obyektini turdosh va bevosita obyektlarga ajratish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Alohida va maxsuslarini o‘rganish jarayoni u yoki bu ijtimoiy holatlarning umumiy xususiyati va belgilarini o‘rganish orqali ancha yengil kechadi. Jinoyatning umumiy obyektini ajratish jinoyat orqali zarar yetgan muayyan ijtimoiy munosabatlar guruhini har tomonlama o‘rganishga imkon beradi va boshqa tarafdan, jinoyatning umumiy obyektini, ya’ni jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar doirasini bilish, xususan, jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, alohida ijtimoiy xavfli qilmish yoki bir guruh turdosh jinoyatlarning xususiyatlarini aks ettirish uchun umumiy obyekt tushunchasi yetarli emas. Shuning uchun aniqlashtirilgan sari tajovuz obyektlari turdosh va bevositaga ajratiladi.

*Turdosh obyekt* jinoiy qilmish tajovuz qiladigan turdosh ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Turdosh obyekt jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar yig‘indisining uncha yuqori bo‘lmagan darajasini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarni guruhlarga ajratish erkin ravishda amalga oshirilmaydi, balki ularning bir xilligi yoki turdoshligi bilan bog‘liq va obyektiv mavjud bo‘lgan mezonlarga asoslanib amalga oshiriladi.

Shunday qilib, turdosh obyekt mazmun jihatidan tor bo‘lib, umumiy obyektning bir qismini tashkil etadi. U mazmunan aniqroqdir, chunki umumiy obyektga nisbatan o‘ziga xos qo‘shimcha belgilar bilan tavsiflanadi. Masalan, jinoyatlarning umumiy obyekti jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning umumiy yig‘indisi bo‘lsa, ularning turdosh obyekti sifatida umumiy mulkiy ijtimoiy munosabat, shaxs, tabiiy muhit, tinchlik va xavfsizlik va boshqalar kelishi mumkin.

Jinoyatning turdosh obyekti, avvalambor, hamma jinoyatlar va ularni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni ko‘zda tutuvchi jinoiy-huquqiy normalarni tasniflashga yordam beradi. Aynan shu xususiyatlar amaldagi jinoyat qonunchiligining Maxsus qismini tizimlashtirishda asos qilib olingan. Jinoyatning turdosh obyektini aniqlash, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uchun unda birlashtirilgan ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va ahamiyatini aniqlashga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ularga qilingan jinoiy tajovuzlarning ijtimoiy xavflilik darajasini va xususiyatini, aniq kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan jinoiy oqibatlarning og‘irligini aniqlashga, turdosh obyektning sanab o‘tilgan xususiyati, avvalambor, Jinoyat kodeksi Maxsus qismini tizimlashtirishning ketma-ket joylashtirilishiga yordam beradi. Bularni inobatga olgan holda, amaldagi jinoyat qonunchiligining Maxsus qismida birinchi navbatda «Shaxsga qarshi jinoyatlar» keyin «Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar», «Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar», «Ekologiya sohasidagi jinoyatlar», «Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar» hamda «Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar» joylashtirilgan.

*Jinoyatning bevosita obyekti* tarkibida jinoyat alomatlari bor qilmish oqibatida zarar yetuvchi, qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni muhofazasi ostiga olgan aniq ijtimoiy munosabatlardir. Ba'zi alohida holatlarda qonun chiqaruvchi jinoyat qonunining o'zida bevosita obyektni ko'rsatib o'tadi. Bunga Jinoyat kodeksining 157-moddasi: «Davlatga xoinlik qilish bu – O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati yoki iqtisodiyotiga zarar yetkazilgan qilmishdir», deb ko'rsatilishi misol bo'la oladi. Biroq, ko'pchilik hollarda, jinoyat qonunidagi muayyan jinoyatlarda bevosita obyekt ko'rsatilmagan, ammo shunga qaramasdan, uni aniqlash uchun jinoyat tarkibini chuqur ijtimoiy-siyosiy va yuridik tahlil qilmoq zarur. Jinoyat insonning tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv holatlarining birligidan tashkil topgan xatti-harakat bo'lganligi uchun jinoyat obyekti uning boshqa obyektiv va subyektiv belgilari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, jinoiy oqibat haqida faqat jinoyat sodir etish orqali obyektda bo'lgan o'zgarishga asosan gapirish mumkin. Bir vaqtning o'zida jinoiy oqibat ham ma'lum jinoyatning obyektini aniqlashga imkon beradi. Zararli oqibatlar deb, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga yetkazilgan zararga aytiladi.

Jinoiy ta'sirning bevosita obyekti alohida jinoyatlarning xususiyatini aniqlaydi. Masalan, qasddan odam o'ldirish, badanga shikast yetkazish, tuhmat singari shaxsga qarshi jinoyatlarning bevosita obyekti bo'lib, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi.

Tajovuzning bevosita obyekti sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini va xususiyatini aniqlashda, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda, sodir etilgan qilmishni boshqa o'xshash jinoyatlardan ajratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan jinoyatning bevosita obyekti o'xshash jinoyatlar o'rtasidagi to'la aniqlikni belgilab beradi. Bunga misol qilib, Jinoyat kodeksining 159-moddasi 1-qismi (O'zRning konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish) va Jinoyat kodeksining $244^1$-moddasi (jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish)da ko'zda tutilgan jinoyatlar o'zining obyektiv tomoni va subyektiv belgilari bilan juda o'xshab ketadi, ularning o'rtasidagi o'zaro farq esa tajovuz obyektidadir.

Qoidaga ko'ra, jinoyat bitta obyektga qaratilgan bo'ladi, biroq ayrim hollarda ikki yoki undan ortiq obyektga ham zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun jinoyat huquqi nazariyasida obyektlarni tasniflash gorizontal – bevosita obyekt doirasida o'tkaziladi va asosiy, qo'shimcha va fakultativ obyektlarga bo'linadi. Ko'rsatilgan obyektlarning har biriga yetkazilgan zararni alohida baholasak, butun qilmishning ijtimoiy xavfliligi va xususiyati haqidagi tushuncha noto'g'ri bo'ladi. Masalan, bosqinchilik jinoyati sodir etilganda, bir vaqtning o'zida ikkita obyektga – shaxsga va uning mulkiy munosabatlariga zarar yetkaziladi. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, bezorilik va boshqa shunga o'xshash jinoyatlar sodir qilinganda ham shunday holatni kuzatish mumkin. Bir necha obyektlarga zarar yetkazish mavjud hollarda qonun chiqaruvchi ulardan bittasini ajratadi, bu esa jinoyatning ijtimoiy xa-

vfliligini, uning tegishli tarkibini va Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tizimidagi o‘rnini belgilab beradi. Bunday obyekt asosiy bevosita obyekt deb yuritiladi. Asosiy bevosita obyekt doim turdosh obyektning tarkibiy qismi bo‘ladi. Shuning uchun uni aniqlash u yoki bu jinoiy-huquqiy normaning Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tizimidagi o‘rnini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi. Bundan tashqari, aniq sodir etilgan jinoyatning asosiy bevosita obyektini aniqlash sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilishga zarur jinoiy-huquqiy normani belgilab beradi. Shu sababli, bu obyekt Maxsus qism tizimida u yoki bu normaning o‘rnini aniqlash uchun ham, sodir etilgan ko‘p obyektli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish uchun ham belgilovchi bo‘lib keladi.

Jinoyat sodir etishda hamma vaqt zarar yetgan qo‘shimcha bevosita obyekt bunday jinoyat tarkibini aniqlash uchun shartli belgi bo‘lib keladi. Uning mavjudligi ma’lum miqdorda aniq jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Qo‘shimcha obyektning bunday xususiyatidan qonun chiqaruvchi ko‘proq og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud tarkibli jinoyatlarni ajratishda (masalan, zo‘rlik ishlatib yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib, transport vositasini olib qochish – Jinoyat kodeksining 267-moddasi 3-qismining «в» b.) yoki mustaqil tarkibli jinoyatlarning tarkibini tuzishda (masalan, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik va hokazo) foydalanadi. Qo‘shimcha obyektni aniqlash sodir etilgan jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va uni boshqa o‘xshash ijtimoiy xavfli qilmishlardan farq qilishga imkon beradi.

Fakultativ obyekt deganda, odatda, shunday ijtimoiy munosabat tushuniladiki, tegishli jinoyat sodir qilingan ayrim holatda unga zarar yetkazilishi, boshqa holatda esa zarar yetkazilmasligi mumkin. Ammo, shu jinoyat tarkibida fakultativ obyektga zarar yetkazilish ehtimoli mavjud bo‘ladi. Masalan, bosqinchilik yo‘li bilan o‘qotar qurolni g‘ayriqonuniy egallash jinoyatida (JK 247-m. 3-q. «a» b.) jinoiy tajovuzning asosiy obyekti – jamoat xavfsizligi bo‘ladi, qo‘shimcha obyekt – jabrlanuvchining sog‘lig‘i va fakultativ obyekt – mulkiy munosabat bo‘ladi. Bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda tajovuzning asosiy obyekti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday tajovuzlarda qo‘shimcha va fakultativ obyektlarning borligini bilish qilmishni bitta jinoyat kabi ko‘rib chiqish uchun yagona asos hisoblanadi, boshqa jinoyatlar bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Fakultativ obyektga zarar yetkazish, odatda, aybdorga jazo tayinlash va yetkazilgan zararni qoplash masalasini hal qilishda inobatga olinadi.

## 3. Jinoyat predmeti

Bevosita obyekt bilan bir qatorda, aybdor aynan shunga ta’sir qilish orqali jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni buzadigan yoki buzishga urinadigan *jinoyat predmetini* aniqlash va ajratish zarur. Jinoyat predmetini ijtimoiy munosabatga o‘xshatish mumkin emas, chunki yaxlitlikning bir qismi yaxlitlikning o‘zi bo‘la olmaydi, lekin ularni bir-biriga qarshi qo‘yib ham bo‘lmaydi, chunki jinoyat predmeti ijtimoiy munosabatning zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jinoyat predmeti ham ijtimoiy munosabatning ishtirokchilari, ham ijtimoiy munosabatlarni vujudga va harakatga keltiruvchi moddiy dunyo predmetlari bo‘lishi mumkin. Masalan, jinoyat predmeti bo‘lib, odam o‘ldirishda, tan jarohati yetkazishda, nomusga tegishda jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan jabrlanuvchi deb ataladigan jismoniy shaxslar, talon-toroj qilishda esa – jinoyat obyekti bo‘lgan buyumlar va boshqa qimmatliklar, ya’ni moddiy dunyo predmetlari hisoblanadi. Shuningdek, aybdor ta’sir etadigan jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning barcha moddiy shart-sharoitlari jinoyat predmeti prizmasi hisoblanadi.

Jinoyat predmeti, jinoyat jabrlanuvchisi singari, jinoyat obyektining fakultativ belgisidir. U faqatgina Jinoyat kodeksining Maxsus qism moddasi dispozitsiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa, shu jinoyat tarkibida zaruriy hisoblanadi. Chunki o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik predmeti – o‘zganing mulki hisoblanadi: o‘z fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga yoki jamiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatishda jabrlanuvchi – hokimiyat vakili yoki o‘z fuqarolik burchini bajarayotgan shaxs bo‘lishi mumkin.

Jabrlanuvchi inson sifatida jinoyat predmetidan farq qiladi, uning tasnifi doimo faoliyati bilan bog‘liqdir. Masalan, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi «ж» bandida nazarda tutilgan o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarish munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini o‘ldirish jinoyatining tarkibi tasnifida mavjud.

Jinoyat predmeti va jabrlanuvchi shaxs Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi tegishli moddalarning dispozitsiyalarida ko‘rsatilgan muayyan belgilar bilan tasniflanadi yoki Jinoyat kodeksi Maxsus qismining boshqa moddalari bilan mazkur moddani taqqoslash natijasida aniqlanadi.

Turli jinoyat tarkibida aynan bitta predmet bir xil belgilar bilan tasniflanmaydi. Masalan, mulk – o‘g‘rilik predmeti sifatida iqtisodiy, jismoniy va huquqiy jihatlari bilan tasniflanadi. Iqtisodiy tomondan u moddiy dunyo buyumi bo‘lib, obyektiv qiymat bahosiga ega; jismoniy tomondan – harakatlanuvchi mulk, ya’ni o‘zining jismoniy tabiatiga ko‘ra, egalik qilishga moslashgan; huquqiy tomondan – aybdor uchun begona bo‘lgan, ya’ni mulkka nisbatan aybdor haqiqiy yoki faraz qilingan huquqqa ega emas. Qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish predmeti sifatida mulk faqat iqtisodiy va huquqiy tomonlar bilan ta’riflanadi. Jismoniy tomondan esa u harakatlanish

belgisi bilan cheklanmaydi, ya’ni harakatlanuvchi va ko‘chmas mulk bo‘lishi mumkin. Masalan, uy-joy yoki tashkilot binosi bu jinoyatning predmeti bo‘lishi mumkin, lekin o‘g‘rilik predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Jabrlanuvchi hokimiyat vakiliga yoki o‘z fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatishda (JK 219-m.) quyidagi belgilarga ega: qonuniy faoliyatni amalga oshirayotgan; hokimiyat vakili bo‘lishi; o‘z xizmat vazifasini bajarayotgan bo‘lishi kerak.

Jinoyat obyekti bilan bir qatorda, uning predmetini ajratish amaliy ahamiyatdan xoli emas. Belgilab o‘tilganidek, barcha jinoyatlar jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi. Lekin tajovuz predmetini tahlil qilmasdan, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni aniqlash mumkinmi? Albatta, yo‘q. Ijtimoiy munosabatning moddiy ko‘rinishli sifati kabi, jinoyat predmeti bilan bo‘ladigan o‘zgarishlar, ushbu munosabatlarga yetkazilgan zarar haqida aniq fikr yuritishga imkon beradi. Jinoyat predmetida bo‘ladigan o‘zgarishlarga asosan zararli oqibatlarning mohiyati va og‘irligi, ijtimoiy xavfli qilmish natijasida yetkazilgan zarar miqdori aniqlanadi. Juda ko‘p holatlarda zarar miqdoridan kelib chiqib, jinoyatni boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatdan yoki bir jinoyat ikkinchisidan ajratiladi. Aytaylik, mulk shaklidan qat’i nazar korxona, muassasa, tashkilotning mulki oz miqdorda o‘g‘irlangan bo‘lsa, qilmish Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61-moddasiga muvofiq hal qilinadi va ma’muriy huquqbuzarlik sifatida ko‘rib chiqiladi. Agar mulk shaklidan qat’i nazar korxona, muassasa, tashkilotning mulki oz miqdordan ko‘p bo‘lgan miqdorda sodir etilgan bo‘lsa, jinoiy jazolanadigan qilmish kabi baholanadi va Jinoyat kodeksining 169-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ikkinchi tomondan ko‘pchilik jinoyat tarkiblari o‘zaro kelib chiqqan oqibatning og‘irlik darajasiga ko‘ra farq qiladi: qasddan odam o‘ldirish, badanga og‘ir, o‘rtacha og‘ir, yengil shikast yetkazish va boshqalar. Jinoyat predmetini va undagi bo‘layotgan o‘zgarishlarni bilish ijtimoiy xavfli oqibatni aniqlashga va jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga imkon beradi.

Jinoyat predmeti yordamida ayrim jinoyat tarkiblarini farqlash mumkin (JK 169 va $244^1$-m.; 182 va 246-m.; 169 va 271-moddalarini va b.). To‘g‘ri, aytilgan jinoyatlar bir-biridan nafaqat predmeti bilan, balki tajovuz obyekti bilan ham farq qiladi, ammo tajovuz predmetidagi farq bir vaqtning o‘zida jinoyat obyektlarining farqini ham ko‘rsatib beradi. Bu tasodif emas, chunki qonun chiqaruvchi jinoyat obyektini aniqlashni ko‘p hollarda uning alohida belgilari yoki elementlari, shu jumladan, tajovuz predmetini ko‘rsatish bilan ham amalga oshiradi.

Jinoyat predmetining jinoiy-huquqiy ahamiyati yana shunda namoyon bo‘ladiki, uning ayrim belgilari ba’zi hollarda bitta modda doirasidagi kvalifikatsiyaga ta’sir etadi. Masalan, qat’iy hisobda turgan hujjatlarni egallash Jinoyat kodeksining 227-moddasi 1-qismi bilan, pasport yoki boshqa muhim shaxsiy hujjatlarni egallash esa shu moddaning 2-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat predmetini jinoyatni sodir etish quroli va vositasidan farqlash zarur, chunki ular ijtimoiy munosabatlarning moddiy tuzilmasi sifatida namoyon

bo‘lmaydi, balki ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish, jinoyat predmetiga tajovuz qilish uchun foydalaniladi.

O‘zining jismoniy xususiyati bo‘yicha aynan shu narsa (buyum) tajovuz predmeti yoki jinoyatni sodir etish quroli va vositasi bo‘lishi mumkin. Chunonchi, talon-toroj qilishda pul jinoyat predmeti bo‘lishi mumkin, pora berishda esa u jinoyatni sodir etish vositasi hisoblanadi. Qurol kontrabanda jinoyatida predmet hisoblanadi, odam o‘ldirishda yoki tan jarohati yetkazishda jinoyatni sodir etish quroli vazifasini bajaradi.

Jinoyatning predmetini jinoyatni sodir etish quroli va vositasidan farqlash ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilish va boshqa bir qator huquqiy savollarni yechish uchun zarur[1].

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyat obyekti nimani anglatadi?
2. Jinoyat obyektining o‘rni va ahamiyatini aniqlang.
3. Jinoyat obyektining turlarini aytib bering va ularni tasniflang.
4. Jinoyat predmeti nima?
5. Jinoyat predmeti va obyektining o‘zaro munosabati qanday?
6. Jinoyat predmetining o‘ziga xosliklarini aytib bering.
7. Jinoyat predmeti ega bo‘lgan xususiyatlarning ahamiyati nimada?
8. Jinoyat predmetining jinoyat sodir etish quroli va vositasidan farqi nimada?

[1] Jinoyat sodir etish quroli haqida batafsilroq bilish uchun ushbu darslikning VI bobiga qarang.

## VI bob
## JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI

### 1. «Jinoyatning obyektiv tomoni» tushunchasi va uning ahamiyati

*Jinoyatning obyektiv tomoni* jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi belgilar yig‘indisidir. Shuningdek, jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat qonunida jinoiy qilmishning tashqi belgilarining xususiyatlarini va bizni o‘rab olgan olamda uning zararli o‘zgarishlarga olib kelganligini namoyon qiladi. Bu jinoyat tarkibining shunday elementiki, u jinoyatni sodir etishda bevosita aniqlanadi va oson tadqiq qilinadi. Bu holatni e’tiborga olgan qonun chiqaruvchi, birinchi navbatda, jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgilarini qonunda to‘liq ta’riflashga harakat qiladi.

Jinoiy qilmishning obyektiv tomonini tahlil qilmay turib, shaxsning qilmishida jinoyat bor yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi xulosaga kelishning imkoniyati bo‘lmaydi. Masalan, jinoiy oqibatni noaniq ta’riflash jinoiy javobgarlik chegarasining kengayishiga va unga noqonuniy tortishga olib keladi. Sud amaliyotida qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga kam ahamiyatli ziyon yetkazgan shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortish holatlari uchrab turadi. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 36-moddasiga binoan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb hisoblanmaydi.

Amaldagi jinoyat qonunini tahlil qilish jinoyat tarkibi obyektiv tomonining quyidagi belgilarini qamrab olishga imkon beradi. 1) ijtimoiy xavfli qilmish – harakat yoki harakatsizlik; 2) jinoiy oqibat; 3) qilmish va jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish; 4) jinoyatni sodir etish vaqti; 5) jinoyatni sodir etish joyi; 6) jinoyatni sodir etish holati; 7) jinoyatni sodir etish usuli; 8) jinoyatni sodir etish quroli va vositasi.

Rivojlangan demokratik davlatlarning zamonaviy qonunchiligi aybdorning aniq ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoiy javobgarlik o‘rnatadi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi bo‘yicha ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik asos bo‘lmagan jinoyatlar yo‘q va bo‘lishi mumkin emas. Na insonning o‘ziga xosligi, na uning fikri va hissiyoti jinoiy-huquqiy taqiqning predmeti bo‘la olmaydi. Aks holda, jinoiy javobgarlik obyektiv asosdan mahrum bo‘ladi. O‘z navbatida, bu o‘rta asr huquq tizimi va yaqin o‘tmishdagi totalitar tuzum uchun xos bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan jinoyatni va jinoiy jazoga loyiqlikni aniqlashda o‘zboshimchalikka olib kelardi.

Shuning uchun jinoyat qonunida har doim ijtimoiy xavfli qilmishning belgilari ko‘rsatiladi, ularsiz Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi u yoki bu moddaning biror-bir dispozitsiyasi bo‘lishi mumkin emas. Lekin, qonun chiqaruvchi aniq jinoyat tarkibini tuzishda ayrim holatlarda muayyan ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishi bilan taqiqlangan qilmishni bog‘laydi (masa-

lan, JKning 104, 105, 116, 117-m. va b.), boshqa holatlarda esa zararli oqibatlar kelib chiqadimi yoki yo‘qmi, bundan qat’i nazar, qilmishning sodir etilgan fakti bo‘yicha javobgarlikni o‘rnatadi (masalan, Jinoyat kodeksining 230, 232, 234, 239-m. va b.). Shunday qilib, har bir holatda, har qanday jinoyat tarkibining obyektiv tomoni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish ko‘rsatmalarini qamrab oladi, va shu sababli u har qanday jinoyat tarkibining shartli belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sub’yektning jinoiy qilmishi (harakat yoki harakatsizlik) tashqi dunyoda muayyan o‘zgarishga olib keladi, ya’ni muayyan oqibatlarni tug‘diradi. Ulardan ba’zilarini kuzatish mumkin, boshqalarini esa, xususiyatiga ko‘ra, kuzatib bo‘lmaydi, chunki ular qiyin va og‘ir hisobga olinadi yoxud umuman o‘lchab bo‘lmaydi. Oqibatning obyektiv xususiyatlarini hisobga olgan holda, qonun chiqaruvchi aniq jinoyat tarkibini tuzishda, ayrim holatlarda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgisi sifatida jinoiy oqibatni ko‘rsatadi, boshqa holatlarda esa ko‘rsatmaydi. Masalan, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish tarkibi – mansabdor shaxsning o‘z mansab vakolatidan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishi sifatida tuzilgan (JK 205-m.). Shundan kelib chiqqan holda, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish tarkibida ko‘rsatilgan fuqarolar, hokimiyat va davlatning manfaatlariga «ko‘p miqdorda zarar» yoki «jiddiy ziyon» yetkazishi mazkur jinoyat obyektiv tomonining shartli belgisi hisoblanadi. Bunda «ko‘p miqdorda zarar» yetarli aniq belgidir, chunki uning mazmuni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 8-bo‘limida yoritib berilgan, «jiddiy ziyon» esa baholanadigan tushunchadir.

Raqobatchini obro‘sizlantirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan Jinoyat kodeksi 192-moddasining dispozitsiyasida esa oqibat ko‘rsatilmagan. Bu jinoyat natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga ruhiy yoki boshqacha zarar yetkazilishiga qaramay, mazkur jinoyat tarkibida jinoiy oqibat obyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanmaydi.

Tarkibni tuzishda va uning obyektiv tomonini aniqlashda, qonun chiqaruvchi bir qator holatlarda, agar u muayyan vaqtda, muayyan joyda, muayyan holatda va muayyan usul bilan sodir etilgan bo‘lsa, qilmishni xavfli yoki o‘ta xavfli deb tan oladi. Agar jinoyat sodir etishning aniq joyi, vaqti, holati va usuli qonunda ko‘rsatilgan bo‘lsa, aybdor shaxsni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun sanab o‘tilgan holatlarda jinoyat sodir etilgan bo‘lishi shart. Bundan tashqari, ta’kidlash kerakki, ba’zi holatlarda aybdorlar qo‘yilgan maqsadni yengillashtirib jinoyatni sodir etishda muayyan qurol va vositalardan foydalanadilar. Bunday qurol va vositalar sifatida quyidagilardan foydalanish mumkin, masalan, fuqarolarning hayotiga va sog‘lig‘iga tajovuz qilishda – sovuq va

o‘qotar qurollar, o‘zgalar mulkini talon-toroj qilishda – qalbaki hujjatlar va boshqalar. Bir qator hollarda u yoki bu jinoyatni sodir etishda foydalanilgan muayyan qurol va vositalar qilmishning ijtimoiy xavflilik mohiyatini oshiradi, shu bilan birga, jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddasining dispozitsiyasida ko‘rsatiladi.

Jinoyat qonunida jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgisi sifatida sababiy bog‘lanish ko‘rsatilmagan. Ammo bu sababiy bog‘lanish jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgisi ekanligini anglatmaydi. Ijtimoiy xavfli qilmishning natijasi sifatida oqibatning kelib chiqishi qonun moddasining dispozitsiyasida ko‘rsatilgan bo‘lsa, uni aniqlash shart, chunki subyektning sodir qilgan qilmishi va jinoiy oqibati o‘rtasida sababiy bog‘lanish bo‘lmasa, subyekt jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Jinoyat obyektiv tomonining jinoiy-huquqiy ahamiyati, birinchi navbatda, jinoyat tarkibining elementi bo‘la turib, jinoiy javobgarlikning o‘ziga xos asosi sifatida namoyon bo‘ladi va usiz umuman bo‘lishi mumkin emas. Bundan tashqari, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning huquqiy (yuridik) asosi hisoblanadi va jinoyatlarni bir-biridan farqlashni ta’minlaydi. Shunday qilib, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatlar turlari ko‘p holatlarda harakat yoki harakatsizlik yoki uning uslubining qo‘llanishi bo‘yicha, oqibati jinoyatni sodir etish holati va boshqa tashqi belgilar bo‘yicha farqlanadi.

Bu tarkibning boshqa alomatlari, masalan subyekt va subyektiv tomon ko‘p jinoyatlarda o‘zlarining asosiy belgilari bilan o‘xshab ketishlari bilan tushuntiriladi. Alohida guruhdagi jinoyatlar turdosh obyekti bo‘yicha va ba’zida bevosita obyekti bo‘yicha o‘xshaydilar. Demak, aniq turdagi jinoyatlarni ko‘p hollarda u bo‘yicha farqlash mumkin bo‘lgan jinoyat tarkibining elementi – obyektiv tomondir.

Jinoyat obyektiv tomonining ahamiyati yana shundan iboratki, u jinoyatlarni boshqa huquqbuzarliklardan farqlash imkonini beradi. Masalan, transport vositalari harakati yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga binoan, ma’muriy huquqbuzarlik deb tan olinadi. Demak, jinoiy jazolanadigan transport vositasi harakati va ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish shunday xususiyatga ega bo‘lgan harakatdagi ma’muriy huquqbuzarlikdan farqlashning asosiy mezoni bo‘lib, jinoyat obyektiv tomonining belgisi sifatida oqibat hisoblanadi.

## 2. Jinoiy qilmish – harakat yoki harakatsizlik

Shaxs ijtimoiy xavfli harakatining tashqi namoyon bo‘lishini belgilash uchun Jinoyat kodeksining 14-moddasida «qilmish» atamasi ishlatiladi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining sakkizinchi bobiga binoan, qilmish deganda, ijtimoiy xavfli xatti-harakatning tashqi ifodasi bo‘yicha harakat yoki harakatsizlikdan farq qiladigan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

*Harakat* shaxsning jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishga qaratilgan ijtimoiy xavfli, irodaviy va faol xulq-

atvoridir. U faqat kishining jismoniy harakatinigina emas, balki o‘sha harakat yo‘naltirilgan jarayonlar, xususan, mexanizmlar harakati, boshqa shaxslarning harakati, hayvonlarning xatti-harakati va boshqalarni qamrab oladi. Masalan, terrorchilar radio orqali boshqariladigan mina yordamida hodisa joyidan ancha uzoq masofada turib portlatishni amalga oshirishlari mumkin.

Jinoiy harakat o‘zining jismoniy belgilariga ko‘ra, har qanday jinoiy bo‘lmagan harakatdan farq qilmaydi. Harakatning jinoiy mohiyati uning jamiyatga qarshi yo‘naltirilganligini, ya’ni ijtimoiy xavfliligini bildiradi. Biroq, harakat o‘zicha ijtimoiy xavfli bo‘lmaydi, buning uchun u zararli oqibat keltirib chiqargan yoki chiqarishi mumkin bo‘lishi kerak.

Harakatning mohiyatini uning faqat qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar bilan o‘zaro aloqadorligida olingan natijalarga qarab baholash jarayonida aniqlash mumkin. Ba’zi hollarda bunday o‘zaro hamkorlik ijobiy natija (zaruriy mudofaada jinoyatchiga to‘pponchadan o‘q otish), boshqa hollarda esa salbiy natija (odam o‘ldirishda) berishi mumkin.

Tevarak-atrofdagi narsalarning salbiy ta’siri jamiyatda vujudga kelgan munosabatlar tizimini zaiflashtiradi, shuning uchun ham u ijtimoiy xavflidir.

Jinoiy qilmishning qo‘riqlanadigan obyektlarga ta’siriga bog‘liq holda ko‘rib chiqish quyidagilarni aniqlashga yordam beradi: birinchidan, muayyan qilmishning ijtimoiy xavfliligi qat’iy belgilangan obyektga nisbatan amal qiladi, ikkinchidan, qo‘riqlanadigan obyektdagi zararli o‘zgarish faqat muayyan harakatning oqibati bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, rasmiy hujjatga bila turib kiritilgan yolg‘on ko‘rsatma, uni soxtalashtirish, o‘chirib qayta yozish yoki unga boshqa sana qo‘yish hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibi, fuqarolarning huquq va manfaatlari uchun xavf tug‘dirishi mumkin.

Ko‘pgina jinoyatlarning tarkibini ifodalay turib, qonun shu orqali insonning jinoiy xulq-atvori mazmunida aks etgan muayyan andazani o‘ziga xos shaklda qayta ishlab chiqaradi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining sakkizinchi bobiga muvofiq, *harakatsizlik* deganda, shaxsning normativ hujjatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni bajarmasligida ifodalangan ijtimoiy xavfli, ongli va sust xulq-atvorini tushunish kerak. Demak, jinoiy-huquqiy harakatsizlik – shaxsning muayyan sharoitlarda sodir etishi kerak va mumkin bo‘lgan u yoki bu harakatni bajarmasligidan iborat sust xulq-atvori. Harakatsizlik jinoyat tarkibining obyektiv tomoni singari ijtimoiy xavfli, harakat kabi aniqdir. Bu shaxsning o‘ziga qat’iy ravishda yuklatilgan vazifalarni bajarmasligida yoki tegishli darajada bajarmasligida ifodalanadi.

Amaldagi jinoyat qonuni harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik belgilovchi qiyosan uncha ko‘p bo‘lmagan normalar miqdorini o‘z ichiga olgan. Bu kabi barcha hollarda shaxsning zimmasiga voqealar rivojining jinoiy oqibatni keltirib chiqarishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun muayyan tartibda harakat qilish borasida maxsus majburiyat yuklatilgan bo‘lsa, harakatsizlik jinoiy jazoga loyiq deb topiladi.

Muayyan tartibda harakat qilish majburiyati turli huquqiy asoslardan kelib

chiqishi mumkin. Birinchidan, bunday majburiyat qonunning o‘zi bilan belgilandi. Jinoyat-protsessual kodeksning 66-moddasiga binoan, guvoh tariqasida chaqirilgan shaxs ko‘rsatma berishi kerak. Guvohning ko‘rsatma berishdan bosh tortishi yoki bo‘yin tovlashi Jinoyat kodeksining 240-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini hosil qiladi. Ikkinchidan, ushbu majburiyat xizmat yoki kasbiy vazifalardan kelib chiqishi mumkin. Xususan, ichki ishlar idoralari xodimlari jinoyatning har qanday ko‘rinishlarini to‘xtatishlari, yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlari o‘z xizmat vazifalariga binoan yong‘in o‘chog‘ini yo‘q qilishi, hatto o‘z salomatligi va hayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa ham yong‘inda qolgan odamlarga yordam ko‘rsatishi kerak. Shifokor kasbiga ko‘ra bemorga tibbiy yordam ko‘rsatishga majbur. Yordam ko‘rsatmaslik Jinoyat kodeksi 116-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, u qarindoshlik yoki oilaviy munosabatlardan kelib chiqishi ham mumkin. Masalan, ota-onalar o‘zlarining voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz farzandlariga yordam ko‘rsatishlari va ularni moddiy qo‘llab-quvvatlashga majbur. Sub’yektlarning bu majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlashi Jinoyat kodeksining 122-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi. To‘rtinchidan, muayyan tartibda harakat qilish shaxsning o‘z harakatlari bilan atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan ilgarigi xatti-harakatidan kelib chiqishi ham mumkin. Demak, o‘rmonda olov yoqqan fuqaro uni albatta o‘chirishi shart.

Shaxsning harakatsizligi sababli jinoiy javobgarlikka tortish uchun mavjud huquqiy majburiyatlarni aytib o‘tishning o‘zi kamlik qiladi. Shuningdek, ushbu aniq sharoitda shaxsning undan talab etiladigan aniq imkoniyatdan foydalanmaganligini bilib olish zarur. Faqat shunday sharoitdagina harakatsizlik jinoiy-huquqiy ahamiyat kasb etadi va jinoyatning muqarrar tarkibi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlikni o‘rnatuvchi normalarni tahlil etish, ularning turlicha tuzilganligini ko‘rsatadi. Ulardan biri oqibatni keltirib chiqaruvchi harakatsizlikni javobgarlik bilan belgilaydi. Jinoyat kodeksining 232-moddasini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu moddada sud qarorini ijro etmaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Boshqasida esa muayyan oqibatning kelib chiqishi harakatsizlik bilan bog‘lanadi. Masalan, mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-m.) uchun faqat qo‘riqlanadigan obyektga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilgan hollarda kelib chiqadi.

Jinoyat qonunida nazarda tutilgan ko‘pgina jinoyatlar faqat harakat tufayli sodir etiladi. Masalan, mulkka har qanday g‘arazli tajovuz, mansab yoki hokimiyat vakolatini suiiste’mol qilish, bezorilik va boshqalar faqat harakat orqali sodir etiladi.

Shu bilan birga, ayrim jinoyatlar harakatsizlik orqali sodir etiladi. Masalan, kasb yuzasidan o‘zining vazifasini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-m.), xavf ostida qoldirish (JK 117-m.), hokimiyat harakatsizligi (JK 208-m.) kabi jinoyatlar faqat harakatsizlik yo‘li bilan sodir etiladi.

Keng tarqalgan bir qator jinoyatlar ham harakat, ham harakatsizlik yo‘li

bilan sodir etilishi mumkin: odam o‘ldirish (JK 97, 99-m.), badanga shikast yetkazish va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Jinoyat huquqida faqat insonning ongli faoliyatidagi irodaviy harakat hisoblangan harakat yoki harakatsizlik jinoyat tarkibi sifatida tan olinadi. Biroq, turli holatlarning ta’siri natijasida jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lgan aqli raso shaxsning irodasi jinoyat sodir etish jarayonida qisman yoki butunlay karaxt holda bo‘lishi mumkin va bu shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga oid masalani hal etishga turlicha ta’sir qiladi. Bunday holatga yengib bo‘lmas kuchning ta’siri, jismoniy hamda ruhiy majburlash kiradi.

Yengib bo‘lmas kuchning ta’siri deganda, tabiiy ofatlar va tabiat hodisalarining ta’siri, mexanizmlar, texnik moslamalar, odamlar, hayvonlar, shaxsga muayyan harakatni erkin bajarishiga imkon bermagan inson organizmidagi kasallik jarayonlarining ta’siri tushuniladi. Yengib bo‘lmas kuch ta’siri ostida jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga biror-bir zarar yetadi, shaxsning mo‘ljallagan yo‘nalishdagi harakatni bajarish imkoniyatidan mahrumligi tufayli uning qilmishida jinoyat tarkibi bo‘lmaydi. Shunday qilib, bunday qilmish (harakat yoki harakatsizlik)da muhim belgi – inson erkin tanlashdan mahrum etilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, agar shaxs o‘zining xatti-harakati bilan yengib bo‘lmas kuchni vujudga keltirsa va jinoyat sodir etsa, masalan, spirtli ichimlik ichib, mast bo‘lsa, u harakat qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, u holda yengib bo‘lmas kuchga havola qilib, uni e’tiborga olib bo‘lmaydi.

Jismoniy majburlash deganda, insonning boshqa shaxs tomonidan muayyan harakat qilish yoki uni qilmaslikka doir ixtiyoridan, ya’ni o‘zining xulq-atvori, xatti-harakatini boshqarishdan mahrum etishga qaratilgan jismoniy ta’sir (zo‘rlik bilan yopiq xonaga kiritish, urish va zarbalar berish bilan bog‘liq) o‘tkazishi tushuniladi. Bunday vaziyatda majburlanuvchi boshqa shaxsning qo‘lidagi qurolga aylanadi va shuning uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Agar jismoniy majburlangan shaxs bir qadar o‘zining harakatini boshqara olish imkoniyatini saqlab qolgan bo‘lsa, u holda yetkazilgan zarar uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 38-moddasidagi holatlarni hisobga olib hal etiladi. Agar jismoniy majburlashning intensivligi (masalan, yuzga kuchsiz zarb bilan bir shapaloq urish) kam va yengish oson bo‘lsa va shu tufayli majburlashga duchor bo‘lgan shaxs uni zararsizlantirish yoki yengishga qodir bo‘lsa, bunday vaziyatda u ongli ravishda tanlab harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sub’yektning tanlab sodir etgan qilmishi uni jinoiy-huquqiy javobgarlikdan ozod etmaydi hamda bu uchun u javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ruhiy majburlash deganda, shaxsni o‘ldirish yoki uning shaxsiga o‘zga jismoniy zo‘rlik o‘tkazish, mulkini yo‘qotish yoki uning biror-bir hayotiy manfaatlarini buzish bilan qo‘rqitib, jinoyat sodir etishga majburlash tushuniladi. Ruhiy majburlov jarayonida shaxs zarur harakatni bajarish va, aksincha, uni bajarmaslik imkoniyatiga ega bo‘ladi, biroq u o‘zining o‘ldirilishi yoki muhim qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishidan cho‘chib, buni bajarmaydi.

Aynan ushbu turdagi majburlovda, yani qo‘rqitish ta’siri ostida sodir etilgan qilmishda, umumiy qoidaga binoan, shaxsda bo‘lgan haqiqiy imkoniyatga ko‘ra jinoiy javobgarlik istisno etilmaydi.

Faqat istisnoli hollardagina, agar qonunga xilof qilmish oxirigi zarurat (JK 38-m.) holatida sodir etilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Masalan, tijorat korxonasining xazinachisi o‘qotar qurolni ishlatish bilan tahdid qilgan jinoyatchiga inkassator tomonidan tayyorlab qo‘yilgan pul to‘la xaltani bersa, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, chunki aybdorga pulni berish oxirgi zarurat holatida, yuzaga kelgan vaziyatdagi xavfni bartaraf etish uchun sodir etilgan va boshqa vositalar bilan uni yo‘qotish mumkin emas edi, pulni berish vaqtida yetkazilgan zarar esa, bartaraf etilgan zararga (insonni qutqarishga) qaraganda kam ahamiyatli.

Jinoiy javobgarlik uchun ijtimoiy xavfli, qonunga xilof xatti-harakatning obyektiv mezonlari katta ahamiyatga ega. U qo‘riqlanadigan obyektlarga faqat bilvosita zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarnigina emas, balki jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish (JK 25-m. 1-q.), dalolatchi, yordamchi (JK 28-m. 4, 5-q.) bilan bog‘liq harakatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, jinoyat qilish niyatini namoyishkorona aytish jinoyatning obyektiv tomonini hosil qilmaydi, chunki u qasdni amalga oshirishga yo‘naltirilgan aniq harakat sodir etish bilan mustahkamlanmagan bo‘ladi.

## 3. Jinoiy oqibat

Har qanday jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki, uning sodir etilishi jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi yoki bunday zarar yetkazishning haqiqiy imkoniyatini vujudga keltiradi. Aynan ijtimoiy xavfli qilmishning tajovuz obyektiga zarar yetkazish imkoniyati muayyan harakat yoki harakatsizlikning jinoiy toifaga kirishini belgilaydi.

*Jinoiy oqibat* deganda, ijtimoiy xavfli qilmish natijasida jinoiy-huquqiy qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar (ziyon) yetkazish tushuniladi.

Jinoiy oqibatni, qayd etganimizdek, ba’zi hollarda kuzatish, hisobga olish, o‘lchash mumkin bo‘ladi, boshqa hollarda esa uni kuzatish, hisobga olish va o‘lchashning iloji bo‘lmaydi. Shulardan kelib chiqib, jinoiy oqibat ikki asosiy guruh: moddiy va moddiy bo‘lmagan guruhga bo‘linadi.

Jinoiy oqibatning xususiyatidan kelib chiqib, qonun chiqaruvchi jinoyat tarkibini ikki xil qilib belgilaydi. Agar jinoiy oqibat moddiy xususiyatga ega bo‘lib, uni aniqlash va hisobga olish mumkin bo‘lsa, qonunda ular jinoiy-huquqiy normalarning dispozitsiyasida aytib o‘tiladi. Obyektiv tomonning muqarrar belgisi oqibat hisoblangan jinoyat tarkiblari moddiy jinoyatlar deb ataladi. Odam o‘ldirish, badanga shikast yetkazish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash va boshqa ko‘pgina jinoyatlar unga kiradi.

Qonunda jinoyatning moddiy tarkibi doirasidagi oqibat konstruktiv yoki jinoyat tarkibining kvalifikatsiya qilinuvchi belgisi sifatida ko‘rsatiladi. Masalan, mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-m.1-q.)ning asosiy tarkibida jinoyat tarkibining konstruktiv belgisi sifatida jinoiy oqibat «mansabdor

shaxsning o‘z vazifalariga loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda bo‘lishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki moddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lsa» kabi tavsiflanadi. Bu jinoyatning kvalifikatsiya qilinadigan tarkibi nuqtai nazaridan obyektiv tomon quyidagicha tavsiflanadi: «o‘sha qilmish badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa» (JK 207-m. 2-q.).

Agar jinoyat moddiy bo‘lmagan oqibatni keltirib chiqarsa, hajmini o‘lchab bo‘lmaydigan yoki qonun ularning kelib chiqishi ishonchli ekanligini tasdiqlab, jinoyat obyektiv tomoni muqarrar belgisining formal deb ataladigan tegishli tarkibiga kiritmaydi. Ushbu holatlarda ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik sodir etishning o‘ziyoq qonun talablariga binoan tamom bo‘lgan jinoyat deb topiladi. Umuman, bunday tuzilishga ega bo‘lgan jinoyatlarning tarkiblari ba’zida ijtimoiy xavfli harakat keltirib chiqarishini belgilash mumkin, biroq ular aniq jinoyatning muqarrar tarkibi hisoblanmaydi.

Masalan, bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish (139-m.) shaxsning qadr-qimmati va sha’niga tajovuz qiladi. Bu jinoyatning ijtimoiy-xavfli oqibati shaxsning qadr-qimmati va sha’ni hisoblanadi. Agar qonun bu oqibatni tuhmat tarkibining muqarrar belgilariga kiritganda edi, u holda qonunni qo‘llovchi tuhmat tarkibining mavjudligi yoki yo‘qligiga oid masalani jabrlanuvchining o‘zi haqida bila turib tarqatilgan uydirmalardan qay darajada sharmanda bo‘lganligiga qarab hal qilishi kerak edi. Shubhasiz, buni aniqlash juda qiyin, chunki ba’zi hollarda tuhmat bir jabrlanuvchiga jiddiy qayg‘u yetkazishi, boshqasi uchun esa bilinmay o‘tib ketishi mumkin. Tuhmat orqali yetkazilgan ma’naviy zararni aniq belgilab bo‘lmaydi, zararning hajmini aniqlash ham mushkul. Shuning uchun ham qonun haqli ravishda bu tarkibni muayyan jinoiy oqibatning kelib chiqishi bilan bog‘lamaydi.

Aniq bir jinoyat tarkibining har qanday hollarda birinchisi yoki ikkinchisiga tegishliligini aniq belgilash, masalan, muayyan qasdning mazmunini belgilashda, suiqasd, ishtirokchilik uchun javobgarlikka oid ko‘pgina masalalarni hal etish uchun jiddiy ahamiyatga ega. Agar tarkib moddiyga tegishli bo‘lsa, u holda huquqni qo‘llovchi jinoyatga suiqasdning xususiyati va zararning aybdorning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda kelib chiqmaganligini aniq belgilashi kerak. Ba’zan buning uchun malakali sud tibbiy, texnik, tovarshunoslik, hisobchilik va boshqa turdagi ekspertizalar o‘tkazilishi zarur.

Agar tamom bo‘lgan jinoyatlar xususida so‘z yuritilsa, u holda moddiyga kiritilgan tarkiblarning tegishliligi yana bir masala – shaxsning harakati (yoki harakatsizligi) va ijtimoiy oqibat o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudligi yoki yo‘qligi talab qilinadi.

Bundan tashqari, shuni nazarda tutish kerakki, ular jinoyatning formal tarkiblari deb ataladigan ularga yetkazilgan zarar qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Misol tariqasida ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini ko‘rsatadigan uyushgan qurolli guruh tuzish, unga rahbarlik qilish yoki unda

ishtirok etish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi 242-moddasining 2-qismini keltirish mumkin. Shuning uchun, agar uyushgan qurolli guruhning hujumi natijasida og‘irlashtiruvchi holatda odam o‘ldirilsa, ya’ni jabrlanuvchi o‘ldirilsa, qilmish Jinoyat kodeksi 242-moddasining 2-qismi va 97-modda 2-qismining tegishli bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyatning formal deb ataladigan tarkiblarida harakat yoki harakatsizlik oqibatida yetkazilgan zararning xususiyati va hajmi ko‘rsatkichlarining yo‘qligi jinoiy oqibat jinoyat tarkibining fakultativ tarkibi sifatida namoyon bo‘lishidan darak bermaydi. Jinoiy oqibat – obyektiv kategoriya, u qonunni aniqlashtiruvchi va rasmiy tartibga soluvchi qonun chiqaruvchining irodasidan qat’i nazar, mavjud bo‘ladi. Agar jinoyat qonunida ko‘rsatilgan u yoki bu qilmish muayyan zarar yetkazmas, uning kelib chiqish xavfini tug‘dirmas ekan, u ijtimoiy xavfli bo‘lishi mumkin emas, shu bilan birga, jinoyat ham bo‘lmaydi.

## 4. Ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish

Sababiy bog‘lanish, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, jinoyat moddiy tarkibining obyektiv belgisi hisoblanadi. Kelib chiqqan jinoiy oqibat uchun, qachonki ular shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lsagina, shaxsning jinoiy javobgarligi xususida so‘z yuritilishi mumkin. Agar jinoiy oqibat boshqa shaxsning g‘ayriqonuniy harakati yoki harakatsizligi tufayli vujudga kelgan yoki boshqa biror sababga ko‘ra kelib chiqqan bo‘lsa, u holda ushbu shaxs buning uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Shuning uchun ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, jinoyat qonuni sababiy bog‘lanish masalalarini tartibga solmaydi. Shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyoti ularga yetarli darajada jiddiy e’tibor bermaydi. Bu belgini yetarlicha baholamaslik, buning uchun obyektiv asoslar yo‘q bo‘lganda, shaxsning noto‘g‘ri jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Jinoyat huquqi nazariyasida *sababiy bog‘lanish* bir hodisa (sabab) qonuniy, ichki zarurat orqali ikkinchi hodisa (oqibat)ni keltirib chiqargan taqdirda, hodisalar o‘rtasidagi munosabat kabi belgilanadi.

Tergov-sud amaliyotida ko‘pgina qilmish va oqibat o‘rtasida kelib chiqqan sababiy bog‘lanish mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi masalani hal etishda unchalik qiyinchilik tug‘ilmaydi (masalan, shaxs jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish maqsadida yuragiga pichoq uradi, natijada o‘lim yuz beradi).

Biroq, ayrim hollarda sababiy bog‘lanishni aniqlash anchagina qiyinchilik tug‘diradi. Bunday muammo, agar sodir etilgan qilmish va kelib chiqqan oqibatda vaqt bo‘yicha zararli oqibat boshqa xavf manbaidan kelib chiqishi

ham mumkinligini taxmin qilishga imkon beradigan farq bo‘lsagina, kelib chiqadi. Fuqaroni tishlab olgan itning egasi jinoiy javobgarlikka tortilgan hollar tarixdan ma’lum, jabrlanuvchi bir necha kun o‘tgandan so‘ng go‘yo quturgan it tishlaganligi tufayli o‘lgan. Aslida esa, keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, jabrlanuvchining o‘limi quturish bilan emas, balki boshqa yuqumli kasallik tufayli yuz berganligi aniqlangan.

Shaxsning ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligi tashqi xulq-atvorning irodaviy harakati kabi qandaydir biror holat bilan ifodalanadi. Bu huquqqa xilof harakatning o‘ziyoq boshqa hodisa va holatni ifodalaydi. Ushbu qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik kelib chiqqan jinoiy oqibatning sababini tushunish uchun huquqni qo‘llovchi ularni umumiy aloqalardan sun’iy ravishda ajratib qo‘yishi kerak va o‘shanda ulardan biri sabab, ikkinchisi esa – uning oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Sababiy bog‘lanishlarni huquqni qo‘llash amaliyotini aniqlash jarayoni muayyan talablarga oid ehtimol tutilgan sabablar kabi qabul qilinadigan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning tegishli xususiyatiga taalluqliligini belgilash bilan bog‘liq bir qator bosqichlarda puchga chiqadi.

Agar qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyati jinoyat huquqi normalari dispozitsiyasida bayon etilgan bo‘lsa, u holda shaxsning harakati yoki harakatsizligi faqat qonunda ko‘rsatilgan jinoyatning obyektiv tomonlariga mos kelgan hollardagina ehtimol tutilgan sabab kabi namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday muvofiqlik bo‘lmagan taqdirda shaxsning qilmishi har qanday sharoitda ham oqibatni keltirib chiqargan sabab kabi ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Bu holat, birinchi navbatda, qachonki muayyan qoidalar va yo‘riqnomalarning buzilishi jinoyat obyektiv tomonning belgilari bo‘lgan taqdirdagina hisobga olinishi zarur. Masalan, transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jabrlanuvchining badaniga o‘rtacha yoki og‘ir shikast yetkazilishiga (1-q.) yoki jabrlanuvchining o‘lishiga (2-q.), ikki yoki undan ortiq shaxsning o‘lishiga (3-q.) sabab bo‘lsa, Jinoyat kodeksining 266-moddasiga ko‘ra, javobgarlik belgilangan. Bu kabi holatlarda haydovchining qandaydir maxsus qoida (yo‘llarda harakatlanish qoidalari va transportdan foydalanish qoidalari)ni buzgan-buzmaganligini, ko‘rsatilgan oqibat bu qoidalarning buzilmaganligi tufayli ham kelib chiqishi mumkinligini aniqlash kerak. Xuddi shundan kelib chiqib, transport haydovchisining harakati yoki harakatsizligi, agar ular o‘zicha tegishli qoidalarning buzilishini hosil qilmasa, Jinoyat kodeksining 266-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan oqibatning sababi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Shunday qilib, qonun qilmishning muayyan xususiyatidan qat’i nazar, yetkazilgan muayyan jinoiy oqibat uchun javobgarlik belgilangan joyda kelib chiqqan oqibat uchun aybdor bo‘lgan shaxsning xatti-harakati uning sababi kabi ko‘rib chiqilishi mumkin. Demak, odam o‘ldirish yoki sog‘liqqa turli og‘irlikda zarar yetkazishning sababi turli-tuman harakatlar: pichoq urish, o‘qotar quroldan otish, zahar berish, bo‘g‘ish va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Sababiy bog‘lanishning so‘nggi bosqichini aniqlash sabab va oqibat sifa-

tida qabul qilinadigan hodisalarning tashqi ketma-ketligini belgilab olish hisoblanadi. Sabab har doim vaqt bo‘yicha oqibatdan oldin keladi. Oqibat sabab paydo bo‘lmasdan va amal qilmasdan oldin kelib chiqishi mumkin emas. Shu yerdan shaxsning kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatning sababi sifatida qabul qilinadigan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun javob beradigan ikkinchi muqarrar talabni ifoda etish mumkin. Sub’yektning ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligi, agar ular oqibat kelib chiqqan vaqtdan oldin paydo bo‘lsa, jinoiy oqibatning sababi deb tan olinishi mumkin. Boshqacha aytganda, har bir jinoyat ishida harakatning sodir etilganligi yoki etilmaganligi zararli oqibatlarning kelib chiqqan vaqtiga qadar o‘rganiladi.

Biroq, ijtimoiy xavfli qilmishning vaqt bo‘yicha kelib chiqqan oqibatdan oldin paydo bo‘lganligi faktini aniqlashning o‘zi hali ular o‘rtasida sababiy bog‘lanishlarning yetarlicha mavjudligi xususida xulosa qilishga imkon bermaydi.

Vaqt bo‘yicha kechroq kelib chiqqan jinoiy oqibat, agar bu harakat yoki harakatsizlik bevosita yoki yaqin sababga ko‘ra bo‘lsa yoki kelib chiqqan oqibatning zarurat tufayli rivojlanganligini aniqlab beruvchi jiddiy aloqalarning mavjudligi munosabati bilan ushbu g‘ayriqonuniy oqibat kelib chiqishining real imkoniyatini o‘z ichiga olsa, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi bilan sababiy bog‘lanishda ko‘rib chiqilishi mumkin. Bunday sharoitda, agar u bo‘lmagan taqdirda, ushbu oqibat umuman kelib chiqmasligini hisobga olish zarur.

Agar shaxsning harakati yoki harakatsizligi aynan oqibat rivojlanayotgan ushbu yo‘nalishdagi holatning rivoji zarurat bilan belgilanmaydigan oqibatning shart-sharoitlaridan biri hisoblangan hollarda, u mazkur harakat yoki harakatsizlikka nisbatan tasodifiy hisoblanadi. Bu kelib chiqqan oqibat uchun shaxsga jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi masalani qo‘yishga asos bo‘lmaydi.

Masalan, Toshkent shahar tuman sudlaridan biri M. ga nisbatan oqlov hukmi chiqara turib, shaxs tomonidan transport harakati va undan foydalanish qoidalarining buzilishi (avtomobilda oyoq tormozi bo‘lmagan) transportdan foydalanish qoidalarining buzilishi va jabrlanuvchini bosib ketib, uning o‘limiga olib kelgan fakt o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudligining isboti hisoblanmasligini mutlaqo to‘g‘ri ko‘rsatgan. Sudning ko‘rsatishicha, jabrlanuvchining qo‘pol ehtiyotsizligi uning o‘limiga sabab bo‘lgan. U qattiq mast holatida bo‘lib, yo‘lga yugurib chiqqan va besh metr naridan kelayotgan mashina g‘ildiragi ostiga yiqilgan. Avtomobil tormozi soz bo‘lib, yaxshi ishlagan taqdirda ham, kelib chiqqan jinoiy oqibatning oldini ololmagan bo‘lar edi. Bu tergov eksperimenti bilan tasdiqlandi.

Shunday qilib, faqat subyektning ijtimoiy xavfli qilmishi va kelib chiqqan zararli oqibat o‘rtasidagi zarur sababiy bog‘lanish kelib chiqqan jinoiy oqibat uchun jinoiy javobgarlikning muqarrar obyektiv sharoiti sifatida e’tirof etiladi. Zarur sababiy bog‘lanishni aniqlash ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va jinoiy oqibat o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligini tadqiq etishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

### 5. Jinoyat sodir etish vaqti, joyi, holati, uslubi,

**qurol va vositalari**

Har bir jinoyat muayyan joyda, vaqt oralig‘ida, holatlarda, u yoki bu uslub, aniq qurol yoxud vositalar bilan sodir etiladi. Bu holatlar doimo jinoyatning obyektiv tomoniga taalluqli bo‘lib, ularning jinoiy-huquqiy ahamiyati turlichadir. Sanab o‘tilgan belgilardan har biri, agarda u Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyasida nazarda tutilgan bo‘lsa, unda jinoyat tarkibining asosiy shartli belgisi sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa uni so‘zsiz aniqlashni talab qiladi. Aniq sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda bu holatlarning yo‘qligi shaxsning harakatida mazkur jinoyat tarkibining yo‘qligidan dalolat beradi. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining ko‘rsatilgan belgilarining yuridik ahamiyati, eng avvalo, ular jinoyatlarning umumiy tarkibi doirasida fakultativ belgi hisoblanishi, aniq jinoyat tarkibida esa, agar ular modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan bo‘lsa, asosiy belgi tusini olishidir. Asosiy belgilar sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini oshiradi va jinoyat tarkibining asosiy yoki kvalifikatsion belgilarining konstruktiv belgilari sifatida namoyon bo‘ladi va ular jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga ta’sir qiladi. Mazkur jinoyat tarkiblari uchun fakultativ belgilar shartli hisoblanmaydi, lekin ular ham javobgarlikka ta’sir qiladi, shuning uchun javobgarlik va jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida inobatga olinadi (JK 55 va 56-m.).

Shuni ta’kidlash kerakki, sanab o‘tilgan holatlarda vaqt, joy va holat jinoyatni tashqi tomondan ifodalaydi va jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga turli xil jinoiy tajovuzlarni tartibga solish sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, boshqa belgilar – usul, qurol va vositalar qilmish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bevosita qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni ifodalaydi.

Jinoyatni sodir etish *vaqti* deganda, nafaqat yil, oy, hafta yoki sutkaning muayyan qismi, balki alohida sharoitni yuzaga keltiruvchi birir voqea yuz beradigan davr ham tushuniladi. Masalan, mazkur belgi Jinoyat kodeksining 202-moddasida hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan, chunki javobgarlikning sharti sifatida hayvonot dunyosining turlarini yilning ov taqiqlangan davrida ovlash mumkin emasligi qayd etiladi. Ikkinchi ma’noda ko‘rib chiqilayotgan belgi qonunda tez-tez ishlatiladi. Chunonchi, jinoyatning muqarrar belgisi sifatida Jinoyat kodeksining 99-moddasida onaning o‘z chaqalog‘ini «qasddan o‘ldirishi» tug‘ish vaqtida yoki tug‘ishi hamon amalga oshirishi mumkinligi ko‘zda tutiladi. Bezorilikning og‘irlashtiruvchi belgisi sifatida «ommaviy tartibsizliklar jarayonida» sodir etish holati ko‘zda tutilgan (JK 277-m. 3-q. «в» b.).

Jinoyat sodir etish *joyi* deganda jinoiy qilmish sodir etilgan ma’lum hudud tushuniladi. Ayrim jinoyatlarda jinoyat sodir etish joyi jinoyat tarkibining tuzilish belgisi hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 204-moddasi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish uchun javobgarlikni belgilaydi. Jinoyat kodeksining 114-moddasida jinoiy abortning javobgarlikka olib keluvchi belgilaridan biri sifatida tibbiyot muassasalaridan

boshqa joylarda homilani tushirish ko‘rsatilgan. Ayrim hollarda jinoyat sodir etish joyi qilmishning xavflilik darajasini jiddiy oshiradi, shu sababli jinoyat sodir etish joyini javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgi sifatida ajratish talabi paydo bo‘ladi. Masalan, bosqinchilik, talonchilik va o‘g‘rilik jinoyatlarining og‘irlashtiruvchi belgisi sifatida bu jinoyatlarni uy-joy, omborxona yoki boshqa binoga g‘ayriqonuniy kirib sodir etish ko‘rsatilgan (JK 164-m. 3-q. «в» b., 166-m. 3-q. «б» b., 169-m. 2-q. «г» b.).

Jinoyat qonunining makon bo‘yicha amal qilishiga doir masalani hal qilish bilan bog‘liq jinoyat sodir qilingan joyni aniqlash alohida ahamiyatga ega. Masalan, agar ijtimoiy xavfli harakat bir joyda sodir etilsa, jinoiy oqibat boshqa joyda kelib chiqadi yoki bir necha davlat hududida sodir etiladi (davom etadigan va uzoqqa cho‘ziladigan jinoyat)[1]. Jinoyat sodir etish joyi jazoni individuallashtirishga ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida (JK 56-m. 1-q. «i» b.) jinoyat sodir etilgan holat, birinchi navbatda, bu sharoitlar mavjud bo‘lgan hududiy chegaralarni aniqlashni talab qiladi.

Jinoyat sodir etilgan *holat* deganda jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinadigan sharoitlardagi o‘zaro aloqada bo‘lgan omillar (odamlar, moddiy ashyolar, tabiiy va ijtimoiy jarayonlar) yig‘indisi tushuniladi.

Holatning jinoyatga ta’siri uning ijtimoiy xavfli qilmishni o‘zgartirish qobiliyatidan iborat. Boshliqni o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish, faqat u «jangovar vaziyatda» qonun tomonidan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat kabi baholangan taqdirda, Jinoyat kodeksining 282-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar shunga o‘xshash harakat boshqa sharoitlarda, ya’ni «jangovar bo‘lmagan vaziyatda» sodir etilsa, qilmish Jinoyat kodeksining 112-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak, chunki Jinoyat kodeksining 15-moddasiga binoan, uning tarkibi ijtimoiy xavfi uncha katta bo‘lmagan jinoyat hisoblanadi.

Ayrim jinoyatlarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish holati uning kvalifikatsiya qilinadigan (masalan, bo‘ysunmaslik – JK 279-m. 3-q., buyruqni bajarmaslik –JK 280-m. 2-q., badanga shikast yetkazish –JK 283-m. 3-q. ning jangovar vaziyatda sodir etilishi) tegishli turiga aylanishi funksiyasini bajaradi yoki, aksincha, imtiyoz beruvchi uncha qattiq bo‘lmagan jazoni nazarda tutuvchi ijtimoiy xavfliligining qisman kamaytirilishi tufayli asosiy tarkibga aylanadi. Shunday qilib, badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish Jinoyat kodeksining 104 va 105-moddalari bilan, bu harakat kuchli ruhiy hayajon holatida sodir etilganda Jinoyat kodeksining 106-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi (chunki bu holat murakkab vaziyat orqali kelib chiqqan).

Ko‘rsatilgan vaziyatlarda holat jinoyat obyektiv tomonining muqarrar belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. U fakultativ belgi sifatida qilmishning (masalan, yong‘in, zilzila, suv toshqini va boshqalarda o‘g‘rilik qilish) ijtimoiy xavfliligiga ta’sir qiladi va jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi ho-

[1] Bu haqda batafsil bilish uchun mazkur darslikning XII bobiga qarang.

lat (JK 55 va 56-m.) sifatida hisobga olinishi kerak.

Jinoyat sodir etish *usuli* shaxsning jinoiy niyatini amalga oshirishi uchun foydalangan ketma-ket harakat usullari va yo‘llarining muayyan tartiblarini ifodalaydi. Jinoyat sodir etish usuli qilmish bilan uzviy bog‘liq. U qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning qay tarzda bajarilganligi va bunda yo‘l va usullarning qanday uzviylikda qo‘llanilganligini ko‘rsatish orqali tavsiflashda muhimdir. Ayrim hollarda jinoyat sodir etish usuli uning darajasi va qilmishning ijtimoiy xavfliligi xususiyatiga shunchalik ta’sir ko‘rsatadiki, u qonun tomonidan jinoyatning asosiy yoki kvalifikatsiya qilinadigan muqarrar belgisi kabi qabul qilinadi. Jinoyat sodir etishda zo‘rlik ishlatish usuli qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qanchalik ta’sir ko‘rsatsa, umuman, barcha jinoyatlar (odam o‘ldirish, bosqinchilik, talonchilik va h.k.)ning mohiyatida shunchalik muhim darajada ifodalanadi.

Ko‘pincha jinoyat sodir etish usuli ijtimoiy xavfli qilmishning o‘ziga xosligini, ba’zida esa, aksincha, jinoyat uchun javobgarlik mezonlarini cheklashni aniqlab beradi. Demak, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish (JK 103-m.), agar u jabrlanuvchi bilan shafqatsiz muomala qilish yoki uning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil kamsitilgan usulda sodir etilgan taqdirdagina jinoyat deb topilishi mumkin. Boshqa usullar bilan, masalan, aldov yo‘li bilan o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish shaxsni Jinoyat kodeksining 103-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘la olmaydi.

Jinoyat sodir etish usuli faqat u jinoyat qonuni moddasining dispozitsiyasida jinoyat tarkibining asosiy yoki kvalifikatsiya qilinadigan muqarrar belgisi sifatida ko‘rib chiqilganda emas, balki jinoyat qonunining tegishli moddasida bunday belgilar sifatida ko‘rib chiqilgan taqdirdagina jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Demak, Jinoyat kodeksi 56-moddasi 1-qismining «д» va «е» bandlariga ko‘ra, o‘ta shafqatsiz usulda jinoyat sodir etish jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi kerak.

Ayrim jinoyat tarkibining ijtimoiy xavfliligi, agar u muayyan qurollar va vositalardan foydalanish bilan sodir etilsa, ancha oshadi.

Jinoyat sodir etish *quroli* – uning yordamida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etiladigan va ijtimoiy munosabat unsurlariga ta’sir ko‘rsatish uchun aybdor foydalanadigan narsalar. Jinoyat sodir etish *vositalari* deganda jinoyat sodir etishni ancha osonlashtiradigan narsalar tan olinadi. Qurol va vositalarning jinoiy-huquqiy ahamiyati shundaki, ular ko‘pincha kerakli darajada jinoyatlarning kvalifikasiyasiga ta’sir ko‘rsatadi, ba’zida ulardan foydalanish aybdor shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jazoni jiddiy og‘irlashtirishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 277-moddasi 3-qismining «б» bandida nazarda tutilganidek, o‘qotar qurolni ko‘rsatib, uni qo‘llash bilan qo‘rqitish orqali sodir etilgan bezorilik uchun javobgarlikda qurol va vositalar kvalifikatsiya qilinadigan muqarrar belgi sifatida ko‘rsatiladi. Hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishda quruqlikdagi, suvdagi va havodagi mexanizatsiyalashgan vositalardan foydalanish shaxsning bu jinoyatni sodir etishini ancha osonlashtiradi, shuning uchun bunday hollarda jinoiy javobgarlik

belgilanadi (JK 202-m. «v» b.).

Qurol va vositalar ko‘pchilik uchun xavfli usulda (JK 56-m. «e» b.) sodir etilgan vaqtda jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘pchilik odamlar to‘planib turganda portlatish qurilmalari yoki o‘qotar qurol ishlatish shunday holatga kiradi.

Qurol va vositalarni jinoyat obyektiv tomonining muqarrar belgisi qatoriga kiritish faqat Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining emas, balki Jinoyat kodeksi Umumiy qismi moddalari dispozitsiyalarining tuzilish xususiyatlari bilan ham ifodalangan. Shunday qilib, qurol va vositalar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish (JK 25-m. 1-q.), yordamchilik (JK 28-m. 5-q.), yashirishni (JK 31-m. 2-q.) aniqlashda uchun jinoiy javobgarlik shart-sharoitlari ifodalashda hisobga olinadi.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyatning obyektiv tomoni nimani anglatadi?
2. Jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi belgilarni aytib bering.
3. Jinoyat obyektiv tomonining ahamiyati va o‘rni nimada ifodalanadi?
4. Harakat va harakatsizlik nima?
5. Harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlik xususiyatlarini aniqlang.
6. Jismoniy va ruhiy majburlash deganda nima tushuniladi?
7. Ruhiy tazyiq natijasida jinoyat sodir etgan shaxs nima uchun hamma vaqt ham javobgarlikdan ozod qilinmaydi?
8. Jinoiy oqibatni tasniflash, uni farqlash mezonlarini ko‘rsating.
9. Ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish nimani anglatadi?
10. Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilarini ayting. Ularga qisqacha ta’rif bering.

## VII bob
## JINOYAT SUBYEKTI

### 1. «Jinoyat subyekti» tushunchasi

Jinoyatni har doim aniq jismoniy shaxslar sodir etadi. Shuning uchun ham jinoyat sodir etgan shaxs «jinoyatning subyekti» deb tan olinadi. Jinoyat subyektining yo‘qligi shaxsning harakatlarida jinoyat tarkibining o‘zi mavjud emasligini bildiradi.

Amaldagi jinoyatga oid qonunchilikda «jinoyat subyekti» tushunchasi belgilanmagan, lekin qonunning ayrim moddalarida sinonim sifatida «aybdor», «mahkum», «jinoyat sodir etgan shaxs», «jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxs» va shu kabi boshqa atamalar ishlatiladi. Umumiy ma’noda olib qaralganda, jinoyat sodir etgan shaxs jinoyatning subyektidir. Jinoyat subyekti tor va maxsus ma’nosiga ko‘ra, jinoyat qonunida belgilangan jinoyatni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan va jinoyat huquqi prinsiplariga asosan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxs.

Jinoyat sodir etish subyekti faqat jismoniy shaxs bo‘lishi to‘g‘risidagi qoida Jinoyat kodeksining ayrim moddalari mazmunidan kelib chiqadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 11, 12 va 17-moddalarida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jinoyat subyekti bo‘lishi va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Qonun chiqaruvchining jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo‘lishini belgilashi yuridik shaxslar, ya’ni tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va jamoat birlashmalari jinoyat subyekti bo‘lmasligini anglatadi.

Ijtimoiy xavfli harakat davlat korxonasi, muassasalar, tashkilot va jamoat birlashmalarida xizmat yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq holda sodir etilsa, bevosita yuklangan majburiyat yoki jinoiy-huquqiy taqiqlashni buzgan tegishli mansabdor shaxslar yoki boshqa xizmatchilar jinoyat subyekti hisoblanadi. Bunday jinoiy-huquqiy taqiqlash va majburiyatlar odamlarga nisbatan bo‘lib, ular buzilgan taqdirda jinoyat sifatida ko‘riladi.

Jinoiy-huquqiy tartibga solishning hozirgi zamon tajribasi jinoyat subyektiga kengroq yondashishni taqozo etadi. Jinoyat subyekti muammolarini kengroq ko‘rib chiqish, ya’ni nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslarni ham jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish, dunyo amaliyotida ayrim hollarda iste’molchi va jamiyat manfaatlari qarshiligini vujudga keltirgan katta korporatsiyalarning bozorni monopoliyalashtirish faoliyati davrida amalga oshdi. Erkin raqobatni, iste’molchi manfaatlarini himoya qilishda, iqtisodni, atrof tabiiy muhitni qo‘riqlashda, sog‘liqni saqlash va boshqa faoliyat sohalarini himoya qilishda ma’muriy, fuqaroviy-huquqiy choralarning samarasizligi oxirgi o‘n yilliklarda ko‘pgina davlatlarning yuridik shaxslar jinoiy javobgarligi muammosi masalasiga yangicha qarashga undadi, xususan, bu masala alohida davlatlar (Fransiya, AQSH, Angliya, Yaponiya va Finlyandiya)da

o‘zining qonuniy yechimini topdi[1].

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekistonning hozirgi davrdagi rivojlanishi yuqorida ta’kidlangan muammolarga u yoki bu darajada tegishlidir va ular iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayoni bilan birga kechadi. Bugungi kunda nafaqat kichik ishlab chiqarish korxonalari, balki yirik sanoat korxonalarini xususiylashtirish jarayoni ham faol ravishda amalga oshirilmoqda. Bunday vaziyatda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasi o‘z yechimini kutayotgan muammodir.

Jinoyat huquqi bo‘yicha faqat qonunda ko‘rsatilgan yoshga yetgan shaxs jinoyat subyekti bo‘lishi mumkin (JK 17-m.). Jinoiy javobgarlik belgilanadigan yoshni aniqlash, eng avvalo, shaxsning ijtimoiy shakllanishidan va jinoyat qonunchiligiga xos uslub va usullarni qo‘llashning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqadi.

Jinoyat subyektining aqli raso bo‘lishi shart, ya’ni u o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan bo‘lishi va ularni boshqara olishi shart. Aqli rasolik ayb va jinoiy javobgarlikning zaruriy shartidir. Faqat o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxslar, aybdorni tuzatish maqsadida, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Aqli noraso shaxslar o‘zining ruhiy kasalligi, vaqtincha aqlini yo‘qotganligi yoki boshqa kasalligi tufayli bunday tuzalish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ladi, shu sababdan ular jinoyat subyekti bo‘la olmaydi.

Aytib o‘tilgan uch belgi jinoyat subyektining umumiy huquqiy belgisi hisoblanadi. Bu belgilar barcha jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo‘lib, ulardan kamida bittasining yo‘qligi jinoyat tarkibining yo‘qligini anglatadi.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ba’zi moddalari ko‘rsatilgan umumiy belgilar bilan bir qatorda, aynan shu jinoyatga xos bo‘lgan boshqa belgilar bo‘lishini talab qiladigan subyektlar uchun javobgarlik belgilaydi. Bularga, masalan, xizmat yuzasidan (mansabdor shaxs, harbiy xizmatchi, tibbiy xodim) yoki fuqarolik (chet el fuqarosi, sudlanganlik) statusi yoki alohida jinoyatlar sodir etilganda ahamiyatli bo‘lgan boshqa shaxsiy sifatlar kiradi.

Shunday qilib, *jinoyatning subyekti* deb, jinoyat qonunida ko‘rsatilgan ijtimoiy xavfli harakatni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etgan, ma’lum yoshga to‘lgan, aqli raso, alohida hollarda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli normalarda ko‘rsatilgan maxsus belgilarga ega bo‘lgan jismoniy shaxsga aytiladi.

Jinoyat qonunchiligida «jinoyat subyekti» tushunchasi bilan birgalikda, «jinoyatchining shaxsi» tushunchasidan foydalaniladi, bu tushunchalar bir shaxsga – jinoyat sodir etgan shaxsga tegishlidir. Shu bilan birgalikda, ularning mazmuni, asosiysi yuridik ahamiyati bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. «Jinoyat subyekti» tushunchasi sodir etilgan jinoyatni yuridik kvalifikatsiya qilishda

---

[1] Qarang: *Якубов А. С.* Теоретические перспективы развития уголовно-правовой основы учения о преступлении. – Т., 1996. – С. 5–26.

jinoiy javobgarlik asoslarining bor-yo‘qligini aniqlash uchun qo‘llaniladi. «Jinoyatchining shaxsi» tushunchasi esa, javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash va jinoyat subyektiga jazoni individuallashtirish maqsadlarida qo‘llaniladi.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, jinoyat subyekti jinoyat tarkibining zaruriy elementidir. Jinoyat subyektini tavsiflovchi yuridik belgilar yo‘q bo‘lsa, jinoyat tarkibi ham, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos ham mavjud emas. Shuning uchun jinoyat tarkibini yuridik tahlil qilishda «jinoyat subyekti» tushunchasidan keng foydalaniladi.

Jinoyatchi shaxsining belgilari jinoyat subyekti belgilari bilan cheklanib qolmaydi. Jinoyatchining shaxsi jazoni va javobgarlikni qonunga muvofiq individuallashtirishda inobatga olinadigan ahamiyatli holatlardan biridir. «Jinoyatchining shaxsi» tushunchasi jinoyat sodir etgan odamning individual ijtimoiy, ruhiy va biologik xususiyatlari majmuini belgilovchi tushunchadir. Shuningdek, jinoyat huquqining vazifalaridan kelib chiqib, jinoyatchining shaxsi deganda, har qanday o‘ziga xos individual, ijtimoiy, ruhiy va biologik xususiyatlarga ega bo‘lgan, jinoyat qonuni bilan belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan odam tushunilishi lozim. Agarki, «jinoyat subyekti» tushunchasi, «jinoyatchi shaxsi» tushunchasining huquqiy negizi bo‘lsa, jinoyat subyektining belgilariga ega bo‘lmagan shaxs, jinoyatchining shaxsi sifatida qaralishi mumkin emasligini inobatga olish kerak.

Jinoyatchi shaxsining belgilari ham ba’zi hollarda jazoni individuallashtirish yoki undan ozod qilishga ta’sir etib, jinoiy-huquqiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday qilib, jinoyatchining shaxsi jazo turi va miqdorini aniqlashda (JK 54-modda 2-q.), jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holat sifatida (JK 55 va 56-m.), shartli hukm qilish masalasini hal qilishda (JK 72-m.) inobatga olinadi. Shu bilan birga, jinoyatchi shaxsining belgilari jinoyat subyektining belgilaridan farqli ravishda jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lmasligi ham mumkin. Ko‘pgina hollarda aybdorning millati, jinsi, voyaga yetgan yoshi, ma’lumoti, mashg‘ulot turi ahamiyatsiz hisoblanadi. Bu hamma belgilar, qoidaga muvofiq, jinoiy javobgarlik va jazoga ta’sir etmaydi. Shuning uchun jinoyatchining shaxsi jinoyat huquqida jinoiy javobgarlik va jazoni individuallashtirish masalalarini hal etish uchun yetarli bo‘lgan hajmda o‘rganiladi. Boshqa aspektlarda hajm jihatidan jinoyatchining shaxsi kriminologiya, kriminalistika, jinoyat protsessi va boshqa huquq sohalarida o‘rganiladi.

## 2. Jinoiy javobgarlikning vujudga kelish yoshi

Shaxsning jinoyat qonuni bilan belgilangan jinoiy javobgarlik yoshiga yetganligi jinoyat subyektining zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikni qo‘llash amaliyoti inson ruhiy rivojlanishining o‘ziga xos barqaror darajasini to‘liq namoyon qiluvchi bu xususiyatni tanlashga qonunan olib keldi. Jinoiy javobgarlik maqsadiga muvofiq, shaxsning yoshiga u o‘zi harakatlari mohiyatini anglash va ularni boshqarish qobiliyatining obyektiv

xususiyati sifatida qarash lozim. Shu bilan birga, jinoyat qonuni ayrim odamlarning o‘rnatilgan minimal yoshi talab qiladigan ruhiy rivojlanish darajasiga ilgariroq erishish imkoniyati borligiga majburan e’tiborsizlik qilishini inobatga olish lozim.

Jinoiy javobgarlikning vujudga kelish yoshi jinoiy-huquqiy tartibga solishning dunyo tarixi tajribasi, psixologiya, pedagogika, tibbiyot va biologiyaning inson ruhiyati shakllanishining qonuniyatlariga oid ma’lumotlari, shuningdek alohida jinoyatlarning xususiyatini inobatga olgan holda aniqlanadi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligi ko‘pgina jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortishni 16 yoshdan belgilagan (JK 17-m. 1-q.). Bu umumiy qoidadan tashqari, istisnolar mavjuddir. Shunga ko‘ra, javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-m. 2-q.) uchun javobgarlik 13 yoshdan belgilangan. 14 yoshdan jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan qasddan odam o‘ldirish; kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish (JK 98-m.); qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-m.); qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 105-m.); kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 106-m.); nomusga tegish (JK 118-m.); jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-m.); odam o‘g‘irlash (JK 137-m.); bosqinchilik (JK 164-m.); tovlamachilik (JK 165-m.); talonchilik (JK 166-m.); o‘g‘rilik (JK 169-m.); mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (JK 173-m. 2 va 3-q.); ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar (JK 220-m.); qamoqdan yoki qo‘riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish (JK 222-m.); o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-m.); radioaktiv moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 252-m.); temir yo‘l, dengiz, daryo va havo transporti vositasi yoki aloqa yo‘llarini yaroqsiz holatga keltirish (JK 263-m.); transport vositasini olib qochish (JK 267-m.); giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (JK 271-m.); og‘irlashtiruvchi holatlarda bezorilik (JK 277-m. 2 va 3-q.) jinoyatlari uchun belgilangan. 14 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning ro‘yxati to‘liq keltirilgan.

Jinoyat huquqida jinoiy javobgarlikning 4 ta minimal yosh guruhi kiritilgan bulib, ushbu guruhlarga ajratishni qonun chiqaruvchi quyidagilar bilan izohlaydi: 1) an’anaviy (jumladan, hamma davrlarda bir xil bo‘lgan jinoyatlar qonun chiqaruvchiga ularning ijtimoiy xavfliligini ko‘pchilik bolalikdan boshlab, deyarli bir vaqtda jinoyat ekanligini anglaydi, deb hisoblash imkonini beradi); 2) qilmishning nisbatan yuqori ijtimoiy xavflilik darajasi; 3) voyaga yetmaganlar orasida qilmishning keng tarqalganligi; 4) o‘smirlarning tarbiyaviy buzuq harakatlariga ijtimoiy chidash choralari; 5) aybning qasd shakli. Keltirilgan shartlarning birortasi ham, alohida olinganda, yetarli hisoblanmaydi.

Jinoiy javobgarlik vujudga kelishining minimal yoshini belgilashda,

qonun chiqaruvchi inson ongi bilan nafaqat u yoki bu axloq normasini buzish faktini anglash (agar shunday bo‘lganida, qasddan odam o‘ldirish yoki o‘g‘rilik uchun besh-yetti yoshlardan jinoiy javobgarlik o‘rnatish mumkin bo‘lardi), balki ijtimoiy qimmatliklarning, tegishli ma’naviy taqiqlarga rioya qilishni hamda jinoiy jazoning umumiy va maxsus ogohlantirishi maqsadini hisobga oladi.

Ayrim murakkab tarkibli jinoyatlar o‘ziga shunday harakatlar sodir etishni qamrab oladiki, bunda o‘z-o‘zidan boshqa jinoyatlar hosil bo‘ladi. Masalan, ommaviy tartibsizliklar shaxs ustidan zo‘rlik harakatlari, qirg‘in, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish va hokazo harakatlarini qamrab oladi, vaholanki bular Jinoyat kodeksining boshqa moddalarida mustaqil jinoyat sifatida ko‘rsatilgan. Bunday tarkibli jinoyat bo‘yicha javobgarlikka tortishda, tarkibga kiruvchi harakatlar odatda qo‘shimcha kvalifikatsiya talab etmaydi. Agar tarkibli jinoyat uchun javobgarlik 16 yoshdan vujudga kelsa, unga kiruvchi harakatlarni element sifatida – 13 dan 16 yoshgacha mustaqil kvalifikatsiya qilish kerak. Masalan, ommaviy tartibsizlik jarayonida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazilsa, ularning 16 yoshdan oshgan ishtirokchilari Jinoyat kodeksining 244-moddasi, 14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilari esa Jinoyat kodeksining 104-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida 18 yoshlik chegara ko‘zda tutilmagan edi, shunga qaramasdan, qonunda subyektning maxsus belgilari, obyektiv tomon va jabrlanuvchining xususiyatlariga ko‘ra bir qator jinoyatlar (masalan, jinoyat sodir etish imkoniyati, faqat maxsus statusga ega bo‘lgan shaxs tomonidan sodir etilishi) faqat voyaga yetgan shaxslar tomonidan bajarilishi mumkin edi. Amaldagi jinoyat qonunchiligi 18 yoshga to‘lganda jinoiy javobgarlik vujudga kelishining to‘liq ro‘yxatini belgilagan. 18 yoshdan boshlab javobgarlik: voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash (JK 122-m.); ota-onani moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash (JK 123-m.); voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (JK 127-m.); fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 144-m.); saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o‘tkazish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 146-m.); ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-m.); atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish (JK 194-m.); atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik (JK 195-m.); hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (JK 205-m.); hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-m.); mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-m.); hokimiyat harakatsizligi (JK 208-m.); mansab soxtakorligi (JK 209-m.); pora olish (JK 210-m.); harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash (JK 225-m.); ma’muriy nazorat qoidalarini buzish (JK 226-m.); aybsiz kishini javobgarlikka tortish (JK 230-m.); adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (JK

231-m.); sud qarorini bajarmaslik (JK 232-m.); qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish (JK 234-m.); qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash (JK 235-m.); 7-bo‘limda joylashgan «harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar» (JK 279-302-m.) uchun o‘rnatilgan.

Qonunda yosh chegarasini aniq tartibga solinganligining mavjudligi, jinoyat sodir etgan shaxsning yoshini (kun, oy, tug‘ilgan yilini), to‘g‘ri belgilash zaruratini tug‘diradi. Bu savol sud-tergov amaliyotida Jinoyat-protsessual kodeksning 314-moddasini hisobga olgan holda hal qilinishi kerak. Shaxsni jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan deb, tug‘ilgan kunining ertasi soat 00 dan hisoblanadi.

Odatda insonning yoshi tegishli hujjatlar – pasport yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi orqali oson aniqlanadi. Ushbu hujjatlar yoki yoshni aniqlaydigan boshqa dalillar bo‘lmasa, unda jinoyat protsessual qonunchiligiga binoan, sud-tibbiyot ekspertizasi o‘tkaziladi.

Sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning yoshini aniqlashda ko‘rsatilgan yilning oxirgi kuni aybdorning tug‘ilgan kuni deb hisoblanishi kerak. Agar shaxsni minimal va maksimal yoshi yillarda ko‘rsatilsa, ekspertiza o‘sha shaxsning taxmin qilinayotgan minimal yildagi yoshidan kelib chiqish lozim.

16 yoshga to‘lgan shaxs muayyan holatlarda 13–14 yoshlarda ham jinoyat subyekti bo‘lib, o‘zining ijtimoiy-xavfli harakatlari uchun belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Biroq bu hol jinoyat qonuni bunday shaxslarni to‘liq ravishda ijtimoiy yetuk hisoblab, ularni yuridik maqomdan mahrum qiladi, degan fikrni anglatmaydi. Fuqarolik kodeksining 22-moddasi mazmuniga binoan, shaxs 18 yoshga to‘lguniga qadar voyaga yetmagan hisoblanadi. Bu holat amaldagi jinoyat qonunchiligida inobatga olingan, shuning uchun Kodeksda voyaga yetmaganlar javobgarligi xususiyatlarini belgilovchi maxsus bo‘lim mavjuddir.

## 3. Aqli rasolik va uning mezonlari jinoiy javobgarlikning zaruriy sharti sifatida. «Aqli norasolik» tushunchasi va uning mezonlari

Amaldagi jinoyat qonuniga ko‘ra, faqat aqli raso shaxslar javobgarlikka tortilishlari va sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun sudlanishlari mumkin. Demak, aqli rasolik, shaxsning belgilangan yoshga yetishi bilan birga, jinoiy javobgarlik vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 18-moddasi 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etish vaqtida o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va o‘z harakatlarini boshqara olgan shaxs *aqli raso* deb topiladi. Bundan kelib chiqqan holda, «aqli rasolik» tushunchasining yuridik mezoni ikki turdagi belgi bilan tavsiflanadi: aqliy (intellektual) va irodaviy. Aqli rasolikning aqliy (intellektual) belgisi shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi xususiyatini anglab yetish

qobiliyatidan iborat. Irodaviy belgi shaxsning o‘z xulq-atvorini boshqarish layoqatini aks ettiradi.

Shu bilan birga, sodir etilgan qilmishning mohiyatini tushunish qobiliyati hamda ushbu jarayonni boshqara olishi uning psixofiziologik rivojlanish darajasiga bog‘liq. Insonning psixofiziologik rivojlanish darajasi deganda, jinoyat sodir etayotgan paytda subyektning ruhiy holati tushuniladi, ya’ni ma’lum ruhiy kasallik hamda aqli zaiflik holati yo‘qligi, ruhiyati bilan bog‘liq barcha his-tuyg‘ular uyg‘unligi, shaxsning ijtimoiy nuqtai nazardan hayotga ma’lum darajada moslashganligi, (ma’lumoti, hayotiy yoki kasbiy tajribasi, atrofdagilar bilan muomalasi va h.k.). Shunday ekan, aqli rasolikni aniqlashda nafaqat yuqoridagi mezonlarni, balki tibbiy mezonni ham aniqlash zarur. Vaholanki, shaxsning psixofiziologik rivojlanish darajasi, aynan tibbiy mezon yordamida aniqlanadi. Shunday qilib, yuqoridagi ikki mezon mavjud bo‘lgandagina subyektning aqli rasoligi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

Jinoyat huquqi odamning aqli rasolik prezumpsiyasidan kelib chiqadi. Bu shuni bildiradiki, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs, qoidaga ko‘ra, aqli raso shaxs bo‘ladi. Barcha holatlarda jinoyat subyektining aqli rasolik belgisini tekshirish talab qilinmaydi. Bunday tekshiruv faqat sodir etilgan jinoyatning xususiyati, qilmishni sodir etishdan oldin va keyingi xulq-atvorga asosan, uni sodir etgan shaxsning ruhiy sog‘lig‘i to‘g‘risida shubha tug‘ilgandagina amalga oshiriladi. Bunday holatlarda aqli rasolik ruhshunos shifokorlarga yuklatilgan sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash orqali amalga oshiriladi.

*Aqli norasolik* deganda, shaxs ruhiy holatiga ko‘ra, sodir etayotgan jinoyatning mohiyatini anglamasligi va uni boshqara olmasligi tushuniladi. Jinoyat kodeksining 18-moddasi 2-qismida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida aqli noraso holatda bo‘lgan, ya’ni surunkali ruhiy kasalligi; ruhiy holati vaqtincha buzilganligi; aqli zaifligi yoki boshqa tarzdagi ruhiy kasalligi sababli o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shunday qilib, aqli norasolik holati jinoiy javobgarlikni istisno qiladi. Shaxsning aqli norasoligi tibbiy va yuridik mezonlar birligi va majmui bilan aniqlanadi.

Qoidaga ko‘ra, odamning aqli norasoligini bilish aqli norasolikning tibbiy mezonini aniqlashdan boshlanadi. Aqli norasolikning *tibbiy mezoni* shaxsni aqli noraso deb topish uchun obyektiv asos bo‘ladigan ruhiy xastalikning mavjudligidir. Jinoyat qonuni ruhiy xastaliklarning quyidagi tasnifini belgilaydi: 1) surunkali ruhiy kasallik; 2) ruhiy holatning vaqtincha buzilganligi; 3) aqli zaiflik; 4) boshqa tarzdagi ruhiy kasalliklar (JK 18-m. 2-q.).

Surunkali ruhiy kasalliklarga uzoq muddatga cho‘ziladigan, xurujli va rivojlanadigan, tuzalmaydigan yoki qiyin davolanadigan kasalliklar: shizofreniya, epilepsiya (tutqanoq); xurujli shol kasali, miyaning organik shikastlanishi va boshqalar kiradi.

Ruhiy holatning vaqtinchalik o‘zgarishlariga tez tarqaladigan, tez rivojlanadigan, davolanadigan ruhiy kasalliklar: reaktiv holatlar (chuqur emotsional

tashvish kechirish natijasi); mastlik, giyohvand va toksik ruhiy buzilishlar; istisno holatlar (esi kirdi-chiqdi bo‘lib qolish holati; patologik mastlik; patologik affekt va b.).

Aqli zaiflik aqliy (avvalambor, intellektual) faoliyatdagi norasolik bilan tavsiflanadi: tug‘ma – oligofreniyaning (idiotiya, imbesillik va debillik) shakllari yoki hayot davrida orttirilgan – demensiya.

Boshqa tarzdagi ruhiy kasalliklar yuqorida ko‘rsatilgan kasalliklar turlarining hech qaysisiga kirmaydigan ruhiyatning anomaliyasi hisoblanadi: psixopatiyaning o‘tkir shakllari, tug‘ma ko‘rish, eshitish, so‘zlash qobiliyati buzilgan va boshqa kasalliklarga yo‘liqqan shaxslarning ruhiyatidagi o‘zgarishlar.

Aqli norasolikning *yuridik mezoni* ikki belgidan iborat: aqliy (intellektual) va irodaviy. Aqliy (intellektual) belgi qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglamaslikda ifodalanadi. Psixikaning bu xususiyati shaxsda sodir etayotgan qilmishining faktik tomoni va ijtimoiy ma’nosini tushunish qobiliyatining yo‘qligini anglatadi. Irodaviy belgi shaxsning o‘z harakatini boshqarish layoqatini aks ettiradi.

Ko‘rsatilgan yuridik mezon belgilarining har biri, tibbiy mezonga kiruvchi kasallik bilan birga, jinoyat qonunida shaxsni aqli noraso deb tan olish uchun asos deb baholanadi.

Shaxsning ruhiy holati yuridik mezonga mos kelishini aniqlash zarurligi, avvalambor, aqli rasolik doimo vaqt doirasida chegaralangan, aniq qilmishga nisbatan aniqlanadi. Ruhiy kasalliklarning ancha qismi odamning aqli va irodasini kam yoki ko‘p davolanish vaqtida tiklanishni taxmin qiluvchi rivojlanishning sikl xususiyatiga ega. Shuningdek, shaxsda nafaqat aqli rasolikni istisno qiluvchi ruhiy kasallik mavjudligini, balki u kasallikni aniq bir qilmishga bo‘lgan ta’sirini aniqlash zarur.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, aqli noraso deb topilgan yoki aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar va ularga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanishi mumkin (JK 91–95-m.).

Sud amaliyoti jinoyatlarning aksariyati mastlik holatida sodir etilishini ko‘rsatadi. Lekin ba’zan jinoyat sodir etgan shaxslar o‘zlarining harakatlarini oqlash uchun mastlik holati rukach qilib, hech narsani eslay olmasliklarini ta’kidlaydilar. Shuning uchun jinoyat subyektining aqli rasoligi yoki norasoligini aniqlash maqsadida aybdor shaxsning mastlik holatida bo‘lganligini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Jinoyat kodeksining 56-moddasi 1-qismi «o» bandiga asosan, mazkur holat mastlikning tabiiy natijasi bo‘lib, odamning ongi – irodaviy faoliyatining torayishi, ya’ni aqli rasoligining cheklanishiga qaramay, jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi.

Shuni ham inobatga olish kerakki, Jinoyat kodeksining 19-moddasiga asosan, shaxs mastlikning o‘ta yuqori darajasida jinoyat sodir etsa ham, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Oddiy fiziologik mastlik holatini alkogolni muntazam ravishda iste’mol qilish natijasida (oq vosvos, peranoidal alkogolizm va b.) kelib chiqadigan boshqa kasalliklar yoki holdan toyish ko‘rinishidagi patologik mastlik maqo-

midagi ruhiy holatning yomonlashuvi hamda ruhiy kasalliklardan farqlash lozim. Mazkur kasallanishlar mavjudligi yuridik mezonlarga sabab bo‘ladi va shaxsni aqli noraso deb topish uchun asos bo‘ladi.

Surunkali ichuvchi yoki giyohvand tomonidan jinoyat sodir etilgan hollarda sud bunday shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashi mumkin (JK 96-m.).

## 4. Jinoyatning maxsus subyekti

Jinoyat huquqida jinoyatning *maxsus subyekti* deb, umumiy belgilar (jinoiy javobgarlik yoshiga yetganlik, jismoniy shaxs, aqli rasolik)dan tashqari, aniq turdagi jinoyatning tarkibini tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha belgilar bilan tavsiflangan shaxs tan olinadi.

Jinoyat subyektining umumiy belgilari Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi normalarning dispozitsiyalarida eslatib o‘tilmaydi, chunki ular hech qanday cheklashlarsiz barcha jinoyat tarkiblariga mansubdir. Maxsus subyektning qo‘shimcha belgilari shu jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi normaning dispozitsiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatiladi yoki sharhlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Jinoyat qonunida maxsus subyektning belgilarini ta’riflashda bir necha usullar ishlatiladi: 1) turdosh maxsus subyektlarning qo‘shimcha belgilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunning mustaqil bo‘limida sanab o‘tish (masalan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi sakkizinchi bo‘limida mansabdor shaxs, hokimiyat vakili, mas’ul mansabdor shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt va boshqalarning ta’rifi tushunchalari ko‘rsatilgan); 2) turdosh maxsus subyektlar guruhidan istisno bo‘lgan va Jinoyat kodeksining Maxsus qism moddasining dispozitsiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan maxsus subyekt (maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar tomonidan atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish – JK 194-m.); 3) normaning dispozitsiyasida maxsus subyekt belgilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri sanab o‘tish (surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan aybsizligi ayon bo‘lgan shaxsni javobgarlikka tortish – JK 230-m.); 4) normaning dispozitsiyasida maxsus subyektni tasniflashda kerak bo‘lmagan belgilar ko‘rsatilishi (mansabdor bo‘lmagan shaxs tomonidan muayyan ish yoki xizmat evaziga fuqarolardan tovlamachilik yo‘li bilan haq berishni talab qilish – JK 214-m.).

Amaldagi jinoyat qonunchiligining uchdan bir qism normalari maxsus subyektli jinoyatlarni tashkil qiladi. Maxsus subyektli jinoyat tarkiblari sonining ko‘pligi ularni tasniflash zaruratini keltirib chiqaradi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligida mavjud maxsus subyekt belgilarini uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) subyektning huquqiy holati va maxsus vazifasini; 2) subyektning jismoniy xususiyatlarini; 3) subyekt bilan jabrlanuvchi o‘rtasidagi munosabatni tavsiflovchi belgilar.

Ko‘rsatilganlardan eng ko‘pini birinchi guruh tashkil etadi. Bu yerga quyidagi kichik guruhlarning belgilari kiradi: shaxsning fuqaroviy statusi

(O‘zR fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs – JK 157, 160, 224-m.); shaxsning mansabdorlik holati (mansabdor shaxs, mas’ul mansabdor shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt – JK 175, 180, 181, 193–195, 205-210, 230–232, 234, 235-m.); harbiy xizmatga munosabati (xizmatga chaqirilgan shaxs, harbiy xizmatchi, harbiy xizmatga majbur – JK 225, 279–302-m.); kasb, faoliyat turi, bajarayotgan ishning xususiyati – (shifokor, xizmatchi yoki savdo yoki xizmat ko‘rsatish ishchisi, transport vositasini boshqarayotgan shaxs va boshqalar (JK 116, 117, 162, 163, 172, 186, 188, 189, 213, 214, 260, 261, 262, 266, 268-m.); jinoyat protsessi ishtirokchilari (guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, tarjimon – JK 238, 240-m.); shaxsning alohida jinoiy-huquqiy statusi (og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun sudlanganligi; shaxs ilgari jinoyat sodir etganligi, xavfli yoki o‘ta xavfli retsidivist – JK 220, 221, 222, 104-m. 3-q «b» b., 105-m. 2-q. «k» b., 164-m. 3-q «a» b. va b.).

Ikkinchi guruhni shaxsning quyidagi tabiiy-demografik belgilari tashkil qiladi: jinsi (JK 120, 126-m.); yoshi (voyaga yetgan shaxs, 21 yoshga to‘lgan shaxs – JK 127, 130-m.). Bunga sog‘liq darajasini ham kiritish kerak (tanosil yoki OITS kasalligi bilan kasallangan shaxs – JK 113-m.).

Uchinchi guruhga subyekt bilan jabrlanuvchining qarindoshlik munosabatlarini tavsiflovchi belgilar kiradi (ota-ona, farzandlar – Jinoyat kodeksi 122, 123-m.) hamda xizmat yoki moddiy munosabatlar (xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo‘lgan shaxslar – JK 121-m.).

Shunday qilib, o‘zining mazmuniga ko‘ra, maxsus subyekt belgilari juda rang-barang. Ular aybdor shaxsining turli xususiyatlariga tegishli bo‘lish mumkin. Bu xususiyatlar shunchalik muhimki, ularning mavjudligi jinoyat qonuni nuqtai nazaridan qilmishni jinoiy yoki ijtimoiy xavfli deb ko‘rsatadi yoki ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini keskin o‘zgartiradi. Shunday qilib, maxsus subyekt belgilari alohida holatlarda jinoyat tarkibining tuzuvchi belgilari hisoblanadi, ular bo‘lmasa jinoyat ham bo‘lmaydi. Masalan, Jinoyat kodeksining 180-moddasida ko‘rsatilgan «soxta bankrotlik» jinoyatining subyekti qarzdor tashkilotning rahbari yoki mulkdori yoxud xususiy tadbirkor bo‘lishi mumkin. Agar bu harakatlarni tashkilotning boshqa xizmatchisi sodir etsa, mazkur jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi.

Boshqa hollarda qo‘shimcha belgilar og‘irlashtiruvchi holatlardagi jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi kvalifikatsion belgi sifatida kelishi mumkin. Agar ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar o‘ta xavfli retsidivist yoxud og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm etilgan shaxslar tomonidan sodir etilsa, qilmish Jinoyat kodeksining 220-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

## Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyat subyekti nima?
2. Jinoyat subyektining belgilarini sanab bering.
3. Yuridik shaxs jinoyat subyekti bo‘la oladimi? Javobingizni asoslab bering.
4. Jinoiy javobgarlik necha yoshdan boshlanadi?
5. Jinoyat subyektining qo‘shimcha belgilari qanday ahamiyatga ega?
6. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aqli rasolik mezonlarini ayting.
7. Nima uchun aqli noraso shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi?
8. Aqli norasolikning tibbiy mezonlarini aniqlang.
9. Aqli norasolikning yuridik mezonlarini aniqlang.
10. «Jinoyatning maxsus subyekti» tushunchasini aytib bering va maxsus subyektlar bo‘yicha misollar keltiring.
11. Maxsus subyekt belgilarini ayting.
12. Jinoyat subyekti bilan jinoyatchining shaxsi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni aniqlang.

## VIII bob
## JINOYATNING SUBYEKTIV TOMONI

### 1. «Jinoyatning subyektiv tomoni» tushunchasi, uning belgilari va ahamiyati

Huquqiy davlat shakllanayotgan sharoitda sodir etilgan qilmishni qonunga muvofiq huquqiy baholash o‘ta muhimdir. Bu esa jinoyatning subyektiv tomonini to‘g‘ri aniqlashga bog‘liq bo‘ladi.

*Jinoyatning subyektiv tomoni* – aybdorning o‘zi sodir etgan, jinoyat qonunida jinoyat sifatida ko‘rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati. Bu jinoyat tarkibining muhim elementi bo‘lib, uning bo‘lmasligi jinoyat tarkibining bo‘lmasligiga olib keladi.

Shaxsning sodir etilayotgan jinoyatga ruhiy munosabati turli intellektual, irodaviy va hissiy holatlarda, ushbu holatlarning xilma-xil ko‘rinishlari va qo‘shilishida ifodalanadi. Jinoyat qonunida intellektual, irodaviy va ayrim hollarda hissiy jihatlar mohiyati, ushbu jihatlar mohiyatlarining qo‘shilishidagina aks etadi. Ushbu mohiyatni ifodalovchi belgilar yig‘indisi jinoyat tarkibining subyektiv tomonini tashkil etadi.

*Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni* – jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etish paytida shaxsning sodir etilayotgan jinoyatga ruhiy munosabatini tavsiflovchi muhim belgilar yig‘indisi. Jinoyat tarkibining subyektiv tomonini aniqlash ko‘pincha katta qiyinchilik tug‘dirib, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish chog‘ida yuzaga keladigan ziddiyatlar ana shundan kelib chiqadi. Tergov-sud amaliyotining materiallari sud hukmlarining o‘zgarishi va bekor qilinishiga olib kelgan xatolarning katta qismi jinoyatning subyektiv tomonini noto‘g‘ri aniqlash bilan bog‘liq. Jinoyatning subyektiv tomonini aniqlashning murakkabligi ruhiy jarayonlarning tabiatiga bog‘liq. Ushbu jarayonlarni ularning xususiyatlari va tashqi ifodalanishiga qarab kuzatish qiyin.

Shu bilan birga, subyektiv tomon obyektiv voqelik, ya’ni amalda mavjud bo‘lgan hodisadir. Shu bois uni bilish mumkin va uning mazmunini jinoyat sodir etilishining barcha holatlari, ya’ni muayyan qilmish, jinoyat sodir etish usuli va holati, aybdor shaxsi va boshqalarni ifodalovchi holatlarni o‘rganish asosida aniqlash mumkin.

Subyektiv tomon har qanday ijtimoiy xavfli qilmishning zaruriy belgisidir. Uning mazmuni, avvalo, ijtimoiy xavfli qilmish va undan kelib chiqqan oqibatlar xususiyatiga bog‘liq. G‘ayriqonuniy qilmishning tashqi xossalari nafaqat subyektiv tomonni bilishning zaruriy sharti, balki uning shakllanishiga bevosita ta’sir etuvchi omil hamdir. Boshqacha aytganda, ong harakatning zaruriy shart-sharoiti, ma’lum ma’noda uning natijasi hisoblanadi. Harakat qilish faktining o‘zi inson ruhiy faoliyatining mazmunini aniqlashtirib, uning xatti-harakatiga juda katta motivatsion ta’sir ko‘rsatadi.

Jinoiy tajovuzning subyektiv tomoni doimo harakatlarning aniq mazmuni bilan to‘ldiriladi. Jinoyatlarning tashqaridan qaraganda turlicha bo‘lgan obyektiv mazmuni jinoyatlar subyektiv tomonining ham xilma-xilligini belgilab be-

radi. Subyektiv mazmuniga koʻra, aynan bir xil boʻlgan ikki jinoyat yoʻq. Hatto bir jinoyat tarkibida ijtimoiy xavfli qilmishlar tashqi belgilarining oʻxshamasligi ularning ichki mazmunini farqlaydi.

Jinoyatning subyektiv tomoni aybdor shaxsining xususiyatlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Aybni sodir etilgan jinoyatning xususiyati belgilab beradi, ammo aybdor deb aniq bir shaxsgina tan olinadi. Jinoyatning subyektiv tomonini shakllantiruvchi psixologik jarayonga nafaqat tashqi shart-sharoitlar, balki aybdorning shaxsiga xos xususiyatlar, ya'ni uning irodasi, muayyan ehtiyojlari, mayllari va manfaatlarining kuchi va xususiyati ham ta'sir koʻrsatadi. Binobarin, jinoyatning subyektiv tomoni nafaqat jinoiy-huquqiy, balki kriminologik ahamiyatga ham ega boʻlib, jinoyatni sodir etishga jiddiy ta'sir etadigan holatlarni aniqlashga yordam beradi.

Aybdorning sodir etilgan qilmishga ruhiy munosabati tavsifiga binoan, jinoyatning subyektiv tomoni uch belgini, ya'ni ayb, motiv va maqsadni oʻz ichiga oladi.

*Ayb* – har qanday jinoyat tarkibi subyektiv tomonining muhim belgisi. Qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayb jinoiy javobgarlikning subyektiv shart-sharoitidir. Shu bois jinoiy javobgarlik haqidagi masala qoʻyiladigan har bir aniq vaziyatda shaxsning oʻzi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga va u asosda yuz bergan oqibatlarga, Jinoyat kodeksi moddasida oqibatlarning kelib chiqishi koʻrsatilmagan hollarda esa – harakat yoki harakatsizlikning oʻziga boʻlgan ruhiy munosabati aniqlanishi kerak.

Biroq, jinoiy javobgarlik uchun shaxsning oʻzi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga va yuz bergan oqibatlarga munosabati qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilganligini aniqlash qanchalik muhim boʻlmasin, bu munosabat jinoyat sodir etish bilan bogʻliq ruhiy faoliyatni ifodalovchi murakkab mazmunni toʻliq ochib bera olmaydi.

Subyektiv tomonning mazmunida jinoyat *motivi va maqsadlari* alohida oʻrin tutadi. Motiv va u bilan bogʻliq maqsad aybdor shaxs xatti-harakatini boshqaruvchi butun irodaviy jarayonga oʻz ta'sirini koʻrsatadi. Shaxs uchun u sodir etgan qilmish qanday ma'no va ahamiyatga ega ekanligi aynan motivga bogʻliq. Shu bois jinoyatning subyektiv tomoni faqat ayb shakllari, ya'ni qasd va ehtiyotsizlik bilan cheklanib qolmaydi, u oʻz ichiga motiv va maqsadlarni ham oladi. Lekin, subyektiv tomonning ajralmas belgilari boʻlmish qasd va ehtiyotsizlikdan farqli oʻlaroq, motiv va maqsad ikkinchi darajali belgilarga kiradi. Bu esa ushbu belgilar qonunda u yoki bu jinoyat tarkibiga majburiy belgilar sifatida kiritilgan taqdirdagina kvalifikatsiyaga ta'sir etishini bildiradi. Bunda motiv va maqsad yo Jinoyat kodeksi Umumiy qismi moddasining dispozitsiyasida bevosita koʻrsatiladi, yoki ularning mavjudligi muayyan jinoyatning tabiatidan kelib chiqadi (masalan, oʻgʻrilik va boshqa xil talon-torojlarda). Boshqa hollarda esa motiv va maqsad kvalifikatsiyaga ta'sir etmaydi va sud ularni Jinoyat kodeksi Maxsus qismi aniq moddasining sanksiyasi doirasida jazo belgilanayotganida inobatga oladi (JK 56-m. 1-q. «к» va «л» b.).

Jinoyatning subyektiv tomonini tavsiflash uchun jinoyat sodir etgan

shaxsning emotsional holati – hayajonlanishi, uning darajasi, nima asosda yuzaga kelganligi, qanday hayotiy vaziyatning oqibati ekanligi ham katta ahamiyatga ega. Gap shundaki, emotsional holat insonning aqliy va irodaviy jarayonlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Emotsional holat u sodir etayotgan harakatlarni idrok etishni kuchaytirishi yoki, aksincha, ong doirasini ancha toraytirishi, tanqidiy qarshi qobiliyati va nazorat faoliyatini susaytirishi mumkin. Bunday holatda inson to‘g‘ri qaror qabul qilishi, o‘z harakatlarining tabiatini va zararli oqibatlar yuz berishi ehtimolini to‘g‘ri baholashi qiyinroq bo‘ladi.

Bunday emotsiyalarga, jumladan, quyidagilar kiradi: qahr-g‘azab, dahshat, umidsizlik, vasvasa (jazava), qo‘rquv, jahl, kuchli ruhiy hayajon va boshqalar. Mazkur holatlar ruhiy faoliyatni o‘zicha bo‘yab, ayb mazmunini, jinoyat motivi va maqsadlarini aniqlashda jiddiy yordam berishi mumkin.

Shu bilan birga, emotsional holatda shaxs o‘zini nazorat qilish, ongli xatti-harakat qilish hamda u yoki bu istakdan o‘zini tiyish imkoniyatini umuman yo‘qotmaydi, balki faqat qiyinlashtiradi, xolos. Bu esa jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Odatda emotsional xususiyatlar jinoyat tarkibining belgilari sifatida ko‘rsatilmaydi. Jinoyat qonunida to‘satdan yuzaga kelgan kuchli ruhiy hayajon holatigina inobatga olinadi. Ushbu holat aynan aybga taalluqli. Chunki, birinchidan, faqat aybni, o‘shanda ham faqat qasd shaklidagi aybni ifodalay oladi, ikkinchidan, qasdning aqliy va irodaviy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur jihatlarga ta’sir etadi. (Bunday holat harakatlarni anglash, oqibatlarini oldindan ko‘rish va ifodalanganlik darajasining pasayishida namoyon bo‘ladi). Shu bois kuchli ruhiy hayajon (JK 98, 106-m.) amaldagi qonunchilikka binoan, asosiy tarkibni yengillashtiruvchi holat sifatida qaraladi hamda jazo tayinlash vaqtida inobatga olinadi (JK 55-m. 1-q. «д» b.)

Jinoyatning subyektiv tomoni quyidagi huquqiy ahamiyatga ega:

1) jinoyatning subyektiv tomoni har qanday jinoyat tarkibining asosiy belgisidir. Uning bo‘lmasligi jinoyat tarkibi yo‘qligini anglatadi;

2) ayb – jinoyat tarkibi subyektiv tomonining asosiy belgisi. Ayb bo‘lmaganida subyektiv tomon ham, umuman, jinoyat tarkibi ham bo‘lmaydi;

3) jinoyat tarkibining subyektiv tomonini, uning ushbu jinoyat tarkibiga kirgan barcha belgilarini aniqlash. Bu sodir etilgan qilmishni to‘g‘ri va asosli kvalifikatsiya qilishning, obyektiv belgilariga ko‘ra o‘xshash bo‘lgan jinoyatlarni bir-biridan ajratishning muhim va zaruriy shartidir (masalan, subyektiv tomonni sinchiklab tahlil qilmay turib, qasddan sodir etilgan odam o‘ldirishni og‘ir tan jarohatidan ajratish qiyin);

4) subyektiv tomonning mazmuni jinoiy qilmishni ham, uni sodir etgan shaxsni ham ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash imkonini beradi (masalan, jinoyatga oldindan tayyorlanish, uni amalga oshirish tafsilotlarini puxta o‘ylash, odatda, aybdor shaxsning qo‘qqisdan yuzaga kelgan qasddan, qandaydir his-tuyg‘ular ta’sirida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan kattaroq ijtimoiy xavfga ega ekanligidan dalolat beradi);

5) subyektiv tomonni to‘g‘ri aniqlash retsidiv jinoyatni (JK 34-m.),

ozodlikdan mahrum etish shaklidagi jazo tayinlashni (JK 50-m.), javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni (JK 64, 69-m.) aniqlash shartidir.

## 2. Ayb va uning shakllari

Jinoyat kodeksining 9-moddasida ayb uchun javobgarlik prinsipining mustahkamlab qo‘yilishi, ushbu prinsipning, birinchi navbatda, jinoyat qonuni darajasida amalga oshirilishining muayyan kafolatlarini kiritish zarurligini belgilab berdi. Jinoyat kodeksida aybga bag‘ishlangan va aybli javobgarlik prinsipini amalga oshirish shartlari belgilangan maxsus bobning mavjudligi huquqni qo‘llash organlari faoliyatida qonunga og‘ishmay rioya etish talabi bilan bog‘liq.

Amaldagi jinoyat qonunlariga muvofiq, faqat ayb bo‘lgan taqdirdagina shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Qonunda «ayb» tushunchasiga ta’rif berilmagan. Jinoyat huquqi fanida unga quyidagi ta’rif ishlab chiqilgan. *Ayb* subyektiv tomonning asosiy belgisi bo‘lib, shaxsning qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga va yuz bergan oqibatlarga ruhiy munosabatini ifodalaydi.

Jinoyatni sodir etishdagi ayb (qasd ham, ehtiyotsizlik ham) huquqni qo‘llovchining ongidan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘ladi. Dastlabki tergov va sud muhokamasini amalga oshirish jarayonida ayb isbotlanishi zarur bo‘lgan predmetdir. Bu sodir etilgan jinoyatning barcha holatlariga taalluqli va aniqlangan dalillarni baholash asosida amalga oshiriladi.

Jinoiy javobgarlik uchun asos bo‘ladigan ayb, uni tashkil qiluvchi barcha elementlar bilan birgalikda, jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan aniq qilmishda (harakat yoki harakatsizlikda) o‘z ifodasini topgandagina mavjud bo‘ladi. Aybni hosil qiluvchi ruhiy jarayon subyekt harakatini tartibga soladi va yo‘naltiradi.

Ushbu jarayon Jinoyat kodeksi tegishli moddasining dispozitsiyasi ko‘rinishida tavsiflangan doirada, jinoiy faoliyat haqiqatan tamomlangan paytda yakunlanadi. Jinoyat sodir etganidan keyin ko‘pincha aybdor shaxslarda sodir etgan qilmishiga nisbatan boshqacha ruhiy munosabat ham yuzaga keladi. Bu quvonch, qoniqish yoki afsus-nadomat kabi tuyg‘ular bo‘lishi mumkin, ammo bu ruhiy munosabat ayb tarkibiga kirmaydi, u jinoyat va jazoni individuallashtirish chog‘idagina inobatga olinishi mumkin. Aybning shakli, mazmuni va darajasi uni tavsiflovchi asosiy jihatlardir.

Jinoyat huquqi nazariyasida *ayb shakli* deganda, elementlar va jarayonlarning o‘zaro va tashqi sharoitlar bilan munosabatini ifodalovchi tizim tushuniladi. Ayb shaklini undagi ruhiy elementlarning mazmuni va o‘zaro nisbati belgilab beradi. Binobarin, ayb shakllarini ajratish obyektiv elementlar bilan bog‘liq aqliy va irodaviy-ruhiy elementlarning muayyan nisbatda qo‘shilishiga asoslanadi.

*Aybning aqliy elementini* shaxsning o‘zi sodir etayotgan qilmishning haqiqiylik xususiyatini, uning ijtimoiy ma’nosi va ahamiyatini anglashi, shu-

ningdek, o‘z qilmishining qanday oqibatlarga olib kelishini bila olish qobiliyati tashkil etadi. *Aybning irodaviy elementi* subyektning faoliyatni, xatti-harakatning muayyan variantini tanlash orqali boshqarishida namoyon bo‘ladi. Aybning shakllari qonunda belgilanadi va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi. Qonunda aybning qasd va ehtiyotsizlik turlari ajratiladi. Ularni ajratish shaxsning o‘z qilmishiga va uning oqibatlariga aqliy va irodaviy munosabatlari nisbatiga asoslanadi.

*Aybning mazmuni* uning barcha belgilarini aks ettiradi. Ayb subyektning muayyan jinoyatda namoyon bo‘ladigan ruhiy munosabati ekan, uning mazmunini jinoyatning muayyan obyektiv belgilariga subyektning munosabatidan iborat aqliy va irodaviy-ruhiy elementlar yig‘indisi tashkil etadi. Muayyan aybning mazmunini muayyan jinoyatdagi qasd va ehtiyotsizlikning mazmuni tashkil etadi.

*Ayb darajasi* uning miqdoriy xususiyatini ifodalovchi va bir xil ayb mazmuniga ega jinoyatlarning qiyosiy og‘irligini aks ettiruvchi kategoriyadir. Ayb darajasi ko‘pgina omillar va belgilarga, jumladan, ham jinoyat tarkibini bevosita tashkil etuvchi, ham undan tashqaridagi omillar va belgilarga va yana ushbu shart-sharoitlarning anglanish darajasiga bog‘liqdir. Shuningdek, ayb darajasi subyekt sodir etgan qilmishning og‘irlik darajasiga, uning jinoyat oqibatlarini qanchalik ko‘ra olganligiga, niyatlarining o‘ylanganlik darajasiga, hisob-kitobning asossizligiga, subyekt namoyon etgan beparvolikka, ehtiyotsizlik darajasiga ham bog‘liq. Jinoyat motivi yoki motivlar tizimi (motivatsiya), shuningdek, jinoiy maqsadlar ham ayb darajasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Aybdorning shaxsiy xislatlarini ifodalovchi va shaxsning jinoyat sodir etishiga turtki bo‘lgan yoki ta’sir etgan holatlar ham alohida hisobga olinishi lozim.

***Qasd va uning turlari.*** Qasdning predmet mazmuni yuridik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan belgilar bilan aniqlanadi. Ushbu belgilarning miqdori muayyan jinoyat obyektiv tomonining qonundagi tuzilishiga bog‘liq. Jinoyat tarkibini moddiy va formal tarkiblarga ajratish aynan shu asosga ko‘ra amalga oshiriladi. Obyektiv tomonning tuzilishi subyektiv belgilarda aks etadi, shu bois jinoyat qonunlarida ushbu xususiyatni e’tiborga olgan holda qasdning jinoyatdagi formal va moddiy tarkiblarga nisbatan mazmuni shakllanadi (JK 21-m.).

Jinoyat kodeksi 21-moddasining 1-qismida formal (rasmiy) tarkibli jinoyatlarning qasd tuzilishi ifodalangan, ya’ni formal tarkibdagi jinoyatning tugallanish payti ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishi bilan cheklangan va jinoiy oqibatlar jinoyat tarkibidan tashqarida qolgan. Formal tarkiblarda qasd ikki, ya’ni aqliy va irodaviy belgilarga ega bo‘ladi. Qasdning *aqliy belgisi* – shaxsning o‘zi sodir etayotgan qilmishning xavflilik darajasini anglashi. *Irodaviy belgi* – jinoyat subyektining ushbu qilmishni amalga oshirish istagi borligini bildiradi.

Bunday nisbatdan kelib chiqib, jinoyatlarning formal tarkiblaridagi qasdning mazmunini to‘g‘ri qasd sifatida tavsiflash mumkin, chunki tarkiblarning bu turiga faqat to‘g‘ri qasd xosdir. Masalaning bunday yechimi ongli ravishda yo‘l qo‘yiladigan egri qasdning irodaviy tarkibi, irodaning muayyan qilmishni

sodir etish yoki sodir etmaslikka qaratilganligi va ushbu qilmishning ma’qullanishi yoki ma’qullanmasligi bilan tavsiflanishi aslo mumkin emasligidan kelib chiqadi.

Moddiy tarkiblarda qasdning mazmuni ijtimoiy xavfli qilmishga ham, uning jinoiy oqibatlariga ham ruhiy munosabatni qamrab oladi, chunki jinoyatning tamomlanishi qonunda aynan jinoiy oqibatlar bilan bog‘lanadi. Jinoiy oqibatlarga turli xil aqliy va irodaviy munosabat moddiy tarkiblarda ikki xil qasd, ya’ni to‘g‘ri va egri qasd mavjudligini belgilab beradi. Qasdning har ikkala turi ham aqliy va irodaviy belgilarga ega.

To‘g‘ri qasdga quyidagilar xos: 1) o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash; 2) sodir etilgan qilmishning natijasi bo‘lgan ijtimoiy xavfning oqibatlariga ko‘zi yetishi (aqliy belgi); 3) ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishini istash (irodaviy belgi). Formal va moddiy tarkiblardagi qasdning aqliy belgilarini qiyoslash quyidagicha xulosa qilishga imkon beradi.

Ularning mazmuni har xil, chunki jinoyat oqibatlarida ushbu mazmun to‘laroq aks etadi. Zero, o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashdan tashqari, uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini ko‘ra bilishni ham qamrab oladi. To‘g‘ri qasdning aqliy belgisiga sodir etilayotgan qilmishning haqiqiylik xususiyati va ijtimoiy xavfliligini tushunish xosdir. Ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko‘rish ham aqliy belgining tarkibiy qismi bo‘lib, ushbu oqibatlarning muqarrar yuz berishiga ishonch mavjudligi bilan ajralib turadi. To‘g‘ri qasdning irodaviy belgisi shaxsning aqliy qobiliyatlari va imkoniyatlarini qo‘yilgan maqsadga erishish bo‘yicha mo‘ljallari va mayllarini amalga oshirishga qaratishidan iborat.

Egri qasdga quyidagilar xos: 1) o‘z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglash; 2) ijtimoiy xavfning oqibatlariga ko‘zi yetishi (aqliy belgi); 3) ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishiga yo‘l qo‘yish (irodaviy belgi). Egri qasdning qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglashdan iborat aqliy belgisining mazmuni uning to‘g‘ri qasddagi xususiyatlariga mos keladi. Egri qasddagi aqliy belgining tarkibiy qismi bo‘lmish ko‘z yetishi ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishining muqarrarligi bilan ajralib turadi. Aynan oqibatlarga ko‘z yetishi to‘g‘ri va egri qasd aqliy belgilarining mazmuni orasidagi farqlovchi ko‘rsatkichdir.

Egri qasdning irodaviy belgisi ijtimoiy xavfli oqibatlarga ongli ravishda yo‘l qo‘yishdan iborat. Ongli ravishda yo‘l qo‘yish faol ruhiy jarayon bo‘lib, subyektning ijtimoiy xavfli oqibatning yuz berishi haqiqatan mumkinligiga ko‘zi yetgan, uning kelib chiqishini ma’qullab munosabatda bo‘lishida ifodalanadi. Egri qasddagi irodaviy belgi mazmuniga ko‘ra, to‘g‘ri qasddagi yuz berishi haqiqatan mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatga ijobiy munosabatda namoyon bo‘ladigan qismida to‘g‘ri qasdning irodaviy belgisiga mos keladi. Shu bilan birga, agar to‘g‘ri qasdda shaxs irodasining amalga oshuvi istalayotgan jinoiy oqibatning yuz berishini belgilab beruvchi muayyan maqsadga erishishga qaratilgan bo‘lsa, egri qasdda maqsadlar yuz berishini subyekt jinoiy harakatning pirovard fikriy natijasini amalga oshirishning muqarrar sharti sifatida ma’qullaydigan jinoiy oqibatlarga yo‘l qo‘yish bilan mos kelmaydi.

Qasdni qonunda turlarga bo‘lish nazariy jihatdan ko‘ra ko‘proq amaliy ahamiyatga ega, chunki Umumiy qismdagi bir qator ko‘rsatmalarni (masalan, tayyorlanish, suiqasd qilish, ishtirok etish va b.) to‘g‘ri qo‘llashni va qonundagi ta’rifida to‘g‘ri qasdga bevosita ishora qilinadigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishni belgilab beradi. Qasd turlarini ajratib qo‘yish jinoiy javobgarlik va jazoni tanlab berish uchun adolat prinsipini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Qasdni qonunda to‘g‘ri va egri turlarga bo‘lish bilan birga, boshqa asoslar bo‘yicha tasniflash ham mavjud. Qasdning barcha turlari aqliy va irodaviy belgilar mazmuni bo‘yicha to‘g‘ri yoki egri qasdga kirishini hamda, aslida, ularning turli xillarini tashkil etishini ta’kidlash o‘rinlidir. Shu bois ularni aniqlash ayb darajasini aniqlash uchun muhimdir.

Qasd shakllanish paytiga qarab *oldindan o‘ylangan* va *to‘satdan yuzaga kelgan* turlarga bo‘linadi. Oldindan o‘ylangan qasd jinoyat sodir etilishidan bir qancha vaqt oldin yuzaga keladi hamda uni amalga oshirish va jinoiy oqibatga erishish uchun usullar va vositalar o‘ylab qo‘yilishi bilan ajralib turadi. Shu bois qasdning ushbu turini aniqlash va isbotlashda, birinchidan, u jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilarini bajarishdan avval yuzaga kelganligini; ikkinchidan, kelgusi harakatning eng muhim jihatlari o‘ylab qo‘yilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jinoiy maqsadga erishish imkonini beradi. To‘satdan yuzaga kelgan qasd bevosita jinoyat amalga oshirilishidan avval yuzaga keladi, darhol amalga oshiriladi. Bu subyektning o‘z jinoiy qilmishini ilgaridan o‘ylab qo‘yishi bilan bog‘liq.

Ushbu turdagi qasdlarni bir-biridan farqlash huquqiy ahamiyatga ega, chunki, birinchidan, oldindan o‘ylangan qasd qonunda ba’zi bir jinoyatlar tarkibining kvalifikatsiyalovchi konstruktiv belgisi sifatida nazarda tutilgan (masalan, JK 175–178, 247, 251-m va b.). Oldindan o‘ylangan bunday shakldagi qasd qonunda faqat ilgaridan til biriktirib, bir guruh shaxslar ishtirokida sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan belgilangan. Ikkinchidan, agar bu holat Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasida jinoyat tarkibining belgisi sifatida nazarda tutilmagan bo‘lsa, Jinoyat kodeksi 56-moddasining talabiga binoan, bunday jazo belgilangan taqdirda aybni og‘irlashtiruvchi holat sifatida qaralishi mumkin. Uchinchidan, mazkur holat ayb darajasini aniqlashga ta’sir etadi, chunki ilgaridan tayyorgarlik ko‘rilgan bo‘lsa, qilmishning xavflilik darajasi ortishi aniq va, nihoyat, aynan shu tasnif ishtirokchilikni oddiy va murakkab ishtirokchilikka bo‘lish uchun mezonlardan biri hisoblanadi (JK 29-m.).

To‘satdan yuzaga kelgan qasd turlaridan biri affektlashgan qasd bo‘lib, u quyidagi belgilarga ega: 1) o‘ziga xos ruhiy holat – qattiq hayajon (affekt); 2) kutilmaganda yuzaga kelishi; 3) voqeaga darhol javob berish natijasida qattiq ruhiy hayajonning yuzaga kelishi; 4) jinoyat sodir etishning o‘ziga xos motivlari mavjudligi; 5) jabrlanuvchi harakatlarining qonunga xilofligi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu turdagi qasdni ajratish huquqiy ahamiyatga ega bo‘lib, u qasd turining jazo tayinlash vaqtida javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi

kerak bo‘lgan holatlar mazmunini tashkil etishida namoyon bo‘ladi (JK 55-m. 1-q. «д» b.). Bundan tashqari, jabrlanuvchi tomonidan qilingan g‘ayriqonuniy zo‘rlik yoki og‘ir haqorat, shuningdek, aybdor yoki uning yaqin kishisi o‘limiga yoki sog‘lig‘iga ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lgan yoxud sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa g‘ayriqonuniy harakatlar tufayli to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish, qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 98, 106- m.) mustaqil jinoyatlar sifatida qaralgan.

Yo‘nalganligi va mazmuniga ko‘ra aniq va noaniq qasd farqlanadi. Aniq qasdning muqobil va mutlaqo aniq turlari mavjud. Muqobil qasdga oldindan ko‘zda tutilgan bir yoki bir necha natijalarning yuz berishini istash xos. Mutlaqo aniq qasd oldindan ko‘zda tutilgan bitta aniq jinoiy oqibatning yuz berishini istash bilan ajralib turadi. Mazkur turdagi qasdlar mazmunlarini yanada chuqurroq tahlil qilish, ularning faqat to‘g‘ri qasdga xosligini ta’kidlashga asos bo‘ladi.

Noaniq qasd umuman ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini oldindan ko‘rish bilan ajralib turadi, ya’ni jinoyatchining ongi va irodaviy xatti-harakatida ushbu oqibatlarning kelib chiqishi noaniq shaklda ma’qullanadi. Ushbu shakldagi qasd mazmunidan kelib chiqib, uning faqat egri qasdda namoyon bo‘lishini e’tirof etish lozim. Noaniq qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarni huquqiy jihatdan baholash (kvalifikatsiya) haqiqatda yuz bergan oqibatlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

***Ehtiyotsizlik va uning turlari.*** Ehtiyotsizlik qonunda xavfi qasdga nisbatan kamroq bo‘lgan ayb shakli sifatida qaraladi. Bu jinoyatlarni tasniflash (JK 15-m.), tamom bo‘lmagan jinoyat (JK 25-m.) va jinoyatda ishtirokchilik (JK 27-m.) uchun javobgarlik masalalarini hal etishda, jazo turlarini tabaqalashtirib farqlashda va jinoyat qonunining boshqa qoidalarida aks etadi. Aybning ehtiyotsizlik orqasida qilingan shakli ikki, ya’ni jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish va jinoiy beparvolik turlariga bo‘linadi.

*Jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishning* xususiyati shundaki, bunda shaxs anglagan holda ehtiyot chorasini ko‘rmay, ushbu xatti-harakat qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkinligini bila turib, asossiz ravishda bunday oqibatlar yuz bermaydi deb hisoblaydi. Mazkur ta’rifga asoslangan holda jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishning aqliy va irodaviy belgilarini ajratish lozim.

Jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishning aqliy mazmunini shaxs muayyan harakatni amalga oshira borib, ongli ravishda zarur ehtiyot choralariga rioya qilmaydigan, bu esa jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini oldindan ko‘rishiga imkon beradigan ruhiy munosabatni tashkil etadi. Shu bilan birga, shaxsning ongi mavhum ravishda oldindan rejalashtirilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning oldini olish bo‘yicha mo‘ljaliga asos bo‘ladigan muayyan obyektiv va subyektiv omillar va sharoitlarni qamrab olganligi uchun ehtiyot choralarini ko‘rmaydi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘z-o‘ziga ishonishning aqliy belgilari quyida-

gilardan iborat: 1) jinoiy bo‘lmagan xatti-harakatlarni qilish chog‘ida ehtiyot choralariga ongli ravishda rioya etmaslik; 2) qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni ushbu xatti-harakatlarning natijasi sifatida yuz berishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilish; 3) mavjudligi ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelishiga imkon bermaydigan obyektiv va subyektiv omillar hamda sharoitlarni anglash.

Jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishning irodaviy mazmunini ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bermasligiga ishonish tashkil etadi. Ushbu ishonchning mohiyati shundaki, shaxs jinoiy bo‘lmagan maqsadlariga erishish uchun ehtiyot choralariga ongli ravishda rioya etmaydi, o‘z kuchi va xislatlariga (subyektiv omillar), shuningdek, qilmishni amalga oshirishning real sharoitida mavjud bo‘lgan boshqa holatlarga (obyektiv omillar) ishonadi, ularning mavjudligi va o‘z harakatlari jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarga olib kelmaydi deb o‘ylaydi. Jinoiy o‘z-o‘ziga ishonishning muhim jihatini mazkur ishonchning asossizligi tashkil etadi. Ishonchning asossizligi shundaki, shaxs obyektiv va subyektiv omillarning ta’sirini noto‘g‘ri baholaydi, u mazkur omillarning mavjudligi ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelishiga olib kelmasligi kerak deb fikr yuritadi. Shaxsning ushbu omillar o‘rnini baholashda yanglishishi, ularni ortiqcha baholashi shaxsning xatti-harakatlari aynan shu yo‘nalishda bo‘lishini belgilab beradi va ishonchning asossizligini ko‘rsatadi. Bu esa ruhiy munosabatni o‘ziga ortiqcha ishonish deb ta’riflash imkonini beradi. Shunday qilib, o‘ziga ortiqcha ishonishning irodaviy belgisi shaxsning qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelmasligiga asossiz ishonishidan iborat.

*Jinoiy beparvolikka* shaxsning o‘z xatti-harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘ra bilmasligi, ushbu oqibatlarni ko‘ra bilishga majburligi, ularni ko‘ra bilishi mumkinligi kiradi. Shaxsning o‘z harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga ko‘zi yetmasligi, bunday oqibatlar haqiqatda yuz berishi mumkinligini bilmasligi yoki ularning ijtimoiy xavfliligini sezmasligini bildiradi. Shunday qilib, jinoiy beparvolikda o‘z xatti-harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglash ham, ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish ham mavjud bo‘lmaydi.

Shaxs o‘z xatti-harakatlarining qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarini ko‘ra bilishi kerak yoki kerak emasligini va ko‘ra olishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash uchun ikki mezondan – obyektiv va subyektiv mezondan foydalaniladi.

Obyektiv mezon qonunda «oldindan ko‘ra bilishi kerak» degan so‘zlar orqali ifodalangan bo‘lib, shaxsning o‘z xatti-harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishi mumkinligini ko‘ra bilishi shartligini va ehtiyot choralarini ko‘rishi kerakligini bildiradi. Binobarin, obyektiv mezon normativ xususiyatga ega. Uning normativligi shundaki, oqibatlarni ko‘ra bilishi shartligi qonun talablaridan, maxsus qoidalar va yo‘riqnomalardan, kasbiy, xizmatga oid va boshqa burchlaridan, shuningdek, turmushda qabul qilingan umumiy qoidalardan kelib chiqadigan muayyan

ehtiyot choralariga rioya etish zarurati bilan belgilanadi. Demak, agar shaxs muayyan xatti-harakatni amalga oshirish chog‘ida zararli oqibatlar yuz berishining oldini olish uchun ehtiyot chorasini ko‘rish majburiyatiga ega bo‘lmasa, bunday oqibatlarning yuz berganligi uchun unga ayb qo‘yib bo‘lmaydi va u javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Subyektiv mezon qonunda «ko‘ra olishi mumkin» degan so‘zlar orqali ifodalangan bo‘lib, shaxsning muayyan obyektiv sharoitlardan va individual xislatlaridan kelib chiqib, qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishini haqiqatda oldindan ko‘ra olishi mumkinligini bildiradi. Bundan qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko‘rish majburiyati faqat shunday imkoniyatga ega shaxslargagina yuklatilishi kelib chiqadi.

Shunday qilib, shaxs muayyan vaziyatda qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuz berishini nafaqat ko‘ra bilishi shartligi (obyektiv mezon), balki o‘z individual xislatlari va qobiliyatlari bo‘yicha oldindan ko‘ra olishi mumkinligi (subyektiv mezon) isbotlangan taqdirdagina jinoiy beparvolik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

## 3. Murakkab aybli jinoyat

*Murakkab ayb* jinoyat tarkibida ikki shakldagi ayb, ya’ni qasd va ehtiyotsizlikning birlashishidan hosil bo‘ladi. Murakkab ayb mustaqil shakldagi ayb emas, balki obyektiv tomondan murakkablashgan, jinoyat tarkibidagi qasd va ehtiyotsizlikning uyg‘unligini ifodalovchi ruhiy munosabatdir.

Qonunda murakkab aybli jinoyatning ikki turini ajratish mumkin. Birinchi turini konstruktiv belgilariga ko‘ra, ikki jinoiy oqibatga ega bo‘lgan jinoyatlar tashkil etadi. Bunday jinoyatlar tuzilishiga ko‘ra kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida asosiy tarkibdagiga qaraganda ancha og‘irroq jinoiy oqibatlar nazarda tutiladigan moddiy tarkiblarga kiradi. Bu o‘rinda gap jinoyatlarning faqat ushbu tarkiblardagina asosiy oqibatlarga va kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida namoyon bo‘ladigan boshqa oqibatlarga turlicha ruhiy munosabat bo‘lishi mumkin bo‘lgan kvalifikatsiyalangan moddiy tarkibi to‘g‘risida bormoqda. Masalan, jabrlanuvchining o‘limiga olib kelgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (JK 104-m. 3-q. «д» b.) ana shunday tuzilishga ega.

Murakkab aybli jinoyatning ikkinchi turini asosiy tarkib kvalifikatsiyalangan jinoiy oqibat bilan to‘ldirilgan jinoyatlar tashkil etadi. Mazkur jinoyatlarda murakkab aybga asosiy formal tarkib belgilariga nisbatan qasd va ushbu tarkibni kvalifikasiyalovchi oqibatlarga nisbatan ehtiyotsizlik bo‘lishi xos. Og‘ir oqibatlarga olib keladigan zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-m. 3-q.) kabi norma shu tariqa tuzilgan.

Jinoyat kodeksining 23-moddasiga binoan, murakkab aybli jinoyatlar qanday turda bo‘lishidan qat’i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar deb baholanishi lozim. Qonundagi bunday qaror asosiy tarkibda aybning qasd shaklidan kelib chiqadi. Ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy munosabat jinoyatning

kvalifikatsiyalangan tarkiblarini tashkil etuvchi oqibatlarga nisbatangina namoyon bo‘ladi. Binobarin, kvalifikasiyalangan oqibatga ehtiyotsiz munosabat javobgarlikni kuchaytiradi va shu bois sodir etilgan jinoyat qasdli asosiy tarkibining huquqiy oqibatlarini bartaraf etmaydi. Murakkab aybli jinoyatni, umuman aybni qasd shaklida sodir etilgan jinoyat deb baholash masalasini qonunda hal etish aynan shu omilga asoslanadi.

## 4. Jinoyatning motivi va maqsadi

Jinoyatning motivi va maqsadi uning subyektiv tomonidagi mustaqil belgilarni tashkil etadi. Ular subyektiv tomonning asosiy belgisi bo‘lgan aybga juda yaqin turadi, ammo u bilan aynan bir narsa emas. Motiv inson ongiga ta’sir etadi, irodasini yo‘naltiradi, inson harakatlarining xususiyatini belgilab beradi va shu sababli aybning mazmunini aniqlash imkonini beradi, lekin o‘z mustaqilligini yo‘qotmaydi.

*Jinoyat motivi* – bu subyekt ehtiyojlari va manfaatlari sababli yuzaga keladigan, anglangan moyillik bo‘lib, uni jinoiy qilmish sodir etishga undaydi.

*Jinoyat maqsadi* – subyekt jinoiy qilmishni sodir etishda erishishga intiladigan fikriy natija.

Insonning har qanday irodaviy harakati, jumladan, jinoiy harakati muayyan motivlarga ega bo‘ladi va qo‘yilgan maqsadga erishish tomon yo‘nalgan bo‘ladi. Motiv va maqsad o‘rtasida ichki aloqadorlik mavjud. Shaxsda jinoyat motivining shakllanishi muayyan maqsadning qo‘yilishini ham nazarda tutadi. Shu bois u yoki bu jinoyatni sodir etish motivlarini aniqlash ko‘pincha shaxsning jinoyat sodir etish orqali erishmoqchi bo‘lgan jinoiy maqsadlarini ham aniqlash imkonini beradi. Masalan, birovning mulkini g‘ayriqonuniy egallashda g‘arazli motivlarning mavjudligi o‘zganing mulki hisobidan boyish maqsadi ham mavjudligini taqozo etadi.

Shu bilan birga, motiv va maqsad o‘zaro mos kelmaydigan tushunchalardir, chunki ular subyektning sodir etilayotgan jinoyatga ruhiy munosabatini turlicha ifodalaydi. Agar motiv shaxs jinoiy qilmishni sodir etishda nimaga asoslanganligi haqidagi savolga javob bersa, maqsad harakatlarning yo‘nalishini, subyekt intilayotgan natijalar haqidagi tasavvurni ifodalaydi. Jinoyat motivlari doimo aniq, ammo mazmuni va shakli bo‘yicha turlicha bo‘ladi. Masalan, rashk, qasos, baxillik, g‘araz, bezorilik niyatlari va h. k. Ayrim jinoyatlar sodir etilayotgan jinoyatdagi muhimligi va o‘rni bo‘yicha xilma-xil bo‘lgan bir qator motivlar ta’sirida sodir etilishi mumkin. Masalan, qasddan odam o‘ldirish rashk, qasos va baxillik motivlari bo‘yicha sodir etilishi mumkin. Bunday hollarda bir-biriga zid bo‘lmagan bir necha motivlarning bo‘lishi ushbu motivlarning keyingi bo‘g‘inida yagona pirovard maqsad qo‘yilishiga olib kelishi mumkin.

Jinoyatlarning maqsadlari ham ularning mazmunidan kelib chiqib, turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, g‘arazli maqsad, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, urush keltirib chiqarish uchun ig‘vo qilish maqsadi, aholi guruhlari o‘rtasida milliy, irqiy, etnik yoki diniy belgilar bo‘yicha dushmanlik,

kelishmovchilik yoki ziddiyatlar keltirib chiqarish maqsadi va h. k. Tajovuzning ijtimoiy xavfliligi koʻp jihatdan jinoiy maqsadning ijtimoiy xavfliligiga bogʻliq.

Motiv va maqsadning jinoiy-huquqiy ahamiyati turlicha, chunki ular jinoyat tarkibining qoʻshimcha belgilaridir. Motiv va maqsad ayrim shartlar mavjud boʻlganida jinoyat tarkibi subyektiv tomonining majburiy belgilari boʻladi.

*Birinchidan,* Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida motiv va maqsad bevosita koʻrsatilganida. Masalan, motiv Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismining javobgarlikni ogʻirlashtiradigan holatlarda qasddan odam oʻldirishni nazarda tutadigan «г» bandida (oʻz xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsni yoki uning yaqin qarindoshlarini), «и» bandida (tamagirlik niyatida), «к» bandida (milliy yoki irqiy adovat zamirida), «л» bandida (bezorilik oqibatida), «м» bandida (diniy taassublar zamirida) koʻrsatilgan. Maqsad esa «н» (kishi aʼzolarini kesib olib, boshqa kishiga koʻchirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida) va «о» (boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida) bandlarida va Jinoyat kodeksining bir qator boshqa moddalarida koʻrsatilgan.

*Ikkinchidan*, motiv va maqsadning zarurligi jinoyat tarkibining yuridik tabiatidan kelib chiqadigan boʻlsa. Bunday tabiat Jinoyat kodeksi Maxsus qismi jinoyatning ushbu tarkibi ifodalangan normasining mazmunini Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi jinoyatlarning aralash tarkiblarini nazarda tutuvchi boshqa normalarining mazmuni bilan qiyoslash natijasida aniqlanadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 169-moddasining dispozitsiyasida koʻrsatilmagan boʻlishiga qaramay, gʻarazli motiv va maqsad oʻgʻrilik jinoyati tarkibining subyektiv tomonini tashkil qiluvchi majburiy belgilardir. Biroq ularning mavjud boʻlishi zarurligi aniq boʻlib, ushbu normani Jinoyat kodeksi 173 va 277-moddalarida belgilangan normalar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Jabrlanuvchiga qasd qilish motivi boʻyicha va unga ziyon yetkazish maqsadida oʻzganing mol-mulkini faqat ularni yoʻq qilish (oʻtda yoqish, daryoga choʻktirish) uchun yashirin ravishda talon-toroj qilish Jinoyat kodeksi 173-moddasida nazarda tutilgan mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish jinoyatining tarkibini tashkil qiladi, obyektiv belgilari boʻyicha xuddi shunday qilmishni bezorilik oqibatida sodir etish Jinoyat kodeksi 277-moddasida belgilangan bezorilik jinoyatining tarkibini tashkil etadi. Bir jinoyatning muayyan tarkibini boshqa oʻxshash jinoyat tarkiblari bilan bu tariqa qiyoslash Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi tegishli normalarda bevosita koʻrsatilmagan taqdirda, u yoki bu motiv va maqsadlar ushbu muayyan jinoyat tarkibiga xos yoki xos emasligini aniqlash imkonini beradi.

Subyektiv tomonining majburiy belgisi muayyan motivlar va maqsadlar boʻlgan jinoyat tarkiblarida qilmishni sodir etish vaqtida ularning boʻlmasligi yo umuman jinoyat tarkibining yoʻqligini, yo boshqa jinoyat tarkibi borligini bildiradi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida motiv va maqsad koʻrsatilmagan va u yoki bu jinoyatning qonunchilik konstruksiya-

si ularni taqozo etmagan taqdirda ular subyektiv tomonning qo‘shimcha (fakultativ, bo‘lishi shart bo‘lmagan) belgilari deb tan olinadi. U yoki bu jinoyat tarkibining majburiy belgilari bo‘lmagan hollarda ham motiv va maqsadni aniqlash jazoni individuallashtirish (JK 55, 56-m.), jinoyatga yordam bergan sabab va sharoitlarni aniqlash, jinoyatlarning oldini olish choralarini ko‘rish uchun zarur.

Shu bilan birga, jinoyat motivi va maqsadining ahamiyati ular jinoyat tarkibining majburiy belgisi sifatida ko‘rsatilgan yoki qo‘shimcha belgisi deb tan olingan hollar bilangina cheklanib qolmaydi. Ular jinoyat tarkibining boshqa elementlarini, chunonchi obyektiv tomonini tavsiflashda katta ahamiyat kasb etadi. Jinoyat sodir etish motivi, maqsadi, usuli, sharoiti va qurollari o‘rtasida ayniqsa yaqin aloqa bor. Jinoyat sodir etish uchun qanday usul, qurol va vositalardan foydalanilishi uning maqsadiga bog‘liq. Jinoyatlarning obyektiv tomonini ifodalovchi belgilarni aniqlagan qilmishning subyektiv belgilarini (chunonchi, uni sodir etish motivlari va maqsadlarini) inobatga olish zarur. Shu bois amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida (JPK 82-m.) motiv va maqsad jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarga kiritilgan. JPK 467-moddasiga binoan, ayblov hukmining tavsiflovchi qismi jinoyat sodir etilishining motivlari va maqsadlarini ko‘rsatishi shart. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sud hukmi to‘g‘risida»gi 1997-yil 2-may qarorida «Hukmda jinoyat ishining sudda aniqlangan deb tan olgan holatlarini, jumladan sodir etilgan jinoyat motivlari va maqsadlari, shuningdek, sud ushbu holatlar haqiqatan ham bo‘lgan deb ishonch hosil qilishiga asos bo‘lgan dalillar bayon etilishi zarur»[1], deyiladi.

## 5. Yuridik va faktik xatolar, ularning jinoiy javobgarlik va jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’siri

Aybli javobgarlik prinsipi bilan xatolar haqidagi masala chambarchas bog‘liq. Xato deganda, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning ushbu qilmishning yuridik xossalari va haqiqiy holatlari masalasidagi yanglishuvi tushuniladi.

*Yuridik xato* – shaxsning sodir etilgan qilmishning jinoiyligi yoki jinoiy emasligi, uning huquqiy kvalifikatsiyasi, ushbu qilmish uchun belgilanadigan jazo turi va miqdori masalasidagi yanglishuvi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, jinoyat nazariyasida yuridik xatolarning to‘rt xil turi farqlanadi:

1) shaxs o‘zi sodir etgan qilmishni jinoyat qonunida shunday yozilmagani holda jinoyat deb xato o‘ylashi. Bunday xato (faraz qilingan) jinoyat bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda jinoiy-huquqiy ayb mavjud bo‘lmaydi, shaxs javobgarlikka tortilmaydi, chunki buning uchun obyektiv asos bo‘lmaydi, jinoiy qilmish sodir etilmagan bo‘ladi;

2) shaxs o‘zi sodir etgan qilmishni aslida jinoiy bo‘lgani holda jinoiy

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–1997. Т. 2. – Т., 1997. – 233–234-б.

emas deb xato o‘ylashi. Bunday xato aybni inkor qilmaydi. Zero, qonunni bilmaslik qilmishning ijtimoiy xavfliligini tushunmaslik bilan teng emas va taqiqlangan qilmishni sodir etgan shaxsni oqlamaydi, shu bois shaxs umumiy asosda jinoiy javobgarlikka tortiladi;

3) subyektning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishni huquqiy baholashda yanglishuvi. Masalan, shaxs o‘zganing mulkini zo‘rlik ishlatmay ochiqdan-ochiq talon-toroj qiladi (JK 166-m. 1-q.), ammo yashirin ravishda talon-toroj (JK 169-m.) qilyapman deb o‘ylaydi. Huquqiy kvalifikatsiya qasd yoki ehtiyotsizlikning aqliy va irodaviy jihatlarini ifodalovchi holatlariga kirmaydi va shu bois ayb javobgarlikka ta’sir etmaydi. Bunday hollarda subyekt (uning fikricha) sodir etgan jinoyati uchun emas, balki haqiqatda sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortiladi;

4) subyektning sodir etgan jinoyati uchun tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazo turi va hajmi haqidagi yanglishuvi. Masalan, agar subyekt bezorilik uchun jarimaga tortilaman deb o‘ylasa-yu, uni ozodlikdan mahrum etishga hukm qilsalar, u holda mazkur jinoyat bunday og‘ir jazoga olib kelishini bilmaslik ayb va javobgarlikka ta’sir etmaydi, chunki bu holat qasd va ehtiyotsizlik doirasidan tashqarida bo‘ladi.

*Faktik xato* – bu shaxsning sodir etilgan qilmishning haqiqiy holatlari haqidagi noto‘g‘ri tasavvuri. Biroq jinoiy javobgarlik uchun har qanday faktik xatolar emas, balki faqat jinoyat tarkibi elementlariga kiradigan xatolargina ahamiyatlidir. Yo‘naltirilgan baho predmetiga qarab obyektdagi, sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik xususiyatidagi, oqibatlarning og‘irligidagi, sababiy aloqadorlikning rivojlanishidagi, javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlardagi xatolar farqlanadi.

Tajovuz obyektidagi xato shundan iboratki, subyekt bir obyektga zarar keltirayapman deb o‘ylaydi, aslida esa boshqa obyekt ziyon ko‘radi. Masalan, shaxs qurol-yarog‘ omboridan yashirincha yashik o‘g‘irlaydi va ichida o‘q-dori bor deb o‘ylaydi, lekin, aslida, harbiy kiyim-kechak solingan yashikni o‘g‘irlagan bo‘lib chiqadi. O‘g‘irlayapman deb o‘ylagan obyektiga tajovuz, o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-m.) jinoyatining tarkibini tashkil etadi. Aslida, sodir etilgan qilmish o‘g‘rilik (JK 169-m.) jinoyatining tarkibiga ega. Birinchi holda tajovuz obyekti ijtimoiy xavfsizlik bo‘lsa, ikkinchisida mulk. Mazkur obyektlar yuridik jihatdan teng qiymatli emas, chunki birinchi obyektga tajovuz qilganlik uchun ikkinchisiga qaraganda og‘irroq jazo belgilangan. Shu munosabat bilan, sodir etilgan qilmish qasdning yo‘nalishi bo‘yicha o‘q-dorini qonunga xilof ravishda egallashga suiqasd deb, ya’ni Jinoyat kodeksi 25-m. 2-q hamda 247-m. bo‘yicha baholanishi zarur.

Obyektdagi xatodan jinoiy tajovuz predmeti va jabrlanuvchining shaxsidagi xatoni farqlash lozim. Tajovuz predmetidagi xatoda mo‘ljallangan subyektga emas, balki boshqa predmetga bevosita ta’sir ko‘rsatilsa ham, aynan mo‘ljallanayotgan obyektga ziyon keltiriladi. Masalan, subyekt A.ning xonadoni o‘rniga adashib B.ga tegishli qo‘shni xonadonga kiradi va qimmatbaho buyumlarni o‘g‘irlaydi. Jabrlanuvchining shaxsidagi xato shundaki, ma-

salan, subyekt muayyan shaxsni o‘ldirishni istagani holda, boshqa shaxsni u deb o‘ylaydi va unga qasd qiladi.

Predmetdagi xatoda ham, jabrlanuvchidagi xatoda ham aynan mo‘ljallangan obyektga (birinchi holda mulkka, ikkinchisida esa shaxsga) ziyon yetkazilgani bois, (agar predmet yoki jabrlanuvchi muayyan jinoyat tarkibining muqarrar belgisi bo‘lmasa) bunday xato ayb va javobgarlikka ta’sir etmaydi.

Jinoyat predmeti va jabrlanuvchining shaxsidagi xato, ular jinoyat tarkibining muqarrar belgilari bo‘lganida, subyektning harakatlaridagi qasdni bartaraf etmaydi. Biroq sodir etilgan qilmish ushbu hollarda tugallangan jinoyat deb emas, balki jinoyatga suiqasd deb baholanadi. Chunki jinoiy niyat obyektiv ravishda amalga oshmay qolgan. Masalan, haqiqiy pullarni sotayotgan subyektning xayolida qalbaki pullarni o‘tkazish degan noto‘g‘ri tasavvuri Jinoyat kodeksi 25-m. 2-q. va 177-m. bo‘yicha baholanadi. Sub’yektning jabrlanuvchiga xos biron bir xislat haqidagi xatosi ham jinoiy qilmishni baholashning xuddi shunday qoidasiga asoslanishi kerak. Masalan, nomusga tegishda subyekt jabrlanuvchi voyaga yetmagan shaxs deb xato o‘ylaydi, aslida esa u voyaga yetgan shaxs deb tan olinadi. Jabrlanuvchining shaxsiga xos xislatlar haqidagi bunday xatoda sodir etilgan qilmish o‘ylangan jinoyatga suiqasd sifatida, ya’ni Jinoyat kodeksi 25-m. 2-q. va 118-m. 3-q. «a» bandi bo‘yicha baholanishi lozim.

Sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik shaklidagi xato shundan iboratki, shaxs o‘z qilmishini ijtimoiy xavfli emas deb o‘ylaydi, aslida esa uning xatti-harakatlari ijtimoiy xavfli bo‘lib, jinoyat tarkibini tashkil etadi. Masalan, 16 yoshga to‘lmagan jabrlanuvchiga nisbatan u voyaga yetgan shaxs deb o‘ylab, zo‘rlik ishlatmay uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etishdagi xato uchun qasddan sodir etilgan jinoyat kabi javobgarlikka tortish mumkin emas, chunki 16 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish uchun jinoiy javobgarlik faqat qasdli ayb bilan bog‘lanadi (JK 129-m.). Agar qilmish har qanday shakldagi aybda jinoiy deb hisoblansa, uning ijtimoiy xavfli xususiyatini bilmaslik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortish mumkinligini inkor etmaydi. Masalan, hamshira yanglishib inyeksiya qilish yo‘li bilan bemor organizmiga zarur dori o‘rniga boshqa preparatni kiritadi, natijada inson olamdan o‘tadi. Bunday holda sodir etilgan qilmish natijasiga ko‘ra xato mavjud bo‘ladi. Biroq birinchi holdan farqli o‘laroq, shaxsning o‘z kasbiy majburiyatini lozim darajada bajarmasligi oqibatida ehtiyotsizlik tufayli odam o‘ldirganligi uchun jinoiy javobgarlik (JK 116-m. 3-q.) aynan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan ayb shakli bilan bog‘lanadi. Bunday holda hamshira o‘z xatosini ko‘z oldiga keltirmagan, vaholanki ko‘ra bilishi kerak edi. Binobarin, beparvolik orqasida ehtiyotsizlik shaklidagi ayb qilingani ko‘rinib turibdi va shuning uchun ham hamshira javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Jinoyat oqibatlarining og‘irligidagi xato subyektning jinoyat tufayli yetkazilgan zarar miqdori haqidagi noto‘g‘ri tasavvuridan iborat. Bunda xatoni ikki xil jinoiy-huquqiy baholash mumkin. Birinchidan, subyekt o‘zi yetkazgan

ziyon u amalda keltirgan ziyonga qaraganda kamroq bo‘ladi deb yanglish hisoblaydi. Masalan, aybdor jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yetkazaman deb o‘ylab, yuziga musht tushiradi. Biroq zarb natijasida jabrlanuvchi balandlikdan beton maydonchaga qulab tushadi va halok bo‘ladi. Bunday vaziyatda xato yetkazilgan zarar – o‘limni qasddan sodir etganlik uchun javobgarlikni inkor etadi. Biroq subyekt ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirgani uchun javobgarlikka tortilishi lozim bo‘ladi (JK 102-m.), chunki u jabrlanuvchining yuziga urganida, buning natijasida jabrlanuvchi beton maydonchaga qulab tushadi va halok bo‘ladi deb o‘ylamagan, vaholanki bunday oqibatning yuz berishi mumkinligini ko‘ra bilishi kerak edi. Faktik xato turining ikkinchi varianti subyektning o‘zi yetkazgan zarar miqdori haqida noto‘g‘ri tasavvur hosil qilishidan iborat. Masalan, shaxs juda ko‘p miqdorda o‘g‘rilik qilish istagida seyfni ochadi, ammo seyfda kam miqdorda pul bo‘ladi. Bunday xato istalgan jinoiy oqibat yuz berishi uchun qo‘lidan kelgan hamma ishni qilganligi, lekin unga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tufayli ushbu natija yuz bermaganidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan subyekt amalda tugallangan ancha miqdordagi o‘g‘rilik uchun emas, ko‘p yoki juda ko‘p miqdordagi o‘g‘rilik uchun (uning shaklini inobatga olgan holda) javobgarlikka tortiladi.

Sababiy aloqadorlik rivojlanishidagi xato subyektning o‘z qilmishi va uning natijasida yuz bergan ijtimoiy xavfli oqibat o‘rtasidagi sababiy aloqadorlik haqidagi noto‘g‘ri tasavvurida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, shaxsni qasddan harakat qilgan deb tan olish uchun uning ongi sababiy aloqadorlikning tafsilotlarini emas, balki umumiy qonuniyatlarini, ya’ni jinoiy oqibat boshqa sabablar natijasida emas, aynan uning harakatlari natijasida kelib chiqishini qamrab olishi zarur. Binobarin, agar jinoiy harakatlar natijasida aybdorning mo‘ljalidagi jinoiy oqibat yuz bersa, sababiy aloqadorlikdagi xato ayb va javobgarlik shakliga ta’sir etmaydi.

Sababiy aloqadorlikdagi xato turlaridan biri harakatdan og‘ish deb nomlanadigan holatdir. Bunday holat aybdorga bog‘liq bo‘lmagan sabablar tufayli uning harakatlari bilan boshqa shaxsga zarar yetkazilgan taqdirda yuz beradi. Bunday harakatlarning og‘ishi birgalikda ikki jinoyatni tashkil etadi, ya’ni mo‘ljallangan qasddan sodir etiladigan jinoyatga suiqasd qilish hamda ziyon ehtiyotsiz ayb bilan qamrab olinganda boshqa shaxsga ehtiyotsizlik oqibatida zarar yetkazish. Masalan, aybdor A.ni o‘ldirish niyatida unga o‘q otadi, ammo o‘q uning yonida bo‘lgan B.ga tegadi. Bunday vaziyatda aybdor A.ni o‘ldirishga suiqasd qilganligi va ehtiyotsizlik oqibatida B.ni o‘ldirganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak.

Aybni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etiladigan xato bunday holatlar mavjud bo‘lgani holda ularni yo‘q deb, yoxud aslida bo‘lmagan bunday holatlarni bor deb xato o‘ylashda ifodalanadi. Ko‘pincha bular jinoiy tajovuz obyekti va predmetiga hamda jabrlanuvchining shaxsiga tegishli holatlardagi xatolar, shuningdek, jinoiy oqibatlar, og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarga ega jinoyatlarni sodir etish joyi, vaqti, sharoiti, usuli, quroli va vositalaridagi xatodir. Aybdorning yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar masalasidagi yanglishuvi subyekt qasdining

yo‘nalishi va mazmunini hisobga olgan holda hal etilishi lozim. Agar aybdor og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lganda jinoyat qilyapman deb o‘ylasa-yu, aslida unday bo‘lmasa, u og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lganda sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi lozim. Sub’yekt mavjudligini bilmagan og‘irlashtiruvchi holatlar unga ayb qilib qo‘yilishi mumkin emas.

## 6. Aybsiz holda zarar yetkazish

Jinoyat qonunida tasodif (kazus) deb nomlanadigan vaziyatlar norma tarzida mustahkamlangan. Qilmish aybsiz sodir etilgan deb tan olinadigan tasodif belgilari qonunda ham amaliyot maqsadlarida, ham ayblilik prinsipiga rioya etilishini kafotlash maqsadida mustahkamlangan. Jinoyat qonunining 24-moddasida aybsiz keltirilgan zararning ikki xil ifodasi taklif etiladi.

Birinchisi ehtiyotsizlik orqasida yuz beradigan formal jinoyatlar bilan tasodif o‘rtasida chegara o‘tkazadi. Bu ifoda «o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatlarini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo‘lmagan» so‘zlari orqali ifodalanadi. Jinoyat qonunida jinoyatning formal ehtiyotsizlik tarkiblari bo‘lishi eng qimmatli ijtimoiy munosabatlarga ziyon yetkazishning oldini olish zaruratidan kelib chiqadi. Masalan, davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarning, shuningdek, ashyo yoki moddalarning ehtiyotsizlik orqasida yo‘qotilishi (JK 163-m.) tugallangan jinoyatni tashkil etadi. Ayni paytda qonunda bunday jinoyatlar uchun faqat mazkur hujjatlar, ashyolar yoki moddalar o‘z xizmat yoki kasb faoliyati yuzasidan ishonib topshirilgan shaxslarning, basharti ularning mazkur hujjat va buyumlar bilan muomalasi qoidaga xilof munosabat deb topilgan va buning oqibatida hujjatlar yo‘qotilgan hollardagina javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Demak, hujjatlarni boshqa shaxslar yo‘qotgan taqdirda, hatto ular bunday qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashlari mumkin bo‘lgan taqdirda ham, obyektiv mezon va aqliy element bo‘lmaganligi sababli, ular aybdor bo‘lmaydilar. Shunday qilib, shaxs o‘zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglamasligi, shuningdek, obyektiv, subyektiv mezonning yo‘qligi aybsiz holda ziyon yetkazishni tashkil qiladi.

Aybsiz holda zarar yetkazishning ikkinchi ifodasi ehtiyotsizlikning moddiy tarkiblarga nisbatan qo‘llaniladigan tasodif belgilarini bildiradi va qonunda «ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishiga ko‘zi yetmagan, ko‘zi yetishi mumkin va lozim ham bo‘lmagan» so‘zlari orqali ifodalanadi. Aybsiz holda zarar yetkazishning ushbu turi jinoiy ehtiyotsizlik mazmuniga bevosita ziddir va, binobarin, jinoiy ehtiyotsizlik belgilari aniqlanganida – jinoyat mavjudligini, ular bo‘lmaganda esa – shaxsning javobgarlikka tortilishi uchun yetarli bo‘lmagan aybsiz holda yetkazilgan ziyonning mavjudligini ta’kidlash lozim.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyatning subyektiv tomoni nima va uning vazifasi nimadan iborat?
2. Jinoyat tarkibining subyektiv tomonini tashkil etuvchi belgilarini aytib bering.
3. Ayb mazmunini ochib bering va shakllarini sanab bering.

4. Qasd turlari nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?

5. Aybning ehtiyotsiz shakli deganda, nima tushuniladi va uning qanday turlari mavjud?

6. Jinoiy beparvolik kazusdan nimasi bilan farq qiladi?

7. Murakkab aybli jinoyat nima?

8. Jinoyat motivi nima?

9. Jinoyat maqsadi nima?

10. Jinoyat motivi va maqsadining jinoiy-huquqiy ahamiyatini aytib bering.

11. Jinoyat huquqida xatolarning qanday turlari mavjud?

12. Haqiqatdagi xatolarning jinoyatlarni baholashga ta’siri qanday?

## IX bob
## JINOIY JAVOBGARLIK ASOSLARI

### 1. «Jinoiy javobgarlik» tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdir». Mazkur konstitutsiyaviy qoida huquqiy demokratik davlatda davlat, jamiyat va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning negizi qonuniylik bo‘lib, u jamiyatda o‘zaro huquq va majburiyatlarga, ya’ni o‘zaro mas’uliyatga ega bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning tartibga solinishini ta’minlovchi qonun chiqarish tizimiga ega bo‘lish zaruratini belgilaydi. Binobarin, mas’uliyat shunday hodisaki, u inson borlig‘ini tashkil etuvchi uchta asosiy manba: shaxs, jamiyat va davlat faoliyatini tartibga solishning obyektiv zaruratini aks ettiradi.

«Ijtimoiy mas’uliyat inson xatti-harakatini jamiyat talablariga muvofiq ravishda tashkil qiladi va yo‘naltiradi, u individ va ijtimoiy muhit orasida o‘zaro mas’uliyat va ziddiyatli bog‘lanish orasidagi akslanish sifatida vujudga keladi va jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatini o‘zida mujassamlashtiradi»[1]. Jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarning tartibga solinganligi barcha subyektlar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini taqozo etishi va o‘zaro tobeligi tufayli yuzaga kelgan zarurat bo‘lib, unga mazkur subyektlarni davlat tomonidan qonun tizimi yordamida tartibga solish orqali erishiladi. Shunday qilib, «ijtimoiy mas’uliyat – jamiyat hayotida kelishmovchilik, beboshlik, anarxiya va boshboshdoqlikni yo‘q qilish, ziddiyat va tafovutlarning cheklanishini ta’minlovchi mexanizmi[2] bo‘lib, uning mazmunini subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning obyektiv zarurati tashkil etadi. Binobarin, uning ifodalanish shakli ijtimoiy normalardan iborat bo‘lib, ularsiz mas’uliyatni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Har qanday ijtimoiy norma, yuzaga kelish va amal qilish xususiyatidan qat’i nazar, majburiy yoki taqiqlangan xulq-atvor shaklidan iborat bo‘ladi. Shu orqali u ijtimoiy zaruratni ifodalaydi hamda xulq-atvor etaloni, standarti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy normalarning ikkita tizimini tan olish umum tomonidan e’tirof etilgan bo‘lib, ularni farqlash mezoni yuzaga kelishi va shakllanish xususiyatlaridan kelib chiqadi. Birinchi tizim u yoki bu ijtimoiy uyushmaning hayotiy faoliyati jarayonida vujudga kelganligi sababli, insonlar jamiyatiga tegishli bo‘ladi. Mazkur ijtimoiy normalarga urf-odatlar, an’analar, umum e’tirof etgan xulq-atvor qoidalari, axloq-odob kiradi.

Ikkinchi tizimdagi normalar davlatning maxsus vakolatli organlari

---

[1] *Таргабаев А.Н.* Понятие и цели уголовной ответственности. – Красноярск, 1986. – С. 6.

[2] Qarang: *Прохоров В.С.* Преступление и ответственность. – Л., 1984. – С. 107.

tomonidan yaratilib, huquqiy shaklga ega bo‘ladi hamda jamiyat va davlat faoliyatining turli jabhalarida ma’lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy normalarning mazkur turi yuridik (huquqiy) mas’uliyatni yuzaga keltiradi. Zero, muayyan normalar mazkur normalarning o‘zi bilan tartibga solinadi, unga jinoiy javobgarlikni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Huquqiy normalarga rioya qilish davlat tomonidan nazorat qilinadi, ularni tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar esa majburlovni qo‘llash imkoniyati bilan kafolatlanadi.

Davlat tomonidan jamiyatni boshqarish insonlar xulq-atvorini (ijtimoiy munosabatlar) ishontirish va majburlov usullari yordamida tartibga solishdan iborat. Shaxslarda amaldagi qonun tizimidagi qoidalarga binoan xulq-atvorga ega bo‘lish zarurligi va maqsadga muvofiqligini anglashni yuzaga keltirish orqali ishontirishni amalga oshirishga erishish mumkin. Ikkinchi usul esa huquqiy normalar qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofazalash maqsadida majburlov choralarini qo‘llash orqali vakolatli huquq tartibot organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ishontirishdan iborat majburlov usuli bilan huquqiy tartibga solish insonlar xulq-atvoriga huquqiy normalar yordamida maqsadli ta’sir ko‘rsatishni mujassamlashtirgan bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. Binobarin, javobgarlikning o‘zi, umuman olganda, huquqiy munosabatni tashkil qiladi.

Turmushda javobgarlik atamasi ikki ma’noda qo‘llanadi: 1) majburiy kafillik; 2) javob choralari, jazo[1]. Mazkur izohdan kelib chiqqan holda, «javobgarlik» atamasi subyektiv va obyektiv omillarni bildiruvchi ikki jihatda qo‘llanadi deb xulosa qilish mumkin.

Javobgarlikning subyektiv omilini tashkil qiluvchi birinchi jihat huquqqa asoslangan majburiy xulq-atvorga ichki rag‘batni bildirib, u odamlar tomonidan o‘z xulq-atvorining huquqiy norma-qoida va taqiqlari talablariga muvofiq bo‘lishi bilan bog‘liq burch va majburiyatlarga asoslanadi. Javobgarlikning mazkur jihati an’anaga ko‘ra *pozitiv* (faol, perspektiv) jihat deb ataladi va odamlarni ishontirish yo‘li bilan tartibga solinadi. Javobgarlikning pozitiv jinoiy jihati shaxsning haqqoniy xulq-atvorida ifodalanib, u ijtimoiy xavfli, qonunga xilof, aybli va jinoiy jazoga loyiq qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik)dan tiyilish bo‘yicha jinoyat qonunida nazarda tutilgan majburiyatlarning shaxs tomonidan bajarilishida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy jihatdan pozitiv majburiyatga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida yetarlicha aniq izoh berilgan. Unga ko‘ra, «Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart».

Ikkinchi jihat javobgarlikning obyektiv omilini tashkil qilib, vakolatli huquq-tartibot organlari tomonidan majburlov choralarini qo‘llash orqali huquqiy norma qoidalarini buzgan shaxsga tashqi ta’sir o‘tkazishdan iboratdir. Javobgarlikning mazkur jihatini *salbiy* (retrospektiv) jihat deb atash rusum

[1] Qarang: *Ожегов С.И.* Словарь русского языка.– М., 1987. – С. 401.

bo‘lganki, uning mohiyati huquqiy normalarni buzgan shaxsga javoban ko‘riladigan chora, ya’ni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Xullas, javobgarlik deganda, birinchidan, shaxsning boshqa insonlar, jamiyat, davlat oldida o‘z burch va majburiyatlarini anglashi va bajarishi; ikkinchidan, boshqa insonlar, jamiyat va davlat tomonidan burch va majburiyatlarini buzgan shaxsga salbiy baho berilishi va jazo tayinlanishi nazarda tutiladi.

*Javobgarlik* – murakkab ijtimoiy munosabatlardan iborat bo‘lib, birinchi (ijtimoiy) jihat ikkinchi (retrospektiv) jihat bilan chambarchas bog‘liqlikdir. «Ijobiy ma’nodagi javobgarlik retrospektiv javobgarlikni istisno qiladi va, aksincha, ijobiy javobgarlik retrospektiv javobgarlik uchun asos bo‘ladi»[1].

Ta’kidlash joizki, ikki jihatdan iborat javobgarlik falsafa va ijtimoiy javobgarlik nazariyasida o‘z ijobiy ifodasini topgan. Mazkur prinsipning umumiy huquq nazariyasi, ayniqsa, jinoyat huquqi ta’limotida ifodalanishiga kelsak, oxirgi o‘n yillikda huquqiy javobgarlikning ikki jihatli prinsipi qo‘llab-quvvatlanayotgan bo‘lsa-da, bu masalada yakdillikni e’tirof etish maqsadga muvofiq emasdek tuyuladi. Jinoiy javobgarlikka kelsak, huquqning mazkur sohasida mutaassiblik ustun bo‘lib, ko‘pgina nazariyotchilar jinoiy javobgarlikni retrospektiv jihat, ya’ni jinoyat huquqiga oid norma qoidalari va taqiqlarini buzgan va qonunga xilof jinoiy qilmishlarni sodir etgan shaxsga majburlov choralarini qo‘llash bilan bog‘liq jihat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni afzal deb biladilar.

Shunday bo‘lsa-da, mazkur yondashuv jinoiy javobgarlikning ijtimoiy mohiyatini yaqqol aks ettirmaydi, jinoyat qonunlari maqsadlaridan kelib chiqqan vazifalarni to‘laligicha hisobga olmaydi. Jinoyat qonunining asosiy vazifalari Jinoyat kodeksining 2-moddasida belgilangan bo‘lib, ularni hal etish jinoyat huquqiga oid muhofazalash, oldini olish va tartibga solish munosabatlarini boshqarish orqali amalga oshiriladi. Mazkur huquqiy munosabatlar yig‘indisini jinoyat huquqi predmeti tashkil etadiki, uning mazmuni jinoyat qonunining ijtimoiy roli nafaqat jinoyat sodir etilishi sababli yuzaga keladigan uncha katta bo‘lmagan ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga solishda (bu javobgarlikning retrospektiv jihatini yuzaga keltiradi), balki huquqiy davlatda amal qilayotgan va huquqiy muhofaza qilinadigan munosabatlarning butun tizimini umumiy tartibga solish bilan bog‘liq ravishda o‘z aksini topadi deb e’tirof etish mumkin. Binobarin, jinoiy javobgarlik jinoyat huquqiga oid umumiy tartibga solish munosabatlarining amalga oshiriladigan majmuidan iborat bo‘lib, ularning mazmunini individlarning jinoyat qonunida belgilangan huquq va majburiyatlarni bajarish borasidagi faoliyati tashkil etadi[2].

Shunday qilib, jinoiy javobgarlikdan retrospektiv jihatning ustunligiga qaramay, u ijobiy jihatdan cheklangan bo‘lib, uni amalga oshirish shaklini

---

[1] *Санталов А.И.* Теоретические вопросы уголовной ответственности. – Л., 1982. – С. 8.

[2] Qarang: *Таргабаев А.Н.* Понятие и цели уголовной ответственности. – Красноярск, 1986. – С. 83.

ma’lum ijtimoiy xilof qilmishni sodir etishdan tiyilish bo‘yicha huquqiy majburiyatni bajarishdan iborat haqqoniy xulq-atvor yoxud, aksincha, jinoyat huquqiga oid norma qoidalariga muvofiq xatti-harakat qilish tashkil etadi. Ijobiy jinoiy javobgarlikni bunday tushunish jinoyat huquqi vazifalariga zid kelmaydi hamda ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, jinoyatlarning oldini olish hamda fuqarolarni Konstitutsiyaga va O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga amal qilish ruhida tarbiyalash borasidagi umumiy vazifalarga mos keladi. Bunda shaxs qonunda nazarda tutilgan holatlarda qonunga rioya qilgan holda o‘z xohishiga ko‘ra xatti-harakat qila oladi.

Retrospektiv jihatdan, jinoiy javobgarlik jinoyat qonunida jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarga yuklanadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida «jinoiy javobgarlik» tushunchasi muammosi haligacha munozarali bo‘lib kelmoqda. Mazkur munozara aniq nazariy ko‘rinishga ega emas, aksincha, u avvalo amalda qo‘llanish xususiyatiga ega bo‘lib, jinoyat huquqini tashkil etuvchi ko‘pgina qoidalarni tahlil qilishda eng ko‘p qo‘llanuvchi va asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan omildir. Shu bois jinoiy javobgarlikni to‘g‘ri tushunish jinoyat huquqiga oid bir qator institutlarga to‘g‘ri huquqiy baho berish hamda ularning mohiyatiga to‘g‘ri yondashishga bog‘liq bo‘ladi.

Turli adabiyotlarda keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda jinoiy javobgarlikni tushunishda uchta yondashuvni ajratish mumkin.

*Birinchidan,* jinoiy javobgarlik deganda, jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishiga yarasha javob berishi va unga nisbatan jinoyat huquqiga oid majburlov choralarining qo‘llanishidan iborat majburiyati tushuniladi. Bu kabi tushunish retrospektiv jinoiy javobgarlik mohiyatini to‘laligicha ochib bermaydi, zero mazkur nuqtai nazar tarafdorlari jinoiy javobgarlikning yuzaga kelishini jinoyat sodir etilish vaqti bilan bog‘laydilar. Mazkur nuqtai nazar amaliyotda o‘zini oqlamaydi, chunki jinoyat sodir etgan shaxsga hamma vaqt ham jinoyat huquqiga oid majburlov choralari qo‘llanilmaydi, ya’ni shaxs har doim ham sodir etgan qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Bunga aybdor shaxsining aniqlanmaganligi, latent jinoyatlar, yashirilgan, rasmiylashtirilmagan jinoyatlar hamda jinoyat ishini yuritish asossiz ravishda to‘xtatilgan jinoyatlarni misol qilib keltirish mumkin. Yuqorida aytilganlardan yana bir asos yuzaga keladiki, u mazkur jihat tarafdorlarining nuqtai nazarlarini inkor etadi. Ma’lumki, davlat majburlov choralari amalga oshirilmasa, javobgarlik chindan yuzaga kelmaydi. Boshqacha qilib aytganda, amalga oshirilmagan jinoiy javobgarlik mas’uliyatsizlikdir, zero javobgarlik mavjud bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Demak, mazkur yondashuvni amaliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, «javobgarlik» tushunchasini turlicha talqin etish mumkin bo‘ladi. Ushbu talqin javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga xilof bo‘lib, unga ko‘ra qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi shart (JK 10-m.).

Ikkinchi yondashuv jinoiy javobgarlikni davlat majburlovining jinoyat huquqiga oid chora-tadbiri sifatida belgilashdan iborat. Mazkur yondashuv tarafdorlari jinoiy javobgarlikni mohiyat jihatidan jinoiy jazoga tenglashtiradi-

lar. Jinoiy javobgarlikni bunday tushunish na nazariy, na amaliy nuqtai nazardan qo‘llab-quvvatlangan. Birinchidan, «jinoiy javobgarlik» va «jinoiy jazo» jinoyat qonunida bir-biridan mustaqil, alohida tushunchalar sifatida keltiriladi. Misol tariqasida Jinoyat kodeksi 2-moddasining 2-qismini keltirish kifoya qiladi. Unda qonun chiqaruvchi organ jinoyat huquqining predmetini tashkil etuvchi jamoat munosabatlarini tartibga solish usullarini belgilar ekan, nafaqat jinoiy javobgarlikka mustaqil ma’no beradi, balki, shu bilan bir qatorda, jinoiy jazo bo‘lgan, biroq jinoiy javobgarlikni amalga oshirish oqibati sifatida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan huquqiy ta’sirning o‘zgacha choralarini belgilaydi.

*Ikkinchidan*, jinoiy javobgarlikka bu kabi yondashuv huquqiy deb tan olinmaydi. Zero, jinoyat qonunlarida jinoiy javobgarlikdan (JK Umumiy qismining XII bobi) hamda jinoiy jazodan (JK Maxsus qismi, XIII bobi) ozod qilish asoslari va shartlari ajratiladi. Bu bilan mazkur ikkala institut o‘rtasidagi tafovut qayd qilinadi hamda jinoiy javobgarlik va jinoiy jazoni o‘zaro o‘xshatishning noo‘rinligi isbotlanadi. Jinoiy javobgarlik tushunchasi tarkibida jinoiy jazo mavjud bo‘lsa-da, mazmunan kengroq hisoblanadi.

Mazkur yondashuvning turlaridan biri – jinoiy javobgarlikni davlat majburlovining maxsus chorasi sifatida belgilash. Jinoiy javobgarlikni bu kabi tushunishning noaniqligi shundaki, jinoiy javobgarlikka bu kabi ta’rif berish keng ma’noda bo‘lib, u huquqiy ta’sirning nafaqat aynan jinoyat huquqiga oid majburlov choralarini, balki huquqning boshqa sohalariga xos bo‘lgan ehtiyot choralari bo‘lgan ushlab turish, ma’muriy va intizomiy ta’sir, iqtisodiy sanksiyalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi yondashuv, jinoyat sodir etishda ayblangan shaxsga diqqat-e’tiborni qaratishdan iborat. O‘ylaymizki, javobgarlikni bu kabi tushunish to‘g‘riroq bo‘lib, u nafaqat jinoiy javobgarlik va undan ozod etish institutining mazmunini tashkil etuvchi barcha muammolarni to‘g‘ri hal qilish, balki jinoiy javobgarlikni amalda qo‘llash sohasida ham maqsadli yo‘nalishni belgilash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv qonun chiqarish amaliyotida birinchi bor qonun chiqaruvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, u Jinoyat kodeksi 16-moddasining 1-qismida o‘z aksini topgan. «Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir».

Mazkur tushunchada jinoiy javobgarlikni tashkil etgan bir qator muhim belgilar o‘z aksini topgan. Jinoiy javobgarlik:

1) o‘zining yuridik mazmuniga ko‘ra, jinoyatning huquqiy oqibatidir;

2) ijtimoiy xavfli va aybli qilmish oqibatida yuzaga keladi;

3) hukm qilish shaklidagi davlat majburlovida ifodalanib, jinoiy jazoni qo‘llash yoki qo‘llamaslik yoxud jinoyat huquqiga oid ta’sirning jinoiy jazo bo‘lmagan boshqa ta’sir choralarida o‘z aksini topadi;

4) jinoyat huquqiga oid munosabatlar vujudga keladi, amalga oshiriladi va yakunlanadi;

5) faqat sud tomonidan tayinlanadi.

Jinoiy javobgarlikka yuqorida berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, unga jinoyat qonunida berilgan ta’rifga nisbatan aniqroq ta’rif berish mumkin. Jinoiy javobgarlik deganda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda aybdor shaxsning sudning ayblov hukmiga asoslangan hamda jazo tayinlash yoki tayinlamaslik yoxud jinoyat huquqiga oid ta’sirning jinoiy jazo bo‘lmagan boshqa choralarini qo‘llashga asoslangan salbiy oqibatlariga majburiy duchor bo‘lishi tushuniladi.

## 2. Jinoiy javobgarlik va jinoyat huquqiga oid munosabatlar

Jinoiy javobgarlikning jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida yuzaga kelishi, amalga oshirilishi va to‘xtatilishi uning mohiyati faqat mazkur huquqiy munosabatlar orqali ochilishini shart qilib qo‘yadi.

Jinoyat huquqining asosiy maqsadi odamlarning irodali xulq-atvoriga ta’sir etishdan iborat bo‘lsa, huquqiy tartibga solishning predmeti ma’lum ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyat huquqiga oid munosabatlar jinoyat hodisasini, ya’ni shaxsning Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida belgilangan qilmishni sodir etishini yuzaga keltiradi. Xullas, jinoyat huquqiga oid munosabat bu jinoyat huquqi normalari orqali tartibga solinadigan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs va davlat orasidagi munosabatdir.

Boshqa har qanday munosabat kabi jinoyat huquqiga oid munosabatlarning mohiyatini aniqlashtirishdan avval quyidagilarni ko‘rib chiqish lozim: 1) jinoyat huquqiga oid munosabatlarning asoslari; 2) jinoyat huquqiga oid munosabatlarning tarkibiy tizimi; 3) jinoyat huquqiga oid munosabatlarning amal qilish chegarasi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning yuzaga kelish *asoslari* quyidagicha: a) huquqiy norma (jinoyat qonuni); b) munosabatni yuzaga keltiruvchi huquqiy dalil (jinoyatning sodir etilishi).

*Huquqiy normaning mavjudligi* jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining asosiy sharti hisoblanadi. Zero, zarur xulq-atvor shaklini jinoyat huquqiga oid normada ifodalash orqali davlat inson hayoti faoliyatining turli sohalarida amal qiladigan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiladi. U yoki bu huquqiy munosabatlar subyektlariga aynan shunday harakat qilish yoki qilmaslik muayyan ijtimoiy xilof qilmishdan o‘zini tiyishda huquqiy majburiyat yuklaydi. Shunday qilib, basharti har qanday shaxs huquqiy normaning taqiq va qoidalarini buzsa hamda qonun bilan taqiqlangan muayyan qilmishni sodir etish orqali davlat va jamiyat asosini tashkil etgan, shuningdek, jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilsa, jinoyat huquqiga oid mazkur norma huquqiy munosabatning yuzaga kelishi, keyinchalik esa jinoiy javobgarlikning paydo bo‘lishi uchun huquqiy asos bo‘lishi mumkin.

Jinoyat huquqiga oid munosabatning yuzaga kelishini keltirib chiqaruvchi *yuridik dalil* jinoyatning sodir etilishi hisoblanadi. Shaxs tomonidan jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning sodir etilishi «odatdagi»

ijtimoiy munosabatlarning amal qilishini to‘xtatadi yoki ularni izdan chiqaradi, natijada g‘ayriijtimoiy munosabatlarning amal qilishini to‘xtatadi, ya’ni jinoyat huquqi bilan muhofaza qilinadigan munosabatlar yuzaga keladi. Chunonchi, mulk egasidan unga tegishli bo‘lgan mulk, masalan, qo‘l soati yashirin tarzda olib qo‘yilsa, mulk egasining mazkur qo‘l soatiga egalik qilishi va undan o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishiga doir fuqarolik qonuni bilan tartibga solinadigan xususiy mulkka oid huquqiy munosabatga barham beriladi. Biroq mazkur yuridik dalil, ya’ni birovning mulkini yashirin tarzda talon-toroj qilish (o‘g‘irlash) jinoyat huquqiga oid norma (JK 169-m.) taqiqini buzishdan iborat bo‘lgan va jinoyat huquqi bilan muhofaza qilinadigan munosabatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ladi.

Demak, o‘z tarkibiga ko‘ra jinoyat huquqiga oid munosabatlar: a) subyektlar (ishtirokchilar); b) mazmun; d) obyektdan iborat bo‘ladi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning subyektlari (ishtirokchilari) sifatida ikki tomonni ko‘rsatish mumkin: 1) davlat; 2) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs.

Huquqiy adabiyotlarda davlatni jinoyat huquqiga oid munosabatlar subyekti qatoriga qo‘shish bilan bog‘liq e’tirozlar mavjud. Zero, davlat bevosita, ya’ni «shaxsan» fuqarolar bilan munosabatga kirisha olmaydi. Shu asosda jinoyat huquqiga oid munosabat subyekti davlatning o‘zi emas, balki jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha vakolat berilgan organlar, ya’ni surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Chamasi, mazkur nuqtai nazarni oldinga suruvchilar jinoyat huquqiga oid munosabatlarning subyekti jinoyatchilikka qarshi kurash olib boruvchi davlat organlari emas, aksincha, sud bo‘lishi mumkin, degan yondashuv kabi bir qator omillarni hisobga olmaydilar.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga binoan, o‘zaro huquqiy munosabat davlat organlari o‘rtasida emas, balki fuqaro va davlat orasida bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i bo‘lishi bilan birga (Konstitutsiyaning 89-m.), nafaqat fuqarolarning huquq va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishini kafolatlaydi (Konstitutsiyaning 93-moddasi, 1-q.), balki O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini ham imzolaydi.

Ikkinchidan, surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni davlat tomonidan berilgan vakolatlar doirasida bajarish orqali davlatning xohish-irodasini bajaradilar, yuqoridagilarni amalga oshirish esa ularning davlat oldidagi mas’uliyatini tashkil etadi.

Uchinchidan, sud hokimiyatining tarkibiy qismi bo‘lgan suddan boshqa hech qanday organ shaxsga nisbatan hukm chiqarish, ya’ni uni jinoiy javobgarlikka tortish huquqiga ega emas. Chunonchi, ayblov hukmi sud nomidan emas, O‘zbekiston Respublikasi, ya’ni davlat nomidan e’lon qilinadi, bu esa, o‘z navbatida, jinoyat huquqiga oid munosabatlar bilan surishtiruv, tergov, prokuratura organlari va hattoki sud o‘rtasida emas, aksincha davlat va

fuqaro o‘rtasida mavjud bo‘lishini bildiruvchi ishonchli dalillardan biri hisoblanadi.

Va nihoyat, faqat davlat o‘zining oliy vakolatli organi – qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Oliy Majlis orqali xohlagan vaqtda jinoyat qonunlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish orqali jinoyat huquqiga oid munosabatlarga nisbatan o‘z munosabatini o‘zgartirishi, shu bilan birga, mavjud huquqiy munosabatlarni amnistiya yoki afv etish akti orqali bartaraf etishi mumkin.

Jinoyat qonunida nazarda tutilgan holatlarda hamda aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs jinoyat huquqiga oid munosabatning ikkinchi subyekti hisoblanadi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning *mazmunini* subyektlar orasidagi huquq va majburiyatlar majmui hamda ularning jinoiy javobgarlik, jazo yoki jinoyat huquqiga oid boshqa ta’sir choralarini amalga oshirish borasidagi predmetli amaliy faoliyati, ya’ni sodir etilgan jinoyat yuzasidan vujudga keladigan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan faoliyati tashkil etadi.

Yuridik adabiyotlarda jinoyat huquqiga oid munosabatlarga ko‘ra, huquqiy mazmunning ikki jihati, ya’ni yuridik va moddiy (faktik) jihati ajratiladi. Masalaga bunday yondashuv to‘la asoslidir, chunki u mazkur ikki jihatning turli vaqtda yuzaga kelishi bilan bog‘liq amaliy ma’noga ega. Binobarin, u jinoyat huquqiga oid munosabat mavjud bo‘lishining nafaqat chegaralaganligi va jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi, amalga oshirilishi va tugatilishining aniq vaqti belgilanganligi, balki u sababli paydo bo‘ladigan jinoyat-protsessual va jinoiy-ijroiya huquqiga oid munosabatlarning yuzaga kelishiga ham bog‘liqdir.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning huquqiy mazmunini subyektlarning huquq va majburiyatlari tashkil etadiki, ular yuridik fakt munosabati bois har bir ishtirokchida yuzaga keladi. «Huquq va majburiyatlarni yana quyidagicha tushunish mumkin: davlat ijtimoiy qilmish sodir etgan shaxsga qonunga muvofiq ish ko‘rishga, huquq va majburiyatga ega shaxs esa buni talab qilishga va unga nisbatan haqqoniy muomala qilinishiga bo‘ysunishi lozim»[1].

Jinoyat huquqiga oid munosabatning moddiy (faktik) mazmuni yuridik mazmunni amalda tatbiq etish orqali ta’riflanadiki, ular munosabat subyektlarining o‘zaro huquq va majburiyatlarni real amalga oshirish bo‘yicha faoliyati natijasida amalga oshirilib, jinoyat sodir etishda aybdor shaxslarni topish va ularga ayb qo‘yish bilan bog‘liq muayyan holatlarni hisobga olgan holda aniqlashtiriladi.

*Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning obyekti* haqidagi masala huquqning umumiy nazariyasida ham, jinoyat huquqi ta’limotida ham oxirigacha hal qilinmagan. Huquqiy munosabatlar obyekti deganda, subyektning

---

[1] *Санталов А. И.* Теоретические вопросы уголовной ответственности. – Л., 1982. – С. 53.

predmetli amaliy va bilish faoliyati yo‘naltirilgan maqsad tushuniladi, biroq bu ham turlicha talqin qilinadi.

Mazkur muammo bo‘yicha to‘plangan barcha fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagilarni ta’kidlash mumkin: 1) obyekt – bu jazo; 2) obyekt – bu jinoyat; 3) obyekt – bu jinoyatchi; 4) obyekt – bu ijtimoiy ne’matlar bo‘lib, ular bilan ta’minlash maqsadida jinoyat huquqiga oid munosabatlar yuzaga keladi; 5) obyekt – bu jinoiy javobgarlik.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida subyektlar faoliyati jazolashga yo‘naltirilmagan, vaholanki jazolash huquqiy munosabatlarni amalga oshirishning ixtiyoriy shakli sifatida yuzaga keladi. Shuningdek, u obyektiv voqelik o‘tmish faktlaridan biri sifatida jinoyatga ham yo‘naltirilmaydi, zero uni o‘zgartirib ham, bekor qilib ham bo‘lmaydi, shu bilan birga, huquqiy munosabat jinoyat sodir etilganidan keyingina vujudga keladi. Va nihoyat, u jinoyatchiga ham yo‘naltirilmagan bo‘ladi, zero ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning o‘zi munosabatlar subyekti hisoblanadi va muayyan jinoiy huquqiy munosabat doirasida o‘z-o‘ziga, jinoyat sodir etilishi tufayli zarar yetkazilgan ijtimoiy ne’matlarga qaratilmaydi, chunki ular buzilishi yoki o‘z faoliyatini tugallagan bo‘lishi mumkin, bu o‘z navbatida, ularni qayta tiklash imkoniyatini bermaydi. Masalan, mazkur yuridik faktning oqibati sifatida subyektlar faoliyatidan kelib chiqqan odam o‘ldirish jinoyatini orqaga qaytarib bo‘lmaydi, aksincha jinoiy javobgarlikka yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shunday qilib, *jinoyat huquqiga oid munosabatlarning obyekti jinoiy javobgarlik* hisoblanadi.

Muayyan jinoyat huquqiga oid munosabatning obyekti jinoiy javobgarlik ekanligi haqidagi xulosa huquqiy munosabatlarning ikkita tarkibiy elementining o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Bular subyekt va obyekt bo‘lib, ular orasidagi bog‘liqlikning asosi subyektning huquqiy munosabatlar obyektiga qaratilgan predmetli amaliy faoliyati hisoblanadi. Bundan tashqari, muayyan jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasidagi subyektlarning butun faoliyati jinoyat huquqiga oid munosabatning elementi, tarkibiy qismi, aniqrog‘i obyekti bo‘lgan jinoiy javobgarlik bo‘yicha o‘zaro huquq va majburiyatlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Ko‘pgina olimlarning fikricha, jinoyat huquqiga oid munosabatlarning mazmunini subyektlar (ishtirokchilar) orasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlarning majmuidan iborat bo‘lgan, hajmi jinoyat qonunida belgilangan va uni amalga oshirish bo‘yicha amaliy faoliyat, shuningdek, mazkur subyektlar faoliyatining obyekti aynan jinoiy javobgarlik hisoblanadi, degan mantiqiy xulosa chiqarish mumkin. Chunonchi, davlat tomonidan jinoyat huquqiga oid munosabatlarni amalga oshirish umumlashtirilgan holda javobgarlikning muqarrarligi prinsipi bilan belgilangan. Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart (JK 10-m.).

Ayni vaqtda davlatning mazkur huquqi jinoyat huquqiga oid munosabatning boshqa subyekti majburiyatiga muvofiqlashadi, ya’ni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan har qanday shaxsga davlatga oid huquqiy majburlov choralari tayinlanishi va u jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak. Binobarin, subyektlar tomonidan o‘zaro bog‘liq huquq va majburiyatlarni amalga oshi-

rish bo‘yicha subyektlar faoliyatining obyekti jinoiy javobgarlik hisoblanadi, chunki u ularning predmetli amaliy faoliyati yo‘naltirilgan maqsad hisoblanadi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning mavjud bo‘lish *chegaralari* uning amal qilish doirasini aniqlashga, aniqrog‘i, mazkur munosabatlarning vujudga kelishi, amalga oshishi va to‘xtash vaqtini aniqlashga yordam beradi.

Huquqiy munosabat doimo yuridik fakt yuzasidan vujudga keladiki, uning sababi jinoyatni sodir etish hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqa nuqtai nazarlar ham mavjud bo‘lib, ularga ko‘ra, jinoyat huquqiga oid munosabatlarni jinoiy ishni qo‘zg‘ash fakti bilan ham, shaxsni ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortish, shaxsga ayblov hukmini chiqarish hamda ayblov hukmining qonuniy kuchga kirish fakti bilan ham bog‘laydilar.

Bunday yondashish jinoyat huquqiga oid munosabatlarning vujudga kelishi vaqtini belgilashda shubha tug‘diradi yoki bunda kamida ikkita xatoga yo‘l qo‘yiladi. Birinchidan, jinoyat huquqiga oid munosabatlar chegaralarini belgilashda nafaqat odatda amalga oshiriladigan munosabatning yuzaga kelish va to‘xtash vaqtini belgilashi, balki amalga oshirish vaqtini ham belgilashi kerakki, u jinoyat huquqiga oid munosabatning mustaqil tarkibi va o‘sish dinamikasini belgilovchi unsur hisoblanadi.

Ikkinchidan, jinoyat huquqiga oid munosabatning yuzaga kelishini protsessual faoliyatning turli holatlari, ya’ni jinoiy ish qo‘zg‘ash, shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb etish, ayblov hukmini chiqarish va uning qonuniy kuchga kirishi bilan bog‘laydigan mualliflar jinoyat huquqiga oid munosabatning konstitutsiyaviy unsuri (aniqlab beruvchi) sifatida murakkab tarkibini hisobga olmaydilar. Shu bilan birga, jinoyat huquqiga oid munosabatlarning haqiqiy boshlang‘ich bosqichini real mazmunidan hamda jinoyat huquqiga oid munosabat mazmunidagi ikkita jihatdan kelib chiqqan holda aniq ifodalash mumkin. Mazmunning tarkibiy murakkabligini hamma ham to‘liq tushunavermaydi. Shu tufayli olimlar mazmunning qaysi jihati (yuridik yoki moddiy) tanlanishi orqali mazkur munosabatlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq muammoni hal qiladilar. Jinoyat huquqiga oid munosabatning mazmun-mohiyatini tushunishda bunga o‘xshash bir yoqlamalik, shuningdek, munosabatlarning vujudga kelishi va amalga oshishi orasidagi tafovutni farqlamaslik mazkur muammoni hal qilishda xatoliklarga olib keladi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarda yuridik va moddiy mazmun, ya’ni ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari va ularning real predmetli amaliy faoliyati turli vaqtda yuzaga keladiki, bu bilan u huquqiy munosabatlar taraqqiyotining turli bosqichlarini belgilash orqali jinoyat huquqiga oid munosabatlarning nafaqat vujudga kelishi, balki amalga oshishi vaqtini ham aniqlanishini belgilab beradi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning vujudga kelish vaqti jinoyat sodir etilish vaqtiga to‘g‘ri kelishi haqidagi tortishuvlar asosga ega emas, chunki jinoyat qonunining 13-moddasi 1-qismida qilmishning jinoiyligi va jazoga loyiqligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo‘lgan qonun bilan belgilanadi, deyilgan. Jinoyat kodeksining 64-moddasi 1-qismida esa qilmishning

jinoiyligi va jazoga loyiqligi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi, deyiladi. Binobarin, subyektlarning huquq va majburiyatlari, ya’ni jinoyat huquqiga oid munosabatlarning yuridik mazmuni jinoyat sodir etilgan kundan boshlab vujudga keladi. Sub’yektlarning jinoyat sodir etilish vaqtida vujudga kelgan o‘zaro huquq va majburiyatlarining moddiy va faktik ifodalanishiga kelsak, ular protsessual faoliyat davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Biroq bu jinoyat huquqiga oid munosabatlarni u yoki bu protsessual akt bilan bog‘lashni bildirmaydi. Zero, u faqat jinoyat huquqiga oid munosabatni amalga oshirishda muayyan bosqichning mavjudligini qayd etadi, xolos. Jinoyat huquqiga oid munosabat vujudga kelganidan so‘ng ma’lum vaqtgacha moddiy mazmunga ega bo‘lmaydi. Tomonlarning huquq va majburiyatlari jinoyat ochilmagunicha va jinoyatchi aniqlanmagunicha, ya’ni butun davr ichida mavjud bo‘ladi. Basharti, aybdor shaxs topilmagan taqdirda, ayniqsa jinoyat ochilmay qolsa, unda jinoyat huquqiga oid munosabat jinoyat sodir etilgan vaqtda boshlanadi. Jinoiy javobgarlikka tortish qonunda belgilangan muddatda boshlanib, uning oxirida tugallanadi. Jinoyat huquqiga oid munosabat vujudga kelishi va bir necha vaqt davomida amalga oshmagan holda mavjud bo‘lishi yoki subyektlarning muayyan faoliyatiga mujassamlashmagan holda tugallanishi mumkin.

Xullas, jinoyat huquqiga oid munosabatning vujudga kelishi uchun shaxs tomonidan jinoyat huquqiga oid normadagi taqiqni buzish, ya’ni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning o‘zi kifoya qiladi. Jinoyat huquqiga oid munosabatni amalga oshirishga kelsak, u vakolatli organlarning faoliyati davomida jinoyat huquqiga oid munosabatlarning amal qilish bosqichlarida jinoyatning moddiy (faktik) mazmunini bajarish jarayonida amalga oshiriladi.

Jinoyat huquqiga oid munosabatlar subyektlarning huquq va majburiyatlari to‘laligicha amalga oshirilishi bilan tugallanadi. Muhofaza qilinayotgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda mazkur umumiy qoidaga aniqlik kiritish orqali huquqiy munosabatlarni tugallash uchun bir qator asoslarni ajratish mumkin:

1) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash;

2) shaxs ustidan hukm chiqarish:

a) jazoni qo‘llamagan holda;

b) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan majburlov choralarini qo‘llagan holda;

3) jinoiy javobgarlikdan to‘liq ozod etish;

4) jinoiy jazodan to‘liq ozod etish;

5) sudlanganlik holatining tugallanishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi;

6) ijtimoiy xavfli jinoyat sodir etgan shaxsning o‘limi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat huquqiga oid ta’sir choralarini qo‘llash usullariga ko‘ra, huquqiy munosabatlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) shaxsni jazoga hukm etishda ifodalangan munosa-

batlar; 2) shaxsga huquqiy ta’sirning jazo bo‘lmagan choralarini qo‘llashda ifodalangan munosabatlar.

Shunday qilib, huquqiy munosabatlarning birinchi guruhi o‘zining tarkibiy qismi sifatida jinoiy javobgarlik orqali amalga oshirilishni nazarda tutadi. U jinoyat huquqiga oid munosabatlar bosqichlaridan biri bo‘lib, jinoiy jazoni amalga oshirishning turli shakllarida, ya’ni shaxsni jazoga hukm etish yoki sudning ayblov hukmida o‘z aksini topadi. Ikkinchi guruh huquqiy munosabatlarni amalga oshirish sud ajrimiga asosan, shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlashda ifodalanadi.

«Jinoyat huquqiga oid munosabatlar» va «jinoiy javobgarlik» aynan bir xil tushunchalar emas. Jinoiy javobgarlik jinoyat huquqiga oid munosabatning faqat alohida elementi, tarkibiy qismi, aniqrog‘i uning obyekti hisoblanadi. Jinoyat huquqiga oid har qanday munosabatlar mazmunini amalga oshirishning butun mantig‘i ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan jazoga hukm etish, jazo yoki huquqiy ta’sirning boshqa choralarini qo‘llashdan iborat bo‘lib, jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning turli shakllarida namoyon bo‘lishi lozim.

Jinoiy javobgarlik jinoyat huquqi tomonidan muhofaza qilinadigan huquqiy munosabatlarning bir qismigina bo‘lganligi sababli, u ayblov hukmining qarori chiqarilganidan so‘ng, ya’ni jinoyat sodir etishda aybdor shaxs jazoga hukm etilgan vaqtdan boshlab vujudga keladi.

Muayyan huquqiy munosabat mazmuniga ko‘ra, jinoiy javobgarlik quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: 1) ayblanuvchiga jazo tayinlamagan holda hukm chiqarish; 2) ayblanuvchiga jazo tayinlash, ammo uni real ijro etmagan holda hukm chiqarish; 3) ayblanuvchiga jazo tayinlash va uni ijro etish orqali hukm chiqarish; 4) ayblanuvchiga tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi sifatidagi jazoni tayinlash va uni amalda bajarish orqali hukm chiqarish; 5) voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlamagan holda majburlov choralarini qo‘llash.

Jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning birinchi shakli ayblov hukmini chiqarish orqali o‘z nihoyasiga yetadi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 70-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko‘rilayotgan vaqtgacha namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qishga halol munosabati bilan o‘zini ko‘rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo‘qotdi, deb e’tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin. Jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning mazkur shaklining boshqa turi Jinoyat kodeksi 273-moddasining 6-qismida nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash kabi qilmishlarni sodir etgan shaxs o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi. Jinoiy javobgarlikni mazkur shaklda amalga oshirish shaxs jazoga hukm etilgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlikni shaxsga nisbatan jazo tayinlash va uni real ijro etma-

gan holda jazoga hukm etishda jinoiy javobgarlik me’yori ayblov hukmi qarorini chiqarish bilan tugallanib, unda tegishli jazo chorasi belgilanadi. Biroq mazkur jazo, yetarlicha zarurat bo‘lmaganligi yoxud jazolash maqsadiga boshqa choralar bilan erishish mumkinligi sababli, amalda ijro etilmaydi. Chunonchi, Jinoyat kodeksining 72-moddasiga muvofiq, agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e’tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o‘tamasidan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat’iy fikrga kelsa, shartli hukm qo‘llanishi mumkin. Bunday holda sud, basharti belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartliligini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to‘g‘risida qaror chiqaradi. Shunday qilib, mazkur jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shaklining mohiyati jazoni shartli ravishda qo‘llamaslikdan iborat. Jinoiy javobgarlik sinov muddati tugallangan vaqtdan boshlab tamom bo‘ladi.

Jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning keng qo‘llaniladigan shakli shaxsga jazo tayinlash va uni ijro etish orqali jazoga hukm qilish hisoblanadi. Bunda jinoiy javobgarlik shaxs tomonidan jazo o‘talgan yoki u muddatdan oldin shartli ozod qilingan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning to‘rtinchi shakli Jinoyat kodeksi 96-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan. Mazkur normaga asosan, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo‘lsa, sud jazo tayinlash bilan birga, ularga tibbiy yo‘sindagi choralarni ham tayinlashi mumkin. Mazkur hollarda jinoiy javobgarlik aybdor shaxsni jazoga hukm qilish, unga nisbatan jazo va tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash hamda ularni haqiqatda amalga oshirish shaklida ifodalanadi. Mazkur shaklda jinoiy javobgarlik jazoni o‘tash yoki qo‘llash hamda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarni tugatish va olib tashlash vaqtidan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Jinoyat huquqi voyaga yetmaganlarga jinoiy javobgarlikning majburlov choralarini qo‘llash imkoniyatini ham nazarda tutadi. Chunonchi, Jinoyat kodeksi 87-moddasining 2-qismiga binoan, besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadi (Agar aybdorning holati jazoni qo‘llamay tuzalish imkoniyatini bersa). Sud qaroriga asosan, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo‘llanilgan jinoiy javobgarlik majburlov chorasi amalga oshirilgan vaqtdan boshlab tugagan hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda jinoiy javobgarlik sudlanganlik tugallanishi bilan yakunlanadi, degan nuqtai nazar mavjud. Sudlanganlik shaxs jazoga hukm qilingan vaqtdan boshlanib, jazoni o‘tash muddati tugallanishiga qadar davom etadi. Bu sudlanganlikni tugatish yoki olib tashlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sudlanganlik jinoyat huquqining mustaqil institutlaridan biri bo‘lib, jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida mavjud bo‘ladi. Biroq uni jinoiy javobgarlik sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilgan jinoiy javobgarlikning mavjud bo‘lish chegaralaridan kelib chiqqan holda jinoiy javobgarlik uchun sudning ayblov hukmi yetarli, degan xulosa chiqarish mumkin. Unga ko‘ra, jinoiy javobgarlik u yoki bu shaklda amalga oshiriladi. Bu esa shaxs davlat tomonidan jazoga hukm qilindi hamda jinoyatni sodir etgan shaxsning o‘ziga va qilmishiga salbiy baho berildi, degan ma’noni bildiradi. Jazo tayinlashga hukm qilish tariqasidagi jinoiy javobgarlikning bir shakli huquqiy oqibat tariqasida amalga oshirilgandagina sudlanganlik holati vujudga keladi.

Xullas, muhofaza qilinayotgan jinoyat huquqiga oid munosabatlarning mazmuni, eng avvalo, jinoiy javobgarlikni amalga oshirishga qaratilgan predmetli amaliy faoliyat hisoblanadiki, u huquqiy munosabatlarning tarkibiy qismi, aniqrog‘i, uning obyekti hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ular orasidagi uzviy bog‘lanishga sabab bo‘ladi.

## 3. Jinoiy javobgarlik asoslari

Jinoiy javobgarlik asoslari muammosi katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega. Zero, u qonunda jinoyat huquqiga oid ta’sir choralarini qo‘llash hajmi va chegaralarini belgilash bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, jinoyatlar hamda boshqa noijtimoiy xulq-atvorga qarshi kurash sohasida jinoyat qonunlari va siyosati prinsiplarini joriy etish, inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy kafolatlangan huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini amalga oshirishga sharoit yaratib beradi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga davlat tomonidan jinoyat huquqiga oid majburlov choralarini qo‘llash asoslarining bu kabi belgilanishi davlatning huquq-tartibot organlari va sud hokimiyatining samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoit va zamin yaratadi. Bunda qilmishlarni va jinoyatchilarning xatti-harakatini baholashda subyektivizmga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoiy javobgarlik asoslari muammosi jinoyat huquqi ta’limotida munozarali bo‘lgan va bo‘lib kelmoqda. Jinoiy javobgarlik asoslarini tushunishda uchta yondashuv mavjud: ayb, jinoyat va jinoyat tarkibi. Ta’kidlash joizki, mazkur masala bo‘yicha avvalgi jinoyat qonunchiligida[1] mavjud bo‘lgan bahs-munozaralar bir qadar mahsuldor bo‘lib, jinoiy javobgarlik asoslarini tushunishga yana bir qarashni vujudga keltirdiki, ular keyinchalik 1994-yildagi Jinoyat kodeksida o‘z aksini topdi.

JK 16-moddasining 2-qismida jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari belgilangan bo‘lib, unda faktik va normativ asoslar o‘z aksini topgan.

---

[1] O‘zbekiston SSRning 1959-yilgi Jinoyat kodeksining 3-moddasida jinoiy javobgarlik asoslariga quyidagicha izoh beriladi: «Jinoyat sodir etishda ayblanuvchi, ya’ni qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi va jazoga hukm etiladi».

Jinoiy javobgarlikning *faktik asosi* shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Aynan shu sababdan yuridik dalil sifatida jinoyat huquqiga oid munosabat yuzaga kelib, uning tarkibiy elementi jinoiy javobgarlik hisoblanadi.

Yuzaga kelgan jinoyat huquqiga oid munosabat sodir etilgan jinoyatni ochish va tergov qilish bo‘yicha vakolatli organlarning protsessual faoliyati davomida moddiy mazmunga to‘lib boradi. Jinoiy javobgarlik mazkur faoliyatning obyekti bo‘lganligi sababli, u jinoyat qonunida mazkur jinoiy qilmishni jinoyat deb belgilovchi tegishli huquqiy normani aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Jinoyat huquqiga oid munosabatlar subyektlaridan birining mazkur faoliyati jinoyatni kvalifikatsiya qilish deb ta’riflanadi va u sodir etilgan qilmishning noqonuniyligini isbotlash bo‘yicha muayyan mantiqiy jarayondan iborat bo‘ladi. Zero, qilmishda jinoyat huquqiga oid muayyan normada bo‘lgan alomatlar majmui bo‘lganidagina uni jinoyat sifatida tan olish mumkin. Jinoyat huquqiga oid normada ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida ta’riflovchi obyektiv va subyektiv elementlar hamda alomatlar eng kam va yetarli bo‘lgan majmui jinoyat tarkibi hisoblanadi.

Binobarin, jinoiy javobgarlikning *normativ asosi* Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi hisoblanadi, deb xulosa qilish mumkin.

Faktik va normativ asoslar birgalikda jinoiy javobgarlikning umumiy asoslarini tashkil qiladi. Bu hol jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida sodir etilgan qilmish va qonunda nazarda tutilgan alomatlar orasida to‘la muvofiqlikni ta’minlash, davlat huquq-tartibot organlariga jinoyat sodir etganlikda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha huquq va majburiyatlarini to‘liq amalga oshirish imkonini beradi.

Dastlabki tergov jarayonida jinoiy javobgarlikning faktik va normativ asoslariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat jinoiy qilmishga dastlabki baho berishdan iborat bo‘lib, umuman olganda, jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirmaydi, aksincha jinoyat huquqiga oid munosabatlar tarkibini amalga oshirish hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikka yakuniy baho sudning ayblov hukmida chiqarilib, mazkur umumiy asos sudlanuvchini jinoyat sodir etishda aybdor deb tan olishga imkon beradi. Ayblov hukmida ijtimoiy xavfli qilmishga salbiy baho berish, shaxsni hukm etishga, ya’ni jinoiy javobgarlikning yuzaga kelishi hamda uning sudda tayinlangan shaklida amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi.

## Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Javobgarlikdagi pozitiv jihatning mazmunini ochib bering.
2. Javobgarlikning salbiy (retrospektiv) jihatining mazmunini ochib bering.
3. «Jinoiy javobgarlik tushunchasi» va uning alomatlari nimalardan iborat?
4. Jinoyat huquqiga oid javobgarlik nima?
5. Jinoyat huquqiga oid javobgarlikning tarkibi va mazmunini tavsiflang.
6. Jinoyat huquqiga oid munosabatlarning yuzaga kelish, amalga oshirilish va tugatish asoslari nimalardan iborat?
7. Jinoiy javobgarlik va jinoyat huquqiga oid munosabat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar qanday?
8. Jinoiy javobgarlikning mavjud bo‘lish chegaralari qanday?
9. Jinoiy javobgarlik qanday shaklda amalga oshiriladi?
10. Jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari va uning tarkibiy tuzilishni tavsiflab bering.

## X bob
## QASDDAN SODIR ETILGAN JINOYAT BOSQICHLARI

### 1. Qasddan sodir etilgan jinoyat bosqichlari va turlari

Jinoyat inson xulq-atvorining muayyan turlaridan biri bo‘lib, makon va zamonda sodir etiladi hamda boshidan oxirigacha ma’lum bosqichlarni bosib o‘tadi. Biroq har qanday jinoyat ham ma’lum vaqt oralig‘idan sodir etilgan jarayondan iborat bo‘lmasligi mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramay, jinoyatlarning bir qismi sodir etilish jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi.

Shaxs ma’lum qilmishni sodir etishdan avval unda mazkur qilmishni sodir etishga xohish-istak va biror maqsadga yo‘nalgan qasd yuzaga keladi. So‘ngra shaxs o‘z jinoiy niyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit va zamin yaratadigan bosqich boshlanadi. Bunda uning xulq-atvori muayyan xatti-harakatlarda obyektiv ravishda o‘z aksini topadi, biroq bu ham hali bevosita jinoyatni sodir etishning boshlanishini bildirmaydi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi yakunlangach, shaxs o‘z jinoiy qilmishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan deb faraz qilgan holda, bevosita uni amalga oshirishga kirishadi. Mazkur jarayon, shaxs maqsad qilib qo‘ygan barcha qilmishlarini amalga oshirishi hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishi bilan yakunlanadi. Masalan, Samarqand tuman sudi tomonidan muqaddam sudlangan F. T. Qurbonov va hech qayerda ishlamaydigan M. D. Usmonovlarning jinoiy qilmishi ustidan hukm chiqarildi. Mazkur ishning mazmuniga ko‘ra, ushbu shaxslar jinoiy til biriktirish yo‘li bilan avtomobil haydovchisini o‘ldirib, avtomashinani qo‘lga kiritish maqsadida mast holda Navoiy – Kattaqo‘rg‘on yo‘nalishida ketayotgan VAZ-2102 rusumli avtomashinani haydab ketayotgan Hikmatovni to‘xtatganlar. Hikmatovga evaziga mo‘may pul berishni va’da qilib, Mirzo Ulug‘bek xo‘jaligi hududida joylashgan suv nasosigacha olib borib qo‘yishni iltimos qilganlar. Suv nasosiga oz masofa qolganida orqa o‘rindiqda o‘tirgan Usmonov haydovchini bo‘g‘a boshlagan, Qurbonov esa unga bir necha marta pichoq sanchgan. Yetkazilgan tan jarohatlari tufayli Hikmatov voqea joyida hayotdan ko‘z yumgan. So‘ngra uni voqea sodir etilgan joyda qoldirib, Usmonov va Qurbonovlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishga uringanlar, biroq Qurbonov mashinani boshqara olmaganligi sababli mashina ag‘darilib ketgan[1].

Ushbu jinoiy ish materiallariga ko‘ra, jinoyatchilarning jinoiy qilmishi bir necha bosqichdan iborat bo‘lgan. *Birinchi bosqich* – transport haydovchisini o‘ldirish orqali avtomashinani bosqinchilik qilib qo‘lga kiritish bilan bog‘liq qasdning yuzaga kelishi; ikkinchi *bosqich* – jinoiy til biriktirish, qotillik qilish uchun qurol izlashda vazifalarni taqsimlashdan iborat tayyorgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirish; uchinchi *bosqich* esa ko‘zlangan maqsadga erishishga qaratilgan bir qator harakatlarni bevosita sodir etish, ya’ni jabrlanuvchining

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг ахборотномаси. – 1995. – № 3. – 4-б.

mashinasini to‘xtatish, Usmonovning jabrlanuvchini bo‘g‘ishi, Qurbonovning pichoq bilan jabrlanuvchiga jarohat yetkazishi, avtotransportni qo‘lga kiritish, uni olib qochish kabilardan iborat bo‘lgan.

Jinoyatning to‘rtinchi *bosqichi* aybdorlar rejalashtirilgan ishni to‘laligicha amalga oshirish va ko‘zlangan maqsadga erishish, ya’ni Hikmatovni o‘ldirib, avtotransportini qo‘lga kiritish bilan yakunlanadi.

Demak, jinoyat insonning har qanday faoliyati kabi, rivojlanish jarayonida bir necha bosqichni bosib o‘tadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) qasdning shakllanishi; 2) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish; 3) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish; 4) tamom bo‘lgan jinoyat. Biroq ta’kidlash joizki, qayd etilgan bosqichlarga ko‘ra jinoyat huquqiga oid hech qanday maxsus ko‘rsatmalar yo‘q. Mazkur bosqichlar tamom bo‘lgan yoki tamom bo‘lmagan jinoyatlar ko‘rinishidagina jinoyat huquqiga oid ahamiyatga ega bo‘lishi hamda jinoyat huquqiga oid toifaga kiritilishi mumkin. Mazkur ta’kid Jinoyat kodeksi 16-moddasining 2-qismida belgilangan qoidaga asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Shu bois muayyan xatti-harakat yoki qilmishlarni sodir etish shaxsning jinoiy maqsadlarini amalga oshirishga kirishganini bildiradi hamda normativ dalillar bo‘lgan taqdirda unga jinoyat huquqiga oid ta’sir choralarini ko‘rish uchun faktik asos bo‘lib xizmat qiladi. Holbuki, qasdning shakllanishidan iborat bosqich, garchi u haqda ayon bo‘lgan taqdirda ham, jinoyat sodir etilishini tavsiflovchi jinoiy ahamiyatga ega bo‘lgan davrga kiritilmaydi, zero u obyektiv voqelikdan tashqarida sodir etiladigan muayyan xatti-harakatlar, qilmishlardan iborat bo‘lmaydi.

Qasddan sodir etilgan jinoyat shaxsning ongli, irodaviy va aniq maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvoridan iborat xatti-harakatlar hisoblanadi. Jinoyat uzoq yoki qisqa davr ichida sodir etiladi. Shu bois jinoyat tarkibining obyektiv tomonini amalga oshirishdan oldin shaxs ongida fikrlash jarayoni yuzaga kelib, kelgusida amalga oshiradigan jinoiy xatti-harakatlar rejasini tuzadi. Mazkur jarayonni qisqa qilib, *jinoiy qasdning shakllanishi* deb atash mumkin. Jinoiy qasdning shakllanish bosqichi jinoiy maqsadni aniqlash, unga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni anglash, jinoyatni sodir etish va keyinchalik uning izlarini yo‘qotish usullarini topish, jinoyatni sodir etishda ko‘maklashish uchun boshqa shaxslarni jalb etish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritish kabilarni qamrab oladi. Biroq bularning hammasi shaxs ongida bo‘lib o‘tadi.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, jinoyat sodir etishga qasd qilgan shaxs uni yashiradi. Lekin ko‘p hollarda shaxsning jinoyat sodir etish maqsadi boshqa shaxslarga ayon bo‘lib qoladi, ya’ni bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beriladi yoki jamoatchilikka oshkor bo‘ladi yoxud shaxs o‘z fikrlarini boshqalar bilan bo‘lishganida atrofdagilar (qarindosh-urug‘, do‘stlar, tanish-bilish, qo‘ni-qo‘shni va b.)ga jinoyat sodir etishga qasd qilganligi haqida so‘zlab berganidan so‘ng ayon bo‘ladi. Mazkur hol jinoyat huquqi nazariyasida *qasdni izhor qilish* deb atalib, unga shaxs ongida jinoyat sodir etish

bo‘yicha tashqi yuzaga kelgan va shakllangan xohish-istak, maqsad deb ta’rif beriladi. Jinoiy qasd haqida o‘zgalarga bildirish esa shaxs tomonidan o‘z jinoiy maqsadlarini og‘zaki, yozma, konklyudent xatti-harakatlar, ya’ni imo-ishora, muayyan so‘z yoki tana harakatlari bilan boshqa shaxslarga xabar berish orqali amalga oshiriladi.

Amaldagi jinoyat qonunida jinoiy qasdni izhor qilish va u haqida bildirish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan. Shu bois ularni jinoyatni sodir etish bosqichlari sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emas. Mazkur bosqichning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda jinoyat huquqi fani doirasida o‘rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu holning amaliy ahamiyati jinoyat to‘g‘risidagi qasdning shakllanishi va uni izhor qilish, jinoyatni sodir etish bosqichlari sifatida emas, jinoyatning rivojlanish bosqichlari sifatida talqin qilinishidan iborat. Bu esa, o‘z navbatida, quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: a) jinoiy va jinoiy bo‘lmagan xulq-atvorni qat’iy huquqiy chegaralash (bu jinoiy javobgarlikka tegishlilik yoki tegishli emaslik bilan bog‘liq muammoni hal qilish hamda sodir etilgan jinoyatga to‘g‘ri huquqiy baho berish imkonini beradi); b) ichki ishlar organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bo‘lg‘usi xodimlari, fuqarolar, ijtimoiy, davlat va boshqa tashkilot va uyushmalar xodimlarini shaxsda jinoyatga qasd qilish maqsadining shakllanishi davrida sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatning oldini olishga qaratish. Oxirgi jihat katta ahamiyatga ega bo‘lib, vakolatli organlarning u yoki bu shaxsning jinoyat sodir etishga qasd qilayotgani haqida turli manbalardan olingan xabarga o‘z vaqtida javob berishi, jinoyat huquqiga oid mexanizmni ishga solmagan holda jinoyat sodir etish imkoniyati, fuqarolar, davlat va jamiyatning qonun tomonidan muhofaza qilinayotgan huquq va manfaatlariga zarar yetkazilishi, jinoyat huquqiga oid munosabatlarning yuzaga kelishi, fuqarolar jinoiy javobgarlikka tortilishining oldini olishga imkon beradi.

Chunonchi, Toshkent shahri tumanlaridagi operativ xizmat xodimlari Qorasuv dahasida yashovchi ikkita voyaga yetmagan o‘smir sheriklari davrasida qaysidir jamg‘arma banki bo‘limlarining biridan pul o‘g‘irlab, unga musiqali markaz sotib olishga niyat qilganliklarini muhokama qilayotganliklari haqida xabar oladilar. O‘smirlarda jinoyat sodir qilish uchun yuzaga kelgan qasd haqida kelgan bunday ma’lumotga o‘z vaqtida javob berish hamda militsiya xodimlarining ota-onalar, jamoatchilik vakillari bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazishi qonun tomonidan himoya qilinadigan munosabatlarga ziyon yetkazishning oldini olgan, shuningdek, o‘smirlarning jinoyat yo‘liga kirishidan saqlab qolgan bo‘lar edi.

Shunday qilib, qasdning yuzaga kelishi va uni izhor qilish jinoyatni sodir etish bosqichlariga kiritilmaydi. Aniq voqelikka aylanmagan jinoyatni sodir qilishga qasd qilish keng ommaga ayon bo‘lgan bo‘lsa-da, hali ijtimoiy xavfli qilmishni keltirib chiqarmaydi hamda jinoyat qonuni tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga hech qanday xavf tug‘dirmaydi.

Qasdni izhor qilishni boshqa ba’zi jinoyatlardan ajratish lozim, bunda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining asosiy belgisi sifatida *jinoyat haqida ax-*

*borot berish* mavjud bo‘ladi. U boshqa shaxslarga mazkur jinoyat haqida og‘zaki, yozma va boshqa shaklda axborot va ma’lumotlar berishdan iboratdir. Chunonchi, axborot berish orqali o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish (JK 112-m.), farzandlikka olish sirini oshkor qilish (JK 125-m.), tuhmat (JK 139-m.), haqorat qilish (JK 140-m.), urushni targ‘ib qilish (JK 150-m.), O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da’vat qilish (JK 159-m. 1-q.), tovlamachilik (JK 165-m.), raqobatchini obro‘sizlantirish (JK 192-m.) va boshqa bir qator jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirish mumkin.

Binobarin, qasdni izhor qilish hamda jinoyat haqida axborot berish bir-biridan farq qiladi. Qasdni izhor qilish boshqa shaxslarga bildirilgan axborot, shaxsda jinoyatni sodir etish haqida tashqi tomondan shakllangan maqsadni aks ettiradi, bu esa uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘la olmaydi. Jinoyat haqida axborot berish esa jabrlanuvchiga noqonuniy tarzda zo‘rlik bilan ruhiy ta’sir o‘tkazish yoxud qonunga xilof ravishda u yoki bu axborot va ma’lumotlarni tarqatishdan iborat bo‘ladi. Shu bois u jinoyat qonunida huquqiy muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga xavf soluvchi qilmishlar qatoriga kiritilgan.

Axborot tarqatish bilan bog‘liq xatti-harakatlar jinoyat qonunida ikkita alohida turga bo‘linadi. Birinchisi, mustaqil jinoyat sifatida belgilangan bo‘lib (masalan, o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish), ikkinchisi boshqa jinoyatni sodir etish usuli sifatida qaraladi (masalan, tovlamachilik, bosqinchilik jinoyatlarini sodir etishda).

Jinoyatni sodir etish bosqichlarini ajratish, ularni tashkil qiluvchi qilmishlar orasidagi o‘xshashlik bilan emas, balki turli darajada jinoiy maqsadni amalga oshirish bilan ham bog‘liqdir. Chunonchi, jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishdagi turli tuman xatti-harakatlarni yagona maqsad – jinoyatni sodir etish, keyinchalik esa jinoyatni yashirish uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish birlashtiradi. Shunday bo‘lsa-da, jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida qilinadigan xatti-harakatlar bevosita muayyan jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi xatti-harakatlar qatoriga kirmaydi. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichiga kelsak, ular jinoyatdagi obyektiv tomonning konstitutiv alomatlaridan iborat bo‘lib, jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning boshlanishini hamda shu vaqtning o‘zida jinoyat sodir etishning boshlanishini ta’riflaydi.

Jinoyatdagi obyektiv tomonning o‘ziga xosligi undagi obyektiv va subyektiv tomonlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda bir-birini taqozo etishidan kelib chiqqan holda, jinoyatni sodir etish bosqichlari jinoiy maqsadni amalga oshirish darajalariga ajratiladi. Basharti, jinoiy maqsad jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida jinoyatni sodir etish va kelgusida uni yashirish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan jinoiy xatti-harakatlarni sodir etish darajasida amalga oshirilsa, u holda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichida jinoiy

maqsadni amalga oshirish darajasi eng yuqori bo‘ladi. Zero, jinoiy maqsad jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo‘la boshlaydi. Chunonchi, jinoyatning tamom bo‘lish bosqichi sifat darajasiga egadir, zero u muayyan jinoyatdagi obyektiv belgilarning to‘la amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning o‘z jinoiy maqsadini to‘liq amalga oshirganligini bildiradi.

Bunga asoslangan holda, avvalgi ikki bosqichni «*tamom bo‘lmagan jinoyat*» tushunchasi orqali ifodalash mumkin. Binobarin, ulardagi o‘ziga xoslik aynan shunda namoyon bo‘ladi. Mazkur bosqichlarda jinoyatning majburiy tugallanishi jinoyat sodir etayotgan shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holda tamom bo‘lgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik tayinlash asoslariga bog‘liq masalani hal qilishni talab etadi. Tamom bo‘lgan jinoyat esa, aksincha, muayyan jinoyat tarkibidagi zaruriy belgilarga ega bo‘lgan holda sodir etilishi davomida jinoiy qasd vujudga kelganidan boshlab, real voqelikda amalga oshirilishiga qadar barcha bosqichlarni bosib o‘tadi. Tamom bo‘lgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik umumiy asoslarda tayinlanadi.

Shunday qilib, jinoyat o‘z rivojlanishi jarayonida yuqorida aytib o‘tilgan barcha bosqichlarni bosib o‘tsa, jinoyat huquqiga ega bo‘lgan, amalga oshgan jinoyat hisoblanadi. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatni sodir etish bosqichlari uchta bosqichga bo‘linadi. Jinoyatni sodir etish bosqichi deganda, qasddan sodir etilgan jinoyatning muayyan bosqichlari tushuniladi. Ular sodir etilayotgan qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) xususiyatiga ko‘ra sifat jihatidan ajratiladi hamda aybdor tomonidan jinoiy qasdni amalga oshirishning turli darajasini aks ettiradi. Mazkur bosqichlar quyidagilardan iborat:

1) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish;
2) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish;
3) tamom bo‘lgan jinoyat.

Jinoyat huquqi ta’limotida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish «dastlabki jinoiy faoliyat bosqichlari» sifatida ta’riflanadi. O‘ylaymizki, mazkur tushunchani qo‘llash qonunga xilof va xatodir, chunki u tahlil qilinayotgan huquqiy hodisaning mohiyatini aks ettirmaydi. Birinchidan, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoyat huquqiga oid ahamiyatga ega bo‘lib, jinoyat aynan mana shu bosqichlarda majburan tugallangan, ya’ni uzilgan hollardagina mustaqil ravishda jinoyat huquqiga oid jazoga tortiladi. Ikkinchidan, shaxsning muayyan jinoyat tarkibini to‘liq bajarishi tamom bo‘lgan jinoyatni tashkil qiladi. Binobarin, mazkur jinoyat sodir etilishida barcha bosqichlardan o‘tilgan bo‘lsa-da, ularni alohida qismlarga bo‘lish maqsadga muvofiq emas, zero u yagona bir butunlikni tashkil qiladi. Demak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni «jinoiy faoliyatning muqaddimasi» deyish noto‘g‘ri, chunki ular bu faoliyatning tarkibiy qismidir.

Jinoyat huquqi nazariyasi va amaliy faoliyatda tamom bo‘lmagan jinoyat mavjud bo‘lgan jinoyatlar doirasini aniqlash katta ahamiyatga egadir. Shunga ko‘ra, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish haqidagi normalarni qo‘llash masalasi hal qilinadi.

Jinoyat obyektiv va subyektiv alomatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ularning mavjudligi real voqelikda o‘zaro uzviy bog‘liqlik va aloqadorlikdan kelib chiqqan holda jinoyat huquqiga oid choralarni qo‘llash uchun asos bo‘ldi. Shu bois shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun obyektiv voqelikda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganligining o‘zi yetarli emas. Mazkur jinoyat, subyektiv tomondan, aybli, ya’ni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, jinoyatlar bir paytda yoki turli vaqt ichida sodir etilishi, oddiy va murakkab bo‘lishi, bir vaqtning o‘zida sodir etilishi yoki muayyan jarayonni o‘z ichiga olishi mumkin.

Jinoiy qilmish muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lgan hollarda, odatda u biror maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvordan iborat jarayonni tashkil qiladi. Mazkur jarayon muayyan xohish-istak asosida shakllangan jinoiy maqsadning shakllanishidan boshlab, uni real voqelikda ijro etishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Qasddan sodir etilgan jinoyatlarga jinoiy qilmishni bila turib amalga oshirish xos bo‘lganligi bois, jinoiy niyatni amalga oshirish jarayonida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan bosqichlarni aynan shu turdagi jinoyatlarga tegishli ravishda sharhlash lozim. Demak, bosqichma-bosqich rivojlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar doirasiga faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiradi, deb xulosa chiqarish mumkin. Mazkur xulosa ehtiyotsizlik orqali sodir etiladigan jinoyatlarda bosqichlarga ajratishning imkoni yo‘qligidan kelib chiqadi.

Shaxs o‘z harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da (jinoyatga beparvolik) yoki ko‘zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilsa (o‘z-o‘ziga ishonish), bunday jinoyatlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar deb ataladi. Biroq, mazkur turdagi jinoyatlar ham bosqichlarga ajratilmaydi, zero ularga jinoiy maqsadning shakllanishini keltirib chiqaruvchi dastlabki motivatsiya (sabab, maqsad) mo‘ljallangan natijaga erishish uchun ongli ravishda usul va vositalarni tanlash xos emas. Xususan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar muayyan vaziyatga bog‘liq bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun avvaldan tayyorgarlik ko‘rilmaydi.

Jinoyat qonunchiligiga muvofiq (JK 21-m.), obyektiv tomoni zaruriy belgi sifatida jinoiy oqibatni o‘z ichiga olgan qasddan sodir etiladigan jinoyatlar to‘g‘ri yoki egri qasd bilan sodir etilgan bo‘lishi mumkin. Shu bois mazkur turdagi qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarni bosqichlarga ajratib tahlil qilish imkonini ko‘rib chiqish lozim.

Jinoyat sodir etishda to‘g‘ri yoki egri qasddan ko‘zlangan xohish-istak orasidagi farq xususiyatiga ko‘ra ajratiladi. To‘g‘ri qasdga jinoiy oqibatlarning kelib chiqishini xohlash, egri qasdga esa mazkur oqibatlarga ongli ravishda yo‘l qo‘yish xosdir. Demak, to‘g‘ri qasdda subyektning xohish-istaklari shaxsning o‘z aqliy qobiliyati va imkoniyatlarini ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yo‘naltirganligida namoyon bo‘ladi. Binobarin, to‘g‘ri qasddan iborat bo‘lgan jinoyatlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin, zero mazkur bosqichlarning har birida aybdorning o‘zi istagan jinoiy oqibatlarga

erishish uchun maqsadli xatti-harakati mavjud bo‘ladi.

Egri qasd orqali sodir etiladigan jinoyatlarga jinoyat sodir etayotgan shaxsning o‘z qilmishlarining ijtimoiy xavfliligini anglashi, jinoyat sodir etilishi natijasida yuzaga keladigan jinoiy oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi hamda ularning yuz berishini ongli ravishda istashi xosdir. Egri qasdning aqliy va irodaviy belgilariga berilgan mazkur ta’rifga asoslangan holda, egri qasd bilan jinoyat sodir etayotgan subyektning maqsadi ongli ravishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hamda yuzaga kelishi jinoiy xatti-harakatning zaruriy sharti sifatida kutiladigan jinoiy oqibatni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘zlamaydi, deb xulosa qilish mumkin. Binobarin, jinoiy oqibatlarning yuzaga kelishi ongli ravishda yo‘l qo‘yiladigan, biroq istalgan maqsad sifatida ko‘zlanmaydigan egri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda jinoyat bosqichlarining mavjud bo‘lishini qayd etish maqsadga muvofiq emas.

Demak, subyektiv tomondan jinoyat bosqichlari faqat to‘g‘ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda bo‘lishi mumkin.

Jinoyat huquqiga oid normalar va tergov-sud amaliyotini tahlil qilish to‘g‘ri qasd bilan sodir qilinadigan jinoyatlarning hammasida ham jinoiy qilmish bosqichlarga bo‘linmasligini ko‘rsatmoqda. Mazkur xulosa jinoyatlar tarkibining huquqiy konstruksiyasi (tuzilishi) hamda ulardagi obyektiv tomonning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Qonun tuzilishiga ko‘ra, barcha jinoyatlar tarkibi formal (rasmiy) va moddiy tarkiblarga bo‘linadi.

*Formal tarkibli jinoyatlar* tarkibiga, jinoiy oqibat yuzaga kelishi yoki kelmasligidan qat’i nazar, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan jinoyatlar kiradi (masalan, Jinoyat kodeksining 124, 126, 150, 179-moddalari va b.).

*Moddiy tarkibli jinoyatlar* tarkibiga jinoiy oqibat yuzaga kelgan paytdan boshlab tugallangan hamda sodir etilgan ijtimoiy qilmish bilan sababiy bog‘liqlikka ega bo‘lgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlar tarkibini tuzilishiga ko‘ra ajratish jinoyatni sodir etishda muayyan bosqichlarning ham formal, ham moddiy tarkibini aniqlashga imkon beradi.

Moddiy tarkibli qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarda jinoiy faoliyat qonunda nazarda tutilgan barcha bosqichlarni bosib o‘tadi, zero jinoyatni sodir etish boshlanishidan oxirigacha bir necha bosqichni bosib o‘tadi va bu jinoyat istalgan bosqichda tugallanishi mumkin. Chunonchi, o‘zganing uy-joyiga g‘ayriqonuniy ravishda kirib, o‘g‘rilik qilishga ahd qilgan shaxs (JK 169-m. 2-q., «г» b.) avval bir qator tayyorgarlik ishlarini ko‘rishi kerak.

Masalan, uy-joyga kirish uchun qurol va vositalarni tayyorlashi, uy-joyda yashovchilar hamda ularning kunning qaysi vaqtida uyda bo‘lmasliklari haqida dastlabki ma’lumotga ega bo‘lishi, signalizatsiya hamda o‘zganing mulkini o‘g‘irlashga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan boshqa to‘siqlar (uy hayvonlari)ning yo‘qligiga ishonch hosil qilishi kerak. Barcha tayyorgarlik ishlari ko‘rib bo‘lingach, shaxs bevosita uy-joyga kirish, qimmatbaho buyum va ashyolarni izlash hamda ularni o‘g‘irlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Jinoyat

shaxsning yashirin ravishda uy-joyni tashlab ketishga harakat qilishi bilan tugallanadi.

Aynan shu xatti-harakatlar sodir qilinganidan so‘ng o‘zganing mulkini qonunga xilof ravishda o‘g‘irlash bilan bog‘liq jinoyatni tugallangan jinoyat deb tan olish mumkin. Biroq, mazkur bosqichlarning birida shaxsning jinoiy qilmishini ichki ishlar organlarining xodimlari yoki fuqarolar to‘xtatib qolgan bo‘lsalar, mazkur jinoyat tugallanmagan jinoyat deb ta’riflanadi. Sodir etilgan jinoyat esa o‘zganing mulkini o‘g‘irlashga tayyorgarlik ko‘rish yoki o‘g‘irlashga suiqasd qilish deb baholanadi.

Formal tarkibli qasddan sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi bu turdagi barcha jinoyatlarda bo‘ladi. Qonunda tayyorgarlik harakatlari tugallangan jinoyat deb belgilangan jinoyatlar bundan mustasno. Chunonchi, Jinoyat kodeksi 242-moddasining 1-qismiga binoan, jinoiy uyushma tashkil qilishning o‘ziga jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, u jinoiy faoliyat yuritishni boshlagan yoki boshlamaganligidan qat’i nazar, tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Formal tarkibli jinoyatlar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishidan boshlab tugallangan jinoyat hisoblanishi bois, ularda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichi bo‘lmaydi. Shu bilan birga, formal tarkibli jinoyatlardagi obyektiv tomonning tuzilishini hisobga olgan holda bu kabi jinoyatlarning ba’zilarida jinoyat qilishga suiqasd qilish mavjud bo‘ladi. Bu murakkab tarkibli jinoyatlarda, ya’ni jinoyat ikki yoki undan ortiq xatti-harakat bilan bog‘liq jinoyatlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lib, ularning yig‘indisi jinoyat huquqiga oid jazoga loyiq qilmish hisoblanadi.

Masalan, nomusga tegish (JK 118-m., 1-q.) ikkita jinoiy xatti-harakatni o‘z ichiga oladi. Birinchisi, jinsiy aloqa va ikkinchisi – zo‘rlik ishlatish, qo‘rqitish yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanish. Aynan mazkur qilmishlarning majmui sodir etilgan jinoyatga tugallangan jinoyat sifatida baho berishga asos bo‘ladi. Basharti shaxs zo‘rlik ishlatishni boshlasa-yu, lekin o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda, jabrlanuvchi bilan jinsiy aloqa qila olmagan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyat nomusga tegishga suiqasd sifatida baholanishi kerak.

Jinoiy qilmishni sodir etish ma’lum vaqt oralig‘ida davom etish bilan bog‘liq formal tarkibli jinoyatlarda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish mavjud bo‘lib, bunda jinoyatning boshlanishi va yakunlanishi orasidagi davr oralig‘ida ma’lum uzilish bo‘ladi. Chunonchi, moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash, ya’ni ularni moddiy jihatdan ta’minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ni bir, ikki yoki uch oy mobaynida to‘lamaslik mazkur turdagi jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish deb baholanadi. Chunki Jinoyat kodeksining 122-moddasiga binoan, mazkur jinoyat undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ jami uch oydan ortiq muddat mobaynida to‘lanmaganida tugallangan jinoyat sifatida baholanadi.

Aytib o‘tilganlarga asoslanib, o‘ziga xos «kesik» jinoyatlar muammosiga to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tushuncha asosan XX asrning 40-

yillaridan boshlab jinoyat qonuniga oid darslik va sharhlarda berila boshladi. «Kesik» jinoyat tarkibi deganda, hamon qonunda jinoyatga suiqasd qilish yoki jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlab tugallangan jinoyat deb hisoblanadigan jinoyatlar tushuniladi[1].

«Kesik» jinoyat tarkibiga berilgan mazkur ta’rifdan kelib chiqqan holda ko‘p olimlar ularni moddiy jinoyat tarkiblari bilan birga huquqiy tartibga ko‘ra jinoyat tarkiblarini tasniflash qatoriga kiritadilar.

«Kesik» jinoyatlar tarkibiga berilgan ta’rifga bunday yondashishga A.Traynin 1946-yildayoq o‘z e’tiborini qaratgan bo‘lib, «kesik» jinoyat tarkibini ajratish to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglashilmovchilikdan kelib chiqqan»[2], deb yozgan. Biroq boshqa olimlar kabi u ham oxiriga yetkazilmagan yoxud jinoyat tarkibining natijasi o‘laroq, mazkur tarkib uchun zaruriy bo‘lgan boshqa unsur mavjud bo‘lmagan jinoyatlarning «kesik» jinoyatlar deb tan olinishiga qarshi chiqqan.

Umuman olganda B. A. Kurinov «kesik» jinoyat tarkiblarining mavjudligi haqidagi nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlagani holda, jinoyat huquqida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish (masalan, qurollangan to‘dalar tashkil etish, ommaviy tartibbuzarliklarni keltirib chiqarish) yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish sababli tugallangan jinoyat deb hisoblanadigan hamda Jinoyat kodeksi 15-moddasiga murojaat etilmagan holda kvalifikatsiya qilinadigan jinoyatlardan iborat «kesik» jinoyat tarkiblarining mavjud bo‘lishiga qarshi chiqqan. U bu kabi jinoyat tarkiblarini jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish deb hisoblashga hech qanday asos yo‘q, zero bu kabi jinoyatlar Jinoyat kodeksida tugallangan jinoyatlar sifatida ta’riflanadi deb hisoblagan.

Biz to‘laligicha mazkur nuqtai nazarga qo‘shilamiz hamda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga xavf tug‘diruvchi jinoyatlarni huquqiy tuzilishiga ko‘ra formal jinoyatlar tarkibiga kiritish mumkin deb hisoblaymiz. Biroq, «kesik» jinoyatlar tarkiblari real voqelikda sodir bo‘lmasa-da, unda nima sababdan ularni nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatish kerak degan o‘rinli savol tug‘iladi. Bundan tashqari, bunday jinoyat tarkiblarining amaliy ahamiyati nimadan iborat, balki bular oddiy nazariy «chekinishlardir» degan savolga javob berish bundan ham muhimroqdir.

O‘ylaymizki, «kesik» jinoyat tarkiblari mavjud bo‘lishi kerak, ammo bu ularga ko‘pchilik yuristlar tomonidan berilgan ta’rifdan yoki jinoyatning tamom bo‘lish vaqtini belgilash muammosi nuqtai nazaridan qilinishi kerak emas. «Kesik» jinoyat tarkibini aslo tugallanmagan jinoiy xatti-harakatga «bog‘lab» bo‘lmaydi, aksincha, mazkur muammo boshqa nuqtai nazardan hal qilinishi kerak.

---

[1] Qarang: Уголовное право России. Общая часть. – Казань, 1994. – С. 213; *Куринов Б. А.* Научные основы квалификации преступлений. – М., 1976. – С. 144–145; Российское уголовное право. Общая часть. – М., 1994. – С. 162

[2] *Трайнин А.* Учение о составе преступления. – М., 1946. – С. 46; *Uning o‘zi.* Состав преступления по советскому уголовному праву. – М., 1951. – С. 136–138.

«Kesik» jinoyatlar tarkibiga ko‘pincha ommaviy tartibsizliklar, bosqinchilik, qaroqchilik kabi jinoyatlarni kiritadilar. Ta’kidlash joizki, bosqinchilikka hozirgi jinoyat qonunida berilgan ta’rif 1959-yilgi Jinoyat kodeksida berilgan ta’rifga o‘xshamaydi. Chunki ularga hozirgi vaqtgacha bir qator tuzatishlar kiritilgan. Biroq bu jinoyatlarning ayrim turlari «kesik» jinoyat ekanligini inkor etmaydi. Zero, jinoyatning «kesikligi» nafaqat mazkur jinoyatlarni qaysi vaqtdan boshlab tamom bo‘lgan deb hisoblanishiga, balki qonunda mustaqil jinoyatlar deb ta’rif berilgan hamda tamom bo‘lgan jinoyat bosqichida sodir etilgan jinoiy qilmishlarning keyinchalik qay tarzda kvalifikatsiya qilinishiga ham bog‘liqdir.

«Kesik» jinoyat tarkiblarining o‘ziga xosligi shundaki, ular amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, muayyan jinoyat tarkibini hosil qiluvchi u yoki bu jinoiy qilmishlar sodir etilganida ularning mustaqil ravishda baholanishga muhtoj emasligi va umuman olganda, aynan shu norma asosida kvalifikatsiya qilinishidan iborat. Xuddi shu xususiyatga ko‘ra «kesik» jinoyatlarni «formal» jinoyatlardan ajratish mumkin. Zero, formal jinoyatlar boshqa jinoiy xatti-harakatlarni o‘z ichiga olmaydi, bu esa, o‘z navbatida, tegishlicha mustaqil kvalifikatsiya qilishni talab etadi.

Chunonchi, Jinoyat kodeksining 151-moddasida agressiya bilan bog‘liq jinoyatning asosiy tarkibi sifatida bosqinchilik urushini rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko‘rish, shuningdek, bu kabi xatti-harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha fitnada qatnashish (mazkur moddaning 1-q.) hamda kvalifikatsiya qilinadigan jinoyat tarkibi sifatida bosqinchilik urushini boshlash yoki uni olib borish nazarda tutilgan (2-q.). Binobarin, qonunda kvalifikatsiya qilinadigan jinoyat tarkibi sifatida agressiyali urushning boshlanishi nazarda tutiladi. Agressiyali urushni boshlash va davom ettirish, shubhasiz insoniyatga qarshi boshqa turdagi jinoyatlarning sodir etilishini nazarda tutadi. Bular odam o‘ldirish, aholini qirib tashlash, qullikka olish, surgun qilish hamda aholiga nisbatan qilinadigan boshqa vahshiyliklardan iborat bo‘lib, ular Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq moddalarida mustaqil jinoyatlar sifatida belgilangan. Biroq ular mustaqil kvalifikatsiyani talab qilmaydi, chunki mazkur «kesik» jinoyatlar tarkibi barcha yuqorida nazarda tutilgan jinoiy qilmishlarni qamrab oladi.

Jinoiy uyushma tashkilotchilariga jinoyat huquqiga muvofiq ta’rif berish masalasi ham shu kabi hal qilinadi. Zero, tashkilotchilar jinoiy uyushma tashkil etish bilan bog‘liq jinoyatlardan qat’i nazar, Jinoyat kodeksi 242-moddasining 1-qismiga binoan kvalifikatsiya qilinadi, aksincha, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining boshqa moddalariga ko‘ra, qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. Talonchilik jinoyatining tarkibini ham «kesik» jinoyat tarkibi sifatida ko‘rib chiqish kerak, chunki u o‘zganing mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilish vaqtidan boshlab tugallangan jinoyat deb hisoblanadi va haqiqatan yuzaga kelgan jinoiy oqibat (masalan, og‘ir shikast yetkazish) yoki Jinoyat kodeksi 164-moddasida nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini (qurol-yarog‘ ishlatib yoxud qurol-yarog‘ sifatida boshqa buyumlardan foydalangan holda bir guruh shaxslar tomonidan avval-

dan til biriktirib jinoyat sodir etish kabilarni) o‘z ichiga oladi. Talonchilik jinoyati tarkibining kesikligi aybdorning o‘zga shaxs mulkini talon-toroj qilganligi va bu qilmish jinoyat qonunining boshqa normasi bilan birga qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilinmasligida o‘z ifodasini topadi.

Jinoyat qonunida tugallangan jinoyat bosqichida sodir etilgan jinoyatlarni qamrab oluvchi «to‘laligicha kesik» jinoyat tarkibi bilan birga «qisman kesik» jinoyat tarkiblari ham mavjud.

Qisman kesik jinoyat tarkibiga keyinchalik sodir etilgan jinoyatlarni to‘liq qamrab olmaydigan jinoyatlar kiradi. Ular, o‘z navbatida, alohida huquqiy ta’rif berilishini talab etadi. Yuqorida qayd etilgan talonchilik aynan «qisman kesik» jinoyatlar tarkibiga kiradi. Basharti, o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish xatti-harakati jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish nafaqat Jinoyat kodeksining 164-moddasi, balki 97-moddasi bo‘yicha ham kvalifikatsiya qilinadi. Shuningdek, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish jinoyati (JK 244-m.) ham shu tariqa kvalifikatsiya qilinadi. Zero, bunday qilmishlarni sodir etish natijasida odam o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyat Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismining «e» bandiga muvofiq kvalifikatsiya qilinishi kerak. Zo‘ravonlik oqibatida turli darajadagi tan jarohatlarining yetkazilishi ommaviy tartibbuzarlik jinoyat tarkibi bilan to‘liq qamrab olinishi bois, inson salomatligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bo‘yicha qo‘shimcha ravishda kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi.

Formal jinoyatlar tarkibiga kelsak, ular asosan «kesik» jinoyat tarkiblaridan ularda sodir etilgan qilmish doim jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi bilan ajralib turadi (basharti, mazkur qilmishlar qonunda asosiy kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida nazarda tutilmagan bo‘lsa). Chunonchi, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan shahvoniy xatti-harakatlar og‘ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo‘lsa, sodir etilgan qilmish Jinoyat kodeksining 104 va 129-moddalariga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi.

Shunday qilib, kesik jinoyatlar tarkibi muammosi qasddan sodir etilgan jinoyat bosqichlari ta’limotiga ko‘ra emas, aksincha, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasi doirasida tahlil qilinishi kerak.

«Tugallangan jinoyat» tushunchasi jinoyat qonunida bevosita mavjud emas, chunki Jinoyat kodeksi Maxsus qismining barcha moddalari tugallangan jinoyat tarkiblarini o‘z ichiga olgan. Shuni hisobga olgan holda, *tamom bo‘lgan jinoyat deganda, shaxs qilmishida Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyalarida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibidagi barcha zaruriy obyektiv va subyektiv alomatlarning mavjudligini tushunish lozim.* Demak, muayyan jinoyatning tugallanishi bevosita qonunda belgilangan bo‘lib, jinoyat tarkibining huquqiy tuzilishiga (formal tarkib, moddiy tarkib), shuningdek, muayyan jinoyat tarkibiga qonunda berilgan huquqiy bahoga (oddiy tarkib, murakkab tarkib va uning turlari) bog‘liq bo‘ladi. Tugallangan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq moddasi yoki uning qismlarida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi muayyan turdagi jinoyatlarning

tugallanish davrini aniq va bir xilda belgilash masalasiga katta e’tibor beradi. Bunda mazkur sud muayyan tavsiya va yo‘riqlarni sud (kazual) sharhlari ko‘rinishida o‘z yo‘riqnomalarida berib boradi. Chunonchi, Oliy sud Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi «Kontrabanda va bojxona qonunlarini buzish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 2-sonli qarorining 4-bandida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182 va 246-moddalarida nazarda tutilgan kontrabanda ashyolarini, tovar yoki boshqa qimmatliklarni o‘tkazish ular haqiqatan ham O‘zbekiston Respublikasi chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o‘tilgan paytdan boshlab *tamom bo‘lgan jinoyat* deb hisoblanadi, deyilgan[1]. Oliy sud Plenumining boshqa bir qarorida «ancha yoki ko‘p miqdorda soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, basharti bunda soliq idorasiga daromad va foyda to‘g‘risida bila turib yolg‘on ma’lumotdan iborat hisobot berilganligi sababli soliq to‘la undirilmasa, (bir yoki bir necha soliqlar bo‘yicha) bunday xatti-harakat *tamom bo‘lgan jinoyat* hisoblanishi»[2] qayd etilgan.

Tamom bo‘lmagan jinoyat sodir etilganida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlik asoslarini belgilash zarurati yuzaga keladi. Mazkur zarurat Jinoyat kodeksi 16-moddasining 2-qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlik uchun nazarda tutilgan qoida tamom bo‘lgan jinoyatlarga tegishliligi tufayli paydo bo‘lgan. Zero, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan (normativ asos) jinoyat tarkibining barcha alomatlari (faktik asos) mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Avval tavsiya etilgan materiallardan ma’lumki, muayyan jinoyat tarkibining belgilari Jinoyat kodeksining Maxsus qismida tamom bo‘lgan jinoyat sifatida talqin qilinadi. Jinoyatning u yoki bu yaqqol alomatlari bo‘lmagan hamda jinoiy qasd to‘laligicha amalga oshirilmagan bo‘lsa, bunda jinoyat tamom bo‘lmagan jinoyat hisoblanadi. Biroq, qonunda tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan degan fikr tug‘iladi. Vaholanki, bunday fikrga kelishi xatodir. Chunki bunda, eng avvalo, tizimlilik, qonunchilikda an’anaviy shakllangan jinoyat normalarning tarkibiy qurilishi prinsiplari, jinoyat qonunining Umumiy va Maxsus qismlarning o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinmaydi.

Shu bois tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik belgilanganida nafaqat Jinoyat kodeksining tamom bo‘lgan jinoyatlar belgilarini nazarda tutuvchi Maxsus qismidan, balki tamom bo‘lmagan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv tomonlari, ya’ni jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. –Т., 2006 – 44-б.

[2] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодий соҳадаги жиноятлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар ҳақида»ги 11-сон қарорининг 22-банди // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. – Т., 2006. – 122–123-б.

sodir etishga suiqasd qilishni nazarda tutgan Jinoyat kodeksining 25-moddasidagi qoidalardan ham foydalanish zarur. Chunonchi, mazkur moddada shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan, ya’ni tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka asos bo‘lib, u Jinoyat kodeksi 25-moddasining 1 va 2-qismlarida belgilangan. Shu sababli tamom bo‘lmagan jinoyatga huquqiy baho berishda Jinoyat kodeksining 16-moddasi bilan bir qatorda Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi 25-moddaga ham murojaat etish zarur. Mazkur ikki modda birgalikda tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik tayinlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksi 25-moddasining 1 va 2-qismini hamda Maxsus qismdagi muayyan turdagi tamom bo‘lgan jinoyat nazarda tutilgan tegishli moddani qo‘llash zarur. Zero, tamom bo‘lmagan jinoyat tarkibining belgilari Jinoyat kodeksining ham Umumiy, ham Maxsus qismida nazarda tutilgan. Chunonchi, og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarsiz qasddan odam o‘ldirishga tayyorgarlik ko‘rish Jinoyat kodeksi 25-moddasining 1-qismi va 97-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan tamom bo‘lmagan jinoyat tarkibi belgilariga, o‘g‘rilikka suiqasd qilish esa Jinoyat kodeksi 25-moddasining 2-qismiga va 169-moddasining 1-qismidagi jinoyat tarkibiga mos keladi.

## 2. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish

Jinoyat kodeksida (25-m. 1-q.) «jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish» tushunchasiga izoh berilgan. Unga ko‘ra, shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlanguniga qadar to‘xtatilgan bo‘lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb topiladi. Mazkur ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, jinoyatni sodir etish bosqichida jinoiy qasdni amalga oshirish boshlanib, u qasdning shakllanishi davrida yuzaga keladi. Pirovardida shaxs muayyan harakatlarni qilishga kirishadi yoki, aksincha, o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarishdan to‘xtaydi (harakatsizlik). Bu, o‘z navbatida, jinoyat sodir etish uchun yoki uni keyinchalik yashirish uchun muayyan shart-sharoitlar yaratadi. Shunday bo‘lsa-da, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishda sodir etiladigan qilmishlar jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda qilinadigan xatti-harakatlardan tubdan farqlanadi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish jinoyat qonuni tomonidan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga (jinoyat obyekti) bevosita tajovuz qilmasligiga asoslanadi.

Qonunda jinoyatni sodir etishning mazkur bosqichiga umumlashtirilgan obyektiv-subyektiv izoh berilgan bo‘lib, u, umuman olganda, har qanday jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning tugallanmagan tarkibiga kiradi, ya’ni qasddan sodir etilgan jinoyat (subyektiv ta’rif), jinoyatni sodir etish yoki uni

yashirishga kerakli shart-sharoit yaratish (obyektiv ta’rif).

Shuni nazarda tutish joizki, jinoyatni sodir etishda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichiga shaxs muayyan jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish yoki uni yashirishni mazkur jinoyatni keyinchalik sodir etish niyatida amalga oshirilgandagina huquqiy baho berish mumkin. Demak, shaxsning faraz qilingan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida amalga oshiradigan xatti-harakatlari, masalan, sovuq qurol xarid qilishi, o‘q otish quroliga qonunga xilof ravishda ega bo‘lishi, uy-joy yoki boshqa xonalarga kirishni yengillashtiruvchi ochadigan yoki boshqa moslamalarni yasashi kabilar jinoyat sodir etish uchun qo‘llanishi aniqlanmaguniga qadar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholanishi mumkin emas. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, mazkur qilmishlarning ba’zilariga jinoyat qonunida mustaqil tamom bo‘lgan jinoyatlar sifatida baho berilgan.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tarkibi alohida xususiyatga ega bo‘lib, u obyektiv va subyektiv tomondan namoyon bo‘ladi.

*Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tarkibining obyektiv tomoni* quyidagi ikkita alomatga ega bo‘ladi: 1) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tarkibining obyektiv tomoniga kirmaydigan qilmishlar; 2) majburiy to‘xtash.

Birinchi alomatga jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat tarkibining obyektiv tomoniga kirmasligi xos. Zero, mazkur qilmishlar vaqt bo‘yicha Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida tamom bo‘lgan jinoyat sifatida belgilangan muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi ma’lum xatti-harakatlardan oldin boshlanadi.

Jinoiy qilmishga bu kabi ta’rif berish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida unga xos bo‘lgan ikkita xususiyatga e’tibor berishga imkon beradi. Birinchidan, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir etilgan jinoiy qilmishlar muhofaza qilinayotgan ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatmasa-da, jamiyat uchun xavfli va qonunga xilof deb topiladi. Masalan, shaxs spirtli ichimliklar bilan birgalikda iste’mol qilinganida vaqtincha inson es-hushini yo‘qotuvchi dorivor moddani xarid qiladi hamda uning mazkur xossasidan foydalanib, uni ichgan jabrlanuvchining shaxsiy buyumlari (puli, zargarlik buyumlari, kiyim-kechagi, qo‘l soati v.b.)ni qonunga xilof ravishda qo‘lga kiritmoqchi bo‘ladi. Biroq dorivor moddani sotib olish, ya’ni jinoyat sodir etish uchun vositaga ega bo‘lishning o‘zi qonun tomonidan muhofaza qilinadigan obyekt – xususiy mulkka bevosita tajovuz qilishni bildirmaydi.

Ikkinchidan, mazkur qilmishlar shaxs sodir qilishga tayyorgarlik ko‘rayotgan jinoyatning obyektiv tomoniga kirmaydi. Masalan, shaxs o‘ch olish maqsadida odam o‘ldirmoqchi, buni amalga oshirishda u jabrlanuvchining ovqatiga qo‘shish uchun zaharlovchi moddani topadi. Har qanday turdagi odam o‘ldirish jinoyatining obyektiv tomonini, bevosita boshqa shaxsni zo‘rlik ishlatib hayotidan mahrum etishga yo‘naltirilgan harakatlar tashkil qiladi. Demak, zaharlovchi moddani topish faktining o‘zi qasddan odam o‘ldirish jinoyatining obyektiv tomonini tashkil qilmaydi.

Binobarin, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishdagi qilmishning o‘ziga xos

xususiyati shundaki, uni tashkil qiluvchi obyektiv tomon shaxs sodir etishga tayyorgarlik ko‘rayotgan muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonidan farq qiladi. Shu bois jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishni tashkil etuvchi qilmishlar muhofaza qilinayotgan obyektga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi hamda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasida belgilangan jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi qilmishlarga mos kelmaydi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir etiladigan qilmishlar mazmuniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Ular jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmishlar va sodir etilgan jinoyatni yashirishga qaratilgan qilmishlardir. Quyida ularning alohida turlari bilan tanishib chiqamiz.

1. Jinoyatni sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmishlarning alohida turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– jinoyatni sodir etish vositasi yoki qurollarini qidirib topish, ya’ni xohlagan yo‘l bilan jinoyatni sodir etish vositasi hamda (yoki) qurollariga ega bo‘lish. Jinoyatni sodir etish vositasi va qurollariga ega bo‘lish qonuniy (masalan, aholi yashash joylariga qonunga xilof ravishda kirish maqsadida chilangarlik asbobini do‘kondan xarid qilish, narkotik moddalarni yashirish hamda ularni noqonuniy tarzda chegaradan olib o‘tish maqsadida avtotransport vositasini tanishidan vaqtincha ijaraga olish va h. k.) yoxud noqonuniy bo‘lishi mumkin (masalan, bosqinchilik hujumlarida foydalanish maqsadida o‘q otish qurolini o‘g‘irlash, o‘g‘irlangan mol-mulkni tashish maqsadida avtotransport vositasini olib qochish va h. k.);

– jinoyat sodir etish vositasi va qurollarini moslashtirish, ya’ni qasd qilingan jinoyat sodir etishda foydalanish maqsadida qo‘l ostidagi buyumlarning ko‘rinishini o‘zgartirish hamda qayta ishlash (masalan, inkassatorlarga hujum qilish uchun ov qurolidan qirqma miltiq yasash, qotillik maqsadida elektrodlarni yo‘nish, kontrabanda qilish maqsadida transport vositalaridagi idishlarni qayta yig‘ish, montaj qilish va h. k.);

– jinoyat sodir etish vositasi va qurollarini yasash, ya’ni ularni yarim fabrikatlar, yarim mahsulot, xomashyodan zavodda yoki hunarmandchilik usuli bilan yasash (masalan, fuqarolarga tegishli mulkka noqonuniy tarzda egalik qilish maqsadida, militsiya xodimining qalbaki guvohnomasini yasash, uy-joyga kirish uchun eshik ochadigan moslamalarni tayyorlash, firibgarlik yo‘li bilan pul o‘g‘irlash maqsadida hujjatlarni qalbakilashtirish va h. k.);

– jinoyat sodir etiladigan joyni va vaqtni o‘rganish (masalan, do‘kondan mol o‘g‘irlashga ahd qilgan shaxs dastlab do‘konning ish tartibi, ish kunining boshlanishi va yakunlanishi, qo‘riqlash xizmatining ish tartibi hamda do‘konni aylanish vaqti va yo‘nalishini, do‘kon ichiga kirishning eng qulay va xavfsiz yo‘llarini o‘rganish);

– jinoyatni sodir etish imkoniyatlarni aniqlash (masalan, qo‘riqlash texnikasining ishonchliligi, xavfsizlik xizmatining mavjudligi, uning qurollanganligi, sifat va son hamda bank bo‘limini talon-toroj qilishda xavf-xatarni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarni o‘rganish);

– jinoyatni sodir etish vaqtida ko‘zlangan maqsadga erishishga xalaqit berishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etish usullarini o‘ylab topish (ma-

salan, shaxsni o‘ldirish maqsadida uni qo‘riqlayotgan soqchilarni chalg‘itish xonaga yashirincha jinoiy maqsadda kirish uchun signalizatsiya va telekuzatuv vositalarini ishdan chiqarish);

– jinoyat ishtirokchilarini jalb etish, jinoiy guruhlar tuzish, ya’ni bir yoki bir nechta jinoyatlar sodir etish uchun o‘z maqsadlarini birlashtira oladigan shaxslarni qidirib topish.

2. Jinoyatni yashirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qilmishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– jinoyat sodir etilganidan so‘ng jinoiy javobgarlikdan qutulish yoki jinoyatchini yashirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan faoliyat. Bunga ishtirokchining yashirinishi uchun unga (aqliy yoki jismoniy) yordam berish kiradi (masalan, jinoyatchiga shaxsini tasdiqlovchi qalbaki hujjatlarni yasash, tashqi qiyofasini o‘zgartirish uchun grim yoki boshqa ramziy buyumlarni tayyorlash, alibi bilan ta’minlaydigan rejani ishlab chiqish, yashirinish joyini izlab topish, jinoyat sodir etilganidan so‘ng shaxsni yashirish haqida va’da berish, hodisa joyidan g‘oyib bo‘lish uchun avvaldan avtotransport vositasini tayyorlab qo‘yish va h. k.);

– jinoyat sodir etish vositasi va qurollarini yashirish bilan bog‘liq faoliyat. Bunga jinoyat sodir etish qurol va vositalarini yashirish, yo‘q qilish yoki tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha dastlabki xatti-harakatlar va bu xatti-harakatlarga jinoyat sodir etish qurollaridan qutulishning dastlabki rejasini ishlab chiqish kiradi (masalan, uy-joyga g‘ayriqonuniy kirish vositasi yoki odam o‘ldirilgan qurolni o‘g‘rilik yoxud qotillik sodir etilgan joydan uncha uzoq bo‘lmagan suv havzasida cho‘ktirish yoki ularning ko‘rinishini o‘zgartira oladigan yoxud yashirishi mumkin bo‘lgan shaxsni avvaldan qidirib topish va h. k.);

– jinoyat izlari yoki ashyoviy dalillar, ya’ni o‘zida jinoyat izlarini saqlab qolgan buyumlarni yashirishga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq faoliyat (masalan, o‘g‘rilik sodir etilganidan so‘ng barmoq izlarini tozalovchi yoki neytrallashtiruvchi vositalar, shuningdek, yong‘in yoki portlash natijasida jinoyat joyidagi izlarni yo‘qota oladigan portlovchi vosita hamda alanga olib yonuvchi moddalarni avvaldan tayyorlab qo‘yish va h. k.);

– jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan buyumlarni keyinchalik yashirishga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq faoliyat. Mazkur qilmishlar qatoriga o‘g‘irlangan narsalar, brakonyerlik yo‘li bilan topilgan tabiat ne’matlari, erkin fuqarolar iste’molidan olib qo‘yilgan buyumlarni keyinchalik yashirish uchun yerto‘la va omborlar yasash, o‘g‘irlangan yoki g‘ayriqonuniy ravishda qo‘lga kiritilgan narsalarni xarid qiladigan shaxslarni izlab topish va h. k.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichidagi qilmishlarning mazkur ikki turi muqobil xususiyatga ega, chunki jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar keyinchalik jinoyat sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratish yoki mazkur qilmishlarning har ikkisini bajarish uchun amalga oshirilishi mumkin. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlarning to‘la ro‘yxatini berishning iloji yo‘q. Shu bois

bunga «jinoyatga shart-sharoit yaratish» deb umumiy tushuncha berilgan bo‘lib, u jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoxud mazkur qilmishni yashirish bo‘yicha barcha qilmishlarni qamrab oladi.

Jinoyat huquqi ta’limotida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida harakatsizlik imkoniyati yoki iloji yo‘qligi haqidagi masala turlicha hal qilingan. Ko‘pgina olim va amaliyotchilar obyektiv tomondan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish – faqat harakatdan iborat, degan nuqtai nazarga asoslanadilar. Bunday xulosaga kelishga jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning obyektiv xususiyatiga qonunda berilgan ta’rif asos bo‘ladi. Binobarin, ularning fikricha, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish faqat faol xatti-harakat tufayligina amalga oshiriladi. Vaholanki, aynan nazariy hamda amaliy jihatdan «amalga oshmagan ishtirokchilik»[1] deb atalgan holatlar nazardan chetda qoldiriladi.

Masalan, yordamchi va bajaruvchi (birga bajaruvchi)ning obyektiv xulq-atvorini tavsiflashda jinoiy qilmishni harakatsizlik oqibatida sodir etish inkor etilmaydi. Aksincha, amalga oshmagan ishtirokchilik turlariga jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish sifatida huquqiy baho berish, umuman olganda, hech kimda e’tiroz tug‘dirmaydi. Biroq ishtirokchilik harakatsizlik sifatida ifodalanishi mumkin. Bu u yoki bu ishtirokchi tomonidan bajarilishi qonun yoki boshqa huquqiy akt bo‘yicha bajarilishi majbur bo‘lgan muayyan harakatlarni bajarmaslikdan iborat bo‘lgan passiv xulq-atvorning sodir etilishi shaklida ifodalanadi. Masalan, kassir ishdan ketayotib pul turgan seyfni qulflamasdan ketadi va o‘z qilmishi orqali jinoyatning boshqa ishtirokchilariga kassadan pul o‘g‘irlashga yordam beradi, ammo kutilmagan holatlar tufayli jinoyat amalga oshmay qoldi. Kassirning bu qilmishini jinoyat ishtirokchilariga o‘g‘rilik uchun shart-sharoit yaratib berish, ya’ni harakatsizlik orqali jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholash kerak.

Demak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish ko‘p hollarda faol harakat ko‘rinishida amalga oshirilsa-da, harakatsizlik tufayli ham sodir etilishi mumkin.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishdagi obyektiv tomonning ikkinchi belgisi (jihati) majburiy to‘xtatilganlik bo‘lib, u shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlar sababli muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bajarishdan avval to‘xtatilganligini bildiradi.

Aynan mazkur jihat jinoiy qilmishning jinoyatning obyektiv tomoni boshlanishidan avval to‘xtaganligi hamda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida jinoiy qilmishning tugatilganligini anglatadi, shuningdek, uni jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan ajratishga imkon beradi. Mazkur alomat (jihat) jinoyatga tayyorgarlik hisoblangan jinoyat huquqiga oid xulq-atvorni shaxsning jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan, biroq muayyan davrda ixtiyoriy ravishda to‘xtatilgan xatti-harakatdan ajratishga imkon beradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish majburan, ya’ni subyekt xohish-irodasiga qarshi to‘xtatilgan bo‘lsa, u jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb hisoblanadi. Basharti tayyorgarlik harakatlari shaxs tomonidan ix-

[1] Bu haqda mazkur darslikning XI bobiga qarang.

tiyoriy va to‘laligicha to‘xtatilgan bo‘lsa, u hech qanday huquqiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Aksincha, boshqa jinoyat tarkibi bo‘lmagan taqdirda jinoyat qonuniga binoan jazoga tortilmaydi. Bunda mazkur harakat jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb baholanadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tarkibining subyektiv tomoniga xos jihat shundaki, u faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi, ya’ni shaxs o‘z xatti-harakatlari keyinchalik jinoyatni amalga oshirishga hamda uni yashirishga shart-sharoit yarata oladi, deb o‘ylaydi va buni xohlaydi.

## 3. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish

Jinoyat kodeksi 25-moddasining 2-qismiga binoan, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish deb topiladi.

«Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish» tushunchasiga berilgan huquqiy ta’rifga asoslangan holda, tamom bo‘lmagan jinoyatning mazkur bosqichi Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibining obyektiv alomatlarini amalga oshirishni boshlash hamda ularning to‘liqsiz bajarilishi bilan yakunlanadi deb xulosa chiqarish mumkin. Mazkur huquqiy ta’rif jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning barcha zaruriy jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ushbu jihatlar obyektiv va subyektiv turlarga bo‘linadi.

*Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning obyektiv tomoniga* ikki jihat xosdir: 1) jinoyat sodir etishning boshlanishi; 2) jinoyatni sodir etishdan majburiy to‘xtash.

Qonunda «jinoyat sodir etishning boshlanishi» deb belgilangan birinchi alomat shaxsning muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi qilmishlarni bevosita bajarishni boshlaganligini yoki bajarayotganligini bildiradi. Bunda fikr, nafaqat muayyan qilmishlar, balki mazkur tarkib uchun majburiy bo‘lgan muayyan turdagi jinoyat tarkibining obyektiv tomoni haqida yuritilib, ular Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasida yoki uning dispozitsiyasidagi qoidalarda nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Ushbu alomat jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichini jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichidan ajratish imkonini beradi. Jinoyatni sodir etishning boshlanishi jinoyatni sodir etishga suiqasd qilishning nafaqat o‘ziga xosligidan kelib chiqadi, balki uning vujudga kelish davrini ham ta’riflaydi. Mazmun jihatidan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida sodir etiladigan qilmishlar jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichidagi qilmishlardan shunisi bilan farqlanadiki, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishda keyinchalik uni sodir etishga shart-sharoit yaratilsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda esa bevosita Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Jinoyatning obyektiv tomoni sifatida aynan muayyan ijtimoiy xavfli qilmishning boshlanish davri dastlabki jinoiy qilmishning jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish bosqichiga o‘tganligini bildiradi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichiga o‘tish shaxsning ilk jinoiy xatti-harakatlarining boshlanish davri bilan mos keladi

hamda jinoiy jazoga loyiq qilmish hisoblanib, muayyan turdagi jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisini tashkil etadi.

Masalan, Jinoyat kodeksi 248-moddasining 1-qismiga binoan, tegishli ruxsatnomasiz o‘qotar qurol, shuningdek, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini tayyorlash, olish, olib yurish, saqlash, olib o‘tish yoki jo‘natish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi 3-son qarorining 8-bandida o‘qotar qurol, jangovar o‘q-dorilar, portlovchi modda va portlatish qurilmalarini ishlab chiqarish deganda, ularni yasash, zararlantiruvchi xossalarini tiklash, shuningdek, boshqa narsalar (masalan, raketnitsalar, start va qurilish pistoletlari)ni o‘zgartirib o‘qotar qurolga aylantirganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Buyumda zararlantiruvchi xossalarni hosil qilishga qaratilgan harakatlar, basharti ular aybdor bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, o‘qotar qurollar, jangovar o‘q-dorilar, portlovchi modda va qurilmalarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarishga suiqasd qilish sifatida baholanishi kerak[1]. Mazkur qoidalarga tayangan holda, qonunga xilof ravishda qurol yasashni sodir etish bosqichini aniqlash mumkin. Qonunga xilof ravishda qurol yasash Jinoyat kodeksi 248-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining muqobil zaruriy belgisi sifatida qator jinoiy xatti-harakatlar bilan ta’riflanib, ular o‘z majmuida jinoiy jazoga loyiq qilmish – «qonunga xilof ravishda qurol yasash»ni tashkil etadi. Oliy sud Plenumining qaroriga ko‘ra, qonunga xilof ravishda qurol yasash shaxs tomonidan buyumga o‘qotar qurolga xos zararlantiruvchi xususiyatlarning berilishiga qaratilgan ilk xatti-harakatlaridan boshlanadi. Binobarin, mazkur turdagi jinoyatga suiqasd qilish keyinchalik yangi qurol yasash, shuningdek, buyumlarni o‘qotar qurollarga aylantirish uchun detallar tayyorlash bilan bog‘liq. Mazkur xatti-harakatlardan avval sodir etilgan qilmishlar jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bosqichiga kiradi. Bular raketnitsa, start va qurilish pistoletlarga ega bo‘lish, zarur asbob, metallar xarid qilish hamda izlab topish, ya’ni o‘qotar qurol yasash jarayonini boshlash uchun shart-sharoit yaratib beradigan xatti-harakatlarni sodir etish bo‘lishi mumkin.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning ikkinchi obyektiv alomati *jinoyat sodir etishdan majburiy to‘xtash* hisoblanadi. Mazkur alomatning mazmuni shundan iboratki, unga ko‘ra, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan muayyan turdagi jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi xatti-harakatlar shaxs tomonidan unga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘laligicha bajarilmaydi. Bu aybdor tomonidan hamma qilmishlarning bajarilmaganligini yoki tamom bo‘lgan jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy oqibatlar yuzaga kelmaganligini bildiradi. Binobarin, jinoyat sodir etishga suiqasd qilinganida jinoyatni sodir etish, uning rivojlanishi ixtiyoriy ravishda emas, aksincha, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlar sababli to‘xtatiladi. Mazkur holatlar turlicha, biroq, albatta, shaxsga bog‘liq

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. – Т., 2006. – 47–48-б.

bo‘lmagan holatlarda bo‘ladi. Chunonchi, bularga quyidagilar kiradi: muayyan turdagi jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bajarish vaqtida hibsga olish; jabrlanuvchining qarshilik ko‘rsatishi; jinoyatni davom ettirishga to‘sqinlik qiladigan kutilmagan fiziologik to‘siqlarning paydo bo‘lishi (masalan, kuchli darajadagi mastlik yoki narkotik modda iste’mol qilganlik; kasallikning zo‘rayishi; kutilmagan guvohlarning paydo bo‘lishi; shaxs oldin ko‘ra bila olmagan texnik to‘siqlar va h. k.). Basharti, boshlangan jinoyat jarayoni shaxs tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra to‘xtatilgan bo‘lsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda jinoyat sodir etishga suiqasd bo‘lmagani kabi jinoyat qonuniga binoan jinoiy jazoga tegishlilik ham bo‘lmaydi.

Mazkur alomat jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni tamom bo‘lgan jinoyatdan ajratish imkoniyatini beradi. Tamom bo‘lgan jinoyatdan jinoyat sodir etishga suiqasd qilish muayyan turdagi jinoyat tarkibining obyektiv tomondan zaruriy alomatlarning bo‘lmasligi bilan ajralib turadi. Binobarin, aynan «majburiy to‘xtash» tushunchasi tamom bo‘lmagan jinoyatni ta’riflaydiki, u bevosita Jinoyat kodeksi 25-moddasining 2-qismidagi jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tushunchasida bevosita ifodalangan. Qonunda mazkur tushuncha «shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holda oxiriga yetkazilmagan jinoyat» deb berilgan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Transport vositalarini olib qochish jinoyatlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 1996-yil 26-dekabr 37-sonli qarorining 1-bandida berilgan yo‘riqnomaga binoan, Jinoyat kodeksining 267-moddasida nazarda tutilgan jinoyat jinoyatchi tomonidan transport vositasi olib qochilgan vaqtdan boshlab tamomlangan hisoblanadi. Masalan, fuqaro M. va S.lar transport vositasida «sayr qilish», keyinchalik uni Toshkent aeroportida sotish uchun olib qochish maqsadida avvaldan til biriktirib, avtomobillar to‘xtash joyida turgan VAZ-21013 rusumli avtomashina oynasini sindirib, eshigini ochadilar va uni o‘t oldirayotgan vaqtlarida, ya’ni jinoyatni sodir etish joyida IIO xodimlari tomonidan qo‘lga olinadilar. Ularning xatti-harakatiga tamomlangan jinoyat sifatida to‘g‘ri baho berilgan.

*Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning subyektiv tomoniga* to‘g‘ri qasd xos bo‘ladi. Chunonchi, shaxs formal tarkibga ega jinoyat sodir etishga suiqasd qilar ekan, muayyan jinoyat tarkibining bevosita obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy qilmishni bajarayotganini anglaydi hamda ularni to‘laligicha amalga oshirishni xohlaydi. Moddiy tarkibga ega jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda esa shaxs muayyan jinoyat tarkibining bevosita obyektiv tomonini tashkil qiluvchi jinoiy qilmishlarni bajarayotganini anglaydi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko‘radi hamda ularning yuzaga kelishini xohlaydi.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir qilinishi mumkinligi haqida gapirilar ekan, jinoyat huquqi ta’limotida ba’zi olimlar tomonidan jinoyat sodir etishga suiqasd qilish egri qasd bilan ham sodir qilinishi mumkinligi haqidagi nuqtai nazar ilgari surilganini ta’kidlash joiz. Biroq mazkur yondashuv yetarlicha asoslanmagan. Egri qasdning xususiyati shundaki, undan ko‘zlangan maqsad yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jinoiy

oqibatga mos kelmaydi. Vaholanki, mazkur jinoiy oqibatning yuzaga kelishi esa, o‘z navbatida, subyekt tomonidan o‘z jinoiy qilmishining faraz qilingan natijasini amalga oshirishning zaruriy sharti sifatida qo‘llab-quvvatlanadi. Sub’yekt egri qasddan qilingani hamda ikkinchi darajali bo‘lgani uchun jinoiy oqibatning yuzaga kelishini ongli ravishda xohlamaydi, shu sababli unga erishish uchun suiqasd qila olmaydi.

Jinoiy qasdning faqat egri qasdda namoyon bo‘lishini shartlovchi aniqlashtirilmagan turlari mazmuniga ko‘ra, shuningdek, aniqlashtirilmagan qasddan sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tartibidan kelib chiqqan holda (unga ko‘ra qilmish amalda yuzaga kelgan oqibatlarga ko‘ra baholanadi – kvalifikatsiya qilinadi) mazkur jinoyatlarni sodir etishga suiqasd qilish imkoniyatini e’tirof etish maqsadga muvofiq emas.

Adabiyotlarda berilgan qarama-qarshi tavsiyalarga qaramay, to‘g‘ri aniqlashtirilgan muqobil qasd bilan sodir etilgan jinoyatlar sodir etishda suiqasd qilish ham maqsadga muvofiq emas. To‘g‘ri aniqlashtirilgan muqobil qasdda irodali davr oldindan ko‘zlangan jinoiy oqibatlarning ikkisidan biri yoki bir nechtasining yuzaga kelishini xohlash bilan bog‘liq. Demak, shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat yuzaga kelgan faktik oqibatlarga ko‘ra baholanishi, aksincha, undan og‘irroq, muqobil yuz berishi mumkin bo‘lgan, biroq hali yuz bermagan jinoiy oqibatlarga suiqasd qilish sifatida baholanmasligi kerak. Agar shaxs o‘ch olish maqsadida jabrlanuvchining qorniga pichoq ursa hamda o‘z qilmishining odam o‘limiga olib kelishi yoki og‘ir tan jarohati yetkazilishini ko‘ra bilsa va buni o‘ch olish niyatini qondirish maqsadida chin dildan xohlasa-da, biroq jabrlanuvchiga o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohatlari yetkazilganda sodir etilgan jinoyat odam o‘ldirish yoki og‘ir tan jarohatlarini yetkazishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinmasligi kerak.

To‘g‘ri aniqlashtirilgan mutlaq belgilangan qasdli jinoyatni sodir etishdagi irodali davr bitta muayyan jinoiy oqibatning yuzaga kelishini xohlash bilan ta’riflanadi. Demak, shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish faktik yuzaga kelgan oqibatlarga ko‘ra emas, balki qasdning yo‘nalganligi bo‘yicha baholanishi kerak. Agar shaxs zargarlik buyumlari magaziniga qimmatbaho taqinchoqlarni o‘g‘irlash uchun kirsa-yu, biroq narxi uncha qimmat bo‘lmagan oddiy bijuteriyani o‘g‘irlasa, sodir etilgan jinoyat o‘g‘irlangan bijuteriyaning faktik narxidan kelib chiqqan holda tugallangan o‘g‘rilik sifatida emas, aksincha, qimmatbaho zargarlik buyumlarini ko‘p miqdorda o‘g‘irlash sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning subyektiv tomonini ta’riflashda shaxsning o‘z jinoiy maqsadlarini amalga oshirish darajasi hamda haqiqatda yuzaga kelgan jinoyat oqibatlarining aybdor o‘zi xohlagan jinoiy maqsadlarga qay darajada mosligini hisobga olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentyabrdagi «Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘grisida»gi 13-sonli qarorining 6-bandida ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish agar aybdorning harakatlari yagona qasd bilan qamrab olgan va odatda, bir vaqtning o‘zida sodir etilgan bo‘lsa, JK

97-moddasi ikkinchi qismining “a” bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak [1].

Jinoyat huquqi ta’limoti hamda tergov-sud amaliyotida jinoyatga suiqasd qilishning bir nechta turi ajratiladi.

Birinchi tasnif (klassifikatsiya)ga jinoyatchida o‘z jinoiy maqsadining yakunlanganlik darajasi haqidagi subyektiv tasavvuri asos qilib olingan bo‘lib, u ikki xil jinoyat turini ajratish imkonini beradi: 1) tamom bo‘lgan suiqasd; 2) tamom bo‘lmagan suiqasd.

Amaldagi jinoyat qonunlarida «tamom bo‘lgan» va «tamom bo‘lmagan» suiqasd terminlari ishlatilmasa-da, Jinoyat kodeksi 58-moddasining 1-qismida sud tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bir qatorda «jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasi»ni ham hisobga olish zarurligi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, qonunda belgilangan jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan kelib chiqqan holda (JK 26-m.) hamda jinoyat bir-birini inkor etuvchi ikkita sabab, ya’ni jinoyatning shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holda oxiriga yetkazilmaganligi yoki shaxsning o‘z xohishiga binoan ixtiyoriy to‘xtatilganligi sababli tamom bo‘lmaganligi bois, jinoyatni tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan suiqasd etish kabi turlarga bo‘lish jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish masalasini to‘g‘ri hal etish uchun ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etish zarur. Shunday qilib, mazkur tasnifning mavjudligi jazoni tayinlashda jinoiy niyatning amalga oshirilganlik darajasini hisobga olish hamda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish masalasini hal qilish zarurati bilan bog‘liq.

*Tamom bo‘lgan suiqasd* deb shunday suiqasdni tan olish kerakki, bunda subyekt jinoyatni sodir etish uchun zarur bo‘lgan hamma xatti-harakatlarni bajargan, biroq jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish sababli yoki aybdor shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarda jinoyat tugallanmagan bo‘lsin.

Tamom bo‘lgan suiqasd ham moddiy, ham formal tarkibli jinoyatlarda bo‘lishi mumkin. Moddiy tarkibga ega bo‘lgan jinoyatlarni sodir etishga tamom bo‘lgan suiqasd qilishda shaxs obyektiv tomondan jinoiy oqibatlar yuzaga kelishi uchun zarur bo‘lgan barcha qilmishlarni bajaradi, subyektiv tomondan esa barcha zarur qilmishlar sodir etilganligini anglaydi hamda ularning jinoiy oqibatlar yuzaga kelishi uchun yetarli ekanligini oldindan ko‘ra biladi va bu jinoiy oqibatlarning yuzaga kelishini xohlaydi, biroq mazkur jinoiy oqibatlar obyektiv ravishda aybdorga bog‘liq bo‘lmagan holda yuz bermaydi. Masalan, aybdor biror shaxsni hayotidan mahrum qilish maqsadida ichimligiga zahar qo‘shib bersa va bu hol suyuqlikni iste’mol qilgan odamning o‘limiga sabab bo‘ladi deb hisoblasa, biroq jabrlanuvchiga o‘z vaqtida zaharga qarshi dori berilganligi sababli o‘limdan saqlab qolinadi. Aybdor qasdining yo‘nalganligi bo‘yicha sodir etilgan qilmishni qasddan odam o‘ldirishga tamom bo‘lgan suiqasd qilish deb baholash zarur.

Shaxs jinoiy oqibatlarning yuzaga kelishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni bajarib bo‘lgan, biroq ixtiyoriy, masalan, sodir etgan qilmishidan

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.2. – Т., 2006. – 193-б.

pushaymon bo‘lish, jabrlanuvchiga achinish, jinoiy javobgarlikka tortilish munosabati bilan ozodlikdan mahrum bo‘lishdan qo‘rqish sababli avval istagan jinoiy oqibatning yuzaga kelishining oldini olish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solgan hollarda ham tamom bo‘lgan suiqasd qilish e’tirof etilishi kerak. Chunonchi, yuqorida keltirilgan misolda jabrlanuvchiga zaharga qarshi dori avval shu zaharni bergan va jabrlanuvchining o‘limini istagan shaxs tomonidan beriladi va bu bilan o‘limning oldi olinadi. Yuridik jihatdan sodir etilgan qilmish tamom bo‘lgan suiqasd bosqichida tamom bo‘lmagan jinoyat deb baholanishi kerak. Bu esa shaxsning o‘z qilmishidan ixtiyoriy ravishda qaytishi tufayli jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirmaydi.

Formal tarkibli jinoyatlarda faqat cheklangan hollardagina tamom bo‘lgan suiqasd mavjud bo‘lishi mumkin. U shaxsning jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi barcha zarur tadbirlarni bajarishi, biroq o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda oxiriga yetkazmaganligi bilan ajralib turadi. Masalan, mansabdor shaxsga atalgan poraning vositachiga berilishi va uning shu porani o‘zlashtirishi jinoyatni sodir etishda tamom bo‘lgan suiqasdga kiradi. Bojxona nazoratini chetlab o‘tib yashirin tarzda tovarlar va boshqa qimmatbaho buyumlarni olib o‘tish bojxona qonunlarini buzishda tamom bo‘lgan suiqasd sifatida baholanishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Bojxona qonunlarini buzish va kontrabanda jinoyatlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 1996-yil 27-fevral 2-son qarorining 4-bandiga binoan, tovarlarni bojxona nazoratini chetlab o‘tib bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o‘tish deganda, mazkur tovarlarni yashirin tarzda olib o‘tish tushuniladi. Shu bois agar shaxs kontrabanda tovarlarini yashirish uchun maxsus yashirin joy hozirlab, bojxona chegaralaridan tashqariga olib chiqish uchun bojxona hududiga olib kirgan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish tamom bo‘lgan suiqasd sifatida baholanishi kerak. Zero, Oliy sud Plenumi mazkur qarorining 4-bandiga binoan, tovarlar yoki boshqa qimmatbaho buyumlarni kontrabanda qilish yoki qonunga xilof ravishda olib o‘tish, ular O‘zbekiston chegarasidan olib o‘tilgan vaqtdan boshlab tamom bo‘lgan jinoyat hisoblanadi[1]. Bojxona kodeksining 7-moddasiga muvofiq, tovarlarni olib chiqishda amalda olib o‘tish bojxona deklaratsiyasini to‘ldirmasdan olib o‘tish yoki aybdor maqsadini amalga oshirishga yo‘naltirilgan har qanday boshqa xatti-harakat tushuniladi.

*Tamom bo‘lmagan* suiqasdda shaxs sodir etishni maqsad qilib qo‘ygan qilmishning bir qisminigina bajaradi. Shunday qilib, subyektiv tomondan aybdor o‘zi xohlagan jinoiy oqibatning yuzaga kelishi uchun barcha qilmishlar yoxud ularning yig‘indisi jinoyat huquqiga oid qilmishni tashkil etuvchi barcha xatti-harakatlarni amalga oshirmaganligini tan oladi. Masalan, agar katta odam voyaga yetmagan shaxsga bepul narkotik moddani tavsiya etib, uni iste’mol qilgan o‘smirni doimiy ravishda narkotik moddalarga ruhiy va jismoniy qaramlikka solib qo‘ymoqchi bo‘lsa, o‘smir esa narkotik moddalarni

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006 Т.1. – Т., 2006. – 42-44 б.

iste’mol qilmasdan, bu haqda ota-onasiga ma’lum qilganligi sababli ular ichki ishlar organlariga xabar berib, jinoyatchi ushlansa, sodir etilgan qilmish voyaga yetmagan shaxsni narkotik moddalarni iste’mol qilishga jalb etishda tamom bo‘lmagan suiqasd sifatida baholanishi kerak. Zero, aybdor voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik moddalarni iste’mol qilishga boshqa samaraliroq usullar bilan (masalan, aldash, majburlash orqali) jalb etishi mumkin edi (JK 127-m.). Biroq u o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra o‘smirni jalb qilishning uddasidan chiqmagan.

Shunday qilib, tamom bo‘lmagan suiqasdga aybdor nafaqat muayyan jinoyat tarkibidagi obyektiv tomonning barcha zururiy alomatlarini bajarmaganligi, balki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra o‘zi xohlagan natijaga erisha olmaganligini anglashi ham xosdir.

Jinoyat huquqi ta’limotida tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan suiqasd kundalik (oddiy) yoki «yaroqli suiqasd» kabi turlariga bo‘linadi. Shuningdek, uning aksi «yaroqsiz suiqasd» ham ajratilib, u, o‘z navbatida, yaroqsiz obyektga suiqasd hamda yaroqsiz vositalar bilan suiqasd qilishga bo‘linadi. «Yaroqsiz suiqasd», «yaroqsiz obyekt», «yaroqsiz vosita» atamalari o‘zining an’anaviyligi tufayli o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan, biroq ko‘p jihatdan shartli hisoblanadi. Yaroqsiz suiqasd va turlarining mohiyati shaxsda u yoki bu shart-sharoitlarga nisbatan xato xulosa yuzaga kelganligidan iborat. Shu bois yaroqsiz suiqasdning yuridik tabiatini faktik xato va uning jinoyat huquqiga oid ahamiyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish lozim. Binobarin, jinoyatning tamom bo‘lgan jinoyat bosqichiga yetib bormasligining asosiy sababi shaxsning obyektga yoki jinoyat sodir etish vositalariga nisbatan amalda yo‘l qo‘ygan xatosidir.

«Yaroqsiz» (noloyiq) obyekt yoki jabrlanuvchiga suiqasd qilinganida, undagi mavjud bo‘lgan alohida xususiyatlari yoki ularning umuman yo‘qligi bois unga ziyon yetkazish imkoni bo‘lmaydi. Jinoyatchi esa mazkur holatlarni to‘laligicha anglay olmaydi yoki ularga nisbatan yanglishadi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Giyohvandlik vositalar yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 21-sonli 1995-yil 27-oktabr qarorining 5-bandida, basharti jinoyatchiga oldindan bila turib, narkotik vosita yoki psixotrop modda ko‘rinishidagi boshqa moddalar sotilsa, uning mazkur harakatlari giyohvand vositalar yoki psixotrop moddalarga qonunga xilof ravishda ega bo‘lishga suiiqasd qilish sifatida baholanishi kerak deb belgilangan[1]. Oliy sud Plenumining mazkur ko‘rsatmasi shaxsning sotib olayotgan buyumning xususiyati va sifatiga nisbatan yanglishayotganligiga asoslanadi. Bunda u narkotik modda emas, umuman boshqa moddani sotib oladi, bu esa «yaroqsiz» obyekt, aniqrog‘i, «yaroqsiz» buyumga suiqasd etilayotganini e’tirof etish imkonini beradi.

Oliy sud Plenumining boshqa qarorida: «aybdor ishlatishga yaroqsiz bo‘lgan o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurollarini qonunga xilof ravishda egallagan va bunda ularning sifatiga nisbatan

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006 Т.1. – Т., 2006. – 36-б.

yanglishib yaroqli deb hisoblagan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish jinoyatga suiqasd tariqasida kvalifikatsiya qilinmogi lozim», deyiladi[1]. Demak, mazkur holat «yaroqsiz» predmetga suiqasd qilish deb baholanishi kerak.

«Yaroqsiz» obyektga suiqasd qilishni jabrlanuvchiga nisbatan yanglishish bilan bog‘liq holatlar ham tashkil qiladi. Oxirgi o‘n yil davomida nashr etilgan ishlarda sud amaliyotida bu kabi «yaroqsiz» suiqasdga faqat bitta misol keltirilgan. Daraxt kesish kombinatining ishchilar yotoqxonasida kechqurun V. D.ni o‘ldiradi. O‘lik D. yotgan xonaga mast holda O. kirib keladi va murdaning boshiga bolta qirrasi bilan uradi. O. odam o‘ldirishga qasd qilgan holda jinoiy qilmish sodir etganligi sud tomonidan tan olingan bo‘lib, mazkur qilmish jabrlanuvchi D. avval boshqa shaxs tomonidan o‘ldirilganligi sababli amalga oshmagan[2]. Ushbu misoldan «yaroqsiz» (noloyiq) jabrlanuvchiga suiqasd qilishni yaqqol ko‘rish mumkin.

«Yaroqsiz» (noloyiq) vositalar bilan suiqasd qilishda shaxs o‘zining obyektiv xususiyatlariga ko‘ra ko‘zlangan oqibatni keltirib chiqara olmaydigan vositalardan foydalanadi. Jumladan, shaxs rashk orqali xotinini o‘ldirish maqsadida foydalanishga yaroqsiz o‘qotar qurolni o‘g‘irlagan hamda uni ishga yaroqli deb o‘ylagan holda yanglishib, jabrlanuvchiga qarata undan o‘q uzgan. Biroq, qurolning nosozligi tufayli jinoyat yuz bermagan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish «yaroqsiz» vosita yordamida qasddan odam o‘ldirishga suiqasd qilish deb baholanishi kerak. Demak, «yaroqsiz» vositalar yordamida jinoyat sodir etishga suiqasd qilish, qoidaga ko‘ra, ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Zero, jinoyat aybdorning xatosi, ya’ni unga bog‘liq bo‘lmagan holatlar oqibatida oxiriga yetkazilmaydi. Shu bilan birga, har bir muayyan holatda shaxsning xatti-harakatlari ijtimoiy xavf-xatarni keltirib chiqarishi hamda qo‘llanayotgan jinoyat vositalari jinoyat sodir etish va ko‘zlangan maqsadga erishishga yordam berishga qodir ekanligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

O‘quv va ilmiy-nazariy adabiyotlarda «yaroqsiz» vositalar bilan suiqasd qilish sifatida o‘zining kam ahamiyatliligi hamda hech qanday ijtimoiy xavf tug‘dirmasligi sababli jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmaydigan, biroq jaholat va irim-sirim orqasidan jinoyat sodir etishning aniq zarar yetkaza olmaydigan vositalari (afsungarlik, sehr-jodu, «ko‘z» qilish, kinna kirgizish, dam solish va h. k.) ni qo‘llash haqida gapiriladi. Ta’kidlash joizki, mazkur holatlar aynan nazariy ahamiyatga ega bo‘lganligi bois, sud-tergov amaliyotida uchramaydi. Shu bilan birga, yuqorida aytib o‘tilgan va boshqa shunga o‘xshash harakatlarning ijtimoiy xavfliligini har bir muayyan hodisaga nisbatan alohida ko‘rib chiqish zarur. Zero, turli ruhiy ta’sir shakllari haqidagi zamonaviy

---

[1] «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги 3-сон қарорининг 5-банди // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. – Т., 2006. – 45-б.

[2] Qarang: РСФСР Олий суди Президиумининг қарорлари ҳамда жиноят ишлари бўйича суд коллегиясининг кўрсатмалари тўплами (1964–1972). – М., 1974. – 213–214-б.

bilimlar alohida toifadagi shaxslar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini oxirigacha uzil-kesil inkor eta olmaydi.

## 4. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish

Jinoyat kodeksi Umumiy qismining VI bobi «Tamom bo‘lmagan jinoyat» deb atalib, ikkita moddani o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi moddasi (JK 25-m.) shaxs harakatlarining jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichlarida majburiy to‘xtatilgan tamom bo‘lmagan jinoyatlar haqidagi qoidalardan iborat. Ikkinchi moddasi (JK 26-m.) ham tamom bo‘lmagan jinoyatlar haqida bo‘lib, unda shaxs ixtiyoriga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan jinoyatlar nazarda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, sodir etilgan qilmishning yuridik mohiyatini tubdan o‘zgartirib yuborganligi sababli bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi hamda unga jinoiy javobgarlik tayinlanmaydi. Demak, Jinoyat kodeksining 25-moddasida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichlarida shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘xtatilgan jinoyatlar, Jinoyat kodeksining 26-moddasida esa jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda jinoiy javobgarlikni istisno etadigan qoidalar belgilangan.

JK 26-moddasining 1-qismiga binoan, shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda uning oldini olsa, bu hol jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Mazkur moddaning 2-qismida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni istisno qilishi belgilangan. Jinoyat kodeksi 26-moddasining 3-qismiga binoan, jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qonunda berilgan mazkur ta’riflarga ko‘ra, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning quyidagi alomatlari (belgilari)ni ajratish mumkin:

– shaxs tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarining yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarning tugatilishi yoxud jinoiy oqibat kelib chiqishining oldi olinishi;

– jinoyat sodir etishning tamomila tugatilganligi;

– ixtiyoriylik;

– shaxs tomonidan jinoyatni tamomlash imkoniyatining anglanishi.

Birinchi alomat muqobil xususiyatga ega bo‘lib, obyektiv tomondan jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan iborat bo‘lgan, shaxs xulq-atvorining quyidagi turlarini o‘z ichiga oladi: a) jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarining to‘xtatilishi; b) jinoyat sodir etishga suiqasd qilishdan to‘xtash, ya’ni muayyan tarkibli jinoyatning obyektiv tarafini tashkil qiluvchi jinoiy harakat (harakatsizlik)ni amalga oshirishdan voz kechish; d) jinoiy oqibat kelib chiqishining oldini olish. Dastlabki ikki holda jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni tan olish uchun shaxsning o‘zi sodir etishi kerak bo‘lgan

harakatlarni to‘xtatishining o‘zi kifoya. Uchinchi holda shaxs jinoiy xatti-harakati oqibatida yuzaga kelgan sababiy bog‘lanishni tugatish uchun faol harakatlarni amalga oshirishi hamda jinoiy oqibat kelib chiqishining oldini olishi shart.

Bundan kelib chiqqan holda, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning ikki turini ajratish lozim. *Birinchi tur* jinoyat huquqi nazariyasida sust (passiv) deb belgilangan bo‘lib, shaxs tomonidan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoxud shaxs jinoyatni nihoyasiga yetkazish imkoniyatini anglagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish harakatlarini to‘xtatishdan iborat bo‘ladi. *Ikkinchi tur* faol (aktiv) bo‘lib, jinoyat sodir etilganidan so‘ng shaxs jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning ikkinchi turi hali yuzaga kelmagan jinoiy oqibatning oldini olishga qaratilgan harakatdan iborat bo‘ladi. Bu jinoiy qilmish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jinoiy oqibat orasidagi vaqt oralig‘ida uzilish bo‘lgan yoxud shaxs avval sodir etgan xatti-harakati (harakatsizligi) hamda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan jinoiy oqibat orasidagi sababiy bog‘lanish rivojini kuzatayotgan hamda uning rivojiga ta’sir ko‘rsata olgan hollarda bo‘lishi mumkin.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda sust (passiv) holat jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichlarida kuzatiladi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda faol holat faqat tamom bo‘lgan suiqasd qilish hamda jinoyat oqibatlari darhol yuzaga kelmaydigan moddiy jinoyatlarni sodir etishda bo‘lishi mumkin. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning faol shaklida shaxs jinoiy oqibatlarning oldini olishning uddasidan chiqa olsagina, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Basharti shaxs barcha qilgan urinishlariga qaramay, o‘zi sodir etgan jinoyatdan kelib chiqqan jinoyat rivojini to‘xtata olmaganligi sababli jinoiy oqibat yuzaga kelsa, sodir etilgan qilmish jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb hisoblanmaydi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdagi ikkinchi alomat jinoyat sodir etishning tamomila tugatilganligi hisoblanadi. Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini batamom to‘xtatgan hamda ularni keyinchalik davom ettirmagan holatlardagina jinoyat sodir etish tamomila tugatilgan deb hisoblanishi mumkin. Binobarin, jinoyatni sodir etish vaqti keyinga surilgan yoki uni keyinchalik davom ettirish maqsadida vaqtincha to‘xtatish jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb hisoblanmaydi. Jinoyatdan qaytish, shubhasiz, ixtiyoriy bo‘lishi zarur.

Jinoyat sodir etishdan qaytishning uchinchi alomati uning *ixtiyoriyligi* hisoblanadi. Binobarin, shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki boshlagan jinoyatini amalga oshirishni to‘xtatgan yoxud unga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra emas, o‘z ixtiyoriga ko‘ra jinoiy oqibatlarning kelib chiqishining oldini olish maqsadida faol harakat qilsa, jinoyat sodir etishdan qaytish ixtiyoriy deb topiladi. Aksincha, agar jinoyatni sodir etishdan qaytish majburiy bo‘lsa, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ististno etish asossiz bo‘lib, mazkur qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilish bos-

qichida majburan tamom bo‘lmagan jinoyat deb baholanishi kerak. Shaxsning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishining sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, jabrlanuvchiga achinish va rahm-shafqat, jinoiy javobgarlik va jazodan qo‘rqish, jinoyatni yashirish mumkinligiga ishonmaslik, qilmishidan pushaymon bo‘lish va hokazolar. Ta’kidlash joizki, mazkur holatlar jinoiy javobgarlikni istisno qilish masalasini hal qilishda yuridik ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning to‘rtinchi alomati shaxs tomonidan jinoyatni tamomlash imkoniyatining anglanishi hisoblanadi. Basharti shaxs jinoyat sodir etish vaqtida yengib bo‘lmaydigan to‘siqlarga duch kelishi yoki jinoyatni davom ettirish uchun zarur texnik vositalar bo‘lmasligi yoxud jinoyatni sodir etishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa holatlarga uchraganligi sababli jinoyatni sodir etishdan qaytsa, uni ixtiyoriy deb hisoblab bo‘lmaydi. Zero, aybdor mazkur holatda jinoiy faoliyatni davom ettira olmasligi hamda uni nihoyasiga yetkaza olmasligini anglaydi, ya’ni boshlagan jinoyatini nihoyasiga yetkazishga xalaqit beruvchi u yoki bu holatlar bois, jinoyatni sodir etishdan noiloj qaytadi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish alomatlarining majmui dastlabki jinoiy faoliyat uchun jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi holat bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan alomatlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, shaxs tayyorgarlik ko‘rgan yoki suiqasd qilgan jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan hollardagina jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Xullas, jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish to‘laligicha jinoiy javobgarlikni istisno etadi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, o‘zida boshqa jinoyat tarkibining alomatlariga ega bo‘lgan jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda jinoiy javobgarlik istisno etilmaydi.

Demak, shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deyiladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda shaxsning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi, ya’ni shaxsning aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilishi, jinoyatni ochish uchun faol yordam berish hamda yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish kabi harakatlardan ajratish kerak.[1]

Birinchidan, mazkur ikkita holat o‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra ajralib turadi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoiy javobgarlikni istisno qiluvchi holat ekanligi bois, shaxs xatti-harakatida jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavflilik, qonunga xiloflik hamda aybdorlik bo‘lmaydi. Jinoyat sodir etishda chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish uchlamchi yuridik tabiatga ega bo‘ladi

[1] Qarang: Jinoyat sodir etganlikda chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish haqida mazkur darslikning XVII va XVIII boblarida batafsil berilgan.

hamda quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) jazoni yengillashtiruvchi holatlar (JK 55-m. 1-q.); b) shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari (JK 66-m.); d) shaxsni jinoiy jazodan ozod etish asoslari (JK 71-m.).

Ikkinchidan, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoyat tamom bo‘lishiga qadar amalga oshirilishi mumkin. O‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish shaxsning jinoyat sodir etilganidan keyingi xatti-harakatidir.

Uchinchidan, jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish xulq-atvorning ham faol, ham sust shakllarida ifodalanishi mumkin, jinoyat sodir etishdan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish har doim faol xulq-atvordan iborat bo‘ladi.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Jinoyatning rivojlanish bosqichlarini tavsiflab bering.
2. Tamom bo‘lmagan jinoyatning jinoiy-huquqiy tavsifini bering.
3. Qasdning shakllanish bosqichlarini tavsiflab bering.
4. Qasdning oshkor bo‘lishi va jinoyat haqida xabar berish orasidagi farq nimada?
5. Qasddan jinoyat sodir etish bosqichlarining turlarini ayting.
6. Jinoyat tarkibidagi subyektiv va obyektiv tomonlar xususiyatiga ko‘ra jinoyatni sodir etish bosqichlari istisno etilgan jinoyatlar doirasini tavsiflab bering.
7. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish belgilarining tavsifi.
8. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish belgilarining tavsifi.
9. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning qasdni oshkor qilishdan farqi nimada?
10. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish hamda tamom bo‘lgan jinoyatdan qanday farqlanadi?
11. «Tamom bo‘lgan jinoyat» tushunchasi va belgilarini tavsiflab bering.
12. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish turlari va ularning jinoiy-huquqiy ahamiyatini aytib bering.
13. Jinoyat sodir etishdan «ixtiyoriy qaytish» tushunchasi va belgilarini tavsiflab bering.
14. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish hamda jinoyat sodir etishdan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish orasidagi farq nimada?

## XI bob
## JINOYATDA ISHTIROKCHILIK

### 1. «Jinoyatda ishtirokchilik» tushunchasi

Real borliqda jinoyatlar ko‘pincha bir nechta shaxs tomonidan sodir etilib, ular bitta jinoyatni sodir etish yoxud jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun o‘z kuchlarini birlashtiradilar. Shundan kelib chiqib, Jinoyat kodeksning Umumiy qismida jinoiy faoliyatning muhim shakli sifatida ishtirokchilikning yuridik tabiati nazarda tutilib, birgalikda harakat qiluvchi shaxslarning javobgarlik doirasi va asoslari aniqlab beriladi.

Jinoyat kodeksining 27-moddasiga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Mazkur tushunchadan kelib chiqqan holda, ishtirokchilik jinoiy faoliyatning alohida shakli bo‘lib, u majburiy subyektiv va obyektiv belgilar majmuiga ega deyish mumkin.

*Obyektiv tomondan* ishtirokchilikka quyidagi belgilar xos: 1) ikki va undan ortiq shaxslarning mavjudligi; 2) jinoiy qilmishda birgalikda ishtirok etish.

Bir jinoyatni sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishda ikki yoki undan ortiq shaxslarning qatnashishi ishtirokchilikning miqdoriy ko‘rsatkichini tashkil etadi. Biroq mazkur dalilning o‘zi ishtirokchilikni tavsiflash uchun yetarli emas. Zero, bir nechta shaxs bir makon va zamonda tasodifiy birlashib qolishi, biroq har biri boshqalaridan mustaqil ravishda, ya’ni alohida jinoyat sodir etishi mumkin. Shuning uchun, ishtirokchilik miqdoriy belgisidan tashqari, obyektiv tomonidan bir nechta shaxslar birgalikda harakat qilayotganliklarini anglab uyushganliklarini taqozo etadi.

Jinoyatda birgalikda ishtirok etish jinoyat va jinoiy faoliyatning birgalashib, umumiy maqsadlarni ko‘zlagan holda amalga oshirilishini bildiradi. Shunday qilib, jinoyatda birgalikda ishtirok etish quyidagilarni bildiradi: har bir ishtirokchining qilmishi boshqa ishtirokchilar qilmishini amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanib, ular bir-birini to‘ldiradilar; barcha ishtirokchilarning qilmishlari bajaruvchi sodir etayotgan jinoyat bilan sababiy bog‘lanishga ega bo‘lishi kerak; yuzaga kelgan jinoiy oqibat barcha ishtirokchilar uchun umumiy va yagona hisoblanadi.

*Subyektiv tomondan* ishtirokchilik: 1) qasddan sodir etilgan jinoyatning mavjudligi; 2) o‘zaro xabardorlik bilan ta’riflanadi.

Birinchi subyektiv alomat – ishtirokchilik faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlarda bo‘lishi hamda barcha ishtirokchilarning xatti-harakati qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida talqin etilishidan iborat bo‘ladi. Ishtirokchilikda subyektiv tomonning o‘ziga xos xususiyati jinoyatda yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun tashkil topgan jinoiy guruhda ishtirok etayotgan har bir shaxsning boshqa ishtirokchilarning jinoiy harakatlaridan xabardorligi bilan ta’riflanadi. Demak, ishtirokchilikda subyektiv tomonning mavjud bo‘lishi uchun ishtirokchilarda umumiy qasd bo‘lishi kerak. U quyidagilarni o‘z ichiga

oladi: 1) ishtirokchilarning har biri yoki ba’zilarining sodir etayotgan jinoyatlaridan o‘zaro xabardorligi; 2) har bir ishtirokchining boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda jinoyat sodir etayotganligi yoxud jinoyat sodir etishda yordam berayotganligini tushunib yetishi; 3) umumiy jinoiy oqibatni xohlash yoki unga bila turib yo‘l qo‘yish.

Ishtirokchilik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarda bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, shaxs jinoyat sodir etishda qasddan boshqa shaxslarni yo‘ldan urish orqali ulardan foydalangan yoki Jinoyat kodeksiga binoan, jinoiy javobgarlikka tegishli bo‘lmagan shaxslardan foydalanib qisman sodir etilgan jinoyatlar ham bundan istisno.

## 2. Jinoyatda ishtirokchilik turlari

Jinoyat qonunida (JK 28-m.) to‘rt turdagi jinoyat ishtirokchilari farqlanadi: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi. Mazkur turlarni ajratish asosiga obyektiv mezon qo‘yilgan bo‘lib, u har bir ishtirokchining jinoyat sodir etishda ishtirok etish darajasi va xususiyati bilan bog‘liq.

Jinoyatni *bajaruvchilar* deb: a) bevosita o‘zlari to‘liq yoki qisman jinoyat sodir etgan shaxslar; b) bevosita o‘zlari jinoyat sodir etmagan, biroq shu maqsadda jinoyat qonunlariga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan (JK 28-m. 2-q.) foydalangan shaxslar tan olinadi. Subyektiv tomondan bajaruvchining qilmishlari doimo qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

«Bajaruvchi» tushunchasi faqat ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Basharti jinoyatdagi obyektiv tomonni bir nechta shaxs birgalikda bajarsa, unda ular hamkor bajaruvchilar hisoblanadi.

Shaxs muayyan turdagi jinoyatni sodir etishda ishtirokchi sifatida, basharti u mazkur jinoyat tarkibi uchun zarur bo‘lgan subyekt alomatlariga ega bo‘lgandagina tan olinadi.

Shuningdek, bajaruvchilar qatoriga o‘zlari muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bevosita bajarmagan, ammo boshqa shaxslar yoki boshqa vositalardan foydalangan shaxslar ham kiradi. Jinoyat huquqi nazariyasida mazkur holat *qisman jinoyat sodir etish (zarar yetkazish)* deyiladi. Yoshi yoki aqli norasoligi tufayli jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lmagan yoki ehtiyotsizlik yoxud aybsiz harakat qilgan shaxslarni qasddan jinoyat sodir etishga jalb etgan shaxs sodir etilgan jinoyatning ishtirokchisi deb tan olinadi.

Bajaruvchining xatti-harakati u bajargan muayyan jinoyatdagi obyektiv tomonni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Mazkur yondashuvga sud-tergov amaliyoti ham amal qiladi. Shu bilan birga, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy nazariyasi talablariga binoan, sodir etilgan jinoyatga huquqiy baho berishda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasi bilan birga 28-moddaning 2-qismini ham qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bajaruvchi va birga bajaruvchining qilmishini bunday kvalifikatsiya qilish mazkur shaxslarni ishtirokchilik uchun jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi va ishtirokchilik

faktini tasdiqlaydi, bu esa sud statistikasida o‘z aksini topishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, uyushgan guruh va jinoiy uyushma shaklidagi jinoyatchilik haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish, profilaktik va boshqa ehtiyot choralarini ko‘rish imkonini beradi. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 58-moddasidagi qoidalarga muvofiq, bu sudni alohida ishtirokchilarning jinoyatda ishtirok etish darajasi va xususiyatlarini hisobga olishga majbur qilardi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs *tashkilotchi* deb topiladi (JK 28-m. 3-q.). Bundan kelib chiqqan holda, tashkilotchi sifatida quyidagi jinoiy qilmishlarni sodir etgan shaxslar tan olinadi: 1) jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishda rahbarlik qilish; 2) jinoyat sodir etishga rahbarlik qilish. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 29 va 30-moddalariga asoslanib, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan, shuningdek, mazkur tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qilgan shaxslar tashkilotchi deb, topilishini ta’kidlash joiz.

Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etish ishtirokchilarni topish, jinoiy tajovuz obyektini aniqlash, jinoyat sodir etish rejasini ishlab chiqish va shunga o‘xshash bevosita jinoyat sodir etishning tayyorlov bosqichini o‘z ichiga olgan boshqa xatti-harakatlarda o‘z aksini topadi.

Jinoyat sodir etishda rahbarlik qilish bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar kuchini bevosita jinoiy qilmishni bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni bildiradi.

Shaxsni tashkilotchi deb topish uchun, u yuqorida aytib o‘tilgan barcha faoliyat turlarini bajarishi shart emas, aksincha shaxs tomonidan jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida yoki bevosita jinoyatni sodir etish vaqtida boshqa ishtirokchilar kuchini birlashtirganligini aniqlashning o‘zi kifoya qiladi.

Jinoiy faoliyatni tashkil etish shaxs tomonidan bir nechta shaxsni uyushgan jinoiy guruhga, guruhlarni esa jinoiy uyushmaga birlashtirishida o‘z aksini topadi. Jinoiy uyushmani tashkil etish xavfi juda og‘ir bo‘lganligi sababli, qonun chiqaruvchi organ mazkur jinoyat uchun Jinoyat kodeksining Maxsus qismida alohida modda ajratadi (JK 242-m.).

Subyektiv tomondan, tashkilotchi har doim to‘g‘ri qasd bilan harakat qiladi.

Jinoyat sodir etishga qiziqtiruvchi shaxs *dalolatchi* deb topiladi (JK 28-m. 4-q.). Dalolatchilik boshqa shaxsni jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etishga undashda o‘z aksini topadi. Undash dalolatchining boshqa shaxslarda jinoyat sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish ishtiyoqini shakllantirishga qaratilgan faol va tashabbuskor xatti-harakatidan iborat. Undash quyidagilarda aks etadi: 1) ruhiy ta’sir, bunda xatti-harakatlar so‘z va imo-ishoralarga yo‘g‘rilgan bo‘ladi; 2) jismoniy ta’sir, bunda xatti-harakat inson a’zolarining harakatida o‘z ifodasini topadi. Ularning har ikkalasi ham inson tashqi dunyosida o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi va ishontirish hamda majburlashda mujassamlashadi. Undash harakati ko‘rinishidan iborat bo‘lgan ishontirish va majburlash, uning alohida shakllari sifatida usullar, harakatlar majmui bo‘lib, dalolatchi ularni qo‘llagan holda

shaxsni jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etishdan iborat niyatini amalga oshirishga harakat qiladi yoxud amalga oshiradi.

Ishontirish orqali amalga oshiriladigan undash taklif, iltimos, maslahat, pand-nasihat, qiziqtirish, mazax qilish, maqtov, mukofot va’da qilish yoki uni berish (pora berish) va boshqalar yordamida boshqa shaxsda jinoyatni sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga xohish-istak yuzaga keltirish maqsadida ruhiy ta’sir o‘tkazishdan iborat.

Majburlash orqali amalga oshiriladigan undash po‘pisa, tovlamachilik, aldov, ozodlikni cheklash, urish, kaltaklash, qiynoq va azobga solish, turli darajadagi tan jarohatlari yetkazish va kuch ishlatish kabi harakatlarni qo‘llagan holda shaxsni jinoyat sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga majburlash maqsadida dalolatchining xohish-irodasiga bo‘ysundirish uchun jismoniy yoki ruhiy ta’sir o‘tkazishdan iborat.

Subyektiv tomondan, dalolatchining faoliyati qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Jinoyatni sodir etishda ko‘maklashgan shaxs *yordamchi* hisoblanadi (JK 28-m. 5-q.). Obyektiv tomondan, sherikchilik intellektual (aqliy) va jismoniy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Intellektual sherikchilik quyidagi faol harakatlar bilan ta’riflanadi: maslahatlar, ko‘rsatmalar berish; jinoyatchi, jinoyat sodir etish quroli, jinoyat izlari va vositalari yoki jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni yashirishga yoxud bunday narsalarni olish va o‘tkazish to‘g‘risida oldindan va’da berish va h. k.

Maslahat va ko‘rsatma shaklidagi intellektual sherikchilik ishontirish yordamida amalga oshiriladigan dalolatchilikdan farqlanadi. Chunonchi, bajaruvchida jinoyatni sodir qilish yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etishga qat’iy qaror va xohish-istak yuzaga kelgan bo‘lib, maslahat va ko‘rsatmalar mazkur qarorni mustahkamlash yoxud jinoyatni sodir etish yoki yashirishga yordam beradi.

Qonunda sanab o‘tilgan qilmishlarni amalga oshirish yoxud jinoiy yo‘l bilan buyumlarni olish yoki yashirishga avvaldan va’da berish shaklidagi intellektual ishtirokchilik, basharti u jinoyat sodir etishdan avval yoki uni sodir etish vaqtida amalga oshirilganda aniqlanadi. Mol-mulkni olish yoki o‘tkazishga avvaldan berilgan va’da jinoyatni yashirish turlaridan biri hisoblanadi, ya’ni intellektual ishtirokchilikni tashkil qiladi. Biroq bila turib jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olish yoxud o‘tkazish jinoyat tamom bo‘lganidan so‘ng amalga oshirilsa, bunday holatlar Jinoyat kodeksining 171-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni yuzaga keltiradi.

Jismoniy sherikchilik – jinoyat qurollari berish yoki to‘siqlarni yo‘qotishdan iborat. Jismoniy sherikchilik faol xatti-harakatlarda ham, harakatsizlikda ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, harakatsizlik orqali jismoniy sherikchilik uchun javobgarlik shaxsga jinoyatning oldini olish bo‘yicha maxsus huquqiy vakolat berilgan sharoitda yuklatilishi mumkin.

Obyektiv tomondan, sherikchilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita qasd bilan amalga oshiriladi.

## 3. Ishtirokchilik shakllari

«Shakl» tushunchasi elementlar va jarayonlarning o‘zaro va tashqi sharoitlar bilan bog‘liqligini tashkil etishning ichki aloqadorligi va vositasini aks ettiradi. Zero, ishtirokchilikka ma’lum shakl beradigan belgilar, uning obyektiv va subyektiv tomonlarini ta’riflagani sababli, ishtirokchilik shakllarini tasniflash asosida obyektiv va subyektiv mezon mavjud bo‘ladi.

Obyektiv mezon harakatlarning umumiylik belgisi bo‘lib, ishtirokchilar orasidagi o‘zaro aloqadorlikni aks ettiradi. Subyektiv mezon ishtirokchilar jinoiy harakatlarining kelishganlik darajasini belgilaydi. Mazkur mezonlar ajralmas bo‘lib, ularning yig‘indisi ishtirokchilarning to‘rtta shaklini ajratishga huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi, bular: 1) oddiy ishtirokchilik; 2) murakkab ishtirokchilik; 3) uyushgan guruh; 4) jinoiy uyushma.

Ushbu tasnif u yoki bu jinoiy tashkilotning ijtimoiy xavflilik darajasini aks ettirish orqali ular orasidagi muhim tafovutni ko‘rsatadi.

Ishtirokchilikning dastlabki ikkita shakli (oddiy va murakkab ishtirokchilik) bir necha shaxsning turli darajadagi hamkorligidan iborat sa’y-harakatini muayyan jinoyatlarni sodir etish uchun birlashtirishni nazarda tutadi. Ishtirokchilikning mazkur ikki shakli «eng oddiy» jinoiy tashkilotga xosdir. Zero, ularning turg‘unlik darajasi alohida jinoyatni sodir etish uchun ajratilgan vaqt doirasi bilan chegaralanadi. Shu bilan birga, bir necha shaxs sa’y-harakatining muayyan jinoyat sodir etish uchun, oz bo‘lsa-da, birlashtirilishi ijtimoiy munosabatlar uchun bitta shaxs tomonidan shunga o‘xshash jinoyat sodir qilinganlikka qaraganda, doimo xavfliroq hisoblanadi. Aynan shu holat bitta shaxs va bir necha shaxs birgalikda jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlik tayinlashga alohida-alohida yondashishni taqozo etadi.

Uyushgan guruh va jinoiy uyushma ishtirokchilik shakllari sifatida jinoiy huquq nuqtai nazaridan ikki omil birligidan iborat alohida ijtimoiy hodisani tashkil etadi: 1) bir nechta shaxs maqsadining birlashishi; 2) bir qancha jinoyat sodir etish.

Demak, ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun birlashishi bir qancha jinoyat sodir etishda ishtirokchilikni tashkil etadi.

*Oddiy ishtirokchilik* ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi bilan ta’riflanadi (JK 29-m. 2-q.). Ishtirokchilikning mazkur turini eng xavfsiz deb hisoblash mumkin. Zero, ishtirokchilar orasidagi subyektiv bog‘liqlik kam bo‘lib, boshqa shaxsning jinoyat sodir etishda qatnashishi haqida bilishi bilan chegaralanadi. Subyektiv bog‘liqlik jinoiy maqsadni amalga oshirish vaqtida yoxud jinoyatni amalga oshirish jarayonida, ya’ni ishtirokchilarning xatti-harakatlari obyektiv ravishda birgalikda amalga oshirayotgan jinoiy qilmishining tarkibiy qismi bo‘lgan vaqtdan boshlab yuzaga keladi.

Ishtirokchilikning oddiy shakli *jinoyatni ijro etishda hamkorlikda* namoyon bo‘ladi. Bunda vazifalar qat’iy belgilanmagan bo‘lib, har bir ishtirokchi muayyan tarkibli jinoyatning obyektiv tomonini to‘la yoki qisman

amalga oshiradi. Shu bilan birga, oddiy ishtirokchilikda ham vazifalarni taqsimlash imkoniyati mavjud. Biroq bu kabi taqsimlash bevosita jinoyat sodir etish jarayonida yuz beradi.

Mazkur shakldagi ishtirokchilikning jinoyat huquqiga oid ahamiyati ko‘p miqdordagi ijtimoiy xavflilik, muayyan jinoyat sodir etishda bir nechta shaxsning birlashishi hamda shu turdagi jinoyatning bir shaxs tomonidan sodir etilishiga qaraganda ortishi bilan bog‘liq. Shu bois qonun chiqaruvchi mazkur shartni hisobga olgan holda jinoyatning «bir guruh shaxslar» tomonidan sodir etilishi jinoiy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat ekanligini nazarda tutadi va bu alohida turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgi sifatida baholanadi (masalan, JK 97-m., 2-q. «п» b.; 104-m., 2-q. «к» b.; 119-m., 2-q. «в» b. va h. k.).

*Murakkab ishtirokchilik* ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etishda ishtirok qilishida namoyon bo‘ladi (JK 29-m. 3-q.).

Ishtirokchilikning mazkur turi oddiy ishtirokchilikdan ishtirokchilarning birgalikda amalga oshirayotgan faoliyatida jinoyat tarkibidagi obyektiv tomonlarning belgilarini bajarishdan avval o‘zaro til biriktirishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, kelishuv jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganida amalga oshiriladi. Jinoyatni amalga oshirishda hamkorlik yoxud ishtirokchilikda avvaldan til biriktirish, ya’ni jinoyat sodir etishda vazifalarning taqsimlanishi nafaqat aybdorlik darajasini, balki, umuman, butun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli ravishda oshiradi. Aynan mana shu sabab jinoyat huquqiga oid ikki yoqlama ahamiyatga ega bo‘lgan bu turdagi murakkab ishtirokchilikni mustaqil tur sifatida ajratilishiga olib keladi.

Birinchidan, jinoyatni avvaldan til biriktirish orqali sodir etish qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilangan (JK 56-moddasi, 1-qismi, «м» b.). Agar avvaldan til biriktirib tayyorlangan jinoyat hamkorlikda bajarilsa, barcha hamkor bajaruvchilarning qilmishlari Jinoyat kodeksi 28-moddasining 2-qismiga havola qilish orqali Maxsus qism moddasiga binoan kvalifikatsiya qilinadi. Basharti avvaldan kelishilgan jinoyat vazifalarni o‘zaro taqsimlash orqali sodir etilgan bo‘lsa, bajaruvchi o‘zining harakatlari (harakatsizligi) bilan faqat muayyan jinoyat tarkibini amalga oshirsa, guruhning boshqa ishtirokchilari esa tashkilotchi, yordamchi yoki dalolatchi sifatida bajaruvchi uchun zarur shart-sharoit yaratib bersalar, oxirgilarining qilmishlarini kvalifikatsiya qilishda nafaqat bevosita bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan bir moddasiga, balki Jinoyat kodeksining 28-moddasiga murojaat etish zarur. Masalan, gap o‘zboshimchalikning tashkilotchisi to‘g‘risida borganida, protsessual hujjatlarda mazkur shaxs faoliyatini kvalifikatsiya qilish Jinoyat kodeksi 28-moddasining 3-qismi va 229-moddasi bilan ifodalanishi zarur. Shunga muvofiq ravishda mazkur jinoyatga dalolatchilik haqida so‘z yuritilsa, huquqiy baho Jinoyat kodeksining 28-moddasi, 4-qismi va 229-moddasiga asosan bo‘ladi.

Ikkinchidan, mazkur holatga qonunda Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi moddalarda nazarda tutilgan ba’zi jinoyat tarkiblari uchun kvalifikatsiya qilu-

vchi belgi maqomi berilgan (masalan, 164–169, 175–178-m.).

«Eng oddiy» jinoiy tashkilotlar shaxslarning bitta jinoyat sodir etish uchun birlashish holatlarini nazarda tutadi va jinoiy jazoni tayinlash hamda muayyan turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat huquqiga oid ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda Jinoyat kodeksi 56-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan qoidaga amal qilish kerak. Unga ko‘ra, sud jinoiy jazoni tayinlashda «bir guruh shaxslar» yoxud «avvaldan til biriktirgan bir guruh shaxslar» tomonidan jinoyat sodir etilishi holatlarini ular jinoyat tarkibi belgisi sifatida Maxsus qismning moddasida nazarda tutilgandagina inobatga olishi mumkin.

Jinoyat qonunini to‘g‘ri qo‘llash uchun quyidagilarni nazarda tutish kerak. Agar Jinoyat kodeksi Maxsus qismida jinoyat tarkibining belgisi «bir guruh shaxslar» deb berilgan bo‘lsa, u holda unga ishtirokchilikning oddiy hamda murakkab shakllari kiradi, ya’ni mazkur jinoyatning xavflilik darajasi qonun chiqaruvchi tomonidan, eng avvalo, jinoyat ikki va undan ortiq shaxs tomonidan avvaldan til biriktirish yoki biriktirmaslikdan qat’i nazar, sodir etilish faktiga bog‘liq bo‘ladi.

Jinoyat qonunida ishtirokchilik shakli sifatida uyushgan guruh va jinoiy uyushmaning ajratilishi uyushgan jinoyatchilik kabi jamiyatga qarshi favqulodda hodisa bilan bog‘liqki, u, o‘z navbatida, jinoyatchilik shakllaridan biri bo‘lib, yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi hamda ma’lum davr ichida mazkur mintaqadagi barcha jinoiy uyushmalar faoliyati tizimida o‘z aksini topadi.

Uyushgan jinoyatchilikning eng muhim belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: a) shaxslar va guruhlar orasida vazifalarning qat’iy subordinatsiyasi va muvofiqlashuvidan iborat funksional-iyerarxik tizimga ega turli darajadagi uyushgan jinoiy tashkilot (tuzilma)ning mavjudligi; b) jinoiy faoliyat turmush tarzi va hayot kechirish vositasiga aylangan professional jinoyatchilarning borligi; d) barqaror, rejalashtirilgan, yashirin jinoiy faoliyat; e) jinoiy faoliyatni amalga oshirish, xususiy xavfsizlik va ijtimoiy nazoratni bo‘shashtirish tizimlarining mavjudligi; f) jinoiy faoliyat, oshkora biznes, jamiyatni korrupsiyalashtirish, mahkum etilganlarni qo‘llab-quvvatlash uchun katta mablag‘ fondining mavjudligi; g) jinoiy faoliyat va jinoiy birlashmalarning ta’sir doirasini kengaytirishga moyillik; h) jamiyatga qarshi g‘oyaga asoslangan, o‘ziga xos axloq «kodeksi» va boshqalar.

Shubhasiz, aytib o‘tilgan va boshqa ba’zi belgilar ko‘p ma’noda kriminologik mazmun bilan ta’riflanadi va jinoiy siyosatni joriy etish hamda maqsadga muvofiq profilaktik va operativ-qidiruv chora-tadbirlarni o‘tkazish uchun muhimdir. Shu bilan birga, aynan kriminologik ta’rif uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy asosini yaratishda qonun chiqaruvchiga real hayotda huquq-tartibot organlari butun uyushgan jinoyatchilikka emas, balki uning alohida ko‘rinishlariga duch kelishini hisobga olish imkonini beradi. Mazkur asosda qonun chiqaruvchi qonunga jinoyatning muhim belgilarini qat’iy va aniq belgilagan holda ishtirokchilik shakllarining tasnifini kiritdiki, ularga, o‘z navbatida, jinoyat huquqiga oid ta’rif berildi va huquqiy

baho berish uchun minimal yetarli shartlarga ega bo‘ldi. Shunday qilib, turli darajada uyushgan jinoiy tashkilotlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati ta’minlandi.

*Uyushgan guruh* deb ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishiga aytiladi (JK 29-m. 4-q.). Ushbu ta’rif asosida quyidagi belgilarni ajratish kerak bo‘lib, ular ishtirokchilikning umumiy belgilari bilan mujassamlashganda jinoiy guruhni uyushgan deb ta’riflash uchun huquqiy asos bo‘ladi: 1) oldindan til biriktirish; 2) birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashish; 3) uyushganlik. Basharti jinoiy faoliyatni birgalikda amalga oshirish uchun oldindan birlashgan shaxslar guruh tomonidan amalga oshirilayotgan hamma turdagi jinoiy harakatlarda bevosita ishtirokchilar sifatida qatnashsalar, uyushgan guruh o‘zaro ishtirokchilik asosida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bunday guruhlarda ichki tizim, ya’ni guruh a’zolari orasida vazifalar va amallarning taqsimoti mavjud bo‘ladi. Ikkala holda ham iyerarxik tartib, subordinatsiya va muvofiqlashtirishga asoslangan bo‘ysunish mavjud. Biroq ushbu turdagi guruhlarda, ular keng tarqalgan bo‘lsa-da, uyushganlik jinoiy birlashmadagiga qaraganda uncha katta emas, shu nuqtai nazardan u uyushgan jinoyatchilikning quyi «pog‘onasi»ni egallaydi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, uyushgan guruh oldindan til biriktirishga asoslangan jinoiy guruh turiga kiradi, biroq uyushishning birmuncha yuqori darajasiga ega bo‘lganligi sababli, uning faoliyatiga huquqiy baho berishda ishtirokchilikning murakkab shaklida qo‘llanadigan kvalifikatsiya qoidalariga amal qilish kerak. Chunonchi, mazkur qoidaga Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi muayyan moddaning dispozitsiyasida jinoyatning kvalifikatsiya qilinayotgan tarkibi uchun konstruktiv (majburiy) bo‘lgan «uyushgan guruh» belgisiga havola bo‘lmaganida amal qilish lozim.

Masalan, agar shifokorlar guruhi jinoiy ravishda homila tushirish uchun uyushgan bo‘lsalar (JK 114-m. 1-q.), mazkur holat ishtirokchilik bo‘lgan taqdirda qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatmaydi, aksincha uni huquqiy baholashda o‘z aksini topishi kerak bo‘lib, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasini qo‘llagan holda va bajarilgan vazifadan kelib chiqib, Jinoyat kodeksi 28-moddasining tegishli qismiga havola qilinishi kerak. Mazkur holatlarda uyushgan guruhning jinoyat sodir qilishini sud, Jinoyat kodeksi 56-moddasining 1-qismi «м» bandiga muvofiq, jinoiy jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida tan olishi kerak.

Uyushgan guruh bo‘lish Jinoyat kodeksining Maxsus qismida jinoyat og‘irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan hollarda, uning barcha a’zolari, amalda bajargan vazifalaridan qat’i nazar (tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi, bajaruvchi), Jinoyat kodeksining 28-moddasiga qo‘shimcha ravishda murojaat etmagan holda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining mazkur belgi nazarda tutilgan moddasiga binoan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

JK Maxsus qismining moddalarida kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida «uyushgan guruh yoki uning manfaatini ko‘zlab» yoxud «uyushgan guruh a’zosi yoki mazkur guruh manfaatini ko‘zlab» jinoyat sodir etish nazarda

tutilgan. Shuni nazarda tutish kerakki, mazkur belgi jinoyatning nafaqat bevosita bajaruvchisi va uyushgan guruh a’zosi bo‘lgan shaxsga, balki uning barcha ishtirokchilariga, agar ular jinoyatni tayyorlashda ishtirok etsalar va buni umumiy qasd asosida qilgan bo‘lsalar, ayb sifatida qo‘yiladi. Biroq mazkur belgi uyushgan guruh a’zosi bo‘lmagan taqdirda jinoyatni sodir etishda uyushgan guruh tarkibida bir marta ishtirok etgan yoxud jinoyatni mustaqil ravishda o‘z tashabbusi bilan yoki mazkur guruh topshirig‘iga binoan sodir etgan shaxslarga ham tegishli bo‘lishi kerak.

Guruhni uyushgan jinoiy guruh sirasiga kiritishdan avval, uning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish maqsadida tarkib topganini aniqlash lozim. *Jinoiy faoliyat* alohida jinoyat tarkiblari majmuidan iborat izchil birlikni tashkil qilib, bir qancha jinoyatlarni uyushgan holda sodir etishni nazarda tutadi.

Uyushgan guruhlar mustaqil ravishda faoliyat yuritishi yoxud yanada xavfli va murakkab tashkilot – jinoiy uyushmaning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. Mazkur turdagi guruhlar orasidagi tafovut mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi guruhlar a’zolarining barchasi yoki ko‘pchiligi umumiy iyerarxiya tuzilmasida doimiy ajratilgan vazifani ado etish xos emasligidan iborat. Holbuki, jinoiy uyushma tarkibidagi uyushgan guruhlar uchun bu odatiy hisoblanadi. Odatda bu kabi guruhlarda vazifalarni bo‘lib berish muayyan ishtirokchi uchun alohida individual ravishda amalga oshiriladi. Biroq shuni nazarda tutish kerakki, ichki iyerarxiya va tuzilma, o‘z subordinatsiyasi va muvofiqlik aloqalariga ega bir nechta uyushgan guruh ham umumiy boshqaruvga ega bo‘lishi mumkin. Bu kabi tuzilmaviy qurilish jinoiy uyushmani tashkil etadi, zero uni sifat jihatdan o‘zga funksional-tashkiliy faoliyat deb atashga barcha asoslar mavjud. Bunda mazkur jinoiy uyushmalarning oddiy a’zolari bu kabi jinoiy tashkilotga a’zo ekanligi haqida ma’lumotga ega bo‘lmasliklari mumkin. Jinoiy uyushmaga tegishliligi to‘g‘risida uyushgan guruh ishtirokchilarining o‘zaro xabardorligi isbotlanmaganida jinoiy javobgarlikka tortish yoki jinoiy jazo tayinlashda ushbu holat inobatga olinmasligi mumkin.

Uyushgan qurolli guruh tuzish, unga rahbarlik qilish yoki unda ishtirok etish Jinoyat kodeksi 242-moddasining 2-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Qurolli guruh deganda, hattoki ishtirokchilaridan birida qurol borligi va bu haqda guruhning boshqa a’zolari xabardor bo‘lishlari shartligi tushuniladi. Qurollanganlik o‘qotar qurol (vintovka, pistolet, avtomat, qirqma va b.) yoki sovuq qurol (kastet, qilich, shamshir va b.) yoxud boshqa qurollarning mavjud bo‘lishini taqozo etadi.

Jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun bir necha shaxslarning uyushishi va, ular biror-bir jinoyat sodir etgan yoki etmaganligidan qat’i nazar, uyushgan qurolli guruh tashkil etishi faktining o‘ziyoq jinoiy jazoga loyiq qilmish hisoblanadi.

Mazkur jinoyat shunday jinoiy tashkilotni tuzgan, unga rahbarlik qilishga yoki uyushgan qurolli guruhda ishtirok etishga rozilik bergan vaqtdan

boshlab tugallangan hisoblanadi. Uyushgan qurolli guruh tomonidan aniq jinoiy qilmishlarni sodir etish Jinoyat kodeksi 242-moddasining 2-qismi va barcha sodir etilgan jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi *jinoiy uyushma* deb topiladi (JK 29-m. 5-q.).

*Jinoiy uyushma* tuzilishiga ko‘ra, bir necha uyushgan guruhlardan tashkil topadi. Uyushmaning guruhlarga bo‘linishi ikki yoki undan ortiq shaxslardan iborat bo‘lgan guruhlarning o‘zlariga biriktirilgan maxsus vazifalarni bajarishiga binoan amalga oshiriladi.

Jinoiy uyushmaning asosiy belgisi umumiy jinoiy faoliyatni amalga oshiradigan guruhlar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi bo‘lib, u aynan shu belgisiga ko‘ra uyushgan jinoiy guruhdan farqlanadi. Ya’ni ushbu guruhda, birinchi navbatda, vazifalar (rollar) uning a’zolari o‘rtasida taqsimlanadi.

Shu bilan birga, bunday tuzilma «klassik» hisoblanadi, chunki jinoiy uyushma ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlarni o‘z ichiga oladi va ularning har biriga o‘ziga xos vazifalar taqsimlab beriladi. Bunday jinoiy tashkilotlarni, agar ularda bir yoki bir nechta yetakchilar, ya’ni jinoyat olamining «obro‘dorlari» yagona tashkilotchilikda faoliyat ko‘rsatsa, jinoiy uyushma deb tan olish mumkin. Ushbu jinoiy uyushmalardagi guruhlarning oddiy a’zolari ularning guruhlari mazkur uyushmaning tarkibiy qismi ekanligidan har doim ham xabardor va ma’lumotga ega bo‘lmasliklari mumkin.

Jinoiy uyushma tashkil etgan shaxs, jinoiy uyushma tarkibiga kiruvchi uyushgan jinoiy guruh rahbari – jinoiy tashkilotlar sodir etgan faktik jinoyatlardan qat’i nazar – Jinoyat kodeksi 242-moddasining 1-qismiga binoan, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shaxs muayyan jinoyatlarni sodir etishga rahbarlik qilgan, ularda ishtirok etgan hollarda, uning faoliyati barcha sodir etgan jinoyatlarining yig‘indisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Jinoiy uyushmaning mavjud bo‘lishi va ishlab turishini ta’minlashga qaratilgan jinoiy bo‘linmalar faoliyatiga Jinoyat kodeksi 242-moddasining 1-qismiga binoan huquqiy baho beriladi.

## 4. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi

JK 30-moddasining 1-qismida umumiy qoidalar belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar, bunda Jinoyat kodeksi 28-moddasining tegishli qismiga murojaat qilinadi. Mazkur qonun chiqaruvchi qaror, faqat bajaruvchi tomonidan bevosita muayyan jinoyatning obyektiv tomonlarining bajarilishi, jinoyatning o‘zi esa boshqa ishtirokchilar uchun umumiy, yagona bo‘lib, ular jinoyatni sodir etilishiga rahbarlik yoxud dalolatchilik, yoxud yordamchilik qilishi bilan shartlanadi.

Shu bilan birga, bajaruvchi va boshqa ishtirokchilarning harakatlari Jinoyat kodeksi Maxsus qismining boshqa moddalari yoxud bir moddaning turli qismlari bo‘yicha ham kvalifikatsiya qilingan hollar uchrab turadi. Xususan, bajaruvchi ekssessi, shuningdek, qatnashchilarning birida uning shaxsiga tegishli bo‘lgan belgilar aniq jinoyat tarkibini kvalifikatsiya qiluvchi shart sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Bajaruvchi ekssessida javobgarlikning umumiy qoidasi Jinoyat kodeksi 30-moddasining 4-qismida belgilangan. Ekssess deganda, jinoyatni bajaruvchi shaxsning boshqa ishtirokchilar bilan kelishilmagan hamda ularning niyatlarini qamrab olmagan, avvaldan kelishilgan va jinoyat «doirasidan chiqib ketgan» xatti-harakat tushuniladi. Bunday harakatlar shu jinoyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida bajaruvchining ikki – miqdor va sifat ekssessi ajratiladi. Miqdor ekssessi bajaruvchining boshqa ijrochilar bilan birgalikda avvaldan kelishilgan bir turdagi jinoyatni sodir etishda, ularning umumiy jinoiy niyatiga qaraganda xavfliroq jinoiy oqibatlarga sabab bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Sifat ekssessida bajaruvchi boshqa ishtirokchilar bilan avvaldan kelishilgan jinoyatdan boshqa jinoyatni sodir etadi yoxud mazkur jinoyatni sodir etish bilan birga, o‘z tashabbusi bilan yana boshqa bir jinoyatni sodir etadi. Ikkala holda ham boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyatlari bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo‘ladi.

Har bir ishtirokchiga tegishli bo‘lgan kvalifikatsiya qilinuvchi holatlar (takror jinoyat sodir etish, xavfli retsidivist, o‘ta xavfli retsidivist, vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat sodir etishi), faqat mazkur holat ishtirokchilarga ayb sifatida qo‘yiladi hamda ularning qilmishlarini kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur kvalifikatsiya belgilarini boshqa ishtirokchilarga nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Ishtirokchilik jinoyat sodir etilishida qonun tomonidan subyektlarning javobgarligi nazarda tutilgan va shunga ko‘ra maxsus belgilarga ega bo‘lgan hollarda namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda javobgarlik nazarda tutilgan qonun moddasi, bajaruvchining umumiy subyekt belgilari bilan birga qo‘shimcha ravishda maxsus subyekt belgilariga ega bo‘lishi sharoitida qo‘llanishi mumkin. Binobarin, tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi bunday belgilarga ega bo‘lmasligi mumkin.

Maxsus subyektli jinoyatlarda ishtirokchilik uchun javobgarlikning o‘ziga xosligi shundan iboratki, bir qator hollarda maxsus subyekt xossalariga ega bo‘lmagan shaxslar bevosita to‘liq yoki qisman jinoyat sodir etilishida qatnashishi mumkin, ya’ni jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilarini amalga oshirishi mumkin. Bunday holatlarda, jinoyat hamkorlikda bajarilishiga qaramay, maxsus subyekt belgisiga ega bo‘lmagan shaxs ijrochi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilmaydi va uning qilmishi boshqa ishtirokchilar (tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi) tomonidan bajarilgan deb baholanishi hamda uni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksi 28-moddasining tegishli qismi qo‘llanishi zarur.

Ishtirokchilarning jinoyat sodir etishga rahbarlik, dalolatchilik yoki

yordamchilik faoliyatidan ixtiyoriy qaytishi faol xatti-harakatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bu ularning birgalikdagi jinoiy faoliyatiga qo‘shadigan shaxsiy ulushini bartaraf etadigan va jinoyat sodir etilishining oldini oladigan xatti-harakatlarni amalga oshirish zarurligini bildiradi. Basharti tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi tomonidan qilingan barcha urinishlarga qaramay, jinoyatning oldini olish imkoni bo‘lmasa, ularning faoliyati jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb baholanmaydi va ular umumiy tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Shunday bo‘lishiga qaramay, bu yengillashtiruvchi holat sifatida sud tomonidan hisobga olinishi mumkin.

Amalga oshmagan ishtirokchilik tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchining faoliyatidan iborat bo‘lib, u jinoyatga tayyorgarlik bosqichida jinoyat sodir etish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilmaganligi yoxud bajaruvchining jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishi, aqli rasoligini inkor etuvchi kasalligi, o‘limi va boshqa holatlarga ko‘ra, niyat qilingan jinoyatni bajarmasligida o‘z aksini topadi. Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchining bunday xatti-harakatlari jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholanishi va Jinoyat kodeksi 25-moddasining 1-qismiga binoan, hamda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining sodir etilmay qolgan jinoyatlarga jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasiga muvofiq kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Agar bajaruvchi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holda jinoyatni oxiriga yetkazmagan bo‘lsa, barcha ishtirokchilar suiqasd qilishda muvaffaqiyatsiz ishtirokchilik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi va ularning qilmishlari Jinoyat kodeksi 28-moddasining tegishli qismi, 25-moddaning 2-qismi hamda muayyan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasiga ko‘ra kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Uyushgan guruh va jinoiy uyushma tashkilotchilari va boshqa a’zolarining oldindan til biriktirib jinoyat sodir etganlari uchun javobgarlik doirasi ishtirokchilik shakli bilan belgilanadi.

## 5. Jinoyatga daxldorlik

*Jinoyatga daxldorlik* deganda, boshqa shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatda qatnashmasdan turib, ularga aloqadorlik tushuniladi. Jinoyatga daxldorlik jinoyatda ishtirokchilik hisoblanmaydi, chunki daxldorlik shaklini tashkil qiluvchi qilmishlar muayyan jinoyat sodir etishga yordam bermaydi, ishtirokchining qilmishlari bilan sababiy bog‘langan bo‘lmaydi, jinoyat ishtirokchilari intilayotgan yagona maqsadga qaratilgan bo‘lmaydi va uni keltirib chiqarmaydi. Jinoyatga daxldorlikning uchta shakli ajratiladi: oldindan va’da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaslik, oldindan va’da bermagan holda jinoyatni yashirish va jinoyatga yo‘l qo‘yish.

*Oldindan va’da bermagan holda jinoyat haqida xabar qilmaslik* jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi va jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib qasddan hokimiyat organlariga xabar bermaslikda namoyon bo‘ladi.

Oldindan va’da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaslik intel-

lektual sherikchilik ko‘rinishidagi ishtirokchilikni tashkil qiladi, negaki tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida xabar bermaslik jinoyatchida jinoiy javobgarlikdan qutulishga, jinoyatni oxiriga yetkazishga ishonchni mustahkamlaydi.

Obyektiv tomondan, xabar bermaslik shaxsning jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki sodir etilganligini aniq bila turib, tegishli organlarga xabar bermaslik va unga qonunda yuklatilgan huquqiy majburiyatni bajarmaslikdan iborat harakatsizligida namoyon bo‘ladi.

Subyektiv tomondan, xabar bermaslik qasddan sodir etilgan jinoyatdir. Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki sodir etilganligi haqida aniq bila turib, tegishli organlarga xabar bermaslik ijtimoiy xavfli qilmishligini fahmlaydi va buni xohlaydi.

*Ma’lumotlarning aniqligi* shaxsga boshqa shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilayotgan faoliyatning jinoyat ekanligi haqida aniq, unda shubha tug‘dirmaydigan dalillar ma’lumligini bildiradi. Bunda shaxs tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat o‘zining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kirishini fahmlashi kerak.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki sodir etilganligi haqidagi ma’lumot to‘liq va o‘z vaqtida tegishli joylarga xabar berilishi zarur. *Ma’lumotning to‘liqligi* shuni bildiradiki, shaxs jinoyat haqida o‘ziga ma’lum bo‘lgan barcha dalillarni vakolatli organlarga xabar berishi shart. Bu muayyan tugallangan yoki tugallanmagan jinoyat tarkibini ta’riflovchi ma’lumotlar haqida xabar berish zarurligini o‘z ichiga oladi. Bunday hollar, ya’ni shaxsning mazkur jinoyatga bevosita taalluqli bo‘lgan holatlar (jinoyatchining yashiringan joyi, jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan buyumlar va b.) haqida bila turib xabar bermasligi uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi.

*O‘z vaqtida xabar berish* deganda, shaxsning imkon qadar qisqa muddat ichida hokimiyat organlariga xabar berishi tushuniladi. Basharti shaxs tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida bila turib, unga bog‘liq bo‘lmagan sabablar tufayli darhol vakolatli organlarga xabar bera olmagan bo‘lsa, bu kabi xabar bermaslik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelmaydi.

Xabar bermaslik formal jinoyat sifatida belgilangan bo‘lib, shaxsga tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat ma’lum bo‘lgan holda, u bu haqda vakolatli organlarga xabar bermagan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

JK 241-moddasining 1-qismida og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat haqida aniq bila turib, oldindan va’da bermasdan xabar bermaganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

*Jinoyatni yashirish* oldindan va’da bermagan holda jinoyatchini, jinoyat sodir etish qurollari, vositalari, izlari yoxud jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan buyumlarni yashirishda namoyon bo‘ladi.

Oldindan va’da bermagan holda jinoyatni yashirish, qonunda jinoyatda

ishtirokchilik sifatida baholangan oldindan va’da bergan holda jinoyatni yashirishdan farqli ravishda, jinoyatga bevosita daxldorlikdan iborat, ya’ni qasddan sodir etilgan qilmish bo‘lib, boshqa shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat bilan ma’lum bog‘liqlikka ega bo‘lsa-da, unga yordam bermaydi. Ishtirokchilikni tashkil qiluvchi jinoyatni yashirish va jinoyatga daxldorlik orasidagi asosiy tafovut shundaki, jinoyatga daxldorlikda jinoyat sodir etilganidan so‘ng uni yashirishga va’da beriladi va shu sababdan u bilan sababiy bog‘liqlikda bo‘lmaydi.

Obyektiv tomondan, oldindan va’da bermasdan jinoyatni yashirish jinoyatchini, jinoyat sodir etish qurollari va vositalarini, jinoiy yo‘l bilan topilgan buyumlarni yashirishdan iborat faol harakatlarda namoyon bo‘ladi. Oldindan va’da bermasdan jinoyatni yashirish yuqorida keltirilgan harakatlardan birortasi bajarilgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan, oldindan va’da bermasdan jinoyatni yashirish qasddan sodir etilgan jinoyat hisoblanadi. Chunonchi shaxs sodir etayotgan xatti-harakatlarining jamiyat uchun xavfliligini tan oladi va ularni sodir etishni xohlaydi. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning asosiy sharti uni og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan jinoyatchi, jinoyat qurollari, vositalari, izlari yoki mazkur jinoyat sodir etilishi natijasida qo‘lga olingan buyumlarni yashirayotganligi haqida xabardor ekanligini aniqlashdan iborat.

Oldindan bila turib va’da bermasdan jinoyatni yashirganlik uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksi 241-moddasining 2-qismiga binoan belgilanadi.

Oldindan bila turib va’da bermasdan jinoyatni yashirganlik uchun jinoiy javobgarlikka o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar tortiladi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining yaqin qarindoshlari bundan mustasnodir. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining sakkizinchi bo‘limida yaqin qarindoshlarga qarindosh yoxud er yoki xotin tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari kiradi deb ta’rif beriladi.

Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatni oldindan va’da bermagan holda yashirish jinoiy jazoga loyiq hisoblanadi.

Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olish yoki o‘tkazish oldindan va’da bermagan holda jinoyatni yashirish sifatida qaralmaydi, chunki u mustaqil jinoyatni tashkil qilib, Jinoyat kodeksining 171-moddasiga binoan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

*Jinoyatga yo‘l qo‘yish* jinoyatga daxldorlikning bir shakli hisoblanadi. Jinoyat kodeksining Umumiy qismida daxldorlikning bu ko‘rinishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilmagan. Oldindan va’da bermagan holda jinoyatga yo‘l qo‘yish deganda, jinoyatga yo‘l qo‘ymasligi shart va mumkin bo‘lgan shaxsning jinoyatga yo‘l qo‘yishi tushuniladi. Oldindan va’da bermasdan jinoyatga yo‘l qo‘yish yordamchilik ko‘rinishidagi ishtirokchilikni yuzaga keltiradi.

Jinoyatga yo‘l qo‘yish shaxsga qonun tomonidan uning xizmat va mansab mavqeidan kelib chiqib, jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik vakolati berilgan hollardagina jinoiy jazoga tegishli deb tan olinadi.

Obyektiv tomondan jioyatga yo‘l qo‘yish tayyorlanayotgan jinoyatning oldini olish, sodir etilayotgan jinoyatni to‘xtatish yoxud boshqa shaxslarning jinoiy faoliyatidan kelib chiqadigan jinoiy oqibatlarning oldini olish chorasini ko‘rmasligida namoyon bo‘ladi.

Agar shaxs bila turib o‘z harakatsizligi bilan boshqa shaxslar sodir etayotgan jinoyatning oldini olmasligi jamiyat uchun xavfli ekanligini anglasa va buni istasa, subyektiv tomondan jinoyatga yo‘l qo‘yish aybning qasd shakli bilan ta’riflanadi.

Amaldagi qonunning Maxsus qismida jinoyatga yo‘l qo‘yish muayyan jinoyat tarkibi sifatida nazarda tutilgan. Unga quyidagilar kiradi: hayoti yoki sog‘lig‘i xavf ostida qolgan va o‘zini o‘zi himoya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, agar, aybdor bunday ahvoldagi shaxsga yordam berishi shart va shunday imkoniyatga ega bo‘lsa (JK 117-m.); shaxsning mulkni qo‘riqlash yuza–sidan o‘z vazifalarini vijdonsiz bajarishi natijasida mol-mulk talon-toroj qilinishi, unga shikast yetkazilishi yoki uning nobud qilinishi (JK 172-m.); hokimiyat harakatsizligi (JK 208-m.) va boshqalar.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. «Ishtirokchilik» tushunchasining mazmunini ochib bering.
2. Ishtirokchilikning obyektiv belgilari nimada ifodalanadi?
3. Ishtirokchilikning subyektiv belgilari nimada ifodalanadi?
4. Intellektual yordamchilikning dalolatchilikdan farqi nimada?
5. Qisman zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlik qanday bo‘ladi?
6. Amaldagi qonunga ko‘ra, ishtirokchilik shakllarini kvalifikatsiya qilish mezonlari qanday?
7. Oddiy ishtirokchilik shaklini ta’riflang. Uning jinoiy- huquqiy ahamiyati qanday?
8. Murakkab ishtirokchilik shaklini ta’riflang. Uning jinoiy-huquqiy ahamiyati qanday?
9. Uyushgan jinoiy guruh deganda nima tushuniladi?
10. Ishtirokchilik shaklidagi jinoiy uyushma deganda nima tushuniladi?
11. Maxsus subyektli jinoyatlarda ishtirokchilik uchun javobgarlik xususiyati nimada namoyon bo‘ladi?
12. Ishtirokchilarning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishining xususiyatlarini sanab o‘ting?
13. Amalga oshirilmagan «dalolatchilik» va «yordamchilik» tushunchalarining mazmunini ochib bering?
14. «Jinoyatga daxldorlik» tushunchasining mazmunini ochib bering?
15. Jinoyatga daxldorlik turlarini ayting. Ularning jinoiy-huquqiy ahamiyati nimada?

## XII bob
## BIR QANCHA JINOYAT SODIR ETISH

### 1. «Bir qancha jinoyat sodir etish» tushunchasi

Jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotining ko‘rsatishicha, jinoyatlar faqatgina oddiy, yagona shaklda emas, balki ancha murakkab holatlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Shaxsning ikki va undan ortiq jinoyat sodir etishi kuchli ijtimoiy xavf keltirib chiqaradi, shu bois bu hol qonunda hisobga olinmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham Jinoyat kodeksida bir qancha jinoyat sodir etish instituti bilan birlashtirilgan ko‘plab normalar mavjud. «Bir qancha jinoyat sodir etish» tushunchasi umumlashtiruvchi jinoiy-huquqiy atamadir. U shaxsning ilgari sodir etgan qilmishlari uchun sudlangan yoki sudlanmaganligidan qat’i nazar, bir necha jinoyat sodir etganligini aks ettiradigan ijtimoiy hodisadir»[1].

Quyidagilar bir qancha jinoyatlarning asosiy belgilari hisoblanadi:

– shaxs tomonidan jinoyat qonunining bir yoki bir necha moddalari (yoki moddalarining qismlari)da nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etilishi;

– sodir etilgan har qaysi qilmishning mustaqil yagona jinoyat hisoblanishi va alohida modda (yoki moddaning q.) bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi;

– bir qancha jinoyatni vujudga keltiruvchi jinoyatlarning har qaysisi uchun uning sodir etilganligi faktidan kelib chiqqan jinoiy-huquqiy oqibatning saqlanib qolishi.

Ko‘rsatib o‘tilgan belgilardan birinchisi bir nechta jinoyatning miqdoriy xususiyati hisoblanadi. Bu belgi shaxsning (yoki bir guruh shaxslarning) ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etganligi faktini ifoda etadi. Aybdorlardan biri jinoiy-huquqiy, boshqasi esa ma’muriy, intizomiy yoki fuqaroviy-huquqiy bo‘lgan ikki huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda bir necha jinoyat sodir etish hollari istisno etiladi. Masalan, mayda bezorilik (MJTK 183-m.) va jinoiy jazolanadigan bezorilik (JK 277-m.), oz miqdorda talon-toroj qilish (MJTK 61-m.) va Jinoyat kodeksining 167-moddasida nazarda tutilgan o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish yig‘indisi bir necha jinoyatni vujudga keltirmaydi.

Ko‘rsatib o‘tilgan belgilardan ikkinchisini aniqlab olish uchun yagona jinoyatning mohiyatini to‘g‘ri tushunib olish katta ahamiyatga ega.

Yagona jinoyatning asl mohiyatiga oid tushuncha Jinoyat kodeksining 14-moddasida keltirilgan bo‘lib, bu jinoyat qonunida jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmishdir. Biroq ijtimoiy xavfli qilmish hayotda har doim ham yagona jinoyat bo‘lavermaydi. Ayni vaqtning o‘zida jinoyat har doim ham birgina harakat (yoki harakatsizlik) orqasida sodir etilmaydi, ba’zida u harakat yoki harakatsizlikning butun bir tizimining natijasi

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳлар. – Т., 1996. – 56-б.

hisoblanadi. Bundan tashqari, yagona jinoyat o‘z orqasidan faqat bitta emas, balki bir nechta oqibatlar keltirib chiqarishi aybning bir nechta shakllari bilan tavsiflanishi, ba’zan bir qator turli ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishdan iborat bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, yagona jinoyat deb, bir jinoyat tarkibidan iborat va bir modda yoki uning qismi bilan kvalifikatsiya qilinadigan qilmishlar tan olinadi.

Jinoyat qonuni Maxsus qismining konstruktiv normalarida yagona jinoyatlarning oddiy va murakkablarini o‘z ichiga oladi.

Oddiy yagona jinoyatlar bir obyektga tajovuz qiluvchi va aybning bir shakli bilan sodir etilgan, birgina qilmish sifatida ifodalanadi va bir jinoyat tarkibini vujudga keltiradi hamda Jinoyat kodeksining bitta moddasi yoki uning qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Bunday oddiy yagona jinoyatlarga ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish (102-m.), bolani almashtirib qo‘yish (124-m.) va boshqa jinoyatlar kiradi. Oddiy yagona jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish odatda hech bir qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bunday hollarda aybdor muayyan jinoiy-huquqiy normada nazarda tutilganidek, go‘yo jinoiy xatti-harakatning qat’iy andazasiga binoan harakat qiladi.

Yagona jinoyatlar o‘zining tuzilishiga ko‘ra murakkab hisoblangan hollarda boshqacha vaziyat vujudga keladi. Yagona murakkab jinoyatlar ham bir tarkibdan iborat bo‘ladi va Jinoyat kodeksining bir moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Biroq uning oddiy yagona jinoyatdan farqi shundaki, obyektiv tomoni bir necha jinoiy qilmishlar yoki bir necha jinoiy natijalardan iborat bo‘lishi mumkin.

Amaldagi jinoyat qonuni yagona murakkab jinoyatlarning quyidagi turlarini nazarda tutadi:

1. *Muqobil harakatli jinoyatlar.* Bunday jinoyatlar bir necha ijtimoiy xavfli qilmishlardan iborat bo‘lib, har qaysisining sodir etilishi tamom bo‘lgan tarkibni vujudga keltiradi. Masalan, Jinoyat kodeksining 248-moddasi tegishli ruxsatnomasiz o‘qotar qurol, shuningdek, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar tayyorlash, olish, olib yurish, saqlash, olib o‘tish yoki jo‘natish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Sanab o‘tilganlarning har biri bilan sodir etilgan har qanday xatti-harakat ushbu jinoyat tarkibini vujudga keltiradi. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (266-m.), hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish (228-m.) kabi jinoyatlarning dispozitsiyalari shunga o‘xshashdir. Muqobil oqibatli jinoyatlar ham murakkab yagona jinoyatlar hisoblanadi. Ular qatoriga ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoki biron-bir a’zoning ishdan chiqishini va «Badanga shikast yetkazish darajasining sud-tibbiy belgisi qoidalari»ning ro‘yxatida to‘liq keltirilgan boshqa har qanday oqibatlarni keltirib chiqaruvchi badanga og‘ir shikast yetkazishni (104-m.) kiritish mumkin.

2. *Tarkibli jinoyatlar* ikki yoki undan ortiq qilmishdan iboratligi bilan ajralib turadi. Bunday qilmishlarning har qaysisi jinoyat qonunida o‘zicha mustaqil jinoyat sifatida ko‘rib chiqilgan. Biroq qonun chiqaruvchi organ ya-

gona tarkibli jinoyat sifatida ular o‘rtasida ichki birlik mavjudligini e’tiborga olgan holda tuzadi.

Mazkur qilmish birgina jinoiy-huquqiy normada bo‘lsa, uning mohiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday yagona tarkibli jinoyatlarga bosqinchilik (JK 164-m.), bezorilik (JK 277-m.), hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-m.) kabi jinoyatlarni kiritish mumkin. Bunday jinoyatlar bir necha mustaqil tarkiblardan vujudga kelgandek tuyuladi. Masalan, bosqinchilik aslida ikki turdagi ijtimoiy xavfli qilmishni birlashtiradi: 1) Jinoyat kodeksining 166-moddasi bo‘yicha talonchilik deb kvalifikatsiya qilishi mumkin bo‘lgan o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq egallab olish; 2) Jinoyat kodeksining 104, 105, 112-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning biri sifatida kvalifikatsiya qilish mumkin bo‘lgan hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jismoniy zarar yetkazish (yoki shunday zarar yetkazish bilan qo‘rqitish). Bunday jinoyatlarning har biri, qachonki ular turli vaqtlarda sodir etiladigan bo‘lsa, o‘z majmui (yig‘indisi) bo‘yicha sodir etilganiga qaraganda xavfliligi kamroqdir. Qonun chiqaruvchi buni hisobga oladi va bitta moddaga birlashtirib, yuqori darajadagi javobgarlikni nazarda tutadi.

*3. Davom etadigan jinoyatlar*. Jinoyat kodeksi 32-moddasining 3-qismida davom etadigan jinoyatlarning muayyan tushunchasi ifoda etilgan. Davom etadigan (yoki davomli) jinoyat deb, umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo‘lgan (davomli) jinoyat tushuniladi. Ayrim jinoiy qilmishlar o‘rtasidagi mavjud ichki bog‘liqlik uni yagona, alohida qismlardan vujudga kelgan yig‘indi sifatida tavsiflaydi. Davom etadigan jinoyatlarning epizodlari (voqealari) ularni aybdorning qasdi bilan qamrab olinadigan umumiy jinoyat natijasiga yo‘naltirilgan yagona murakkab jinoyatga birlashtiradi.

Masalan, Yangiyo‘l qandolat fabrikasi haydovchisi K. Usmanov sodir etgan konfet o‘g‘riligi birgina talon-torojlik deb topilgan. Aybdor bu jinoyatni amalga oshirish uchun o‘zining yuk mashinasida yashirin joy yasab olishni o‘ylab topgan. K. Usmanov har safar fabrikadan chiqishda o‘zi bilan 2-3 *kg* konfet olib o‘tgan. Ikki oy ichida bunday usul bilan 83 *kg* konfet olib o‘tgan va ular tintuv vaqtida olib qo‘yilgan. Ma’lumki, aybdor bir jinoyat sodir etishni maqsad qilgan va uni ko‘p sonli mayda talon-torojlik ko‘rinishida amalga oshirgan. Bunda u konfet olib chiqayotganida qo‘lga tushgan taqdirda oz miqdorda talon-toroj qilganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortilishiga umid qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida»gi, 1998-yil 17-aprel qarorida ko‘rsatib o‘tilganidek, «Davomli talon-taroj sodir etilgan hollarda aybdorning harakatlari talon-taroj qilingan umumiy summani hisobga olgan holda tavsiflanishi zarur »[1].

Shu bilan birga, bu rahbariy qarorda bir necha mustaqil epizodlar

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 1. – Т., 2006. – 116-б.

(voqealar)dan, masalan, o‘g‘rilik, talonchilik, firibgarlik, tovlamachilik va shu kabi jinoyatlardan iborat qilmishlarni yagona davomli jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish istisno etilgan. «Bunday hollarda jinoyatni o‘zganing mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi moddasining dispozitsiyasiga binoan jumladan, takroriylik belgisi bilan tavsiflash lozim »[1].

*4. Uzoqqa cho‘ziladigan jinoyatlar. Jinoyat kodeksi* 32-moddasining 4-qismiga binoan, uzoqqa cho‘ziladigan jinoyatlar vazifalarni uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo‘lib, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qiladi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining normalari uzoqqa cho‘ziladigan jinoyatlar harakat hamda harakatsizlik yo‘li bilan sodir etilishi mumkinligi hollarini nazarda tutadi.

Masalan, qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (JK 248-m), qamoqdan yoki qo‘riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish (JK 222-m) harakat orqali sodir etiladi. Harakatsizlik yo‘li bilan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash (JK 122-m.), ota-onani moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlash (JK 123-m.), soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash (JK 184-m.) kabi uzoqqa cho‘ziladigan jinoyatlar sodir etiladi.

Uzoqqa cho‘ziladigan jinoyatlar ham doim muayyan jinoyat tarkibining uzluksiz amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Bunday jinoyatlar jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etish vaqtidan boshlanib, aybdorning o‘z ixtiyoriga ko‘ra (masalan, aybini bo‘yniga olib kelish, jinoyat holatlarining tugatilishi) yoki murakkab obyektiv holat tufayli uning uzilib qolishi (qamoqdan qochishni amalga oshirgan yoki noqonuniy qurol olib yurgan shaxsning ushlanishi) bilan tamom bo‘ladi.

Yagona jinoyatlar xususiyatiga ko‘ra, o‘xshash, bir turdagi, turli turkumdagi jinoyatlarga bo‘linadi.

O‘zining obyektiv va subyektiv belgilari bo‘yicha to‘la mos keladigan va jinoyat qonunining birgina normasi (moddasi yoki uning q.)da nazarda tutilgan, mustaqil kvalifikatsiya qilinadigan jinoyatlar o‘xshash deb topiladi. Demak, ikki o‘g‘rilik, agar 169-moddaning 1-qismidagi alomatlarni nazarda tutsa, o‘xshash bo‘ladi. Shu kabi ikki talonchilikning har biri 166-moddaning 1-qismidagi alomatlarni nazarda tutsa, o‘xshash deb topiladi va h. k.

O‘xshashlik muayyan jinoyat tarkibining nazarda tutilgan yuridik belgilari, normasining, ya’ni ularning muqarrar alomatlari mos kelishida namoyon bo‘ladi. Barcha jinoyatlarga xos bo‘lmagan, ya’ni ayrim fakultativ belgilarning (joyi, vaqti, vaziyati, predmeti) mos kelmasligi, bunday jinoyatlarni yuridik jihatdan o‘xshash deb topishga ta’sir qilmaydi. Har qanday yangi ijtimoiy xavfli qilmishning monandlik, aynanlik darajasini belgilaydigan huquqiy norma o‘xshashlikning asosi hisoblanadi. Faqat huquqiy norma doirasidagina ikki jinoyat o‘xshash bo‘lishi mumkin. Jinoiy-huquqiy normalardan chetga

[1] O‘sha manba. – 116-b.

chiqish ko‘proq yoki kamroq darajada jinoyatlarning bir yoki turli turkumliligini keltirib chiqaradi.

O‘zining yuridik belgilariga ko‘ra, butunlay mos kelmasa-da, biroq o‘zining asosiy ko‘rsatkichlari (masalan, jinoyat obyekti va jinoiy natija bo‘yicha; ayb shakli, motivi va maqsadi hamda boshqalar) bo‘yicha mos keladigan jinoyatlar bir turdagi jinoyatlar deyiladi. Bunday jinoyatlar jinoyat qonunining turli normalarida (moddalari yoki modda qismlarida) nazarda tutilgan va ulardan har qaysisi mustaqil jazoni ko‘zda tutadi. Ko‘p hollarda, jinoyat qonuni birgina moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar bir turkumli jinoyatlar hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 169-moddasining 1, 2, 3 va 4-qismlarida nazarda tutilgan o‘g‘rilik, qasddan odam o‘ldirish (JK 97-m. 1 va 2-q.), tovlamachilik (JK 165-m. 1, 2, 3-q.) va hokazolar bir turkumli jinoyatlar hisoblanadi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, bir turkumdagi guruhdan uning biron-bir maxsus turi (JK 169-moddasida nazarda tutilgan o‘nlab turli o‘g‘riliklardan birini, ya’ni ancha miqdordagi o‘g‘rilik yoki uy-joy, omborxona yoxud boshqa xonaga g‘ayriqonuniy kirish kabilarni ajratib ko‘rsatish mumkin) ajratib olinganida o‘sha bir turkumli jinoyat deb hisoblanadi.

Turli turkumli jinoyatlar deb jinoyat qonunining turli normalarida (moddalarida yoki ularning qismlarida) nazarda tutilgan, o‘rtasida yaqin yuridik belgilar bo‘lmagan va har biri o‘zining mustaqil sanksiyasiga ega bo‘lgan jinoyatlarga aytiladi. O‘g‘rilik (JK 169-m.), bezorilik (JK 277-m.), transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 266-m.) va talonchilik (JK 166-m.) turli turkumdagi jinoyatlar hisoblanadi.

Yagona jinoyatning turli shakllarini ko‘rib chiqishga yakun yasar ekanmiz, bir qancha jinoyatni vujudga keltiruvchi har bir jinoyatning tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan jinoyatlarga ajratish mumkinligini aytib o‘tish kerak. Ularni sodir etishning uzluksizligi bir qancha jinoyat singari bunday uyg‘unlikni kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmaydi. Xuddi shu fikrni tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi rolida qatnashgan jinoyat ishtirokchilari to‘g‘risida ham aytilishi mumkin. Bunday shaxslar tomonidan jinoyat sodir etish ham bir qancha jinoyatni vujudga keltiradi.

Bir qancha jinoyatning yana bir belgisini jinoyat sodir etish faktidan kelib chiqadigan jinoiy-huquqiy oqibatning mavjudligi tashkil etadi. Bu sudlanganlikning olib tashlanganligi yoki tugaganligi yoxud jinoiy javobgarlik istisno etilishi ehtimoli tug‘ilgan jinoyatlarning bir qancha jinoyatni tashkil etmasligini bildiradi. Masalan, qonunda qabul qilinganidek, fuqaroning vatanga xoinlik qilishi, pora berish yoki unda vositachilik qilishi haqida hokimiyat organlariga ixtiyoriy xabar berishi, qurolni ixtiyoriy topshirishi va boshqalar jinoiy javobgarlikni bekor qiluvchi holatlar bo‘lishi mumkin.

Bir qancha jinoyat sodir etish, O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan, takroriy, birgalikdagi va retsidiv singari uch shaklga ajratiladi. Biroq bir qancha jinoyat sodir etish shakllariga oid masala hanuz munozaralidir va unga nisbatan turlicha qarashlar mavjud.

## 2. Takroran jinoyat sodir etish

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, ayrim hollarda esa turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo‘lmasa, jinoyat qonuni takroriy jinoyat sodir etish deb topadi.

Quyidagilar takroran jinoyat sodir etish belgilari hisoblanadi:

1) jinoyatning turli vaqtda sodir etilganligi;

2) kamida ikki marta jinoyat sodir etilganligi;

3) sodir etilgan jinoyatning o‘xshashligi (bir yoki turli turkumdanligi alohida ta’kidlanganligi);

4) bu jinoyat uchun sudlanmaganligi.

Shaxs bir necha jinoyat sodir etsa va ular oralig‘idagi vaqt bir jinoyatni boshqasidan ajratib olish imkonini bersa, bu uning turli vaqtda sodir etilganligini bildiradi. Bunday vaqt oralig‘i qisqa yoki ancha uzoq bo‘lishi mumkin, biroq birinchi qilmish bo‘yicha hali javobgarlik muddati o‘tab ketmagan va u o‘zining jinoiy-huquqiy ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lishi kerak. Bu to‘g‘rida Jinoyat kodeksi 32-moddasining 2-qismida: «Agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo‘lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi», deb bevosita ko‘rsatilgan.

Turli vaqtdalik takroran jinoyat sodir etilganlik belgisi sifatida jinoyatchi shaxsining jamiyat uchun ancha xavfli ekanligidan darak beradi. Turli vaqtdalik shaxsning birinchi jinoyatni sodir etganidan so‘ng ilgarigisiga o‘xshash yangi jinoyatni rejalashtirgan va amalga oshirganligini yoki yana bir necha qilmishlar sodir etganligini ko‘rsatadi. Turli vaqtdalik jinoyat sodir etishga qasdning yuzaga kelishi va rivojlanishi, jinoiy xatti-harakat chegaralarini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Jinoyat qonuni ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarni takroriylik sifatida ko‘rib chiqmaydi.

Takroriylik ikki va undan ortiq o‘xshash jinoyatlar sodir etilgan hollarda bo‘lishi mumkin. Bu shuni bildiradiki, agar u shunday (shu jinoyatga o‘xshash) ijtimoiy xavfli tajovuzdan so‘ng sodir etilgan bo‘lsa, takroriy jinoyat hisoblanadi. Masalan, shaxs ikkinchi marta o‘g‘rilik sodir etgan va birinchi o‘g‘riligi Jinoyat kodeksi 169-moddasining 1-qismidagi jinoyat tarkibini tashkil qilgan, lekin jinoyat qonuni bilan jazolanmagan va ushbu jinoyat o‘zining jinoiy-huquqiy ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa, bu hol o‘g‘rilikning takroran (JK 169-m., 3-q. «a» b.) sodir etilganligini bildiradi.

Ayrim hollarda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismida maxsus nazarda tutilganidek, ikki yoki undan ortiq bir yoki turli turkumli jinoyatlar sodir etish takroriylikni vujudga keltiradi. Jinoyat kodeksining 164-moddasiga binoan, agar bosqinchilik jinoiy uyushma tashkil etilganidan so‘ng sodir etilsa (JK 242-m.), takroran sodir etilgan; nomusga tegish, agar shaxs ilgari jinsiy ehtiyojini zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirgan bo‘lsa (JK 119-m.) ham takroran sodir etilgan deb topiladi. Badanga og‘ir shikast yetkazish, agar shaxs ilgari qasddan odam o‘ldirgan (JK 97-m.) bo‘lsa, takroran jinoyat sodir etganlik kabi ko‘rib chiqiladi.

Qonun chiqaruvchining bir turkumdagi jinoyatlarni takroran ekanligiga yo‘l qo‘yishiga Jinoyat kodeksi 270-moddasining 2-qismi «a» bandini misol tariqasida keltirish mumkin. Bu yerda ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilganlik jinoyatini sodir etgan shaxsga nisbatan taqiqlangan ekinlarni yetishtirganligi uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Jinoyat qonuni takroran jinoyat sodir etishning ikki turini, ya’ni umumiy va maxsus turini nazarda tutadi. Umumiy takroranlik jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta’sir etmaydi va Jinoyat kodeksi 56-moddasining 1-qismi «н» bandiga ko‘ra, jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida qaraladi. Bu qonunga binoan, turli turkumli jinoyatlarni takroran sodir etishdir.

Maxsus takroranlik – yangidan o‘xshash yoki bir turkumli jinoyat sodir etish. Bu holni jinoyat qonuni takroriylikni kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida ko‘rib chiqib, uning uchun yanada yuqoriroq javobgarlikni nazarda tutadi. Jinoiy-huquqiy normada takroriylikning mavjudligi jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo hajmiga ta’sir qiladi.

Agar shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun qonuniy tartibda jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan bo‘lsa yoki javobgarlik muddati o‘tib ketgan bo‘lsa, takroranlik bo‘lmaydi.

Ikki yoki undan ortiq o‘xshash ijtimoiy xavfli tajovuz uchun Jinoyat kodeksining birgina moddasi yoki moddasining qismi bo‘yicha takroran jinoyat sodir etishni kvalifikatsiya qilish amalga oshiriladi. Shunday qilib, «basharti shaxs har xil muddatlar orasida davlat tomonidan o‘rnatilgan va har biri Jinoyat kodeksining 184-moddasi 1-qismi belgilariga ega bo‘lgan – soliqlarni, boj yig‘imlarini, yig‘imlarni yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan qochib ikki yoki undan ko‘proq marotaba foyda (daromad)ni katta miqdorda bekitganda, agar shaxs mazkur jinoyatlarning birortasi uchun ham ilgari sudlanmagan bo‘lsa, u holda jinoyatning takrorlanganligini inobatga olib, mazkur faoliyatni Jinoyat kodeksi 184-moddasi 2-qismining «a» bandiga ko‘ra baholash lozim»[1].

Jinoyat kodeksida «takroranlik» tushunchasi bilan birga «muntazamlik» termini ham qo‘llaniladi. Biroq muntazamlik takroriylikning bir turi hisoblanmaydi, ammo Jinoyat kodeksining 103, 110-moddalaridagi ayrim yagona jinoyatlarning obyektiv tomoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Muntazamlik – ijtimoiy xavfli qilmish namoyon bo‘lishining alohida shakli bo‘lib, muayyan natijaga erishish maqsadida o‘xshash yoki bir turkumli harakatlarni ko‘p marotaba sodir etishda ifodalanadi. Demak, Jinoyat kodeksining 110-moddasidagi muntazamlik muttasil ravishda do‘pposlash yoki boshqacha harakatlar bilan insonni qiynash, 103-moddasidagi muntazamlik o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish yoki unga suiqasd qilishdan dalolat berishi yoki doimiy ravishda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini poymol qilish natijasi bo‘lishi mumkin.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси: илмий амалий шарҳлар. – Т., 1997. 59-б.

Shunday qilib, muntazamlilik yuqorida ko‘rsatilgan hollarda obyektiv tomonining muqarrar belgisi sifatida namoyon bo‘ladi va unga xos bo‘lgan muayyan harakatlarning ko‘p marotaba takrorlanishi o‘ziga xos ijtimoiy xavfli qilmishni ifodalaydi va bu xossasi bilan jinoyat qonunida nazarda tutilgan bir qancha jinoyatlar sodir etish shaklidan farq qiladi.

Takroriylikni davom etadigan va uzoqqa cho‘ziladigan jinoyatlardan farqlash kerak. Yuqorida ta’kidlanganidek, davom etadigan jinoyatlar yagona jinoyatlar toifasiga kiradi va ular umumiy maqsadga ega bo‘lgan, yakka qasd bilan qamrab olingan bir xil yoki o‘xshash jinoyatlar qatorida turadi. Bundan takroriy va davom etadigan jinoyatlarning bir-biriga o‘xshashligi, bir turkumli yoki o‘xshash harakatlarning bir necha marotaba sodir etilishidan iboratligida ko‘rinadi va ularning har biri Jinoyat kodeksining muayyan moddasi belgilariga mos keladi. Biroq davom etadigan jinoyatlar umumiy jinoyat natijasida maqsadga erishish yo‘lida aynan harakat (yoki harakatsizlik) halqasi sifatida aybdorning qasdi bilan qamrab olingan bir necha yoki ko‘plab epizodlar (voqealar)ning muayyan yig‘indisidan iborat yagona ijtimoiy xavfli qilmishdir. Davom etadigan jinoyatni sodir etish jarayonidagi har bir takrorlanadigan jinoiy akt (qilmish) o‘ylab qo‘yilgan umumiy jinoiy natijaning vositasidir. Bir qancha jinoyat sodir etish shakli sifatida ko‘rib chiqiladigan o‘xshash jinoyatning takroran sodir etilishi esa o‘zida jinoiy qilmishning maqsadini aks ettiradi.

Aybdorning o‘xshash harakat (harakatsizlik)ning o‘ylangan halqasi ichida bir voqeali jinoyat sodir etmaganligi barcha jinoyatlarning kvalifikatsiyasiga ta’sir qilmaydi, bunday qilmish sodir etilmagan hollarda, agar bir necha jinoyatlar haqida so‘z yuritilayotgan bo‘lsa, unda takroranlik istisno etiladi va bu jinoyat kvalifikatsiyasining o‘zgarishiga olib keladi.

Takroran jinoyat sodir etishni uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlardan farqlash kerak, chunki unga muayyan ijtimoiy xavfli qilmish tarkibining uzluksiz amalga oshirilishi xosdir.

Uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar muayyan harakat (yoki harakatsizlik) bilan boshlanadi va shundan so‘ng ularning obyektiv tomoni aybdorning qonuniy hisoblangan muayyan vazifasini muntazam bajarmasligi bilan tavsiflanadi. Bu yerda biz ko‘rib o‘tish uchun vujudga keladigan bir qancha jinoyat sodir etishning turli vaqtdaligi, qilmishning takroranligi yo‘q

Jinoyat qonunida belgilanganidek, tamom bo‘lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo‘ladigan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish ham, jinoyat sodir etishga qasd qilish ham, shuningdek, ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi (JK 32-m. 1-q.).

## 3. Jinoyatlar majmui

Jinoyat kodeksining 33-moddasiga ko‘ra, ushbu Kodeks Maxsus qismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun shaxs sudlangan bo‘lmasa, jinoyatlar majmui deb topiladi.

Ushbu ta’rifga asoslangan holda shuni ta’kidlash kerakki, jinoyatlar majmui quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

1) aybdorning ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etishi;

2) shaxsning ulardan birortasi uchun sudlanmaganligi;

3) har bir sodir etilgan jinoyatning turli moddalar yoki bir moddaning turli qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi.

Demak, yuridik tomondan bir yoki turli turkumli sodir etilgan jinoyatlargina jinoyatlar majmuini hosil qilishi mumkin. Yuridik o‘xshash jinoyatlar doimo takroriylikni vujudga keltiradi, jinoyatlar majmuini hosil qilmaydi.

Agar shaxs bir yoki turli turkumli jinoiy qilmish sodir etgan, ulardan biri – tamom bo‘lgan jinoyat, boshqasi esa jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, suiqasd qilish yoki ishtirokchilikni tashkil etganda jinoyatlar majmui bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi «Qonunga hilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi 3-sonli qarorining 10-bandida «O‘qotar qurol, o‘q-dorilar portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari qonunga xilof ravishda boshqa jinoyatni sodir etish maqsadida egallangan, shuningdek, tayyorlangan, olingan, olib yurilgan, saqlangan hollarda sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat (Jinoyat kodeksining 247 yoki 248-moddasi) va va boshqa jinoyat sodir etishga tayyorgarlik tariqasida kvalifikatsiya qilinishi shart»[1], deb ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, agar shaxs jinoyat sodir etgan va uning belgilari umumiy sanksiyaga ega bo‘lgan bir moddaning bir necha bandlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, bu hol jinoyatlar majmui bo‘lmaydi.

Jinoyat huquqi fani jinoyatlar majmuining ideal va real turini ajratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 15-maydagi «Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida»gi 13-sonli qarorning 7-bandi, 3-qismiga muvofiq jinoyatlarning ideal majmuasida «… aybdorning bitta xatti-harakatida Jinoyat kodeksi Maxsus qismi turli moddalarida (moddasi turli qismlarida) nazarda tutilgan kamida ikkita jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo‘lib, qilmish ushbu normalardan birortasi bilan ham to‘liq qamrab olinmaydi»[2].

Shundan kelib chiqib, *Ideal majmua* – bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. – Т., 2006. – 48-б.

[2] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари.– Т., 2008 – 35-б.

ortiq obyektga tajovuz qilib, ularga zarar yetkazishda ifodalangan bir ijtimoiy xavfli harakat (harakatsizlik) sodir etishdir. Bunday hollarda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ikki yoki undan ortiq moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilish taqozo etiladi. Jinoyatlarning ideal majmuiga jabrlanuvchini o‘ldirish maqsadida uning uyiga qasddan o‘t qo‘yish (JK 97 va 173-m.), bosqinchilik vaqtida odam o‘ldirish (JK 164 va 97-m.), bir o‘q bilan bir kishini o‘ldirib, boshqasining badaniga o‘rtacha og‘irlikda zarar yetkazish (JK 97 va 105-m.) misol bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 15-maydagi «Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida»gi 13-sonli qarorning 7-bandi, 2-qismiga muvofiq jinoyatlarning ideal majmuasi «… ikki va undan ortiq, har qaysi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi turlari moddalarida (moddasi turli qismlarda) nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibini tashkil etuvchi, jinoiy qilmish sodir etilganda mavjud bo‘ladi»[1].

*Real majmua* – shaxsning Jinoyat kodeksi Maxsus qismining turli moddalari yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatlar sodir qilib, ularning birortasi uchun ham sudlanmaganligi. Jinoyatlarning real majmuini na harakat (harakatsizlik), na jinoiy niyat va maqsadlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan mustaqil sodir etiladigan qilmishlardan iborat jinoyatlar tashkil etadi. Masalan, shaxs o‘g‘rilik (JK 169-m.) sodir etadi, keyin qalbaki hujjat yasaydi (JK 228-m.). Odatda jinoyatlarning real majmui turli vaqtda, turli joyda va turli usullar bilan sodir etilgan jinoyatlarni tashkil etadi.

Shuni qayd etish kerakki, jinoyatlarning ideal majmuiga oid masalaning yuridik tabiati bahslidir. Bir qator mualliflar faqat bir tur majmua – real majmua mavjud deb hisoblaydilar. «Qonun chiqaruvchi organ ta’kidlaganidek, mazkur xulosa jinoyatlar majmui «ikki yoki bir qancha jinoiy qilmish sodir etilishidan»dan hosil bo‘lishi, jinoyatlarning har xil davrda va ketma-ket sodir etilishini taqozo qilishiga asoslanadi. Jinoyatlarning ideal majmui esa bir qancha jinoyat sodir etishdan iborat bo‘lmaydi, zero u jinoyat qonunining turli moddalarida nazarda tutilgan va jazo belgilanishining alohida tartibini keltirib chiqaradigan ikki yoki bir necha jinoiy oqibatlarga bog‘liq bir qilmish natijasida yuz beradi»[2].

Bunday xulosa taxminiy bo‘lib, bir harakat (harakatsizlik) bir qilmishga mos keladi. Biroq, amaliyotning ko‘rsatishicha, ayrim hollarda bir harakat yo-ki harakatsizlik ikki yoki undan ortiq jinoyat tarkibini vujudga keltirishi yoki, aksincha, bir necha harakat yoki harakatsizlik bitta jinoyat tarkibini keltirib chiqaradi. Birinchi holat ideal majmua, ikkinchi holatni esa murakkab tarkibli jinoyatlarga misol tariqasida (bezorilik – 277-m., transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish – 266-m., bosqinchilik

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари.– Т., 2008 – 35-б.

[2] Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳлар. – Т., 1997. – 60-б.

– 164-m. va b.) keltirish mumkin.

Jinoyatlarning ideal majmui, hatto jinoyat qonunida bu haqda to‘g‘ridan-to‘g‘ri biror gap aytilmagan bo‘lsa-da, mavjud bo‘lish huquqiga ega. Bu sud amaliyotida jinoyatlar majmuining bunday birikuvi uchrab turishi va ular to‘g‘ri kvalifikatsiyaga muhtoj ekanliklar bilan bog‘liqdir.

Ideal majmuani bir qilmish boshqa qilmishni sodir etishning sharti hisoblangan hollardan ajratish zarur. Masalan, qonunga xilof ravishda qurol tayyorlash (JK 248-m.) va bu qurol bilan odam o‘ldirish (JK 97-m.), mansab soxtakorligi (JK 209-m.) va o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (JK 167-m.), hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (JK 205-m.), pora berish (JK 210-m.) va h. k. Bunday hollarda boshqa jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratuvchi harakatlar, agar ular muqarrar belgi hisoblanmasa, mustaqil kvalifikatsiya qilinishi kerak. Sud amaliyotining guvohlik berishicha, bunday o‘zaro aloqadorlik tez-tez (jinoyatlar majmuining 20% gacha hollarda) uchrab turadi.

Shu bilan birga, jinoyat sodir etish usuli turli hollarda turlicha ahamiyatga ega bo‘lib, bunday (quyidagi) qilmishlar kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatadi:

1) ushbu jinoyatni sodir etish usuli, boshqa hollarda jinoyat qonuni bilan mustaqil jinoyat sifatida nazarda tutilganida. Biroq bunday jinoyat yagona hisoblanadi va shuning uchun qo‘shimcha kvalifikatsiya talab qilinmaydi. Shuning uchun bosqinchilik vaqtida badanga shikast yetkazish bu jinoyatning qo‘shimcha sharti hisoblanadi va, agar bosqinchilik sodir etilgan bo‘lsa, Jinoyat kodeksining 104 yoki 105-moddalari bo‘yicha qo‘shimcha kvalif-ikatsiya qilish talab etilmaydi;

2) jinoyat sodir etish usuli uning xususiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lib, bu jinoyatga qaraganda ijtimoiy jihatdan xavfliroq hisoblansa, bunday qilmish jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, qamoqdan yoki qo‘riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish (JK 222-m.) qorovulni o‘ldirish orqali amalga oshirilsa, Jinoyat kodeksi 97-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ham shu nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘zining «Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 2004-yil 24-sentyabr qarorida shunday deb ko‘rsatadi: «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqan holda qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan mansabdor shaxsning harakatlari Jinoyat kodeksining qasddan odam o‘ldirish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan moddalari hamda 206-moddasining tegishli qismida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim»[1];

3) agar bir ijtimoiy xavfli qilmish, boshqa yanada xavfliroq qilmishning kvalifikatsiya qilish belgisi bo‘lsa, faqat bitta modda bo‘yicha javobgarlik kelib chiqadi (masalan, mansab mavqeidan foydalangan holda radioaktiv ma-

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 2. – Т., 2006. – 200-б.

teriallarni qonunga xilof ravishda egallash, faqat Jinoyat kodeksi 252-moddasi 2-qismining «в» bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi).

Jinoyat qonuni ba’zan ijtimoiy xavfli qilmishlarning muayyan bosqichlarini jinoyatlarning mustaqil tarkibi sifatida nazarda tutadi. Ularni sodir etishning davomiyligi faqat mavjud vaqt birligi, joyi va qasdga qarab, uning uchun yanada og‘irroq javobgarlik nazarda tutilgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak. Masalan, aybdorning xatti-harakati dastlab o‘z fuqarolik burchini bajarayotgan hokimiyat vakili yoki fuqaroga (JK 219-m.) qarshilik ko‘rsatish sifatida namoyon bo‘lgan, keyin esa qasddan badanga shikast yetkazish (JK 104, 105-m.)ga o‘sib o‘tgan va odam o‘ldirish bilan tamom bo‘lgan taqdirda, buni Jinoyat kodeksi 97- moddasining faqatgina 2-qismi «г» bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish taqozo etiladi.

Jinoyatning alohida olingan bosqichi, agar aybdor bir ijtimoiy xavfli qilmishni bosqichma-bosqich amalga oshirgan bo‘lsa, jinoyatlar majmui hisoblanmaydi. Masalan, odam o‘ldirishga tayyorgarlik ko‘rish, odam o‘ldirishga suiqasd qilish va o‘sha jabrlanuvchini hayotidan mahrum etish jinoyatlar majmuini tashkil qilmaydi. Bu yakka jinoyat yagona qasd, harakat, joy va vaqt bilan qamrab olingan bo‘ladi. Bu yerda navbatdagi har bir bosqich so‘nggisini yutib yuboradi. Ko‘p hollarda qonun bir moddaning turli qismlarida jinoyatlar majmuiga yo‘l qo‘ysa-da, Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi bir moddaning turli qismlari nazarda tutilgan jinoyatlar uning majmuini hosil qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksi 158-moddasining birinchi qismi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayotiga tajovuz qilganlik, uchinchi qismi – uni omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish, shuningdek, matbuot yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda uni haqoratlash yoki unga tuhmat qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bu o‘rinda bitta moddada turli jinoyat tarkiblari nazarda tutilgan.

Jinoyatlar majmuini jinoiy-huquqiy normalar raqobatidan farqlash kerak. Normalar raqobati vaqtida bir vaqtning o‘zida Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalarining ikki yoki undan ortiq belgilari bo‘lgan bir jinoyat sodir etilgan bo‘ladi. Jinoyat qonunining o‘zi normalarining raqobati bilan bog‘liq muammolarni hal eta olmaydi. Ular jinoyat huquqi fani va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati davomida hal etiladi. Moddalar raqobatining bir qancha turlari farqlanadi.

Birinchi tur – umumiy va maxsus normalar raqobati. Umumiy tarkib jinoyat qonunida nazarda tutilgan, uning mumkin bo‘lgan barcha turlarini qamrab oladi, bundagi turlilikning bittasi maxsus tarkib sifatida olinadi. Ular o‘rtasidagi farq ko‘rib o‘tilayotgan normalar hajmidan iborat. Maxsus normalar jazoni tabaqalantirish uchun kiritiladi (ular asosiy tarkibdagiga qaraganda qattiqroq yoki yengilroq bo‘lishi mumkin). Shunday qilib, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (JK 205-m.) asosiy tarkib, pora olish (JK 210-m.) maxsus tarkibdir. Bu yerda maxsus tarkib uchun asosiy tarkibga qaraganda qattiqroq jazo nazarda tutiladi. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilishning maxsus turi bo‘lib, qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish (JK 234-m.) hisoblanadi, biroq bu yerda asosiy tarkibga

qaraganda jazo endi yengilroqdir.

Moddalar raqobatining birinchi turini ko‘rishga yakun yasar ekanmiz, yagona qoidani, ya’ni umumiy va maxsus normalar raqobatida har doim faqat maxsus normalar bo‘yicha kvalifikatsiya qilish qo‘llanishini alohida ta’kidlab o‘tish kerak. «Bu maxsus normaning jinoiy tarkibi umumiy belgilari bilan birga qo‘shimcha ravishda umumiy normada mustahkamlanmagan maxsus belgilarga egaligiga ham bog‘liqdir»[1].

Ikkinchi tur – maxsus normalar raqobati. Bunday raqobat qachonki qonun maxsus normalarni mavjud qilmishga qarab aybni og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarda nazarda tutganda kelib chiqadi. U yoki bu holat mavjud bo‘lganda qilmishni kvalifikatsiya qilish yengillashtiruvchi holat nazarda tutilgan modda bo‘yicha amalga oshiriladi. «To‘satdan paydo bo‘lgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida, zaruriy mudofaa chegarasidan yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan bo‘lsa bunday jinoyat JK 97-moddasi ikkinchi qismining «а», «б», «в», «д», «ж», «р», «с» bandlarda nazarda tutilgan kvalifikatsiya belgilari bo‘yicha sodir etilgan deb baholanmasligi lozim »[2].

Maxsus normalarning og‘irlashtiruvchi va alohida og‘irlashtiruvchi holatlari raqobati vaqtida alohida og‘irlashtiruvchi holatlar normasiga ustunlik beriladi. Shunday qilib, uy-joy, omborxona yoki boshqa xonaga g‘ayriqonuniy ravishda kirib (JK 169-m. 2-q. «г» b.), juda ko‘p miqdorda (169-m. 4-q «a» b.) o‘g‘rilik sodir etilgan bo‘lsa, qilmishni faqatgina Jinoyat kodeksi 169-moddasining 4-qismi «a» bandi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish zarur. Bunda bitta jinoyat bo‘lganligi uchun jinoyatlar majmui istisno etiladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 33-moddasining 2-qismida aytilgan: «Agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu Kodeks Maxsus qismi ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlari mavjud bo‘lsa, u moddaning og‘irroq jazo belgilangan qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi».

Yengillashtiruvchi holatlar bo‘lgan normalar raqobati qilmishni yanada yengilroq jazoni nazarda tutadigan moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, agar shaxs kuchli ruhiy hayajon holatida hujumdan himoyalana turib, jabrlanuvchini o‘ldirib qo‘ysa, bu yerda Jinoyat kodeksi 98-moddasi (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish) va Jinoyat kodeksi 100-moddasi (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o‘ldirish) raqobati ko‘zga tashlanadi. Bunda Jinoyat kodeksining 100-moddasida nazarda tutilgan jazo chorasi yengilroq hisoblanadi va bu holda qilmishni zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o‘ldirish kabi kvalifikatsiya qilish zarurati kelib chiqadi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳлар. – Т., 1996. – 61-б.

[2] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 2. – Т., 2006. – 200-б.

## 4. Retsidiv jinoyatlar

«Retsidiv» so‘zi lotincha (recidivus)dan olingan bo‘lib, «qaytuvchi», «yangilanuvchi» degan ma’noni bildiradi. U bir qancha jinoyat sodir etishning xavfliroq shakli hisoblanadi. Jinoyat qonuni retsidiv jinoyatlar sifatida shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishini tan oladi (JK 34-m. 1-q.). O‘sha holat, ya’ni shaxs sudlangandan keyin ham yangidan jinoyat sodir etsa, bu uning yuqori darajada ijtimoiy xavfliligidan darak beradi. Qonunda bu hisobga olinadi va Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining qurilishi vaqtida retsidivning alohida turlari uchun yanada yuqoriroq javobgarlikni nazarda tutadi.

Jinoyat qonuni retsidivni 1) oddiy (JK 34-m. 1-q.); 2) xavfli (JK 34-m. 2-q.); 3) o‘ta xavfli (JK 34-m. 3-q.) deb ataladigan turlarga bo‘ladi.

*Oddiy retsidiv* – shaxsning ilgari qasddan sodir etgan biror-bir jinoyati uchun sudlanganidan so‘ng yangidan har qanday jinoyat sodir etishidir. Oddiy retsidiv qonunda retsidiv jinoyatlarning birmuncha yengil shakli sifatida baholanadi va shuning uchun Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalarida kvalifikatsiya qilinadigan holat sifatida kamdan-kam hollarda ko‘rib o‘tiladi (masalan, haqorat qilishning og‘irlashtiruvchi holati sifatida (JK 140-m. 3-q. «b» b.) tuhmat qilganligi uchun sudlanganlik nazarda tutilgan.

Oddiy retsidivning mavjudligi jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb topiladi (JK 56-m., 1-q. «н» b.). Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida ko‘rsatilganidek, qasddan takroran yoki ilgari sodir etilgan jinoyati uchun sudlangan so‘ng qasddan yangi jinoyat sodir etilishi, agar birinchi jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketgan, sudlanganlik belgilangan tartibda tugallangan yoki ochib tashlangan yoxud shaxs muqaddam sodir etgan jinoiy xatti-harakat uchun qonunda javobgarlik bekor qilingan bo‘lsa shuningdek, JK 65, 66, 66[1], 68, 69, 70, 71, 76-moddalariga binoan shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod etilgan bo‘lsa, jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e’tirof etilishi mumkin emas»[1]. Bundan tashqari, oddiy retsidiv shaxsda Jinoyat kodeksi normalarida bevosita nazarda tutilgan bir qator jinoiy-huquqiy oqibatlarning vujudga kelishini shart qilib qo‘yadi:

1) bir necha hukm yuzasidan to‘liq yoki qisman jazo tayinlanadi, biroq doiralari cheklanmaydi (JK 60-m.1-q.);

2) jazoni ijro etish muddatining o‘tishi uziladi (JK 69-m. 3-q.);

3) shartli jazo belgilash uchun to‘siq hisoblanadi (JK 72-m. 7-q.);

4) jazoni o‘tashni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish chorasini qo‘llash uchun uning haqiqatda o‘talgan muddati uzaytirilishiga olib keladi (JK 73-m.).

Oddiy retsidiv faqat bir yoki turli turkumli jinoyatlarning qo‘shilishidan yuzaga keladi. Masalan, qasddan odam o‘ldirganlik uchun jazoni o‘tab

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. – Т., 2006. – 228-б.

chiqqan shaxsning bezorilik sodir qilishi oddiy retsidiv sifatida ko‘rib chiqiladi.

*«Xavfli retsidiv» tushunchasi* Jinoyat kodeksi 34-moddasining 2-qismida berilgan bo‘lib, ilgari hukm qilingan jinoyatiga o‘xshash jinoyat sodir etgan, qonunda alohida ko‘rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishidir. Xavfli retsidiv oddiy retsidivdan farqli ravishda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ko‘plab moddalarida kvalifikatsiya qilinadigan belgi sifatida nazarda tutilgan. Aybdorning qilmishini xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan qilmish sifatida kvalifikatsiya qila turib, huquqni qo‘llash organlari bu belgini hisobga olib unga ayb qo‘yishlari shart.

Demak, ilgari o‘g‘rilik uchun Jinoyat kodeksi 169-moddasining 1-qismi bo‘yicha sudlangan shaxs, yangidan shunga o‘xshash o‘g‘rilik sodir etsa, endi 169-moddaning 3-qismi «a» bandi (xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan o‘g‘rilik) bo‘yicha javobgarlikka tortilishi kerak.

Agar ilgari qasddan shunga o‘xshash jinoyat sodir etganlik uchun aybdordan sudlanganlik amnistiya yoki afvi umumiy tartibida yoxud qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan yoki tugagan bo‘lsa, shuningdek, uning amalga oshirilishi vaqtida jazoni ijro etish muddati o‘tgan bo‘lsa, jinoyat xavfli retsidiv belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Ayrim hollarda, jinoyat qonuni bir va turli turkumli jinoyatlarning qo‘shilishini xavfli retsidiv deb tan olish masalasini ko‘rib chiqdi. Bunday holatlar uchun jinoiy-huquqiy normalar belgilangan (JK 271, 273, 274, 276 va boshqa moddalari). Bunday hollarda qonun giyohvand vositalar va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog‘liq aniq jinoyatni, agar shaxs ilgari shunday jinoyat sodir etgan va buning uchun sudlangandan keyin yana sodir etishini xavfli retsidiv deb tan oladi.

Xavfli retsidivist deb topilgan shaxsga nisbatan ham oddiy retsidivda bo‘lgani kabi jinoiy-huquqiy oqibat kelib chiqadi.

Besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya’ni:

a) ilgari o‘ta og‘ir jinoyati uchun yoki ikki marta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og‘ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldinkeyinligidan qat’i nazar, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og‘ir jinoyat sodir etishi o‘ta xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi (JK 34-m. 3-q.).

Faqat sudning hukmi bilangina shaxs o‘ta xavfli retsidivist deb topilishi mumkin. Bu xususda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sud hukmi to‘g‘risida»gi 1997-yil 2-may qarorida bevosita shunday yozilgan: «Xavfli retsidivist tomonidan jinoyat sodir etilishi bir qator jinoyatlarning tavsiflash belgisi hisoblanadi va bu holat shaxs dastlabki tergov organi

tomonidan ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinayotganida ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lishi lozim va keyinchalik bu sud hukmining tavsif qismida ham asoslantirilgan bo‘lishi kerak»[1].

Shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb topish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilayotganida uning o‘n sakkiz yoshgacha sodir etgan jinoyati uchun sudlanganmi, shuningdek, qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining o‘tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi (JK 34-m. 6-q.).

Shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb tan olish masalasini ko‘rib chiqa turib, sud boshqa davlatlarning sudlari hukmi bo‘yicha sudlanganlikni, agar uning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga ko‘ra, chet ellarda ham jinoyat deb tan olinsa, hisobga olishi mumkin.

O‘ta xavfli retsidivistlarga nisbatan jinoyat qonunida jiddiy huquqiy oqibatlar belgilab qo‘yilgan:

1) yangi jinoyat sodir etganlik uchun yuqori darajada jinoiy javobgarlik;

2) ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o‘tashning maxsus tartibi, shu jumladan uning bir qismini turmada o‘tash;

3) jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga doir imkoniyatlarning jiddiy cheklab qo‘yilganligi;

4) shartli jazo belgilash (yoki shartli hukm qilish) va jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish va uni yengilrog‘i bilan almashtirishning istisno etilishi;

5) sudlanganlikni va shaxsdan o‘ta xavfli retsidivist tamg‘asini olib tashlashning alohida tartibi;

6) jinoiy jazoni o‘tab bo‘lgandan keyin ma’muriy nazorat o‘rnatilishi va boshqalar.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Bir qancha jinoyatlar nima?
2. Alternativ (muqobil) harakatli jinoyat mazmunini ochib bering.
3. Tarkibli, davom etadigan, uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar o‘rasida qanday farq bor?
4. Takroran jinoyat sodir etish deganda nima tushuniladi?
5. Jinoyatlar majmui deganda nimani tushunasiz?
6. Retsidiv jinoyatlarning asosiy turlarini va belgilarini aytib bering.
7. Takroran jinoyat sodir etish jinoyatlar majmui va retsidiv jinoyatlardan nimasi bilan farq qiladi?
8. Shaxs qachon o‘ta xavfli retsidivist deb topilishi mumkin?

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.1. – Т., 2006. – 92-б.

## XIII bob
## QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR

### 1. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar va ularning turlari

Jinoyat qonuni o‘zining obyektiv xususiyatlariga ko‘ra, jinoyat belgilariga ega bo‘lgan har qanday qilmishni ham jinoiy va jazoga loyiq deb topmaydi. Inson ayrim hollarda tashqi tomondan u yoki bu jinoyatni eslatuvchi harakatlar sodir etishi mumkin. Biroq shaxs bu harakatlarni yetilib kelayotgan xavf-xatarni bartaraf etish, ijtimoiy xavfli qilmishni yo‘qotish, bunday qilmish sodir etgan shaxsni ushlash, buyruqni yoki o‘z majburiyatini bajarish vaqtida, shuningdek, kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikka yo‘l qo‘yishi orqali amalga oshirishi mumkin.

Aytaylik, zo‘ravonlikdan o‘zini himoya qila turib, ayol kishi zo‘rlik qilgan shaxsning badaniga og‘ir shikast yetkazadi, fuqarolar uyni yong‘indan o‘chira turib, muayyan shaxsning mulkiga ziyon yetkazadilar, militsiya xodimi odam o‘ldirgan shaxsni ushlash vaqtida uning badaniga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazadi va h. k. Qonunda belgilangan muayyan sharoitlarda bu kabi harakatlar jinoyat sifatida ko‘rib chiqilmaydi va shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Aksincha, ular shaxs, jamiyat va davlatning huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi uchun ijtimoiy jihatdan foydali deb topiladi.

Jinoyat kodeksi Umumiy qismining to‘qqizinchi bobida qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar va ularning turlari ifodalangan. Qonunda belgilanganidek, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo‘lsada, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi (JK 35-m.).

Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning bunday ta’rifi katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni «jinoyat» tushunchasi bilan bog‘laydi. Qonun chiqaruvchi jinoyat va huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan, ammo aslida ular bo‘lmagan, ya’ni ularning jinoiyligi va jazoga loyiqligini istisno etuvchi holatlar hisoblangan qilmishni o‘zaro taqqoslaydi.

Shunga ko‘ra, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar (o‘zining kam ahamiyatliligiga ko‘ra) ijtimoiy xavfli yoki qonunga xilof bo‘lishi mumkin emas (masalan, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish) yoki aybli bo‘lmasligi (masalan, buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, kasb yoki xo‘jalik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik) ravshandir. Jinoyat kodeksining 40 va 41-moddalardagi holatlarga muvofiq, so‘nggi ikki holatda buyruqning jinoiyligini bilgan holda bajargan yoki tavakkalchilik odamlarning halok bo‘lishi xavfi, ekologiya halokati yoxud boshqacha og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, qonunning o‘zidayoq, hatto Jinoyat kodeksi normalarida nazarda tutilgan alomatlar bo‘lsa-da, biroq ularda ijtimoiy xavfli qilmish,

g‘ayriqonuniylik yoki jinoyat qonuni bilan jazolanadigan aybning yo‘qligi tufayli ushbu holatlarning jinoyatdan farqli tomonlari belgilab berilgan.

Qonunda keltirilgan qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar ta’rifi faqatgina to‘qqizinchi bobda ko‘rsatilgan asoslargagina emas, balki shunday alomatlarga ega bo‘lgan boshqa holatlarga ham daxldordir. Bular qatoriga jabrlanuvchining roziligi va o‘z huquqlarini amalga oshirishini kiritish mumkin. Bunday holatlar qonunga xilof bo‘lmagan, ya’ni qonun bilan taqiqlanmagan taqdirda ham qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarga kiradi.

Masalan, o‘zganing mulkini yashirin egallab olish, agar mulk egasining roziligi bilan olingan bo‘lsa, o‘g‘rilik deb topilmaydi. Ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlarini bir martalik jazolashlari, agar u sog‘liqqa zarar yetkazmagan va doimiy xususiyat kasb etmay, tarbiyaviy ta’sir chorasi bo‘lsa, jinoyat hisoblanmaydi.

Mazkur qilmishlar qonunga xilof hisoblanmaydi, chunki davlat mulk egasiga o‘z mulkini tasarruf etish, ota-onalarga esa oxirgi chora sifatida farzandlarini jismoniy jazolash orqali (ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazmagan holda) tarbiyalash huquqini beradi. Amaldagi qonunda jabrlanuvchining roziligi va o‘z huquqlarini amalga oshirishi qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar sifatida ko‘rsatib o‘tilmagan bo‘lsa-da, sud amaliyoti bunday holatlarni, agar ularda qonunga xiloflik alomatlari bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar qatoriga kiritadi.

Jinoyatlar tarkibi elementlari bo‘yicha qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar tahlilining ko‘rsatishicha, ular doimo biror-bir jinoyat belgisidan iborat va har doim ham subyektiv bo‘lavermaydi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat, subyektiv tomoniga ko‘ra, aybli va aybsiz bo‘lishi mumkin. Biroq, agar ular aybli hisoblangan taqdirda ham odatda ijtimoiy foydali maqsadi – kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavfni bartaraf qilish, jinoyatning oldini olish yoki jinoyatchini ushlash bilan ajralib turadi. Aynan shu ijtimoiy foydali maqsadlar orqali ayrim hollarda zarur bo‘lgan bunday qilmishlarning mohiyati fuqarolarning huquqlarini ta’minlashdan iborat bo‘lsa, sud qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar deb topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining to‘qqizinchi bobida qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarning quyidagi turlari ifodalangan:

1) kam ahamiyatli qilmishlar (36-m.);

2) zaruriy mudofaa (37-m.);

3) oxirgi zarurat (38-m.);

4) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish (39-m.);

5) buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish (40-m.);

6) kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik (41-m.).

Bu holatlarni mustaqil guruhlarga ajratish ularning yagona yuridik tabiati va vazifasi bilan bog‘liq, ya’ni jinoiy-huquqiy munosabatlar subyektlarining tashqi tomondan jinoyat sifatida ko‘ringan ijtimoiy foydali harakatlarini tartibga soladi.

## 2. Kam ahamiyatli qilmishlar

Qonunda kam ahamiyatli qilmishlarning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ziyon yetkazmaydigan asoslar keltiriladi. Jinoyat kodeksining 36-moddasida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlikning jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo‘yilgan. Boshqacha aytganda, biror-bir jinoyatning barcha alomatlari bo‘lsa-da, biroq ijtimoiy xavfi bo‘lmagan qilmish to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Agar bunday qilmishga rasmiy tomondan qaraladigan bo‘lsa, u Jinoyat kodeksi Maxsus qismining biror-bir moddasiga to‘g‘ri keladi, aslida esa kam ahamiyatli bo‘lgani uchun ijtimoiy xavfi yo‘qligidan qonunning o‘zi uning jinoiy javobgarligini istisno etib, jinoyat deb topmaydi. Qilmishning aynan shu kam ahamiyatli belgisi hisobga olinib, jinoiyligi va jazoga loyiqligi istisno etiladigan holatlar guruhiga kiritiladi.

Ijtimoiy xavflilik jinoyatning obyektiv belgisi sifatida namoyon bo‘lib, huquqbuzarning irodasiga bog‘liq bo‘ladi. U jinoyat tarkibining barcha belgilari majmui bilan bog‘liq. Jinoiy-huquqiy ijtimoiy xavflilik jinoyatning barcha salbiy xossalari va belgilari majmuini ifodalaydigan va o‘zida muhofaza ostiga olingan ijtimoiy munosabatlarga zarar (ziyon) yetkazishning aniq imkoniyatlarini ifoda etgan jamiyatga xilof muayyan obyektiv holatdir. Shuning uchun ijtimoiy xavflilik qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati, sodir etilgan qilmish va yetkazilgan ziyon, huquqbuzar subyektining shaxsi, shuningdek, ayb shakli, motivi va maqsadini hisobga olib belgilanadi.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi muayyan shaxsning harakati yoki harakatsizligi tufayli kelib chiqadi va uning aqli va irodasi bilan ifodalanadi. Biroq jinoyat huquqi normasi va huquqni qo‘llash organlariga nisbatan ijtimoiy xavflilik umumiy xususiyat kasb etadi. Bu o‘lchamda ijtimoiy xavflilik sifat va miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat bo‘lishi ham mumkin. Jinoyat kodeksining jazo tayinlashning umumiy asoslarini nazarda tutuvchi 54-moddasida ko‘rsatilgandek, «sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga oladi».

Ijtimoiy xavflilik xususiyati – bu qilmishning yo‘naltirilganlik ko‘rsatkichi, tajovuzning maqsadga qaratilganligi bo‘lib, uning qanday ijtimoiy munosabatga yo‘naltirilganligi va unga zarar yetkazishi yoki zarar yetkazishi mumkinligidan darak beradi. Bu ayni vaqtda tajovuz usuli, uning oqibatlari, ayb shakli, jinoyatning motivi va maqsadidir. Aniq qilmishning bu barcha belgilari majmui sodir etilgan jinoyat xususiyatining o‘lchami bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy xavflilik darajasi miqdor ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Demak, yetkazilgan zararning hajmi, badanga shikast yetkazish turi, o‘g‘irlangan narsalar miqdori, ayb xususiyati, jinoyat sodir etish bosqichlari, tajovuz motivlari va maqsadlarining xususiyatlari hamda boshqa belgilari

ijtimoiy xavflilik darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini hisobga olib, vakolatli organlarning xodimlari (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud) sodir etilgan qilmishning kam ahamiyatlilikka ega yoki ega emasligini aniqlaydi. Har qanday holatda ham qilmishning kam ahamiyatliligi, uning jinoiyligini istisno etadigan holat singari, ushbu guruhdagi boshqa holatlarga xos bo‘lgan bunday ijtimoiy foydali xossalarga ega bo‘lmasligi hisobga olinishi kerak.

Qilmishning kam ahamiyatliligida ham aybdorlik va qonunga xiloflik singari jinoyat belgilari saqlanib qoladi. Buni hisobga olish bilan sodir etilgan muayyan tajovuzning kam ahamiyatliligini belgilashda aybning motivi, maqsadi va shaklidan, qasd mavjudligida esa, uning yo‘nalishidan kelib chiqish zarur. Agar shaxs qo‘riqlanadigan obyektga tajovuz qilib, ishi o‘ngidan kelmay, o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan sabab bilan kam ahamiyatli zarar yetkazgan bo‘lsa, bu qilmish kam ahamiyatli deb topilishi mumkin emas. Bunda qasdning kam ahamiyatli qilmish (masalan, shaxsiy do‘kondan bir buxanka non o‘g‘irlash kabi) sodir etishga qaratilganligini aniqlash zarur.

Qilmishning kam ahamiyatliligining obyektiv va subyektiv belgilari aniqlanganida (ya’ni qo‘riqlanadigan obyektga arzimas zarar yetkazish va qasdning boshqacha emas, aynan shunday zarar yetkazishga qaratilganligi holatida) aybdor shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi kerak. Bunda uning shaxsiga oid belgilar (masalan, ilgari sudlanganligi, takroranlik, o‘ta xavfli retsidivist tamg‘asi va shu kabilar) hisobga olinishi mumkin emas, chunki ular qilmishning kvalifikatsiyasiga emas, balki jazoning hajmiga ta’sir qiladi.

Shunday qilib, qilmishning kam ahamiyatliligi uning jinoiyligini istisno etuvchi holat sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

– qonun shaxs sodir etgan qilmishining kam ahamiyatliligi, ijtimoiy xavfi bo‘lmaganligiga ko‘ra, uning jazoga loyiqligini istisno etib, jinoiy javobgarlikka tortmaydi;

– kam ahamiyatli qilmish sodir etish aybdorlik va huquqqa xiloflik kabi jinoyat belgilari bilan tavsiflanadi;

– qilmishning kam ahamiyatliligi jinoyatni istisno etuvchi boshqa holatlardan farq qiladi, qonuniy yoki ijtimoiy foydali hisoblanadi;

– qilmishning kam ahamiyatliligi uning barcha obyektiv va subyektiv belgilari majmuini tahlil etish natijasida aniqlanadi.

## 3. Zaruriy mudofaa

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida «har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega», deb belgilab qo‘yilgan.

Davlat fuqarolarning mazkur huquqlari himoyalanishini kafolatlaydi, biroq unga (davlatga) yordam olish uchun murojaat qilish imkoni bo‘lmay qolgan hollarda u fuqarolarga o‘zini faol mudofaa qilish huquqini beradi. Bu huquq zaruriy mudofaa instituti sifatida mustahkamlab qo‘yilgan.

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud

boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog‘ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi (JK 37-m.).

Zaruriy mudofaa – subyektiv huquq bo‘lib, har qanday fuqaro undan foydalanishi yoki voz kechishi mumkin. Biroq bu xizmat faoliyati jinoiy elementlarga qarshi kurash bilan shug‘ullanuvchi shaxslar uchun ayni vaqtda kasbiy burchdir, shuning uchun ular fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini faol himoya qilishdan bo‘yin tovlay olmaydilar, aks holda bu ular uchun jinoiy yoki o‘zga javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Zaruriy mudofaa huquqi fuqarolarga jinoyatchilikka qarshi mustaqil kurashish, bunda hatto hujum qilgan shaxsga kuch ishlatishdan ham qaytmaslik uchun keng imkoniyat yaratadi. Qonunning bunday imkoniyat berishi fuqarolarning jinoyatchilikka qarshi faol kurash olib borishlariga salmoqli hissa qo‘shadi va jinoyatchilikning oldini olish vositalaridan biri hisoblanadi. Fuqaroning hujumdan faol mudofaalanish huquqini bilgan jinoyatchi, asossiz ravishda qaqshatqich zarba olishdan cho‘chib, o‘z jinoiy niyatidan qaytishi mumkin.

Mudofaalanuvchining tajovuzchiga zarar yetkazish yo‘li bilan qilgan harakatining qonuniyligi to‘g‘risida darak beruvchi muhim holat hujum qiluvchi qilmishining jinoiyligi yoki qonunga xilofligi fakti hisoblanadi.

Jinoyat huquqi fani va sud amaliyoti tajovuz va undan himoyalanishga oid bir qator qoidalarni ishlab chiqqan bo‘lib, qilmishni zaruriy mudofaa deb kvalifikatsiya qilishda unga rioya qilish shart.

Tajovuzga taalluqli bo‘lgan shartlar tajovuzning huquqiy tabiatini, vaqt doirasi va haqiqiyligini tavsiflaydi. Himoyaga taalluqli shartlar uning ijtimoiy maqsadini, yo‘l qo‘yiladigan zararning chegarasi va bunday zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini tavsiflaydi. Faqat yuqorida zikr etilgan tajovuz va himoyaga oid sharoitlarning majmuasigina zaruriy mudofaaning huquqiyligini qayd etish uchun asos beradi[1].

Shunday qilib, agar tajovuz:

– qonunga xilof bo‘lganida (uning yuridik tabiati belgilanadi);

– mavjudligida (uning xavfliligi saqlanib turgan vaqt aniqlanadi);

– haqiqiyligida (qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektga qilingan tajovuzning haqiqiyligi aniqlanadi) zaruriy mudofaa qonuniy bo‘ladi.

Shuningdek, himoya zaruriy mudofaaning qonuniyligini asoslaydigan quyidagi shart-sharoitlar bilan tavsiflanishi kerak:

– ijtimoiy maqsad – mudofaalanuvchi yoki boshqa shaxs manfaatlari yoxud davlat, jamiyat manfaatlari himoyasi;

– faqat tajovuz qilgan shaxsga zarar yetkaziladi, uchinchi shaxsga zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

– himoya zarurat chegarasidan oshmasligi kerak.

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳлар. – Т., 1996. – 67-б.

1. *Qonunga xilof tajovuz deganda*, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, ya’ni g‘ayriqonuniy qilmish tushuniladi.

Demak, hujumda jinoyat alomatlari aks etgan bo‘lsagina tajovuz qiluvchiga zarar yetkazish mumkin. Bu talab Jinoyat kodeksi 37-moddasidagi zaruriy mudofaaga berilgan ta’rif va jinoyatning umumiy tushunchasidan (JK 14-m.) kelib chiqadi. Chunki qonunga xiloflik, ya’ni jinoyat qonuni bilan taqiqlanganlik uning asosiy belgisi hisoblanadi. Tajovuz nafaqat qonunga xilof, balki ijtimoiy xavfli ham bo‘lishi kerak, chunki qilmishning kam ahamiyatliligi uning ijtimoiy xavfliligi va jazoga loyiqligini istisno qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi qonunlarning sudlar tomonidan qo‘llanilishi haqida»gi 1996-yil 20-dekabr qarorida ham ijtimoiy xavflilikka aynan shunday ta’rif berilgan. «Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlar uni sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortilgan yoki ruhiy kasallik tufayli, jinoiy javobgarlikka yoshga to‘lmaganligi sababli va boshqa asoslarga ko‘ra, javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat’iy nazar Jinoyat kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalanishiga asos beruvchi ijtimoiy xavfli tajovuz deb hisoblanadi»[1].

Shunga ko‘ra, ijtimoiy xavflilik deganda, har qanday jinoiy va shu kabi, jinoiy bo‘lmagan qilmishlar tushuniladigan nuqtai nazarning xato ekanligini e’tirof etish kerak. Shuni nazarda tutish kerakki, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 18-moddasida ma’muriy tartibbuzarlikka nisbatan ham zaruriy mudofaaga yo‘l qo‘yiladi. Ma’muriy tartibbuzarlikka qarshi zaruriy mudofaa ham o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra ma’muriy-huquqiy maqomga ega bo‘lib, mayda bezoriga jismoniy zarar yetkazish belgisi ostiga tushadi. Masalan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 57-moddasi ham mayda bezoriga jismoniy zarar yetkazish, sog‘liqni izdan chiqarmagan holda badanga yengil shikast yetkazish belgisi bilan ta’riflanadi.

2. *Tajovuzning mavjudligi* – tajovuz qiluvchiga zarar yetkazib bo‘lsa ham faol qarshilik qilishga yo‘l qo‘yiladigan muayyan vaqt oralig‘i. Bu sharoit tajovuzning boshlanganligini va hali tamom bo‘lmaganligini bildiradi.

Yuridik fan va sud amaliyotida ayrim hollarda, agar haqiqiy xavf mavjud bo‘lib, tajovuzning boshlanishi juda qisqa vaqt oralig‘ida o‘tib ketmaganligidan darak bersa, tajovuzning mavjudligi tan olinadi.

Tajovuz qiluvchining harakatidan lahzaning bir ulushida ilgari harakat qilish qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishning yagona usulidir.

Ayni paytda, agar tajovuzchiga tajovuz tamom bo‘lganidan keyin zarar yetkazilgan bo‘lsa, biroq mudofaalanuvchi uchun ishning holatlari bo‘yicha bu ravshan bo‘lmasa ham yetkazilgan zarar zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb topiladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta’minlovchi

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 1. – Т., 2006. – 77-б.

qonunlarning sudlar tomonidan qo‘llanilishi haqida»gi 1996-yil 20-dekabr qarorida shunday tushuncha beriladi. «Zaruriy mudofaa holati faqatgina ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bergan paytning o‘zidagina emas, balki tajovuzning boshlanish xavfi mavjud bo‘lgan hollarda ham vujudga keladi. Zaruriy mudofaa holati tajovuz tugagandan so‘ng ham bo‘lishi mumkin, agar himoyalanuvchi ish holatlariga ko‘ra tajovuz tugagan vaqtni aniq anglay olmagan bo‘lsa»[1].

Agar tajovuz faqat tayyorlanayotgan yoki amalga oshirish rejasi tuzilayotgan bo‘lsa, uning mavjudligi istisno qilinadi. Bunday hollarda ilgaridan zarar yetkazish umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka olib keladi. Imkoniyatdagi (ehtimol tutilgan) deb ataladigan tajovuzlarda ham, agar himoya nazarda tutilgan va kelgusida sodir etilishi mumkin bo‘lgan hujumni hisobga olib amalga oshirilgan bo‘lsa ham zaruriy mudofaa deb hisoblanmaydi. Masalan, kartoshka ekilgan dalani o‘g‘rilardan himoya qilish uchun minalashtirish, bog‘dagi olmalarni o‘g‘irlanishdan saqlash maqsadida elektr tokini ulab qo‘yish va boshqalar, agar insonga shikast yetkazsa, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Ishning holatiga ko‘ra aniq, ya’ni tajovuz allaqachon tamom bo‘lgan, tajovuz qilganga nisbatan zo‘rlik ishlatishning zarurati bo‘lmagan holda (masalan, tajovuz qiluvchi o‘z qurbonini qoldirib, yashirinishga uringanida) tajovuz mavjud bo‘lmaydi. Bunday sharoitda zarar yetkazish sodir etilgan tajovuz uchun o‘ch olish deb baholanadi va umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Biroq ayrim o‘xshash hollarda mudofaalanuvchining harakati kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan jinoyat belgilariga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shu bois bunday qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun tajovuz (hujum) qilgan va mudofaalanuvchi harakatlarining xususiyatini sinchiklab tahlil qilish kerak.

3. *Tajovuzga daxldorlikning uchinchi muhim sharti uning haqiqiyligi*, ya’ni mavjud tajovuz mudofaalanuvchining tasavvurida emas, haqiqatan ham voqelikda ro‘y berganligi hisoblanadi. Sud amaliyotida xayoliy mudofaa deb ataladigan ko‘pgina hollar ma’lum bo‘lib, bunda shaxs voqelikda ro‘y bermagan tajovuzdan go‘yo mudofaalanadi.

Hujuming (tajovuzning) haqiqatan bo‘lganligini to‘g‘ri aniqlash uchun mudofaalanuvchining bo‘lib o‘tgan voqeani subyektiv idrok etish holatini tahlil etish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oliy sud Plenumining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qarorida quyidagi tushuncha berilgan: «Sudlar zaruriy mudofaa holatini aniq ijtimoiy xavfli tajovuz yuz bermasa-da, shaxsning yanglishib, shunday tajovuz qilishi mumkin, degan taxminiy holatlaridan farqlashlari kerak. Agar hodisa holatlariga ko‘ra, mudofaa choralarini qo‘llagan shaxs o‘zining yanglishganini bilmagan va bilish ham mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak.

Agar shaxs tajovuzning aslida yo‘q va xayoliyligini bila turib, ish holat-

[1] O‘sha joyda. – 77-b.

lariga ko‘ra ham uni albatta bilishi mumkin bo‘lgani holda zarar yetkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim»[1].

Sud amaliyotida shaxsning xayoliy mudofaalanishi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, asossiz ravishda zarar yetkazgan holatlar ham yo‘q emas. Bunday harakat ham yuqoridagi talablarga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi, ya’ni bunda shaxsning soxta mudofaa holatida bo‘lganligini anglab yetgan yoki yetmaganligini aniqlash zarur. Agar anglab yetmagan bo‘lsa, u soxta mudofaa holatida harakat qilib, uning chegarasidan chetga chiqqan bo‘ladi va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqanligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak. Shaxs tajovuzdan darak beruvchi hech qanday obyektiv ma’lumotlar yo‘qligini anglagan va tajovuz qilgan shaxsga zarar yetkazgan taqdirda, bunday shaxsning harakati qasddan qilingan jinoyat singari umumiy asoslarda kvalifikatsiya qilinadi.

Himoyaga taalluqli zaruriy mudofaaning qonuniylik shartlari quyidagilar.

*1. Hujumni qaytarish vaqtida zarar yetkazishning maqsadi* faqatgina mudofaalanuvchining shaxsi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda emas, balki boshqa shaxslar, davlat va jamiyatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini ham himoya qilishdir.

Ba’zi sudlar zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunni fuqarolar o‘zlariga qilingan tajovvuzga nisbatangina amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar. Vaholanki, zaruriy mudofaa to‘g‘risidagi qonunni qo‘llash davlat mulki, jamoat tartibi, boshqa fuqarolarning hayoti, sha’ni va qadr-qimmati, manfaatlarini tajovuzdan qo‘riqlashga ham oiddir[2].

Shaxsning zaruriy mudofaadan o‘ch olish uchun bahona sifatida (hujum qiluvchi badaniga shikast yetkazish yoki o‘ldirish, janjal qo‘zg‘ash va boshqa maqsadlarda) foydalanib, ig‘vo qilishi istisno etiladi. Bunday hollarda sodir etilgan qilmish umumiy asoslarga ko‘ra kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ayrim o‘rinlarda hujumga yo‘liqqan shaxslar, agar qochib qutulish, fuqarolar, hokimiyat vakillariga yordam so‘rab murojaat qilish yoki tajovuz qiluvchiga faol qarshilik ko‘rsatishning biror-bir o‘zga usulini tanlash imkoni bo‘lganida, faol himoyalanish huquqiga hojat yo‘q, deb xato fikr bildiriladi. Bunday nuqtai nazar, Jinoyat kodeksining 37-moddasining talablariga, shuningdek, xalqimiz ongida mustahkamlangan sha’n, qadr-qimmat, jasurlik, batartiblik kabi axloqiy tasavvurlarga ham mos kelmaydi.

2. Hujumni faol qarshilik ko‘rsatish yo‘li bilan qaytarganda zarar uchinchi shaxsning manfaatlariga emas, hujum qilgan shaxsga yetkazilishi kerak, chunki mudofaa qiluvchining maqsadi qo‘riqlanadigan manfaatlarni tajovuzdan himoya qilish hisoblanadi. Ko‘rib o‘tilayotgan qoidaning mavjudligi ana shu bilan asoslanadi. Tajovuz qiluvchi faqat jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Agar tajovuz hayvonlardan (it, sigir, ot va b.) foydalanish yo‘li bilan amalga

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991-2006. Т.1. – Т., 2006. – 79-б.

[2] Qarang: O‘sha joyda. – 76-b.

oshirilib, qarshilik ko‘rsatish jarayonida o‘ldirilsa, bunday qilmish, tajovuz (hujum) qilganga mulkiy zarar yetkazilgan zaruriy mudofaa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Bunday vaziyatda mudofaalanuvchining harakati, agar ular zaruriy mudofaa vaqtida zarar yetkazishning qonuniyligiga oid boshqa shartlarga mos kelsa, qonuniy hisoblanadi.

Hujum qiluvchiga yetkazilgan zararning xususiyati uning o‘limida, badaniga yetkazilgan har qanday shikastda, shuningdek, mulkiy zarar yetkazilishida ifodalanishi mumkin. Hujum qiluvchiga yetkazilgan zararni qonuniy deb topishda (ayniqsa, so‘z uni hayotdan mahrum qilish to‘g‘risida borayotgan bo‘lsa) tajovuzning xavflilik darajasidan kelib chiqish kerak. Tajovuz qanchalik xavfli bo‘lsa, uni qaytarish uchun yo‘l qo‘yiladigan qarshilik (daf etish) choralari shunchalik qattiq bo‘ladi. Agar hujum qiluvchi mudofaalanuvchini o‘ldirishni niyat qilib zo‘rlik ishlatgan bo‘lsa, uning o‘limiga olib keladigan holgacha himoyalanish mumkin. Bunda hujum qiluvchining niyatidan u tajovuz jarayonida qo‘llaydigan aniq harakatlari dalolat beradi. Hayotiy muhim a’zolariga chuqur jarohat yetkazish mudofaalanuvchini o‘ldirishga urinishdir. Boshqa unchalik xavfli bo‘lmagan harakatlar sodir etish o‘ldirishni istisno etadi, demak tajovuz qiluvchiga yetkaziladigan zarar o‘ldirish ehtimolini istisno etadi.

*3. Himoya zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmasligi kerak.* Qonunda tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topiladi (JK 37-m. 2-q.).

Ushbu ta’rifdan bir necha muhim qoidalar kelib chiqadi: a) himoyaning intensivligi tajovuzning xavfliligiga taxminan mos bo‘lishi kerak; b) himoya hujumning xavflilik darajasi bilan qayta aniqlanadi; d) himoya tajovuzning xususiyati va xavfliligiga yaqqol mos kelmagan hollardagina zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish bo‘ladi.

Bu holatlarni ko‘rib chiqamiz. *Birinchidan*, mudofaalanuvchi o‘zining himoyalanish harakatining jadalligini tajovuzning xavfi bilan o‘lchab ko‘rishi va himoyaning shunday chorasini tanlashi kerakki, u taxminan tajovuz qiluvchi tomonidan bo‘ladigan xavf-xatarga mos kelishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida tushuntirib berilishicha, «Sudlar zaruriy mudofaa alomatlari bor yoki yo‘qligi masalasini hal etishda himoyalanish va hujum vositalarini hisobga olishdan tashqari, tajovuzchi tomonidan himoyalanuvchiga tug‘dirilgan xavfning xarakteri, himoyaning kuchi va tajovuzni qaytarish imkoniyatlari, shuningdek, hujum va himoyalanuvchining kuchi nisbatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ishdagi barcha holatlarni (hujum qiluvchi va himoyalanuvchilarning soni, ularning yoshi, jismoniy quvvati, quroli, joy, vaqt va boshqalar) hisobga olishlari zarur. Agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko‘rishga haqli »[1].

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991-

Mudofaalanuvchining to‘satdan qilingan tajovuzdan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo‘lganligi tufayli hujumni qaytarish vaqtida xavfning xususiyatini aniq belgilamagani va himoya vositasining mos hajmini to‘g‘ri tanlab olmaganligini ham e’tiborga olish zarur.

Shuning uchun mudofaalanuvchining harakati, agar bunday holda yetkazilgan zarar bartaraf etilgan zarardan katta bo‘lsa va bartaraf etilgan zarar hujumni bartaraf etish uchun yetarli bo‘lsa, agar bunda himoyaning xususiyati va tajovuzning yaqqol nomuvofiqligiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan deb qaralishi mumkin emas.

*Ikkinchidan*, mudofaalanuvchi himoya usullari va vositalarini tanlash vaqtida mutlaqo erkin harakat qila olmaydi, ularni hujumning xavflilik darajasi doirasida tanlab olishi kerak. U ega bo‘lgan nisbiy erkinlik doimo tajovuz qiluvchining harakatidan kelib chiqadigan xavfning chegarasi bilan cheklangan. Demak, tajovuz qiluvchi mushti bilan yuzga zarb beradigan bo‘lsa, himoyalanuvchi himoya vositasini tanlashda bo‘lgani kabi, uning intensivligini tanlashi ham cheklangan. Bu esa uning yanada qat’iy harakat qilishi, badanga yetkazgan o‘rtacha shikastidan ko‘proq shikast yetkazishini cheklash demakdir. Agar himoya choralari ko‘rsatilgan chegaradan chetga chiqadigan bo‘lsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish qayd etiladi. Bunda tajovuzni qaytarish (daf etish) vaqtida biror-bir vositadan foydalanganlik yoki ulardan foydalanishda qonun doirasidan chetga chiqilganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Bu va boshqa hollarda ham himoyada zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yish tegishli yuridik oqibatga olib keladi. Shu sababli, himoyalanish harakatlarining hujumdagi kabi, biroq undan samaraliroq bo‘lmagan qurol bilan amalga oshirilishiga oid biror-bir shart qo‘yilmasligi adolatlidir. Shu bois sud amaliyotida musht bilan tajovuz qilinganida – toshdan, qurolsiz hujumda – bolta yoki pichoqdan foydalanish, belkurak, arra bilan hujum qilinganida – ov miltig‘i bilan, pichoq bilan, hatto qurolsiz hujumda to‘pponcha bilan himoyalanish qonuniy deb topiladi.

Hujum va himoyalanish quroli bir-biriga muvofiq kelishi yoki kelmasligidan qat’i nazar, ishning qolgan boshqa holatlarini hisobga olmasdan himoyalanish harakatlarining qonuniyligi yoki noqonuniyligini aniqlash mumkin emas[1].

Shunday qilib, hujumning qanday qurol yoki vosita bilan qaytarilgani emas, balki tajovuzning xavflilik doirasidan chetga chiqqan yoki chiqmaganligini bilish muhimdir. Himoya quroli va vositasi o‘z-o‘zidan tajovuzda hujumni qaytarish yoki tajovuz sodir etishning obyektiv imkoniyatlaridan darak beradi. Himoya yoxud hujumning xususiyati, uning shaxsga nisbatan xavflilik darajasi hujum qiluvchi va mudofaalanuvchini aniqlaydi. Xuddi shu yerda tajovuz bilan himoya o‘rtasidagi o‘zaro aloqa chegaralari bo‘ladi. Birining irodasi muayyan darajadagi tajovuzni, boshqasining irodasi unga muayyan zarba berish intensivligini keltirib chiqaradi.

---

2006. T.1. – T., 2006. – 77-б.

[1] Qarang: Курс уголовного права. Т. 1. – ЛГУ, 1968. – С. 481.

Himoyaning intensivligi tajovuzning xavfliligidan kelib chiqadigan va uning chegarasi hisoblangan shunday chora bilan belgilanishi kerak. Bundan tashqari, himoyaning intensivligi hujumni qaytarish vaqtida qo‘llanilgan qurol va vositalarning obyektiv xossalari bilan emas, balki haqiqiy yetkazilgan ziyon bilan belgilanishi lozim.

Adabiyotda himoya qurollari va ulardan foydalanish usullari ahamiyatga egami, degan fikrlarga hujum quroli va himoya qurollarining keskin farqlanishi, ya’ni ular mudofaalanuvchining qo‘liga tasodifan tushib qolganmi yoki ilgaridan tayyorlab qo‘yilganmi, ular uy-ro‘zg‘or – xo‘jalikka taalluqlimi yoki tirik odamga zarar yetkazish uchun mo‘ljallanganmi, himoya vaqtida qurol qanday qo‘llanilgan, ulardan hujum qiluvchini faqat qo‘rqitish uchun foydalansa bo‘lmasmidi yoki unga zarar yetkazish zarurmidi, kabi jihatlar o‘rganiladi[1]. Hujumdan himoyalanishning o‘lchamlarini belgilashga bunday yondashuv ko‘pincha boks tushiladigan ringni eslatadi. Bunda ikki raqib maydonga tushiriladi va ularning vazn kategoriyalari bir xil bo‘lishi shart emas, biroq jangda yutib chiqish ulardan faqat mushtlashuvni istaganiga emas, balki hatto uni hozir ura boshlaganini tushunib yetmagan shaxs foydasiga hal bo‘lishi muqarrar. Haqiqiy hayot ring emas va unda harakatlanuvchi shaxs ko‘pincha tor doiradagi sarob ko‘rsatkichlar ta’siri doirasiga tushib qoladi. Haqiqiy hayotda hujumni qaytaruvchi shaxs yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan har qanday vositalar bilan himoyalanish huquqiga ega bo‘lishi hamda faqat zaruriy mudofaa chegarasidan oshkora chetga chiqmasligi kerak. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha asoslar tajovuzning xavflilik chegarasini aniqlash uchun hech narsa bermaydi.

Bu omillar faqatgina himoya qurolining qo‘lga tasodifan tushib qolganligidan (shaxs hujumdan qo‘rqqani bois, ular ilgaridan tayyorlangan va o‘ylab ko‘rsa, to‘g‘ri qo‘rqqanligidan) darak berishi mumkin. Qurol maishiy yoki xo‘jalikka taalluqli emas, balki tirik kuchga zarar yetkazishga mo‘ljallangan (nima uchun hujumni qonuniy olingan qurol yordamida qaytarish mumkin emas?). Himoya quroli yo‘l qo‘yiladigan doirada har qanday usulda qo‘llanilishi mumkin (agar zaruriy mudofaa chegarasidan chiqilmasa, himoya qurolini qo‘llashning yo‘l qo‘yiladigan va yo‘l qo‘yilmaydigan usullari qonunning qayerida ko‘rsatilgan?). Faqat birgina omil hujumni qaytarish vaqtida zarar yetkazishning yo‘l qo‘yiladigan chegaralarini aniqlash imkonini beradi. Bu ham bo‘lsa, qurolni himoya vaqtida ishlatish mumkinmi yoki undan faqat qo‘rqitish maqsadida foydalanishning o‘zi kifoya qiladimi degan savolga javob topishdir.

Biroq bu himoya qurolining dahshatli ko‘rinishidan emas, balki tajovuzning agressivligi va xavflilik darajasidan kelib chiqib aniqlanadi. Demak, agar qurolsizning tajovuzini hatto qurol bilan po‘pisa qilib bo‘lsa ham to‘xtatishning iloji bo‘lmaganida, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqmagan holda bu qurol bilan zarar yetkazishni qonuniy deb topish kerak.

Shunday qilib, himoya tajovuzning xavflilik darajasini aniqlaydi va uning doirasidan kelib chiqishi kerak. Mudofaalanuvchi shaxs himoya vositalari va

---

[1] Qarang: Уголовное право. Общая часть. – М., 1997. – С. 377.

qurollarini ko‘rsatilgan doirada tanlashda erkin bo‘lishi kerak.

*Uchinchidan*, Agar himoyalanuvchi to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqsa, ayblanuvchining harakati Jinoyat kodeksining 100 yoki 107-moddalari bilan tavsiflanishi kerak[1].

Tajovuz qiluvchiga yo‘l qo‘yiladigan doiralardan yaqqol chetga chiqib zarar yetkazishni aniqlash uchun muayyan holatda himoya choralari oqlab bo‘lmaydigan darajada qattiqligi va bu ularni qo‘llash jarayonida mudofaalanuvchi kabi boshqa shaxslarga ham tushunarli bo‘lganligini, bu tajovuz bilan bog‘liq bo‘lmagan oqibatni keltirib chiqarganligini aniqlash zarur. Demak, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish – himoya va tajovuzning o‘zaro ta’sirini tavsiflaydigan shunday holatki, bunda mudofaalanuvchi o‘z himoya harakatlarining haddan tashqari intensivligini anglab yetadi va u tajovuzning xavfliligini keltirib chiqmaganligini bildiradi. Shuningdek, himoyalanuvchi tajovuzni birmuncha yengil choralar bilan ham bartaraf etishi mumkinligini anglab yetadi, biroq u bunday qilishni istamaydi.

Tajovuz qiluvchiga yo‘l qo‘yilgan chegaradan chetga chiqib zarar yetkazishning moddiy ifodasi aynan tajovuzning xavfliligini keltirib chiqarmaydigan oqibat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining fuqaro K. ishi bo‘yicha chiqargan qarori bunga yaqqol misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. U dastlab qasddan odam o‘ldirganligi uchun hukm qilingan, keyinchalik uning harakatlari zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o‘ldirish (JK 100-m.) sifatida qayta kvalifikatsiya qilingan. K. xonadoniga bostirib kirgan va bolg‘a bilan o‘ldirishni aytib po‘pisa qilgan M.ning hujumidan himoyalana turib, hujum qiluvchidan bolg‘ani tortib olgan va uning boshiga bir necha bor urgan, natijada hujum qilgan M. o‘lgan. Bu yerda zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqish yaqqol ko‘rinib turgan holat – K.ning xonadoniga bostirib kirgan M.ning yiqilib tushishi hisoblangan. Uy egasi bundan foydalangan va M.ning qo‘lidan bolg‘ani tortib olib, uning boshiga bir necha bor urganda ortiqcha harakat qilgan va buni K. ning o‘zi ham yaxshi bilgan[2].

Shunday qilib, ijtimoiy xavfli tajovuzni qaytarish vaqtida zarar yetkazishning yo‘l qo‘yiladigan chegaralaridan chetga chiqish intellektual (aqliy) va moddiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Sub’yekt hujumni qaytarish uchun zarur bo‘lgan himoyalanish chorasi doirasidan chetga chiqayotganligini biladi va uni istaydi yoki zarurat bo‘lmagan holda, bila turib zararning kelib chiqishiga yo‘l qo‘yadi.

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Ижтимоий хавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларни Судлар томонидан қўлланиши ҳақида»ги 39-сонли 1996 йил 20 декабрь қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 1. – Т., 2006. – 79-б.

[2] Ўзбекистон ССР Олий суди Пленумининг ахборотномаси. – 1989. – № 2. –85-б.

Ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish vaqtida tajovuz qiluvchiga ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin emas[1].

Binobarin, qasddan qilingan harakat natijasida yuqorida aytib o‘tilgan oqibatlar kelib chiqishi kerak. Modomiki jinoiy qilmishdan himoyalanishda ehtiyotsizlik tufayli tajovuzchiga zarar yetkazilsa, jinoiy javobgarlik nazarda tutilmaydi. Mazkur holatlarda aybning shaklini aniqlash muammosini uning intellektual belgisiga ko‘ra hal etish lozim. Uning mazmunini shaxs sodir etgan jinoiy qilmishining haqiqiy xususiyatini, ijtimoiy mohiyatini anglashi, o‘zining xulq-atvori natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatga ko‘zi yetish qobiliyati, shuningdek, subyekt o‘z faoliyati davomida xulq-atvorning aniq bir variantini tanlash orqali tartibga solinishida namoyon bo‘ladigan aybning irodaviy belgisini tushunib yetishlari tashkil qiladi.

Chunonchi, agar himoyalanuvchi shaxs tekis joyda hujum qilayotgan shaxsni turtib yuborsa va u shu turtish natijasida yiqilib, boshi toshga tegib o‘lsa, bunday harakat ehtiyotsizlik natijasida bo‘ladi. Bu holatda oqibatga nisbatan ayb shaklining ehtiyotsizlik turi mavjud bo‘ladi. Buni sodir etilgan qilmish holatini o‘rganish orqali aniqlash mumkin.

Shundan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelsak bo‘ladi. Birinchidan, shaxs jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lishi bilan birga, o‘zining huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilgan, ya’ni unga zarar yetish xavfi mavjud edi. Ikkinchidan, himoyalanuvchi shaxs hujum qiluvchini turtayotib o‘z qilmishi oqibatining ijtimoiy xavfliligini anglamagan. Uchinchidan, u ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishini istamagan. Shu bilan birga, ko‘rsatib o‘tilgan holatda hujumning to‘satdan paydo bo‘lishini inobatga olgan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, shaxs qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishiga ko‘zi yetishi mumkin va kerak edi. Bunda to‘satdan hujum qilish omili asosiy elementlardan biri bo‘lib, u shunday holatda ijtimoiy munosabatlarga ehtiyotsizlik orqali zarar yetkazish imkonini beradi.

Zaruriy mudofaa – shaxs, davlat yoki jamiyat manfaatlarini himoya qilish vaqtida, agar zarurat doirasidan chetga chiqish bo‘lmasa, tajovuz qiluvchiga qonuniy zarar yetkazish. Zaruriy mudofaa ijtimoiy foydali qilmish singari tavsiflanadigan barcha shartlar bajarilganida, jinoyat va jazoga loyiqlik istisno etilganida qonuniydir. Zaruriy mudofaa har bir kishining subyektiv huquqi hisoblanadi va shuning uchun shaxs mudofaalanishi kerakmi yoki yo‘qmi, degan masala yakka tartibda hal etiladi, u sud tomonidan munozaraga sabab bo‘lishi mumkin emas.

## 4. Oxirgi zarurat

Oxirgi zarurat deganda, ijtimoiy yoki muhim shaxsiy manfaatlarga aniq tahdid soluvchi xavfni zarar yetkazish yo‘li bilan bartaraf etishga oid istisnoli holat tushuniladi. Oxirgi zarurat holati bir manfaatni qutqarib, ikkinchisini

[1] O‘sha manba. – 118-b.

qurbon qilish bilan vujudga keladi. Jinoyat kodeksining 38-moddasida ta’kidlanishicha, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish jinoyat deb topilmaydi. Ya’ni bunda shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmaydi hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘ladi (JK 38-m. 1-q.). Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmish, agar oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, qonuniy deb topiladi (JK 38-m. 2-q.).

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan xatti-harakat jinoyatning asosiy belgisi – ijtimoiy xavflilikni o‘zida mujassam etmaydi. Aksincha, muhim shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ta’minlashga intilib, oxirgi zarurat holatida harakat qiluvchi shaxs ijtimoiy foydali maqsadni ko‘zda tutadi yoki ushbu holatda faqat zarar yetkazish yo‘li bilangina kelib chiqishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatdan qutulishga intiladi, biroq bunda keltirilgan zarar, oldi olingan zarardan kamroq bo‘lishi kerak.

Oxirgi zarurat holatida shaxs qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa manfaatlarni himoya qilish maqsadida qonun bilan qo‘riqlanadigan munosabatlarga qasddan ziyon yetkazadigan vaziyat yuzaga keladi. Jinoyat huquqi fani tahdid qiluvchi xavfning oldini olish bo‘yicha sodir etilgan qilmishning qonuniyligi yoki qonunga xilofligiga oid yuridik nuqtai nazardan murakkab bo‘lgan masalani kvalifikatsiya qilishda baholash mezonini ishlab chiqdi. Unga rioya qilinganida qilmish qonuniy deb topiladi. Baholash mezoni quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

1) tahdid qiluvchi xavfga tegishli oxirgi zaruratning qonuniylik shartlari;

2) tahdid qiluvchi xavfni bartaraf qilishda oxirgi zarurat harakatlariga tegishli qonuniylik shartlari.

Tahdid qiluvchi xavfga tegishli oxirgi zaruratning qonuniyligi o‘zida bir necha shartlarni mujassamlashtiradi.

*Birinchidan*, qonun bilan qo‘riqlanadigan munosabatlarga xavf inson yoki hayvonlarning xatti-harakati, avariyalar, halokatlar sifatidagi tabiatning ofat yetkazuvchi kuchlari natijasida yuzaga keladi.

Insonning o‘ylamay qilgan harakati oxirgi zarurat vaziyatini vujudga keltirishi mumkin. Masalan: olov bilan ehtiyotsiz munosabatda bo‘lish, yong‘in keltirib chiqarishi mumkin, uni o‘chirish vaqtida olov manbaiga yorib kirish uchun qo‘shnining eshigi sindiriladi; hayvonot bog‘i qarovchisining ehtiyotsizligi sherning qafasdan chiqib ketishiga sabab bo‘lgan, odamlar qurbon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun militsiya xodimlari hayvonni otishga majbur bo‘ladilar; kutilmaganda yo‘lning piyodalar o‘tish qismiga mast yo‘lovchining chiqib qolishi, avtobus haydovchisining to‘satdan qattiq tormoz berishiga sabab bo‘ladi va buning oqibatida bir yo‘lovchi qulab tushib, o‘rtacha darajada shikastlanadi va h. k.

Xavfni hayvonlar ham vujudga keltirishi mumkin (zanjiridan uzilib ketgan it odamga tashlanadi, jabrlanuvchini qutqarish uchun uni o‘ldirishga to‘g‘ri keladi).

Tabiatning ofatlari ham xavf manbai bo‘lishi mumkin. Masalan: sel oqimini to‘sib qoluvchi tuproqdan qilingan to‘g‘on (to‘siq)ning yorig‘ini berkitish uchun bir qancha yo‘l texnikasini jalb qilishga to‘g‘ri keladi va bu quruvchilar posyolkasini suv bosishi va vayron bo‘lishdan saqlab qoladi; limmo-lim to‘lgan suv ombori urib ketishining oldini olish va shaharlarni suv bosishdan saqlab qolish uchun ortiqcha suvni zudlik bilan tashlab (oqizib) yuborishga to‘g‘ri keladi, bu esa ko‘plab baliqlarning nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi; yer qimirlashi oqibatida gaz quvurlarining yorilishi ekologik falokat yuz berishi xavfini tug‘diradi, gazni o‘chirib qo‘yish issiqlik elektr stansiyasining bevaqt to‘xtab qolishiga olib keladi, natijada davlat ko‘p miqdorda zarar ko‘radi.

Turli xil texnogen avariyalar va holatlar ham xavf manbai bo‘lishi mumkin (temir yo‘l avariyasi suyuq xlorli sisternalarning yorilishiga olib keladi. Bu vaziyatda aholining ommaviy zaharlanishini bartaraf etish uchun ularni zudlik bilan evakuatsiya qilish hamda posyolkadagi barcha korxonalarni to‘xtatish talab qilinadi, bu esa katta zarar keltiradi).

Xavf manbai boshqa, masalan, kasalliklar, inson tushib qoladigan har xil favqulodda sharoitlar, ochlik, tashnalik kabi jismoniy seziladigan holatlar ham bo‘lishi mumkin.

«Huquq bilan muhofaza etiladigan manfaatlarga xavf tug‘diradigan har qanday predmet, buyum, hodisa, xulq-atvor va boshqalar tufayli vujudga keladigan xavfni xavf manbai deb baholash lozim»[1].

*Ikkinchidan*, xavf mavjud va real voqelikda bo‘lishi kerak.

Xavf qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish tahdidi allaqachon boshlangan va faqat zudlik bilan qilingan harakat uni bartaraf etish mumkin bo‘lgan hollarda yuzaga keladi. Bunda tahdid soluvchi xavf tasavvur qilinadigan, soxta emas, balki haqiqiy bo‘lishi kerak.

Shaxsning xavf qarshisida o‘zini yo‘qotib qo‘yishi subyektiv tomon – aybning mavjudligidan kelib chiqib kvalifikatsiya qilinadi. Agar u xavfning yo‘qligini bilish imkoniyatiga ega va unga majbur bo‘lsa, shaxs ehtiyotsiz harakati uchun javobgarlikka tortilishi kerak, aybi bo‘lmaganida javobgarlik ham o‘z-o‘zidan istisno etiladi.

*Uchinchidan*, tahdid qilayotgan xavfni boshqa vositalar bilan bartaraf etishning iloji bo‘lmasa, qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish, biroq ozroq zarar evaziga amalga oshiriladi.

Bu tartib manfaatlarga tahdid solayotgan xavf bartaraf etilganiga qaraganda teng yoki ko‘proq darajada zarar yetkazishga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlaydi. Agar shaxsda yordamga chaqirish, qochib qutulish, zarar yetkazmay xavfni bartaraf etish imkoni bo‘lsa-yu, u o‘zi uchun ancha oddiy bo‘lgan usulni qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish yo‘li bilan zararni yo‘qotishni tanlasa, sodir etilgan harakat jinoiy jazoga loyiq deb baholanadi.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси: илмий-амалий шарҳлар. – Т., 1997. – 69-б.

Tahdid solayotgan xavfni yo‘qotish harakatlariga taalluqli bo‘lgan oxirgi zaruratning qonuniylik shartlari quyidagilar:

1) shaxs, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan har qanday manfaatlari, ya’ni hayot, sog‘liq, mulk, jamoat tartibi, ijtimoiy xavfsizlik, huquqiy tartib, ekologiya, davlatning iqtisodiy resurslari kabilar himoya qilinadi.

Bu shartlar shaxs harakatini tahdid solayotgan xavfni bartaraf qilishga ijtimoiy foydali yo‘naltirilganligini aks ettiradi va uning jinoiyligi va jazoga loyiqligini istisno etadi. Shunga ko‘ra, bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan pushaymon bo‘lish harakati, masalan, odamning o‘limi bilan bog‘liq bo‘lsa, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakat kabi baholanishi mumkin emas, chunki bunda aybdorning o‘zi jabrlanuvchini hayot uchun xavfli holatga qo‘ygan bo‘ladi;

2) tahdid solayotgan xavfni bartaraf etish jarayonida zarar har doim uchinchi shaxs manfaatlariga yetkaziladi. Bunda shaxs xavfni bartaraf eta turib, vujudga kelgan xavfni yo‘qotish uchun himoya vositasini tanlaydi, biroq boshqa shaxsning manfaatlariga zarar yetkazadi. Shaxsiy manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat sifatida baholanmaydi, chunki shaxs o‘z bilganicha ish tutish huquqiga ega. Biroq xavfni bartaraf etish harakatlari natijasida kelib chiqqan zararni talab qilishga haqli;

3) keltirilgan zarar bartaraf etilgan xavfdan, ya’ni oldi olingan zarardan ancha kam bo‘lishi kerak. Unga ko‘ra, keltirilgan va oldi olingan zarar hajmi baholanganida, har bir kishi uchun shubhasiz birinchisi ikkinchisidan kamroq bahoga ega bo‘lishi kerak;

4) tahdid solayotgan xavfni bartaraf etish harakatlari oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqmasligi kerak. Jinoyat qonuni, agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo‘lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazishni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topadi (JK 38 m. 3-q.).

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishni aniqlashda obyektiv va subyektiv mezonlardan kelib chiqish kerak. Obyektiv mezonlar boshqa vositalar bilan tahdid qilgan xavfning oldini olish mumkinmidi, keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketadimi, degan masalalarni aniqlash imkonini beradi. Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning obyektiv alomatlari (belgilari)ni baholashda oldi olinadigan xavfning xususiyati va darajasi, aniqligi va kelib chiqishiga yaqin qolganligi, uni bartaraf etadigan shaxsning haqiqiy imkoniyatlari, uning yuzaga kelgan murakkab holat va ishning boshqa holatlariga ko‘ra ruhiy ahvoli hisobga olinishi kerak.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning subyektiv mezoni shaxs oldi olingan zararga teng yoki unga qaraganda ortiqroq zarar yetkazish imkoniyatini anglab yetgan va shuni istagan holda bunday oqibatning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ygani yoki unga befarq munosabatda bo‘lganidan dalolat beradi. Mazkur obyektiv va subyektiv belgilar oxirgi zarurat chegarasidan

chetga chiqish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Agar shaxs tahdid qilgan xavfning oldini olish uchun barcha mavjud usul va vositalarni qo‘llasa ham, uning oldini olishning uddasidan chiqa olmagan holat qonun bilan tartibga solinmagan. Ma’lumki, bunday holatlar oxirgi zaruratning qonuniyligi yoki qonunga xilofligi nuqtai nazaridan baholanishi kerak. Agar shaxs oxirgi zaruratning barcha qonuniy shartlarini bajarib harakat qilgan, biroq obyektiv sabablarga ko‘ra qo‘llagan chora-tadbirlari tahdid qilgan xavfning oldini olish uchun yetarli bo‘lmagan hollardagi harakatni qonuniy deb topish kerak.

Oxirgi zarurat holatida kelib chiqqan zarar uni yetkazgan shaxs zimmasiga yuklatiladi. Biroq sud regress davo tartibida tahdid qilayotgan xavfning bartaraf etilganini ko‘zda tutib, moddiy zararni qoplashni uchinchi shaxs zimmasiga yuklashi ham mumkin.

Oxirgi zarurat o‘zining quyidagi belgilariga ko‘ra zaruriy mudofaadan farq qiladi:

1) zaruriy mudofaada xavf manbai inson, oxirgi zaruratda esa inson bilan birga tabiatning bebosh kuchlari, hayvonlar, texnogen halokatlar, avariyalar va boshqalar hisoblanadi;

2) zaruriy mudofaada keltiriladigan zarar oldi olinganiga teng, hatto undan bir necha bor ko‘p bo‘lishi mumkin, oxirgi zarurat vaqtida u har doim ancha kam bo‘lishi kerak;

3) zaruriy mudofaada shaxs oxirgi zaruratda bo‘lgan shartlarni bajarmasa va tajovuzning oldini olmagan taqdirda ham bunday mudofaa qonuniy hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsning jismoniy yoki ruhiy majburlov ostida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi, biroq aybni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi (JK 55 m. «e» b.).

## 5. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida unga zarar yetkazish qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar qatoriga kiradi (JK 39-m.).

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo‘lgan choralarning chegarasidan chetga chiqmagan bo‘lsa, jinoyat hisoblanmaydi (JK 39-m. 1-q.).

Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ushlanishi kerak bo‘lgan shaxslar faqat jinoyat subyektlari hisoblangan shaxslar doirasi bilan cheklanmagan. Bu doira keng va unga jamiyat uchun ijtimoiy xavfli qilmish sodir etadigan voyaga yetmaganlar va aqli norasolar kiradi, agar ular jamiyat uchun xavf tug‘dirsa.

Qonundan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushlash huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi ham cheklanmagan. Bu har qanday fuqaroning huquqi, hokimiyat vakillarining esa xizmat burchidir. Jabrlanuvchi ham ushlash

huquqiga ega.

Ijtimoiy qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishga yo‘l qo‘yish javobgarlikning muqarrarligi va qonuniyligi, aybdorning qonun bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga yangidan tajovuz qilishining oldini olish, fuqarolarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga erishish prinsiplarini uzluksiz hayotga joriy etishning sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish, agar ushlash vaqtida muayyan shartlar bajarilgan bo‘lsa, davlat tomonidan ijtimoiy foydali va hatto zarur deb topiladi. Bu shartlar ushlashning qonuniyligi va asoslanganligini belgilab beradi hamda qilmishni amalga oshiradigan shaxsning harakat qilish tartiblarini tavsiflaydi.

Shuni esda tutish kerakki, qonunda ushlash vaqtida zarar yetkazish haqida so‘z yuritilar ekan, bunda ushlanadigan shaxsga yetkaziladigan zarar jinoyat tarkibi belgilari ostiga tushadi. Biroq yetkazilgan zarar ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilgan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, ushlaydigan shaxsning harakatlari qonuniy deb topiladi.

1. Jinoyat-protsessual qonunchilik asoslariga ko‘ra, ushlanadigan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi, ushlash uchun asos hisoblanadi. Ma’lumki, ushlash uchun asos jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyatga qasd qilish paytidan kelib chiqadi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va qasd qilish jinoiy-huquqiy ma’noda ijtimoiy xavfli hisoblanadi va jazoga loyiqdir. Chunki u ijtimoiy qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi 39-moddasining 1-qismi talablariga mos keladi.

Bu shartning muhimligi shundaki, ushlanadigan shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi unga nisbatan yo‘l qo‘yiladigan zarar chegaralarini oldindan aniqlab beradi.

2. Jinoyat sodir qilgan shaxs odil sudlov oldida javob berishni hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tushishni istamaydi yoki undan bo‘yin tovlaydi. Shaxs qamoqdan yoki qo‘riqlov ostidagi saqlash joylaridan qochgan taqdirda, uning harakatida Jinoyat kodeksining 222-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi yaqqol ko‘rinib tursa-da, u bunday shaxslarni ushlash vaqtida zarar yetkazishga asos beradi.

Bu shartlar ushlayotgan shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan subyektga majbur bo‘lganligi uchun zarar yetkazganligidan darak beradi.

3. Ushlash vaqtida zarar yetkazish faqat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan yo‘l qo‘yiladi. Uchinchi shaxsga zarar yetkazishga, agar bu oxirgi zarurat holati deb topilmasa, yo‘l qo‘yilmaydi va ehtiyotsizlik orqali jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Sud amaliyotining ko‘rsatishicha, shunday hollar ham bo‘ladiki, shaxsni ushlash vaqtida xatolik tufayli jinoyatchi deb o‘ylab, uchinchi shaxsga zarar yetkaziladi. Bunday vaziyatda ushbu xatoga yo‘l qo‘ygan shaxs harakatining subyektiv tomoni birma-bir, sinchiklab o‘rganilishi kerak. Ma’lumki, faktik xatoliklarda qilmishni kvalifikatsiya qilish subyektiv tomondan amalga oshiriladi. Shaxs xato qilayotganligini bilgan bo‘lsa, bu qasddan qilingan jinoyat, agar o‘z

xatosini anglamagan, unga ko‘zi yetmagan va yetishi ham mumkin bo‘lmagan taqdirda – «soxta ushlash» vaqtida aybsiz zarar yetkazish mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Ushbu shartlar yetkaziladigan zararning yo‘naltirilganligini kafolatlaydi va shu tarzda Jinoyat kodeksi 39-moddasining maqsadiga erishiladi.

4. Boshqa usul bilan ushlashning iloji yo‘qligi oxirgi zaruratni qo‘llab, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsga zarar yetkazishni shart qilib qo‘yadi. Bunda ushlash jarayonida zarar yetkazishni istisno etuvchi barcha usullardan foydalaniladi. Biroq, agar shaxs qarshilik ko‘rsatsa, yashirinishga urinsa, qurol bilan tahdid qilsa yoki o‘zining ushlanishi va hokimiyat organlariga tutib berilishiga to‘sqinlik qiluvchi boshqa usullardan foydalansa, zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan zo‘rlik ishlatilishi mumkin. Bu shart oxirgi zaruratsiz zarar yetkazishning istisno etilishini nazarda tutadi.

5. Jinoyat qonuni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida uni ushlash choralari chegarasidan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmasligi kerakligini belgilaydi.

Ushlash vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek, ushlash sharoitiga butunlay mos kelmaydigan, ushlash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushlash choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi (JK 39-m. 2-q.).

Shaxsni ushlash vaqtda zarur choralar chegarasidan chetga chiqishning mavjudligi yoki yo‘qligiga oid masalani hal etish vaqtida zarar yetkazishning belgilangan yo‘l qo‘yish chegaralari prinsipidan kelib chiqish kerak. Ilgari ta’kidlanganidek, shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish darajasi doimo ana shunday chegara bo‘ladi. Biroq bu har qanday ushlash, zarar yetkazish bilan amalga oshiriladi, degani emas.

Ijtimoiy qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning qonuniyligi shaxsning hokimiyat organlariga bo‘ysunishni istamayotganidan dalolat beruvchi xulq-atvori, ushlanayotgan shaxsning kuch va imkoniyati, ruhiy holati va ushlash fakti bilan bog‘liq boshqa holatlarga ko‘ra baholanadi.

Qonunning o‘zida ham ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zaruriy choralar chegarasidan chetga chiqish, ushlash vositalari va usullarida yaqqol nomuvofiqlikni ko‘rish mumkin. Masalan:

1) qilmishning xavfliligi;

2) qilmishni sodir etgan shaxsning xavfliligi;

3) ushlash holati.

Birinchi ikki holatda ushlash vositalari va usullari qilmish va uni sodir etgan shaxsning xavfliligiga mos kelmasligi. Chunki ushbu vaziyatda, masalan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs qochishga uringan, biroq qoqilib, yiqilib tushganda unga zarar yetkazishning ortiqcha ekanligi hammaga ma’lum. Uni ushlash vaqtida sog‘lig‘iga zarar yetkazish yoki hayotdan mahrum etishning bu o‘rinda hech qanday zarurati yo‘q. Jinoyatchini ushlash vaqtida (rezina tayoq, gaz, qurol) ishlatilishi mumkin, biroq bu ularni qo‘llash qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga muvofiq

amalga oshirilishi kerak.

Voyaga yetmaganlar, aqli norasolar va ayollarga nisbatan qurol ishlatish zaruriy chegaradan chetga chiqishning yaqqol namunasidir. Biroq ularning tajovuzi atrofdagilarga xavf tug‘dirsa, agar ularni zarar yetkazmasdan ushlashning o‘zga iloji bo‘lmasa, u holda ularga nisbatan qurol ishlatish kerak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 39-moddasi bunday imkoniyatni istisno qilmaydi.

Oxirgi holatda ushlash ushlanayotgan shaxsga zarar yetkazishning zarurati yo‘qligini yaqqol ko‘rsatadi. Vaziyat ushlash uchun qulay bo‘lishi mumkin va bunday holatda zarar yetkazishning keragi yo‘q (masalan, shaxsni binoning ichida, u faqat qo‘riqlanadigan eshikdan chiqishi mumkin. Bu yerda ushlanadigan shaxsga zarar yetkazishning zarurati yo‘q, faqat odamlarni yordamga chaqirish kerak).

Shunday qilib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishni qonuniy deb topish uchun yuqorida ko‘rsatilgan barcha sharoitlarning mavjudligini aniqlash kerak. Bulardan hatto birortasining buzilishi ham bunday zarar yetkazishning qonuniyligini istisno etadi.

## 6. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish

Jinoyat qonuniga buyruqni qonunan bajarish vaqtida yetkazilgan zarar uchun shaxsni javobgarlikdan ozod qilishga oid normani kiritish undagi jiddiy bo‘shliqni yo‘qotadi.

Zarar buyruq yoki farmoyishni, shuningdek, mansab vazifalarini qonunan bajarish tufayli yetkazilgan bo‘lsa, jinoyat hisoblanmasligi qonunda belgilab qo‘yilgan. Bunday hollarda yetkazilgan zarar uchun buyruq yoki farmoyish bergan shaxs javobgardir. O‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra, buyruq va farmoyish bir xil kuchga ega, ya’ni ular barcha bo‘ysunuvchi shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Buyruq va farmoyishlar qonun va qonun osti aktlari (hujjatlari) asosida chiqariladi va muayyan shaklga ega bo‘lib, belgilangan tartibda ijrochilarga yetkaziladi. Har bir xodim yoki xizmatchi mansab vazifasiga kirishish oldidan o‘ziga tegishli majburiyatlar bilan tanishadi va o‘z boshliqlarining vakolatlarini biladi.

Qonuniy buyruq yoki farmoyishni ijro etish vaqtida zarar yetkazilganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bo‘ysunuvchilarni o‘z boshliqlarining o‘ylanmagan, nojo‘ya qarorlaridan himoyalanish chorasidir. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish vaqtida yetkazilgan zararni qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb topish uchun quyidagi shartlarni hisobga olish kerak.

Buyruqni rahbar o‘z vakolatidan kelib chiqib beradi. Rahbar bergan u yoki bu buyruqning nojo‘ya ekanligidan sarosimaga tushgan bo‘ysunuvchi noqonuniy buyruqni ham ijro etishi mumkin. Bu holda, yetkazilgan zarar uchun, agar u kelib chiqadigan bo‘lsa, boshliq va bo‘ysunuvchi (tobe shaxs) javobgar bo‘ladi.

Buyruq yoki farmoyish belgilangan tartibda va belgilangan shaklda

chiqarilishi kerak. Masalan, portlash xavfi bo‘lgan binoda ishlashga oid buyruq faqat yozma shaklda chiqarilishi shart. Unda bu joyda ish olib borish uchun texnika xavfsizligi bo‘yicha instruktaj (tushuntirish ishlari) o‘tkazilganligi va bu ishlarni amalga oshirishda qatnashadigan barcha xodimlarning sinovdan o‘tganliklari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, bunday ishlarni o‘tkazishga ko‘maklashib turadigan tegishli xavfsizlik va tibbiyot xizmati ruxsat berishi kerak.

Ushbu holatda buyruqning belgilangan shaklining buzilishi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, buning uchun buyruq chiqargan shaxs javobgar bo‘ladi.

Buyruq yoki farmoyishning jinoiyligi uni bajaruvchiga oldindan ayon bo‘lmasligi kerak. Bu ijro etuvchi uchun uning jinoiyligi ravshan ekanligini bildiradi. Qonunda, ya’ni Jinoyat kodeksi 40-moddasining 2-qismida jinoiyligi oldindan ayon bo‘lgan buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarib, jinoyat sodir etgan shaxs umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi, deb belgilab qo‘yilgan.

Boshqacha aytganda, shaxs qonuniy buyruqni ijro etayotib qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazsa, javobgarlikka tortilmaydi. Agar buyruqning jinoiyligi oldindan ayon bo‘lsa, ijro etuvchi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Aytaylik, elektr stansiyalaridan birining navbatchi elektr montyori boshlig‘ining buyrug‘iga binoan, yangi qurilgan uylardan biriga ulangan elektr tokini qo‘shib qo‘yganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmadi. Ma’lum bo‘lishicha, u yerda qurilish ishlari hali poyoniga yetmaganligi bois quruvchilardan biri ochiq elektr simiga tegib ketib, halok bo‘lgan. Bu qilmish uchun farmoyish bergan boshliq jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Qonuniy buyruqni ijro etish vaqtida shaxs uning doirasidan chetga chiqmasligi kerak. Ijro etuvchining buyruq bilan belgilangan chegaradan chetga chiqishi, agar bu Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan zarar yetkazishni keltirib chiqarsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Jinoyat kodeksida, agar shaxs o‘ziga yuklatilgan buyruq yoki farmoyishni noqonuniy bo‘lganligi uchun bajarmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi belgilangan. Buyruq ham shaklan, ham mazmunan noqonuniy bo‘lishi mumkin. Buyruqda uni chiqarishga haqli bo‘lgan shaxsning belgilangan rekvizitlarining bo‘lmasligi, imzo, muhr va boshqalarning yo‘qligi, uning shakli bo‘yicha noqonuniy ekanligini bildiradi. Buyruq qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga mos kelmasa, ya’ni mohiyatiga ko‘ra noqonuniy yoki jinoiy xususiyat kasb etsa, uning mazmuni noqonuniy ekanligini bildiradi.

Biroq shuni esda tutish zarurki, ayrim hollarda buyruqni bajarmaslik jinoyat hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 279-moddasida bo‘ysunmaslik, ya’ni buyruqni bajarishdan ochiqdan-ochiq bosh tortganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilab qo‘yilgan. Lekin bu o‘rinda shaklan va mazmunan qonuniy buyruqni bajarmaslik to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Harbiy xizmatchilar, ichki ishlar idoralari xodimlari va harbiy intizomga amal qiladigan boshqa shaxslar ham jinoiyligi ilgaridan ayon bo‘lgan buyruqni ijro etadigan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Ammo bunda ko‘rsatilgan

shaxslarga ular tomonidan bajariladigan buyruqning jinoiyligi ma’lum bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, buyruq yoki boshqa farmoyishni ijro etish vaqtida zarar yetkazuvchining qilmishini baholash uchun qilmishning jinoiyligini istisno etadigan yuqorida sanab o‘tilgan barcha shartlarning mavjudligini aniqlash kerak. Ulardan hatto birortasining yo‘qligi yetkazilgan zarar uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni istisno etadi.

## 7. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik

Qonunda ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmasligi belgilab qo‘yilgan (JK 41-m.).

Quyidagi sharoitlar mavjud bo‘lganida tavakkalchilik asosli deb topiladi:

1) shaxsning sodir etadigan harakati amalga oshiriladigan o‘sha faoliyat sohasida erishgan bilim va malakasiga mos kelsa. Shaxs o‘z eksperimentiga, tajribasiga tayyorlana turib yoki kasb majburiyatini bajarayotib, insoniyatning ushbu sohada erishgan eng oxirgi yutuqlarga asoslanib harakat qilganida;

2) shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan ijtimoiy foydali maqsadi tavakkalchilik harakatlari bilan bog‘liq bo‘lmasa, erishib bo‘lmasligida;

3) shaxs o‘z harakatlarini amalga oshirishdan oldin qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazishning oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko‘rgan, shuningdek, shaxs chora-tadbirlarni nazarda tutayotganida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklarni, ular ro‘y berganida eng kam zarar yetkazishini hisobga olganida;

4) kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik qilishda ko‘zlangan ijtimoiy natijaga erisha olmagan va keltirilgan zarar ijtimoiy foydali maqsadga erishish natijasida olinishi mumkin bo‘lgan foydali natijadan ko‘proq bo‘lgan taqdirda ham yetkazilgan zarar javobgarlikka sabab bo‘lmaydi (41-m. 3-q.)

Qonunning bu qoidasi juda katta ahamiyatga ega, chunki salbiy natija olingan taqdirda ham ijobiy samara berishi hammaga ma’lum. Olingan salbiy natija – bu bilim, ertami, kechmi foyda keltiradi.

Shu bilan birga, tavakkalchilik odamlarning o‘limi, ekologik halokatlar yoki boshqa og‘ir oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo‘lsa, asosli deb topmaydi (JK 41-m. 4-q).

Agar shaxs o‘zining harakati yoki harakatsizligini boshlashdan oldin qonunda ko‘rsatilgan og‘ir oqibatlar (odamlarning o‘limi, ekologik halokatlar yoki boshqa og‘ir oqibatlar)ning kelib chiqishini bilgan bo‘lsa, tavakkalchilik oldindan ma’lum bo‘lgan holda qilingan bo‘ladi. Ekologik halokatlar deganda, avariya natijasida kelib chiqadigan oqibatlar tushuniladi (masalan, Chernobil AESidagi avariya vaqtida kelib chiqqan oqibatlar, ya’ni katta hududlarning

radioaktiv zaharlanishi, odamlarning o‘limi, qishloq xo‘jaligida foydalanishda bo‘lgan yer maydonlarining yo‘qotilishi va h.k.) tushuniladi.

Boshqa og‘ir oqibatlar deganda, aytaylik, asossiz tavakkal qilib, tibbiy eksperiment o‘tkazilishi natijasida hayvonot va odamlarda yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, hisob-kitobdan adashib, yangi texnik normalar bo‘yicha, eksperiment asosida turar joy binosi qurilishi va boshqalarni tushunish kerak.

Asosli tavakkalchilikni oxirgi zarurat holatlaridan farqlash kerak. Oxirgi zarurat vaqtida xavf manbai mavjud bo‘lib, harakat undan yetkaziladigan zararning oldini olishga qaratiladi. Asosli tavakkalchilikda harakat tahdid solayotgan xavf bilan bog‘lanmagan bo‘lib, ular ijtimoiy foydali maqsadga erishishga qaratilgan. Oxirgi zaruratda yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo‘lishi kerak, asosli tavakkalchilikda esa zararning hajmi tavakkal qiluvchining harakatini baholashda muayyan ahamiyat kasb etmaydi.

Shunday qilib, jinoyat qonunida kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq asosli tavakkalchilikning qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar qatoriga kiritilishi qonuniylik prinsipi va umuman, huquqiy tartibning barcha sohalarini mustahkamlashga ko‘maklashadi.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deganda nima tushuniladi?.
2. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning turlarini ayting.
3. Qilmishning kam ahamiyatliligi nimani bildiradi?
4. Zaruriy mudofaa deganda nima tushuniladi?
5. Ijtimoiy xavfli tajovuz zaruriy mudofaaning muhim shartlaridan biri sifatida nimani bildiradi?
6. Tajovuz va mudofaaga taalluqli bo‘lgan zaruriy mudofaaning qonuniylik shartlarini aniqlang.
7. Oxirgi zarurat nimani bildiradi?
8. Tahdid qilayotgan xavf va uni bartaraf qilishga doir harakatlarga taalluqli oxirgi zaruratning qonuniyligi shartlarini aniqlang.
9. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish nimani bildiradi?
10. Buyruqni yoki boshqa vazifani ijro etish deganda nima tushuniladi va ijro qanday hollarda qonuniy hisoblanadi?
11. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilikning qonuniyligi shartlarini aniqlang.

## XIV bob
## «JAZO» TUSHUNCHASI VA MAQSADI

### 1. «Jazo» tushunchasi va mohiyati. Jazo belgilari

O‘zbekiston Respublikasi JKning 42-moddasiga muvofiq, jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo masalalariga jinoyat qonunchiligida, shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasida asosiy e’tibor qaratiladi. Bu hol jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoiy jazoning alohida o‘rin tutishi bilan bog‘liqdir.

Jazo davlat tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashda, hamda jinoyat qonunchiligi vazifalarini amalga oshirishda, ya’ni shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga, mulkka, tabiiy muhitga, tinchlikka, insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlashda, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni mamlakatimiz Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashda foydalaniladigan muhim choralardan biridir. Fuqarolarning huquq va manfaatlari jinoiy jazo yordamida g‘ayriijtimoiy xulqqa ega bo‘lgan shaxslarning jinoiy tajovuzlaridan himoya qilinadi. Jazo O‘zbekiston xalqining irodasiga mos ravishda jinoyat qonunchiligi orqali belgilanadi. Jinoyat uchun jazoning muqarrarligi jinoyat qonuni bilan jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga ta’sir etishning o‘ziga xos usuli bo‘lib bu, o‘z navbatida, shaxs axloqini tartibga soladi.

Jazoning ijtimoiy-siyosiy mohiyati to‘liq-to‘kis ravishda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatiga, mazkur siyosat esa jamiyatdagi huquqiy mafkura, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, axloqiy va boshqa qadriyatlar, qarashlar va tasavvurlar bilan bog‘liqdir.

Jazo davlat majburlov chorasi sifatida faqat shu turdagi majburlov choralariga xos bo‘lgan belgilar yig‘indisi orqali tavsiflanadi. Jazoning belgilari quyidagilardan iborat:

1) davlatning alohida majburlov chorasi ekanligi;

2) qat’iy xususiy tavsifga egaligi;

3) jinoyat sodir qilgan shaxsning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liqligi;

4) qonunda jinoyat sifatida ko‘rsatilgan qilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llanishi mumkinligi;

5) faqat sud hukmiga ko‘ra tayinlanishi;

6) alohida jinoiy-huquqiy oqibat – sudlanganlikni keltirib chiqarishi.

Jazo davlatning majburlov chorasi bo‘lib, davlatning boshqa majburlov choralaridan farq qiladi. Jazo faqat jinoyat qonunida jinoyat sifatida ko‘rsatilgan harakatlarni sodir etganlik uchun tayinlanishi mumkin. Shaxsga jazo tayinlashda uning jinoyat sodir etganligi asos bo‘ladi. Agar shaxs jinoyat sodir etmagan bo‘lsa, unga hech qachon jazo qo‘llanilishi mumkin emas.

Jazo faqat davlat nomidan sud hukmi bilan tayinlanadi. Shunga asosan, jazo jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan davlatning majburlov chorasidir.

Jazo, davlatning boshqa majburlov choralaridan farqli ravishda, muhim huquqiy oqibatlar, ya’ni sudlanganlikni keltirib chiqaradi va bu qonunda belgilangan ma’lum sharoitlarda tugallanishi va olib tashlanishi mumkin. U qat’iy xususiy xarakterga ega bo‘lib, faqat jinoyatchining o‘ziga nisbatan qo‘llaniladi, hech qanday holatda boshqa shaxslarga o‘tkazilishi mumkin emas (masalan, voyaga yetmagan jinoyatchining ota-onasiga). Jazo har doim jinoyat sodir etgan shaxsning huquq va erkinliklarini cheklab, unga ma’lum darajada ma’naviy zarar yetkazadi (yoki pirovardida yetkazishi mumkin) va ma’lum manfaatlardan mahrum qiladi (huquq, erkinlik va boshqalar). Har qanday jazo qaysidir ma’noda nimadandir u yoki bu darajada mahrum qilish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Shundan kelib chiqib, amaldagi jinoyat qonuni, masalan, oldingi jinoyat qonuniga ma’lum bo‘lgan jamoat izzasi jazosidan adolatli ravishda voz kechdi. Bu jazo aybdorni sud tomonidan xalq oldida izza qilish, zarur bo‘lgan hollarda bu haqda matbuot orqali yoki boshqa yo‘llar bilan jamoatchilikka bildirishdan iborat bo‘lgan. Ma’lumki, bu chora o‘z mazmuniga ko‘ra ko‘proq jinoiy jazoga emas, balki jamoat ta’siri chorasiga mos keladi (davlat nomidan kelib chiqsa ham), chunki jinoyat sodir etgan va jamoat izzasiga tortilgan shaxsning huquq va erkinliklari amalda aslo cheklanmagan.

Jazoning og‘irligi sodir etilgan jinoyatga va aybdorning shaxsiga mos bo‘lishi lozim. Bunda mahkum o‘tayotgan jazoning mahrumliklari va og‘irligi, muayyan holda aybdorning aybiga iqror bo‘lishini bildiradi. Aks holda jazo jinoyatlarning oldini olish ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lur edi.

Ko‘rsatilgan belgilar jazoni davlatning boshqa majburlov choralaridan farqlash imkonini beradi. Masalan, jazo fuqarolik ishlari bo‘yicha qarorni majburiy bajarish bilan o‘xshashdir (oxirgisi ham davlat nomi bilan sud tomonidan chiqariladi va majburiy tartibda amalga oshiriladi). Biroq, fuqarolik ishlari bo‘yicha undirish, birinchidan, jinoyat sodir etilishi bilan emas, balki mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy bahslar sababli chiqariladi; ikkinchidan, jinoiy-huquqiy oqibatlarni (sudlanganlikni) keltirib chiqarmaydi.

Jinoiy jazo faqat jinoyat sodir etgan shaxsgagina yo‘naltirilgan. Shaxs adolatli javobgarlikdan qanday yo‘l bilan qochganligidan qat’i nazar, jazo uning oila a’zolariga yoki yaqin qarindoshlariga nisbatan qo‘llanishi mumkin emas. Shuningdek, aybdorga nisbatan jazo qo‘llanilishi bilan bog‘liq mulkiy undirishlar ham uning oila a’zolari, qarindoshlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Shu ma’noda jinoyat huquqida jazo faqat aynan jinoyat sodir etgan shaxsning o‘ziga qaratilgan majburlov chorasi sifatida baholanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida»gi 2006-yil 3 fevraldagi 1-sonli qarorida, «Jinoyat kodeksining 8,54–moddalari mazmuniga ko‘ra, jazo adolatli bo‘lishi – har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga »[1], deb ko‘rsatilganligi ham bejiz emas.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.2. – Т., 2006. – 225–226-б.

Jazo o‘z mazmuniga ko‘ra, mahkumni muayyan cheklashlarga mubtalo qilsa-da, intiqom hisoblanmaydi. Masalan, sud jinoyat sodir etishda aybdor shaxsga jarima solishi (JK 44-m.), muayyan huquqdan mahrum etishi (JK 45-m.), xizmat bo‘yicha cheklashi (JK 47-m.), qamoqqa olishi (JK 48-m.), intizomiy qismga jo‘natishi (JK 49-m.), ozodlikdan mahrum qilishi (JK 50-m.) mumkin.

Har qanday jazo tayinlaganda ham mahkum u yoki bu, ya’ni jismoniy, ma’naviy va mulkiy huquqlaridan mahrum bo‘ladi. Bu noxush, bir qator hollarda esa aybdor uchun og‘ir bo‘lgan oqibatlar uning qilmishiga yarashadir, chunki u ijtimoiy xavfli qilmishini jamiyat manfaatlariga qarshi qaratgan, o‘z shaxsiy manfaatlarini ularning manfaatlaridan yuqori qo‘yib, qasddan yoki ehtiyotsizligi oqibatida jamiyatga, fuqarolarga zarar yetkazgan, ya’ni jinoyat sodir etgan.

Jazo, albatta, qo‘llanilayotgan shaxsga azob-uqubat yetkazadi va aynan ana shu xususiyati uning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jazo o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zida nimadandir mahrum etish elementini mujassam etadi. Biroq jazo bilan mahrum etish oqibati jazo tayinlashda maqsad hisoblanmaydi.

Jazo ayrim cheklovlarni keltirib chiqaradi, natijada aybdor va uning atrofidagilarga ruhiy ta’sir etadi hamda umumiy va maxsus preventiv (jinoyatning oldini olish) ta’sirga ega bo‘ladi, chunki na jinoyatchi, na boshqa shaxslar bunday jazoning asl mohiyatini aks ettiruvchi maqsadni o‘z ichiga oladigan azob-uqubatlarga mubtalo bo‘lishni xohlamaydi.

Shunday qilib, jazoning preventiv xususiyati, uning obyektiv xususiyati bo‘lib, jazo tizimi, turlari va ularni qo‘llash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Jazo tizimi qanday qabul qilinmasin va qo‘llanilmasin, doimo jinoyatlarning oldini olishda ham umumiy, ham maxsus ta’sir etish xususiyatiga ega. Jazo – xoh talion (odam o‘ldirganga o‘ldirish va hokazo) va kompazitsion (ya’ni bir necha turdagi jazoning birga qo‘llanishi) shaklida, xoh axloq tuzatish va ozodlikdan mahrum etishni qo‘llash bo‘lsin – umumiy va maxsus preventiv chora sifatida namoyon bo‘ladi.

Jinoiy jazoni qo‘llash aybdor uchun sudlanganlikni vujudga keltiradi. Sudlanganlik esa jinoiy jazoning huquqiy oqibatidir. Shaxsning sudlangan deb topilishi, o‘z navbatida, uning uchun ma’lum huquqiy oqibatlarga sabab bo‘ladi, ya’ni sudlanganligi to‘g‘risida rasmiy idoralarga xabar qilinadi, bu to‘g‘rida rasmiy hujjatlarda qayd etiladi va h.k.

Yangi jinoyat sodir etilganida sudlanganlik holati javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb topiladi. Sudlanganlik ma’lum davr o‘tganidan so‘ng yoki sud belgilagan tartibda olib tashlanishi mumkin.

Shunday qilib, jinoiy jazo davlatning boshqa majburlov choralaridan, shu jumladan, o‘zining nomiga o‘xshash turlaridan va tegishli maqsadlariga asosan jiddiy farq qiladi.

## 2. Jazodan ko‘zlangan maqsad

Jazodan ko‘zlangan maqsad deganda, davlat jinoiy jazo sifatida qo‘llaydigan majburlov choralari yordamida erishishga intiladigan yakuniy ijtimoiy natija tushuniladi. Jazoning maqsadini belgilayotib, qonun chiqaruvchi organ jazo chorasi va uning tarbiyaviy xususiyati o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni to‘g‘ri anglashga imkoniyat yaratadi, chunki jazodan ko‘zlangan maqsad adolatli hukm chiqarish uchun ham asos hisoblanadi. Jinoyat huquqi jazo funksiyalarini amalga oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uning asosiy funksiyalarini bajarish jinoiy jazoning maqsadlariga aylanadi, biroq barcha funksiyalar ham qonunda aks ettirilmaydi va jazoni qo‘llash orqali amalga oshirilmaydi.

Ma’lumki, u yoki bu qonuniy qarorni qabul qilishning asosini tashkil etuvchi muayyan ijtimoiy maqsadlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, bu maqsadlarning turlarini ajratib olish va huquqiy normalarni takomillashtirish uchun mazkur maqsadlarning ahamiyatini belgilash kerak bo‘ladi. E’tiborni jazo qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligigagina emas, balki qanday maqsadlar qo‘yilmasligi kerakligi va jinoiy jazo orqali yetishish mumkin emasligiga ham qaratish kerak.

JK 42-moddasining 2-qismida quyidagilar jazoning maqsadlari sifatida belgilangan: 1) mahkumni axloqan tuzatish; 2) uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish; 3) mahkumning boshqa jinoyatlar sodir etishining oldini olish; 4) boshqa shaxslar jinoyat sodir etishining oldini olish.

Mahkumning axloqini tuzatish jazodan ko‘zlangan maqsad bo‘lib, jazoni o‘tash jarayonida shaxsda salbiy ijtimoiy-ruhiy qarashlar o‘rniga jinoiy bo‘lmagan ijobiy qarashlar paydo bo‘ladi va ular shaxsning yangi jinoyatlar sodir etishiga to‘sqinlik qiladi.

Axloqan tuzatish jarayoni nihoyatda murakkab bo‘lib, uning usullari har bir shaxs uchun individual xususiyatga ega. O‘zi uchun murakkab hayotiy vaziyatda ilk bor jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ta’sir ko‘rsatish usullari, g‘ayriijtimoiy qarashlarga ega yoki alohida xavfli retsidivistlarni axloqan tuzatish usullaridan nihoyatda farq qiladi.

Tarbiyaviy ta’sir jarayoni surishtiruv, dastlabki tergovdan boshlanib, sud muhokamasi jarayonida davom ettirilib, sud tomonidan belgilangan jazoni ijro etish yo‘li bilan amalga oshiriladi va sudlanganlik holatining tugallanishi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi bilan yakunlanadi. Dastlabki tergov jarayoni, sud muhokamasi va sud tomonidan chiqarilgan hukm aybdorning sodir etgan qilmishini aks ettiradi hamda izza qiluvchi choralar mahkumga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo bu ta’sir, asosan, jazoni ijro etish jarayonida sud aybdorning axloqdan tuzalishi uchun belgilagan muddat doirasida yuzaga chiqadi.

Ushbu maqsadga erishishda qamoqqa olingan yoki ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan keskin, o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatish choralarigina emas, balki jazoning o‘zi uni majburiy ravishda tashvishlarga va mahrumlikka mubtalo etishi natijasida o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqish va to‘g‘ri yo‘lga kirishga undaydi.

Jazoning axloqan tuzatish ta’siri sudlanganlik holatining tugallanishi va sudlanganlikni olib tashlash muddatlarida yakuniy jihatdan mustahkamlanadi. Sudlanganlik holatini tugatish yoki sudlanganlikni olib tashlash shartlari qonunda ko‘rsatilgan muddat ichida yangi jinoyat sodir etmaslik talabini qo‘yadi va sudlanganlik tamg‘asiga ega shaxsni to‘g‘ri hayot kechirishga, jamoatchilik qoidalarini hurmat qilishga undaydi. Sudlanganlikning muddatidan avval olinishi esa shaxsni namunali xulqqa ega bo‘lish va o‘zining axloqan tuzalganligini o‘zgalarga isbotlashga intilishini kuchaytiradi.

Mahkumning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish jinoyat qonunchiligining umumiy vazifalaridan, va ayniqsa, jamiyatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish vazifasidan kelib chiqadi. Ko‘pgina jazo turlarining mazmuni ham aynan bir qator huquqlarni cheklash hisoblanadi. Ularni qo‘llash jinoyatchini boshqa jinoyatlarni sodir etish imkoniyatidan mahrum etishga qaratilgan. Bu bilan jamiyat uzoq muddatga o‘zini jinoyatchidan himoyalaydi (shu bilan birga jinoyatning ham oldini oladi, albatta).

Jinoiy jazoni qo‘llash orqali davlat o‘zini hamda fuqarolarni jinoyatchilardan himoya qiladi. Shu sababli ushbu maqsad qisman jinoyatlarning oldini olishni ham o‘z ichiga oladi. Takroran jinoyat sodir etgan shaxslar, xavfli va o‘ta xavfli retsidivistlar yoki jinoiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanuvchi hamda jinoyat sodir etishga moyil xulqi ularga yengilroq jazo qo‘llash asosini bermaydigan shaxslarga nisbatan og‘irroq va uzoq muddatlarga jazo choralarni qo‘llashga qonuniy yo‘l qo‘yilganligini tushuntiradi.

Mazkur shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazodan ularni uzoq muddat davomida yangi jinoyatlar sodir etish imkoniyatidan mahrum etish maqsadi ko‘zlanadi va bu haqiqatan ham qonuniy hisoblanadi.

Mahkumlar jinoyat sodir etishning oldini olish choralari shunda namoyon bo‘ladiki, birinchidan, ularga nisbatan sud shu mahkumning yangi jinoyat sodir etmasligi uchun jazo turi va chegarlarini belgilaydi. Aynan jazo, jinoyat sodir qilgan shaxsning jinoiy faoliyatiga chek qo‘yadi. Ikkinchidan, yaxshi xulqqa ega bo‘lmagan shaxslarga ta’sir o‘tkazib, jazo qo‘llash tahdidi bilan ularni jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishlarni sodir etishdan saqlaydi.

Jazolashdan ko‘zlangan maqsad boshqa shaxslar jinoyat sodir etishining oldini olish (umumiy prevensiya) sifatida muayyan bir shaxsga qaratilgan emas, aksincha hali jinoyat sodir etmagan shaxslarga qaratilgandir. Umuman olganda, jazodan ko‘zlangan ushbu maqsad davlat huquqiy choralarining kompleksi sifatida fuqarolarni jinoyat sodir etishdan qaytarishga qaratilgan. U insonlarning ongi va irodasiga ta’sir etuvchi, jinoyat sodir etishdan tiyib turishga qodir bo‘lgan maxsus tarbiyaviy-psixologik choralar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Jazodan ko‘zlangan umumiy jinoyatchilikning oldini olish maqsadi jamiyatning barcha a’zolariga qaratilgan emas, chunki jamiyatning ko‘pchilik a’zolari qonunga itoatkor shaxslardir. Ushbu maqsad jamiyatning hali jinoyat qonuni bilan to‘qnashmagan, lekin ayni paytda o‘zining g‘ayriaxloqiy va boshqa g‘ayriijtimoiy xulq-atvori bilan jinoyat sodir etishga moyil bo‘lganlar toifasiga qaratilgan. Shuning uchun ham qonunda jinoiy jazoning mavjudligi, uning jinoiy xulq-atvor uchun qo‘llanilishi mumkinligi

va JKda ko‘rsatilgan taqiqlar yoki ko‘rsatmalarni qo‘llash realligining psixologik ta’siri orqali jinoyatning oldini olish maqsadlariga erishish mumkin. Jinoyat huquqi uch ko‘rinishdagi profilaktik ta’sir kuchiga ega: jinoyatlarni qo‘rquv orqali bartaraf etish; axloqiy taqiqlarni kuchaytirish va qonunga bo‘ysunuvchi fuqarolarning xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlash.

## 3. Jazoning samaradorligi va uni yuksaltirish choralari

Jinoyat huquqining mustaqil instituti bo‘lgan jazoga alohida tizim sifatida qarash mumkin. Bunday tizimning samaradorligi jazoning mavjudligi, uning istiqboli va jinoyat huquqining umumiy tizimidagi o‘rnini maqsadga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq.

Jazoning samaradorligi va maqsadini jamoatchilik va mahkumning ongiga ta’sirining haqiqiy natijasidan aniqlash mumkin. Jazoning jinoyat, jinoyat-ijroiya, jinoyat-protsessual qonunchilik va amaliyotda jinoyatchilikka qarshi kurashda qo‘llanishini u jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning obyektiv qonuniyatlariga har tomonlama mos tushgan holdagina samarali deb hisoblash mumkin.

Jazoning samaradorligini uning ijro etilishining turli xildagi ko‘rsatkichlari bilan baholash mumkin. Bunday ko‘rsatkichlar qatoriga: 1) ishning rentabelligi; 2) o‘zini qoplash; 3) ishlab chiqilgan rejalarning bajarilganligi; 4) tarbiyaviy-madaniy ish rejalarining bajarilganligi; 5) tartibbuzarliklar dinamikasi va shunga o‘xshash boshqa holatlarni qo‘shish mumkin.

Biroq ushbu ko‘rsatkichlardan birortasi ham jazoni ijro etish muassasalarining oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalarga javob bermaydi. Ular faoliyatining yagona haqiqiy ko‘rsatkichi ushbu muassasalardan ozod qilinganlar orasida muayyan uzoq vaqt mobaynida mavjud bo‘lgan jinoiy retsidiv holatlarni to‘g‘ri va aniq hisobga olish darajasi hisoblanadi. Buni e’tiborga olgan holda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ikkinchi darajali deb baholash lozim bo‘ladi.

Shu bilan birga, turli xildagi jazolarni o‘tagan mahkumlar orasida retsidiv jinoyatchilikning taqqoslash darajasi namunaviy ko‘rsatkich bo‘la olmaydi, chunki u jazoni ijro etuvchi muassasalar faoliyatining sifati va ushbu jazo turining samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lmasdan, birinchi navbatda, hukm qilinayotgan shaxslar tarkibi bir-biridan jiddiy farq qiladi. Agar ozodlikdan mahrum etish, qamoqqa olish yoki jarima to‘lashga hukm qilingan shaxslar o‘rtasidagi retsidiv foiz ko‘rsatkichi taqqoslansa, mumkin qadar eng yuqori retsidiv ko‘rsatkich ozodlikdan mahrum etilganlar o‘rtasida qayd etilishi mumkin. Ammo bu holat ozodlikdan mahrum etish jazosining qamoq yoki jarimaga nisbatan samarasiz ekanligidan dalolat bermaydi. Oddiy qilib aytganda, sudlar mazkur jazoni eng og‘ir jinoyatlarni sodir etgan va eng ashaddiy jinoyatchilarga tayinlaydi.

Jazoni o‘tayotgan shaxslar orasida jinoyatchilik darajasi ma’lum darajada ahamiyatga ega, ammo jazoning umumiy samaradorligi ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qila olmaydi. U tartib, hayot sharoitlari kabilarga bog‘liq.

Retsidiv ozodlikdan qisqa muddatga mahrum etish va boshqa turdagi

jazolarning samaradorligi koʻrsatkichi boʻlib xizmat qiladi, chunki jazoning juz'iy bartaraf qilish samaradorligi muayyan davrda tayinlangan jazolarni alohida turlarga taqsimlab oʻrganish, ijtimoiy hayotda yuz bergan oʻzgarishlar va hodisalarni, shuningdek, jinoyat qonunchiligida boʻlgan oʻzgarishlarni hisobga olingan holda, retsidiv jinoyatchilikning harakatlanishini aks ettiradi. Mazkur belgi quyidagilarni oʻrganishni taqozo etadi: 1) uzoq muddat davomida jazoni oʻtab boʻlgan mahkumning xatti-harakatlarini; 2) jazoni oʻtash jarayonida mahkumning xatti-harakatlarini; 3) tayinlangan jazoga nisbatan mahkumning subyektiv munosabatini.

Retsidiv jazoning samaradorlikni belgilovchi mezon boʻlib xizmat qilishi uchun uni koʻp uchraydigan holatlardan farqli ravishda boshqacharoq baholash kerak. Barcha mahkumlar ichida retsedivistlarning ulushini aniqlash, jinoyatchilikning tuzilishini tushunish, shuningdek, jinoyatchilar kontingentining qandayligini bilish uchun zarur. Bunday hisob-kitob jinoyatchilikka qarshi kurash borasida toʻgʻri siyosat ishlab chiqishga yordam beradi, ammo u jazo samaradorligining umumiy tahlili koʻrsatkichi boʻla olmaydi.

Jazoning samaradorligini aniqlash uchun turli jinoyatlar (bezorilar, oʻgʻrilar, talonchilar, firibgarlar va boshqalar) boʻyicha retsidiv jinoyatchilikni aniqlash va alohida hisoblash lozim boʻladi, chunki bu koʻrsatkich oʻziga xos alohida jihatlarga ega. Axir jinoyatchilik bir qator obyektiv va subyektiv omillardan kelib chiqadigan murakkab gʻayriijtimoiy hodisadir. Jazo esa ana shu holatlarning biri boʻlib hisoblanadi. Chunonchi, jazo ham, umuman jinoyat huquqi kabi, jinoyatchilikka ta'sir koʻrsatuvchi yordamchi omillardan biridir.

Retsidiv jinoyatchilik bilan jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi hamda qonunning amalda qoʻllanishi oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikka doir taxminlar koʻp hollarda oʻzini oqlaydi. Boshqa shu kabi holatlarda, ya'ni jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi hamda ularning amalda qoʻllanishi retsidiv jinoyatchilikka ta'sir etuvchi hal qiluvchi va asosiy omil boʻlib, jinoyatchilikning ahvolini belgilovchi muhim determinant (shart-sharoitlar) boʻladi va bu murakkablik ushbu omillarning amal qilmasligida emas, balki ularning ta'sirini boshqa omillar ta'siridan ajratib olishning qiyinligida namoyon boʻladi.

Retsidiv jazoni yetarlicha uzoq muddatda, jazoni ijro etishning alohida muassasalarida oʻtashini hisobga olish lozim. Faqat shundagina jazo muddatini oʻtashning naqadar samaradorligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, 1991-yil aniq bir jazoni ijro etish muassasasidan oʻnta mahkum ozodlikka chiqarilgan va ushbu mahkumlardan qanchasi keyingi yillarda yana takroran jinoyat sodir etganliklari uchun sudlanganligi aniqlansa, ushbu muassasada jinoyatning oldini olish borasida olib borilayotgan faoliyatning samaradorligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Mavjud obyektiv holatlar boʻyicha biz jinoyatning tuzilishini retsidiv jinoyatchilikning mavjud emasligi bilan baholashimiz mumkin emas. Chunki mahkumning axloqan tuzalganligi jazoning asosiy maqsadi sifatida, mahkum jazodan qoʻrqqanligidan emas, balki ongli ravishda dunyoqarashining oʻzgarishiga koʻra, jinoyat sodir etish mumkin emasligini tushunganligida oʻz ifodasini topadi.

Yuqorida koʻrsatilgan axloqan tuzalish mezonlarining mavjudligini inkor

etmagan holda, shu bilan birga, mahkumni ozod etish vaqtiga kelib, uning xulq-atvori umum e’tirof etgan axloq-odob qoidalariga albatta mos tushishi va u ozodlikka chiqqach ana shu axloq-odob qoidalariga rioya qiladigan bo‘lishi kerak, degan talabni qo‘yish, jazoni ijro etish muassasalari uchun bajarib bo‘lmas vazifani qo‘yish bilan barobar. Ushbu holatda bajarish imkoniyati bo‘lmagan talablar qo‘yilayotgani aniq bo‘lib qoladi.

Masalan, agar mahkum mehnat jarayonidan avvalo moddiy manfaatdorlikni kutayotgan bo‘lsa, uning mehnatga bunday munosabatini vijdonan munosabat deb bo‘lmaydi. Asosan, jinoyat sodir etmagan barcha fuqarolarda ham bo‘lmagan mehnatga bunday munosabatni, ba’zan sobiq mahkumlardan talab qilamiz.

Qo‘llanilgan jazoning samaradorligini qanday mezonlar bilan hisobga olish kerak? Jazo maqsadlariga erishish uchun (shu jumladan ayrim shaxslarga nisbatan va umumiy tarzda) ma’lum bir jazo choralarining muayyan ta’sirini empirik tahlil qilish yoki statistik ma’lumotlarni tahlil etish orqali aniqlash mumkinligi shubhali tuyuladi. Buning uchun ushbu holatda nihoyatda umumiy, murakkab hamkorlik jarayonidan faqat jazoning o‘zini ajratib olish orqali, jinoyatchilik dinamikasini yoki retsidivini, uning oqibatlarini ko‘rsatish lozim bo‘ladi, ammo bunday tadqiqotni na nazariy, na amaliy jihatdan amalga oshirib bo‘ladi. Boshqa jarayonlar hamda boshqa jazo turlari bilan taqqoslanganida, bu hech qanday natija bermaydi, chunki taqqoslaydigan jarayonlarda jazo tizimidan tashqari, undan ham qudratli, jinoyatchilikka ko‘proq ta’sir ko‘rsatuvchi holatlar, ya’ni: osoyishtalik, urush, urushdan keyingi jarayon, respublikaning iqtisodiy ahvoli, amaldagi umumiy qonunlar majmui, militsiya, sud, jazoni ijro etish muassasalari faoliyatining samaradorligi, shuningdek, jazolangan va latent jinoyatchilikning nisbati kabilar amal qiladi.

Eng murakkabi, natijalar yig‘indisidan jazoni tayinlash va qo‘llashning oqibatini ajratib olish zarurligidir. Hatto retsidiv jinoyatchilikning yo‘qligi tan olinganida ham jazoni qo‘llanmasidan turib retsidiv vujudga kelishi mumkin emasligini nazarda tutish lozim.

Jinoyat qonunchiligini ilmiy jihatdan asoslangan holda qurishga qisqa vaqt ichida erishib bo‘lmaydi.

Biz jazoga u keltiradigan foyda nuqtai nazaridan yondashishimiz lozim. Jazoni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad ijtimoiy hayotni tartibga solish. Faqat shu maqsadgina jazoni qo‘llashni oqlaydi.

Amaliyotda samaradorlik ko‘rsatkichlari muayyan darajada bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishi mumkin, ya’ni ba’zi ko‘rsatkichlar bo‘yicha samaradorligi oshib borsa, boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha qoniqarsiz darajada bo‘lishi mumkin. Ayni paytda eng maqbul qarorni tanlash uchun barcha mavjud ko‘rsatkichlarni (mezonlarni) hisoblab, o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi.

Ammo jazodan ko‘zlangan maqsadga erishilgan yoki erishilmaganligini ko‘rsatuvchi yagona aniq mezon jinoyatchilik dinamikasidir. Jinoyatchilikning umumiy dinamikasi, alohida turdagi jinoyatlar dinamikasi, voyaga yetmagan-.lar jinoyatchiligi dinamikasi kabi umumiy profilaktikaning samaradorligini

o‘rganish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Lekin maxsus profilaktikaning maqsadini o‘rganish uchun retsidiv jinoyatchilikning dinamikasi asos hisoblanadi. Bu o‘rinda quyidagilarni farqlash lozim; a) umuman jazo tizimi va uning alohida turlari samaradorligi; b) u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoyat qonunida taqiqlashning samaradorligi; d) jazo tayinlash va uni ijro etish bosqichidagi samaradorlik; e) mahkum jazoni o‘tab bo‘lganidan so‘ng yoki muddatidan avval ozod etilishi munosabati bilan uni to‘g‘ri yo‘lga kirganligi bilan bog‘liq natijalarni mustahkamlash bo‘yicha o‘tkazilgan choralarning samaradorligi.

Jazo choralarining samaradorligini ta’minlovchi asosiy shart uning og‘irlik darajasi emas, balki jazoning muqarrarligidir . Davlat sodir etilgan har bir jinoyat fakti bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun tegishli choralarni ko‘radi va bir qator vaziyatlarda bu holat aybdorga tegishli jazoni qo‘llash bilan yakunlanadi.

Shu bilan birga, ozodlikdan mahrum etish jazosining samaradorlik darajasini oshirish uchun tegishli choralar ko‘riladi (masalan, jazoni ijro etish muassasalari ishini yaxshilash, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar samaradorligini oshirish orqali). Ular bo‘yicha tegishli ijtimoiy fikr to‘g‘ri yo‘nalishda shakllantiriladi. Aholining huquqiy ongi muntazam ravishda boyitib boriladi, parallel ravishda muqobil sanksiyalar tizimi ishlab chiqiladi.

Jazo samarali bo‘lishi uchun, uning tizimi boshqa ijtimoiy choralar bilan birlikda harakat qilishi lozim, chunonchi jinoyatdan avval qo‘llaniladigan kompleks choralar (jinoyat profilaktikasi) jazoni o‘tash paytida va uni o‘tab bo‘lganidan so‘ng sobiq mahkumga nisbatan qo‘llanishi kerak.

Retsidivistlar ustidan oshkora ma’muriy nazorat, jazoni ijro etish muassasalarida surunkali araq ichadiganlarni majburiy davolash va shu kabi choralar quyidagi zaruriy sharoitlar mavjud bo‘lgan holatlarda ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin: a) jazoni ijro etish muassasalarining ish faoliyatini yaxshi tashkil etishi; b) muddatidan ilgari profilaktik ishlarning olib borilishi; d) jazoni benihoya og‘irlashtiruvchi holatlarning qo‘llanilmasligi.

Shunday qilib, jazoning samaradorligi haqidagi masala uning maqsadlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas, chunki jazo va maqsadlar o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik ham hisobga olinishi kerak.

Jamiyat jazoni tazyiq sifatida emas, adolat sifatida qabul qilishi lozim. Jamiyat jazo quyidagi hollarda adolatli deb tan oladi:

a) agar u haqiqiy aybdorlarga nisbatan qo‘llanilsa;

b) sodir etilgan qilmishga munosib bo‘lsa;

d) barcha aybdorlarga nisbatan muqarrar ravishda qo‘llanilsa.

Qo‘rqitish samarali chora vositasi emas. U tarbiya nuqtai nazaridan zararli bo‘lishi va shaxsni tarbiyalashgagina emas, balki jamiyatni tarbiyalashga ham zarar keltirishi mumkin. Muayyan jinoyat uchun tayinlangan jazo adolatli bo‘lishi shart. Adolat jamiyatga zarur, chunki u insonlarning jismoniy va ruhiy xavfsizligini ta’minlaydi.

Jazoning maxsus ta’sir etish samaradorligini oshirish borasida nihoyatda

muhim bo‘lgan quyidagi omillarini hisobga olish kerak: jinoyat qonunida javobgarlik turlarining aniq farqlanishini amalga oshirish (masalan, JKning alohida qismiga ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq muqobil jazolarni sanksiyalarga kiritish); yetarli ravishda jazolash qudratiga ega bo‘lgan, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi jazo turlarini topish; ushbu faoliyatning yo‘nalishi sifatida ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan va amaldagi jazo choralarining ta’sir kuchini oshirish (masalan, jarimaning miqdorini oshirish); ahloq tuzatish siyosati talablarini hisobga olish, shuningdek, mahkumlarni subyektiv tasavvurlari va baholashlarini inobatga olgan holda, jazoning ijro etilishini tashkil qilish; maxsus postpenitensiar xizmatni tashkil etish va hokazo. Bular nainki jazodan ozod etilganlarni nazorat qiladi, balki ko‘proq darajada ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatadi va bu shaxslar jamiyatda yashashga tezroq va osonroq ko‘nikadilar. Maxsus prevensiya bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish yo‘nalishi sifatida alohida turdagi jazolar bo‘yicha retsidiv to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni yillar, hududlar va koloniyalarga nisbatan qo‘llash, shuningdek, jinoyat ishlari bo‘yicha adliya idoralarining faoliyatini ko‘rsatuvchi boshqa statistik ma’lumotlarni o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, qonunga itoatkor shaxslarni (ijtimoiy fikrni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun) hamda jinoyatchilarning (jazolarni ijro etishni yaxshi tashkil qilish uchun) subyektiv baholari va tasavvurlarini o‘rganishni davom ettirish kerak bo‘ladi.

Oxirgi yillarda jinoyatlarni maxsus bartaraf etish maqsadlariga e’tibor tobora o‘sib bormoqda. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llashning kengayib borayotgani va ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq jazolarning qo‘llanilishi qisqarayotgani borishi kuzatilmoqda. Sodir etilgan jinoyatlar uchun qo‘llaniladigan muqobil jazo sanksiyalarini qo‘llash jarayoni amalga oshirilmoqda (jamoat ishlarini tayinlash, erkinlikni cheklash va h.k.).

## 4. Liberallashtirish siyosati munosabati bilan jazo qo‘llash borasidagi o‘zgarishlar

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida jinoiy jazo siyosati liberallashtirish tomon o‘zgartirildi. Uning ilk qadamlari mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning «Adolat – qonun ustuvorligida»[1] nomli nutqida o‘z aksini topgan. Shu munosabati bilan jinoiy jazolarni qo‘llash mezonlari ham o‘zgardi va bu o‘zgarishlar «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonunda aks ettirildi. Jinoiy jazolarni tayinlash masalalariga ham tabaqalashgan munosabat

[1] Qarang: *Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003. – 26–52-б.

yuzaga keltirildi.

Endilikda ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan tayinlanayotgan jazo muddati Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko‘p muddatining to‘rtdan uch qismidan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati sodir etilganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga jazoni manzil-koloniyalarda o‘tash tayinlanadi.

O‘zgartishlar jinoyat huquqining eng og‘ir, murakkab masalalalaridan biri – o‘lim jazosini jinoyat kodeksidan chiqarilishiga olib keldi. Uning o‘rniga muqobil jazo sifatida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish (JKning 50-moddasi 3-qismi) va umrbod ozodlikdan mahrum qilish (JKning 51-moddasi) joriy qilindi.

Uzoq muddatga  hamda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari ayollarga, oltmish yoshdan oshgan erkaklarga va o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yildi.

Jinoyat kodeksi yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni tartibga soluvchi $66^1$-modda bilan to‘ldirildi. Unga asosan, JKning $66^1$- moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar o‘z aybiga iqror bo‘lib, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (ushbu normada uni qo‘llash mumkin bo‘lgan jinoyatlarning moddalari bo‘yicha ro‘yxati berilgan). Demak, 1)  JKning $66^1$- moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etilishi; 2) o‘z aybiga iqror bo‘lish; 3) jabrlanuvchi bilan yarashish va uning ayblanuvchining jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga roziligi; 4) yetkazilgan zararning bartaraf etilganligi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartlari sifatida tan olinadi.

Ushbu normani tatbiq etish uchun JPKda maxsus jinoiy-prosessual tartib belgilangan va «Yarashuv to‘g‘risidagi ishlarni yuritish» deb nomlangan bob (62-bob) bilan to‘ldirilgan.

JK 85-moddasining 4-qismiga voyaga yetmay turib, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasida jazo tayinlanmasligi haqidagi qo‘shim-chaning kiritilishi, o‘sib kelayotgan yosh avlod haqidagi g‘amxo‘rlik ruhini o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu ijobiy holat voyaga yetmagan huquq-buzarlarning o‘z oilalari bag‘rida axloqan tezroq tuzalishi uchun imkoniyat yaratadi.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun jazoning majburiy ravishda o‘talishi lozim bo‘lgan muddatlari ham ancha kamaytirilgan. Mahkum jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi mumkin.

Hozirgi kunda amaldagi qonunga o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlariga mahkum qilingan shaxsga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mumkin bo‘lgan huquq normasi kiritilgan.

Ushbu norma:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

b) og‘ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxslardagi qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarimini;

d) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo‘lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llaniladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud jazoni o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirishi mumkin:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to‘rtdan bir qismini;

b) og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

d) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan va jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanishi mumkin.

O‘n sakkiz yoshga yetmasdan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm etilgan shaxsga nisbatan jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish mumkin:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun tayinlagan jazo muddatining kamida beshdan bir qismi;

b) og‘ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to‘rtdan bir qismi;

d) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanishi mumkin.

Mol-mulkni musodara qilish qo‘shimcha jazo chorasining samarasizligi va mahkumning oilasi, yaqinlari va qarindoshlarining huquqlarini cheklaganligi uchun jazo tizimidan chiqarib tashlandi. Lekin jarima jazosining mi-

qdorlari ko‘paytirilib, eng kam oylik ish haqining besh baravaridan olti yuz baravariga qadar belgilandi.

JK Maxsus qismining ozodlikdan mahkum etishni nazarda tutuvchi bir necha moddalarining (104, 117, 139, 141 va boshq.) sanksiyalari kamaytirildi.

Mamlakatimiz mustaqil rivojlanish davrida ijtimoiy munosabatlarning yetukligi, demokratik huquqiy davlat asoslarining shakllanishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining yaxshilanishi jinoiy jazolarni liberallashtirish imkoniyatining yuzaga keltirdi.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Jinoiy jazo nima?
2. Jinoiy jazo davlatning boshqa majburlov choralaridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Jinoiy jazo chorasi o‘z ichiga buzilgan huquqni tiklash maqsadiga yo‘naltirilgan choralarni oladimi?
4. Jinoiy jazoning oshkoraligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Jinoiy jazo sodir etilgan jinoyat uchun intiqommi?
6. Jinoiy jazoning qo‘llanilishi aybdor uchun qanday oqibat keltirib chiqaradi?
7. Jazodan ko‘zlangan maqsadlar nimalardan iborat?
8. Nima mahkumning tuzalishi sifatida tushuniladi?
9. Nima uchun «qayta tarbiyalash» jazo maqsadlarining biri emas?
10. Jazoning jinoyatlarni oldini olishdagi maqsadi nimalardan iborat?
11. Jazoning samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
12. Jazoning samaradorligi qanday ko‘rsatkichlarga ko‘ra baholanadi?
13. Jinoyatchi axloqan tuzalganligining obyektiv mezonlari nimada?
14. Jinoyatchilik dinamikasini jazoning o‘z maqsadiga yetishi uchun real mezon sifatida baholash mumkinmi?
15. Jazo choralari samaradorligini ta’minlashning asosiy sharti sifatida nima tan olinadi?
16. Jazoning jamiyat tomonidan adolatli deb tan olinishining asosiy mezonlari nima?

## XV bob
## JAZO TIZIMI VA TURLARI

### 1. Jazo tizimi va uning ahamiyati

Demokratik islohotlarning izchillik bilan hayotga tatbiq etilishi, davlat huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatida qonuniylik prinsipining joriy qilinishi qonunda jinoyat sodir etgan shaxslarga qanday jazo qo‘llanishi kerakligi haqida aniq ta’rif bo‘lishini talab etadi. Bunday shaxsga nisbatan davlat majburlovining har qanday chorasi emas, balki amaldagi jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan jazo qo‘llanilishi lozim.

Jinoyat qonuni normalarini tatbiq etish nazariyasi va amaliyotida ijtimoiy xavfli qilmish uchun jazolar ro‘yxati (jazo tizimi)ga katta ahamiyat beriladi. Shu bois jazolar Jinoyat kodeksining Umumiy qismida shaxs kafolatlarini ta’minlovchi tizimda nazarda tutilgan, chunki jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan muayyan jazolargina jinoyatchilikka qarshi kurashda tanlanishi hamda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llanilanishi mumkin.

*Jazo tizimi* jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan tayinlanishi mumkin bo‘lgan va og‘irligiga qarab jinoyat qonunida tegishli tartibda belgilangan jazo turlarining batafsil ro‘yxatidir. Yangi tizim avval amalda bo‘lgan va «og‘irroq jazodan uncha og‘ir bo‘lmagan jazoga o‘tishi» prinsipiga tayangan jazo tizimidan farqli o‘laroq, «uncha og‘ir bo‘lmagan jazodan og‘irroq jazoga o‘tish» prinsipiga asoslanadi.

Jazo tizimining ancha yengil turidan og‘irroq turiga o‘tish asosida qurilishi jinoyat huquqida odillik, tenglik, insonparvarlikni aks ettiruvchi gumanizm prinsiplari taraqqiy etishidan dalolat beradi.

Bevosita qonunning o‘zida jazoning alohida turlarini qo‘llash shartlari, chegaralari va qoidasi ko‘rsatilgan bo‘lib, bu esa jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining bir xil bo‘lishini ta’minlaydi. Jazo tizimida jinoyat huquqining asosiy prinsiplari o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasining jazo tizimi odilligi bilan ajralib turadi.

Davlatning jazo tizimi jinoyatchilikka qarshi kurash malakasiga, huquqshunoslik, psixologiya, pedagogika fanlarining ilmiy yutuqlariga asoslangan holda, jinoyat sodir etgan shaxslarning axloqan tuzalishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, mahkumlar va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini oladi.

JKning 43-moddasida jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy va qo‘shimcha jazolarning to‘liq ro‘yxati berilgan. Ular quyidagilardir: jarima, muayyan huquqlardan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi, harbiy va maxsus unvondan mahrum qilish.

Jazo tizimi uchta jihatga ega. Birinchidan, u jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jazoni amalga oshiruvchi odil sudlov organlarining

ishtiroki majburiy bo‘lgan va jinoyatchilikka qarshi kurash choralarini o‘z ichiga olgan jinoiy jazolar yig‘indisidir. Qonun chiqaruvchi organ, jinoyat qonunida jinoiy javobgarlik asoslarini aniqlab, muayyan jazo turlarini ko‘zda tutadi va u yoki bu qilmishni jinoiylashtirib, faqat shu jazo turlarini qo‘llashi mumkin. Agar qonun chiqaruvchi organ jinoyatchilikka qarshi kurash vositasi sifatida davlat majburlovining yangi choralarini qo‘llash zarur deb hisoblasa, uning mazmunini belgilab qo‘yishi, jazo tizimiga o‘zgartish kiritishi lozim. Faqat shundan keyingina u yoki bu jinoyat uchun yangi jazoni qo‘llash mumkinligi nazarda tutiladi. Bunday tartib qonuniylik asoslarini izchil amalga oshirish hisoblanadi.

Jazo tizimining ikkinchi jihati shundaki, unda mahkumlarga yetkazilgan mahrumliklarning xususiyati va og‘irligi bo‘yicha turli darajalarga bo‘lingan jazo turlarining ro‘yxati aks etgan. Bunday jazo tizimi har bir nazarda tutilgan jazoning nisbiy og‘irligini aniqlash imkonini beradi va jazo choralarini aniqlashda jinoyat qonunidan foydalanishni osonlashtiradi.

Jazo tizimining uchinchi jihati sanab o‘tilgan jazolarni ijro qiluvchi subyektlarni (jazoni ijro qiluvchi muassasa va organlarni) aniqlash imkonini beradi. Sudlar jinoyat sodir etgan aybdor (muayyan shaxs)ga jazo tayinlab, o‘z qarorini JIKning 14-moddasiga ko‘ra, jazoni ijro etishga majbur muassasa yoki organga ijro qilish uchun yuboradi.

Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan jinoiy jazo turlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. O‘tash muddatlari ko‘rsatilgan jazo turlariga: ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, qamoq, xizmat bo‘yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari va muayyan huquqlarni cheklashlar kiradi. O‘tash muddati bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlariga: jarima, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari kiradi.

Mahkumlarga yetkaziladigan mahrumliklarning xususiyatiga qarab jazo turlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) mahkumni asosan ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodligini cheklash bilan bog‘liq jazo turlari (ozodlikdan mahrum qilish, qamoq, intizomiy qismga jo‘natish);

2) mahkum uchun asosan moddiy mahrumliklar bilan bog‘liq bo‘lgan jazo turlari (jarima);

3) mahkum huquqlarini cheklash bilan bog‘liq jazo turlari (axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, xizmat bo‘yicha cheklash);

4) mahkumga asosan ma’naviy ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq jazo turlari (harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish);

5) uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo turi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida aks etgan yuqoridagi jazo tizimi sudlarga sodir etilgan jinoyatning tarkibiga ko‘ra og‘irligi, jinoyatchining shaxsi va ishning boshqa holatlariga muvofiq, har bir sodir etilgan jinoyatga loyiq jazo tanlab, jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

Milliy qonunchiligimizda nazarda tutilgan jazo tizimi jamiyat qurilishi va davlatimizning insonparvarligini aks ettiradi. Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqlardan mahrum qilish kabi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarning belgilanganligi va ayni paytda unda umrbod qamoq jazosi, quvg‘in qilish, tan jazosi berish kabi jazolarning yo‘qligi ana shundan dalolat beradi. O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatining insonparvarligi yana shunda ko‘rinadiki, qonunda voyaga yetmaganlar, ayollar, qariyalar, nogironlar va boshqalarga jazo qo‘llashda bir qator cheklanishlar nazarda tutilgan. Qonunchilikni bu yo‘nalishda takomillashtirish davom etadi.

«Eng avvalo, – deb ta’kidlaydi I. A. Karimov, – jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo‘llanishini ta’minlashimiz zarur»[1].

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni ancha xavfli jinoyatlarni, shuningdek, ijtimoiy xavfi kam bo‘lgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga qarshi kurashda samarali foydalanish imkonini beradigan, og‘irligi bo‘yicha har xil jazo turlarini nazarda tutadi.

## 2. Asosiy jazolar

Milliy jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan barcha jazolar (JK 43-m.) ikki turga, ya’ni asosiy va qo‘shimcha jazolarga bo‘linadi.

*Asosiy* jazolar alohida qo‘llanilib, ularni boshqasini to‘ldirish maqsadida bir-biriga qo‘shib bo‘lmaydi. JK 43-moddasining 1-qismiga muvofiq, jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazoning asosiy turlari hisoblanadi.

*Jarima.* Jinoyat qonunchiligiga ko‘ra (JK 44-m.), jarima aybdordan Jinoyat kodeksida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravaridan 600 baravarigacha bo‘lgan miqdordagi pulni davlat foydasiga undirishdir. Jarima sanksiyalarining miqdori Maxsus qismning moddalari bilan belgilanadi.

Jarima faqat asosiy jazo chorasi sifatida qo‘llaniladi. Jarimaning aniq miqdori sodir etilgan jinoyatning og‘irligiga qarab, aybdorning mulkiy ahvolini hisobga olgan holda (oylik maoshi, oila a’zolarining soni va h. k.), sud tomonidan moddalar sanksiyasi doirasida belgilanadi. Masalan, noqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni tuzganlik uchun (JK 216-m.) jazo turlaridan biri sifatida eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima nazarda tutilgan; hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatgani uchun (JK 219- m.

---

[1] *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т., 2002. – 33-б.

1-q.) aybdor eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

Jinoiy jazo chorasi sifatida belgilangan jarima shaxsni muayyan moddiy mulkdan mahrum qiladi. Jarima katta ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan jinoyatlar uchun eng samarali ta’sir vositalaridan biri bo‘lib, u sud amaliyotida ko‘p qo‘llaniladi. U odatda mahkumning doimiy mablag‘lari hisobidan to‘lanishi mo‘ljallangan. Jarima, bir tomondan, o‘z miqdoriga ko‘ra mahkum to‘lay oladigan bo‘lishi, boshqa tomondan esa, uning ta’siri mahkumni kelgusida o‘z xatti-harakatlariga nisbatan yanada e’tiborliroq bo‘lishiga undashi lozim. Ayni paytda, jarima atrofdagilarga ham tegishli tarzda ta’sir qilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3 fevraldagi 1-sonli qarorida sudlarga jarima jazosini kengroq qo‘llash tavsiya etildi Uning miqdori shaxs jinoyat sodir etgan vaqtdagi eng kam oylik ish haqidan kelib chiqishi kerak.

Agar mahkum hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtda jarimani to‘lash imkoniga ega bo‘lmasa, unda jarima JK 44-moddasining 3-qismi va JIKning 19-moddasiga asosan, muddati kechiktirilishi yoki uch oy muddatga cho‘zilishi mumkin.

Agarda hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to‘lashdan bo‘yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani undirishning imkoni bo‘lmasa, xuddi shuningdek, kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to‘lanmagan yoki jarimani bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlari buzilgan taqdirda, sud jarimaning to‘lanmagan miqdorini axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilishning har bir oyi eng kam oylik ish haqining o‘n olti baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga, qamoqning har bir oyi esa, eng kam oylik ish haqining yuz baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, olti oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga tayinlanadi.

Jinoiy jazo sifatida mahkumga belgilangan jarima ma’muriy jazo chorasi sifatida belgilangan jarimadan shunisi bilan farqlanadiki, unda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud hukmi qo‘llaniladi va oqibatda sudlanganlik kelib chiqadi.

*Muayyan huquqlardan mahrum qilish.* Bu jazoni belgilashdan asosiy maqsad aybdorning xizmat vazifasi bilan bog‘liq jinoiy faoliyatini cheklash va, shu bilan birga, yangi jinoyat sodir etishining oldini olishdan iborat.

Muayyan huquqlardan mahrum qilish ham asosiy, ham qo‘shimcha jazo sifatida belgilanishi mumkin[1].

*Axloq tuzatish ishlari.* Bu jazo chorasi faqat asosiy jazo sifatida belgilanadi. JKning 46-moddasida ko‘rsatilganidek, axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo‘lib, jazo

[1] Jazoning bu turi mazkur bobning 4-paragrifida batafsil ko‘rib chiqiladi.

sudning hukmiga muvofiq, mahkumning o‘z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladi. Shunday qilib, JKning 46-moddasida axloq tuzatish ishlarining ikki turi, ya’ni mahkumning o‘z ish joyida va boshqa joylarda o‘taladigan axloq tuzatish ishlari nazarda tutiladi.

Axloq tuzatish ishlarining birinchi turini odatda sud doimiy ish yoki xizmat joyiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan belgilaydi. Axloq tuzatish ishlarining bu turida mahkum sud hukmi chiqarilgunicha o‘z jamoasida shug‘ullangan ishini davom ettiraveradi.

Axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan mahkumning ishdan bo‘shashi yoki boshqa ishga o‘tishi mehnat qonunlariga asosan va axloq tuzatish ishlarini nazorat qiluvchi ichki ishlar organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Agar axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxs saylab qo‘yiladigan lavozimni egallab turgan bo‘lsa, u ishlayotgan tashkilot yoki jamoa uni chaqirib olish yoki oldingi lavozimida qoldirish masalasini hal qiladi.

Axloq tuzatish ishlarining boshqa joylarda o‘taladigan turi sud tomonidan doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan yoki hozirgi vaqtda ishlamaydigan shaxslarga nisbatan belgilanadi. Doimiy ish joyiga ega bo‘lgan mahkumlarga nisbatan sud uning sudgacha egallagan vazifasi aybdorni bu vazifada qoldirishni maqsadga muvofiq emas, deb topgan hollardagina bu jazo turi belgilanadi. Mazkur jazoning ijrosi mahkumni shartnoma asosida korxona, muassasa, tashkilotlarga ishga joylaydigan mahkum yashab turgan joydagi ichki ishlar organi – axloq tuzatish ishlari inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi (O‘zR JIK 26-m.).

Axloq tuzatish ishlari JK 46-moddasining 3-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgan mehnatga layoqatsizlarga, (masalan, og‘ir va surunkali kasalligi bor, uzoq davolanishga muhtoj kasallarga), homilador ayollarga, shuningdek, yosh bolasini boqish uchun ta’tilda bo‘lgan ayollarga, pensiya yoshiga yetganlarga, harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Bunday holatlarda ularga qonunda ko‘zda tutilgan jinoiy jazoning yengilroq choralari (masalan, jarima) qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli qarorida axloq tuzatish ishlarini qo‘llash masalasini ko‘rib chiqib, pensiya yoshiga to‘lganlar, 16 yoshga to‘lmagan shaxslarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta’tilda bo‘lgan ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan uni tayinlanmaydi. Qoidaga ko‘ra, sudlar xizmat yoki kasb vazifasi bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan axloq tuzatish ishlari jazosini o‘z ish joyida ilgarigi xizmat mansabi yoki kasbida o‘tashni qo‘llamasliklari lozim, chunki aybdorni (jumladan, xizmat ko‘rsatish va savdo qoidalarini buzgan sotuvchilar, o‘ziga ishonib topshirilgan moddiy qimmatliklar yoki pul mablag‘larni o‘zlashtirgan shaxslar va boshqalarni) o‘z ish joyida qoldirish jazoning tarbiyaviy ahamiyati va ta’sir kuchini susaytirishi mumkin.

Sudlar aybdorlarga axloq tuzatish ishlari tayinlayotib, uning muddati va ish haqidan chegirish miqdori masalasiga jazo tayinlashda alohida yondashish

zarurligi to‘g‘risidagi qonun talabiga rioya etgan holda belgilashlari kerak.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga muvofiq, mahkum axloq tuzatish ishlarini o‘tash muddati mobaynida jazoni ijro etuvchi inspeksiyaning ruxsatisiz o‘z tashabbusi bilan ishdan bo‘shashi taqiqlanadi. Axloq tuzatish ishlari jazosini o‘tash muddati mahkumning umumiy va uzluksiz ish stajiga, shuningdek, dam olish, imtiyoz va qo‘shimcha haq to‘lash imkonini beradigan stajga ham qo‘shilmaydi. Axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan mahkumga navbatdagi mehnat ta’tili berilmaydi. Biroq, ta’til qonunda ko‘zda tutilgan hollarda, istisno tariqasida, berilishi mumkin.

JK 46-moddasining 4-qismida axloq tuzatish ishlaridan bosh tortgan mahkumlar javobgarligining normalari nazarda tutilgan. Agar u sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo‘lib o‘ndan bir qismidan ko‘prog‘ini o‘tashdan bo‘yin tovlasa, aytaylik u ikki yilga axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan va jazoni o‘tash davomida sababsiz 2,4 oydan ko‘proq vaqt ishlamagan bo‘lsa, sud axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtiradi. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan vaqt jazoning o‘talgan muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi. Bundan tashqari, JIK 30-moddasining 5-qismiga asosan, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi to‘lanmaydigan kasallik vaqti, qamoq tariqasidagi ma’muriy jazoni o‘tash vaqti, boshqa jinoyat sodir etganligi munosabati bilan qamoqda saqlangan vaqt jazoni o‘tash muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

*Xizmat bo‘yicha cheklash.* Bu jazo faqat harbiy xizmatchilarga asosiy jazo turi sifatida belgilanadi. Xizmat bo‘yicha cheklash, JKning 47-moddasiga muvofiq, ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi, praporshik, michman va harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta’minotining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iboratdir.

Mazkur jazo turi muddatli harbiy xizmatchilar va muqobillik asosida xizmat o‘tayotganlarga tatbiq etilmaydi. U axloq tuzatish ishlariga o‘xshab ketadi. Farqi shundaki, xizmat bo‘yicha cheklashning subyekti ofitserlar tarkibiga kiruvchi va shartnoma asosida xizmat o‘tayotgan harbiylar bo‘ladi (IIVning ichki va qorovul qo‘shinlarida, shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, chegara qo‘shinlari va Milliy xavfsizlik xizmatidagi harbiy xizmatchilar ham ularga tenglashtiriladi), shuningdek, xizmat bo‘yicha cheklash ikki oydan uch yilgacha, axloq tuzatish ishlarida esa bu muddat olti oydan boshlanadi.

Xizmat bo‘yicha cheklash Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi moddalarda nazarda tutilgan (279-m. 1-q., 280-m. 1-q., 281-m. 1-q., 283-m. 1-q., 284-m. va b.) hollarda ikki oydan uch yilgacha muddatga qo‘llaniladi.

Shunday qilib, JKning 47-moddasi mahkumni xizmat bo‘yicha cheklash mumkinligini nazarda tutadi: moddiy jihatdan – lavozim oyligi va harbiy unvoni hisobidan pul ta’minotining o‘n foizidan o‘ttiz foizigacha bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish (JIK 143-m.); mahkumni muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilish. Qonunda belgilanishicha, mahkum jazoni

o‘tayotgan paytda, lavozimi va harbiy unvoni oshirilmaydi, jazoni o‘tayotgan vaqt esa uning ko‘p yil ishlaganlik, navbatdagi harbiy yoki maxsus unvon hamda pensiya olish uchun asos bo‘ladigan xizmat muddatiga qo‘shilmaydi.

Xizmat bo‘yicha cheklash boshqa jinoiy jazolar o‘rniga ham qo‘llanilishi mumkin. Jinoyat qonuni (JK 47-m. 2-q.) sudga ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat yoki og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarmagan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat uchun ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish, qamoq yoki axloq tuzatish ishlari jazosi o‘rniga shu muddatga xizmat bo‘yicha cheklash jazosini qo‘llashga izn beradi.

Mahkumning xizmat bo‘yicha cheklash jazosini o‘tashi bilan bog‘liq yana bir holatni ta’kidlash joiz, ya’ni boshqa jinoyatni sodir etgani uchun hukm qilingan harbiy xizmatchining qamoqdagi vaqti jazoni o‘tash muddatiga qo‘shilmaydi (JIK 142-m. 2-q.).

*Qamoq.* JKning 48-moddasiga muvofiq, qamoq shaxsni batamom ajratgan sharoitda bir oydan olti oygacha muddatga saqlashdan iborat bo‘lib, jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va xizmat bo‘yicha cheklashga nisbatan ancha qattiq jazodir. U jazo elementlarini o‘zida mujassam etgan va ozodlikdan mahrum qilish jazosi shartlariga yaqinroq turadi. Bu yana shu bilan bog‘liqki, qamoqqa hukm qilingan shaxs jazo muddatining hammasini hukm qilingan qamoqxonada (tergov izolatori yoki turmada), odatda bir muassasada o‘taydi. Mahkumni bir qamoqxonadan boshqasiga o‘tkazish, JIK 33-moddasining 3-qismiga asosan, ushbu Kodeksining 57-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda uning xavfsizligini ta’minlash uchun roziligini olgan holda, shuningdek, mahkumning mazkur muassasada qolishiga to‘sqinlik qiladigan boshqa hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Qamoq jazosiga birinchi marta hukm qilinganlar qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazolarni oldindan o‘tayotganlardan alohida kameralarda saqlanadilar.

Qamoq jinoiy jazoning asosiy turiga kiradi hamda u erkaklarga va ayollarga, voyaga yetmaganlarga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ular qamoqxonalarda jazoni alohida o‘tashadi.

Ta’kidlash joizki, qamoq jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar boshqalardan farqli o‘laroq, jazoni qamoq uylarida emas, balki garnizon avaxtasida o‘taydilar. Bunda ofitserlar, kontrakt asosida xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va muddatli harbiy xizmatchilar bir-biridan alohida saqlanadilar (O‘zR JIK 148-m.).

Qamoq sud tomonidan qasddan, shuningdek, ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyatlar uchun qo‘llaniladi.

Qamoq JK Maxsus qismi normalarining sanksiyalarida, odatda jazoning muqobil turi sifatida foydalaniladi. Ushbu jazo turi ozodlikdan mahrum qilish jazosi kabi sudlanganni qayta tarbiyalashga, uni jamiyatdan ajratmagan holda erishish mumkin bo‘lmagan hollardagina qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi 1-sonli qarorida qamoq tariqasidagi jazoni belgilashda «…ehtiyot chorasi sifatida

shaxsningamoqda saqlanishi o‘z-o‘zidan qamoq jazosini tayinlash uchun asos bo‘la olmaydi»[1] degan qoidaga amal qilish lozimligini sudlarga tavsiya qiladi.

*Intizomiy qismga jo‘natish.* Jinoyat sodir etgan muddatli harbiy xizmatchilarga intizomiy qismga jo‘natish tariqasidagi jazo qo‘llanishi mumkin. JKning 49-moddasiga muvofiq, intizomiy qismga jo‘natish muddatli harbiy xizmatchilarni sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo‘lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir.

Intizomiy qismga jo‘natish Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalari (279-m. 1-q., 280-m. 1-q., 281-m. 1-q., 283-m. 1-q. va b.)da nazarda tutilagan hollarda asosiy jazo chorasi sifatida harbiy sud tomonidan uch oydan bir yilgacha belgilanishi mumkin.

Harbiy sud, JK 49-moddasining 2-qismiga muvofiq, bevosita qonun sanksiyalarida ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham harbiy, shuningdek, boshqa jinoyatlarni sodir etganligi uchun harbiy xizmatchilarga intizomiy qismga jo‘natish jazosini tayinlashi mumkin. Sud ish holatlari hamda mahkumning shaxsini hisobga olgan holda muddatli harbiy xizmatchiga nisbatan uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga shu muddatga intizomiy qismga jo‘natish jazosini qo‘llashi mumkin.

Ko‘rib chiqilayotgan jazo chorasi o‘ziga xos bo‘lib, faqat muddatli harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanishi mumkin. U shartnoma asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan ofitser va harbiy xizmatchilarga qo‘llanilmaydi.

Sud ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan harbiy xizmatchini intizomiy qismga jo‘natishda, avvalo, hukmda ozodlikdan mahrum qilish muddatini belgilashi, keyin esa uning shu muddatga intizomiy qismga jo‘natish bilan almashtirilganini ko‘rsatishi lozim.

Intizomiy qismda jazo o‘tayotgan shaxs harbiy xizmatchi hisoblanadi va shu qismda amal qilayotgan nizomga ko‘ra, harbiy xizmatni o‘taydi. Harbiy xizmatchi bu qismdan ozod etilganidan keyin harbiy xizmatini davom ettirish uchun o‘zining oldingi harbiy qismiga qaytib boradi. Bu jazoni o‘tash muddati harbiy xizmatchilarning muddatli harbiy xizmatni o‘tash muddatiga kirmaydi, muddatli harbiy xizmatchilar uchun nazarda tutilgan ta’til mahkumlarga berilmaydi. Harbiy mutaxassislikka ega bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ustavining talablarini puxta va aniq bajargan hamda intizomiy qismdan ozod bo‘lganidan keyin xizmatni benuqson ado etgan harbiy xizmatchilarga intizomiy qismda bo‘lgan vaqtlari qo‘mondonlik tomonidan muddatli harbiy xizmat vaqtiga qo‘shilishi mumkin.

JK 78-moddasining «б» qismiga asosan, intizomiy qismda jazoni o‘tagan yoki undan muddatidan oldin ozod bo‘lgan harbiy xizmatchi sudlanmagan hisoblanadi, ya’ni uning sudlanganlik holati tugatiladi.

---

[1] «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006-йил 3-февралдаги 1-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т.2. – Т., 2006. – 232-б.

*Ozodlikdan mahrum qilish.* Ozodlikdan mahrum qilish jinoiy jazo sifatida mahkumni majburan jamiyatdan ajratib, jazo koloniyalari, manzil koloniyasi, tarbiyaviy koloniyalar yoki turmalarga joylashtirishdan iborat.

Ozodlikdan mahrum qilish ancha og‘ir jazo bo‘lib, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun qo‘llaniladi (JK 15-m. 1-q.). Jinoyat qonuni 85-moddasining 4-qismiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, ehtiyotsizlik oqibatida yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi. Bu jazo asosiy jazo tariqasida olti oydan kam bo‘lmagan muddatga belgilanadi. Shu bois ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llashda sudlar har doim ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llash uchun asoslar yetarli ekanligini aniqlashlari lozim.

Ozodlikdan mahrum qilish o‘z ichiga majburlov va tarbiya elementlarini qamrab oladi hamda umumiy va maxsus oldini olish masalalarini hal etadi. Bunday jazoga hukm qilingan shaxs erkinlikdek juda muhim manfaatdan mahrum bo‘ladi va majburiy tarzda axloq tuzatish – tarbiyaviy ta’sirlariga, bir qator huquqiy va maishiy cheklashlarga, shuningdek, qarindoshlari, yaqinlari va tashqi dunyo bilan muloqotdan cheklashlarga duchor qilinadi.

JKning 50-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish olti oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi. Bu muddat JKning 60-moddasida nazarda tutilgan bir necha jazolar qo‘shib tayinlaganida yigirma besh yilgacha tayinlanishi mumkin.

JKning 50-moddasi 3 qismiga muvofiq, uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-m. 2-q.) va terrorizm (155-m. 3-q.) uchun tayinlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunida voyaga yetmagan (JK 85-m.), oltmish va undan katta yoshdagi erkaklar va ayollarga (JK 50-m. 4-q.) nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi cheklashlar bilan qo‘llanishi belgilangan. Har bir muayyan holatda ozodlikdan mahrum qilish JKning Maxsus qismidagi moddalarga mos sanksiyalar doirasida belgilanadi. Sud jazoni belgilashda aybdorning qilmishi tasniflangan moddada ko‘rsatilgan ozodlikdan mahrum qilishning oxirgi muddatini oshira olmaydi.

Mahkumning jinsi va yoshiga, sodir etilgan jinoyatning og‘irligiga qarab, shuningdek, mazkur shaxs ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni oldin ham o‘tagani yoki bunday jazoga birinchi marta hukm qilinayotgani hisobga olingan holda, ozodlikdan mahrum qilish jazosi turli xil jazoni ijro etish muassasalarida (umumiy, qattiq va maxsus tartibli yoki turmalarda) o‘taladi. Bu jazoga hukm qilingan erkak va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshdagilar uni alohida o‘taydilar.

Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetgan mahkumlar jazoni asosan, jazo koloniyalarida o‘taydilar.

Ozodlikdan mahrum qilingan katta yoshdagi erkaklar jazoni to‘rt turdagi rejimda, ya’ni manzil-koloniya, umumiy, qattiq va maxsus tartibdagi kolo-

niyalarda o‘taydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida»gi 1-sonli qarorida ta’kidlanganidek, ozodlikdan mahrum qilish jinoiy jazo tariqasida, odatda, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, alohida hollarda esa, sudlanuvchining shaxsini inobatga olgan holda – ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan, agar bunday shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishning imkoni bo‘lmasa, qo‘llaniladi. Bunday jazoning tayinlanishi hukmda asoslangan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi «O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, JKning 50-moddasiga bir qator o‘zgartishlar kiritildi. JK 50-moddasining 7-qismiga asosan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil – koloniyalarda;

b) qasddan og‘ir jinoyat sodir etganlik va o‘ta og‘ir jinoyati uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

d) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tab chiqib, qasddan yangi jinoyat sodir sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

g) o‘ta xavfli retsidivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o‘tash tayinlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar, shuningdek avf etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o‘taydilar.

JK 50-moddasining 8-qismiga asosan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilganlarga hamda qasddan unga og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazoni manzil – koloniyalarda;

b) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun jazoni umumiy tartibli - koloniyalarda;

d) ilgari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tab chiqib, yangi sodir etgan o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga, shuningdek o‘ta xavfli retsidivit deb topilganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o‘tash tayinlanadi.

Ayollar uchun maxsus tartibdagi koloniyalar (joriy qilinmaydi) nazarda tutilmagan. Bir turdagi koloniyalar boshqasidan mahkumlarni saqlashdagi qattiqlik darajasi bilan farqlanadi. Biroq turli xil jazoni ijro etish koloniya-

larida muayyan saqlash tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiligi bilan belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilingan shaxs, odatda, to‘liq jazo muddatini bir jazo koloniyasi yoki tarbiyaviy koloniyada o‘tashi lozim, JIKning 57–59-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiligi jazoni o‘tash chog‘idagi namunali xulqi uchun erkak va ayol mahkumlarni rag‘batlantirish chorasi sifatida, umumiy yoki qattiq tartibdagi koloniyalardan manzil-koloniyalariga o‘tkazishni nazarda tutadi. Bunda ular oldin qanday tartibdagi koloniyalarda saqlanganligidan qat’i nazar, erkak va ayol mahkumlar bir manzil-koloniyalarida birgalikda saqlanishi mumkin.

Ajratilish darajasi va saqlanish sharoitiga ko‘ra, anchagina qattiq bo‘lgan jazoni ijro etish muassasasi – bu *turma*. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish jazosi sudlar tomonidan faqat 18 yoshga to‘lgan hamda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan va buning uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan, shuningdek, o‘ta xavfli retsidivistlarga belgilanadi. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum etish jazosiga muddatning bir qismi, ya’ni besh yildan ortiq bo‘lmagan muddati tayinlanishi mumkin. Masalan, sud sudlanuvchini sakkiz yilga ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilsa, uning birinchi uch yilini turmada, qolgan besh yilini koloniyada o‘tashini belgilashi mumkin.

JK 50-moddasi 10-qismiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarning jazoni o‘tash jarayonidagi xulqi inobatga olinib, qonunda ko‘zda tutilgan hollarda, bir jazoni ijro etish muassasasidan boshqasiga o‘tkaziladi (masalan, tarbiyaviy koloniyadan jazoni ijro etish koloniyasiga, maxsus tartibdagi koloniyadan qattiq tartibdagi koloniyaga, jazoni ijro etish koloniyasidan manzil-koloniyasiga). Mahkumga belgilangan jazoni ijro etish muassasasi turini o‘zgartirish sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi JPKning 537-moddasiga asosan, mazkur muassasa ma’muriyati taqdimnomasiga ko‘ra hamda jinoyat-ijroiya qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jinoyat qonunchiligi ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash joyini o‘zgartirish asosini ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, sud tomonidan jazoni manzil-koloniyada o‘tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni jazoning o‘talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o‘tkazadi.

Jazoni ijro etish muassasalarning ma’muriyati maishiy jihatdan va ishga joylashtirishda ehtiyoj sezgan shaxslarni aniqlashda, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan shaxslar yashash joyini tanlagan yerdagi ularni jamiyatga moslashtirish markaziga oldindan quyidagilar haqida xabar beradi:

shaxsning tez orada ozod etilishi, uning yashash joyi bor-yo‘qligi, mutaxassisligi, mehnatga layoqati va h. k.

Ayni paytda muassasa ma’muriyati ichki ishlar organlari ma’muriy nazoratga olishi kerak bo‘lgan shaxslarni aniqlaydi va qonun (JIK 171-moddasi)da belgilangan tartibda sudga tegishli taqdimnoma kiritadi.

Ta’kidlash joizki, jinoiy jazo chorasini belgilash haqidagi qonunga og‘ishmay amal qilish sudlarning muhim vazifalaridan biridir. Shu munosabat bilan fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tajovuz qilish, poraxo‘rlik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar hamda qurollar tarqatish, shuningdek, respublika iqtisodiyotiga zarar yetkazuvchi jinoyatlar alohida xavf tug‘dirishini nazarda tutish kerak. Bunday shaxslarga nisbatan yon bosishning har qanday ko‘rinishlari qonuniylikni jiddiy buzish deb baholanishi lozim. Shuningdek, og‘ir jazo choralari, JK 7-moddasining 3-qismiga asosan, boshqa choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan holdagina tayinlanishi mumkinligi ham e’tiborga olinishi kerak.

## 3. Qo‘shimcha jazolar

O‘zbekiston Respublikasi JK 43-moddasining 2-qismida qo‘shimcha jazolar ro‘yxati keltirilgan. *Qo‘shimcha jazo* shunday jazoki, u mustaqil ravishda qo‘llanilmay, qaysidir asosiy jazo bilan birgalikda belgilanadi. Qonunda faqat bir turdagi jazo, ya’ni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish qo‘shimcha jazo turiga kiritilgan. Qo‘shimcha jazolar yordamchi xususiyatga ega bo‘lib, sudga sodir etilgan jinoyat og‘irligiga mos jazo chorasini individuallashtirish va umumiy hamda maxsus majburlov ta’siriga erishish imkonini beradi.

Harbiy yoki maxsus unvonlardan, klass darajalari va boshqa unvonlar, shuningdek, mukofotlardan mahrum qilish jazosi mahkumga axloqiy ta’sir ko‘rsatish va harbiy, maxsus yoki faxriy unvonga ega yoxud orden, medal va yorliqlar bilan mukofotlanganlar uchun belgilangan muayyan imtiyozlardan mahrum qilishni nazarda tutadi.

JKning 43-moddasiga muvofiq, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish faqat qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilishi mumkin. Aybdorga nisbatan jazo qo‘llashga JKning 52-moddasiga muvofiq, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etish asos bo‘ladi.

JK 52-moddasining 2-qismiga asosan, harbiy yoki maxsus unvonga yoxud O‘zbekiston Respublikasi mukofotiga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan bunday unvondan yoki mukofotdan mahrum qilinishi mumkin. Bunday hollarda sud mahkumlarni polkovnikkacha bo‘lgan harbiy yoki ularga tenglashtirilgan maxsus unvonlardan mahrum qilish vakolatiga ega.

Sud hukmi bilan mahkum Mudofaa vaziri, Ichki ishlar vaziri, Favqulodda holatlar vaziri, Milliy xavfsizlik xizmati raisi, Davlat bojxona qo‘mitasi raisi, Davlat chegaralarini qo‘riqlash bo‘yicha Davlat qo‘mitasi raisi, Bosh prokuror yoki unga tenglashtirilgan unvonlar berish huquqiga ega mansabdor shaxslar

tomonidan berilgan harbiy yoki maxsus unvondan mahrum etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 16–18-bandlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Oliy harbiy, maxsus malakaviy va faxriy unvonlarini berish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining orden, medal va faxriy yorliqlari bilan taqdirlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatiga kiradi. Ayrim mukofotlar respublikaning boshqa organlari tomonidan berilishi mumkin (masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy davlat hokimiyati tomonidan). Shuning uchun ham sud yuqorida ko‘rsatilgan unvon va davlat mukofotlaridan mahrum qilishni aybdor shaxsga unvon yoki mukofot bergan organga taqdimnoma yuborish orqali amalga oshiradi. Ushbu taqdimnoma asosida tegishli organlar mahkumni berilgan unvon yoki mukofotdan mahrum qilishlari mumkin.

Og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm qilish va jazoni o‘tash bilan harbiy, faxriy va boshqa unvonlari tufayli shaxsga beriladigan muayyan imtiyozlarni saqlab qolish bir-biriga mos kelmaydi. Shuning uchun dastlabki tergov organlari ayblanuvchining orden, medal, harbiy, maxsus, faxriy va boshqa unvonlari borligini aniqlashlari lozim. Bunda shuni e’tiborga olish kerakki, ko‘rilayotgan jazo nafaqat haqiqiy xizmatdagi shaxslarga, balki zaxira yoki iste’fodagilarga ham tatbiq qilinadi.

Sud mahkumni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish haqida hukm chiqargandan so‘ng, hukmning nusxasini unvon bergan organga, zaxiradagi harbiy xizmatchiga chiqarilgan hukm nusxasi esa u yashayotgan joydagi mudofaa ishlari bo‘limiga yuboriladi.

Unvon bergan organ rahbari mahkumni unvondan mahrum qilish to‘g‘risidagi yozuvni tegishli hujjatga belgilangan tartibda qayd etadi, unga berilgan huquq va imtiyozlarning bekor qilish choralarini ko‘radi hamda ijro uchun yuborilgan sud qarorini olgan kunidan bir oy muddat ichida bajarilganligi haqida sudga xabar qiladi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan.

## 4. Muayyan huquqdan mahrum qilish

Jinoyat qonunida (JK 43-m. 4-b.) muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatida emas, balki qo‘shimcha jazo tariqasida ham qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan.

*Muayyan huquqdan mahrum qilish* – bu JKning 45-moddasida nazarda tutilgan jazo chorasi bo‘lib, sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxona, muassasa yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Bunday mansab yoki faoliyatni sud o‘z ayblov hukmi qarorida belgilaydi.

JK 45-moddasining 2-qismiga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bevosita bog‘lik bo‘lgan jinoyatni sodir etganligi uchun tayinlanadi. Ushbu jazo sud tomonidan asosiy

jazo tariqasida bir yildan besh yilgacha muddatga tayinlanadi. Bunday jazo turi JK 116-moddasining 1 va 2-qismlari, 133-moddasining 1-qismi, 141-moddasining 1-qismi, 143-moddasi, 145-moddasining 1-qismi va boshqa moddalarning mazmunini tashkil qiladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning sodir etgan jinoyati mansabi yoki muayyan faoliyati bo‘yicha sodir etilgan holatlarda, mahkumning bajarib turgan faoliyati yoki mansabini saqlab qolish mumkin bo‘lmagan hollarda sud tomonidan belgilanishi mumkin.

Mahkumni muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining mohiyati uni ishlayotgan tizimida ishlash huquqdan emas, balki muayyan mansabni egallash huquqidan mahrum qilishdir. Shuning uchun ham bunday jazo tayinlanayotganda qanday mansabni egallash taqiqlanishi aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish mahkumga hukmda ko‘rsatilgan muddatda, bu uning doimiy yoki vaqtinchalik ishi bo‘lishidan qat’i nazar, jinoyat sodir etilgan faoliyat bilan shug‘ullanishini taqiqlashdan iborat. Masalan, ovchilik tartibini buzganligi uchun (JK 202-m.) aybdor ov qilish huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Yoki JKning 266-moddasiga ko‘ra, harakat xavfsizligi qoidalarini buzganligi uchun aybdor transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilinadi.

Aybdor hukm qilinayotgan moddaning sanksiyasida bu jazo chorasi nazarda tutilmaganligidan yoki sanksiyada asosiy jazo choralaridan biri tariqasida ko‘rsatilishidan qat’i nazar, sud qo‘shimcha jazo chorasi sifatida mahkumni muayyan huquqdan mahrum qilish huquqiga ega.

Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo‘shimcha jazoni, ayniqsa, moddiy qimmatliklarni talon-toroj qilish bilan bog‘liq, shuningdek, hokimiyat va mansab mavqeidan g‘arazli maqsadlarda foydalangan mansabdor shaxslarga nisbatan qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Muayyan huquqdan mahrum qilishni sud ayrim hollarda asosiy yagona jazo sifatida, hatto unga qo‘shimcha jazolarni ham qo‘shsa, boshqa hollarda u boshqa asosiy jazoga qo‘shimcha jazo sifatida belgilanishi mumkin.

JK 45-moddasining 3-qismiga muvofiq, agar muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorga asosiy jazo sifatida belgilanmagan bo‘lsa, JK Maxsus qismi moddalariga tegishli har qanday jazo turiga sud tomonidan qo‘shimcha jazo tariqasida belgilanishi mumkin.

Agar mazkur jazo ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish yoki qamoqqa qo‘shimcha jazo tariqasida belgilansa, u aybdor o‘tayotgan asosiy jazoga va bundan tashqari, hukm bilan belgilangan muddatga tatbiq qilinadi.

Mazkur jazo chorasi haqidagi sud qarorining mansabdor shaxslar tomonidan bajarilmasligi jinoiy jazoga sazovordir (JK 232-m.).

## 5. Uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishni mustaqil tur sifatida ozodlikdan mahrum qilishning boshqa muddatli turlaridan ajratishning huquqiyligi jinoyatlar turlari darajasida ham, ozodlikdan mahrum qilishning uzoq muddati qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar toifalari darajasida ham tayinlash chog‘ida qo‘llaniladigan o‘ziga xos cheklovlar bilan bog‘liq.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat ikkita jinoyat uchun tayinlanishi mumkin: 1) aybni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-m. 2-q.); 2) terrorizm (155-m. 3-q.). Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish mutlaq-muayyan, ya’ni faqat bitta jazo chorasi ko‘rsatilgan sanksiyalarda nazarda tutilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum qilishning bu turi sanksiyalarda faqat jazoning boshqa asosiy turlari bilan bir qatorda muqobil jazo chorasi sifatida nazarda tutilishi kerak, chunki sud ishning barcha holatlari va aybdorning shaxsini inobatga olgan holda eng odil jazo chorasini tanlash imkoniga ega bo‘lishi kerak.

Quyidagi shaxslarga uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin emas: a) yoshi va sodir etgan jinoyatining og‘irligidan qat’i nazar, ayollarga; b) 18 yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslar, ya’ni voyaga yetmaganlarga; d) 60 yoshdan katta erkaklarga.

Shunday qilib, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish faqat bir toifadagi shaxslarga, ya’ni 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklarga tayinlanishi mumkin. Bu hol, agar muqobil jazo sifatida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etgan shaxs hukm chiqarilgan paytda 60 yoshga to‘lgan bo‘lsa, unga jazoning boshqa yengilroq chorasi tayinlanishi lozimligini bildiradi.

Qonunda ozodlikdan mahrum qilishning nafaqat muddatlari, balki turlari ham belgilangan. Ozodlikdan mahrum qilishga, jumladan uzoq muddatga, hukm etilgan voyaga yetganlar jazoni koloniya yoki turmada o‘taydilar. Koloniyalar ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan voyaga yetganlar saqlanadigan muassasalarning asosiy turi hisoblanadi. Ular manzil-koloniyalar hamda umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarga bo‘linadi. Shaxs ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o‘tashi lozim bo‘lgan tegishli tartibdagi muassasaning turi hukmning qaror qismida belgilab qo‘yiladi. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun (JK 59-m.) yoki bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda jazoni o‘tash turi (turma, tegishli tartibli koloniya) jazoning oxirgi chorasi tayinlanganidan keyin-gina belgilanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo‘lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo‘yishdan iboratdir.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-m. 2-q.) va terrorizm (155-m. 3-q.) uchun belgilanadi.

Qonun chiqaruvchi organ umrbod ozodlikdan mahrum qilishni JKning 43-moddasida nazarda tutilgan jazolarning umumiy ro‘yxatiga jazoning maxsus chorasi sifatida kiritgan hamda uning qo‘llanish imkoniyatini ikki turdagi jinoyatlar va aybdorning shaxsiga jinsi va yoshi bo‘yicha taalluqli bo‘lgan uchta holat bilan cheklagan.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazoning favqulodda chorasi bo‘lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etuvchi koloniyaga joylashtirish orqali uni jamiyatdan muddatsiz ajratishdan iborat.

Qonundagi ta’rifda umrbod ozodlikdan mahrum qilishga xos bir qator belgilar mavjud: 1) u tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning alohida toifasi; 2) muddatsiz davom etishi; 3) ushbu jazoning alohida xususiyati.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish muddatsiz davom etadi. Unga jazoni o‘tashning eng kam muddati ham, eng ko‘p muddati ham belgilanmagan. Umrbod degani jazo mahkum vafot etgunicha ijro etilishini bildiradi. Jazoning ushbu turi muddatsiz ekanligi JK 73-moddasining 4-qismida keltirilgan qoida, ya’ni shartli ravishda muddatidan ilgari jazodan ozod qilish umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga qo‘llanilmasligi bilan ham tasdiqlanadi.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoyat huquqida jazo tizimining ahamiyati nimadan iborat?
2. Jinoyatchilikka qarshi kurashda jinoiy jazo tizimi qanday ahamiyatga ega?
3. Jinoiy jazoni qanday guruhlarga bo‘lish mumkin?
4. Mahkumni mahrum qiluvchi jinoiy jazoni tavsiflovchi guruhlarni ayting?
5. Jinoyat huquqining qaysi prinsiplari jazo tizimiga kiradi va ular qanday tavsiflanadi?
6. Jinoiy jazoning qaysi turlari asosiy hisoblanadi?
7. Jarima ko‘rinishidagi jinoiy jazoning qanday ahamiyati bor?
8. Jinoiy jazoning axloq tuzatish ishlari turi o‘z ichiga nimalarni oladi?
9. Xizmat bo‘yicha cheklash ko‘rinishidagi jinoiy jazo qanday xususiyatga ega?
10. Qamoq jinoiy jazoning qanday turi? Qamoq ozodlikdan mahrum qilishdan qanday farqlanadi?
11. Intizomiy qismga jo‘natish qanday jazo va u kimga nisbatan qo‘llaniladi?
12. Qaysi toifadagi mahkumlar qanday jinoyatlari uchun ozodlikdan mahrum qilinadi? Ular qanday muassasalarda jazoni o‘tashadi?
13. Jinoyat qonunchiligida qanday jazolar qo‘shimcha jazo turiga kiritilgan?
14. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazo qanday ahamiyatga ega va sud tomonidan kimga nisbatan qo‘llaniladi?
15. Muayyan huquqdan mahrum qilish jinoiy jazoning qanday turi tariqasida qo‘llaniladi, uning tavsifi va u harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilishdan qanday farqlanadi?
16. Uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini jazo tizimidagi ahamiyati nimadan iborat?

## XVI bob
## JAZO TAYINLASH

### 1. Jazo tayinlashning umumiy asoslari

Jazo tayinlash – jinoyat ishi bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishning hal qiluvchi jihati. Sud tanlaydigan jazo sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ko‘rsatuvchi haqiqiy mezon, shuningdek, aybdorning axloqan tuzalishiga yordam beruvchi eng qisqa yo‘l, mahkum va boshqa shaxslarning jinoyatlar sodir etishlarining oldini olishga imkon beruvchi amaliy vosita bo‘lishi kerak.

Sudning jazo tayinlash borasidagi faoliyati dastlabki tergov hamda jinoyat ishini sudda ko‘rib chiqishdan iborat butun bir murakkab jarayonning natijasidir. U sudlanuvchining aybini tavsiflovchi holatlarni, uning ijtimoiy xavflilik darajasini, jinoyatning sodir etilish sharoitlarini va boshqa holatlarni inobatga olish bilan bog‘liq.

Jinoyat qonunchiligida sud Jinoyat kodeksi Umumiy qismining jinoyat sodir etilganligi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qoidalariga muvofiq, Maxsus qismi moddasida ko‘rsatilgan doiralarda jazo tayinlashi belgilangan. Shu bilan birga, sud jazo tayinlayotganida jinoyat qonunchiligi prinsiplaridan kelib chiqadi.

Sudning jazo tayinlash borasidagi faoliyati – qonunga asoslangan faoliyat. Jinoyat qonuniga, ya’ni jinoyat huquqi Umumiy va Maxsus qismlarining talablariga qat’iy rioya etish, sudlanuvchining jinoiy harakatlarini aniq baholash va qonunda belgilangan sanksiyalarga og‘ishmay amal qilish – sudning jazoni to‘g‘ri tayinlashi uchun zarur bo‘lgan majburiy shart.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunida nisbiy-aniq yoxud muqobil sanksiyalar belgilangan, bunda muqobil sanksiyalar avvalgilari bilan qo‘shilishi mumkin. Binobarin, sud Jinoyat kodeksi 54-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan holatlardan kelib chiqib, nisbiy-aniq sanksiya doirasida jazoning muayyan turi minimumi va maksimumi doirasida jazo tayinlaydi, agar moddaning sanksiyasida muqobil jazolar nazarda tutilgan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga mos keladigan turdagi jazolardan birini tayinlaydi.

*Fuqarolarning qonun oldida tengligi*, jinsi, irqi, millati, qaysi tilda so‘zlashishi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodlari, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qonunning jazo tayinlashga oid talablarining bir xilda qo‘llanishi prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida belgilab qo‘yilgan va Jinoyat kodeksining 5-moddasida deyarli so‘zma-so‘z takrorlangan. Ushbu muhim konstitutsiyaviy qoida demokratik jamiyatda fuqaro huquqiy mavqeining asosini tashkil qiladi.

*Demokratizm* prinsipi jinoyat huquqida ham bevosita, ham jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatishda jalb etilishi mumkin bo‘lgan

jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoalarning ishtirokiga oid maxsus prinsip orqali o‘z ifodasini topadi. Ushbu prinsip jinoyat qonuni asosida jazolanadigan qilmishlar doirasini asta-sekin toraytirib borish va zarur hollarda jinoiy jazo choralarini jamoat ta’siri ko‘rsatish choralariga almashtirish tamoyilini (tendensiyasini) hayotga joriy etish imkonini beradi.

*Insonparvarlik* prinsipi odamlar haqida doimo g‘amxo‘rlik qilish va ularning qadr-qimmatini hurmat qilish ifodasi sifatida jinoyat huquqining barcha institutlari mazmuniga singib ketgan. Jinoyat huquqida ma’lum bo‘lgan jazolar tizimida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar ustunlik qiladi.

Jinoyat qonunlarida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning bir qator shakllari nazarda tutilgan. Jinoyat huquqidagi insonparvarlik jamiyat manfaatlarining jinoiy tajovuzlardan har tomonlama muhofaza etilishini hamda axloq tuzatish va yangi jinoyatlarning oldini olish maqsadlariga erishilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan ta’qiblar (jazolar) minimumini taqozo etadi.

Sud jazoni individuallashtirishda huquqiy ongga suyanib, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini inobatga oladi. Hukmda jinoyat hamda aybdor shaxsining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasidan dalolat beruvchi qaysi holatlar jazo chorasini tanlashda inobatga olinganligi ko‘rsatilishi zarur. Jazo «aybdorning shaxsini inobatga olgan holda» tayinlanganligining o‘zi yetarli emas.

Jinoyatning xavflilik xususiyati jazoni va javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni inobatga olishga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy xavfi kamroq bo‘lgan jinoyatlar sodir etilganida jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatlar beriladigan jazo turi va miqdorini tanlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Va, aksincha, shu holatlarning o‘zi xavfli jinoyat uchun jazoni individuallashtirishda jazoni tanlashga bunday ta’sir etmasligi mumkin.

Masalan, og‘ir shaxsiy yoki oilaviy ahvol natijasida javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarni keltirib chiqarmagan jinoyatning sodir etilganligi o‘zgalar mulkini o‘g‘irlaganlik uchun jazo tayinlashda juda katta ahamiyat kasb etgani holda, shu holatning o‘zi o‘zgalar mulkini juda katta miqdorda talon-toroj qilganlik uchun jazo tayinlashda hech bir jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Jinoyat huquqida *odillik* ma’lum ma’noda uning boshqa eng muhim prinsiplarini, birinchi navbatda, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi va insonparvarlik prinsiplarini ham o‘zida aks ettiradi.

*Ayb uchun javobgarlik* prinsipi shaxs faqat sodir etgan aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina jinoiy javobgarlikka tortilishini bildiradi.

Jazo tayinlash faqat sudga tegishli bo‘lgan vakolat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq, «jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi».

Jinoyat sodir etganlikda aybdor deb qonunda belgilangan tartibda tan olingan shaxsgina jazoga tortilishi mumkin. Jazo tayinlashda sud sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning motivlarini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsiga xos xislatlarni hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni inobatga oladi.

Umumiy asoslarga har bir jinoyat ishi bo‘yicha jazo tayinlashda rioya etilishi zarur.

*Javobgarlikning muqarrarligi* prinsipi jinoyat huquqida alohida ahamiyatga ega. U qilmishida jinoyat tarkibi mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi kerakligini bildiradi. Ushbu prinsipning ma’nosi shundaki, javobgarlikning muqarrarligi jinoyat qonunining profilaktik ta’siri namoyon bo‘lishining va qo‘llanishining eng yaxshi usulidir.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalarida ayrim turdagi jinoyatlarning asosiy yoki kvalifikatsiyalovchi belgilari sifatida nazarda tutilgan holatlarga katta ahamiyat beriladi. Har bir jinoyatda ham asosiy, ham kvalifikatsiyalovchi belgilar turli darajalarda namoyon bo‘ladi. Bu esa mazkur jinoyatning jamiyat uchun xavfli ekanligini ko‘rsatadi.

Masalan, zarar jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo‘lganida katta yoki kichik bo‘lishi mumkin. Jinoyat kodeksi 198-moddasining 1-qismiga binoan, yetkazilgan zarar eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan ortiq bo‘lganida ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazganligi yoxud ularni nobud qilganligi uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin. Ammo ushbu zarar ancha ko‘p bo‘lishi ham mumkin. Bu holatni sud jazo tayinlashda inobatga olishi shart, albatta.

Qonunda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalovchi holatlarning to‘liq ro‘yxati berilmagan, ularning oxirgi jazo chorasiga ta’sir etish darajasi ham ko‘rsatilmagan. Sud ushbu masalalarni jazo tayinlashda qonun asosida hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi jazo tayinlashning umumiy asoslarini nazarda tutuvchi 54-moddaga muvofiq, talablardan birini aybdorning shaxsini inobatga olish tashkil qiladi. Sud ushbu talabni bajara borib, jazo tayinlashda shaxsga taalluqli holatlarni e’tiborga olishi shart. Aybdorning shaxsiga taalluqli holatlarni sud ayrim hollarda jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi belgilar (shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb topish, jinoyatni ilgari sudlangan shaxs sodir etganligi, voyaga yetganlik kabilar) qatorida nazarda tutadi.

Shunday qilib, jazo tayinlashning umumiy asoslari jinoyat qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiquvchi va Jinoyat kodeksi prinsiplariga asoslangan huquqiy ko‘rsatmalar tizimi bo‘lib, sud ular asosida jinoyat sodir etganlikda aybdor bo‘lgan shaxsga tayinlanadigan jazoning turi va miqdorini belgilaydi.

## 2. Jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar

Jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar muayyan jinoyat uchun belgilangan sanksiyalar doirasida jazo turi va miqdorini tanlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Qonunda jazoni yengillashtiruvchi holatlarning taxminiy ro‘yxati hamda og‘irlashtiruvchi holatlarning to‘liq ro‘yxati belgilanganligi amaldagi qonun hujjatlarining xususiyatini tashkil etadi. Bu muayyan ishni ko‘rib chiqish vaqtida aniqlangan hech bir holat, agar Jinoyat kodeksining tegishli moddalaridagi ro‘yxatga kiritilmagan bo‘lsa, jazoni og‘irlashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘la olmasligini bildiradi.

Jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar sanksiya doirasida jazo tayinlashga ta’sir ko‘rsatadi. Sud muayyan jinoyat tarkibiga kiritilgan og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlarni ushbu jinoyat uchun jazo tayinlayotganida inobatga olmaydi, chunki qonun chiqaruvchi organ qonun sanksiyasini belgilash vaqtida bir marta inobatga olib bo‘lgan. Masalan, agar aybdor o‘ta shafqatsizlik bilan qasddan odam o‘ldirganligi uchun Jinoyat kodeksi 97-moddasining 2-qismi «ж» bandi bo‘yicha jazoga hukm etilgan bo‘lsa, o‘ta shafqatsizlik jazo tayinlashda uni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanishi mumkin emas.

Yuridik adabiyotda jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning ahamiyati haqida hali umumiy bir fikrga kelinmagan. Biroq ko‘pchilik olimlar jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar qilmishning ijtimoiy xavfliligini va aybdorning shaxsini ifodalaydi hamda javobgarlikni yengillashtiradi yoxud og‘irlashtiradi, deb to‘g‘ri fikrlaydilar. Jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarning ahamiyatini ana shunday tushunish qonunning o‘zidan kelib chiqadi.

***Jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar*** – jinoyat tarkibi belgilariga kirmaydigan, jinoyat xavfining ko‘p yoki kamligini va aybdorning shaxsini tavsiflaydigan hamda jinoiy ta’sir ko‘rsatishning muayyan chorasini tanlashda sud jazo tayinlash prinsiplariga muvofiq ravishda inobatga oladigan holatlardir.

Sud e’tiborga olishi kerak bo‘lgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarga jinoyatning ijtimoiy xavfi kamligidan va aybdorning qanday odamligidan dalolat beruvchi turli holatlar kiradi. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro‘yxati Jinoyat kodeksining 55-moddasida berilgan, ammo ushbu ro‘yxat to‘liq emas. Sudga qonunda nazarda tutilmagan jazoni yengillashtiruvchi boshqa holatlarni ham inobatga olish huquqi berilgan.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlarga *aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish* kiradi (JK 55-m. 1-q. «a» b.).

Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish – huquqni muhofaza qilish organlariga o‘zi sodir etgan jinoyat haqida xabar berishdir. Jinoyat sodir etilganidan keyin qancha vaqt o‘tganidan qat’i nazar, aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qaralmog‘i kerak. Mazkur holat jinoyat sodir etgan shaxsning xavflilik darajasi ancha kamayganidan dalolat beruvchi «jinoyatdan keyingi ijobiy xulq» turlariga kiradi. Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish jinoiy javobgarlikka tortish muddati davomida huquqiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu ahamiyat bunday arz qilish motivlariga bog‘liq emas. Bunda hokimiyat organlari sodir etilgan jinoyat haqida ma’lumotga ega bo‘lgan-bo‘lmaganligi, aybdor shaxsni qidirgan-qidirmaganligining ahamiyati yo‘q. Biroq ushbu harakat majburiy emas, balki ixtiyoriy bo‘lishi muhim.

Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish aybdorning adliya organlariga sodir etgan boshqa jinoyatlari haqida xabar berishida, o‘z xulqini qoralashida, aybini tan olishida va axloqan tuzalishga va’da berishida ifodalanishi mumkin. Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish ba’zan jinoyatchi o‘z xulqining yomonligini anglaganligidan va qilmishini qoralashidan dalolat beradi. Biroq pushaymon bo‘lish nafaqat sodir etilgan qilmish bilan bog‘liq shaxsiy kechinmalardan kelib chiqishi, balki aybdorga yaqinlari ta’sirining yoki jazodan qo‘rqishining va boshqa sabablarning natijasi bo‘lishi ham mumkin.

Jinoyatni ochish uchun faol yordam berish jinoyatning boshqa ishtirokchilarini fosh etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga sheriklarini fosh etishda, jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni (masalan, jinoyat qurollari va vositalarini) taqdim etish va qidirib topishda ko‘maklashishdir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyat sodir etilishi natijasida egallab olingan mulkni qidirib topishda yordam berish bunday faoliyatning ko‘rinishlaridan birini tashkil qiladi.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlardan biri – *yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish* (JK 55-m. 1-q. «б» b.) quyidagilardan iboratdir: a) yetkazilgan zararni o‘z kuchi bilan bevosita bartaraf qilish; b) moddiy zararni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplash; d) jabrlanuvchi yoki jamoa a’zolari oldida sud belgilagan shaklda oshkora kechirim so‘rash.

Yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish narsalarning avvalgi holatini tiklash (masalan, uyni, mashinani ta’mirlash)dir. Zarar nafaqat tugallangan jinoyat sodir etilganidan so‘ng, balki amalga oshmay qolgan jinoiy faoliyatda ham bartaraf qilinishi mumkin.

Sodir etilgan jinoyat muayyan oqibatlarga olib kelganidagina yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish mumkin bo‘ladi. Ushbu hollarda aybdor yetkazilgan zararni ayblov hukmi chiqarilguniga qadar

ixtiyoriy ravishda bartaraf qilishi kerak. Yetkazilgan zararni bartaraf qilish yo‘q qilingan mulkning o‘rnini pul bilan to‘ldirishda, jabrlanuvchiga davolanishi uchun moddiy yordam ko‘rsatishda va boshqa harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Zarar tergov yoki sudlov organlari tomonidan aybdorning ixtiyoriga qarshi majburiy tartibda bartaraf qilingan taqdirda (masalan, aybdor ushlanib, o‘g‘irlangan mulk olib qo‘yilganida) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish holati mavjud bo‘lmaydi.

Jinoyat kodeksi 55-moddasi 1-qismining «в» bandida *og‘ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish* jazoni yengillashtiruvchi holatlar sirasiga kiritiladi. Ushbu holat juda xilma-xil moddiy qiyinchiliklarni, noqulay turmush sharoitlari, oilada ota yoki onaning yo‘qligi kabilarni bildiradi. Biroq, agar jinoyat og‘ir shaxsiy yoki oilaviy holatlar oqibati sifatida kelib chiqmagan bo‘lsa, ushbu holatlarni yengillashtiruvchi holatlar deb hisoblab bo‘lmaydi. Masalan, agar aybdor jinoyat ishi bo‘yicha guvoh bo‘lgani holda dastlabki tergovda bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berayotgan bo‘lsa, turmushdagi yetishmovchiliklarni yengillashtiruvchi holat sifatida tan olish mumkin emas. Og‘ir shaxsiy yoki oilaviy holatlarning yuzaga kelishi aybdorning jinoiy xulqiga olib kelgan bo‘lsa, ular jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qaralishi lozim.

Aybdorning qonunga xilof yoki g‘ayriaxloqiy xatti-harakatlari natijasi bo‘lgan og‘ir vaziyatni yengillashtiruvchi holat deb topish mumkin emas. Masalan, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish tufayli yuzaga kelgan og‘ir oilaviy ahvol jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsning javobgarligini yengillashtira olmaydi. Ayni paytda doimiy ravishda mast holda bo‘ladigan, oilasining a’zolarini kamsitadigan otaning yomon xulqidan zada bo‘lgan xotin yoxud o‘g‘il, qarindoshlaridan birortasi navbatdagi janjal vaqtida, odatda uzoq vaqt davom etgan kamsitishlarga javoban, uning badaniga shikast yetkazsalar, buni yengillashtiruvchi holat deb baholash mumkin.

Boshqacha hollar ham uchrab turadi. Ularga oila boquvchisining og‘ir xastaligi yoki o‘limi natijasida kundalik hayoti izdan chiqqan inson oila boshiga tushgan qiyinchiliklarga dosh bera olmay, masalan, o‘g‘rilikka qo‘l urishi kabilar kiradi.

*Majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish* (JK 55-m. 1-q. «ж» b.) jazoni yengillashtiruvchi yana bir holatdir. Majburlash deganda, aybdorni jinoyat sodir etishga majbur qilish maqsadida unga qo‘rqitish shaklida ruhiy yoki jismoniy ta’sir ko‘rsatish tushuniladi. Majburlash sababli jinoyat sodir etgan aybdor tushkun holda ish qiladi. Moddiy qaramlik deganda, aybdorning o‘zga shaxs qaramog‘ida bo‘lishi, turar joyi bo‘lmagani bois birovnikida yashashiga asoslangan qaramligi kabilar tushuniladi.

Xizmat jihatidan qaramlik aybdorning ishda yuqori turuvchi mansabdor shaxsga (ishchining – sex boshlig‘iga, uning esa zavod direktoriga va h. k.) tobeligiga asoslangan. Boshqa jihatdan qaramlik turli vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin (masalan, o‘quvchi va talabaning o‘qituvchiga qaramligi, guvoh yoki tergovdagi shaxsning tergovchiga qaramligi va h. k.).

*Jabrlanuvchining zo‘rlik, og‘ir haqorat yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etishi* (JK 55-m. 1-q. «д» b.) jazoni yengillashtiruvchi yana bir holatdir.

Jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy, ba’zan esa jinoiy harakatlari aybdorning ruhiyatiga ta’sir etadigan kuchli hayajonlanish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Kuchli ruhiy hayajonlanish harakatlarni nazorat qilishga salbiy ta’sir etadi. Biroq ushbu holda inson o‘z harakatlarini anglash, ular uchun javob berish va ularni boshqarish imkoniyatini yo‘qotmaydi. Faqat shuning uchungina ushbu holat jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi emas, balki yengillashtiruvchi holat deb topiladi. Qonunda jabrlanuvchining zo‘ravonligi, og‘ir haqorati yoki boshqacha g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holati inobatga olinib, bunday vaziyatlarda javobgarlik yengillashtirilgan.

Ayni vaqtda mazkur holat muayyan jinoyatlar tarkibining belgisi sifatida nazarda tutilgan bo‘lib (masalan, Jinoyat kodeksi 98, 106-m.). Ushbu holda Jinoyat kodeksining 55-moddasi qo‘llanilmaydi, chunki ayni bir holat ikki marta inobatga olinmasligi kerak.

*Zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish* (JK 55-m. 1-q. «e» b.) ham jazoni yengillashtiruvchi holatlarga kiritilgan. Aybdor bunday vaziyatda davlat yoxud shaxs manfaatlarini himoya qiladi, zarar esa ushbu holda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga yetkazilganligi bois, bu holat jazoni yengillashtiruvchi holat deb qaraladi (JK 37–41-m.).

Mazkur holatlarda shaxs harakatlari qonuniyligi shartlarining buzilishi uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, jinoyat sodir etishda ularning mavjudligi sudning ularni jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qarashi uchun yetarli asos beradi. Agar sudda ko‘rib chiqish natijasida ushbu holatlardan birining mavjudligi aniqlansa, shuningdek, ushbu aniq holatning jinoyatga ta’sir etganligini qayd etishga imkon beruvchi aybdor shaxs harakatlarining noqonuniylik darajasi tekshirilgan bo‘lsa, sud boshqa ma’lumotlarni inobatga olgan holda aybdorning jazosini yengillashtirishga haqli bo‘ladi.

*Voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi* (JK 55-m. 1-q. «ж» b.) – ko‘pincha bu yoshdagilarning dunyoqarashi shakllanib bo‘lmaganligi,

ruhiyati beqaror bo‘lganligi, ko‘p hollarda jinoyatlarni shumlik qilib, o‘rtoqlik hissini noto‘g‘ri tushungani, katta yoshdagi jinoyatchilarning ta’sirida bo‘lgani va boshqa shu kabi sabablar tufayli sodir etganliklari bois – jazoni yengillashtiruvchi holat deb topiladi.

Bundan tashqari, ular boshqa shaxslarning (katta yoshdagilarning ham, tengdoshlarining ham) salbiy ta’siriga kattalarga qaraganda ko‘proq moyildirlar, kayfiyatlari ularga ko‘proq ta’sir o‘tkazadi, ammo ayni paytda ularga axloq tuzatish ta’siri ko‘rsatish va ularni tarbiyalash ham osonroq. Voyaga yetmagan shaxsning ushbu xislatlari, shuningdek, jinoyat huquqining insonparvarligi jazoni yengillashtirish imkonini beradi.

*Homilador ayolning jinoyat sodir etishi* ham yengillashtiruvchi holat deb qaraladi (JK 55-m. 1-q. «з» b.). Ushbu holda homiladorlik ayol organizmida ba’zi bir funksional o‘zgarishlar keltirib chiqarishi va uning ruhiyatiga ta’sir etishi inobatga olinadi. Qonun chiqaruvchi organ bunda insonparvarlik prinsipiga asoslanadi hamda homilador ayolning sog‘lig‘ini saqlash, bolaning ona qornida normal rivojlanishi va tug‘ilishi maqsadlarini ko‘zlaydi.

*Jabrlanuvchining g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta’siri ostida jinoyat sodir etish* ham jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi (JK 55-m. 1-q. «и» b.). G‘ayriqonuniylik ijtimoiy xavflilikning yuridik ifodasidir. U jinoyat sodir etgan shaxs jinoyatlarga oid huquqiy normada belgilangan taqiqni buzganidan dalolat beradi. Jazoni bu asosda yengillashtirish uchun jabrlanuvchining, shaxsni jinoyat qilishga olib kelgan, xulq-atvori g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid bo‘lishi shart. Axloq qoidalariga zid harakatlar axloq normalarini va jamiyatda o‘zini tutish qoidalarini buzadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasida ***jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarning*** 14 tasi nazarda tutilgan. Ularni ko‘rib chiqamiz.

*Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «a» b.) jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarga kiritilgan. Jabrlanuvchining homiladorligi jinoyatning xavflilik darajasini ancha oshiradi, chunki hali tug‘ilmagan bola uchun ham xavf tug‘diradi. Ushbu holatni jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb topishning sharti aybdorning jinoiy tajovuz obyekti bo‘lgan jabrlanuvchining homiladorligini aniq bilishidir.

Biroq ayonlikni aybdorning ayol homilador ekanligiga doir bilimlari ishonchli ekanligiga emas, balki u buni bilgan yoki taxmin qilgan va, binobarin, shuni inobatga olgan holda harakat qilganligiga kiritish lozim. Shu bois aybdorning homila mavjudligiga to‘liq ishonchi yo‘qligi uning homiladorlik haqidagi bilimlari shubhasizligini o‘zgartirmaydi. Ayni paytda agar aybdor shaxs ayol homilador emas, deb haqiqatan yanglishgan bo‘lsa, ayonlik belgisi mavjud bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, aybdor

ushbu holat mavjud emas, deb haqiqatan xato qilgan bo‘lsa, unda jabrlanuvchining homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan bo‘lmaydi.

*Yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «б» b.) aybdorning o‘ta axloqsiz va shafqatsiz ekanligidan dalolat beradi. Yosh bola deb 14 yoshga to‘lmagan o‘smir, qariya deb esa pensiya yoshiga yetgan kishi tan olinadi (bunda jabrlanuvchining individual xususiyatlarini inobatga olish lozim, chunki pensiya yoshi qonun hujjatlarida turlicha ta’riflangan). Ojiz ahvol deganda, odatda jabrlanuvchining qarshilik ko‘rsata olmaydigan jismoniy yoki ruhiy holati (masalan, uyqu, betoblik, hushsizlik kabilar) tushuniladi.

*Xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan jinoyat sodir etish* – jazoni og‘irlashtiruvchi holat (JK 56-m. 1-q. «в» b.).

Xizmat faoliyatini amalga oshirish deganda, shaxsning davlat, xususiy shaxs yoki belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va faoliyati qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa korxona yoki muassasa bilan tuzgan mehnat shartnomasidan kelib chiquvchi vazifalari doirasiga kiradigan harakatini tushunish lozim. Demak, jinoyatdan jabrlangan shaxs mansabdor bo‘lishi shart emas, u tegishli korxona, muassasa yoki tashkilotning har qanday xodimi bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik burchini bajarish deganda, fuqaroning o‘ziga maxsus yuklatilgan fuqarolik burchlarini amalga oshirishlari ham, jamiyat yoki ayrim shaxslar manfaatlari yo‘lida boshqa harakatlarni bajarishlari ham (masalan, qonun buzilishini to‘xtatib qolish, tayyorlanayotgan jinoyat haqida hokimiyat organlariga xabar berish kabilar) tushuniladi.

Jinoyat kodeksida nafaqat xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxslar, balki ularning yaqin qarindoshlari ham jinoyat qurboni bo‘lishi mumkinligi inobatga olingan. Ularga, avvalo, aybdorning qasos olishiga olib kelgan faoliyat bilan bog‘liq jinoyatning qurboniga aylangan yaqin qarindoshlari kiritiladi. Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo‘limida belgilab qo‘yilganidek, yaqin qarindoshlarga qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillar kiradi.

Qasos manbai bo‘lgan boshqa qonuniy harakatlarga, masalan, quyidagilar ham kiritilishi mumkin: o‘z huquqini sudning mulk huquqi haqidagi qarori asosida amalga oshirish, vorislik huquqining qonun bo‘yicha yoki vasiyat bo‘yicha kuchga kirishi, ota-onalardan birining bolani tarbiyalash huquqini amalga oshirishi va sh. k.

*Aybdorga moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «г» b.) jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb topilgan.

Moddiy qaramlik jabrlanuvchi haqiqatan ham aybdorning qaramog‘ida bo‘lgan yoki ko‘rsatiladigan moddiy yordam jabrlanuvchining yagona tirikchilik manbai bo‘lgan taqdirda yuzaga keladi. Nikoh munosabatlari ham ana shunday qaramlikni keltirib chiqaradi. Shaxsning burchlari (masalan, o‘gay qizga aliment to‘lash) yoxud erkak va ayol o‘rtasida qaror topgan amaldagi munosabatlar (masalan, shahar tashqarisidan kelgan qarindosh ayolga shaharda o‘qish vaqtida turar joy va oziq-ovqat berish) ham jabrlanuvchining moddiy qaramligini keltirib chiqarishi mumkin.

Xizmat jihatidan qaramlik aybdorga xizmat bo‘yicha bo‘ysunish bilan, shuningdek, bo‘ysunishdan bevosita kelib chiqmaydigan, ammo uning mehnati yoki o‘qishini nazorat qilish vazifalari bilan bog‘liq (masalan, ilmiy rahbar bilan aspirant ayol, murabbiy bilan sportchi ayol o‘rtasida) bo‘lishi mumkin.

Boshqa jihatdan qaramlik deganda, jabrlanuvchining aybdornikida yashashi tufayli yuzaga kelgan qaramlik, o‘quvchilar yoki tarbiyalanuvchilarning vasiylar, tarbiyachilarga qaramligi singarilar tushuniladi.

Jazoni og‘irlashtiruvchi keyingi holat – *o‘ta shafqatsizlik bilan jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «д» b.). Jabrlanuvchi va boshqa shaxslarning azoblanishlariga befarq munosabat (masalan, onani bolalari oldida qiynash) singari holatlar o‘ta shafqatsizlikdan dalolat beradi. Jazo tayinlashda «shafqatsizlik» emas, balki «o‘ta shafqatsizlik» uni og‘irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi kerak, aks holda bu mazkur moddaning qo‘llanish doirasi asossiz ravishda kengaytirib yuborilishiga olib keladi. Bir qator hollarda jabrlanuvchiga yetkazilgan jarohatlarning ko‘pligi, uni qiynash, sekin ta’sir qiluvchi zahardan foydalanganlik kabi holatlar ham o‘ta shafqatsizlikdan dalolat beradi. Sud har bir muayyan vaziyatda aybdorning o‘zi sodir etgan jinoyat usuli o‘ta shafqatsiz ekanligini anglagan yoki anglamaganligini aniqlashi shart.

*Ko‘pchilik uchun xavfli bo‘lgan usulda jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «e» b.) jazoni og‘irlashtiruvchi yana bir holat bo‘lib, bunda atrofdagilarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan yoki ko‘plab moddiy boyliklarning yo‘q qilinishiga olib kela oladigan jinoyat sodir etish usuli tushuniladi. Ko‘pchilik uchun xavfli usulda jinoyat sodir etishga suv bostirish, o‘t qo‘yish, portlatish kabilar kiradi. Ushbu vaziyatda qonunda yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning haqiqiy xususiyatiga emas, balki jinoyatni sodir etish usulining xavfliligiga e’tibor qaratiladi.

*Yosh bola yoki ruhiy kasalligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsdan foydalangan holda jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «ж» b.) jazoni ancha og‘irlashtiruvchi holatdir, chunki ushbu holatlar shaxs sodir etayotgan jinoyatning xavfliligini keskin oshiradi. Ayrim hollarda (ruhiy kasallik bilan og‘rigan yoki jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan shaxslarni jinoyat sodir etishga jalb etishda) ular aybdor shaxsning jinoiy javobgarlikdan

qochishga harakat qilganidan dalolat berishi mumkin. Jinoyat sodir etishga yosh bolalarni jalb etish jamiyatga katta xavf tug‘diradi. Har qanday yosh bolaga nisbatan sodir etilgan ushbu qilmishning o‘zi jinoyatning mustaqil tarkibini tashkil etadi. Yosh bola jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan bo‘lsa, bu ham jazoni og‘irlashtiruvchi hol sifatida inobatga olinadi.

*Jinoyat natijasida og‘ir oqibatlarning kelib chiqqanligi* (JK 56-m. 1-q. «з» b.) jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb topiladi.

Ushbu oqibatlar muayyan vaziyatda sud ishning barcha holatlarini birgalikda inobatga olib belgilaydigan «baholovchi» tushunchalarga kiradi. Bunda mazkur holat jinoyat tarkibining belgilari qatoriga kirmaydigan hol nazarda tutiladi (chunki ushbu vaziyatda uning kvalifikatsiyalovchi, jazoni og‘irlashtiruvchi ahamiyati qonunda tegishli jinoyat-huquqiy normaning sanksiyasini ifodalashda inobatga olingan bo‘ladi).

Og‘ir oqibatlar jinoyat tarkibining belgisi bo‘lmasligi, ayni paytda shaxs sodir etgan jinoiy qilmish bilan sababiy bog‘liqlikda bo‘lishi kerak. Odamlarning halok bo‘lishi, insonning sog‘lig‘iga og‘ir ziyon yetishi, ko‘p miqdorda moddiy zarar yetkazilishi kabilar ana shunday oqibatlar bo‘lishi mumkin.

*Umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «и» b.) – jazoni og‘irlashtiruvchi yana bir holat. Umumiy ofat sharoitlariga zilzila, yong‘inlar, bo‘ronlar, toshqinlar va boshqalar kiradi. Ushbu sharoitlarda fuqarolardan tartib-intizomga, axloq va huquq normalariga qat’iy rioya etish talab qilinadi. Halokat, yong‘in, epidemiya vaqtida va ijtimoiy falokatning boshqa sharoitlari vaqtida jinoyat sodir etish harakatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradi va aybdorning o‘ta pastkashligidan dalolat beradi. Bunday sharoitda aybdor ijtimoiy falokatni anglab yetadi va undan jinoyat sodir etish uchun foydalanadi.

Favqulodda holat vaqtinchalik chora bo‘lib, odatda sharoitni tezlik bilan normallashtirish, qonuniy va huquqiy tartibni tiklash, fuqarolar xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf qilish va ularga zarur yordam ko‘rsatish uchun joriy etiladi. Ushbu holat fuqarolarning yoki O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining xavfsizligiga favqulodda va muqarrar tajovuz aniq mavjud bo‘lgan holatlarda joriy etiladi. Favqulodda holatni joriy etish uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin: a) konstitutsiyaviy tuzumni kuch bilan o‘zgartirishga intilish, zo‘rlik ishlatish bilan kechuvchi ommaviy tartibsizliklar, millatlararo nizolar, fuqarolar hayoti va xavfsizligiga yoki davlat institutlarining normal faoliyatiga xavf tug‘diruvchi ayrim hududlarni o‘rab olish; b) tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, aholining hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi hamda avariya-qutqaruv va tiklash ishlarini bajarishni talab etuvchi katta halokatlar. Shunisi aniqki, bunday sharoitlarda jinoyat sodir etish katta

xavf tug‘diradi, bu esa ushbu holatni jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar qatoriga kiritish uchun asos bo‘ladi.

Tabiiy ofat deganda, zilzila, toshqin va ko‘chkilar, odamlar halokati, ularning sog‘lig‘i yoki mulkiga zarar yetkazish bilan bog‘liq boshqa tabiiy hodisalar tushuniladi. Ijtimoiy ofatlarga ushbu harakatlarni keltirib chiqaradigan voqealar (harbiy harakatlar, yong‘inlar va sh. k.) kiritilishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklar ko‘plab odamlarni (olomonni) jalb etib, jamoat tartibini qo‘pol ravishda buzishni taqozo etadi hamda qirg‘inlar, vayrongarchiliklar, o‘t qo‘yishlar va boshqa zo‘ravonlik harakatlari bilan kechadi.

*G‘arazli yoki boshqacha past niyatlarda jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «к» b.) jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarga kiradi. G‘araz ko‘pgina jinoyatlar uchun ularni sodir etishga undov, rag‘bat, ularning subyektiv sababidir. Jinoyat sodir etishga undovchi motivlar sodir etilayotgan jinoyatning jamiyat uchun xavfli ekanligidan yaqqol dalolat beradi. Boshqa past niyatlar deganda, hasad, qasos, mansabparastlik, qo‘rqoqlik, bezorilik hamda jamiyatdagi axloqiy qarashlarga zid bo‘lgan boshqa niyatlarni tushunish lozim.

*Irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «л» b.) – jazoni og‘irlashtiruvchi holat. Irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat jinoyat sodir etishda aybli shaxsning ushbu jinoyatni sodir etish orqali biror-bir millat, irq, shuningdek, ularning u yoki bu vakillariga nisbatan muayyan g‘arazi borligini ko‘rsatishga intilishini taqozo etadi.

Qasos, umuman olganda, o‘tmishda yetkazilgan yovuzlik uchun o‘ch olish, yovuzlik qilishni bildiradi. Ushbu holda jabrlanuvchining xulq-atvori faqat aybdorning nuqtai nazaridan yovuzlikdir, chunki jabrlanuvchining qonuniy xulq-avtori qasos olish uchun bahona bo‘lgan.

Boshqa jinoyatni yengillashtirish yoki yashirish maqsadi ko‘pincha qonuniy xulq-atvor uchun qasos olish niyati bilan bog‘liq bo‘ladi, ammo bu vaziyatda jinoyat boshqa niyatda sodir etilishi ham mumkin. Shu sababli jinoyatchining aynan ushbu maqsadi jazo tayinlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

*Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan jinoyat sodir etish* (JK 56-m. 1-q. «м» b.) – jazoni og‘irlashtiruvchi yana bir holat hisoblanadi. Ushbu shakldagi ishtirokchilikning qonuniy ifodasi Jinoyat kodeksining 29-moddasida bayon etilgan.

*Ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi* (JK 56-m. 1-q. «н» b.) jinoyat qonunida jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarga kiritilgan. Bir qancha jinoyat sodir etish haqidagi (VIII) bobda aytilganidek, birinchi jinoyatga nisbatan huquqiy oqibatlar saqlanib qolayotgan bo‘lsa, ya’ni jinoiy javobgarlikka tortish

muddati o‘tmagan bo‘lsa (JK 64-m.) va shaxs birinchi jinoyati uchun hukm etilgan taqdirda sudlanganlik holati tugamagan yoki sudlanganlik olib tashlanmagan bo‘lsa, jinoyat takroran sodir etilgan hisoblanadi (JK 77, 78-m.). Shaxs sodir etgan birinchi jinoyatning huquqiy oqibatlari uning faol pushaymon bo‘lishi, jabrlanuvchi bilan yarashishi, sharoitning o‘zgarishi tufayli ozod bo‘lishi bilan ham tugaydi.

*Mastlik holatida yoki narkotik vositalar, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta’sir qiluvchi boshqa moddalar ta’sirida jinoyat sodir etish* – jazoni og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi (JK 56-m. 1-q. «o» b.). Bu o‘rinda mast holda bo‘lgan shaxsning jinoyat sodir etishi – bunday holat spirtli ichimlik iste’mol qilish natijasi bo‘lganida ham, shaxsning aqliy-irodaviy faoliyatiga ta’sir qiluvchi narkotik, psixotrop moddalar iste’mol qilishdan yuzaga kelgan taqdirda ham – javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanishi lozim. Amaldagi qonunda mastlik holati yoki narkotik vositalar, psixotrop yoxud boshqa moddalar ta’sirida bo‘lish jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb qaralsa-da, sudlarga jinoyat sodir etishning xususiyatlari, muayyan shart-sharoitidan kelib chiqib, ushbu holatni javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb topmaslik huquqi ham beriladi. Sud ushbu huquqdan shaxs, masalan, spirtli ichimliklarni, narkotik, psixotrop yoxud ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir qilgan kishining aql-idrokiga ta’sir qiluvchi boshqa moddalarni birinchi marta iste’mol qilganida, ushbu jinoyat aybdorga xos bo‘lmagan tasodifiy hol bo‘lganida foydalanishi mumkin.

## 3. Yengilroq jazo tayinlash

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonun hujjatlari jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi nafaqat aybdorga tayinlanadigan jazoni u sodir etgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishga asos bo‘ladigan Jinoyat kodeksi moddasining sanksiyasi doirasida yengillashtirishga, balki sodir etilgan jinoyat uchun nazarda tutilgan jazodan ham yengilroq jazo tayinlashga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan hollar ham nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksi 57-moddasining 3-qismiga muvofiq, qilmishni, aybdorning shaxsini, uning ayblilik darajasi va shaklini, shaxsning jinoyat sodir etishdan avvalgi va keyingi xulqini, jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni birgalikda aks ettiruvchi holatlar jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha kamaytiruvchi holatlar deb topilishi mumkin. Jazo Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng past darajadan ham pastroq qilib tayinlanishi yoki sud ushbu moddada belgilanganidan yengilroq turdagi jazoni tayinlashi yoxud majburiy qilib belgilangan qo‘shimcha jazo turini tayinlamasligi mumkin.

Demak, birgalikda qilmishni, aybdorning shaxsini, uning ayb darajasi va shaklini, shaxsning jinoyat sodir etishdan avvalgi va keyingi xulqini, jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni birgalikda aks ettiruvchi holatlar jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha kamaytiruvchi holatlar ushbu jinoyat uchun nazarda tutilganidan yengilroq jazo tayinlashdek jazoni ancha yengillashtirish uchun asos deb topilishi mumkin.

Sud amaliyotida ishning alohida hollari deganda, doimo sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi ma’lumotlar tushunilgan. Jinoyat kodeksining 57-moddasida ushbu alohida hollarning mazmuniga aniqlik kiritilgan. Qilmishning maqsad va motivlari, aybdorning jinoyat sodir etishdagi o‘rni, uning ayblilik darajasi va shakli, shaxsning jinoyat sodir etishdan avvalgi va keyingi xulqi, jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlar qo‘yilgan.

Ushbu holda aybdorning maqsad va niyatlari buzuq bo‘lmasligi hamda uning jinoyatni yovuz niyatda emas, balki jinoyat qonunida jazoni yengillashtirish imkoniyati bilan bog‘lanadigan sabablar tufayli sodir etganidan dalolat berishi kerak. Ularga, Jinoyat kodeksi 55-moddasining talablari asosida, og‘ir hayotiy holatlar tufayli kelib chiqqan niyat va maqsadlar, rahm-shafqat, shuningdek, majburlik yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli sodir etilgan jinoyat motivlari, zaruriy mudofaa, jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash, oxirgi zarurat sharoitida, buyruq yoki topshiriqni bajarishda, jabrlanuvchining jinoyatga sabab bo‘lgan g‘ayriqonuniy yoki axloqqa zid harakatlari ta’sirida jinoyat sodir etishlari kiradi.

Qonunda jinoyat sodir etishda shaxsning o‘rni va uning jinoyat sodir etish vaqtidagi xulq-atvori eslatib o‘tilganligi ushbu shaxsning jinoyatda ikkinchi darajali ishtirokchi bo‘lishi lozimligini va boshqalarni bildiradi.

Ayrim yengillashtiruvchi holatlar ham, bunday holatlarning yig‘indisi ham alohida hollar deb topilishi mumkin. Bu hol qaror topgan sud amaliyotiga mos keladi.

Xo‘sh, ishning alohida hollari mavjud bo‘lganida jazoni qay darajada yengillashtirish mumkin? Yuqorida ta’kidlanganidek, Jinoyat kodeksi 57-moddasining 1-qismiga muvofiq, sud uch xil yo‘l tutishi mumkin.

Birinchidan, u Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan jazoning eng kam qismidan ham kamroq jazo tayinlashi mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksi 263-moddasi 2-qismining sanksiyasida temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo‘llarini jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarda yaroqsiz holga keltirganlik uchun besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish shaklidagi jazo berilishi nazarda tutilgan. Jinoyat kodeksining 57-moddasi asosida sud jazoning eng quyi darajasidan ham chiqib, ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddatigacha tushishi, ya’ni besh yildan kam (olti oygacha) ozodlikdan

mahrum qilish jazosini tayinlashi mumkin. Biroq sud bunda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddati chegarasidan chiqishga, ya’ni olti oydan kam muddatga ozodlikdan mahrum qilish shaklidagi jazoni tayinlashga haqli emas.

Ikkinchidan, sud ushbu moddada nazarda tutilgan jazodan yengilroq jazoni tayinlashi mumkin. Yana o‘sha Jinoyat kodeksi 263-moddasining 2-qismi misolida oladigan bo‘lsak, sud ozodlikdan mahrum qilish o‘rniga ushbu modda sanksiyasida nazarda tutilmagan yengilroq turdagi jazoni, masalan, axloq tuzatish ishlarini tayinlashga haqlidir.

Uchinchidan, sud majburiy jazo sifatida nazarda tutilgan qo‘shimcha jazoni qo‘llamasligi mumkin.

Jazoning nisbatan og‘irligi uning jazolar tizimidagi o‘rni bilan belgilanadi (JK 43-m.).

## 4. Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash

Sud tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda (JK 58-m. 1-q.), jazo tayinlashning umumiy asoslariga tayanib, jinoyatning og‘irligini, jinoiy maqsadlarning amalga oshish darajasini va jinoyatning tamom bo‘lmay qolish sabablarini ham inobatga oladi.

Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rganlik va suiqasd qilganlik uchun odatda tamomlangan jinoyatga ko‘ra yengilroq jazo tayinlanadi, ammo zarur hollarda, sud yuz bergan oqibatlarning og‘irligini inobatga olib, (masalan, odam o‘ldirishga suiqasd qilgan shaxs jabrlanuvchining badaniga og‘ir shikast yetkazishi oqibatida uning yordamga muhtoj bo‘lib qolishi) va Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida yoki Maxsus qismining 56-moddasida ko‘rsatilgan boshqa og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lganida, suiqasd qilgan shaxsga nisbatan moddaning sanksiyasida nazarda tutilgan jazoning eng ko‘p muddatini qo‘llashi mumkin.

Sud jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va suiqasd qilganlik uchun jazo chorasini individuallashtirish bilan birga, quyidagi bir qator holatlar majmuini inobatga olishi lozim: a) jinoyatning og‘irligi; b) jinoiy niyatning amalga oshirilish darajasi; d) jinoyatning tamomlanmay qolganligi sabablari.

Jinoyat kodeksining 58-moddasi 2-qismiga muvofiq tamom bo‘lmagan jinoyat uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.

Biroq ushbu holatlar har xil bo‘lishi, tamom bo‘lmagan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga va sud uni sodir etganlik uchun tayinlaydigan jazoga har xil ta’sir etishi mumkin. Aytaylik, shaxs jabrlanuvchiga uni o‘ldirish maqsadida o‘q otdi, ammo o‘q tegmadi. Odam o‘ldirishga suiqasd qilish tarkibi aybdor shaxs jabrlanuvchiga o‘q otishga urinishni

takrorlashdan o‘z ixtiyori bilan voz kechgan, shuningdek, aybdor, masalan, yetib kelgan fuqarolar uning qo‘lidagi to‘pponchani urib tushirganligi yoki kuch ishlatib olib qo‘yganligi sababli buni amalga oshira olmagan holdagi kabi bo‘ladi. Shu bilan birga, ikkinchi suiqasdning ijtimoiy xavfliligi birinchisinikiga qaraganda yuqori ekanligi aniq.

Jinoyat kodeksi 58-moddasining 2-qismida ko‘rsatilgan ishtirok-chilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda inobatga olinadigan holatlar ko‘p jihatdan jinoyatning muayyan ishtirokchisi qaysi turdagi ishtirokchilar sirasiga kirishiga bog‘liq (JK 28-m.). Biroq Jinoyat kodeksi 29-moddasining 1-qismiga muvofiq, ishtirokchilarining javobgarligi ularning har birining jinoyat sodir etishda ishtirokining xususiyati va darajasi bilan, Jinoyat kodeksi 58-moddasining 2-qismiga binoan esa bunday ishtirokchilikning jinoyat maqsadiga erishish uchun ahamiyati hamda uning yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar xususiyati va miqdoriga ta’siri bilan ham belgilanadi.

Sud ishtirokchilarga jazo tayinlashda ishtirokchilik darajasi va xususiyati bilan birga, har bir ishtirokchi shaxsga taalluqli bo‘lgan jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlarni inobatga olishi lozim (JK 55 va 56-m.). Ayni paytda ishning va aybdor shaxsining aniq holatlarini inobatga olib, jinoyatga undagan yoki yordam bergan shaxsga bajaruvchiga qaraganda kamroq yoki ko‘proq jazo tayinlanishi mumkin. Jinoyatning tashkilotchilariga uning boshqa ishtirokchilariga nisbatan og‘irroq jazo berilishi lozim.

## 5. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash

*Bir necha jinoyat sodir etish* deganda, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan va ulardan birortasi uchun ham sudlanmaganlik tushuniladi.

Ushbu holda aybdor shaxs sodir etgan ikki yoki undan ortiq jinoyatini bunday baholanishi Jinoyat kodeksi 59-moddasida belgilangan jazoni tayinlash tartibi qo‘llash haqidagi masala yuzaga keladi.

Ushbu moddaning 1-qismida bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashning quyidagi tartibi belgilangan: sud Jinoyat kodeksining 54-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq har qaysi jinoyat uchun jazo tayinlaydi, so‘ngra Umumiy qismda shu jazo turi uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni yengilini og‘iri bilan qoplash yoxud to‘la qo‘shish yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jinoyatlar majmui uchun jazo tayinlaydi. Jinoyat kodeksi 59-moddasining 2 va 3-qismlari sodir etigan jinoyatlarning xususiyati va xavflilik darajasiga qarab jazo tayinlash qoidalarini ko‘rsatib beradi.

Jinoyat kodeksi 59-moddasi 2-qismiga muvofiq agar jinoyatlar majmuini faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar va uncha og‘ir

bo‘lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi. Demak, jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan bo‘lsa uchta prinsip – qoplash, qisman qo‘shish va to‘la qo‘shish prinsiplari qo‘llaniladi. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og‘iri uchun sanksiyada nazarda tutilgan eng ko‘p jazo muddatidan yoki me’yoridan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Sodir etilgan jinoyatlardan biri uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlashda uzil-kesil jazo umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazoning yengilroq turini qoplashi orqali tayinlanadi.

Shunday qilib, agar shaxs ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etgan bo‘lsa va ulardan biri JK 97-moddasining 2-qismida yoki 155-moddasining 3-qismida, boshqasi (boshqalari) JK Maxsus qismining boshqa moddalarida nazarda tutilgan hamda shaxs ulardan hech biri uchun hukm etilmagan bo‘lsa, sud dastlab jazo tayinlashning umumiy qoidalariga ko‘ra ushbu moddalarning sanksiyalari doirasida har bir qilmish uchun alohida jazo tayinlaydi (JK 54-m.).

Agar sud JK 97-moddasining 2-qismi yoki 155-moddasining 3- qismi bo‘yicha umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash zarur deb topsa, uzil-kesil jazo chorasi majmuiga kiruvchi boshqa jinoyatlar uchun tayinlangan boshqa jazo choralarini umrbod ozodlikdan mahrum qilish qoplashi haqidagi prinsip orqali belgilanadi.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadigan jinoyatlardan biri sodir etilgani uchun jazo tayinlanayotganida, uzil-kesil jazo jazoni to‘liq yoki qisman qo‘shish yoxud yengilroq jazoni og‘irrog‘i qoplashi orqali tayinlanadi.

JKning 97-moddasi 2-qismi yoki 155-moddasi 3-qismi bo‘yicha sud 20 yildan 25 yilgacha bo‘lgan doiradan ozodlikdan mahrum qilishning eng ko‘p muddatini tayinlamasa, u holda sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui uchun uzil-kesil jazo qoplash prinsipidan ham, shuningdek, to‘liq qo‘shish yoki qisman qo‘shish prinsiplaridan ham foydalanib tayinlanishi mumkin. Bunda majburiy shart uzil-kesil jazoni 25 yildan ortiq bo‘lgan muddatga tayinlash mumkin emasligidan iborat bo‘ladi.

Jinoyatlaridan biriga umrbod yoxud uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlangan jinoyatlar uchun uzil-kesil jazoni tayinlash qoidasi ish bo‘yicha hukm chiqarilganidan so‘ng mahkum birinchi ish bo‘yicha hukm chiqarilgunicha sodir etilgan yana boshqa jinoyatda ham aybdor ekanligi aniqlangan hollarga ham taalluqli bo‘ladi. Bunday hollarda sud jinoyatlar majmui bo‘yicha tayinlagan jazo muddatiga birinchi hukm bo‘yicha o‘talgan jazo ham qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ham o‘zining 2006-yil 3-fevraldagi «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida»gi 1-sonli qarorida ushbu holga e’tibor qaratgan. Ikki yoki

undan ortiq jinoyatlar majmui bo‘yicha asosiy belgilashda sud alohida jinoyatlar uchun tayinlangan jazolarning engilrog‘ini og‘irrog‘i bilan qoplash yoki ularni to‘la yoki qisman qo‘shish qoidasi bo‘yicha uzil-kesil jazo tayinlanadi[1].

Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashning qonunda belgilangan tartibi sudga javobgarlik va jazoni individuallashtirish uchun eng ko‘p imkoniyatlar beradi. Masalan, shaxs o‘ldirish bilan qo‘rqitganlik (JK 112-m. 1-q. – eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi) va qurol, o‘q-dorilar, portlovchi mod-dalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilganlik (JK 248-m. 2-q. –besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi) uchun sudlanyapti. Birinchi jinoyat uchun sud, olti oygacha qamoq shaklidagi jazo tayinladi; ikkinchisi uchun – besh yil ozodlikdan mahrum qilish shaklida jazo tayinladi. Sud ushbu holatda to‘la qo‘shish prinsipini qo‘llasa, olti oy qamoq hamda besh yil ozodlikdan mahrum qilishni qo‘shishi lozim. Turli xil jazolarni qo‘shish uchun Jinoyat kodeksining 61-moddasidagi qoidalardan foydalaniladi, jumladan, bu jazo turlarini qo‘shishda ozodlikdan mahrum qilishning bir kunini qamoqning bir kuniga to‘g‘rilab hisoblanadi. Binobarin, uzil-kesil jazo chorasi to‘liq qo‘shilganda besh yilu olti oyga ozodlikdan mahrum qilishdan iborat bo‘ladi. Ushbu holda sud to‘la qo‘shishni amalga oshirishga haqli, chunki jinoyatlardan bittasi og‘ir jinoyat hisoblanadi va uzil-kesil jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og‘iri uchun belgilangan eng ko‘p jazo muddati Jinoyat kodeksi Umumiy qismining 50-moddasida ushbu jazo uchun nazarda tutilganidan oshmaydi.

Jinoyat kodeksi 59-moddasining 7-qismiga muvofiq, jinoyatlar majmui tariqasida tayinlangan asosiy jazoga sud ayrim jinoyatlar uchun tayinlangan qo‘shimcha jazolarni ham qo‘shib tayinlashi mumkin. Bunda sud ham asosiy, ham qo‘shimcha jazoni har bir modda bo‘yicha alohida, so‘ngra jinoyatlar majmui bo‘yicha tayinlashi kerak.

Bunda muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo‘shimcha jazoning uzil-kesil tayinlangan muddati Jinoyat kodeksining 45 – moddasi-da nazarda tutilgan eng ko‘p muddatdan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashning qonunda belgilangan tartibi sudga javobgarlik va jazoni individuallashtirish uchun eng ko‘p imkoniyatlar beradi. Masalan, aytaylik, shaxs o‘ldirish bilan qo‘rqitganlik (JK 112-m. 1-q. – eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi) va qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilganlik (JK 248-m. 1-q. – eng kam oylik ish haqining 50

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991–2006. Т. 2. – Т., 2006. – 238-б.

baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi) uchun sudlanyapti. Birinchi jinoyat uchun sud, aytaylik, olti oygacha qamoq shaklidagi jazo tayinladi; ikkinchisi uchun – besh yil ozodlikdan mahrum qilish shaklida jazo berdi. Sud kichik jazoni katta jazo bilan qoplash prinsipini qo‘llab, besh yilga ozodlikdan mahrum qilishdan iborat uzil-kesil jazo tayinlaydi. Sud to‘la yoki qisman qo‘shish prinsipini qo‘llab, og‘irroq jazoga yengilroq jazoni qo‘shishi, ya’ni olti oy qamoq hamda besh yil ozodlikdan mahrum qilishni qo‘shishi lozim. Jinoyat kodeksining 61-moddasiga muvofiq, turli xil jazolarni qo‘shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni qamoqning bir kuniga to‘g‘ri keladi. Binobarin, uzil-kesil jazo chorasi to‘liq qo‘shilganda besh yilu olti oyga ozodlikdan mahrum qilishdan iborat bo‘ladi. Ushbu holda sud to‘la qo‘shishni amalga oshirishga haqli, chunki uzil-kesil jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og‘iri uchun belgilangan eng ko‘p jazo muddati Jinoyat kodeksi Umumiy qismining 50-moddasida ushbu jazo uchun nazarda tutilganidan oshmaydi.

Jinoyat kodeksi 59-moddasining 3-qismiga muvofiq, jinoyatlar majmui tariqasida tayinlangan asosiy jazoga sud ayrim jinoyatlar uchun tayinlangan Jinoyat kodeksi Umumiy qismining moddalarida nazarda tutilgan qo‘shimcha jazolarni ham qo‘shib tayinlashi mumkin.

Bunda sud ham asosiy, ham qo‘shimcha jazoni har bir modda bo‘yicha alohida, so‘ngra jinoyatlar majmui bo‘yicha tayinlashi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi «Jinoiy jazo choralarini tayinlash amaliyoti to‘g‘risida»gi 1996-yil 19-iyul qarorida agar ayni bir turdagi qo‘shimcha jazo majmuiga kiruvchi ikki va undan ortiq jinoyatlar uchun tayinlangan bo‘lsa, uning oxirgi miqdori ularni uzoqroq muddatli qo‘shimcha jazoni nazarda tutuvchi moddada belgilangan doirada to‘liq yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi, bunday chegara jinoyat qonunining moddasida belgilanmagan yoxud qo‘shimcha jazo Jinoyat kodeksi Umumiy qismining normalari asosida qo‘llanilgan hollarda esa – jazoning ushbu turi uchun belgilangan eng ko‘p muddat doirasida aniqlanadi[1].

Sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanganda yengilroq turdagi jazoni umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi. Sodir etiladigan jinoyatlardan bittasi uchun uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yoxud yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash qoidalariga binoan, ish bo‘yicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning birinchi ish bo‘yicha chiqarilgan hukmgacha yana boshqa jinoyatda aybli ekanligi aniqlangan taqdirda ham jazo tayinlanadi. Bunday holda jinoyatlar majmui

[1] O‘sha manba. – 180-b.

tariqasida sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga birinchi hukm yuzasidan jazoning o‘talgan qismi qo‘shiladi (JK 59-m. 4-q.).

## 6. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash

Mahkum hukm chiqarilganidan keyin jazoni to‘la o‘tamay turib, yangi jinoyat sodir etgan taqdirda jazo tayinlash bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash deb e’tirof etiladi. Bunday hollarda sud yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazoga ilgarigi hukm yuzasidan o‘talmay qolgan jazo muddatini to‘la yoki qisman qo‘shadi.

Jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda uzil-kesil jazo miqdori Jinoyat kodeksi Umumiy qismida jazoning ushbu turi uchun nazarda tutilgan eng ko‘p muddat yoki miqdordan oshmasligi kerak.

Jinoyat kodeksi 60-moddasining 2-qismiga muvofiq, bir necha hukm yuzasidan har xil turdagi jazolarni qo‘shish yo‘li bilan jazo tayinlashda Jinoyat kodeksining 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og‘irroq turi uzil-kesil tayinlanadi. Xususan, jarima tariqasida jazo tayinlangan hukmlar majmui bo‘yicha uzil-kesil jazo miqdori Jinoyat kodeksining 44-moddasida belgilangan eng ko‘p miqdordan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Bir necha hukm yuzasidan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanganida, oxirgi jazo jinoyat qonunida so‘nggi hukm bo‘yicha jinoyat uchun nazarda tutilgan jazoning eng ko‘p muddatidan ortiq bo‘lishi mumkin, ammo 25 yildan oshmasligi kerak (JK 50-m. 3-q.). Jinoyat kodeksi 60-moddasining 3-qismida belgilangan qoidaga ko‘ra, bir necha hukmlar yuzasidan axloq tuzatish ishlariga yoki xizmat bo‘yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta’minotidan ushlab qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo‘shiladi.

Jinoyat kodeksi 60-moddasining 4-qismiga muvofiq, ilgarigi hukm yuzasidan ijro etilmay qolgan qo‘shimcha jazolar hukmlar jami tariqasida tayinlangan asosiy jazoga qo‘shib tayinlanadi.

Agar hukmlardan biri bilan umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan bo‘lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo‘shishda yengilroq jazo turini umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Agar hukmlardan biri bilan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo‘lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo‘shishda yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash yoxud jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Bir necha hukmlar yuzasidan axloq tuzatish ishlariga yoki xizmat bo‘yicha cheklashga hukm qilinib, ish haqi yoki pul ta’minotidan ushlab

qolishning har xil miqdori belgilangan hollarda bu jazolarning faqat muddatlari qo‘shiladi.

Ilgarigi hukm yuzasidan ijro etilmay qolgan qo‘shimcha jazolar hukmlar jami tariqasida tayinlangan asosiy jazoga qo‘shib tayinlanadi.

Jinoyat qonunchiligiga umrbod ozodlikdan mahrum qilishning mustaqil jinoiy jazo sifatida kiritilishi, shuningdek, muayyan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishning yangi turi paydo bo‘lishi qonunda hukmlar majmui bo‘yicha jazo tayinlashning huquqiy mexanizmini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismida belgilanishicha, hukmlardan birida umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo tayinlangan bo‘lsa, u holda bir qancha hukmlar bo‘yicha jazolarni qo‘shganda uzil-kesil jazo umrbod ozodlikdan mahrum qilishning yengilroq jazoni qoplashi orqali tayinlanadi.

Ushbu qoida hukmlar majmui bo‘yicha jazo tayinlashning yangi tartibini belgilaydi. Unga ko‘ra hukmlardan biri bo‘yicha shaxs JK 97-moddasining 2-qismi yoki 155-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan hollarni nazarda tutadi. Agar birinchi hukm bo‘yicha umrbod ozodlikdan mahrum qilish tayinlangan bo‘lsa-yu, shaxs ushbu jazoni o‘tayotganida yangi jinoyat sodir etsa, sud mazkur jinoyat uchun jazo tayinlayotganida uni keyinchalik tayinlab bo‘lingan umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qamrab oladi.

Agar mahkum hukm chiqarilganidan so‘ng, lekin jazoni to‘liq o‘tab bo‘lgunicha JKning 97-moddasi 2-qismi yoki 155-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan umrbod ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadigan yangi jinoyatni sodir etsa, uzil-kesil jazolar birinchi hukm bo‘yicha jazoning o‘talmagan qismini umrbod ozodlikdan mahrum qilish qoplashi orqali tayinlanadi.

Sharhlanayotgan moddaning 4-qismida belgilanishicha, agar hukmlardan birida ozodlikdan mahrum qilishning uzoq muddati tayinlangan bo‘lsa, u holda bir necha hukmlar bo‘yicha uzil-kesil jazo yengilroq jazoni og‘irroq jazo qoplashi yoxud jazolarni to‘liq yoki qisman qo‘shish orqali tayinlanadi.

Ushbu qoida hukmlar majmui bo‘yicha jazo tayinlashning yangi tartibini qayd etadiki, unga ko‘ra shaxs hukmlardan biri bo‘yicha Jinoyat kodeksi 97-moddasining 2-qismi yoki 155-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgani uchun uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan hollarni nazarda tutadi.

Uzil-kesil jazoni belgilashda qoplash prinsipi hukmlardan istalgan biri (birinchi yoki ikkinchisi bo‘yicha) 25 yil muddatga eng ko‘p ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadigan hollarda qo‘llaniladi. Birinchisi hukm bo‘yicha tayinlangan 25 yillik eng katta muddatga ozodlikdan mahrum

qilish jazosi yangi hukm bo‘yicha tayinlanadigan yengilroq jazoni qamrab oladi. Yangi hukm bo‘yicha tayinlangan 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish birinchi hukm bo‘yicha tayinlangan jazoning o‘talmagan qismini qamrab oladi.

Jazolarni belgilashda to‘liq yoki qisman qo‘shish prinsipi hukmlardan istalgan biri (birinchi yoki ikkinchisi bo‘yicha) 20 yildan 25 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan hollarda qo‘llaniladi. Agar mahkum hukm chiqqanidan keyin, ammo 20 yildan 25 yilgacha bo‘lgan doirada tayinlangan uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosini to‘liq o‘tab bo‘lgunicha yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazoga uzoq muddatga tayinlangan ozodlikdan mahrum qilishning o‘talmagan qismini to‘liq yoki qisman qo‘shadi. Jazo tayinlashning eng ko‘p muddati 25 yildan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Agar mahkum hukm chiqqanidan keyin, lekin jazoni to‘liq o‘tab bo‘lgunicha Jinoyat kodeksi 97-moddasining 2-qismi yoki 155-moddasining 3-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etsa va sud uning uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlasa, u holda yangi hukm bo‘yicha tayinlangan bu jazoga birinchi hukm bo‘yicha tayinlangan jazoning o‘talmagan qismi to‘liq yoki qisman qo‘shiladi. Bunda jazoning oxirgi muddati 25 yildan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

## 7. Jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalari

Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda ayrim hollarda jinoyat sodir etgan shaxsga turli jazolar tayinlanadigan holatlar yuzaga keladi. Bunday hollarda sud boshqa jazolarni ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muvofiqlashtirish muammosiga duch keladi. Jinoyat kodeksining 61-moddasida ushbu muammo jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalarini belgilash orqali hal qilinadi.

Jinoyat kodeksining ushbu moddasiga muvofiq, har xil *asosiy jazolarni qo‘shganda* ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga qamoq yoki intizomiy qismga jo‘natishning bir kuni to‘g‘ri keladi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan axloq tuzatish ishlari ko‘rinishidagi jazoni yoki xizmat bo‘yicha cheklashni qo‘shganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo‘yicha cheklashning uch kuni to‘g‘ri keladi (JK 61-m. 2-q.).

Hukmlar jami bo‘yicha tayinlangan qo‘shimcha jazolar mustaqil ravishda ijro etiladi. Hukmlar jami bo‘yicha jazo tayinlashda faqat asosiy jazo choralari qo‘shiladi.

Bir necha hukm yuzasidan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni tayinlashda sud uning tarkibiga kiruvchi hukmlardan hech birida turma jazosi tayinlanmagan bo‘lsa, bunday jazoni belgilashga haqli emas.

61-moddaning 2-qismida jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, qamoq, xizmat bo‘yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari jazolari bilan qo‘shilganida har qaysisi alohida ijro etilishi belgilangan.

## 8. Dastlabki qamoq vaqtini hisobga olish

Jinoyatlarni tergov qilish yoki jinoyat ishlarini sudda ko‘rib chiqish jarayonida aybdor shaxs surishtiruv, dastlabki tergov yoki suddan yashirinadi yoxud jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qiladi yoxud jinoiy ish bilan shug‘ullanadi, deb hisoblash uchun yetarli asoslar yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxs, tergovchi, prokuror, shuningdek, sud ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot choralaridan birini qo‘llashga haqlidir. Chunonchi, qamoqqa olish ana shunday ehtiyot chorasi bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga va O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2001-yil 29-avgust qonuni asosida JPKning 242-moddasi quyidagi tahrirda bayon etildi: «Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha qo‘llaniladi.

Alohida hollarda mazkur ehtiyot chorasi uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha ham qo‘llanilishi mumkin».

Sud jazo tayinlash vaqtida dastlabki qamoqning har bir kunini: qamoq, intizomiy qismga jo‘natish va ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga; axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo‘yicha cheklashning uch kuniga tenglashtirib hisoblaydi (JK 62-m.).

Dastlabki qamoqni ayblov hukmi bilan tayinlangan jazo muddatida hisobga olish sudning majburiyatidir. Dastlabki qamoq jinoiy jazo emas, u jinoyat-protsessual qonun hujjatlari asosida qo‘llaniladi. U muayyan cheklovlar va mahrumliklarni nazarda tutadi. Shu bois qonunda insonparvarlik va adolat prinsiplaridan kelib chiqib, sud tayinlagan jazodan ortiq mahrumliklar va cheklovlar qo‘llashga yo‘l qo‘ymaslik muhimligi haqidagi qoida belgilangan.

Tayinlangan jazo muddatiga dastlabki qamoqda gumon qilinuvchini ushlab turish vaqti ham qo‘shiladi. Ushlab turish ushlangan va ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxsning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga yo‘l qo‘ymaslik, qochishi, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilishining oldini olish maqsadida, militsiya idorasiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan boshlab ko‘pi bilan 72 soat muddatga qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

Ehtiyot chorasi bo‘lmish qamoq faqat ayblov e’lon qilingan shaxsga nisbatangina va u ayblanuvchi tariqasida so‘roq qilingan taqdirdagina qo‘llanishi mumkin.

Statsionarda kuzatish talab etiladigan sud-tibbiy yoxud sud-psixiatriya ekspertizalari o‘tkazilishi munosabati bilan tibbiy muassasada bo‘lish vaqti ham keyinchalik tayinlangan jazoda hisobga olinishi lozim bo‘lgan dastlabki qamoq sifatida qaralishi kerak.

Bunday shaxslarning, shuningdek, jinoyat sodir etganidan so‘ng ruhiy kasallikka chalingan va tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash mumkin bo‘lgan shaxslarning tibbiy muassasada bo‘lish vaqti mazkur shaxslar sog‘ayganidan so‘ng jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan dastlabki qamoq sifatida qaralishi kerak.

Shuningdek, harbiy xizmatchining qamoqda o‘tkazgan vaqti ham jazo muddatiga qo‘shib hisoblanadi.

Dastlabki qamoqda saqlanayotgan shaxs boshqa jazo choralariga hukm qilingan taqdirda sud o‘tab bo‘lingan dastlabki qamoq muddatini hisobga olishi shart.

## 9. Jazo muddatlarini hisoblash

Tayinlangan jazoni ijro etish tegishli jazolarning muddatlarini aniq hisoblashni talab etadi. Ushbu masala Jinoyat kodeksining 63-moddasida maxsus tartibga solingan. Jinoyat qonunining ushbu moddasiga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolarning muddatlari oy va yillar bilan hisoblanadi. Jazolarni almashtirish, hisoblash yoki qo‘shish vaqtida ularning muddatlari sutkalar bilan hisoblanishi mumkin.

Jinoiy jazo muddatlarini to‘g‘ri hisoblash jazoni ijro etishda qonuniylik va odillik prinsiplarining amalga oshishini, shuningdek, jinoyat huquqining ayrim normalari va institutlari asosli qo‘llanishini ta’minlaydi. Masalan, sudlanganlikni tugatish va bekor qilish, jazodan muddatidan oldin shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish, shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb topish kabilar shular jumlasidandir.

Shaxs bir necha jinoyat sodir etgan yoki bir necha hukm yuzasidan sudlangan hollarda (bu esa JKning 59 va 60-moddalariga binoan uzil-kesil

chorani aniqlashda har bir jinoyat uchun tayinlangan turli xil yoxud bir xil jazolarni qo‘shishni talab etadi) jazo muddatlarini nafaqat oylar va yillarda, balki sutkalarda ham hisoblashga yo‘l qo‘yiladi. Shu qoidaning o‘zi dastlabki qamoqni Jinoyat kodeksining 62-moddasida belgilangan tartibda tayinlangan jazo muddatida hisobga olish hollarida, shuningdek, bir turdagi jazoni boshqasiga almashtirishda ham qo‘llaniladi. Bir jazoni boshqasiga almashtirish zarurati, masalan, axloq tuzatish ishlarini o‘tash-dan bo‘yin tovlash (JK 46-m. 4-q.), jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (JK 74, 90-m.) va ba’zi bir boshqa hollarda yuzaga kelishi mumkin.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Jazo tayinlashning umumiy asoslariga ta’rif bering.
2. Jazo tayinlashning umumiy asoslari mezonlarini sanab bering.
3. Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar ro‘yxati uzil-kesilmi?
4. Jinoyat qonunida qaysi holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar sifatida nazarda tutilgan?
5. Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilishning huquqiy ahamiyati nimada?
6. Qanday sharoitlarda sud jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq jazo tayinlashi mumkin?
7. Aybni og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan jinoyat qanday sifatga ega bo‘ladi?
8. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etilganida jazo qay tariqa tayinlanadi?
9. Hukmlar jami bo‘yicha jazo tayinlash tartibi qanday?
10. Jinoyatlar jami bo‘yicha jazo tayinlash tartibi qanday?
11. Jinoyatlar jami bo‘yicha jazo tayinlash tartibi hukmlar jami bo‘yicha jazo tayinlash tartibidan nimasi bilan farq qiladi?
12. Jinoyat kodeksining 57-moddasida belgilangan tartibda yengilroq turdagi jazo tayinlash nimani bildiradi?
13. Tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashning xususiyatlari nimalardan iborat?

## XVII bob
## JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING TURLARI

### 1. Javobgarlikdan ozod qilish va uning turlari

Bir qator hollarda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortmasdan ham umumiy va maxsus oldini olish maqsadlariga erishish mumkin.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning turlariga bag‘ishlangan normalar Jinoyat kodeksining Umumiy qismida alohida XII bobga ajratilgan. Shu tariqa javobgarlikdan ozod qilish turlarining yuridik tabiati bilan Jinoyat kodeksi Umumiy qismining XIII bobida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish turlari o‘rtasida aniq chegara o‘tkazilgan.

Shaxsni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ikki omil mavjud bo‘lganida yuzaga keladi: birinchidan, shaxs jinoyat belgilarini ifodalagan qilmishni sodir etganida, shuningdek, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo‘lganida; ikkinchidan, mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun barcha qonuniy asos va shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan hollarda.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga binoan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxs qasddan yoxud ehtiyotsizlik orqasida jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganida uni jinoiy javobgarlikka tortishga barcha asoslar mavjud bo‘lgan, biroq, jinoiy javobgarlikka tortishning muddatining o‘tib ketganligi (JK 64-m.), qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfsizligini yo‘qotganligi (JK 65-m.), o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi (JK 66-m.), yarashganligi munosabati bilan (JK $66^1$-m.), kasallik tufayli (JK 67-m.), amnistiya akti (JK 68-m.) yoki afv etish holatlarining mavjudligi tufayli shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lmaganida yoxud sodir etilgan qilmishning va aybdor shaxsning ijtimoiy xavfliligi xususiyatini inobatga olib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmasdan, jumladan, jazoni qo‘llamasdan tarbiyalash mumkin bo‘ladigan holatlar mavjudligini taqozo etadi.

Sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi belgilarining yo‘qligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bermaydi. Shu bois, agar shaxsning harakatida, masalan, Jinoyat kodeksi Umumiy qismining IX bobidagi 36 va boshqa moddalarining qoidalariga ko‘ra jinoyat tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masala yuzaga kelishi mumkin emas, chunki ushbu hollarga jinoiy javobgarlikning qo‘llanilmasligi xosdir.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, o‘z mazmuniga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsni buning huquqiy oqibatlaridan ozod qilishdir. Shaxsni har qanday asos bo‘yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qilmishning huquqiy tabiatini o‘zgartirmaydi, chunki sodir etilgan qilmish hamisha jinoyat bo‘lib qolaveradi va yuridik mohiyati saqlanib qoladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolatli organning Jinoyat kodeksida belgilangan asoslar bo‘yicha shaxsni hukm qilishni rad etish haqida qaror qabul qilishida yoxud ayblov hukmi orqali alohida protsessual tartibda jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning boshqa shaklini qo‘llashida namoyon bo‘ladi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish quyidagi huquqiy munosabatlarning to‘xtatilganligini bildiradi: davlat vakolatli huquqni qo‘llash organlari orqali aybdorni qilmishi uchun jazoga hukm qilish va jazolashdan iborat huquq va majburiyatlaridan voz kechadi, qilmishni sodir etgan shaxs esa qilgan jinoyati uchun jazolanish hamda qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklaridan mahrum bo‘lish yoki ulardan cheklangan holda foydalanish majburiyatidan ozod etiladi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish amalda shaxsni jinoiy qilmishi uchun javob berish majburiyatidan xalos etishni bildiradi. Ayni vaqtda jinoiy javobgarlikning asosi bo‘lmish jinoyat tarkibi yo‘qolmaydi, zero mazkur qilmish jinoyatligicha qolaveradi.

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning aksariyat turlari shartsizdir. Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘ladigan protsessual hujjatning qabul qilinishi uzil-kesil hisoblanadi. Zero, Jinoyat kodeksida shaxsning bundan keyingi xatti-harakatlariga hech qanday talab qo‘yilmaydi.

Shaxsning kasalligi tufayli javobgarlikdan ozod etilishi bundan mustasno (JK 67-m.), chunki mazkur holat javobgarlikdan ozod bo‘lishning shartli turiga kiradi. Zero, bunday norma shaxsning ozod etilishidan so‘ng javobgarlikka tortilishini belgilaydi. Bunday shart mazkur shaxsning sog‘ayib qolish holatidir.

## 2. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turi Jinoyat kodeksining 64-moddasida nazarda tutilgan. Jinoyat uchun javobgarlikka tortishning cho‘zilib ketishi va hukmning kechikib ijro etilishi kerakli tarbiyaviy ta’sirga hamda jinoyatning oldini olish uchun umumiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi va shu bois maqsadga muvofiq emas. Aybdor bu vaqtga kelib axloqan tuzalishi mumkin, jamiyat uchun xavfi va, binobarin, unga jazo bilan ta’sir etish zarurati qolmaydi.

Jinoyat sodir etilganidan so‘ng uzoq vaqt o‘tgach, ba’zan muvaffaqiyatli tergov va sudlovga xalaqit beruvchi isbotlash va protsessual xususiyatga ega bo‘lgan bartaraf qilib bo‘lmas qiyinchiliklar yuzaga keladi (jinoyatning ashyoviy izlari yo‘qoladi, guvohlar muhim holatlarni unutadilar va h.k.).

Jinoyat sodir etilganidan so‘ng katta muddat o‘tganidan keyin jinoyat uchun javobgarlikka tortishning maqsadga muvofiq emasligi jinoyat ishini

kech qo‘zg‘atish uni tergov qilish va ish yuzasidan to‘g‘ri qaror chiqarishni qiyinlashtirganligi bilan ham izohlanadi. Jinoyat kodeksida jinoyat uchun javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi instituti mavjud bo‘lishining zarurligi ana shular bilan belgilanadi.

Javobgarlikka tortish muddatining tugashi deganda, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab qonunda belgilangan shartlar bo‘lganida shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadigan muddat tushuniladi. Ushbu normani qo‘llashga qonunda belgilangan muddatlarning tugashi asos bo‘ladi. Jinoiy javobgarlikka tortish muddati jinoyatlarning toifalariga qarab farqlanadi.

Qonunda bunday muddatlarning ikki turi nazarda tutilgan: a) davomiyligi sodir etilgan jinoyatning toifasiga bog‘liq bo‘lgan differensiatsiyalashgan; b) barcha jinoyatlar uchun umumiy bo‘lgan eng ko‘p 25 yillik muddat.

Jinoyatning turiga qarab to‘rtta differensiatsiyalashgan muddat nazarda tutilgan: ijtimoiy xavfliligi katta bo‘lmagan jinoyatlar sodir etilganida – 3 yil; uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etilganida – 5 yil; og‘ir jinoyat sodir etilganida – 10 yil; o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilganda – 15 yil.

Qonunda belgilangan asoslar mavjud bo‘lganida, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo‘llashning ikki mustaqil sharti nazarda tutilgan.

Birinchi sharti – jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning tergov va suddan bo‘yin tovlamasligi.

Ikkinchi sharti – og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxsning qonunda ko‘rsatilgan differensiatsiyalashgan muddat ichida qasddan yangi jinoyat sodir etmaganligi.

Ushbu shartlarning buzilishi jazo muddatining o‘tishi to‘xtatilishiga yoxud uzilishiga olib keladi.

Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o‘tishi to‘xtatiladi. Shaxsning tergov yoki suddan yashirinishi deganda, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning jinoiy javobgarlikdan bo‘yin tovlashiga imkon bergan turar joyini, ish joyini, familiyasini, tashqi qiyofasini o‘zgartirishi va boshqa qasddan bajargan harakatlari tushunilishi kerak.

Aybdor ushlangan yoki aybini bo‘yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o‘tishi qayta tiklanadi.

Shaxs tergov yoki suddan yashiringani tufayli o‘tish muddatlari to‘xtatilgan taqdirda bu shaxs, agar jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab 25 yil o‘tgan bo‘lsa, basharti yangi qasddan jinoyat sodir etish tufayli muddatning o‘tishi uzilmagan bo‘lsa va o‘tish muddati to‘xtatilmagan birinchi jinoyati og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat toifasiga kirgan bo‘lsa, bu shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Agar og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasidan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o‘tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Jinoyat kodeksi 64-moddasining 4-qismida nazarda tutilmagan qolgan barcha hollarda, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi va tegishlicha turli vaqtlarda tugashi mumkin.

Shunday qilib, o‘tish muddatining uzilishi qasddan yangi jinoyat sodir etish paytiga kelib og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilish muddati tugaganligining bekor qilinishini bildiradi.

Jinoyat kodeksi 64-moddasining 2-qismiga muvofiq, javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlanadi va kalendar yili hisobida belgilangan muddatning oxirgi kuni soat 24.00 da tugaydi.

Muddatning o‘tishi to‘xtatilgan hollarda mazkur muddat o‘tishi oy va kunlar bilan hisoblanishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 64-moddasining 5-qismida belgilangan qoidaga ko‘ra, agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab 25 yil o‘tgan bo‘lsa, hatto o‘tish muddati to‘xtatilgan taqdirda ham shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksi 64-moddasining 6-qismida muayyan toifadagi jinoyatlarga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash bo‘yicha qo‘shimcha shartlar va cheklashlar nazarda tutilgan. Masalan, sodir etilgan jinoyat uchun qonunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan bo‘lsa, javobgarlikka tortish muddatlarini qo‘llash masalasini hal qilish jinoyat ishini ko‘rib chiqayotgan sud ixtiyoriga beriladi.

Shunday qilib, jinoyatchilarning ushbu toifasiga javobgarlikka tortish muddatlarini qo‘llash uchun differensiatsiyalashgan yoki umumiy o‘tish muddatining tugaganligi hamda tergov yoki sudda bo‘yin tovlamaganlik yoxud qasddan yangi jinoyat sodir etish bilan muddatning o‘tishi uzilmaganligining o‘zi yetarli emas. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo‘llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga ozodlikdan mahrum qilish jazosini (yigirma yilgacha) tayinlaydi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning – muayyan toifa shaxslarga qo‘llashda cheklanganligi nuqtai nazaridan ham, javobgarlikning muqarrarligi prinsipini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham (JK 10-m.) – alohidaligi qonun chiqaruvchi organ tomonidan javobgarlikka tortish muddatining o‘tishi instituti darajasida amalga oshirilgan.

Muddatning o‘tishi deganda, jinoyat sodir etilgan paytdan keyin qonunda ko‘rsatilgan sharoitlarda shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga olib keladigan muddat tushunilmog‘i kerak.

Sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan ozod qilish turini qo‘llashning asoslarini qonunda belgilangan muddatlarning o‘tishi tashkil qiladi. Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o‘tish muddatlari jinoyat toifasiga ko‘ra farqlanadi.

Bunday muddatlarning ikki turi qonunda nazarda tutilgan: a) davom etishi sodir etilgan jinoyat toifasiga bog‘liq bo‘lgan muddat; b) barcha jinoyatlar uchun umumiy bo‘lgan eng oxirgi 25 yillik muddat.

Qonunda belgilangan asoslar mavjud bo‘lganida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash uchun ikkita mustaqil shart nazarda tutilgan. Birinchisi – jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning tergov va suddan bo‘yin tovlamasligi. Ikkinchisi – qonunda ko‘rsatilgan tabaqalashgan muddat ichida og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxsning yangidan qasddan jinoyat sodir etmasligi. Ushbu shartlarning buzilishi muddatlarning o‘tish davomiyligi to‘xtatilishi yoki uzilishiga olib keladi.

Sharhlanayotgan moddaning 6-qismida muayyan toifadagi jinoyatlarga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash borasida qo‘shimcha shart va cheklovlar nazarda tutilgan. Qonun bo‘yicha umrbod ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatni sodir etgan shaxsga muddat o‘tishini qo‘llash masalasini hal qilish ishni ko‘rayotgan sud ixtiyoriga beriladi. Shunday qilib, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish jinoyatini (JK 97-m. 2-q.) sodir etgan shaxslarga muddat o‘tishini qo‘llash uchun tabaqalashgan yoki umumiy muddat o‘tishi hamda tergov yoki suddan bo‘yin tovlamaslik, shuningdek, qasddan yangi jinoyat sodir etish bilan muddatning uzilmasligi yetarli emas. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qo‘shimcha sharti bo‘lib sudning muayyan shaxsga muddat o‘tishi prinsipini qo‘llash maqsadga muvofiq va mumkin ekanligiga ishonishi hisoblanadi. Agar sud muddat o‘tish prinsipini qo‘llash mumkin emas deb topsa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin emas va buning o‘rniga almashtirish tartibida muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.

Sharhlanayotgan moddaning 6-qismida belgilangan qoida amalda javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish jinoyati (JK 97-m. 2-q.)gagina taalluqlidir. Bunday xulosamiz, terrorizm (JK 155-m.) tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar toifasi kirishiga asoslangan.

Sharhlanayotgan moddaning 7-qismida tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, ushbu jinoyat sodir etilganidan keyin qancha vaqt o‘tganidan qat’i nazar, muddat o‘tishi qo‘llanilmasligi haqidagi qoida ifodalangan. Bu qoidaning Jinoyat kodeksida belgilab qo‘yilishi O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e’tirof etgan prinsiplariga sodiqligi va tinchlikparvar siyosatining amalga ifodasidir.

64-moddaning 7-qismida belgilanishicha, muddatlar tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, ular sodir etilganidan so‘ng qancha vaqt o‘tganidan qat’i nazar, qo‘llanilmaydi. Ushbu qoidaning Jinoyat kodeksida belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umum e’tirof etgan prinsiplariga qo‘shilgani va tinchlikparvar siyosat yuritayotganidan dalolat beradi.

### 3. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning Jinoyat kodeksi 65-moddasida nazarda tutilgan ushbu turi shartsizdir, chunki u shaxsning ozod qilingandan keyingi xulqiga qandaydir shartlar qo‘yish bilan bog‘liq emas.

Jinoyat kodeksining 65-moddasida bunday ozod qilishning ikki turi nazarda tutilgan, ya’ni: a) sodir etilgan qilmish o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan deb topilsa (1-q.); b) jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotgan deb topilsa (2-q.), jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Shaxsni qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo‘qolganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslariga quyidagilar kiradi: a) sharoitning o‘zgarganligi; b) qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo‘qolishiga olib kelganligi.

Sharoitning o‘zgarishi deganda, obyektiv voqelikdagi sodir etilgan jinoyatning yangi ijtimoiy sharoitlarda ijtimoiy xavfliligini yo‘qotishiga olib kelgan o‘zgarish tushuniladi. Odatda obyektiv ijtimoiy shart-sharoitlarning o‘zgarishi nafaqat mavjud qilmishning, balki shu turdagi o‘xshash qilmishlarning ham ijtimoiy xavfliligi o‘zgarishiga olib keladi. Ayni paytda sharoitning o‘zgarishi, butun davlat miqyosida bo‘lganidek, tor doiralar (viloyat, tuman, shahar, korxona, muassasa kabilar)da ham yuz berishi mumkin. Muhimi – bunday sharoitlarning o‘zgarishi aybdor shaxsning xohish-irodasidan tashqarida sodir bo‘lib, jamiyatning barcha fuqarolariga yoxud muayyan viloyat, tuman kabilarning aholisiga yoxud muassasa yoki birlashmalarning xodimlari yoki ishchilariga taalluqli bo‘ladi.

Qilmish, garchi ijtimoiy xavfli xususiyatini sharoit o‘zgarishi tufayli yo‘qotgan bo‘lsa-da, ammo g‘ayriqonuniyligini saqlab qolgan, ya’ni Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan taqdirdagina Jinoyat kodeksi 65-moddasining 1-qismini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi. Qilmishning jinoyat darajasiga mos keluvchi ijtimoiy xavfli xususiyati yo‘qolganligi sababli jinoiy bo‘lmay qolishi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish asosini yo‘q qiladi, ammo undan ozod qilmaydi.

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash jarayonida eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan xato shundan iboratki, jinoyat sodir etilganidan so‘ng sharoit hech bir o‘zgarmagan bo‘lishiga qaramay, uni «maqsadga

muvofiq emasligi sababli» qo‘llaydilar. Bunda jinoyat ishini tugatish uchun asos sifatida maqsadga muvofiq emaslikni asoslash maqsadida ko‘pincha yetkazilgan zararning bartaraf qilinganligini, zararli oqibatlari tugatilganligini va aybni yengillashtiruvchi boshqa holatlarni ko‘rsatadilar. Jinoyat ishini tugatishning bunday sabablarini asosli deb bo‘lmaydi, chunki qonun, Jinoyat kodeksi 65-moddasining 1-qismiga muvofiq, faqat bitta asos, ya’ni qilmishning ijtimoiy xavfliligi yo‘qolishiga olib kelgan sharoitning o‘zgarishi mavjud bo‘lganidagina, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatini beradi.

65-moddaning 2-qismida faqat ikki holat birgalikda mavjud bo‘lganidagina jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligi nazarda tutilgan: a) jinoyat sodir etilganidan so‘ng sharoitning o‘zgarganligi; b) buning oqibatida jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo‘qolganligi.

Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turiga nisbatan sharoitning o‘zgarishi deganda, ushbu aybdor shaxsni u jinoyat sodir etgunicha o‘rab turgan obyektiv voqelikda yuz bergan o‘zgarishlarni tushunish zarur. Ushbu o‘zgarishlar boshqa odamlar atrofidagi sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas, shuningdek, aybdor shaxsning o‘z ixtiyori bo‘yicha ham, uning istak-xohishidan tashqari ham yuz berishi mumkin.

## 4. Aybdorning o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Jinoyat kodeksining 66-moddasida O‘zbekiston qonunchiligi amaliyotida birinchi marta jazodan ozod qilishning yangi turi belgilandi. Unga ko‘ra, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar jinoyat sodir etganidan keyin jinoyat tufayli keltirilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilib, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish deganda, shaxsning jinoyat sodir etganidan so‘ng o‘z aybiga iqror bo‘lib, jinoyatni ochishga va keltirilgan zararni bartaraf qilib, jinoyatning ochilishiga yordam beradigan faol xatti-harakatini tushunish lozim.

«Aybini bo‘yniga olish» jinoyatni sodir etgan shaxsning o‘z jinoiy qilmishidan so‘ng hokimiyat idoralariga yoxud rasmiy shaxslarga o‘z ixtiyori bilan murojaat qilib, sodir etgan jinoyati haqida to‘g‘ri xabar yetkazish va qonunda belgilangan javobgarlik choralarini o‘tashga tayyor ekanligini bildiradi.

Jinoyatni ochishga faol yordam berish deganda, aybdorning o‘z aybiga chin ko‘ngildan iqror bo‘lishi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga sodir etilgan jinoyatning barcha jihatlari va holatlarini aniqlashda yordam

berishi tushuniladi. U quyidagilarda o‘z ifodasini topishi mumkin: a) tergov vaqtida va sudda haqqoniy ko‘rsatmalar berish; b) tergov harakatlarida faol va tashabbus bilan ishtirok etish; d) ishtirokchilarni fosh etish; e) sodir etilgan jinoyat predmetlari va qurollarini yoxud ishga doir boshqa dalillarni qidirib topishga ko‘maklashish; f) jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan va topilgan hamda ish uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan boyliklar va boshqa narsalarning qayerda joylashganligini xabar qilish va h. k.

Yetkazilgan zararni bartaraf qilish, yetkazilgan zararni o‘z kuchi bilan yo‘qotishda yoki moddiy zararni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplashda yoxud jabrlanuvchidan ko‘pchilik oldida kechirim so‘rashda namoyon bo‘ladi. Yetkazilgan zararni tugatish aybdor shaxsning yuz bergan salbiy oqibatlarni jinoyat sodir etilgunicha bo‘lgan holatiga qaytarish maqsadida kuch sarflashidan iborat bo‘ladi. Yetkazilgan zararni qoplash muayyan mablag‘larni sarflash orqali moddiy zararni bartaraf qilishda ifodalanadi.

Jinoyat jabrlanuvchining sha’ni va qadr-qimmati yoxud uning daxl-sizligi bilan bog‘liq bo‘lgan va ularga ta’sir qilgan taqdirda jabrlanuvchidan ko‘pchilik oldida kechirim so‘raladi.

Qonunga muvofiq, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani muhokama qilishga imkon beruvchi asoslar quyidagilardan iborat: 1) jinoyatni shaxs birinchi marta sodir etganligi; 2) sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi bo‘yicha ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga kiritilganligi; 3) aybdorning o‘z qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi.

Mazkur asoslarning birgalikda olinishigina, huquqni qo‘llash organi jinoiy javobgarlikni qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligiga ishonchi komil bo‘lgan taqdirda, shaxsni Jinoyat kodeksining 66-moddasi asosida javobgarlikdan ozod qilish haqida qaror chiqarish imkonini beradi.

Aybdorning o‘z qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligini shaxsning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishi (JK 26-m.)dan farqlash kerak. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

## 5. Yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish

Jinoyat kodeksining $66^1$-moddasiga muvofiq, ro‘yxati ushbu normada to‘liq keltirilgan jinoyatlardan birini sodir etgan shaxs, agar o‘z aybini tan olsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf qilsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ushbu huquqiy norma O‘zbekiston jinoyat qonunida yangilik bo‘lib, Jinoyat kodeksiga 2001-yil 29-avgustda «Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual

kodekslariga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun bilan kiritilgan[1].

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslariga quyidagilar kiradi: a) to‘liq ro‘yxati $66^1$-moddada keltirilgan 31 ta jinoyatdan birining sodir etilishi; b) aybga iqror bo‘linishi; d) yetkazilgan zararning bartaraf qilinishi.

Og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi (JK $61^1$-modda 2-qism).

Qonunda jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashuvi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligining sharti sifatida belgilangan. Binobarin, javobgarlikdan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash jabrlanuvchining yarashishni istashi bilan bog‘liq. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, yarashuvga rozilikni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ham bildirishi kerak. Ushbu qoida 2001-yil 29-avgustda qo‘shimcha kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksning yarashuv haqidagi ishlarning yuritilish tartibini belgilovchi mustaqil 62-bobi ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi.

Jinoyat-protsessual kodeks 585-moddasining 5-qismiga muvofiq, shaxsni yarashganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkinligining asoslari va shartlarini aniqlash uchun sud quyidagi bir qator masalalarni aniqlashi lozim: yarashuvning ixtiyoriyligi va motivlari; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining o‘z aybini ixtiyoriy ravishda tan olganligi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi o‘zi sodir etgan qilmishning oqibatlarini anglagan-anglamaganligi va yetkazilgan zararni bartaraf qilish choralarini ko‘rgan-ko‘rmaganligi; jabrlanuvchiga (fuqaroviy da’vogarga) yoki gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga qandaydir zug‘um ko‘rsatilgan-ko‘rsatilmaganligi; yetkazilgan zararni qoplash bilan bog‘liq masalalar; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari yarashishga rozi yoki rozi emasliklari. Bunda, ushbu kodeks 585-moddasining 4-qismida belgilanganidek, sud majlisi davomida yarashuvning, aybga iqrorlikning ixtiyoriy emasligi, zararni qoplashdan bosh tortganlik, shuningdek, sodir etilgan qilmishda og‘irroq jinoyat alomatlari mavjudligi aniqlansa, sud jinoyat ishini umumiy qoidalar bo‘yicha dastlabki tergov o‘tkazish uchun prokurorga yuborish maqsadida ajrim chiqarishi kerak.

Shunday qilib, yarashuv jabrlanuvchi (fuqaroviy da’vogar yoxud uning qonuniy vakillari) arizasida dastlabki tergovning, shuningdek, sud muhokamasining har qanday bosqichida, ammo sud maslahatxonaga ketgunicha, u jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyat sodir etilganidan

---

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 2001. – № 9–10. – 165-м.

keyingi harakatlaridan qanoatlanganligini va uning jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga rozi ekanligini aytishi kerak. Biroq, yuqorida ta’kidlanganidek, bu hol, agar Jinoyat kodeksi $66^1$-moddasida nazarda tutilgan haqiqiy asoslar va shartlar majmui aniqlangan bo‘lsa, ularning ixtiyoriyligi sharti bajarilsa, sudning jinoiy javobgarlikdan bunday ozod qilishi uchun majburiy asos emas. Ixtiyoriylikning yo‘qligi, hatto rasmiy asoslar bo‘lganda ham, sudga yarashuv munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni qo‘llash huquqini bermaydi.

## 6. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish Jinoyat kodeksining 67-moddasida nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsning hukm chiqarilguniga qadar o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o‘z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolishi uni javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘ladi. Bunday shaxsga nisbatan sud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashi mumkin.

Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli noraso shaxs sodir etishi (JK 18-m.) uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi. Shaxs aqli raso holda jinoyat sodir etgan bo‘lsa-yu, biroq hukm chiqarilguniga qadar o‘z qilmishini anglash va boshqarish imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalinsa, rasman unga jinoiy javobgarlikka tortishning turli shakllarini qo‘llash asoslari mavjud bo‘lganida ham buni amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Maqsadga muvofiq emaslik ruhiy kasallikka chalingan shaxsning sud tomonidan belgilangan javobgarlik choralarini kasalligi tufayli to‘g‘ri idrok qilish imkoniga ega emasligida ifodalanadi. Shu bois bu qaror aybdorga Jinoyat kodeksining vazifalariga muvofiq keladigan zarur ta’sirlarni ko‘rsatmaydi.

Jinoyat sodir etgan, ammo hukm chiqarilguniga qadar ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan, ulardagi ruhiy holatga qarab, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish javobgarlikdan ozod qilishning shartli turlariga kiradi. Qonunda shaxsning sog‘ayib ketishi ozodlikka chiqqandan so‘ng sodir etilgan jinoyatga muvofiq javobgarlik chorasini qo‘llashning sharti sifatida belgilanadi. Biroq mazkur chora shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketmagan hollarda qo‘llanishi mumkin.

Sud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llagan shaxslar uchun javobgarlikka tortish muddati bunday choralar qo‘llanila boshlagan kundan e’tiboran hisoblanadi.

Sud hukm chiqarilgunicha ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asos

topmaganida javobgarlikka tortish muddati Jinoyat kodeksi 64-moddasining 2-qismi asosida jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi.

## 7. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish

Amnistiya jinoyat kodeksining 68-moddasida huquqiy tartibga solingan. Ushbu moddada jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, huquqiy tabiatiga koʻra, jinoyat huquqi institutiga kirmaydi, chunki Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya toʻgʻrisidagi hujjatlarni qabul qiladi.

Oʻzining ijtimoiy mohiyatiga koʻra, amnistiya muayyan turdagi jinoyatlarni sodir etgan muayyan shaxslarni kechirishdir. Shu bilan birga, amnistiya, oʻzining huquqiy oqibatlariga koʻra, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning boshqa turlariga mos keladi. Bu esa amnistiyaning, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning boshqa turlari bilan bir qatorda, Jinoyat kodeksi Umumiy qismining XII bobida belgilanishiga asos boʻldi.

Amnistiya muayyan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunini bekor qilmagan hamda sud chiqargan hukmlarning asosli va qonuniy ekanligini shubha ostiga olmagan holda jinoiy javobgarlikdan, jazodan ozod qiladi, jazoni yengilrogʻiga almashtiradi yoki tayinlangan muddatni qisqartiradi, shuningdek, oʻtalgan jazoning huquqiy oqibati boʻlmish sudlanganlikni olib tashlaydi.

Amnistiya institutida insonparvarlik prinsipi bevosita ifodasini topadi (JK 7-m.).

Jinoyat kodeksining 68-moddasi amnistiya akti qabul qilinishining imkoniyatdagi natijalaridan biri boʻlgan javobgarlikdan ozod qilishgagina bagʻishlangan. Ushbu norma sudning ayblov hukmiga doir qarori chiqarilmagan jinoiy ishlarga va amnistiya kuchga kirguniga qadar jinoyat sodir etgan shaxslarga taalluqlidir.

Amnistiya aktlari yakka tartibda boʻlmaydi. Ular yo jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi lozim boʻlgan jinoyatlarning muayyan toifalari va turlarini belgilaydi yoxud oʻzaro demografik, ijtimoiy, jinoiy, yoshga oid, huquqiy yoxud boshqa belgilariga koʻra farqlanadigan, yakka tartibda aniqlanmagan shaxslar guruhlarini koʻrsatadi.

## Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning turlarini aytib bering.
2. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslarini sanab bering va ularning har birini ochib bering.
3. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartsiz turlarini aytib bering?
4. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan shaxsni jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo‘lgan asoslarni sanab bering.
5. Javobgarlikka tortish muddati qanday tartibda va qanday asoslarda hisoblanadi?
6. Javobgarlikka tortish muddati hisoblanmaydigan jinoyat tarkibini aytib bering.
7. Qilmishni ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan deb topish asoslarini ta’riflab bering.
8. Shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan deb topiladigan asoslarni sanab bering va ochib bering.
9. O‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlarini aytib bering.
10. Shaxsni javobgarlikdan ozod qilish asosi bo‘lgan amnistiya aktining jinoyat huquqi uchun ahamiyatini ochib bering.
11. Kasalligi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlari nimalardan iborat?
12. Yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlari nimalardan iborat?
13. Afv etish akti jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turi bo‘la oladimi?

## XVIII bob
## JAZODAN OZOD QILISH. SUDLANGANLIK

### 1. Jazodan ozod qilish, uning turlari va uni o‘tash

Jazodan ozod qilish jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining bir qismidir, chunki u doimo jazodan ozod qilishni taqozo etadi, zero jazo jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shakllaridan biridir. Shu bilan birga, jinoiy javobgarlik har doim ham jazoda amalga oshmaydi, chunki uning asosiy mazmunini sudlash tashkil etadi. Ammo qoralash jazosiz ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Agar jinoiy javobgarlik shaxsni sudlash, jazo tayinlash shaklida, ammo aslida ijro etilmay amalga oshirilishi yoxud sudlash, jazo tayinlash va aslida ijro etilib amalga oshirilsa, qonun hukm qilishdan voz kechmagan holda jazoda belgilangan muayyan mahrumliklar hamda mahkumning huquq va erkinliklarini cheklashlardan voz kechish imkonini beradi.

Jazo mahkumni jazolash maqsadida emas, balki uni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatining davom etishiga to‘sqinlik qilish, shuningdek, mahkumning ham, boshqa shaxslarning ham yangi jinoyatlar sodir etishining oldini olish maqsadida tayinlanadi va ijro etiladi. Shu bois jazo tayinlash va uni ijro etish davlat ixtiyoridagi boshqa vositalar muayyan vaziyatda mazkur maqsadlarga erishish imkonini bermaganida zarur bo‘ladi. Agar ushbu maqsadlarga jinoiy jazo qo‘llamay turib, boshqa usul va vositalar yordamida erishish mumkin bo‘lsa, jazoni ijro etish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi va kam samara beradi. Ana shunday hollarda jazodan yoxud uni o‘tashdan ozod qilish masalasi hal qilinadi. Insonparvarlik prinsipi ana shunda o‘z ifodasini topadi.

«Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish» va «jazodan ozod qilish» teng ma’noli tushunchalar bo‘lmay, ular qo‘llanish asoslariga, huquqiy oqibatlariga va protsessual tartibiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Jinoiy jazodan ozod qilish aybdor deb topilgan va hukm etilgan shaxsga nisbatan jazoni qo‘llashdan yoxud uning boshqa usul va vositalar bilan jazo maqsadlariga erishish imkoniyati mavjud bo‘lgan hollarda jazoni o‘tashni davom ettirishdan davlatning voz kechishidir.

Jinoyat kodeksida jinoiy jazodan ozod qilishning ikki turi, ya’ni to‘la ozod qilish va qisman ozod qilish nazarda tutilgan.

To‘la ozod qilishda sud ayblov hukmi chiqaradi va jazo belgilab, uni ijro etmaslik haqida qaror qabul qiladi. Ushbu guruhga jazodan ozod qilishning quyidagi turlarini kiritish mumkin: 1) jazoni ijro etish muddatining o‘tib ketganligi (JK 69-m.); 2) shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo‘qolganligi (JK 70-m.); 3) aybdorning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi (JK 71-m.); 4) shartli jazo belgilash (JK 72-m.).

Mahkum jazodan qisman ozod qilinganida, sud belgilagan jazoning faqat bir qismini o‘taydi va uning o‘talmagan qismidan ozod qilinadi

yoxud jazoning ushbu qismi yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Bunday guruhga quyidagilar kiradi: 1) muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-m.); 2) jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (JK 74-m.).

Jazodan ozod qilishning ikki turi – kasallik yoxud mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida (JK 75-m.), amnistiya akti yoki afv etish asosida (JK 76-m.) ozod qilish – o‘z xususiyatiga ko‘ra jazodan to‘la va qisman ozod qilish kabi bo‘lishi mumkin.

## 2. Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish

Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish Jinoyat kodeksining 69-moddasida nazarda tutilgan.

Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi qonunda belgilangan muddatlar hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab o‘tib ketganligi sababli sud tayinlagan jazoni ijro etishni mumkin qilmaydigan holatdir.

Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi jazodan ozod qilishning to‘liq va shartsiz turiga kiradi.

Jazoni ijro etmaslik sabablarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Ushbu sabablarning birinchi guruhi mahkumning sud hukmi bo‘yicha jazoni ijro etishga qarshilik ko‘rsatishi bilan bog‘liq emas (ular sud xodimlari yoki jazoni ijro etishga mas’ul organlarning o‘z xizmat vazifalariga sovuqqon munosabati, mahkumning og‘ir kasalligi va boshqalar bo‘lishi mumkin).

Sabablarning ikkinchi guruhi mahkumning jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlashi bilan bog‘liq.

Jinoyat kodeksining 69-moddasini qo‘llash uchun qonunda belgilangan muddatlarning o‘tganligi asos bo‘ladi.

Jazoni ijro etishning o‘tib ketganidan keyin ayblov hukmi ijro etilmaydigan muddatlari sud tayinlagan jazo turi va miqdoriga qarab farqlanadi. Qonunda to‘rtta o‘zaro farq qiluvchi muddat va bitta umumiy muddat belgilangan.

O‘tganidan keyin jazo hech qanday sharoitda ijro etilishi mumkin bo‘lmaydigan umumiy muddat 25 yil qilib belgilangan (JK 69-m. 4-q.)

Differensial muddatlarga quyidagilar kiradi: 1) uch yil; 2) besh yil; 3) o‘n yil; 4) o‘n besh yil. Ushbu muddatlarning belgilanishi jazo miqdori va turiga bog‘liq. Uch yillik muddat – uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilingan shaxslarga; besh yillik muddat – uch yildan besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga; o‘n yillik muddat – besh yildan o‘n yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga; o‘n besh yillik muddat – o‘n yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga belgilanadi.

Qonunda jazodan ozod qilish haqidagi masalani hal etishga imkon beradigan ikki shart hamda belgilangan muddat o‘tishi belgilab qo‘yilgan.

Birinchi shartga sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tashdan mahkumning bo‘yin tovlamasligini kiritish mumkin. Agar shaxs unga nisbatan sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlasa, jazoni ijro etish muddati jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan kundan boshlab hisoblanadi va ikki baravar ko‘payadi. Ikki baravar ko‘paygan taba-qalashgan muddatlar umumiy muddatdan, ya’ni yigirma besh yildan oshmasligi kerak (JK 69-m. 2-q).

Ikkinchi shartga ko‘ra, agar shaxs jazoni ijro etish muddati o‘tmasidan turib qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatlarning o‘tishi uziladi. Bunday holda muddatlarning o‘tishini hisoblash jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab qayta hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 69-moddasining 5-qismiga muvofiq, umrbod ozodlik-dan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan muddatlar o‘tishini qo‘llash masalasini sud hal qiladi. Sud jazoni ijro etish muddati o‘tganidan so‘ng bunday shaxsga jazoni ijro etish muddatini qo‘llamas-likka haqlidir, ushbu holda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi.

Jazoni ijro etish muddati hukmda ko‘rsatilgan nafaqat asosiy, balki qo‘shimcha jazolarga ham qo‘llaniladi. Qo‘shimcha jazoni ijro etish muddati asosiy jazo o‘tab bo‘lingan paytdan boshlab hisoblanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxsga nisbatan muddatlar o‘tishini qo‘llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud muddatlar o‘tishini qo‘llashni lozim topmasa, umrbod ozod-likdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almash-tiriladi.

Bekor qilingan o‘lim jazosi o‘rniga eng xavfli va og‘ir jinoyatlar uchun tayinlanadigan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining joriy etilishi sud tayinlagan jazoni ijro etish mumkinligini istisno etuvchi holat sifatida muddat o‘tishi qoidasining qo‘shimcha shartlari va cheklovlarini nazarda tutish zaruratini keltirib chiqardi.

Sharhlanayotgan moddaning 5-qismiga muvofiq umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga muddat o‘tishini qo‘llash haqidagi masalani sud hal qiladi. Shu bois ushbu toifadagi shaxslarga 25 yil o‘tganidan so‘ng jazoni ijro etish mumkin bo‘lmasligining umumiy o‘tish muddati taalluqli emas. Sud muddatlar o‘tganidan so‘ng bunday shaxsga nisbatan, agar mumkin emas deb hisoblasa, muddat o‘tishini qo‘llamas-likka haqlidir. Bunday hollarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi. Ta’kid-lash lozimki, bu qoida faqat bir turdagi jinoyatga, ya’ni umrbod ozod-likdan mahrum qilish tayinlanishi mumkin bo‘lgan aybni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirishga (JK 97-m. 2-q.) taalluqlidir.

Terrorizm (JK 155-m. 3-q.) tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar toifasiga kiradi, shu bois sharhlanayotgan moddaning 6-qismiga muvofiq, umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlash muddati hech bir sharoitda o‘tmaydi.

Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan shaxslarga jazoni ijro etish muddati o‘tganligi sababli jazodan ozod qilish qoidasi qo‘llanilmaydi.

### 3. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish

Jinoyat kodeksining 70-moddasida shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish nazarda tutilgan. Agar ish sudda ko‘rilayotgan vaqtga kelib sharoit o‘zgardi yoki jinoyat sodir etgan shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qishga halol munosabati bilan o‘zini ko‘rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo‘qotdi, deb e’tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin.

Ushbu modda, Jinoyat kodeksining 65-moddasida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlaridan farqli ravishda, shaxs jazoga hukm qilingan, ammo qandaydir obyektiv yoxud subyektiv sabablarga ko‘ra hukm ijro etilmagan hollarga nisbatan qo‘llanishi kerak.

Qonunga muvofiq, shaxsni jazodan ozod qilish mumkinligi masalasini hal qilish uchun sud ikki muqobil asosni aniqlashi kerak: 1) sharoitning o‘zgarganligi; 2) shaxsning benuqson xulqi, mehnat va o‘qishga vijdonan munosabati tufayli jamiyat uchun xavfli bo‘lmay qolganligi.

Shaxsni jazoni ijro etishdan ozod qilishning birinchi muqobil asosi qonunda sharoitning o‘zgarishi sifatida ifodalangan. O‘z mazmuniga ko‘ra ushbu asos muhim jihatlari bo‘yicha Jinoyat kodeksining 65-moddasida nazarda tutilgan o‘xshash asoslarga mos keladi[1].

Shaxsni jazoni ijro etishdan ozod qilish mumkinligining ikkinchi muqobil asosi uning nuqsonsiz xulqi, mehnat va o‘qishga vijdonan munosabati tufayli, ya’ni jinoyat sodir etgandan keyingi davrda ijtimoiy ma’qullanadigan xislatlari sababli jamiyat uchun xavfli bo‘lmay qolganligi fakti bilan bog‘liq.

Shaxsning jinoyat sodir etganidan keyingi xulqi, agar u qonun normalarida belgilangan barcha ko‘rsatmalarga va jamiyatda o‘zini tutish borasidagi umum qabul qilgan qoidalarga rioya etsa, nuqsonsiz deb hisoblanishi lozim.

Mehnatga va ta’limga vijdonan munosabatda bo‘lishiga shaxsning asosiy ish yoki o‘qish joyida uning zimmasiga yuklatilgan funksional vazifalarini aniq, tashabbus ko‘rsatib va samarali bajarishi xosdir.

---

[1] Ushbu darslikning XVII bobidagi 3-paragrafga qarang.

Sudning shaxs jamiyat uchun xavfli bo‘lmay qolganligiga ishonchi aniq shaxsiy xislatlarni inobatga olgan holda yuqorida keltirilgan va boshqa holatlar asosida shakllanadi.

### 4. Aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish

Aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish Jinoyat kodeksining 71-moddasida nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u jinoyat sodir etganidan keyin yetkazilgan zararni bartaraf qilib, o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan bo‘lsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 71-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish, qo‘llanish asoslari va shartlari bo‘yicha, 66-moddada nazarda tutilgan aybdorning o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan uni javobgarlikdan ozod qilish bilan o‘zaro mos keladi. Asosiy farq ularni qo‘llash mumkin bo‘lishi uchun yetarli bo‘lgan shartlarning hajmida namoyon bo‘ladi. Shaxsni Jinoyat kodeksining 66-moddasida belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun u o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilishi; yetkazilgan zararni bartaraf qilishi; jinoyatni ochishga faol yordam berishi zarur.

Jinoyat kodeksining 71-moddasida nazarda tutilgan jazodan ozod qilishni qo‘llashda esa atigi ikki holat, ya’ni o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish va yetkazilgan zararni bartaraf qilish kifoyadir[1].

Ushbu moddaning 2-qismida boshqalar bilan birga jinoyat sodir etishda ishtirok etganlarni yoxud uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a’zosi bo‘lgan shaxslarni jazodan ozod qilishning maxsus turi nazarda tutiladi.

Jazodan ozod qilishning mazkur turini qo‘llashning asosini a) har qanday shakldagi jinoyatda ishtirok etganlik; b) chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan shaxsning og‘ir yoxud o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etishda bevosita qatnashmaganligi tashkil etadi.

Shaxsning boshqa shaxslar bilan birga jinoyat sodir etishda ishtirok etganligi yoxud uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a’zosi bo‘lganligi, ya’ni qonunda nazarda tutilgan ko‘rinishlarda va shakllarda ishtirokchilik bo‘lganligi jazodan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash uchun birinchi asos bo‘lib xizmat qiladi[2].

Shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatning ijrochisi yoki ijrochining sherigi bo‘lmaganligi jazodan ozod qilish mumkinligi haqidagi masalani muhokama qilishning ikkinchi asosidir. Shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir

---

[1] «Ozod qilish asoslari va shartlari» tushunchasi haqida ushbu darslikning XVII bobiga qarang.

[2] Ishtirokchilik haqida ushbu darslikning XI bobiga qarang.

jinoyatni sodir etishda boshqa turdagi ishtirokchi sifatida ishtirok etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatning ijrochisi yoki ishtirokchisi bo‘lgan taqdirda unga nisbatan jazodan ozod qilishning ushbu turini qo‘llash mumkin.

Qonunda jazodan ozod qilishga yo‘l qo‘yadigan shartlar sifatida quyidagi holatlar belgilangan: a) aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida shaxsan o‘zi yoki vakili orqali arz qilish; b) chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish; d) jinoyatning oldini olish, ochish yoki uning tashkilotchilarini va boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh etishda yordam berish.

Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish bevosita yoki mo‘l-jallanayotgan jinoyatning yoxud guruh jinoiy faoliyatining oldini olishda, sodir etilgan jinoyatlarni ochishda, boshqa ishtirokchilarni fosh etishda yordam berish uchun hokimiyat organlariga borish niyatlari haqida boshqa shaxslar orqali xabar berish tarzida amalga oshirilishi mumkin. Xabar har qanday shaklda, ya’ni yozilgan matn ko‘rinishida, videokasseta, audiokas-setadagi yozuv shaklida, hokimiyat organlariga bevosita kelgan vakilning og‘zaki xabari tarzida berilishi mumkin.

Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish aybdorning o‘z jinoiy xatti-harakatining noto‘g‘ri ekanligini anglashi va qoralashini bildiradi.

Uchinchi shart uchta muqobil holatdan iborat bo‘lib, ulardan birining aniqlanishi ushbu shartning mavjudligini ta’kidlashga imkon beradi. Qonunda ushbu shart quyidagilarga yordam berishdan iboratligi nazarda tutilgan: a) jinoyatning oldini olishda; b) jinoyatni ochishda; d) jinoiy qilmishning tashkilotchilari yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh etishda.

Qonunchilikning bunday tuzilishi muayyan xulqning o‘ziga xos jihati bilan bog‘liq. Masalan, agar shaxs hali birorta ham jinoyat sodir etmagan qurollangan uyushgan guruhda ishtirok etish uchun rozilik bergan bo‘lsa va bu shaxs ushbu guruh tashkilotchilarining jinoiy rejalaridan hali bexabar bo‘lsa, u tashkilotchilar va boshqa ishtirokchilarni fosh etishda yordamlashishi va bu bilan ushbu shaxslar ushlangan taqdirda haqiqatan ham mazkur guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishining oldini olishi mumkin. Boshqa hollarda, agar shaxs o‘zga shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etgan bo‘lsa, u ushbu jinoyatni ochishda yordam berishi mumkin va h.k. Shu bilan birga, agar shaxs jinoyat yoki jinoiy faoliyatning oldini olish, uni ochishga, boshqa ishtirokchilarni aniqlashga yordam beradigan ma’lumotlarga ega bo‘lsa, u hokimiyat organlariga o‘ziga ma’lum bo‘lgan barcha fakt va holatlar haqida xabar berishi shart. Bu uning haqiqatan pushaymonligidan dalolat beradi.

Jazodan ozod qilishning ushbu turi to‘liq va shartsizdir.

## 5. Shartli jazo belgilash

Shartli jazo belgilash sudning ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash yoxud axloq tuzatish ishlari shaklida tayinlagan ayblov qarorini haqiqatda o‘tashdan ozod qilishning bir turidir. Shartli jazo belgilash o‘z yuridik mohiyatiga ko‘ra jazoni shartli ravishda qo‘llamaslikdan iboratdir. Jazoning boshqa turlariga hukm qilingan shaxslarga shartli jazo belgilash qo‘llanilmaydi.

Shartli hukm qilishga quyidagilar asos bo‘ladi: 1) shaxsning ijtimoiy xavfi uncha katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan yoki og‘ir jinoyatni sodir etganligi; 2) shaxsning ilgari qasddan jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum qilish shaklida jazolanmaganligi; 3) sudning ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, intizomiy qismga jo‘natish yoxud xizmat bo‘yicha cheklashi.

Ushbu asoslar yetarli emas, chunki shartli hukm qilish uchun sud mahkumning xatti-harakati nazorat ostida bo‘lganida uning jazoni o‘tamasdan ham tuzalishiga aniq ishonch hosil qilishi kerak. Sudda bunday ishonch sodir etilgan jinoyatning, shaxsning va boshqa holatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini tekshirish va aniqlash jarayonida paydo bo‘lishi lozim.

Asos va sharoitlarning yig‘indisi sudga tayinlangan jazoni shartli deb topish imkonini beradi.

72-moddaning 7-qismiga muvofiq, shartli hukm qilish quyidagi shaxslarga qo‘llanilmaydi: a) o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun hukm qilingan-larga; b) ilgari qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun ozodlikdan mahrum qilish tarzida hukm qilingan shaxslarga. Ushbu qoida: 1) 18 yoshga to‘lmagan shaxslarga; 2) I va II guruh nogironlariga; 3) ayollarga; 4) 60 yoshdan o‘tgan shaxslarga qo‘llanilmaydi.

Shartli hukm qilish tayinlangan jazoning qandaydir qismiga emas, balki umuman tayinlangan jazoga qo‘llaniladi. Sud, masalan, jazoning bir qismini ozodlikdan mahrum qilish joylarida o‘tashni tayinlab, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoning boshqa qismini shartli deb topishga haqli emas.

Shartli hukm qilishda ayblov hukmini chiqarayotgan sud mahkum aynan qaysi jinoyatni sodir etganlikda aybdor ekanligini bayon etadi, u o‘tashi kerak bo‘lgan jazoning miqdori va turini belgilagan holda jazo tayinlaydi va hukmni shartli deb topish asoslarini keltiradi.

Ayblov hukmida ikki muddat belgilanadi. Birinchi muddat – tayinlangan jazo turlaridan birining, ya’ni ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, intizomiy qismga yuborish yoki xizmatda cheklash muddati; ikkinchisi – shartli hukm qilishning zaruriy tarkibiy qismi bo‘lgan sinov muddati.

Sinov muddati sud hukmida aniq belgilangan vaqt bo‘lib, ushbu vaqt davomida mahkum tayinlangan jazoni haqiqatda o‘tashdan shartli ravishda

ozod qilinadi va ushbu muddat davomida uning zimmasiga jazo maqsadlariga erishishni ta’minlovchi muayyan vazifalar yuklatiladi, shuningdek, mahkumning rioya etishi keyinchalik unga nisbatan tayinlangan jazoni ijro etmaslikka imkon beradigan muayyan shartlar ilgari suriladi.

Jinoyat kodeksi 72-moddasining 2-qismiga binoan, sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanadi. U tayinlangan jazo muddatiga muvofiq kelishi ham, kamroq yoki koʻproq boʻlishi ham mumkin.

Uning qancha davom etishini har bir muayyan vaziyatda sud jazo maqsadlaridan kelib chiqib va jazo tayinlashning umumiy asoslariga tayanib belgilaydi.

Shartli hukm tayinlash davrida sud tayinlagan jazo muddati emas, balki sinov muddati oʻtadi. Shartli hukmni nafaqat birinchi instansiya sudlari, balki yuqori turuvchi sudlar ham qoʻllashi mumkin. Barcha hollarda sinov muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan emas, balki birinchi instansiya sudi hukm chiqargan paytdan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 72-moddasining 3-qismida sud shartli hukm qilingan shaxsga yuklatishi mumkin boʻlgan vazifalar roʻyxati toʻliq berilgan. Sud shartli hukm qilingan shaxsga majburiyatlar hajmini belgilayotganida muayyan shaxsning ularni bajarishi maqsadga muvofiqligidan kelib chiqadi. Qonunga muvofiq, bunday vazifalarga quyidagilar kiradi: yetkazilgan zararni muayyan muddat davomida bartaraf qilish; ishga joylashish; oʻqishga joylashish; shartli hukm qilingan shaxsning xulqini nazorat qiluvchi organlarga turar joyi, ish yoki oʻqish joyi oʻzgarganligi haqida xabar berish; shartli hukm qilingan shaxsning xulqini nazorat qiluvchi organlarga qayd ettirish uchun muntazam kelib turish; muayyan joylarga bormaslik; aniq belgilangan vaqtda yashash joyida boʻlish; alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalliklaridan davolanish kursini oʻtash.

Qonunda ushbu vazifalar roʻyxati toʻliq berilgan boʻlib, toʻldirilishi mumkin emas. Buning ustiga ushbu vazifalarni faqat sud yuklaydi va faqat sud belgilagan vazifalargina bajarilishi shart. Shartli hukm qilingan shaxs hayotida sinov muddati davomida qandaydir oʻzgarishlar yuz bergan va shu bois belgilangan vazifalar hajmiga oʻzgartishlar kiritish talab etilgan hollarda buni ham sud shartli hukm qilingan shaxsning xulqini nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi boʻyicha amalga oshiradi.

Shartli hukm qilingan fuqarolar xulqini nazorat qilish vazifasi ichki ishlar organlariga yuklatilgan. Shartli hukm qilingan harbiy xizmatchilarning xulqini nazorat qilish vazifasi ushbu harbiy xizmatchi sinov muddati vaqtida xizmat oʻtayotgan harbiy qismlar yoki harbiy muassasalar qoʻmondonligiga yuklatilgan.

Jinoyat kodeksi 72-moddasining 6-qismida jazoning shartliligini bekor qilish asoslari belgilangan. Bunday bekor qilish esa hukm boʻyicha tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlarining ijro

etilishini, intizomiy qismga yuborish yoki xizmatni cheklashni keltirib chiqaradi. Bunday asoslarga quyidagilar kiradi: 1) shartli jazo tayinlangan shaxsning o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarmasligi; 2) jamoat tartibini buzganlik uchun ma’muriy jazo choralarining qo‘llanilishi; 3) mehnat intizomini buzganlik uchun intizomiy ta’sir choralarini qo‘llash.

Mazkur asoslar bo‘lgan taqdirda, shartli hukm qilingan shaxsni nazorat qilayotgan organ taqdimnoma kiritadi, sud esa, taqdimnomaning asosli ekanligiga ishonch hosil qilgach, shartli hukm qilishni bekor qilish hamda hukm bo‘yicha tayinlangan jazoni ijro etish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.

Hukm qilingan shaxs o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi sababli shartli hukmni bekor qilish haqidagi taqdimnomani ko‘rib chiqish vaqtida sud unga qonunda belgilangan vazifalar yuklatilgan-yuklatilmaganligini, ularni bajarish uchun real imkoniyat bo‘lgan-bo‘lmaganligini aniqlashi shart.

Agar mahkumga qonunda belgilanmagan vazifalar yuklatilganligi yoki ushbu vazifalar mahkumga bog‘liq bo‘lmagan holatlar sababli bajarilmaganligi aniqlansa, sud jazoni kechiktirishni bekor qilish haqidagi taqdimnomani qanoatlantirishni rad etadi. Bunda sud, Jinoyat kodeksi 72-moddasining 5-qismiga muvofiq, shartli hukm qilingan shaxsga ilgari belgilangan vazifalarni to‘liq yoki qisman bekor qilish yoxud to‘ldirish huquqiga ega.

Mahkumning jamoat tartibini yoki mehnat intizomini buzganligi shartli hukmni bekor qilish to‘g‘risidagi taqdimnomani kiritish uchun asos bo‘lgan taqdirda sud ushbu qoidabuzarliklar nimada namoyon bo‘lganligini va buning uchun ma’muriy jazo yoxud intizomiy ta’sir choralari qo‘llanilgan yoki qo‘llanilmaganligini aniqlashi shart.

Ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazoni shartli hukmni qo‘llab tayinlashda sud ushbu jazoni ijro etadigan koloniya turini belgilamasligi kerak. Shartli hukm Jinoyat kodeksi 72-moddasining 6-qismida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha bekor qilinganida esa, sud ayni vaqtning o‘zida mahkum hukmda tayinlangan jazoni o‘tashi lozim bo‘lgan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasini ham belgilashi kerak.

Jinoyat kodeksi 72-moddasining 8-qismiga muvofiq, shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati vaqtida (ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqasidan) yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi jazoga ilgari belgilangan jazoni Jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha qo‘shib qo‘yadi. Bunday hollarda alohida ajrim bilan shartli hukmni bekor qilish talab etilmaydi.

Shartli jazo haqidagi hukm qonuniy kuchga kirganidan so‘ng mahkum butun sinov muddati davomida sudlangan deb hisoblanadi. Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etmagan

bo‘lsa, shartli hukmni esa sud bekor qilmagan bo‘lsa, hukm ijro etilmaydi va shaxs Jinoyat kodeksi 78-moddasining «a» bandiga muvofiq, sudlanmagan deb hisoblanadi.

## 6. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish Jinoyat kodeksining 73-moddasida tartibga solingan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish o‘z mazmuniga ko‘ra jazoni bundan buyon o‘tashdan ozod qilish turidir. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning mohiyati shundaki, sud, jazoning o‘talmagan muddati davomida qasddan yangi jinoyat sodir etmaslik sharti bilan, jazo o‘tayotgan shaxsni uning o‘talmagan qismini o‘tashdan ozod qiladi. Shunday qilib, jazoning o‘talmagan qismi o‘ziga xos sinov muddati bo‘lib, unga rioya etmaslik jazoning o‘talmagan qismini hisobga olish, uni yangi tayinlangan jazoga qo‘shish va muddatidan ilgari shartli ozod qilishning tugatilishi uchun asos bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, muddatidan ilgari shartli ozod qilish xususiy va shartli turidir.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari quyidagilardan iborat: birinchidan, bunday ozod qilish turining faqat ozodlikdan mahrum qilish muddatini o‘tayotgan, intizomiy qismlarga jo‘natilgan, xizmat bo‘yicha cheklangan yoxud axloq tuzatish joylariga yuborilgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi; ikkinchidan, mahkumning qonunda nazarda tutilgan va sud tayinlagan jazoni qisman o‘tab bo‘lganligi. Ushbu asoslar shaxsning tuzalganligi va bunga sudning ishonishidan iborat shart bilan qo‘shilishi kerak. Shunday qilib, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llashning sharti shaxsning axloqan tuzalganligiga sudning ishonishidir.

Qonunga muvofiq, quyidagi mezonlar shaxsning axloqi tuzalayotganidan dalolat beradi: a) muddatning o‘tab bo‘lingan qismi davomida ushbu turdagi jazo uchun belgilangan rejim talablariga javob berish; b) mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish.

Mahkumning jinoyat ijroiya qonun hujjatlarida belgilangan rejim talablarini bajarayotganidan dalolat beruvchi namunali xulqi va mehnatga vijdonan munosabati mahkumning yetarli darajada axloqan tuzalganligidan dalolat beruvchi mezonlarning eng kichik majmui hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hol shaxsning axloqan tuzalganlik darajasi haqidagi masalani hal qilishda boshqa holatlarni, masalan, ijtimoiy hayotga munosabati, yetkazilgan ziyonni iloji boricha tezroq qoplashga yoxud yetkazilgan zararni sifatli bartaraf qilishga intilishi kabi holatlarni inobatga olish zarurligini istisno etmaydi.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni sud mahkum jazo o‘tayotgan joyda o‘talayotgan jazoning ijro etilishiga mas’ul bo‘lgan organlarning taqdimnomasi bo‘yicha qo‘llaydi.

Ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, intizomiy qismga yuborish, xizmatda cheklash kabi asosiy jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda sud mahkumni ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan ham ozod qilishga haqlidir.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqidagi taqdimnoma jazo bilan bir qatorda alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy yo‘sinda davolanish chorasi qo‘llanilgan mahkumga nisbatan berilgan hollarda sud ushbu jinoyat ishini ko‘rib chiqishda bunday shaxsga tayinlangan davolash kursi tugagan-tugamaganligini aniqlashi shart.

Sud axloqan tuzalishning qonunda belgilangan muayyan darajasiga erishilganiga ishonch hosil qilgach, qonunda belgilanmagan, masalan, sud tayinlagan jazoning yengilligi, sodir etilgan jinoyatlarning ko‘pligi, jazoni o‘tashning ushbu joyida qisqa muddat bo‘lganligi kabilarni bahona qilib, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni rad etishga haqli emas. Jinoyat kodeksi 73-moddasining 4-qismida nazarda tutilganidan tashqari hollarda sodir etilgan jinoyatning og‘irligiga havola qilish ham qonunga asoslanmagan deb hisoblanadi.

Jazoni amalda o‘tab bo‘lish qonunda belgilangan sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan biri, yarmi va uchdan ikki qismining o‘talganligini bildiradi. Ushbu muddatlar amnistiya, afv etish aktlari bo‘yicha yoki hukmni qayta ko‘rib chiqish natijasida jazo muddatini qisqartirish akti bo‘yicha kamaytirilishi mumkin. Bunday hollarda sud jazoning amalda o‘tab bo‘lingan qismini amnistiya yoki afv etish akti asosida yoxud sudning ajrimi yoki qarori bilan belgilangan jazo turidan kelib chiqib hisoblashi kerak.

Amalda o‘talishi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqida taqdimnoma berish uchun asos bo‘ladigan belgilangan muddatlar sodir etilgan jinoyatning og‘irligi va mahkumning shaxsiga bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun hukm qilinganda, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chorasi mahkum tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini amalda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi (JK 73-m. 3-q. «a» b.).

Agar shaxs, qaysi turdagi jinoyatni sodir etganidan qat’i nazar, a) og‘ir jinoyati uchun; b) qasddan sodir etgan jinoyati uchun, ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini o‘tashi kerak bo‘ladi (JK 73-m. 3-q. «б» b.).

Mahkum a) o‘ta og‘ir jinoyati uchun; b) jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida

uchdan ikki qismini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan u jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi qo‘llanilishi mumkin (JK 73-m. 3-q. «в» b.).

Jinoyat kodeksi 73-moddasining 4-qismida muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilmaydigan shaxslar doirasi belgilangan. Bunday qaror katta xavf tug‘diradigan va ayrim o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni samarali jazolash zarurligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ushbu qaror jazo maqsadlariga erishish zarurati bilan ham bog‘liq.

Qonunda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chorasi qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarning to‘rt toifasi belgilangan: 1) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish hukm etilgan shaxslar; 2) o‘ta xavfli retsidivistlar; 3) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkilotchisi, ishtirokchilari; 4) Jinoyat kodeksi 97-moddasining 2-qismi, 118-moddaning 4-qismi, 119-moddaning 4-qismi, 150–163-moddalar, 246-moddaning 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar.

Jazodan uzil-kesil ozod qilishning sharti – shaxsning o‘talmagan muddat davomida qasddan yangi jinoyat sodir etmaganligi. Shu sababli, jazoning ushbu o‘talmagan muddati sinov muddati bo‘lib xizmat qiladi.

Sinov muddati tayinlangan jazoning xususiyatlariga qarab hisoblanadi. Masalan, agar shaxs faqat asosiy jazoga hukm qilingan bo‘lsa va unga muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilayotgan bo‘lsa, sinov muddati ushbu jazoning o‘talmagan qismiga teng bo‘lishi kerak.

Shaxs asosiy jazo bilan bir qatorda, qo‘shimcha jazoga hukm qilingan hollarda sinov muddatini hisoblashning ikki varianti bo‘lishi mumkin. Birinchisi asosiy jazoning o‘talmagan qismi qo‘shimcha jazo muddatidan ko‘p bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunda sinov muddati asosiy jazoning o‘talmagan qismiga teng bo‘ladi. Ikkinchisi qo‘shimcha jazo asosiy jazoning o‘talmagan qismidan davomliroq bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunda sinov muddatini hisoblashda u qo‘shimcha jazo muddatiga tengligidan kelib chiqish zarur.

Sinov muddatining o‘tishi muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqida ajrim chiqarilgan kundan boshlanadi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs jazoning o‘talmay qolgan qismi davomida ehtiyotsizlik oqibatida yangi jinoyat sodir etsa, sinov muddati uzilmaydi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chorasi qo‘llanilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi davomida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sinov muddati to‘xtatiladi va sud bir necha hukmlar bo‘yicha jazo tayinlaydi (JK 60-m.).

Sudlanganlikni tugatish muddati amalda o‘talgan jazodan kelib chiqib, shaxs jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan muddatni hisobga olmagan holda hisoblanadi.

Sharhlanayotgan moddaning 4-qismida amalga oshirilgan o‘zgartishlar quyidagi a) umrbod ozodlikdan mahrum etishga va b) uzoq muddatga

ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarga jazo o‘tashdan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilishni qo‘llab bo‘lmasligini belgilab beradi. Ushbu normaning mustaqil band sifatida ajratilishi umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoning alohida mavqei va muddatsizligini ta’kidlash zarurati, shuningdek, sud umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlayotganida inobatga oladigan javobgarlikni va jazoni og‘irlashtiruvchi alohida holatlarning mavjudligi, aybdorlar shaxsining nihoyatda xavfliligi bilan bog‘liq.

Jinoyat qonunini erkinlashtirish jarayonida ilgari shartli ravishda muddatidan ilgari jazodan ozod qilish yo‘l qo‘yilmagan jinoyatlar ro‘yxatidan ikki turdagi jinoyat olib tashlandi: narkotik vositalar yoki psixotrop moddalar kontrabandasi (JK 246-m. 2-q.) hamda ko‘p miqdorda narkotik vositalar yoki psixotropik moddalarni noqonuniy sotish (JK 273-m. 5-q.). Shunday qilib, ushbu jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor bo‘lgan va hukm etilgan shaxslarga jazodan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilish tartibi sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismi amalda o‘tab bo‘linganidan so‘ng qo‘llanilishi mumkin.

## 7. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish

Jinoyat kodeksining 74-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilingan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish mazmunan mahkumni muayyan jazodan uni o‘tash bosqichida ozod qilishning yengilroq turidir. Jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirishning mohiyati shundaki, bunda shaxs muayyan turdagi jazoni o‘tashdan hech qanday shartsiz u o‘tashi kerak bo‘lgan boshqa yengilroq jazoga almashtirish orqali ozod qilinadi.

Jinoyat kodeksining 43-moddasida belgilangan jazolar tizimida unga qaraganda yuqoriroqda joylashgan jazo boshqa jazoga nisbatan yengilroq jazo hisoblanadi.

Jazoning yengilroq turlari qonunda ushbu turdagi jazolar uchun belgilangan muddatlar doirasida tayinlanadi va bundan keyin o‘tashdan ozod qilingan qattiqroq jazoning o‘talmagan muddatidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Qonunda 1) u qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasi; 2) tayinlangan jazoning eng kam muddati amalda o‘tab bo‘linganligi jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash uchun asos sifatida keltirilgan.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish faqat ikki turdagi jazoga, ya’ni ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga qo‘llanilishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilishga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga, agar u tayinlangan jazo muddatining qonunda belgilan-

gan qismini amalda o‘tab bo‘lgan bo‘lsa, ushbu jazoni yengilrog‘iga almashtirish mumkinligi ikkinchi asos sifatida belgilangan. Ushbu muddatlar sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga hamda mahkumning shaxsiga ko‘ra turlarga bo‘linadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni sodir etganligi uchun hukm qilishda jazo muddatining kamida to‘rtdan bir qismi amalda o‘tab bo‘linganidan so‘nggina jazo yengilrog‘iga almashtirilishi mumkin (JK 74-m. 3-q. «a» b.).

Tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini quyidagilar uchun, ya’ni a) og‘ir jinoyati uchun; b) agar shaxs qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan bo‘lsa, qaysi toifaga kirishidan qat’i nazar, qasddan jinoyat sodir etgani uchun hukm qilingan shaxslar amalda o‘tab bo‘lishlari kerak. (74-m. 3-q. «б» b.).

Tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini quyidagilar uchun, ya’ni a) o‘ta og‘ir jinoyati uchun; b) jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan; d) jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun hukm qilingan shaxslar amalda o‘tab bo‘lishlari kerak. (74-m. 3-q. «в» b.).

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish haqidagi masala yuzaga kelishi uchun asoslar bo‘lishi bilan bir qatorda sudning shaxs axloqan tuzalish yo‘liga kirganligiga ishonchi ham zarur shart sifatida talab etiladi. Mahkumning qonunga muvofiq ravishda ozodlikdan mahrum qilish joylarida belgilangan rejim talablarini yoki axloq tuzatish ishlarini bajarayotganligi hamda mehnatga vijdonan yondashayotganligi ushbu jarayonlar boshlanganidan dalolat beradi.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga mavjud asoslar birgalikda bo‘lganida va qo‘yilgan shartlar bajarilganida yo‘l qo‘yiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganida axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Axloq tuzatish ishlari yengilroq jazo bilan almashtirilganida ularni faqat jarima bilan almashtirish mumkin, chunki Jinoyat kodeksining 43-moddasida muddat bilan bog‘liq boshqa yengilroq jazo yo‘q. Axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish Jinoyat kodeksi 44-moddasining 3-qismida belgilangan qoidaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda axloq tuzatish ishlarining bir oyi eng kam ish haqining o‘n olti baravariga mos keluvchi jarima summasiga to‘g‘ri kelishidan kelib chiqiladi.

Mahkum yengilroq jazoni o‘tash davrida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, yangi hukm asosida jazoga yengilroq jazoning o‘talmagan qismi Jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga ko‘ra to‘lig‘icha yoki qisman qo‘shiladi.

## 8. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish

Jinoyat kodeksi 75-moddasining 1-qismiga muvofiq, shaxs hukm chiqarilganidan keyin o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiladigan boshqacha og‘ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o‘tashdan ozod qilinishi lozim. Sud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashi mumkin.

Shunday qilib, qonunda mahkumni jazodan muddatidan ilgari ozod qilish uchun ikki mustaqil asos bo‘lishi zarurligi nazarda tutilgan: a) mahkumni o‘z harakatlarining ahamiyatini anglash yoki ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum qiladigan ruhiy kasallik; b) jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiladigan boshqa og‘ir kasallik.

Ruhiy xastaliklarga asosan uzoq davom etadigan, kuchayib va og‘irlashib boradigan hamda davolash qiyin bo‘lgan surunkali ruhiy kasalliklar kiradi. Barqaror bo‘lmagan, vaqtinchalik, o‘tkinchi xususiyatga ega bo‘lgan ruhiy kasalliklar jazodan muddatidan ilgari ozod qilish masalasini hal etish uchun asos bo‘la olmaydi. Bunday toifadagi bemorlarga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin.

Ruhiy kasalliklarga kirmaydigan boshqa og‘ir kasalliklar deganda, o‘zining jiddiyligi va davolab bo‘lmasligi bilan jazo chorasini qo‘llashga to‘sqinlik qiladigan va jazoni qo‘llash unga nisbatan befoyda hisoblangan kasalliklar tushuniladi. Bunday mahkumlar aql-farosatga ega bo‘ladilar va axloq tuzatishga doir jazoga tortilishlari mumkin. Biroq bemorning aynan jismoniy holati unga nisbatan haqiqiy jazo qo‘llashning maqsadga muvofiq, emasligi va jazoni bundan keyin ham o‘tashni davom ettirish bema’niligini bildiradi. Bunday kasallikka bedavo dard deb tashxis qo‘yilishi lozim.

Kasallik oqibatida muddatidan ilgari jazodan ozod qilish shartlidir, chunki bunday shaxslar jazoni o‘tash muddati o‘tmasidan avval sog‘aygan taqdirda jazo ijro etilishi mumkin. Jazoga tortish muddati sud bunday chorani qo‘llagan shaxslar uchun tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llangan kundan boshlab, yoxud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilmagan shaxslar uchun ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 75-moddasining 4-qismida harbiy xizmatchilarni kasalligi tufayli jazodan muddatidan ilgari ozod qilishning mustaqil turi belgilangan. Harbiy xizmatchi sog‘lig‘ining shifokorlar komissiyasining xulosasiga ko‘ra uni harbiy xizmatga yaroqsiz qiladigan holati jazodan muddatidan ilgari ozod qilishning ushbu turini qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Harbiy xizmatchi sog‘lig‘ining ushbu holati tan olingan taqdirda u intizomiy qismga jo‘natish yoki xizmat bo‘yicha cheklash ko‘rinishidagi jazolarni o‘tashdan ozod qilinadi.

Qonunga koʻra, homiladorlik sababli kelib chiqadigan mehnatga layoqatsizlik ayol harbiy xizmatchilar uchun xizmat boʻyicha cheklash tarzidagi jazodan muddatidan ilgari ozod qilishning qoʻshimcha asosi boʻlib hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunda homiladorlik faktining oʻzi emas, balki homiladorlik va tugʻish boʻyicha ta'til berilishi asos deb hisoblanishini inobatga olish lozim. Binobarin, harbiy xizmatda boʻlgan homilador ayollarni xizmat boʻyicha cheklash jazosini oʻtashdan muddatdan ilgari ozod qilish ularga homiladorlik va tugʻish boʻyicha ta'til berilishi paytidan boshlanadi. Muddatidan ilgari ozod qilishning ushbu turi shartsiz hisoblanadi.

Jinoyat kodeksi 75-moddasining 5-qismida axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari ozod qilishning mustaqil shartsiz turi belgilangan. Qonunda bunday ozod qilish uchun bir necha muqobil asoslar keltirilgan: a) mehnat layoqatining yoʻqotilishi; b) pensiya yoshiga yetganlik; d) homiladorlik va tugʻish boʻyicha ta'til berilishi.

## 9. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasi 1-qismining 23-bandiga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti amnistiya toʻgʻrisidagi hujjatlarni qabul qilish haqida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya toʻgʻrisidagi hujjatlarni qabul qiladi. Avf etish vakolatiga esa, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasi 1-qismining 23-bandiga koʻra faqat Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentigina ega.

Amnistiya va afv etishni qoʻllash jinoyat sodir etgan shaxslarga insonparvarlik koʻrsatish va ishonch bildirishdir.

Oʻz mazmuniga koʻra, amnistiya va afv etish quyidagi alohida holatlarni keltirib chiqaruvchi aktlardir:

1) jinoiy javobgarlikdan ozod qilish;
2) asosiy va qoʻshimcha jazolarni oʻtashdan shartsiz ozod qilish;
3) oʻtalmay qolgan jazo muddatini qisqartirish;
4) jazoning oʻtalmay qolgan qismini yengilrogʻi bilan almashtirish;
5) belgilangan jazoni qisqartirish;
6) sudlanganlikni bekor qilish.

Amnistiyalar mamlakatimizda qandaydir tantanali voqealar yuz berishi – Konstitutsiya kuni, respublikamizning Mustaqillik kuni munosabati bilan chiqariladi. Amnistiya aktlari ushbu aktlarda alohida aks ettirilmagan muayyan toifa yoki guruhga kiruvchi shaxslarga nisbatan qoʻllaniladi.

2008-yil 28-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e’lon qilinganligining 17 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga muvofiq, insonparvarlik tamoyiliga amal qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga va 93-moddasi 23 bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oily Majlisining Senati qarori asosida quyidagi mahkumlar jazodan ozod qilindilar:

a) ayollar;

b) jinoyat sodir etgan vaqtda 18 yoshga to‘lmagan shaxslar;

d) 60 yoshga to‘lgan erkaklar;

e) chet el fuqarolari;

f) ehtiyotsizlik orqasida jinoyat sodir etganlar, shuningdek birinchi marta hukm qilingan shaxslar, basharti ular ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan bo‘lsalar;

g) og‘ir kasallikka chalingan yoki birinchi va ikkinchi guruh nogironlari deb topilgan shaxslar.

Amnistiya quyidagi shaxslarni jazodan ozod qilishi mumkin:

– olti yilgacha bo‘lgan muddatga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm qilingan, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyati uchun hukm qilingan shaxslar;

– sakkiz yilgacha bo‘lgan muddatga hukm qilingan va tayinlangan jazo muddatining kamida to‘rtdan bir qismini o‘tab bo‘lgan shaxslar;

– o‘n yilgacha bo‘lgan muddatga hukm qilingan va tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o‘tab bo‘lgan shaxslar;

– Farmon chiqqan kuni jazoning o‘talmagan qismi uch yildan kam bo‘lgan shaxslar.

Amnistiya ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va qonunda ozodlikdan mahrum qilish shaklidagi jazo nazarda tutilmagan jinoyatlarga doir barcha tergov ishlarini va sudda ko‘rilmagan ishlarni yuritishni to‘xtatishi mumkin.

Sud tayinlagan jazo amnistiya tufayli o‘zgartirilishi mumkin. Masalan, 2008-yil 28-avgustdagi amnistiya bilan shaxslarga jazolar quyidagicha o‘zgartirilgan:

– ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilinib, mazkur qaror e’lon qilingan kunga o‘tolmay qolgan jazo muddati uch yildan ko‘p bo‘lmagan shaxslar manzil – koloniyaga o‘tkazilsin.

Amnistiya aktida ba’zan uning qo‘llanilishi aybdor shaxslarning muayyan xulqi bilan bog‘lanishi ko‘rsatiladi. Masalan, 2008-yil 28-avgustdagi Amnistiya to‘g‘risidagi qarorda u uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan; o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan; jinoiy uyushma tarkibida jinoyat sodir etgan; jazoni o‘tash tartibini muntazam buzayotgan; muqaddam amnistiya tartibida jazodan ozod bo‘lgach, yana qasddan jinoyat sodir etgan shaxslarga; taqiqlangan tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki, ular tarkibida tinchlik va xavfsizlikka

qarshi yoki jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir qilganligi uchun sudlangan shaxslarga qo‘llanilmasligi ko‘rsatildi.

Yakka tarzda ko‘rsatilmagan muayyan toifadagi shaxslarga taalluqli bo‘ladigan amnistiyadan farqli o‘laroq, afv etish aniq bir shaxsga yoki bir qator aniq shaxslarga, odatda sudlangan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tarzidagi afv etish ham bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda aybdor shaxs sudga topshirilmaydi.

Afv etish, amnistiyadan farqli ravishda, jinoyatlarning yoki jinoyat sodir etgan shaxslarning toifalari aniq ifodalangan akt emas, balki qat’iy individuallashgan aktdir.

Amnistiya va afv etish reabilitatsiyadan farq qiladi va jinoyat sodir etganlikda aybdor bo‘lgan shaxslarga qo‘llaniladi. Reabilitatsiya esa ilgari asossiz qatag‘on qilingan yoxud hukm etilgan shaxslarning aybsizligini e’lon qiladi. Reabilitatsiya alohida shaxslarga nisbatan ham, ularning katta guruhlariga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin.

Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo‘shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

Agar amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan shaxs jazoning o‘talmay qolgan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha jazo tayinlaydi.

Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin, agar jazoni o‘tash davrida mahkum qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o‘qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin berilishi mumkin.

Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin, agar jazoni o‘tash davrida mahkum qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o‘qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o‘n besh yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi sudlarining mahkumlarni afv etishi yuridik shakliga ko‘ra qonunchilik akti bo‘lib, uni qabul qilish vakolati, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasi 1-qismining 23-bandiga

muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga berilgan. U O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi.

Afv etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining individual belgilangan aktidir. Unda muayyan shaxs yoki shaxslarning muayyan guruhiga nisbatan jinoyat sodir etilishining jinoiy-huquqiy oqibatlarini yo‘q qilish yoki yengillashtirish haqida ko‘rsatma beriladi. Shundan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar afv etish hujjatida belgilangan ko‘rsatmalarni og‘ishmay bajarishlari kerak.

Afv etish sud hukmining asosliligi va vakolatliligini shubha ostiga qo‘ymaydi. U faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aniq bir shaxsga (yoki aniq shaxslarga) nisbatan rahmdilligini bildiradi.

Afv etish institutining tartibga solinishi bo‘yicha xalqaro huquqiy amaliyot ko‘p variantli bo‘lib, davlat boshlig‘i qabul qilishi mumkin bo‘lgan qarorlar doirasi juda keng: umrbod ozodlikdan mahrum qilishni yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishni muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirishdan tortib ushbu jazodan butunlay ozod qilishgacha.

Mahkumning afv etishni so‘rab murojaat qilish imkoniyati haqidagi masalani hal etishga yondashuvlar ham xilma-xildir.

Sharhlanayotgan normaning 3 va 4-qismlarida belgilangan mahkumning afv etish haqida murojaat qilish tartibi aybdorlarning jazosiz qolishi mumkinligidan xavotirni bartaraf etadi. Belgilangan tartib mahkum o‘z aybini anglashi, axloqan tuzalish yo‘liga kirishi, harakat qilishi va o‘z irodasini hayotiy qadriyatlar, ustuvor yo‘nalishlar, dunyoqarashini qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltirishiga qaratilgan.

Umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning afv etish haqidagi iltimos bilan murojaat qilishlari bo‘yicha nazarda tutilgan qoida juda to‘g‘ri bo‘lib, mahkumning yaqin qarindoshlari, qonuniy vakillari, boshqa manfaatdor jismoniy yoki yuridik shaxslarning iltimosnoma bilan murojaat etishlaridan iborat huquqlarini cheklamaydi.

## 10. Sudlanganlik

Jinoyat kodeksi 77-moddasining 1-qismida sudlanganlikning huquqiy tabiati belgilangan. Sudlanganlik – shaxsning jazoga hukm etilganligidan kelib chiqadigan va muayyan huquqiy oqibatlarga olib keladigan huquqiy holati (huquqiy maqomi).

Shaxs sudning uni biron-bir jinoyatni sodir etganligi uchun muayyan jazoga tortgan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab sudlangan hisoblanadi. Shunday qilib, shaxs jazoni o‘tash davrida ham, uni o‘tab bo‘lganidan keyin aniq belgilangan muddat davomida ham sudlangan hisoblanadi. Ammo sud hukmi bilan jazodan ozod qilingan shaxs sudlangan hisoblanmaydi.

Sudlanganlikning huquqiy ahamiyati sudlanganlikning mazmunini tashkil etuvchi huquqiy oqibatlar bilan bog‘liq. Shaxsning sudlanganligi bir umrlik huquqiy holat emas. Jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslar sudlanganlik tugamagunicha yoki Jinoyat kodeksi 78 va 79-moddalarida nazarda tutilgan shartlar mavjud bo‘lganida olib tashlanmagunicha sudlangan hisoblanadilar.

Sudlanganlikning ijtimoiy oqibatlari (sabablari) jazoga o‘xshaydi va ilgari jinoyat sodir etganligi tufayli shaxsning jamiyat uchun xavfli deb baholanishi bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy cheklash axloq tuzatishga, jinoiy faoliyatni davom ettirishga to‘sqinlik qilishga, xususiy va umumiy oldini olishga, ya’ni Jinoyat kodeksining 42-moddasida nazarda tutilgan jazo maqsadlariga bo‘ysundirilgan.

Sudlanganligi mavjud bo‘lgan shaxs uchun huquqiy oqibatlarning kelib chiqish imkoniyati uning ushbu davrda yangi jinoyat sodir etishi bilan bog‘lanadi. Ushbu holda sudlanganlikning mavjudligi: 1) Jinoyat kodeksining 66-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun to‘siqdir; 2) kvalifikatsiyalovchi ahamiyatga ega bo‘lishi va kvalifikatsiyalangan yoki alohida kvalifikatsiyalangan tarkibning konstitutiv belgisi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin; 3) jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi sababli, sud tanlagan jazoni kuchaytirishi mumkin (JK 56-m. 1-q. «н» b.); 4) shaxs o‘ta xavfli retsidivist deb topilganida inobatga olinadi (JK 34-m.); 5) muayyan turdagi jazolarni tayinlash uchun to‘siq hisoblanadi (JK 48-m.); 6) ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazoni o‘tash rejimini belgilashga ta’sir ko‘rsatadi (JK 50, 85-m.); 7) jazodan ozod qilish uchun to‘siq bo‘lishi mumkin (JK 71–74-m.) va h.k.

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hollardagina va shaxs sudlangan bo‘la turib yangi jinoyat sodir etganidagina sudlanganlik huquqiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Sudlanganlikning bekor qilinishi yoki tugallanishi muddati barcha huquqiy oqibatlarning tugallanishi yoki cheklanishiga bog‘liqdir. Shaxsni sudlangan deb topish uning ilgari hukm etilganligini inkor etmaydi, balki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha huquqiy cheklashlarga doir harakatlarning tugallanganligini ifodalaydi, xolos. Sudlanganlikning tugallanishi yoki bekor qilinishi ilgari sodir etilgan jinoyat faktini huquqiy jihatdan yo‘q qiladi. Shu sababli mazkur holat huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi va amal qilishiga hech qanday ta’sir etmaydi.

Jinoyat kodeksi 77-moddasining 5-qismida belgilangan qoidaga ko‘ra, qilmishning jinoiyligini bekor qilgan yangi qonun kuchga kirguniga qadar jazo o‘tab bo‘lgan shaxs sudlanmagan hisoblanadi. Ushbu qoida Jinoyat kodeksi 13-moddasining 2-qismi bilan o‘zaro bog‘liq.

Sudlanganlik holatining tugallanishi deganda, Jinoyat kodeksining 78-moddasida belgilangan muddatlarning o‘tishi bilan sudning ushbu masalaga oid maxsus qarori qabul qilinmasidan barcha huquqiy oqibatlar va cheklashlarning tugallanishi tushuniladi.

Sudlanganlik sinov muddati tugagan kundan boshlab (JK 78-moddasining «a» b.) yoki jazoni o‘tab bo‘lgach (JK 78-moddasining «б» b.) yoxud qonun bilan belgilangan asosiy va qo‘shimcha jazolarni o‘tab bo‘lgandan so‘ng (JK 78-moddasining «в», «г», «д», «е», «ж» bandlari) tugallanadi.

Sudlanganlik quyidagilarga ko‘ra tugatiladi:

a) shartli hukm qilinganlarga nisbatan – sinov muddati tugagan kundan boshlab;

b) xizmat bo‘yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo‘natish tarzidagi jazolarni o‘tab chiqqach;

d) jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek, muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o‘talganidan keyin bir yil o‘tgach;

e) qamoq jazosi o‘talganidan keyin – ikki yil o‘tgach;

f) besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘talganidan so‘ng – to‘rt yil o‘tgach;

g) besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘talganidan keyin – yetti yil o‘tgach;

h) o‘n yildan ortiq, lekin o‘n besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘talganidan keyin – o‘n yil o‘tgach.

Shaxs yangi jinoyat sodir etganida sudlanganlik holati tugash muddatining davom etishi to‘xtatiladi. Ushbu holda birinchi jinoyat bo‘yicha sudlanganlikning tugash muddati aybdor oxirgi jinoyati uchun jazoni amalda o‘tab bo‘lganidan so‘ng qayta hisoblanishi kerak. Shaxs ushbu jinoyatlardan eng og‘iri uchun sudlanganlik tugashi muddati tugagunicha ikkala jinoyat uchun sudlangan hisoblanadi.

Sudlanganlikning sud ajrimi yoxud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining amnistiya yoki afv etish akti asosida olib tashlanadi.

Sudlanganlikning olib tashlanganligi hokimiyatning vakolatli organi tegishli qaror chiqarib uni bekor qilganligini bildiradi.

Jinoyat kodeksining 79-moddasida sudlanganlikning olib tashlanishi quyidagi ikki toifa mahkumlarga nisbatan nazarda tutiladi: 1) 15 yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish shaklidagi jazoni o‘taganlarga; 2) belgilangan tartibda o‘ta xavfli retsidivist deb topilganlarga.

Mazkur toifadagi shaxslarning sudlanganligini olib tashlash haqidagi masala muhokama qilinishiga quyidagilar asos bo‘ladi: a) jazoni o‘talganidan so‘ng 15 yillik muddatning o‘tganligi; b) yangi jinoyat sodir etilmaganligi. Sudlanganlikni olib tashlashning majburiy sharti mazkur

shaxsning axloqan tuzalganligi va uni sudlangan deb topishga zarurat qolmaganligi to‘g‘risidagi sud ajrimidir.

Jinoyat kodeksining 79-moddasida sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash mumkinligi belgilangan. Sudlanganlikning muddatidan ilgari olib tashlanishiga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tagan shaxslar namunali xulq-atvori, mehnat va o‘qishga halol munosabatlari bilan axloqan tuzalganliklarini isbotlaganlarida yo‘l qo‘yiladi. Bunday axloqan tuzalish shaxsning ma’muriy jazoga yoki intizomiy javobgarlikka tortilmaganligi bilan tasdiqlanadi. Sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlashga doir iltimosnomani jamoat birlashmasi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki shaxsning o‘zi berishi mumkin. Bunday iltimosnoma Jinoyat kodeksining 78-moddasida nazarda tutilgan muddatning kamida yarmi o‘tab bo‘linganidan so‘ng taqdim etilishi mumkin.

Sudlanganlikning muddatidan ilgari olib tashlanishi amnistiya yoki afv etish akti bilan ham yuz berishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 80-moddasining 1-qismida sudlanganlik holatini tugatish yoki sudlanganlikni olib tashlash muddatlarini hisoblashning umumiy qoidalari belgilangan. Ushbu muddatlar asosiy va qo‘shimcha jazolar o‘tab bo‘lingan yoki ijro etilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Agar shaxs jazodan qonunda belgilangan tartibda muddatidan ilgari ozod qilingan bo‘lsa, sudlanganlik holatining tugallanishi jazoning amalda o‘talganligi bo‘yicha hisobga olinadi. Hukm ijro etilmagan va ijro muddati uzilmagan vaqt sudlanganlikning tugallanishi muddatiga kiritiladi.

Agar jazo yengilrog‘i bilan almashtirilgan bo‘lsa, amaldagi o‘talgan muddat hukmga ko‘ra belgilangan hamda o‘talgan jazo muddati va sudning jazoni almashtirish to‘g‘risidagi ajrimi bo‘yicha o‘talgan yengilroq jazo muddatini qo‘shish yo‘li aniqlanadi. Shu bilan birga, yengilroq jazo turi, jazolarni qo‘shib hisoblash qoidalariga muvofiq, og‘irroq jazo turiga almashtirilishi kerak.

Masalan, ozodlikdan mahrum qilish Jinoyat kodeksining 74-moddasi asosida axloq tuzatish ishlariga almashtirilgan bo‘lsa, amalda o‘tab bo‘lingan ozodlikdan mahrum qilish muddati hamda axloq tuzatish ishlarining o‘talgan muddati qo‘shilishi kerak. Bunda axloq tuzatish ishlari bunday ishlarning uch kuni ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga mos kelishidan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum qilish hisobiga aylantirilishi kerak. Oxir-oqibatda sudlanganlik holatining tugash muddati amalda o‘tab bo‘lingan turli xil jazolarni qo‘shish natijasida olingan ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazo muddatidan kelib chiqib hisoblanadi.

Jazoga hukm etilgan shaxs jarima to‘lashdan (JK 44-m.) yoki axloq tuzatish ishlaridan bo‘yin tovlagan hollarda (JK 46-m.) mazkur jazo turlari, qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, boshqa jazo choralari bilan almashtirilishi lozim. Bunday hollarda sudlanganlik holatining

tugallanish muddati amalda o‘tab bo‘lingan yoki ijro etilgan jazodan kelib chiqib hisoblanadi.

Agar shaxs ikki turdagi jazoni o‘tagan bo‘lsa, sudlanganlikning tugallanishi uchun sud hukmi bilan tayinlangan jazo hisobga olinadi. Masalan, shaxs axloq tuzatish ishlariga hukm etilgan bo‘lib, keyinchalik jazo Jinoyat kodeksi 46-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan bo‘lsa, sudlanganlik muddatining tugallanishi axloq tuzatish ishlari shaklidagi jazodan kelib chiqib hisoblanadi va ozodlikdan mahrum qilishning amalda o‘talgan muddati axloq tuzatish ishlariga almashtiriladi.

Jinoyat kodeksi 80-moddasining 4-qismida sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o‘tishini to‘xtatish haqidagi qoida nazarda tutilgan. Bunday muddat shaxs ushbu vaqt ichida yana jinoyat sodir etgan taqdirda to‘xtatiladi. Shunday qilib, sudlanganlik holatini tugatish uchun qonunda (JK 78-m.) belgilangan muddat davomida shaxs yangi jinoyat sodir etmagan bo‘lishi zarur. Sudlanganlik muddati mobaynida shaxs yangi jinoyat sodir etsa, ushbu muddat so‘nggi jinoyat uchun asosiy va qo‘shimcha jazo o‘talgan paytdan boshlab hisoblanishi zarur. Shaxs og‘irroq jinoyati uchun sudlanganlik holatining tugash muddati o‘tmagunicha sodir etgan jinoyatlarning barchasi uchun sudlangan hisoblanadi.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Jazodan ozod qilish» tushunchasini ta’riflang.
2. Sudlanganlik huquqiy holatining ahamiyatini ochib bering?
3. Jazodan ozod qilish va jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o‘xshash va farqli jihatlari nimada?
4. Sudlanganlik muddati qaysi prinsip bo‘yicha belgilanadi? Sudlanganlik muddatlarini belgilashning huquqiy mazmunini ochib bering.
5. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilishning O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunlarida nazarda tutilgan asoslarini sanab bering.
6. Jazodan ozod qilishning huquqiy asoslarini sanab bering.
7. Qaysi organ va qanday asosda aybdorni o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish haqida qaror chiqaradi?
8. Shartli hukm qilishning asoslarini sanab bering.
9. Muddatidan oldin shartli ozod qilish nima. U kimga nisbatan va qanday tartibda qo‘llaniladi?
10. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilishning huquqiy ahamiyatini ochib bering.
11. Sudlanganlikni bekor qilish muddatlari va ularni qo‘llash asoslarini sanab bering.

## XIX bob
## VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI

### 1. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi va jazolanishi shartlarining umumiy tavsifi

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik amaliyotida ilk bor Jinoyat kodeksining Maxsus qismida voyaga yetmaganlar, ya’ni jinoyat qonuni bilan to‘qnashgan paytida 18 yoshga to‘lmagan shaxslarning javobgarligiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi qoidalarni tartibga solishga bag‘ishlangan maxsus oltinchi bo‘lim ajratilgan. Bunday qonuniy hal qiluv bir qator omillar bilan, ammo, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlarning psixofiziologik rivojlanishi, ularning jamiyatga moslashuv darajasi bilan bog‘liq. Shaxs shakllanishidagi biologik, fiziologik va ijtimoiy omillarning inobatga olinishi ushbu shaxslar toifasiga xos bo‘lgan xususiyatlardan kelib chiqib, jinoyat huquqining bir qator institutlari qoidalarining mazmuniga yondashuvni qonun darajasida o‘zgartirish zarurligini belgilab berdi.

Ushbu xususiyatlarga O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov alohida e’tibor berib: «Bizning jinoyat qonunchiligimiz, insonparvarlik qoidalariga asoslangan, jinoyat sodir qilgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda bir qator yengilliklarni nazarda tutadi»[1]. U, shuningdek, «ushbu sohadagi liberallashtirish jarayonini yana davom ettirish kerak»[2], ekanligini ta’kidladi.

Ushbu vazifalarni hal qilishda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi va jazolanishiga xos xususiyatlarni tartibga soluvchi jinoyat qonunining ahamiyati katta bo‘lib, u adolat, insonparvarlik, qonuniylik, demokratizm, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ayb uchun javobgarlik, jazoning muqarrarligi prinsiplari amalga oshishi uchun huquqiy asos hisoblanadi.

Jinoyatchilikning umumiy tuzilishida voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarning ulushi taxminan 4 % ni, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazo o‘tayotganlar umumiy sonining esa 0,92 % ni voyaga yetmaganlar tashkil qiladi[3]. Biroq bu xotirjam bo‘lish uchun asos bo‘la olmaydi, zero ushbu raqamlar sodir etilgan jinoyatlarning ancha xavfliligidan dalolat beradi. Ularda voyaga yetmaganlar sodir etadigan barcha jinoyatlarning yarmidan ortig‘ini tashkil etuvchi g‘arazli, g‘arazli-zo‘ravonlik va zo‘ravonlik xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmishlar ustunlik qiladi.

---

[1] *Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003. – 42-б.

[2] O‘sha joyda.

[3] O‘sha joyda.

Mamlakatimiz bo‘yicha voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kamayib borishidan iborat umumiy tamoyil ko‘zga tashlanayotgan bo‘lishiga qaramay, ba’zi yillari bir qator hududlarda uning o‘sganligi ko‘rinadi. Masalan, 1999-yilda Toshkent shahrida u 1998-yildagiga nisbatan 5,8 % ga, Toshkent viloyatida – 10,7 % ga, Samarqand viloyatida – 20,1 % ga, Andijon viloyatida – 19,7% ga, Namangan viloyatida – 35,7 % ga, Xorazm viloyatida – 2,7 % ga ko‘paydi. Tarbiya koloniyalarida tarbiyalanayotganlarning 60 % dan ortig‘i birinchi jinoyatni 16 yoshga to‘lmaslaridan avval, ya’ni voyaga yetmagan paytlarida sodir etganliklari ta’kidlanadi[1].

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining xususiyatlari, shuningdek, ushbu toifaga kiruvchi shaxslarning qonunni buzish hollarini keltirib chiqaruvchi ularning psixofiziologik xislatlari, jinoyat qonuni prinsiplarining amalga oshirilishi Jinoyat kodeksi 17-moddasining 6-qismida o‘z ifodasini topgan 18 yoshga to‘lmasidan jinoyat sodir etgan shaxslar javobgarligining umumiy qoidalarga muvofiq tarzda hamda Jinoyat kodeksi Umumiy qismining Oltinchi bo‘limida nazarda tutilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda yuz berishi haqidagi qoidaning qonun darajasida belgilab qo‘yilishiga sabab bo‘ldi. Jinoyat kodeksi Umumiy qismining Oltinchi bo‘limiga muvofiq, mazkur xususiyatlar jazo va uni tayinlash, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish masalalarida nazarda tutilgan. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlarini tartibga soluvchi bir qator qoidalar jinoyat qonun hujjatlarining boshqa moddalarida ham mavjud. Ushbu xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz.

Voyaga yetmaganlarning javobgarligi bir qator jinoyatlar uchun istisno etiladi, chunki ilk bor javobgarlik 18 yoshga to‘lish bilan boshlanishi (JK 17-m. 4-q.); voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlaganlik (JK 122-m.); ota-onani moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlaganlik (JK 123-m.); voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilganlik (JK 127-m.); fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik (JK 144-m.); saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o‘tkazish to‘g‘ridagi qonun hujjatlarini buzganlik (JK 146-m.); ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzganlik (JK 193-m.); atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘ridagi ma’lumotlarni qasddan yashirganlik yoki buzib ko‘rsatganlik (JK 194-m.); (JK 195-m.); 205, 207, 208, 209, 210, 255, 226, 230, 231–235, 279–302 uchun belgilab qo‘yildi. Shunday qilib, voyaga yetmaganlarga aslida maxsus belgi maqomi berildi, chunki voyaga yetmaganlarning javobgarlik chegaralari ular yetgan yoshga qarab

[1] Qarang: *Файзуллаева В. Г.* Особенности и основные тенденции преступности несовершеннолетних и молодежи // Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши кураш фаолиятини такомиллаштириш. – Т., 2001. – 106–107-б.

(13, 14, 16 va 18 yosh), muayyan toifadagi jinoyatlarga nisbatan farqlanadi. Binobarin, jinoiy qilmish doirasi ularning turli yoshdagi voyaga yetmaganlar sodir etganligiga nisbatan katta yoshdagilar uchun g‘ayriqonuniy va ijtimoiy xavfli deb baholanadigan xatti-harakatlarga nisbatan ancha cheklangan.

Voyaga yetmaganlarning javobgarligi jinoyat subyektining o‘ta xavfli retsidiv kabi maxsus belgisi bilan ham cheklanadi, chunki Jinoyat kodeksi 34-moddasining 6-qismiga muvofiq, shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb topish haqidagi masala ko‘rib chiqilayotganida, u 18 yoshga to‘lmasidan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganligi hisobga olinmaydi.

Voyaga yetmaganlarga muayyan turdagi jazolar qo‘llanilishi mumkin emas. Bu esa qonunda jazolarning umumiy tizimi bilan bir qatorda (JK 43-m.), voyaga yetmaganlar uchun maxsus mo‘ljallangan jazolar tizimi (JK 81-m.) bilan ham, boshqa moddalarda mavjud bo‘lgan ko‘rsatmalardan ham kelib chiqadi. Masalan, jinoyatni 18 yoshga to‘lmasidan sodir etgan shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksi 50-moddasining 4-qismiga muvofiq, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish va 51-moddasi 3-qismiga muvofiq umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari tayinlanishi mumkin emas. Jazolarning maxsus tizimida mavjud bo‘lgan boshqa turlariga kelganda esa umumiy tizimni tashkil etuvchi jazolarning o‘xshash turlari bir xilda nomlanishi bilan birga, ular mazmunan jiddiy farq qiladi va ancha yengilroqdir.

Jinoyat kodeksi 55-moddasi 1-qismining «ж» bandiga muvofiq, voyaga yetmagan yoshda jinoyat sodir etganlik fakti sud jazo chorasini belgilayotganida jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi kerak. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-sentabrda chiqarilgan «Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 21-son qarorning 8-bandida berilgan tushuntirishlarga ko‘ra, voyaga yetmagan shaxs jinoyat sodir etishidan avval katta yoshdagi shaxslarning, jumladan, ish bo‘yicha jabrlanuvchi deb topilgan shaxslarning g‘ayriqonuniy yoki ig‘vogarona xulqi mavjud bo‘lgan taqdirda sud ushbu holatni aybdorning jazosini yengillashtiruvchi holat deb topishga haqlidir. Ayni paytda Jinoyat kodeksi 55-moddasi 1-qismining «г» bandiga muvofiq, jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida yoxud voyaga yetmagan shaxsning moddiy, xizmat jihatidan va boshqacha qaramligi tufayli jinoyat sodir etishi ham jazoni yengillashtiruvchi holatlarga kirishini inobatga olish lozim[1]. Qonun chiqaruvchi organ voyaga yetmaganlikni jazoni yengillashtiruvchi holat deb belgilaganida ular shaxsining rivojlanishidagi psixofiziologik xususiyatlar, jamiyatga moslashish darajasi, hayotiy tajribasi, axloqiy ko‘nikmalarining yetishmasligi hamda o‘z harakatlarining oqibatini oldindan ko‘rib tanlab

[1] Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг бюллетени. – 2000. – № 4. – 65–66-б.

harakat qilish imkoniyatining cheklanganligidan kelib chiqqan. Ayni shu omillarni O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi o‘zining rahbariy tushuntirishlarida ham inobatga olgan.

Ozodlikdan mahrum qilishga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan voyaga yetmaganlarga, shuningdek, ilgari qasddan jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilinganlarga nisbatan, sodir etilgan jinoyatning og‘irligidan qat’i nazar, Jinoyat kodeksi 72-moddasida belgilangan tartibda shartli hukm qilish qo‘llanilishi mumkin.

## 2. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar tizimi va ularning vazifasi

Jinoyat kodeksining 81-moddasiga muvofiq, jazolar tizimi yengil-rog‘idan og‘irrog‘iga tomon prinsipi bo‘yicha qurilgan va umumiy tizimga nisbatan jazolarning cheklangan ro‘yxatiga ega (JK 43-m.) bo‘lib, 18 yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga qo‘llanilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar uchun jazolar tizimiga faqat asosiy jazolar, ya’ni mustaqil ravishda tayinlanadigan, davlat tomonidan qabul qilinadigan majburlov asoslarini tashkil qiladigan, faoliyatning va jinoyat sodir etgan shaxsning salbiy baholanish darajasini ifodalaydigan hamda, axloq tuzatish-tarbiya ta’sirining boshqa choralari bilan bir qatorda, jazolash maqsadlariga ham erishish imkonini beradigan jazolarni qamrab oladi. Asosiy choralarni jazoning boshqa turlariga qo‘shimcha sifatida qo‘llab bo‘lmaydi.

18 yoshgacha jinoyat sodir etgan shaxslarga qo‘shimcha jazolar qo‘llanilishi mumkin emas (JK 81-m. 2-q.).

Tizimga asosiy jazolarning quyidagi turlari kiradi: 1) jarima; 2) axloq tuzatish ishlari; 3) qamoq; 4) ozodlikdan mahrum qilish.

Voyaga yetmagan mahkumga qo‘llaniladigan mahrumliklar hamda muayyan huquq va erkinliklarini cheklashlarning xususiyatiga ko‘ra, tizimga kiruvchi jazolarning turlari ikki guruhga bo‘linadi: 1) jazolash elementiga asosan moddiy mahrumliklarga xos bo‘lgan jazo turlari: jarima, axloq tuzatish ishlari; 2) jazolash elementiga asosan mahkumning erkinligini cheklashga xos bo‘lgan jazo turlari: qamoq, ozodlikdan mahrum qilish.

Jinoyat kodeksining 81-moddasida nazarda tutilgan jazo turlari, garchi kattalarga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar tizimidagi shu kabi jazolarga nomi va mohiyati bo‘yicha o‘xshab ketsa ham, ammo mazmuni, binobarin, huquqiy oqibatlari bo‘yicha farq qiladi.

Jinoyat kodeksining 82-moddasida nazarda tutilgan va voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan jarima jazo chorasi qonunda belgilangan miqdordagi eng kam ish haqiga mos keladigan qiymatdagi pulni davlat hisobiga olib qo‘yishdan iboratdir.

Jarima uning qo‘llanilishi Jinoyat kodeksi Umumiy qismining muayyan moddasidagi sanksiyada nazarda tutilgan jinoyatlar uchungina tayinlanadi.

Jarima miqdori voyaga yetmaganlar uchun eng kam ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha qilib belgilangan. Demak, voyaga yetmaganlarga faqat shu doiradagina jarima tayinlanishi mumkin. Ayni paytda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarining sanksiyalarida ushbu doira o‘zining bevosita ifodasini topmadi. Bu shu bilan bog‘liqki, sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlayotganida jazo tayinlashning umumiy asoslariga (JK 54-m.) va Jinoyat kodeksining 86-moddasida belgilangan qoidalarga tayanib, Umumiy qism qoidalariga muvofiq ravishda aniq jinoyat uchun jazo tayinlashi shart. Shu bois sud voyaga yetmaganlarga jarima tarzidagi jazo tayinlashda Umumiy qismning sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarida belgilangan jarima miqdorining doirasiga emas, balki Jinoyat kodeksining 82-moddasida nazarda tutilgan jarima miqdorlariga asoslanishi kerak. Shundan kelib chiqib, jarima tayinlashda quyidagi qoidaga rioya etish kerak: Maxsus qism moddasining sanksiyasida jarima tayinlash mumkinligi nazarda tutilgan bo‘lsa, u holda unda belgilangan jarima miqdori qancha bo‘lishidan qat’i nazar, voyaga yetmaganlarga Jinoyat kodeksi 82-moddasining 1-qismida belgilangan jarimalar tayinlanishi lozim.

Voyaga yetmaganlarga jarimani qo‘llash mehnat qonunchiligida ularni ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yilishidan, voyaga yetmaganlarga mehnat qilish va mustaqil daromad topish huquqi berilganligidan kelib chiqadi. Buning ustiga, bozor munosabatlariga o‘tish ko‘plab o‘smirlar o‘qishdan bo‘sh vaqtida mustaqil pul topish imkoniga ega bo‘lishiga olib keldi. Bu ham ko‘plab voyaga yetmaganlarga jazoning ushbu turini qo‘llash imkonini beradi. Boz ustiga, statistika ma’lumotlariga qaraganda, ishlayotgan o‘smirlar sodir etgan jinoyatlar voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlar umumiy miqdorining 1/4 qismini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, voyaga yetmagan shaxsning mustaqil daromad olishi qonunga binoan, jarima tayinlash uchun majburiy shart emas, shu bois voyaga yetmagan mahkumning mustaqil daromadi yo‘qligi sudning jarima tayinlashiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.

Mahkum olti oy davomida jarima to‘lashdan bo‘yin tovlagan taqdirda sud ijrochisining taqdimnomasi yoxud o‘z tashabbusi bilan to‘lanmagan jarima summasini axloq tuzatish ishlari ko‘rinishidagi jazoga almashtiradi.

Jarimani axloq tuzatish ishlariga almashtirish eng kam ish haqining ikki baravariga to‘g‘ri keladigan jarima summasi uchun 1 oy hisobidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, jarimani axloq tuzatish ishlariga almashtirishda bunday ishlarning eng ko‘p muddati o‘n oydan ortmasligi kerak.

Axloq tuzatish ishlari jazo turlaridan biri sifatida Jinoyat kodeksining 83-moddasiga muvofiq, shaxsni ish haqining 10 % dan 30 % gacha davlat foydasiga ushlab qolib, mehnatga majburan jalb qilishdan iborat. Mazkur jazo, sud hukmiga binoan, mahkumning ish joyida yoki voyaga yetmagan shaxs yashaydigan joyda ushbu jazoning ijro etilishi uchun mas’ul bo‘lgan organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladi.

Axloq tuzatish ishlari mehnatga qobiliyatli voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladi, mehnatga qobiliyatli bo‘lmagan voyaga yetmaganlarga esa qo‘llanilmaydi. Axloq tuzatish ishlari voyaga yetmagan homilador va bolaga qarash ta’tilida bo‘lgan ayollarga nisbatan ham qo‘llanilmaydi.

Qonunda axloq tuzatish ishlarining ikki turi nazarda tutilgan: 1) mahkumning ish joyidagi axloq tuzatish ishlari; 2) voyaga yetmagan shaxs yashaydigan joyda ushbu jazoning ijro etilishi uchun mas’ul bo‘lgan organlar belgilab beradigan joylardagi axloq tuzatish ishlari. Axloq tuzatish ishlarining ikkinchi turi faqat ishlamaydigan voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladi. Ushbu jazoni o‘tash jarayonida axloq tuzatish ishlarining bir turini boshqa turiga almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsning ish haqidan bir qismi davlat foydasiga ushlab qolinadi. Ushlab qolish miqdorini sud ish haqining 10–30 % miqdorida belgilaydi. Ushlab qolish, boshqa turdagi ushlab qolishlar bo‘lgan-bo‘lmaganligidan, ularning miqdoridan qat’i nazar, butun ish haqidan amalga oshiriladi.

Axloq tuzatish ishlari bir oydan bir yilgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Axloq tuzatish ishlari faqat Maxsus qismdagi shaxsning javobgarlikka tortilishiga asos bo‘lgan moddaning sanksiyasida axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazo nazarda tutilgan hollardagina tayinlanishi mumkin. Shu bilan birga, sud voyaga yetmaganlar uchun axloq tuzatish ishlarining muayyan muddatini belgilashda Maxsus qism moddasining sanksiyasida nazarda tutilgan muddatlardan emas, balki Umumiy qismdagi qoidalardan, ya’ni Jinoyat kodeksi 83-moddasining 1-qismida ko‘rsatilgan muddatlardan kelib chiqishi kerak.

Jinoyat kodeksi 83-moddasining 2-qismida voyaga yetmagan shaxs axloq tuzatish ishini o‘tashdan bo‘yin tovlagan taqdirda bu ishlarni qamoq ko‘rinishidagi jazoga almashtirish lozimligi nazarda tutilgan.

Voyaga yetmagan shaxs axloq tuzatish ishlaridan bo‘yin tovlayotganligini qayd etish uchun asos bo‘lib uning tayinlangan muddatning o‘ndan bir qismidan ortiq vaqt mobaynida ushbu jazoni uzrli sababsiz amalda o‘tamayotganligi xizmat qiladi. Bo‘yin tovlash ishga o‘z vaqtida kirmaganlikda, ishga chiqmay qolganlikda (progullarda), o‘z mehnat vazifalarini, ishlab chiqarish normalarini amalda bajarmaganlikda va boshqalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Axloq tuzatish ishlaridan bo‘yin tovlashning umumiy muddati sutkalarda (kunlarda) hisoblanadi. Masalan, agar voyaga yetmagan shaxsga bir yil muddatga axloq tuzatish ishlari tayinlangan bo‘lsa, bu ishlarni qamoqqa almashtirish uchun asos bo‘ladigan bo‘yin tovlashning umumiy muddati 37 ish kunidan ortiq bo‘lishi kerak.

Axloq tuzatish ishlarini qamoqqa almashtirish qamoqning bir kuniga axloq tuzatish ishlarining uch kuni hisobidan amalga oshiriladi, bunda qamoqning eng ko‘p muddati uch oydan ortmasligi kerak.

Qamoq jazo chorasi sifatida Jinoyat kodeksining 84-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsni jamiyatdan qattiq ajratgan sharoitda saqlashdan iborat. Qamoq voyaga yetmagan shaxslarga bir oydan uch oygacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Qamoq Maxsus qismning sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasining sanksiyasida ushbu jazo keltirilgan hollardagina tayinlanishi mumkin. Sud voyaga yetmagan shaxsga jazoning aniq muddatini belgilashda Jinoyat kodeksining 84-moddasida nazarda tutilgan muddatlarni tanlashi kerak. Qamoq voyaga yetmagan mahkumga, uni jamiyatdan qisqa vaqt ajratgan holda, zarur axloq tuzatish va tarbiyalash ta’sirini ko‘rsatishni ta’minlovchi rejimli maxsus muassasada o‘taladi.

Jinoyat kodeksi 85-moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasi voyaga yetmagan shaxsni tarbiya koloniyasiga joylashtirish hamda saqlash rejimiga qarab muayyan huquq va erkinliklarini cheklash orqali voyaga yetmagan mahkumni jamiyatdan ajratishdan iborat.

Mahkumni jamiyatdan ajratish uning quyidagilardan mahrum etilishiga olib keladi: a) koloniya hududidan tashqarida erkin harakatlanishi; b) yashash joyini tanlashi; d) mashg‘ulot xususiyati va turini tanlashi; e) erkinlikdagi shaxslar bilan muloqotni cheklash ko‘rinishida; f) o‘z turmush tarzini belgilashini cheklash tarzida.

Voyaga yetmagan shaxslar uchun ozodlikdan mahrum qilish olti oydan o‘n yilgacha bo‘lgan doirada belgilanadi. Istisnolar qonunda jinoyatlarni takroran sodir etgan shaxslar uchun yoki xavfli retsidiv mavjud bo‘lganida, ya’ni Jinoyat kodeksi 86-moddasining 2, 3, 4-qismlarida nazarda tutilgan hollarda belgilangan.

Jinoyat kodeksi 85-moddasining 2-qismida 13 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun sodir etgan jinoyatining og‘irligiga qarab ozodlikdan mahrum qilishning eng ko‘p muddatlari nazarda tutilgan.

Sodir etilgan jinoyatning og‘irligini belgilashda Jinoyat kodeksining 15-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga asoslanish kerak.

Ozodlikdan mahrum qilish: og‘ir jinoyat uchun – 6 yilgacha; o‘ta og‘ir jinoyat uchun – 10 yilgacha tayinlanishi belgilangan.

Jinoyat kodeksi 85-moddasining 3-qismida 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga ular sodir etgan jinoyatning og‘irlik darajasiga qarab, ozodlikdan mahrum qilishning eng ko‘p muddatlari nazarda tutilgan.

Ozodlikdan mahrum qilish: og‘ir jinoyat uchun – 7 yilgacha; o‘ta og‘ir jinoyat uchun – 10 yilgacha tayinlanishi belgilangan.

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi (JK 85-moddasining 4-q.).

Voyaga yetmaganlar ozodlikdan mahrum qilish jazosini kattalardan alohida joyda – tarbiya koloniyalarida o‘taydilar.

Jinoyat kodeksining 54-moddasida nazarda tutilgan umumiy qoidalar Jinoyat kodeksi 86-moddasining 1-qismida rivojlantiriladi. Unga ko‘ra, sud jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy qoidalariga asoslanishi bilan birga voyaga yetmaganning shaxsiga taalluqli bir qator xususiyatlarni ham inobatga oladi. Shunday qilib, jazo tayinlashning umumiy asoslarini tashkil etuvchi barcha qoidalar voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda ham inobatga olinishi lozim.

Sud voyaga yetmaganning shaxsiga taalluqli xususiyatlarni albatta inobatga olishi buyuriladi. Bunday xususiyatlarga quyidagilar kiradi: voyaga yetmaganning rivojlanish darajasi; turmush va tarbiyalanish sharoitlari; sog‘lig‘ining holati; jinoyat sodir etishining sabablari; kattalarning ta’siri va h.k.

Voyaga yetmaganning shaxsiga xos xususiyatlar ko‘p jihatdan uning yoshiga xos psixofiziologik rivojlanishi bilan bog‘liq. Shu bois qonun sudlarga shaxsning rivojlanish darajasini inobatga olishni buyuradi. Chunki shaxsni sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘liq anglashidan mahrum etuvchi yosh rivojlanishidagi orqada qolish jiddiy ekanligi aniqlansa, sud, Jinoyat kodeksi 87-moddasining 3-qismi asosida, jazo o‘rniga voyaga yetmaganga qo‘llasa bo‘ladigan majburlov choralarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligi haqidagi masalani muhokama qilishi shart.

Inobatga olinishi lozim bo‘lgan holatlar orasida o‘smirning turmush va tarbiyalanish sharoiti keltirilgan. Sud ushbu holatni aniqlashda o‘smirning ota-onasi bor-yo‘qligini, ularning yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarning o‘smirni tarbiyalash bilan bog‘liq vazifalarini bajarayotgan-bajarmayotganligini, uning turmushida uni o‘rab turgan sharoitni, oiladagi, ishlab chiqarishdagi, o‘quv muassasasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni va boshqalarni aniqlashi kerak.

O‘smirning sodir etgan jinoyatiga subyektiv munosabatini aniqlashga alohida e’tibor qaratish kerak. Sud muayyan jinoyatning butun psixologik mazmunini, jumladan, aybning aniq shakllari va ularning turlarini, motivlar, maqsadlar, emotsional holat kabilarni aniqlashda voyaga yetmagan shaxsning aybdorlik darajasini aniqlashi lozim.

Qonunda albatta hisobga olinishi lozim bo‘lgan boshqa holatlar orasida «kattalarning ta’siri» sanab o‘tiladi. Kattalarning ta’siri deganda,

ularning o‘smirning g‘ayriijtimoiy, jumladan, jinoiy xulqqa qo‘shilishiga passiv, bilvosita yoki bevosita imkon beradigan xulqi tushuniladi.

Jazo tayinlashda o‘smirning shaxsiga ta’sir etuvchi boshqa holatlar ham inobatga olinishi lozim. Ular ham ijobiy, ham salbiy holatlar sifatida baholanishi mumkin. Ularga o‘smirning jinoyat sodir etishidan avvalgi va keyingi xulqi, o‘qishdagi ko‘rsatkichlari, jamoat ishiga munosabati va boshqa ko‘plab omillar kiritilishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 86-moddasining 2 va 3-qismlarida maxsus qismning turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan va hech biri uchun hukm etilmagan voyaga yetmagan shaxsga jazo tayinlash xususiyatlari ifodalangan. Sud voyaga yetmagan shaxsga jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo tayinlashda Jinoyat kodeksining 59-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga asoslanishi kerak. Ammo jinoyatlar majmui uchun jazoning oxirgi chorasini belgilashda u Jinoyat kodeksi 86-moddasida nazarda tutilgan muddatlar doirasida belgilashi lozim.

Jinoyat kodeksi 86-moddasining 4-qismida, agar voyaga yetmagan mahkum hukm chiqqanidan so‘ng, ammo jazoni to‘liq o‘tab bo‘lmasidan avval yangi jinoyat sodir etsa va unga oxirgi jazo ozodlikdan mahrum qilish tarzida tayinlansa, ushbu jazo 15 yildan ortiq muddatga tayinlanishi mumkin emasligi belgilangan.

Qonunda shartli hukmni qo‘llash bo‘yicha voyaga yetmaganlar uchun qandaydir xususiyatlar belgilanmagan. Shu bois Jinoyat kodeksi 86-moddasining 5-qismida sudlarga Jinoyat kodeksi 72-moddasida nazarda tutilgan asoslar va shartlarga tayanish tavsiya etilgan.

### 3. Voyaga yetmaganlarni majburlov choralarini qo‘llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 87-moddasiga binoan, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e’tiborga olib, uni jazo qo‘llamasdan turib ham axloqan tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyada ko‘rishga topshirilishi mumkin.

Jinoyatning quyidagi holatlarda sodir etilganligi Jinoyat kodeksi 87-moddasining 1-qismini qo‘llash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: 1) o‘n sakkiz yoshga yetmagan shaxs tomonidan yoki; 2) birinchi marotaba sodir etilganligi; 3) uncha katta ijtimoiy xavf tug‘dirmasligi.

Mazkur asoslar majmui sudning voyaga yetmagan shaxsni ish materiallarini voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyada ko‘rishga topshirib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasini muhokama qilishiga imkon beradi. Shu bilan birga, oxirgi qarorni qabul qilish uchun bitta shart bo‘lishi zarur: sud voyaga yetmagan shaxsni jazo

tayinlamay turib, axloqan tuzatish mumkinligiga ishonishi kerak. Bunday ishonch sodir etilgan qilmishning xususiyatini, aybdorning shaxsini va ishning boshqa holatlarini inobatga olish asosida yuzaga kelishi kerak.

Asoslar va shartlar majmuining mavjudligi o‘smirni ish materiallarini voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyada ko‘rishga topshirib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish haqida qaror qabul qilishiga imkon beradi.

Jinoyat kodeksi 87-moddasining 2-qismida voyaga yetmagan shaxsga majburlov choralarini qo‘llab, uni jazodan ozod qilishning mustaqil turi nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksi 87-moddasining 2-qismini qo‘llash uchun quyidagilar asos bo‘ladi: 1) 18 yoshga to‘lmagan shaxsning jinoyat sodir etishi; 2) uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etishi yoki ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni takroran sodir etishi.

Sudga voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish haqidagi masalani muhokama qilish imkonini beruvchi uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etilganligini aniqlashda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aniq moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan muddatlarga asoslanish zarur.

«Takroriylik» tushunchasini tushunib olish uchun Jinoyat kodeksining 32-moddasida mavjud qoidalardan kelib chiqish zarur.

Mazkur asoslar bilan birga sudga voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish va majburlov choralarini qo‘llash imkonini beradigan shart-sharoitlar majmui ham zarur. Sudning voyaga yetmagan shaxsning jazo tayinlamasdan ham axloqan tuzalishiga ishonchi ana shunday shart-sharoitlarga kiradi. Mazkur ishonch sodir etilgan qilmishga doir masalani muqarrar muhokama qilishda sodir etilgan qilmishning, aybdor shaxsining xususiyatini va ishning boshqa holatlarini inobatga olish asosida paydo bo‘ladi.

Jinoyat kodeksi 87-moddasining 3-qismida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi uchun ilgari noma’lum bo‘lgan mutlaqo yangi qoida belgilangan. Bu aqli rasolikning yosh chegarasi yoki boshqacha aytganda, yosh infantilizmi haqidagi qoidadir. Infantilizm kattaroq yoshdagi bolalar yoshiga xos bo‘lgan jismoniy tuzilish yoki xarakter xususiyatining saqlanib qolishi xos bo‘lgan rivojlanishda orqada qolishdir.

Yosh bilan bog‘liq cheklangan aqli rasolik nafaqat ruhiy anomaliyalar bilan, balki tibbiy-biologik, ijtimoiy yoxud ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega bo‘lgan boshqa omillar bilan ham bog‘liq. Unga kalendar, biologik va ijtimoiy-huquqiy yoshdagi o‘zaro mos kelmaslikda namoyon bo‘ladigan to‘liq rivojlanmaganlik xosdir.

Insonning kalendar yoshi tug‘ilgan kunidan boshlab, inson hayotidagi muayyan paytgacha o‘tgan vaqtga teng. Kalendar yoshi yillar, oylar, kunlar, zarur hollarda esa soatlarda ham o‘lchanadi. Biologik yosh individ organizmining ko‘rsatkichlari majmuini ushbu davr, xalq, mavjudlikning jug‘rofiy va iqtisodiy sharoitlaridagi xuddi shu yoshdagi boshqa odamlarning tegishli ko‘rsatkichlari bilan qiyoslaganda aniqlanadi. Yosh

bilan bog‘liq o‘zgarishlardagi biologik sur’atlardagi individual farqlar ayrim odamlar o‘zining biologik yoshidan kattaroq, boshqalari esa yoshroq ekanligini ko‘rsatuvchi belgi bo‘lishi mumkin. Individning ijtimoiy-huquqiy yoshi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik ko‘rsatkichlari, jamiyatga moslashish darajasi, shaxsning fuqaro sifatida ega bo‘lgan huquq va burch-larining hajmi va mazmuni, jamiyat oldidagi burchining mazmuni va xususiyati bilan bog‘liq.[1]

Yosh bilan bog‘liq cheklangan aqli rasolik ikki mezon bilan, ya’ni ijtimoiy va yuridik mezonlar bilan aniqlanadi.

Ijtimoiy aqli rasolik deganda, individning, uning shaxsining jamiyatga moslashishi, atrofidagi ijtimoiy muhit normalari va qadriyatlarini o‘zlashtirish, uning ijtimoiy muhitga kirish jarayoni buzilishining natijasi bo‘lmish yoshdagi rivojlanishda jiddiy orqada qolayotganligini tushunish kerak. Aynan shaxsning jamiyatga moslashish darajasi ijtimoiy mezonni tashkil qiladi.

O‘smirning yosh rivojlanishidagi orqada qolishi yoki cheklangan aqli rasoligi tibbiy-biologik, psixologik yoki ijtimoiy omillarning har biri bilan ham, birgalikda olingani bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi mezon yuridik xususiyatga ega. U voyaga yetmagan shaxs yoshi bilan bog‘liq rivojlanishda ancha orqada qolganligi natijasida o‘zi sodir etgan qilmishlarning ahamiyatini to‘liq anglashga qodir bo‘lmaydi. Yosh bilan cheklangan aqli rasolikning yuridik mezonini aynan ana shu o‘zi sodir etgan qilmishlarning ahamiyatini to‘liq anglashga qodir bo‘lmaslik tashkil qiladi.

Yuridik va ijtimoiy mezonlarning birlashishi yosh bilan bog‘liq cheklangan aqli rasolik faktini qayd etish uchun asos bo‘ladi hamda sudni insonparvarlik prinsipiga muvofiq, jazo o‘rniga shaxsga majburlov, jumladan, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligi haqidagi masalani muhokama qilishga majbur qiladi.

Jinoyat kodeksining 88-moddasiga muvofiq, voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan majburlov choralari quyidagilardan iboratdir: a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburiyatini yuklash; b) o‘n olti yoshga to‘lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o‘z mablag‘i hisobidan yoki mehnati bilan to‘lash yoxud bartaraf qilish majburiyatini yuklash. Ushbu chora yetkazilgan zarar belgilangan eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan oshib ketmagan taqdirda qo‘llaniladi. Boshqa hollarda yetkazilgan zarar fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida undiriladi; v) voyaga yetmaganni maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan majburlov choralari o‘z mazmuniga ko‘ra tarbiyaviy choralardir. Chunki sud o‘smirni hukm qilar ekan, bu bilan uning faoliyatini salbiy baholaydi. Biroq sud jazo

---

[1] Qarang: Уголовный закон: опыт теоретического моделирования. М., – 1978. – С. 67–68.

chorasini qo‘llashning maqsadga muvofiq emasligiga ishonch hosil qilib, uning axloqini tuzatish maqsadlariga ushbu choralarni qo‘llamasdan ham erishsa bo‘ladi, deb hisoblashi mumkin. Bu bilan axloq tuzatish va boshqa maqsadlarga erishish jarayoniga ishontirish elementi qo‘shiladi. Chunki sud qilmishni qoralar ekan, voyaga yetmagan shaxsning ongiga va tushunchasiga uning avvalgi xulqi xato ekanligini, bundan keyin bunday xatti-harakatga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini yetkazishga intiladi. Shu bilan birga, bu hol majburlov choralarini qo‘llashni ham istisno etmaydi. Bu esa jazo o‘rnida qo‘llaniladigan choralarda namoyon bo‘ladi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan choralarning majburlov xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) ularni faqat hokimiyatning tarmoqlaridan biri bo‘lmish sud hokimiyati tizimiga kiruvchi sud qo‘llaydi; b) ular, voyaga yetmagan shaxs yoki boshqa shaxslarning istagi va roziligidan qat’i nazar, ijro etiladi; d) ularning ijrosi davlat hokimiyatining kuchi bilan ta’minlanadi.

Sud voyaga yetmagan shaxsga sud majlisida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi yig‘inida, o‘quvchilar yoki mehnat jamoasida oshkora kechirim so‘rash shaklida jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburlov chorasini qo‘llashi mumkin. Sudning ajrimi bilan kechirim so‘rash yozma shaklda taklif etilishi mumkin. Odatda bunday majburlov chorasi shaxsning daxlsizligiga yoki qadr-qimmatiga tajovuz qilingan yoxud jamiyatda o‘zini tutishning belgilangan qoidalari buzilgan hamda moddiy zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jinoyatlar sodir etilgan hollarda qo‘llanilishi kerak.

Yetkazilgan zararni bartaraf qilish majburiyati voyaga yetmagan shaxsga jazo o‘rnida qo‘llaniladigan majburlov chorasi sifatida quyidagi shakllarda yuklatilishi mumkin: 1) yetkazilgan zararni o‘z mablag‘lari evazidan qoplash; 2) yetkazilgan zararni o‘z mehnati bilan bartaraf qilish.

Ushbu chorani qo‘llash uchun cheklov – yetkazilgan zararning miqdori. Agar zarar eng kam ish haqining 10 baravaridan ortiq miqdorda yetkazilgan bo‘lsa, majburlov chorasi qo‘llanilishi mumkin emas va qilmish tufayli yetkazilgan zarar fuqarolik huquqi tartibda qoplanishi kerak. Yetkazilgan zarar chegarasidan ortganlik faktining o‘zi boshqa majburlov chorasini qo‘llash imkoniyatini rad etish uchun asos bo‘lmaydi.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan eng qattiq majburlov chorasi uni maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirishdir. Bu jinoyat sodir etgan, ammo jazodan ozod qilingan voyaga yetmagan shaxsni oiladan ajratib, uning tegishlicha nazorat qilinishini ta’minlaydigan maxsus muassasaga yuborish bilan bog‘liq.

Voyaga yetmagan shaxslar maxsus tarbiya muassasalarida axloqan tuzalgunlariga qadar saqlanadilar. Mazkur muassasalarda saqlanishning aniq muddatlari va shartlari O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## 4. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish

Voyaga yetmaganlar uchun Jinoyat kodeksining 89-moddasida nazarda tutilgan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kattalarga nisbatan qo‘llaniladigan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-m.) bilan ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Ayni paytda qonunda insonparvarlik prinsipiga muvofiq, 18 yoshga to‘lmagan holda jinoyat sodir etgan shaxslarni muddatidan ilgari ozod qilish uchun imtiyozli shartlar belgilangan.

Jinoyat kodeksining 89-moddasiga muvofiq, jazoni o‘tashdan shartli ravishda muddatdan ilgari ozod qilishni qo‘llash uchun quyidagilar asos bo‘ladi: 1) jinoyatni voyaga yetmagan yoshda sodir etish; 2) jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilish; 3) haqiqatda o‘tash: a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazoning kamida to‘rtdan bir qismiga; b) og‘ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismiga; d) o‘ta og‘ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinib, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmiga tayinlanadi.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish sud shaxsning axloqan tuzalishiga va majburlov choralari bilan axloq tuzatish ta’siri ko‘rsatish zarur emasligiga ishonch hosil qilgan taqdirda qo‘llanilishi mumkin. Shaxsda bunday tuzalish yuz berayotganidan uning ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarini o‘tashning belgilangan rejimi talablarini bajarayotganligi va mehnat yoki o‘qishga vijdonan munosabatda bo‘layotganligi dalolat berishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni sud ushbu turdagi jazoni qo‘llashning asoslari va shartlari birgalikda mavjud bo‘lgandagina amalga oshirishi mumkin.

Qonunda shaxsning o‘talmagan muddat davomida qasddan yangi jinoyat sodir etishi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni to‘xtatish sharti sifatida keltiriladi.

Agar shaxs jazoning o‘talmagan qismi davomida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, bu hol jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni to‘xtatadi va sud Jinoyat kodeksining 60 va 86-moddalari asosida hukmlar majmui qoidalari bo‘yicha jazo tayinlaydi. Bunda jazoning o‘talmagan qismi qasddan sodir etilgan yangi jinoyat uchun tayinlangan jazoga to‘liq yoki qisman qo‘shiladi.

Jinoyat kodeksining 90-moddasida nazarda tutilgan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirib, jazodan ozod qilish o‘zining yuridik tabiati, mohiyati va mazmuniga ko‘ra asosan muddatidan ilgari ozod qilishning kattalarga nisbatan qo‘llaniladigan o‘xshash turiga mos keladi va insonparvarlik

prinsipiga javob beradi. Ayni paytda jazoni yengilrog‘iga almashtirish mumkin bo‘lgan shaxslarning xususiyatlari bilan bog‘liq bir qator jihatlar ham mavjud.

Jazoni yengilrog‘iga almashtirish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

Bu chora:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshdan bir qismi;

b) og‘ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to‘rtdan bir qismi;

d) o‘ta og‘ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan bo‘lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llaniladi.

Sud jazoning o‘talmagan qismini boshqa yengilrog‘iga almashtirishda mahkum tayinlangan jazo o‘tashning belgilangan rejimini bajarganligiga, mehnat yoki o‘qishga vijdonan munosabatda bo‘lganligiga, axloqan tuzalish yo‘liga kirganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Sudning mahkum axloqan tuzalish yo‘liga kirganligiga ishonchi Jinoyat kodeksining 90-moddasi qo‘llanilishi uchun asos bo‘lishi bilan bir qatorda, buning majburiy sharti hamdir.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish deganda, belgilangan jazoni muddatini qisqartirmasdan, boshqa yengilroq turdagi jazoga almashtirish tushuniladi. Bu holatda o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga taalluqli bo‘lgan jazo tizimini asos qilib olish lozim (JK 81-m.).

JK 90-moddasi 4-qismiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almash-tirilganida axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish, belgilangan jazo muddatini kamrog‘ini o‘taganligini asos bo‘lganligini inobatga olib, jazoni yengil-rog‘i bilan almashtirilgan shaxslarga jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo‘llash Jinoyat kodeksi 90-moddasining 5-qismiga muvofiq, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxslarga nisbatan yen-gilroq jazoni tegishli qismi o‘tab bo‘linganidan keyin Jinoyat kodeksining 89-moddasida nazarda tutilgan qoidalariga muvofiq, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi mumkin.

Agar shaxsga jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilganidan so‘ng, u yana qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud Jinoyat kodeksining 60-moddasida ko‘rsatilgan umumiy qoidalarga muvofiq, Jinoyat kodeksi 86-moddasining xususiyatlarini inobatga olgan holda bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlaydi.

## Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonun hujjatlarida qaysi yoshdan boshlab va qaysi jinoyatlar uchun voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik qo‘llaniladi?
2. Voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan jazolar tizimini ochib bering.
3. Voyaga yetmagan shaxslarni sodir etilgan jinoyat uchun jazodan ozod qilish asoslarini aytib bering.
4. Qanday asoslar bo‘yicha voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadilar?
5. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish asoslarini sanab bering va ochib bering.
6. Qanday muddat davomida jazo yengilrog‘iga almashtiriladi?
7. Voyaga yetmaganlarga nisbatan surgun yoki badarg‘ani qo‘llash mumkinmi, agar mumkin bo‘lsa, qanday hollarda?
8. Voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan majburlov choralarini sanab bering.
9. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llaniladimi?

## XX bob
## TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI

### 1. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari va ularning yuridik tabiati

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari jazo hisoblanmaydi, chunki majburiy davolash sudning hukmi emas, balki ajrimi bilan tayinlanadi va tugatiladi. Shu bilan birga, sud davolash muddatini belgilamaydi. Bemor sog‘aygan yoki uning ruhiy holatida aniq tuzalish alomatlari paydo bo‘lgan yoxud u jamiyat uchun xavfli bo‘lmay qolgan taqdirda, tibbiyot muassasasining taqdimnomasiga ko‘ra, sud hatto qisqa muddat o‘tganidan so‘ng ham davolashni bekor qilishi mumkin.

Majburiy davolash muddati bemorning ruhiy holatiga bog‘liq. Lekin tibbiyot muassasasining ma’muriyati majburiy davolashda bo‘lgan bemorni davolashni to‘xtatish yoki davom ettirish to‘g‘risidagi masalani hal etish uchun olti oyda kamida bir marotaba qayta guvohlantirishi shart.

Jinoyat ishlarining yuritilishi dastlabki tergovning umumiy asoslariga ko‘ra amalga oshiriladi. Ammo sud-psixiatriya ekspertizasining tergovga jalb etilgan shaxsning aqli norasoligi va unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashning zarurligiga oid xulosasi mavjud bo‘lgan hollarda mazkur shaxsga nisbatan ayb e’lon qilinmaydi. Ular sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga doir jinoyat ishini tergov qilish suddan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashni iltimos qilish to‘g‘risida qaror chiqarish bilan yakunlanadi.

Sudning tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashga oid ajrimi ish prokuror, himoyachi zarur bo‘lgan hollarda esa shifokor-psixiatr ishtirokida sud majlisida ko‘rilganidan so‘ng chiqariladi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining «Psixiatriya yordami to‘g‘risida»gi 2000-yil 31-avgust qonunining 7-moddasiga binoan, «ruhiy holati buzilgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan fuqarolarning barcha huquq va erkinliklariga, shu jumladan, o‘zlariga nisbatan inson qadr-qimmatining kamsitilishini istisno etadigan muruvvatli va insoniy muomala qilinishi, o‘z huquqlari haqida, shuningdek, ruhiy holatining xususiyati, hamda qo‘llanilayotgan davolash usullari haqida o‘zlari uchun tushunarli shaklda va o‘z ruhiy holatlari hisobga olingan holda ma’lumot olish, tibbiy zaruratga ko‘ra davolashning barcha turlaridan foydalanish (shu jumladan, sanatoriy kurortda davolanish) va hokazo huquqlarga ega». Qonunning 10-moddasiga ko‘ra esa, «fuqaro o‘z huquqlari va erkinliklaridan foydalanayotganida uning ruhiy sog‘ligi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishni yoki uning shifokor-psixiatr tekshiruvidan o‘tishini talab qilish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno». Shu bilan birga, sud ijtimoiy xavfli qilmishni aynan shu shaxs sodir etganligini, ishga taalluqli

barcha holatlarni, shu jumladan bemorning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashi shart. Amaldagi JPKda belgilangan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi ruhiy kasalning huquq va erkinliklari qonun bilan kafolatlanishini ta’minlaydi (JPKning 61-bobi).

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs va uning yaqin qarindoshlariga qulay bo‘lishi uchun, majburiy davolash bemorlarning yashash joyiga yaqin bo‘lgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida amalga oshiriladi. Ushbu holat bemorning qarindoshlari bilan doimiy aloqada bo‘lishiga imkon beradi. Barcha ruhiy kasallar, shu jumladan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilayotgan shaxslar ham, ruhiy holatlariga muvofiq ravishda faol davolanish bosqichini o‘taydilar. Ushbu shaxslar ruhiy kasalliklar shifoxonasida o‘z kasalligining holatiga to‘g‘ri keladigan tegishli bo‘linmalarga joylashtiriladilar.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari bilan jinoiy jazo choralari o‘rtasida muayyan o‘xshashlik bor, ya’ni jazo ham, ushbu choralar ham davlat majburlov choralarining turlaridan bo‘lib, ularni sud tayinlaydi. Ayni paytda, bu choralar jinoiy jazo choralaridan tubdan farq qiladi. Majburlov choralari jazoning muayyan huquqlarni cheklash yoki ulardan mahrum qilish kabi jihatlarini qo‘llash xususiyatlariga ega emas. Ularda shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishlariga davlatning salbiy bahosi namoyon bo‘lmaydi. Bu choralar jazolashdan ko‘zlangan maqsadlarga (JK 42-m. 2-q.) emas, balki shaxsni davolash yoki uning ruhiy holatini yaxshilashga, shuningdek, yangi ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etishining oldini olishga yo‘naltirilgan. Sud, jazolashdan farqli o‘laroq, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashda, ularning davom etish muddatini belgilamaydi, chunki bu muddat shaxsning tuzalishi yoki sog‘lig‘ining yaxshilanishi uchun zarur bo‘lgan vaqtga bog‘liq.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari sud ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli norasolarga, shuningdek, jinoyat sodir etgan aqli raso alkogollar, giyohvandlar yoki zaharvandlarga qo‘llaydigan qonunda belgilangan choralardir.

Jinoyat kodeksining 91-moddasiga binoan, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxslarga nisbatan ularni davolash va yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishlarining oldini olish maqsadlarida qo‘llaniladi. Ushbu maqsadlarning belgilanishi shaxsning ruhiy holati ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishiga olib kelgan omil ekanligi bilan bog‘liq. Bu esa uning jamiyat uchun xavfli ekanligi, unga nisbatan tibbiy davolash chorasini qo‘llash hamda davolash vaqtida ham, undan keyin ham yangi ijtimoiy xavfli ko‘rinishlarining oldini olish uchun boshqalardan ajratish zarurligidan dalolat beradi. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka duchor bo‘lganlarga nisbatan ham qo‘llanilishi

mumkin. Aybdorda ekspert xulosasi bilan tasdiqlangan ruhiy kasallikning mavjudligi bunday shaxslarni majburiy davolash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu xulosada shaxs alkogolizm; giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo‘liqqanmi; u davolanishga muhtojmi; shaxsning bunday davolanishiga moneliklar yo‘qmi, degan savollarga javob bo‘lishi lozim. Jinoyat sodir etgan bunday shaxslarni davolash ayni vaqtda ularga nisbatan tayinlangan jazo maqsadiga erishish uchun zarur sharoitni yaratishdan iborat. Davolash mahkumlarda spirtli ichimliklar, narkotik moddalar va ularning xomashyolari, psixotrop hamda aql-idrok faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalardan kelib chiqqan ruhiy va jismoniy tobelikni bartaraf etishi kerak.

Davolash jarayonida terapiyaning sinalgan usullarini qo‘llash ruhiy kasallarni, alkogollarni, giyohvandlarni yoki zaharvandlarni yoxud aqli noraso deb topilgan shaxslarni davolash uchun zarur bo‘lib, ularning ruhiy holatlarini o‘zgartirishga xizmat qiladi. Bu esa shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo‘qolganligini tasdiqlash imkonini beradi.

Jinoyat kodeksining 92-moddasida tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashning umumiy asoslari ko‘rsatilgan. Unda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini uch toifadagi shaxslarga qo‘llashning umumiy asoslari belgilangan. Bular:

– jazoni aqli raso holatda sodir etgan, ammo hukm chiqarilguniga qadar ruhiy kasallikka chalinganligi oqibatida o‘z harakatining ahamiyatini anglamaslik va o‘z harakatlarini boshqara olmaslik holatida bo‘lgan shaxslar;

– jinoyat sodir etganligi uchun jazoga hukm etilgan, ammo jazoni o‘tash vaqtida ruhiy kasallikka chalinganligi oqibatida o‘z harakatining ahamiyatini anglamaslik va o‘z harakatlarini boshqara olmaslik holatida bo‘lgan shaxslar.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashning umumiy asoslari uchta mezonni o‘z ichiga oladi. Ularning yig‘indisi mazkur choralarni qo‘llash uchun zaruriy va yetarli shart hisoblanadi: a) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etgan shaxslargagina tayinlanadi. Jinoyat aqli raso subyektning jamiyat uchun xavfli va aybli qilmishni sodir etishidir. Jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs aqli noraso holatda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, ammo unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin, chunki bu bilan qilmishning ijtimoiy xavfliligi yo‘qolmaydi. Shu bois jinoyat sodir etish ham, yuridik jihatdan jinoyat deb topish mumkin bo‘lmagan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish ham tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash asosining tarkibiy qismidir; b) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari o‘z qilmishlarining ahamiyatini anglash yoki ularni boshqarish qobiliyati va imkoniyatidan mahrum etadigan ruhiy kasallikka chalingan shaxslargagina qo‘llaniladi; d) tibbiy yo‘sindagi

majburlov choralarini ruhiy holati va sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko‘ra jamiyat uchun xavfli bo‘lgan shaxslarga nisbatangina qo‘llash mumkin.

Shuni ham e’tiborga olish lozimki, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini – ijtimoiy xavfli qilmishning haqiqatan sodir etilganligi surishtiruv, dastlabki tergov organlari tomonidan va sud majlisida aniqlanganidan so‘ng – sud tayinlaydi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni majburiy davolashga tergovchi, prokuror, surishtiruvchi yuborishi mumkin emas, chunki majburiy davolash fuqarolarning shaxsiy erkinligini ma’lum darajada cheklash bilan bog‘liq.

## 2. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining turlari, ularni tayinlash, muddatini uzaytirish, o‘zgartirish va bekor qilish

Jinoyat kodeksining 93-moddasiga ko‘ra, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga quyidagilar kiradi:

a) majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo‘lish va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish;

b) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;

d) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog‘liqni tiklash maxsus bo‘limida majburiy davolanish;

e) kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo‘linmasida majburiy davolanish.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining sud tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan turi majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo‘lish va ruhiy kasalliklar mutaxassisida davolanishdir. Ushbu holatda ambulatoriya kuzatuvini aybdor yashaydigan joydagi poliklinikaning psixiatr-shifokori yoki psixonevrologi amalga oshiradi. Tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasining ushbu turi qo‘llanilgan shaxs dispanser hisobida turadi, ma’lum davr mobaynida tekshirib boriladi, dori-darmonlar bilan davolanadi va yaqinlarining kuzatuvida bo‘ladi. Tuzalish darajasiga ko‘ra shaxs dispanser hisobidan chiqarilishi mumkin.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasiga sudning ajrimiga ko‘ra ruhiy holati hamda sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishining xususiyati bo‘yicha kasalxonada va majburiy ravishda davolanishga muhtoj bo‘lgan shaxslar joylashtiriladilar. Odatda bunday ruhiy kasallar jamiyat uchun katta ijtimoiy xavf tug‘dirmaydi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog‘liqni tiklash maxsus bo‘limida majburiy davolanish bemorning ijtimoiy xavflilik darajasi va ruhiy holatini inobatga olgan holda, shuningdek, ushbu holati tufayli boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishi ehtimolining mavjudligiga qarab tayinlanadi. Sudlar sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish

va ruhiy kasalning holatidan kelib chiqqan holda, bunday shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan davolanish turi va yo‘nalishini belgilaydilar. Sog‘liqni tiklash maxsus bo‘limida saqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining idoraviy normativ hujjatlari bilan belgilanadi.

Og‘ir va jamiyat uchun xavfli jinoyatlar sodir etilgan hollarda sudlar ruhiy bemorning sud-psixiatriya ekspertizasi orqali aniqlanadigan ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olgan holda kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo‘linmasida majburiy davolanish chorasini tayinlaydilar.

Bunday tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi, barqaror yoki tez-tez qaytalanib turuvchi kasallik holatida bo‘lgan, tajovuzkor xulqli, ta’qib vasvasasiga giriftor bo‘lgan, g‘azab va jazava kabi holatlarga tushib turadigan, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmishni takroriy ravishda sodir etishi mumkin bo‘lgan ruhiy bemorlarga nisbatan qo‘llaniladi. Kuchaytirilgan ruhiy kasaliklar shifoxonasi yoki bo‘limidagi kuzatuv o‘ta kuchli nazorat orqali hamda qochib ketishi yoki yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishining batamom oldi olingan tarzda amalga oshiriladi.

Jinoyat kodeksining 94-moddasiga ko‘ra, kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasi yoki bo‘limida majburiy davolash nafaqat surunkali ruhiy bemorlarga, balki vaqtinchalik ruhiy buzilishni boshidan kechirgan shaxslarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Majburiy ambulator kuzatuvi kasallik retsidivi (qaytalanishi) va yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish ijtimoiy xavfi uncha katta bo‘lmagan, lekin statsionar davolanishga muhtoj bo‘lgan ruhiy bemorlarga nisbatan tayinlanadi. Bunday shaxslarga ambulatoriya tartibida davolanishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Sud bunga ishonch hosil qilishi hamda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan bemor doimiy tibbiy kuzatuvda bo‘lishga va davolash choralarini ko‘rishga muhtojligi haqida xulosaga ega bo‘lishi kerak.

Bemorning umumiy holati hamda ruhiyatini normal holatga keltirguncha davolash kursi o‘tashni istamayotganidan kelib chiqib, umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog‘liqni tiklash maxsus bo‘limida majburiy davolanish chorasi tayinlanadi.

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo‘linmasida majburiy davolanish to‘polon qiladigan, ya’ni tajovuzkorlikka moyil, o‘ziga va atrofdagilarga zarar yetkazish mumkin bo‘lgan bemorlarga tayinlanadi. Bunday shaxslar odatda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etadilar. Sud tajovuzkorlik holatini jinoyat ishi materiallari, xususan sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasi asosida aniqlashi lozim. Shuningdek, ushbu tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi bir necha marotaba statsionar sharoitda davolangan va salbiy xulq-atvorga ega bo‘lganlarga

nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Shu bois bunday bemorlar boshqalardan batamom ajratilgan holda saqlanadilar va qo‘riqlanadilar.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini ijro etish davomida ularning amal qilish muddatini uzaytirish, o‘zgartirish va bekor qilish mumkin. Ushbu masalalarni sud ruhiy kasalliklar komissiyasining xulosasiga ko‘ra hal etadi. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash muddatining tugaganligi yoki bemor holatining ijobiy tomonga o‘zgarganligi natijasida shaxsning jamiyat uchun xavfli bo‘lmay qolganligi yoki uning sog‘ayganligi ular uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bemor ahvolining yomonlashuvi yoki tajovuzkorligining kuchayishi natijasida shaxsni ruhiy kasalliklar shifoxonasidan kuzatuvi kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yoki bo‘linmasiga o‘tkazish zarurati yuzaga kelgan holatlar hayotda uchrab turadi. Bunday sharoitda umumiy tartibli shifoxonada boshqa kasallar, xizmatchilar va tibbiyot xodimlarining xavfsizligini ta’minlash mushkul. Bu ish taqdim etilgan tibbiy hujjatlar asosida sudning ajrimiga asosan amalga oshiriladi va qonunga xilof hisoblanmaydi.

Majburiy ravishda davolanish fuqarolarning erkinliklarini cheklaganligi sababli, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llangan vaqt jazo muddatiga qo‘shib hisoblanadi. Ushbu holat shaxs uni o‘z harakatlarining ahamiyatini anglash yoki ularni boshqarish qobiliyatidan mahrum qiladigan ruhiy kasallikka jazoni o‘tash vaqtida yoxud sud hukm chiqarguniga qadar chalingan holatda ham muhim hisoblanadi. Ba’zan ruhiy bemorga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash zarurati yuzaga kelmaydigan yoki sud o‘z ajrimi bilan avval tayinlangan majburiy davolashni bekor qilgan hollar uchrab turadi. Bunday hollarda sud bemorni umumiy asoslarda yashash joyi bo‘yicha sog‘liqni saqlash organlariga ambulator hisobga qo‘yish uchun nogironlar, qariyalar uyi yoki boshqa ijtimoiy ta’minot muassasasiga joylashtirish uchun yuborishga haqlidir.

## 3. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari

Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslar jinoyat sodir etgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo‘lsa, sud jazo tayinlash bilan birga ularga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarni ham tayinlashi mumkin. Demak alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari, aqli noraso shaxslardan farqli o‘laroq, jazoga qo‘shimcha ravishda tayinlanadi.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashga aqli raso alkogolik, giyohvand yoki zaharvand shaxsning jinoyat sodir etishi asos bo‘lib xizmat qiladi. Majburiy davolash choralarini qo‘llash zarurati davolash

choralarini qo‘llamasdan turib jazoning o‘zini tayinlash shaxsning jamiyatdagi axloq-odob qoidalarini buzmasligiga va yangi jinoyat sodir etmasligiga ishonchli kafolat bo‘lmasligi bilan bog‘liq. Jazoga qo‘shimcha ravishda majburiy davolash alkogolik, giyohvand yoki zaharvandda yengib bo‘lmas xususiyatga ega bo‘lgan hamda shaxsning ijtimoiy tanazzulga yuz tutishiga olib keladigan modda yoki narsani iste’mol qilishga ruhiy moyillik mavjud bo‘lgan hollarda ayniqsa maqsadga muvofiqdir. Bunda majburiy davolash faqatgina surunkali alkogoliklarga, giyohvandlarga yoki zaharvandlarga nisbatangina qo‘llaniladi.

Aybdor shaxsning jinoyat sodir etish paytida alkogol, narkotik moddalar yoki psixotrop vositalar ta’sirida bo‘lganligi unga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asos bo‘la olmaydi. Tibbiy xulosa bilan tasdiqlangan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikkina bunga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Agar alkogolik, giyohvand yoki zaharvand ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga majburiy davolash bilan birga hukm etilgan bo‘lsa, majburiy davolash tibbiy muassasalarda (psixonevrologik dispanserlarda) amalga oshiriladi. Aqli raso alkogolik, giyohvand yoki zaharvandlarni majburiy ravishda davolash muddati qonunda belgilanmagan bo‘lib, shifokorlarning bunday davolashga zarurat qolmaganligi haqidagi xulosasiga binoan, sud tomonidan tugatiladi. Lekin davolash muddati sud tayinlaydigan ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turining muddatidan oshmasligi lozim. Alkogol, narkotik moddalar, psixotrop vositalarga moyillikning yo‘qolganligi davolashni tugatish haqidagi masalani hal etishning asosiy mezoni bo‘lib hisoblanishi lozim.

Alkogolik, giyohvand yoki zaharvand ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq jazosiga hukm qilingan hollarda ular jazoni o‘tash joyida davolanadilar. Jazo o‘tab bo‘linganidan keyin, agar davolashni davom ettirish zarur bo‘lsa, bemor umumiy asosda tibbiy muassasada davolanadi. Majburiy davolash shaxs qisqa muddat ozodlikdan mahrum qilingan hollarda amalga oshirilgani ma’qul. Majburiy davolashni, shifokor-narkologlarning fikriga ko‘ra, shaxs uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan hollarda qo‘llash maqsadga muvofiq emas, chunki uzoq vaqt mobaynida jazoni ijro etish muassasalarida bo‘lish alkogol, narkotik moddalar, psixotrop vositalarni iste’mol qilish imkoniyatidan mahrum etadi. Shu holatning o‘ziyoq ijobiy natija beradi.

Odatda alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolanish tayinlangan mahkumlar bunday davolanishning tezroq yakunlanishidan manfaatdor bo‘ladilar, chunki davolash bir qator cheklashlar bilan bog‘liqdir. Ammo belgilangan davolash muddatini o‘taganlikning o‘zi majburiy davolashning bekor qilinishi uchun yetarli emas. Uni bekor

qilish uchun davolashga zarurat qolmaganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar bo‘lishi talab etiladi.

Sud mahkumni alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikdan majburiy davolashni tugatishda, jazoni ijro etish muassasasining ma’muriyati tibbiy guvohlantirish dalolatnomasi hamda bunday davolashni tugatish lozimligini har tomonlama asoslab beruvchi boshqa hujjatlar bilan bergan taqdimnoma asosida ajrim chiqaradi. Binobarin, bunday davolashni tugatish uchun uning natijalarini tavsiflovchi tibbiy hamda mahkumning xulq-atvoridagi ijobiy o‘zgarishlardan dalolat beruvchi ijtimoiy-psixologik mezonlarni hisobga olish lozim.

**Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari nima?
2. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga nimalar kiradi?
3. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining maqsadlari qanday?
4. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash asoslari qanday?
5. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qanday shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi?
6. Vaqtinchalik ruhiy buzilish vaqtida tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlash mumkinmi?
7. Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo‘linmasida majburiy davolash kimlarga nisbatan tayinlanadi?
8. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini ijro etish davomida ularning turini o‘zgartirish, muddatini uzaytirish va bekor qilish mumkinmi?
9. Bemorning umumiy tipdagi ruhiy kasalliklar shifoxonasidan kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasi yoki bo‘linmasiga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladimi?
10. Majburiy davolash muddati jazo muddatiga qo‘shib hisoblanadimi?
11. Sud o‘z ajrimi bilan avval tayinlangan majburiy davolashni bekor qilishi mumkinmi?
12. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashga nimalar asos bo‘ladi?
13. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvanlikka chalingan shaxslarni majburiy davolash qayerda o‘tkazilishi lozim?
14. Majburiy davolashni bekor qilish uchun sudga qanday hujjatlar taqdim etilishi kerak?

**MUNDARIJA**

MUQADDIMA ..... 3
I bob. «JINOYAT HUQUQI» TUSHUNCHASI, UNING VAZIFALARI, PRINSIPLARI VA TIZIMI. JINOYAT HUQUQI FANI ..... 10
1. «Jinoyat huquqi» tushunchasi, uning vazifalari, predmeti va metodologiyasi ..... 10
2. Jinoyat huquqining prinsiplari ..... 18
3. Jinoyat huquqiga oid siyosat ..... 27
4. Jinoyat huquqi fani ..... 33
II bob. JINOYAT QONUNI ..... 43
1. Jinoyat qonuni va uning ahamiyati ..... 43
2. O‘zbekiston jinoyat qonunlarining tarixi ..... 49
3. Jinoyat kodeksining tuzilishi ..... 60
4. Jinoyat qonunlarining hudud bo‘yicha amal qilishi ..... 68
5. Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilishi ..... 78
6. Jinoyat qonunlarini sharhlash ..... 83
III bob. «JINOYAT» TUSHUNCHASI ..... 86
1. «Jinoyat» tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati ..... 86
2. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqlari ..... 92
3. Jinoyatlarni tasniflash ..... 94
IV bob. JINOYAT TARKIBI ..... 96
1. «Jinoyat tarkibi» tushunchasi va ahamiyati ..... 96
2. Jinoyat tarkibining tuzilishi. Jinoyat tarkibining elementlari va ularni ta’riflovchi belgilar ..... 98
3. Jinoyat va jinoyat tarkibining o‘zaro munosabati ..... 101
4. Jinoyat tarkibining turlari ..... 103
V bob. JINOYAT OBYEKTI ..... 107
1. «Jinoyat obyekti» tushunchasi va uning ahamiyati ..... 107
2. Jinoyat obyektining turlari ..... 109
3. Jinoyat predmeti ..... 113
VI bob. JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI ..... 116
1. «Jinoyatning obyektiv tomoni» tushunchasi va uning ahamiyati ..... 116
2. Jinoiy qilmish – harakat yoki harakatsizlik ..... 118
3. Jinoiy oqibat ..... 122
4. Ijtimoiy xavfli qilmish va jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish ..... 124
5. Jinoyat sodir etish vaqti, joyi, holati, uslubi, qurol va vositalari ..... 126
VII bob. JINOYAT SUBYEKTI ..... 131
1. «Jinoyat subyekti» tushunchasi ..... 131
2. Jinoiy javobgarlikning vujudga kelish yoshi ..... 133

3. Aqli rasolik va uning mezonlari jinoiy javobgarlikning zaruriy sharti sifatida. «Aqli norasolik» tushunchasi va uning mezonlari.....136
4. Jinoyatning maxsus subyekti.....139
VIII bob. JINOYATNING SUBYEKTIV TOMONI.....142
1. «Jinoyatning subyektiv tomoni» tushunchasi, uning belgilari va ahamiyati.....142
2. Ayb va uning shakllari.....145
3. Murakkab aybli jinoyat.....151
4. Jinoyatning motivi va maqsadi.....152
5. Yuridik va faktik xatolar, ularning jinoiy javobgarlik va jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'siri.....154
6. Aybsiz holda zarar yetkazish.....158
IX bob. JINOIY JAVOBGARLIK ASOSLARI.....160
1. «Jinoiy javobgarlik» tushunchasi.....160
2. Jinoiy javobgarlik va jinoyat huquqiga oid munosabatlar.....165
3. Jinoiy javobgarlik asoslari.....173
X bob. QASDDAN SODIR ETILGAN JINOYAT BOSQICHLARI.....176
1. Qasddan sodir etilgan jinoyat bosqichlari va turlari.....176
2. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish.....188
3. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish.....193
4. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish.....201
XI bob. JINOYATDA ISHTIROKCHILIK.....205
1. «Jinoyatda ishtirokchilik» tushunchasi.....205
2. Jinoyatda ishtirokchilik turlari.....206
3. Ishtirokchilik shakllari.....209
4. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi.....214
5. Jinoyatga daxldorlik.....216
XII bob. BIR QANCHA JINOYAT SODIR ETISH.....220
1. «Bir qancha jinoyat sodir etish» tushunchasi.....220
2. Takroran jinoyat sodir etish.....225
3. Jinoyatlar majmui.....228
4. Retsidiv jinoyatlar.....233
XIII bob. QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR.....236
Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar va ularning turlari.....236
2. Kam ahamiyatli qilmishlar.....238
3. Zaruriy mudofaa.....239
4. Oxirgi zarurat.....248
5. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish.....252
6. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish.....255

7. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik .....257
XIV bob. «JAZO» TUSHUNCHASI VA MAQSADI.....259
1. «Jazo» tushunchasi va mohiyati. Jazo belgilari.....259
2. Jazodan ko‘zlangan maqsad.....262
3. Jazoning samaradorligi va uni yuksaltirish choralari .....264
4. Liberallashtirish siyosati munosabati bilan jazo qo‘llash borasidagi o‘zgarishlar .....268
XV bob. JAZO TIZIMI VA TURLARI.....272
1. Jazo tizimi va uning ahamiyati.....272
2. Asosiy jazolar.....274
3. Qo‘shimcha jazolar .....283
4. Muayyan huquqdan mahrum qilish.....284
5. Uzoq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish .....286
XVI bob. JAZO TAYINLASH .....288
1. Jazo tayinlashning umumiy asoslari.....288
2. Jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar .....291
3. Yengilroq jazo tayinlash .....300
4. Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash.....302
5. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash.....303
6. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash .....307
7. Jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalari .....309
8. Dastlabki qamoq vaqtini hisobga olish .....310
9. Jazo muddatlarini hisoblash .....311
XVII bob. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHNING TURLARI.....313
1. Javobgarlikdan ozod qilish va uning turlari .....313
2. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish .....314
3. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish .....318
4. Aybdorning o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish.....319
5. Yarashganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish ....320
6. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish.....322
7. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.....323
XVIII bob. JAZODAN OZOD QILISH. SUDLANGANLIK .....325
1. Jazodan ozod qilish, uning turlari va uni o‘tash.....325
2. Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish.....326
3. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish.....328
4. Aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan

jazodan ozod qilish.....329
5. Shartli jazo belgilash.....331
6. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish .....334
7. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish .....337
8. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish.....339
9. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish.....340
10. Sudlanganlik .....343
XIX bob. VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI.....348
1. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi va jazolanishi shartlarining umumiy tavsifi .....348
2. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar tizimi va ularning vazifasi.....351
3. Voyaga yetmaganlarni majburlov choralarini qo‘llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish.....356
4. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish.....360
XX bob. TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI.....363
1. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari va ularning yuridik tabiati ....363
2. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining turlari, ularni tayinlash, muddatini uzaytirish, o‘zgartirish va bekor qilish.....366
3. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari.....368

**Jinoyat huquqi. Umumiy qism:** Darslik / A. S. Yakubov, **J – 26** R. Kabulov va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009. – 374 b.

Darslik oliy ta’limning 380000 – «Huquq» sohasi, 5380100 – «Yurisprudensiya» yo‘nalishi uchun «Jinoyat huquqi» fanidan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda 2009-yil 1-yanvargacha bo‘lgan qonunchilikdagi o‘zgarishlar inobatga olingan.

Darslikda jinoyat huquqining Umumiy qismiga tegishli «jinoyat huquqi» tushunchasi, uning vazifalari, prinsiplari va tizimi, jinoyat qonunchiligining funksiyalari, tuzilishi va amal qilishi, «jinoiy javobgarlik» tushunchasi, uning asoslari va boshqa masalalar yoritilgan.

Tinglovchilar, talabalar, adyunktlar va aspirantlar, shuningdek, ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliyotchi xodimlari uchun mo‘ljallangan.

**BBK 67.99(2)8**

# JINOYAT HUQUQI

## Umumiy qism

*Darslik*

Muharrirlar **B. A. Yarov, T. J. Qurbonov**
Texnik muharrir **A. A. Yuldashev**
Komp'yuterda sahifalovchi **M. R. Isametova**

---

Bosishga ruxsat etildi 09.09.2008. Nashriyot h. t. 28,5.
Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 97. Kelishilgan narxda

---

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko'ch., 68